Differentsial sun'iy yo'ldosh interferometriyasi (InSAR) kosmik mikroto'lqinli sensorlar tomonidan kuzatilganda katta to'g'onlarning ustki (tashqi qismi) siljishi va cho'kishini kuzatishga yordam beradi. Suniy yo'ldosh radar interferometriyasi elektromagnit to'lqinlari interferentsiyasi effektini ishlatgan holda fazoda elektromagnit to'lqin tarqatuvchi antenna signallarini asosida yer yuzasidagi siljishlarni ketma-ket tasvirga oladi va bir joyning bir nechta kogerent amplituda-faza o'lchovlarini matematik qayta ishlashga asoslangan.

konstruksiyani strukturaviy holatini monitoring qilish tizimlari

bir nechta datchik sensorlar va ma'lumotlarni yig'ish usullarini yagona tizimga birlashtirgan keng qamrovli konstruksiyani strukturaviy holat monitoringi deb ataladi.

strukturaviy holatni monitoring qilish (shm) – to'g'on qurilish materiallariga yoki konstruksiyasiga o'rnatilgan sensor datchiklari yordamida strukturaga og'irlik tushishi va zarar yetishi shartlarini ma'lumotlarini to'plab, ularni tahlil qilish, lokallashtirish va ularni saqlab borishiga aytiladi.

Ushbu tizim suv ombori zonasidagi to'g'on yuzasining qiyaligi va siljishini

автоматик ravishda real vaqtda kuzatish uchun GNSS avtomatik monitoring usulidan foydalanadi, uning ishlash prinsipi quyidagicha: har bir GNSS kuzatuv nuqtasi va nazorat punkti qabul qiluvchisi GNSS signalini real vaqtda qabul qiladi va uni real vaqtda ma'lumotlar tarmog'i orqali boshqaruv tizimiga yuboradi. Markaz, boshqarish markazi serveri, HCMonitor GNSS ma'lumotlarni qayta ishlash dasturi, har bir monitoring nuqtasining 3D koordinatalarini hisoblash uchun real vaqtda farqlarning kengayishi, ma'lumotlarni tahlil qilish dasturi har bir kuzatuv nuqtasining 3D real vaqtda koordinatalarini oladi va ularni dastlabki koordinatalar bilan taqqoslaydi [5].

Xulosa. Suv ombori to'g'onlari deformatsiyasini monitoring qilish ushbu asosiy tuzilmalarning xavfsizligi va mustahkamligini ta'minlash uchun juda muhimdir. Texnika va texnologiyalar rivojlanib borgan sari, deformatsiyani monitoring qilish uskunalari va jarayonlari aniqlik, samaradorlik va iqtisodiy nuqtai nazaridan yaxshilandi. To'g'on muhandislari potentsial muammolarni halokatli buzilishlarga aylanishidan oldin aniqlashlari mumkin, bu esa quyi oqim aholisi va atrof-muhit xavfsizligini himoya qiladi. Muntazam monitoring natijasida, o'z vaqtida ko'rilgan chora-tadbirlar bilan to'g'onning buzilishini oldini olish va ushbu muhim inshootlarning ishlash muddatini uzaytirish uchun juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Хиллер Б., Диссертация на соискание ученой степени кандидата технических наук. Разработка и исследование автоматизированной системы геодезического деформационного мониторинга инженерных сооружений на основе высокоточной цифровой инклинометрии и тахеометрии. (МИИГАиК). Москва., 2017.
2. Скрипникова М. А. Возможности применения автоматизированных высокоточных электронных тахеометров при измерении деформаций инженерных сооружений // ГЕОСибирь-2010. VI Междунар. науч. конгр. : сб. материалов в 6 т. (Новосибирск, 19–29 апреля 2010 г.). – Новосибирск : СГГА, 2010. Т. 1, ч. 1. – С. 131–134.
3. Авакян В.В. Прикладная геодезия [Текст]: технологии инженерно-геодезических работ / В. В. Авакян. – Москва. : Амалданик, 2012. – 330 с.
4. Peng Wang, Cheng Xing, Xiandong Pan., Reservoir Dam Surface Deformation Monitoring by Differential GB-InSAR Based on Image Subsets. Article. Published: 10 January 2020
5. Отчёт по Онлайн мониторингу деформации гидротехнических сооружений с помощью инновационных технологий GNSS «Водохранилища Тупаланг». ООО «ELLIPS UDP», 16 марта 2020 г.

Tleumuratova Gulsara Mirzabaevna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,
Geodeziya va geoinformatika kafedrası tayanch doktoranti,
Toshkent, O'zbekiston. E-mail: gulinka_22@mail.ru

QUYI AMUDARYO QIRG'OQ ZONASINING GIDROLOGIK POSTLAR TAYANCH TARMOG'INI LOYIHALASH

Annotatsiya: Asosiy e'tibor gidrologik stansiyalar yaqinida geodezik tarmoqlarini yaratish usuliga qaratiladi. Quyi Amudaryo hududidagi tayanch geodezik tarmoq punktlarini tiklash va shu asosida GNSS yordamida gidrologik postlarning planli - balandlik asosini barpo etish bo'yicha loyihalar ishlab chiqish.

Kalit so'zlari: gidrologik post, GNSS, loyihalash, reper, punktlar, triangulyatsiya, sun'iy yo'ldosh o'lchashlari.

ПРОЕКТИРОВАНИЕ ОПОРНОЙ СЕТИ ГИДРОЛОГИЧЕСКИХ ПОСТОВ ПРИБРЕЖНОЙ ЗОНЫ НИЗОВЬЯ РЕКИ АМУДАРЬИ

Аннотация: Основное внимание уделяется способу создания геодезических сетей вблизи гидрологических станций. Разработка проектов восстановления опорных пунктов геодезической сети в низовья реки Амударьи и на этой основе возведение плано-высотной основы гидрологических постов с использованием ГНСС.

Ключевые слова: гидрологический пост, ГНСС, проектирование, репер, пункт, триангуляция, спутниковые измерения.

DESIGN OF THE HYDROLOGICAL POSTS BASE NETWORK OF THE LOWER AMUDARYA COASTAL ZONE

Abstract: The main attention is paid to the method of creating geodetic networks near hydrological stations. development of projects for the restoration of geodetic network strongholds in the lower reaches of the amudarya river and, on this basis, the construction of a planned high-altitude base of hydrological posts using GNSS.

Keywords: hydrological post, GNSS, design, reference point, point, triangulation, satellite measurements.

Yaratilayotgan tarmoq punktlarining zichligi amaldagi ko'rsatmalarga muvofiq o'rnatiladi. Loyihalash jarayonida hudud bo'ylab belgilangan punktlarni bir xil joylashtirishga rioya qilish tavsiya etiladi.

Birinchi, yuqori aniqlikdagi tarmoq yaratiladi, keyin bu tarmoq punktlar orasidagi kichikroq masofalar bilan zichlashtiriladi. Tarmoq qurilishining ushbu prinsipi hududni topografik tadqiqotlar va turli muhandislik ishlari uchun zarur bo'lgan punktlar bilan ta'minlashga imkon beradi [1].

Qirg'oq zonasining tayanch geodezik tarmoqni loyihalash uchun quyidagilarni bajarish lozim:


- Ma'lumotlar to'plash (bitta tizimdagi tayanch punktlarni koordinatalari, quyi Amudaryo joylashgan hududning topografik kartasi);
- ArcMap dasturida ular bilan ishlash uchun barcha kartalarni skanerlash, olingan ma'lumotlarni qayta ishlash;
- ArcMap ga barcha boshlang'ich punktlar koordinatalarini kiritish;
- mavjud boshlang'ich punktlarni rekognostirovka qilish va ko'rsatmalar

talablariga javob berishini tekshirish;

- loyihaning to‘g‘riligiga ishonch hosil qilish uchun o‘lchovlar qilish [2].

Tadqiqot obyektimiz Nukus shahar hududida joylashgan gidrologik postlar bo‘lib, ular atrofida mavjud bo‘lgan tayanch geodezik punktlarni o‘rni 1:100000 masshtabidagi topografik kartadan aniqlandi. Topografik karta bo‘yicha 75, 85, 103, 150, 76 otmetkaga ega triangulyatsiya punktlari va 92, 75 otmetkaga poligonometriya punktlari mavjudligini ko‘rishimiz mumkin.


Quyida Amudaryo gidrologik postlarning texnik hujjatlaridagi ma’lumotlarga tayanib, 1972 yil Samanbay gidropostida №3143 reperi, 1974 yil Qizketken gidropostida №2754 reperi, 1983 yil Nietbay-tas gidrologik postida №2812 reperi tayanch geodezik tarmoklarga bog‘lash ishlari bajarilgani haqida gapirishimiz mumkin. TGT ni rivojlantirishni nazariy tomoni o‘rganib chiqish orqali, hududning 1:100000 masshtabli topografik kartasidan olingan dastlabki materiallardan foydalanib tuzilgan gidrologik postlarning reperlarini bog‘lash sxemasi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. To‘plangan materiallarni tahlil qilish natijasida gidropost reperlarini geodezik tarmoq punktlariga bog‘lash sxemasi


Gidropostlarning TGT punktlariga bog‘lashda asosiy e’tibor triangulyatsiya va poligonometriya punktlarining joyga o‘rnatilish sifatiga va reper konstruksiyasining ko‘rsatma talablariga muvofikligiga qaratilgan [3,4] To‘plangan ma’lumotlar asosida hududda har bir punkt va reporni tekshirish va rekognostirovka qilish orqali ularning joydagi holatlari teshirilishi kerak. Shu sababli, 2022 yil mart oyida 1-rasmda ko‘rsatilgan tarmoq punktlarini rekognostirovka qilish ishlari bajarildi. Rekognostirovka natijalariga ko‘ra topografik karta bo‘yicha olingan punktlarining mavjud emasligi va geodezik belgilar qazib ketilganligini ma’lum bo‘ldi (2-rasmga qarang). TGT punktlarini joyda mavjud emasligi sababli, gidrologik postlar reperlarning koordinata va balandliklarini aniqlash bir qancha muammolarni yuzga keltiradi. Reperlarning

koordinatalarini va balandliklarini triangulyatsiya va poligonometriya usullari bilan aniqlash uchun bizga boshlang'ich punktlar zarurdir. Shuning uchun, gidrologik postlar atrofida alohida tayanch geodezik tarmog'ini yaratish masalasi yuzaga keladi.



2-rasm. Rekognosirovka jarayoni (102 m otmetkaga ega triangulyatsiya punkti joylashgan o'rni)

Yuqoridagi muammolarni e'tiborga olib, hozirgi paytda keng tarqalgan usullardan biri sun'iy yo'ldosh usuli bilan quyi Amudaryo qirg'oq zonasining TGT loyihasining 2 xil modeli ishlab chiqildi.



3-rasm. Geodezik tarmoq qurish uchun modellar. a) bitta tayanch punktiga bog'langan tarmoq sxemasi. b) ikkita tayanch punktiga bog'langan tarmoq sxemasi

3 (a)-rasmda keltirilgan birinchi loyiha modelida bitta boshlang'ich tayanch punkti olingan. Bu punkt (GUGK 9117) Qizketken va Niyatbay-tas gidropostlariga yaqin joylashgan bo'lib, o'rni ko'rsatmasi talablariga javob beradigan geodezik markaz bilan mahkamlangan. Ma'lumotlar O'zGAShKLITI

Nukus filiali geodeziya bo'limidan olingan. 3 (b)-rasmdagi loyiha modeliga keladigan bo'lsak, bu loyiha ikkita boshlang'ich punktga bog'langan. Birinchisi GUGK 9117 bo'lsa, ikkinchisi Nukus sun'iy yo'ldosh tarmog'ining CORS punkti hisoblanadi. O'zbekiston sun'iy yo'ldosh tarmog'ining Nukus shahri joylashgan baza punktining ma'lumotlari Respublika Aerogeodeziya markazi Nukus filiali geodeziya bo'limidan olindi va qirg'oq zonasi TGT tarmog'ini yaratishda birgalikda o'lchash ishlari olib borildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирмахмудов, Э.Р., Ниязов, В.Р., Аралов, М.М. (2021). Проектирование геодезической сети сгущения в окрестности промышленных объектов. Инновационные научные исследования, (5-1), 211-219.
2. Мустафин, М.Г., Юнес, Ж.А. Оценка результатов спутниковых определений пунктов геодезической сети с различными сеансами наблюдений/ М.Г.Мустафин, Ж.А. Юнес // Известия вузов «Геодезия и аэрофотосъемка».—Москва. — 2018. — Т. 62. — №1. — С. 23-26
3. Руководящий технический материал по построению государственной спутниковой геодезической сети 1-го класса с применением спутниковых навигационных систем. Издание официальное. ГККИНП-01-024-99, Ташкент, 1999 г. — 52 с.
4. Руководящий технический материал по применению геодезических спутниковых приемников при создании и реконструкции сетей сгущения, ГККИНП-01-014-98, Ташкент, 1998 г. — 48 с.
5. Шануров Г.А., Епишин В.И., Остроумов В.З. Определение высот урвенных постов спутниковым методом. Геопрофи, 2004. № 4. С. 11-17.

Мукаррамов Рамазон Хусинович

Тошкент давлат транспорт университети,
Кўприклар ва тоннеллар кафедраси ассистант,

Казакбаева Муҳаббат Турабоевна

Кўприклар ва тоннеллар кафедраси ассистант,

Пармонов Алимардон Қахрамон ўғли

Кўприклар ва тоннеллар кафедраси

Геодезия ва геоинформатика йўналиши 2 – босқич талабаси

Тошкент, Ўзбекистон. E-mail: ramazon_19920308@mail.ru

КЎЧКИЛАРНИ СИЛЖИШИНИ ГЕОДЕЗИК ТАРМОҚЛАР ВА ПУНКТЛАРНИ ЖОЙДА МАҲКАМЛАШ ОРҚАЛИ КУЗАТИШ ҲАҚИДА

Аннотация: Мақола ер кўчкилари ёки уларни силжишлари ҳолатини кузатилиши каби хавфли геологик жараёнларнинг олдини олиш учун жойда планли – баландлик геодезик тармоқ пунктларини ҳосил қилиш ишларига бағишланган бўлиб, унда бажариладиган ишлар таркиби, кўчки кузатув нуқталарининг силжишини доимий назорат этиш учун барпо этиладиган тармоқ пунктларини яратиш тўғрисида методикаси келтирилади. Ундан ташқари ўтиб бўлмас масофаларда геодезик тармоқ пунктларини ҳосил қилиш тўғрисида ҳам методикаси келтирилиб ўтилади.

Калит сўзлар: кўчки, таянч геодезик тармоқ, триангуляция, геодезик тўртбурчак, планли таянч геодезик тармоқ, баландлик таянч геодезик тармоқ, репер.

О ЗАКРЕПЛЕНИЕ ПО МЕСТУ ГЕОДЕЗИЧЕСКИХ СЕТЕЙ И ПУНКТОВ ДЛЯ НАБЛЮДЕНИЯ СДВИГА ОПОЛЗНЕЙ

Аннотация: Статья посвящена формированию локальных точек геодезической сети для предотвращения геологических процессов, таких как оползни или большие деформации, и предоставляет методологию для создания точек сети для постоянного мониторинга движения лавинных участков. Кроме того, описана методология создания точек геодезической сети на непроходимых расстояниях.

Ключевые слова: оползень, опорная геодезическая сеть, триангуляция, геодезическая прямоугольная плановая опорная геодезическая сеть, высотная опорная геодезическая сеть, репер.

ABOUT OBSERVATIONS OF LANDSLIDE SHIFTS FIXATION IN PLACE OF GEODETIC NETWORKS AND POINTS

Abstract: The article is devoted to the formation of on-site geodetic network points to prevent geological processes such as landslides or large deformations, and provides methodology for establishing network points to continuously monitor the movement of avalanche sites. In addition, the methodology for the creation of geodetic network points at impassable distances are described.

Keyword: landslide, base geodetic network, triangulation, geodetic rectangular, planned base geodetic network, height base geodetic network, reпер.

Кириш. Ер кўчкилари (ўпирилишлари) каби геологик ҳодисаларнинг инженерлик иншоотларига кўрсатадиган салбий таъсири, уларни катта деформацияларга чалинишига ёки умуман бузилиб кетишига олиб келиши мумкин. Шунинг учун кўчки жараёнларининг фазо ва вақт бўйича

хусусиятлари мураккаб инженерлик иншоотлари: йирик магистрал темир йўллари ва автомобил йўлларини, турли хил электр станцияларини, йирик нефт ва газ қувур ўтказгичларини, теле ва радиоалоқани узлуксиз таъминловчи минорасимон иншоотларни, ўта баланд биноларни лойиҳалаш, қуриш ва эксплуатация қилишда тўла-тўқис ҳисобга олинади.

Асосий қисм. Ҳозирги вақтда кўчкларни башорат қилиш муаммолари биринчи ўринда туради. Бу масалани кўчкларни узоқ муддат давомида батафсил ўрганмасдан ҳал қилиб бўлмайди. Кўчкларни ўрганиш борасидаги энг асосий масалалардан бири – бу кўчишга мойил ёнбағирларда геодезик усуллар билан мунтазам кузатув ишларини олиб бориш учун мавжуд услубларни такомиллаштириш ҳамда янги усулларни ишлаб чиқишдан иборат. Кўчклар жараёнларининг механизми ва динамикаси ҳақида хулосаларнинг аниқлиги ва батафсиллиги кўп жиҳатдан геодезик кузатувлар натижасида олинган маълумотларни тўлиқлиги ҳамда ишончлилигига боғлиқ.

Кўчкларни геодезик усуллар билан кузатиш учун махсус планли-баландлик таянч тармоқлари яратилади. Ўпирилишга мойил ёнбағирларда бундай тармоқларни барпо этишнинг асосий тамойили – кўчки нукталарининг силжишини аниқлаш қўйишларини таъминлашдан иборат [1], [2]. Бунда ўпирилувчи ёнбағирлардаги ўлчаш шароитларига қараб бошқа юқори класс геодезик тармоқларини яратиш услубига нисбатан ўзига хосликлари билан ажралади. Ушбу ўзига хос томонларини келтириб чиқарувчи қуйидаги асосий омиллардан иборат:

1) ўпирилишга мойил ёнбағирларда яратиладиган таянч геодезик тармоқларининг томон узунликлари давлат геодезик тармоқларидагига нисбатан анча қисқа, шу боис марказлаштириш ва редуциялаш хатоларининг ўлчаш натижаларига таъсири каттароқ бўлади;

2) кўриш нурларининг қиялиги катта бўлгани учун, асбоб хатоларининг таъсири ҳам ортади;

3) табиий шароитлар, дарахтзор ва ўрмонларни, биноларни кўплиги ёнбағирда ҳарорат майдонлари тез-тез ўзгариб турадиган микроклимат ҳосил қилади, бу эса кўриш нурларини эгилишига ва пировардида ўлчаш натижаларини ёмонлаштиради.


Таянч геодезик тармоқлар бир неча йил давомида фойдаланишга мўлжалланиши керак. Уларни бузилиш ҳолатлари рўй берганда, тиклаш ишларини амалга ошириш жараёнида аввалги ўлчаш ишлари билан мувофиқлаштириш мақсадида янги йўналишларни эскиларга тўғрилаб олиш учун юқори аниқлик билан тузатилган бурчаклар ҳисобланиши лозим.

Барча таянч геодезик пунктлар ўзаро боғланиб, геодезик учбурчаклар, тўртбурчаклар ёки марказий тизимлардан иборат кузатув таянч тармоғини ташкил этади. Бу тармоқлар давлат ёки шаҳар триангуляция таянч тармоғига боғланган ёки мустақил бўлиши мумкин.


Мустақил планли таянч геодезик тармоғи триангуляция, трилатерация ёки чизикли-бурчакли тармоқ усулларида ривожлантирилиши мумкин. Аммо [1], [3] ишларда баён этилган тадқиқотлар натижасига кўра чизикли-бурчакли тармоқлар бошқаларга нисбатан анча катта афзалликларга эга экан.

Уларнинг аниқлиги учбурчаклар шаклига камроқ боғлиқ бўлгани сабабли, бундай тармоқ пунктларини кузатув ишларини олиб бориш учун қулай жойларга ўрнатишга имкон беради. Аммо чизикли-бурчакли тармоқларда бурчак ва чизик ўлчаш аниқликлари бир-бирига мувофиқ бўлишининг аҳамияти жуда катта.

[1] да намунавий геодезик тармоқ сифатида геодезик тўртбурчаклар қатори кўринишидаги тармоқ тавсия этилади (1-расм). Узунлиги кичик бўлган кўчкиларда битта геодезик тўртбурчакнинг ўзи кифоя (2-расм).




1-расм. Икки геодезик тўртбурчакдан ташкил топган планли таянч геодезик тармоқ схемаси




2-расм. Битта геодезик тўртбурчакдан ташкил топган планли таянч геодезик тармоқ схемаси

Ўлчаш ишлари дарё қирғоқлари ёнбағирларида олиб борилганда, таянч пунктлар қарама-қарши (барқарор) қирғоқда жойлаштирилади. Бундай ҳолларда қўшимча пунктлар чизикли-бурчакли (1, 2, 3, 4) усулда ёки кесиштириш усулларида (5, 6, 7, 8) аниқланади (3-расм).



3-расм. Дарё ёнбағирларидаги таянч тармоғи схемаси

Баландлик таянч геодезик тармоқ схемасига кўра унинг пунктлари (реперлари) ўпирилишга мойил ёнбағир бўйлаб бир маромда жойлаштирилади. Шу билан бирга, камида учта репер мустахкам жойга ўрнатилиши лозим (4-расмга қаранг).



4-расм. Баландлик таянч геодезик тармоқ схемаси

Реперлар ёки таянч кузатув пунктлар доимий геодезик белги бўлиб, уларни узунлигининг асосий қисми ер сатҳидан пастда жойлашади. Уларнинг чуқурлиги, одатда, грунтни музлаш чуқурлигидан кам бўлмаслиги керак. Пунктларни ўрнатиш жойларини ҳамда махсус планли-баландлик тармоқлари пунктларини ўрнатиш бўйича тегишли технологияни танлаш кўчки жараёнларининг режимини ўрганишни умумий комплексининг энг масъулиятли босқичларидан бири ҳисобланади. Бунда пунктлар маркази ва ташқи белгиларининг ўзига хос конструктив хусусиятларига алоҳида аҳамият берилади.


Батафсил рекогносцировка жараёнида таянч пунктлар ўрни танлаб олингандан сўнг улар ишчи чизмаларга мувофиқ жойга ўрнатилади. Танланган жойлар осон бора олиндиган, атрофи очик, барқарор грунтларда ҳамда ўпирилишга мойил участкаларнинг қирраларида бўлиши керак. Репер асоси инженер-геолог кўрсатган тоғ жинсларининг деярли сиқилмас қатламларида жойлаштирилади.

Планли таянч геодезик тармоқ белгиларининг конструкцияси асбоб ҳамда визир нишонларни мажбурий марказлаштиришга имкон яратувчи бўлгани мақсадга мувофиқ, чунки бунда дала ўлчаш ишлари анча осонлашади ва ўлчаш аниқлиги ошади [4], [5], [6].


5-расмда планли-баландлик таянч тармоқ пунктларининг энг қулай конструкцияларидан бири кўрсатилган. Белгининг устки қисмидаги

майдончада теодолитни штативга маҳкамлаш винти диаметрига мос тешик пармаланади. Бундай майдончалар зангламайдиган пўлатдан ясалган бўлиши керак.


Репердан отметкани узатиш учун зангламайдиган материалдан ишланган штангага маҳкам қотирилган махсус рейка ишлаб чиқарилади (6-расм). Штанганинг диаметри белгининг устки қисмидаги майдонча тешиги диаметридан 0,2–0,3мм кичикроқ бўлиши лозим. Белги қувурининг деворида иккита дарча қирқиб очилади: биттаси маҳкамлагич винтни бураш учун, бошқаси эса штанга репер бошчасига тўғри ўрнатилганини кўриш учун.




5-расм. Планли-баландлик белги: 1-бетон свай; 2- репер лангари; 3-репер бошчаси; 4- ташқи белги; 5-конуссимон тешик



7-расм. Пирамида



6-расм. Штангага маҳкамланган рейка




8-расм. Свайли репер:

1–лангар; 2–бетон свай; 3–репер қувури; 4–гидроизоляция; 5–қум; 6–бетон ҳалқа; 7–отмостка; 8– люк қопқоғи; 9–ёғоч қопқоқ; 10–репер бошчаси

Қоя тошли асосларда металл қувур ёки бурчакли темир пайвандланиб, ясалган пирамидалар ўрнатилгани маъқул (7-расм). Пирамиданинг юқори майдончасининг конструкцияси 5-расмда кўрсатилган белгидаги конструкция билан бир хил. Қоя тошли репер 3 майдонча 2 тешигининг маркази билан бир вертикал чизикда жойлаштирилади. Белгилар баландлиги 1,2–1,3м атрофида бўлиши керак. Асбобни ўрнатишга мўлжалланган майдонча цилиндрик адилак ёрдамида горизонтал ҳолатда ўрнатилади.

Кўчки жараёнлари содир бўладиган зонадан ташқарида ўрнатиладиган чуқурлик реперлар бурғулаб қоқилган свайлар кўринишида бўлгани маъқул (8-расм).

Агар чуқурлик реперлари кўчки содир бўладиган худудда ўрнатилса, репер қувири ҳимояловчи қувур билан атроф муҳитдан ҳимояланади (9-расм).



9-расм. Штангали репер: 1 – репер лангари (якори); 2 – репер қувири; 3 – ҳимояловчи қувур; 4 – резинали муфта; 5 – шағал; 6 – бетон; 7 – гидроизоляция; 8 – бетон ҳалқа; 9 –отмостка; 10 – люк қопқоғи; 11– ёғоч қопқоқ

Хулоса. Ер кўчиши жараёнлари режимини ўрганиш умумий мажмуининг энг муҳим босқичларидан бири – бу махсус планли-баландлик таянч геодезик тармоқлар пунктлари учун жой танлаш ҳамда уларни ўрнатишда тегишли технологияга риоя қилишдир. Бунда геодезик пунктларининг ер ости марказларига ҳамда ташқи белгиларининг конструктив хусусиятлари муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Григоренко, А.Г. О створных наблюдениях на оползневых склонах Текст. / А.Г. Григоренко // Геодезия и картография. 1986. - №11. -С.12-13.
2. Симонян, В.В. Расчет точности геодезических наблюдений за смещениями на оползневых склонах Текст. / В.В. Симонян // Землеустройство, кадастр и мониторинг земель. 2007.-№ 9.- С. 84-87.
3. Батраков, Ю.Г. Геодезические сети специального назначения Текст. /Ю.Г. Батраков.- М.: Картгеоцентр-Геодезиздат, 1998.- 407 с.
4. Большаков, В.Д. Теория математической обработки геодезических измерений Текст. / В.Д. Большаков, П.А. Гайдаев.- 2-е изд., перераб. и доп. М.: Недра, 1977.- 367 с.
5. Большаков В.Д. Практикум по теории математической обработки геодезических измерений Текст. / В.Д. Большаков, Ю.И. Маркузе.-М.: Недра, 1984.-352 с.
6. Гуляев, Ю.П. Прогнозирование как составляющая геодезического мониторинга природно-технических систем Текст. / Ю.П.Гуляев.

Adambayev Alisher Ravshanbek o'gli

Urganch Davlat Universiteti.

Geodeziya kartografiya va kadastr kafedrası doktoranti

Xorazm, O'zbekiston. E-mail: adambayev1994@gmail.com

GIDROPOSTLARDA GNSS YORDAMIDA DASTLABKI O'LGHASHLARNI AMALGA OSHIRISH

Annotatsiya: Maqolada klassik va sun'iy yo'ldosh usullaridan foydalangan holda gidro postlarning koordinatalarini aniqlash metodologiyasi tadqiq qilingan. Amudaryoning quyi oqimidagi gidrologik stansiyalarning planli va balandlik asoslarini aniqlash masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda navigatsiya o'lchovlari GNSS qabul qiluvchisi yordamida qirg'oq zonasining 2 ta postida amalga oshirildi. O'lchov natijalariga ko'ra to'rtburchaklar koordinatalari va global ellipsoidga nisbatan balandlik qiymatlari hisoblab chiqilgan. Kelgusida O'zbekiston milliy geodeziya koordinatalari tizimiga tayangan holda qirg'oqbo'yi zonasining GNSS tarmog'ini qurish taklif qilingan.

Kalit so'zi: GNSS, DGPS, RTK, DOP, DGT, SK42.

ПРОВЕДЕНИЕ ПЕРВОНАЧАЛЬНЫХ ИЗМЕРЕНИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ГНСС НА ГИДРОПОСТАХ

Abstract: The methodology of determining the coordinates of hydro stations using classical and satellite methods is studied in the article. The problems of determining the plan and height bases of the hydrological stations in the lower reaches of the Amudarya have been analyzed. In the study, navigation measurements were made using a GNSS receiver at 2 posts of the coastal zone. Based on the measurement results, rectangular coordinates and height values relative to the global ellipsoid were calculated. In the future, it is proposed to build a GNSS network of the coastal zone based on the national geodetic coordinate system of Uzbekistan.

Keywords: GNSS, DGPS, RTK, DOP, DGT, SK42

MAKING INITIAL MEASUREMENTS USING GNSS IN HYDROPOSTS

Аннотация: В статье изучается методология определения координат гидростанций с использованием классических и спутниковых методов. Проанализированы проблемы определения плоскости и высоты гидрологических станций в нижнем течении Амударьи. Для исследования навигационные измерения были произведены с помощью приемника ГНСС на двух постах в прибрежной зоне. На основе результатов измерений были рассчитаны прямоугольные координаты и значения высоты относительно глобального эллипсоида. Предполагается в будущем построить сеть ГНСС прибрежной зоны на основе национальной геодезической координатной системы Узбекистана.

Ключевые слова: ГНСС, ДГПС, РТК, ДОП, ДГТ, СК42.

Kirish. So'nggi paytlarda sun'iy yo'ldosh altimetri va Global navigatsiya sun'iy yo'ldosh tizimi (GNSS) yordamida daryolar sathini aniqlashga, shuningdek, suv resurslaridan optimal foydalanishni izlashga qiziqish ortdi. Sohilbo'yi zonalarida turli gidrotexnik inshootlarni loyihalash va qurish hamda O'zbekiston daryolari havzalarining ekologik holatini monitoring qilish sohasidagi amaliy muammolarni hal qilish uchun daryolarning gidrologik

xususiyatlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lish zarur. Bu ma'lumotlarni Yerni masofadan zondlash va sun'iy yo'ldosh joylashuvini aniqlash usullari yordamida aniqroq va tezroq olish mumkin. Suv balansi pasayib borayotgan bir sharoitda irrigatsiya va melioratsiya uchun suv iste'moli katta ahamiyatga ega bo'lgan joylarda yangi texnologiyalarni joriy etish ayniqsa muhimdir. Mavjud klassik gidrologik stantsiyalar tarmog'i to'liq modernizatsiya va rekonstruksiya qilishni talab qiladi, chunki o'lchovlar va aniqlik talablari ortdi. Odatda, o'rnatish uchun ham, koordinatalarni aniqlash uchun ham gidro postlarga maxsus talablar qo'yiladi [1].

O'tgan asrning 90-yillari boshlarigacha yer yuzasi va qirg'oq zonasidagi nuqtalarning koordinatalari triangulyatsiya va nivelirlash usullari bilan aniqlangan. Asosiy postdagi o'rtacha uzoq muddatli darajaga nisbatan ustunning nol nuqtasining balandligini aniqlash geometrik yoki gidrostatik tekislash usullari yordamida amalga oshirildi [2]. Topografik xaritalarning kartografik proyeksiyasining dastlabki ma'lumotlari bo'lgan geodeziya tarmog'ining nuqtalariga planli va balandlik ma'lumotnomasi bu o'lchovlar uchun zaruriy shart edi. Vaqt o'tishi bilan xaritalarning matematik asoslari plitalarning global va mahalliy tektonik siljishi tufayli o'zgardi, bu mavjud koordinatalar tizimini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.


Maqsad. GPS qabul qiluvchilardan geodeziya va kartografiyada foydalanilgandan so'ng ularni gidrografik ishlarda qo'llash g'oyasi paydo bo'ldi. Shu munosabat bilan bir qator hal etilmagan texnik muammolar paydo bo'ldi: Boltiqbo'yi balandliklar tizimida olingan ko'rsatkichlarning balandliklarini aniqlashtirish, klassik koordinatalarni umumiy yer usti tizimiga aylantirish, qirg'oq zonalar uchun GNSS ishlashi uchun meyoriy-texnik hujjatlarning yo'qligi sababli gidropostlarda GNSS o'lchashlarni ishlashni maqsad qilib oldik

GNSS stantsiyalaridagi o'lchash muammolari. Hidrometeorologiya xizmati bosh boshqarmasining suv sathini qayd qiluvchi va reperlari o'rnatilgan gidrologik stantsiyalar bo'lib, ularning koordinatalari aniqlik va barqarorlik bo'yicha yangi talablar asosida aniqlanishi kerak. Hidropost yonida joylashgan reperlar talabga javob bermaydi. Suv o'lchash reykalari deformatsiyaga uchragan va ma'lumot olish uchun yaroqsiz holga kelgan (1-rasm).

Davlat geodezik tarmog'i nuqtalarining geografik koordinatalari va Hidrometeorologiya xizmati bosh boshqarmasi reperlari triangulyatsiya va poligonometriyaga asoslangan SK42 koordinata tizimida olingan. Reper balandligi nivelirlash (2-rasm) usuli bilan olingan [3].



1-rasm. Suv o'lchash reykasi



2-rasm. Nivelirlash jarayoni


O'lchash usullar. Amudaryoning quyi oqimida joylashgan 2 ta qirg'oq zonasi Tuyamo'yin va Qipchoq gidrologik stansiya tanlab olindi. Gidrologik stansiya yaqinidagi geodeziya tarmog'i mahalliy koordinatalar tizimida qo'shni nuqtalarning nisbiy o'rnini aniqlashda yuqori aniqlik bilan tavsiflanadi. Oxirgi marta bu tarmoq 1980 yilda Geodeziya va kartografiya bosh boshqarmasiga qarashli 12-sonli korxonada triangulyatsiya va tekislash asosida qayta tenglashtirilgan. Bo'ylama-ko'ndalang Gauss-Kruger proyeksiyasidagi to'g'rilangan to'rtburchaklar koordinatalar va ortometrik balandliklar maxsus koordinatalar katalogida saqlanadi. Tabiiyki, ushbu ma'lumotlarga ochiq kirish ishning o'ziga xosligi va topografik xaritalarning aniqligi tufayli cheklangan. Biroq, gidrologik stansiya yaqinida joylashgan triangulyatsiya va tekislash nuqtalari global navigatsiya sun'iy yo'ldosh tizimlari (GNSS) uchun ishlatilishi mumkin.[4]

GNSS o'lchashlar 2 xil usulda bajariladi. Bu usullar: Absolyut va differensial usullardir.

O'lchashlarni Differensial rejim (DGPS) obyekt koordinatalarini yuqori aniqlikda topishga qaratilgan. U eng kamida ikkita qabul qilgichdan foydalanishga asoslangan bo'lib, ulardan biri koordinatalari ma'lum punktda o'rnatiladi va bazaviy stansiya deyiladi, ikkinchisi harakatdagi stansiya rover hisoblanadi va u aniqlanadigan nuqtalarga o'rnatiladi.

Amudaryoning quyi oqimida joylashgan 2 ta gidro postlar tanlab olindi. Tuyamo'yin va Qipchoq gidro postlarida GNSS o'lchash ishlari olib borildi (3-rasm). Dastlabki balandligi ishchi va nazorat reperlariga nisbatan geodezik usul bilan aniqlanishi kerak. Ushbu nuqtalarda o'lchovlari o'tkazilmaganligi sababli, birinchi vazifa GNSS navigatsiya qabul qilgichini sun'iy yo'ldoshlardan signal qabul qilish uchun sinovdan o'tkazish. Muammoni hal qilish uchun CHCNAV i 90 GNSS qabul qiluvchisi yordamida navigatsiya o'lchovlari o'tkazildi. GNSS o'lchovlari davrida bazaviy stantsiya Davlat geodezik tarmog'i punktida joylashtirdik va rover gidro postlar reperlariga o'rnatildi. O'lchovlar bir daqiqa

davom etgan real vaqtda (RTK) amalga oshirildi.



3-rasm. K-41 nomenklaturli topografik qirqim kartasi

O‘lchash natijasi. Sinov o‘lchovlari sifatida Hidrometeorologiya xizmati bosh boshqarmasining Tuyamo‘yin va Qipchoq gidrologik postlarining asosiy va ishchi reperlari tanlangan. 2024-yilda “Geodeziya, kartografiya va kadastr” kafedrasida xodimlari CHCNAV i90 GNSS navigatsiya qurilmasi yordamida o‘lchovlarini amalga oshirdi.

Geodezik nuqtani o‘lchashda DOP aniqligining asosiy ko‘rsatkichi tashqi omillar ta’sirida sun‘iy yo‘ldoshdan signallarni qabul qilish shartlariga javob bermadi. Biroq, asosiy va ishchi ko‘rsatkichlarni o‘lchashda, yaqin atrofda elektr uzatish liniyalari, daraxtlar mavjud bo‘lsada, aniqlik ko‘rsatkichi yaxshi bo‘lib chiqdi.

Tahlil va xulosa. O‘lchov natijalariga ko‘ra, Gauss-Kruger xaritasi proyeksiyasidagi koordinatalar va WGS84 ga nisbatan balandliklar CHCNAV I 90 ga o‘rnatilgan dastur yordamida olingan (1-jadval). Dastur koordinata tizimlari o‘rtasida o‘qning egilish bo‘lmaganda koordinatalarni o‘zgartirishga imkon beradi.

Hisoblangan o‘rtacha qiymatdan koordinatali og‘ishlar mavjudligini aniqlash uchun dispersiya tahlili o‘tkazildi. Dispersiya o‘lchangan qiymatning eng muhim raqamli xususiyatlaridan biri sifatida hisoblangan koordinatalarning o‘rtacha qiymat atrofida tarqalishini taxmin qilish imkonini beradi. [5]. Tarqalishni baholashda o‘rtacha qiymat har doim ham yaxshi natija bermaydi, chunki o‘lchovlar yoki hisob-kitoblar natijalari sezilarli darajada tekislanadi va katta og‘ishlar kamroq seziladi, ayniqsa sezilarli miqdordagi geodezik o‘lchovlar bilan. Kuzatishlar ma’lum vaqt oralig‘ida amalga oshirilganligi sababli, ko‘rib chiqilayotgan holatda o‘lchovlar soni ortib borishi bilan normal taqsimot qonuniga intiluvchi talabalar taqsimoti qo‘llaniladi. Kerakli o‘lchovlar sonini aniqlash uchun katta sonlar qonuni yoki Laplas teoremasidan foydalanish kerak


1-jadval

GNSS asosida o'lgan "Tuyamo'yin" va "Qipchoq" Hidrologik postlarning koordinatalari

Gidropost nomi	X _{CK-42}	Y _{CK-42}	H
Tuyamo'yin	4566533,488	360365,200	117,057
Tuyamo'yin	4566533,519	360364,734	116,696
Tuyamo'yin	4566533,535	360365,481	116,876
Tuyamo'yin	4566533,315	360364,145	116,506
Tuyamo'yin	4566533,609	360365,318	116,686
Qipchoq	4680938,507	261790,002	84,891
Qipchoq	4680938,808	261787,186	84,651
Qipchoq	4680938,781	261788,349	84,751
Qipchoq	4680938,765	261770,565	84,642
Qipchoq	4680938,910	261782,936	84,706

Katta sonlar qonuniga ko'ra, aniqlik qanchalik yuqori bo'lsa, nol atrofidagi xatolar shunchalik yaqinroq guruhlanadi. Aniqlik qiymati barcha natijalar bir xil iqlim sharoitida olingan bo'lsa, Bessel formulasi yordamida hisoblanadi:

$$\sigma_x = \pm \sqrt{\frac{[(x_i - x_{o'rtacha})^2]}{n-r}} \quad x_{o'rtacha} = x_0 + \frac{[\varepsilon]}{n} \quad \varepsilon_i = x_i - x_0$$



4-rasm. "Tuyamo'yin" nuqtasining koordinatalarini o'zgartirish X, Y, H o'qlari bo'ylab

Xatolar va shunga o'xshash hisoblab chiqiladi, bu yerda GNSS yordamida olingan o'lgan qiymatlar, $\sigma_{o'rtacha}$ - o'lgan qiymatlarning o'rtacha qiymati

(matematik kutish), n - o'lchovlar soni, r - aniqlangan qiymatlar soni. "Tuyamo'yin" mos yozuvlar nuqtasi uchun Gauss-Kruger proyeksiyasidagi to'rtburchaklar koordinatalarining o'rtacha kvadrat xatosi quyidagicha chiqdi: $\sigma_x = \pm 0,03m$, $\sigma_y = \pm 0,08$, $\sigma_h = \pm 0,03m$ (4-rasm) xato qiymati. "Y" koordinatasi qolgan koordinatalarga nisbatan yuqoriroq bo'lib chiqdi, bu geodezik o'lchovlarni matematik qayta ishlash nazariyasiga muvofiq qabul qilinishi mumkin emas. Ko'rinib turibdiki, qo'pol o'lchovlarni aniqlash uchun takroriy kuzatishlar o'tkazilishi kerak.

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, vaqt o'tishi bilan og'ishning kattaligi uchta komponent uchun ma'lum bir chiziqli tendentsiyaga ega. Bu kuzatuvlar sonining geodezik o'lchovlarni qayta ishlashning dastlabki bosqichida qabul qilingan dispersiya qiymatiga bilan bog'liq. Kelgusida navigatsiya o'lchovlari O'zbekistonning asosiy daryolarining barcha gidrologik postlarida sun'iy yo'ldosh geodeziya tarmog'iga tayangan holda amalga oshirilishi kerak.

Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, GPS o'lchovlari va reperlarning aniqligini oshirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari O'zbekistondagi barcha gidro postlarni modernizatsiya qilish uchun asos bo'ladi, degan xulosaga kelish mumkin. GNSS yordamida daryo sathining doimiy monitoringini tashkil etish uchun qirg'oq zonasi uchun geodezik ta'minot tizimini klassik o'lchovlar va gidrologik postlarni razvedka qilish materiallarini tahlil qilishdan boshlash taklif etiladi. Taklif etilayotgan tavsiyalarni amalga oshirish Yerni masofadan zondlash ma'lumotlari va geografik axborot texnologiyalaridan foydalanmasdan imkonsizdir. Daryolar sathini o'rganishning yangi usullaridan foydalanish moliyaviy xarajatlarni kamaytiradi va amaliy ahamiyatga ega va dolzarb bo'lgan aniq ma'lumotlarni oladi. O'lchangan qiymatlarni qayta ishlash natijasida olingan raqamli xususiyatlarni baholash nafaqat gidrologik tadqiqotlarda, balki qirg'oq zonasida muhandislik qidiruv ishlarida ham foydali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Руководящий технический материал. Высотная привязка уровенных постов (ГКИНП 03215 88). М.: ЦНИИГАиК, 1988. С. 41
2. Шануров Г.А., Епишин В.И., Остроумов В.З. Определение высот уровенных постов спутниковым методом // Геопрофи, 2004. № 4. С. 11-17.
3. Инструкция по нивелированию I, II, III и IV классов. М.: Недра, 1974.
4. Остроумов В.З., Шануров Г.А., Масленников А.В. Повышение точности определения высот уровенных постов // Геодезия и картография, 2003. № 11. С. 25-29.
5. Mirmaxmudov Erkin Rahimjanovich¹, Adambayev Alisher Rafshanbek ugli² (Tashkent, Uzbekiston)¹, (Urganch, Uzbekiston)² Gidropostlarning koordinatalarini GNSS bilan o'lchashda PDOP ning tasiri. // National academy of scientific and innovative research «science and education: modern time» 2024. № 8. С. 47-50.

Hasanov Shaxzod Inadullayevich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,

Geodeziya va geoinformatika kafedrası o'qituvchi

Toshkent, O'zbekiston. E-mail: shaxzod140596@gmail.com

KARYER ATROFIDAGI TOPOGRAFIK GEODEZIK TA'MINOTLARNI TAHLIL QILISH (OKMK MISOLIDA)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Olmaliq kon-metallurgiya kombinati (OKMK) karyeri hududi yon atrofining topografik geodezik ta'minlanishi, ya'ni hudud necha ming masshtabli topografik kartalar bilan ta'minlangan hamda kartalardagi ma'lumotlar hozirgi kungi talabga qanchalik mos, ularni sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari asosida hamda joyga borib rekognosirovka ishlarini olib borgan holda hududga oid topografik geodezik ma'lumotlarni raqamlashtirish hamda yangilash uchun nima ishlarni olib borish kerak. Shuningdek, bungacha karyer hududlari ustida ish olib borgan chet ellik hamda o'zbekistonlik olimlar ishlari bilan tanishib chiqib tahlil qilish ishlarini bajarish jarayonlari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: topografik karta, DGT, GNSS, Marksheyderlik punktlari, (RRM) OKMK, (GAT), CATS.

АНАЛИЗ ТОПОГРАФО-ГЕОДЕЗИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ВОКРУГ КАРЬЕРА (НА ПРИМЕРЕ АГМК)

Аннотация: В данной статье рассмотрено топографо-геодезическое обеспечение окрестностей карьера Алмалыкского горно-металлургического комбината (АГМК), то есть местность обеспечена топографическими картами в несколько тысяч масштабов, а также насколько информация на картах соответствует сегодняшним требованиям, и как они искусственны. Что необходимо сделать для оцифровки и обновления топогеодезических данных местности на основе данных спутника и проведения рекогносцировочных работ. Будут разъяснены процессы анализа работ зарубежных и узбекских ученых, работавших до сих пор на карьерных территориях.

Ключевые слова: топографическая карта, ГГС, ГНСС, Маркшейдерские пункты, ЦМР, ОКМК, ГАТ, САТС.

ANALYSIS OF TOPOGRAPHIC GEODESIC SUPPLIES AROUND THE QUARRY (IN THE EXAMPLE OF AMMC)

Abstract: This article discusses the topographic geodetic provision of the area around the Almalyk Mining and Metallurgical Combine (OKMK) quarry, that is, how many thousand-scale topographic maps are provided in the area and how relevant the information on the maps is to current needs, what work needs to be done to digitize and update the topographic geodetic data of the area based on satellite data and on-site reconnaissance. The processes of conducting analysis work, familiarizing ourselves with the work of foreign and Uzbek scientists who have worked on the quarry areas to date, are highlighted.

Keywords: topographic map, State geodetic points, GNSS, Mine surveying points, DEM, AMMC, GAT, CATS.

Jahonda, global sun'iy yo'ldosh texnologiyalaridan (GNSS) foydalanib ishlab chiqarish obyektlarini, sanoat zonalarini loyihalash va qurish, dinamik obyektlar joylashgan hududlarda tabiiy, texnogen jarayonlarni kuzatish uchun sun'iy yo'ldosh geodezik tarmog'ini loyihalash, qurish, oriyentirlash va matematik qayta ishlash usullarini ishlab chiqish va tadqiq qilish hamda hududda mavjud davlat geodezik tarmog'ini optimallashtirishda zamonaviy usullarni

takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada BMTning Kosmosdan tinchlik maqsadlarida foydalanish qo‘mitasining 50-sessiyasida “...GNSS texnologiyasi va geografik axborot tizimlaridan foydalangan holda hududlarning zilzilalar kabi baxtsiz hodisalar oqibatlarini hisobga oladigan deformatsiya modellarini ishlab chiqish”¹ zarur ekanligi alohida belgilangan. Har bir mamlakatning yagona koordinata tizimlari va GNSS koordinatalar tizimi o‘rtasidagi o‘tkazish parametrlarini aniqlash, sun‘iy yo‘ldosh nivelirlash usulidan foydalanib referens – ellipsoidiga oriyentirlash, sanoat zonalarida hududlarida joylashgan davlat geodezik tarmog‘ini takomillashtirish va optimallashtirish uslubini amaliyotga joriy etish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda [1].

Geografik axborot tizimlari (GAT) ni rivojlantirish va fazoviy ma‘lumotlarni ko‘rsatishning hozirgi bosqichida hudud haqidagi raqamli ma‘lumotlarni tahlil qilishning yangi usullarini ishlab chiqish vazifasi paydo bo‘ladi. Murakkab relyefli relyefning raqamli modeli geologiya, amaliy geodeziya, kartografiya, gidrogeologiya va Yer bilan bog‘liq boshqa fanlar sohasidagi tadqiqotlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu, ayniqsa, ma‘lumotlar yetishmayotgan, aerofotosurat va dala o‘lchovlari natijasida tuzilgan topografik xaritalar obyekt haqida to‘liq ma‘lumot bermaydigan, ayniqsa muhim obyektlar va inshootlarga taalluqlidir. Ushbu hududlarning raqamli xaritalarining yo‘qligi muhandislik inshootlarini loyihalashda muayyan muammolarni keltirib chiqaradi. Kayser hududlar yonida relyefning raqamli modelini qurish va GNSS yordamida matematik asoslarni aniqlashtirish vazifasi paydo bo‘ladi.

Karyerlar va konlar O‘zbekiston Respublikasi xalq xo‘jaligining ustuvor yo‘nalishlaridandir. Shunga ko‘ra, ushbu joylarga yaqin joylarda topografik va geodeziya ishlarini ishlab chiqarish, geodeziya ishlaridan aniqligi va vaqti bilan sezilarli darajada farq qiladi. Dastlabki tadqiqotlar uchun 1:25 000 yoki 1:50 000 masshtabdagi topografik xaritalardan foydalanish mumkin, ammo shuni hisobga olish kerakki, vaqt o‘tishi bilan Gauss-Kruger proyeksiyasining koordinata panjarasi global, mahalliy va deformatsiyaga uchragan. Boshqa geodinamik jarayonlar, chunki xaritalar 1960-1980-yillarda tuzilgan bo‘lib, ular relyefning murakkabligi tufayli shu paytgacha yangilanmagan va tahrir qilinmagan (1-rasm). Bu shuni anglatadiki, bunday kartografik materiallar zamonaviy geoaxborot va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda tahrir va tartibga solinadi. Masalan, radiotexnika usulidan foydalanish mintaqaning karyerlar, gidrotexnika inshootlari, aloqa yo‘llari va boshqalar joylashgan hududlarini tez va keng qamrab olish imkonini beradi. Hudud haqidagi spektrozal ma‘lumotlarni Yerni masofadan zondlash usullari yordamida olish mumkin, biroq klassik ma‘lumotlar (taxeometrik suratga olish, dala xaritasi va boshqalar) o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q va ko‘p yillar davomida talabga ega bo‘ladi. Masofaviy zondlash ma‘lumotlari, qoida tariqasida, fotogrametrik ishlov berish va maxsus dasturiy paketlardan foydalanishni talab qiladi. Qayta ishlash natijasida relyefni cheklangan miqdordagi diskret nuqtalar ustidagi birinchi yoki

1 https://www.unoosa.org/pdf/reports/ac105/AC105_1022R.pdf

ikkinchi tartibli ko'phad bilan yaqinlashtirish orqali tasvirlash imkonini beruvchi RRM yaratiladi. RRM an'anaviy xaritalar bilan solishtirganda bir qator afzalliklarga ega, birinchi navbatda, bu mehnat va vaqt xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish, kengaytirilgan o'lchamlarga ega bo'lgan turli konfiguratsiyadagi obyektlarni vizuallashtirish (karerlar, yo'llarni tekislash, tunnel uzunligi, himoyalangan hududlar) [2].



1-rasm. Topografik karta fragmenti [2]

O'lchashlar va hisoblashlar natijasida tayyor qilingan plan, karta va profillar geodezik ishlarning asosiy mahsuloti bo'lib, ulardan xalq xo'jaligining turli sohalarida keng foydalaniladi. Ular turli korxonalarni, binolarni, ish olib borilgan karyer va shaxtalarni yer yuzasini bosh planlarini tuzish, kerakli bo'lgan maydonlar chegaralarini aniqlash, ular yuzasini hisoblash, konchilik korxonalarini qurishda eng zarur bo'lgan ishlardan hisoblanadi [3].

Respublikamiz hududida mavjud foydali qazilma konlarining sanoat zonalari hududlarida joylashgan davlat geodezik tarmog'ini topografik geodezik ta'minotlarini tahlil qilib biz karyer hududlar relyefining raqamli modellarini tuzishimiz hamda buning natijasida foydali qazilma konlarining barqarorligi ya'ni bir yil davomida qazib olinayotgan ma'dan va jinslar hajmi orqali necha yilga xizmat qilishini aniqlash xalqaro tajribada mavjudligi va buni Respublikamizda joylashgan sanoat hududlari uchun tadbiq qilish yuqori natija va samaradorlik berishi amaliyotda tez fursatda o'z aksini topmoqda. Bu esa davlat geodezik tarmoq punktlarining koordinatalari aniqligini oshirishda GNSS dan foydalanish borasida ijobiy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Geodeziya va kartografiya faoliyati" to'g'risidagi qonuni² da ta'kidlangan "davlat geodeziya, nivelir, gravimetriya tarmoqlarini, geodezik zichlashtirish

² O'zbekiston Respublikasining «Geodeziya va kartografiya faoliyati to'g'risida» gi qonuni. Toshkent sh., 2020 yil 2 iyul, O'QRQ-626-son. (<https://lex.uz/docs/4880160>)

tarmoqlarini yaratish, rivojlantirish va ishlash holatida saqlab turish” va “.....geodinamika tadqiqotlarini amalga oshirish” bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmonida «Geologiya-qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish.....»³ vazifasi belgilangan. Mazkur vazifani amalga oshirish, jumladan, sanoat zonalari, foydali qazilma konlarini qurish, ekspluatatsiya qilish, dinamik obyektlar holatini kuzatish va boshqa ishlarda foydalanish uchun davlat geodezik tarmog‘ini optimallashtirish hamda punktlar koordinatalarining aniqligini oshirish va bunda GNSS usullaridan foydalanish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda [1].

Shunday qilib, karyerlar hududining topografik geodezik ta‘minotlarini tahlil qilish bu hududni topografik geodezik ta‘minlanganligini hamda hududni tasavvur qilish, maydon va hajmni, suv toshqini zonasini, gidrotexnik inshootlarning balandligini hisoblash, shuningdek, ko‘chkilar va sel oqimlarining harakatini kuzatish bilan bog‘liq muhandislik hisoblarini amalga oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Niyazov Vohidjon Ro‘zievich “GNSS asosida geodezik tarmoqlarni optimallashtirish usullarini ishlab chiqish (Konchilik obyektlari misolida)” Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Samarqand – 2024. v.5-6. 2024.
2. Мирмахмудов Э.Р., Рахимова М.Х., Хасанов Ш.И. Построение цифровой модели рельефа окрестности карьера по топографическим картам, INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL «GLOBAL SCIENCE AND INNOVATIONS 2021: CENTRAL ASIA» NUR-SULTAN, KAZAKHSTAN, JUNE 2021, С.29-33. 2021.
3. Kutumova G.S., Inogamov I.I. Geodeziya va marksheyderlik ishi, O‘quv qo‘llanma. T., v.11-12. 2020
4. Мирмахмудов Э.Р., Абдумуминов Б.О. “Географическая информационная система (Построение 3D модели рельефа в ГИС ПАНОРАМА по топографическим картам) методическое указание“ Ташкент 2021.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi №PF-60 farmoni 1-ilovasi.

Abdujabborova Munisa Sobir qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,
Geodeziya va geoinformatika kafedrasida magistranti,
Toshkent, O'zbekiston. E-mail munisajabbarova99@gmail.com

Oxunov Ziyo Dadojonovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,
Geodeziya va geoinformatika kafedrasida dotsenti, texnika fanlari nomzodi,
Toshkent, O'zbekiston. E-mail: ohziyo@gmail.com

**YER UCHASTKALARI MAYDONLARINI XISOBLASH ANIQLIGI
TO'G' RISIDA**

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot manbalarda, yo'riqnomalar va me'yoriy hujjatlarda keltirilgan turli formulalarni tahlil qilish asosida yer uchastkalari maydonlarini hisoblash aniqligining baholash masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Yer kadastr, yer uchastkasi yuzasi, aniqligini baholash, o'rta kvadratik xato, analitik usul, koordinatalar, burilish nuqtalari, cho'zilish koeffitsiyenti.

**ОБ ОЦЕНКЕ ТОЧНОСТИ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ПЛОЩАДЕЙ
ЗЕМЕЛЬНЫХ УЧАСТКОВ**

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы оценки точности определения площадей земельных участков аналитическим способом путем анализа различных формул, приведенных в литературных источниках и инструктивно – нормативных документах.

Ключевые слова: земельный кадастр, площадь земельного участка, оценка точности, средняя квадратическая ошибка, аналитический способ, координаты, поворотные точки, коэффициент вытянутости.

**ON THE ASSESSMENT OF THE ACCURACY OF
DETERMINING THE AREAS OF LAND PLOTS**

Abstract: This article discusses the issues of assessing the accuracy of determining the areas of land plots in an analytical way by analyzing various formulas given in literary sources and instructive and regulatory documents.

Key words: land cadastre, land plot area, accuracy assessment, mean square error, analytical method, coordinates, turning points, elongation coefficient.

Kirish. Yer kadastr ishlarini, shu jumladan yerlarni miqdoriy va sifat jihatdan hisobga olishni amalga oshirishda yer uchastkalari yuzalarini aniqlash kerak bo'ladi. Yer-mulk majmuasidan foydalanishiga oid qaror qabul qilishining asosi bo'lib, ko'chmas mulk obyektlarning o'rnini, ularning maydonlari va yuzalarini hisoblash aniqligi to'g'risidagi geodezik ma'lumotlar xizmat qiladi.

Davlat yer kadastr qonuniga muvofiq ko'chmas mulk(kadastr obyektlari, ko'chmas mulk obyektlari) larni kadastr ro'yxatga olish ishlari amalga oshiriladi [1]. Buning uchun ko'chmas mulk obyektlarning joylashgan o'rnini va ularning maydonlari to'g'risida geodezik ma'lumotga ega bo'lish kerak. Yer uchastkalari chegaralarini belgilash(marzalash) – bu yer uchastkalari chegaralarini joyda

oʻrnatish, tiklash va marza belgilar bilan mahkamlash hamda yer maydonini aniqlashga oid ishlar majmuasiga tushuniladi[2,5]. Yerdan foydalanuvchilar chegaralarini aniqlash yer uchastkalarini xatlovdan oʻtkazishining asosiy vazifasi hisoblanadi, shu bois, yer uchastkalari chegaralarini joyda oʻrnatish, tiklash va aniqlash bilan bogʻliq ishlarni amalga oshirishda alohida ahamiyat berish talab etiladi. Bundan tashqari, shuni taʼkidlash joizki, yer uchastkasi yuzasini hisoblash aniqligi davlatga yer soligʻi koʻrinishda toʻlov oʻlchamiga bevosita taʼsir etadi, yaʼni iqtisodiy ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Yer uchastkalari va yerdan foydalanuvchilarning xoʻjalik ahamiyati, ularning oʻlchamlari va shakli, choʻzishligi(choʻzilmoqligi), planli-kartografik materiallarning mavjudligi, joyda va plan, kartalarda oʻlchangan chiziq uzunligi va burchaklari qiymatlarining mavjudligi hamda joyning topografik sharoitiga qarab yer uchastkalari yuzasi quyidagi usullarda aniqlanadi: analitik, grafik va mexanik.

Analitik usulda yuzalar joyda oʻlchangan chiziq uzunligi va burchaklarning qiymatlari, hamda ularning funksiyalari – koordinatalari boʻyicha aniqlanadi.

Bunda, yer uchastkalari yuzalarini hisoblashda turli geometrik shakllar(uchburchak, toʻrtburchak, trapetsiya) uchun maʼlum trigonometrik formulalardan foydalaniladi. Umumiy holatlarda esa, koʻrinishi har qanday n – burchaklardan iborat yer uchastkasi uchun yuzasini hisoblash mumkin, agarda burilish nuqtalari koordinatalari maʼlum boʻlsa.

Grafik usul asosan dastlabki loyihalash masalalarni hal etishda hamda kadastr qiymati baland boʻlmagan yerlari yuzalarini hisoblashda qoʻllaniladi. Bu usulni mohiyati shundaki, kartada tasvirlangan yer maydonlari oddiy geometrik shakllarga: koʻpincha uchburchaklar va trapetsiya yoki toʻgʻri burchaklarga boʻlinadi. Har bir shaklda grafik ravishda muvofiq elementlar oʻlchanadi va ular qiymatlari boʻyicha geometrik shaklning yuzasi aniqlanadi.

Mexanik usulda plandagi ixtiyoriy shakllarni yuzasi maxsus asboblari (planimetrlar, kartometrlar) yordamida aniqlanadi. Chiziqli, qutbli planimetrlar mavjud boʻlib, hozirgi paytda eng koʻp qoʻllanadigan qutbli elektron planimetrlardir.

Yuqorida keltirilgan yuzani hisoblash usullaridan eng aniq va ishlab chiqarishda koʻp qoʻllanadigan usul — analitik usul hisoblanadi, chunki yuzani hisoblash aniqligiga faqat yer uchastkasi burilish nuqtalari koordinatalarini oʻlchashdagi xatolar, yoki joydagi chiziqli va burchakli oʻlchashlardagi xatolar taʼsir etiladi.

Shu bois, yuqorida aytilganlarni inobatga olib, yer uchastkalari yuzalarini analitik usulda hisoblash aniqligining baholashini tadqiq qilish maqsad qilindi.

Ma'lumki yer uchastkalari burilish (tafsilotli) nuqtalari o'rnini aniqlashda yo'l qo'yilgan xatolar, ular yuzalarini xato bilan aniqlashga olib keladi. Yer uchastkasi yuzasi xatosini shu konturning burilish nuqtalari o'rnini xatosiga nisbatan aniqlash uchun faraz qilamizki, har bir nuqta boshqalarga bog'lanmasdan aniqlangan, ular o'zni esa o'rta kvadratik xatolari m_x , va m_y ni tashkil qiladigan X_i va Y_i bilan tavsiflangan. Yer uchastkasi yuzasi va uning burilish nuqtalarini koordinatalari orasidagi bog'lanishini quyidagi formula orqali ifodalash mumkin[2,3]

$$2P = \sum_{i=1}^n x_i (y_{i+1} - y_{i-1}) = \sum_{i=1}^n y_i (x_{i-1} - x_{i+1}), \quad (1)$$

bu yerda P – yer uchastkasi maydoni;

x_i , y_i – yer uchastkasi chegaraviy nuqtalari koordinatalari.

Yer uchastkasidagi nuqtalarning koordinatalari va yuzasining o'rta kvadratik xatosi orasidagi bog'lanishni hosil qilish uchun xar bir qiymatlarni differensiallab va undan o'rta kvadratik xatolarga o'tib, xamda $m_x = m_y = m_t$ deb qabul qilinadi, (1) formula asosida quyidagicha yozamiz

$$m_p^2 = \frac{1}{8} \sum_{i=1}^n \{(X_{i-1} - X_{i+1})^2 + (Y_{i+1} - Y_{i-1})^2\} m_t^2, \quad (2)$$

bu yerda m_t – yer uchastkalarining chegaraviy nuqtalari o'rnining o'rta kvadratik xatosi; m_p – yuzani aniqlash o'rta kvadratik xatosi.

Ko'pincha yer uchastkalari yuzalari aniqligini baholashda yer uchastkalari shakllarini inobatga olgan holda tegishli formulalardan foydalaniladilar. Masalan, [3] ko'ra, kvadratga yaqin ko'rinishdagi shakllar uchun quyidagi formulani qo'llash tavsiya etiladi

$$m_p = m_t \sqrt{P}. \quad (3)$$

Yer uchastkalari tomonlari nisbati 1: K bo'lganda yuzaning o'rta kvadratik xatosini aniqlashda quyidagi formulalardan foydalaniladilar[3,4]

$$m_p = m_t \sqrt{P} \sqrt{\frac{1+K^2}{2K}}, \quad (4)$$

bu yerda K – yer uchastkasining cho'zilish koeffitsiyenti (yer uchastkasi uzunligining eniga nisbati).

Yuqorida keltirilgan (4) formula asosida m_p va P qiymatlarini gektarda va m_t ni planda santimetrda ifodalanib turli masshtablar uchun quyidagini yozamiz

$$m_{p,ra} = m_{t,cm} \frac{M}{10000} \sqrt{P,ra}. \quad (5)$$

Keltirilgan formulalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, yer uchastkalari shakllardagi nuqtalar soni n – ni oshirishi bilan yuzalarni xatosi kamayadi va

cho‘zilish koeffitsiyenti K oshirishi bilan xato ko‘payadi. Shu bois, (5) formula orqali bajarilgan hisoblashlar natijasida plandagi yer uchastkalari yuzalarini aniqlash xatosi to‘g‘risida taxminiy ozmuncha oshirgan ma’lumotga ega bo‘lish mumkin.

Lekin plandagi yuzalarni hisoblash xatosi to‘g‘risidagi aniqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun, [3,4] da keltirilgan umumlashtirilgan formuladan foydalanish mumkin

$$m_{P,га} = m_{t,см} \frac{M}{10000} \sqrt{P, га} \cdot \frac{4\sqrt{0,5n-1}}{n} \cdot \frac{K+1}{2\sqrt{K}}. \quad (6)$$

Masalan, $P=100га$, $m_t=0,04см$, $1:M = 10000$, $n = 10$ va $K=1,5$ bo‘lganda

$$m_{P,га} = 0,33га.$$

Bugungi kunda yer kadastru hujjatlarida yer uchastkalari yuzalarini hisoblashda Gauss-Kryuger tekislikka keltirilgan geodezik koordinatalar bo‘yicha hisoblangan yer uchastkalari maydonlari qiymatlari qo‘llanilmoqda. Shunda, yer uchastkasi maydoni va uning o‘rta kvadratik xatosini hisoblashda yuqorida keltirilgan (1), (2), (3) va (4), formulalardan foydalanib kelmoqdalar. Shuni ta’kidlash joizki, (3) formula – cho‘zilish koeffitsiyentini hisobga olmasdan yuzani aniqlash o‘rta kvadratik xatosi va (4) formula – cho‘zilish koeffitsiyentini hisobga olib yuzalarni aniqlash o‘rta kvadratik xatosi sodda ko‘rinishda olingan bo‘lib, me‘yoriy hujjatlarda hisoblashlar hajmi va vaqtini tejash maqsadida qabul qilingan edi[3].

Bugungi kunda yuza aniqlash ko‘rsatgichlarni taxminiy emas balki, qat’iy uslubda hisoblashiga o‘tish tavsiya etiladi, bu esa o‘z navbatida aniqlikni tavsiflovchi miqdorlarning ishonchli qiymatlari ko‘rinishda olingan natijalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun, yer uchastkalari yuzalari aniqligini qat’iy usuli bo‘yicha baholashda, [3,4] manbalarda keltirilgan (2) formulani quyidagi ko‘rinishdagi ifodasidan foydalanamiz

$$m_P = \frac{m_t}{\sqrt{8}} \sqrt{(y_{i+1} - y_{i-1})^2 + (x_{i-1} - x_{i+1})^2}. \quad (7)$$

Keltirilgan (3), (4) va (7) formulalardan foydalanib yuzalari berilgan aholi punktlari yerlari, tomorqa yerlari va qishloq xo‘jaligi yerlari uchun yuzalarni aniqlash o‘rta kvadratik xatosi hisoblandi. Shunda, hisoblashlar quyidagi shartlar: (3) formula orqali cho‘zilish koeffitsiyentini hisobga olmasdan, (4) formula orqali $K = 4$ bo‘lganda, cho‘zilish koeffitsiyentini hisobga olib hamda (7) formula bo‘yicha bajarilib, natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Yer uchastkalari yuzalari aniqligini baholash

t/r	m_i (m)	$P(m^2)$	yuzani hisoblangan o'rta kvadratik xatosi m_p		
			(3) formulada	(4) formulada, K=4 bo'lganda	(7) formulada
1	0,1	600	2,46	3,59	2,43
2	0,2	1200	6,94	10,12	7,05
3	0,2	1800	8,50	12,40	8,34
4	0,2	5000	14,15	20,66	14,13
5	2,5	10000	250,00	365,10	238,68
6	2,5	50000	559,22	817,15	490,15

Shuningdek, olingan natijalarni tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarni havola etish mumkin:

- yer uchastkalari yuzalarini o'rta kvadratik xatolarini hisoblash aniqligini baholashda qo'llanilayotgan (4) formula kadastr ishlari natijalariga qo'yilgan talablarni to'la qoniqtirilmaydi;

- yer uchastkalari yuzalarini hisoblashda ular aniqligini qat'iy baholash uslublaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda, aynan (7) formula yordamida yer uchastkalari yuzalarini hisoblash qo'l keladi, chunki unda yer uchastkalari geometriyasi (shakli) inobatga olinadi va yer uchastkalari yuzalarini hisoblashda yana ham aniq va ishonchli natijalarni beradi.

Shuningdek, kadastr ma'lumotlarning ishonchligi geodezik ma'lumotlar aniqligiga bog'liqdir. Yer bilan bog'lik barcha hujjat (mulkka egalik qilish, sotib olish va sotish, tuhfa qilish, ijaraga berish va boshqa.) larda hatmiy ravishda yer uchastkasi yuzasi ko'rsatiladi. Bu esa o'z navbatida uning aniqligini me'yoriy talablarga mos kelishi hamda yer uchastkasi chegarasini joyga ko'chirish va mahkamlash aniqligini belgilash uchun hisoblash asosi bo'lib xizmat qilishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi qonuni, 28.08.1998 yildagi 666-1-son «Davlat yer kadastrini to'g'risida». T., 1998 y.
2. Неумывакин Ю.К., Перский М.И. Земельно-кадастровые геодезические работы. М., КолосС. 345 с.
3. Маслов А.В. и др. Геодезические работы при землеустройстве. М., Недра, 1990г. 215 с.
4. Охунов Z.D. Yer tuzishda geodezik ishlar. T., «Yangi asr avlodi», 2002. 154b.
5. Указания по установлению, уточнению и восстановлению границ (межеванию) земельных участков (ВНА-29-004-09). Т., Госкомземкадастр, 2009. 46 с.

Джалолова Мухлиса Бахтиёр қизи

Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети,

Геодезия, картография ва кадастр (функциялари бўйича)

таълим йўналиши 4 курс талабаси

Тошкент, Ўзбекистон. E-mail: muxlisa9931@gmail.com

Миржалолов Нуриддин Тулқин ўғли

Ўзбекистон Миллий университети

Картография кафедраси таянч докторанти.

Тошкент, Ўзбекистон. E-mail: mirnur748@mail.ru

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА КАРТА ВА ПЛАНЛАРНИ ТУЗИШДА ЯНГИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Аннотация: *Мамлакатимизда экинларини экиб ундан ҳосил олиш ва чорвачилик маҳсулоти кабиларни етиштиришида карталарни катта ахамиятга эга. Хозирги кунда юқори аниқликдаги геодезик асбоб-ускуналар, яъни электрон тахеометрлар, электрон теодолитлар ва GPS спутникли қабул қилгич (приёмник)лар, ҳамда нивелирларнинг янги тури – электрон рақамли нивелирлар ишлаб чиқилди ва улар ишлаб чиқаришида кенг қўлланилмоқда Қишлоқ хўжалик карталарини яратиш бошқа мавзули карталардан катта фарқ қилади. Чунки у табиий шароит билан боғлиқ ва ер майдони билан боғланган ҳолда картага туширилади. Карталар яратишида кўпроқ қишлоқ хўжалиги ер билан боғлиқ бўлгани учун дастлаб ернинг табиий ҳолатини ва ресурс сифатида ўрганиши учун ер билан боғлиқ бўлган карталар тузилиб келмоқда.*

Kalit soʻzlar: *ГАТ, ГЛОНАСС, GPS, ер, қишлоқ хўжалик, план, геодезия, картография.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ СОСТАВЛЕНИИ КАРТ И ПЛАНОВ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ

Аннотация: *Карты имеют большое значение при выращивании сельскохозяйственных культур и продукции животноводства в нашей стране. Сегодня разработано и широко применяется в производстве высокоточное геодезическое оборудование, а именно электронные тахеометры, электронные теодолиты и спутниковые приемники GPS, а также новый тип нивелиров – электронные цифровые нивелиры. Создание сельскохозяйственных карт существенно отличается от других тематических карт. Потому что оно связано с природными условиями и нанесено на карту площади суши. Поскольку при составлении карт большая часть сельского хозяйства связана с землей, карты, связанные с землей, создаются первоначально для изучения естественного состояния земли и как ресурса.*

Ключевые слова: *ГАТ, ГЛОНАСС, GPS, земля, сельское хозяйство, план, геодезия, картография.*

USING NEW TECHNOLOGIES IN MAPPING AND PLANNING IN AGRICULTURE

Abstract: *Maps are of great importance in the cultivation of agricultural crops and livestock products in our country. Today, high-precision geodetic equipment has been developed and is widely used in production, namely electronic tachometers, electronic theodolites and GPS satellite receivers, as well as a new type of levels - electronic digital levels. The creation of agricultural maps is significantly different from others. thematic maps. Because it is associated with natural conditions and is mapped on the land area. Since most of the*

agriculture in mapping is related to the land, land-related maps are initially created to study the natural state of the land and as a resource.

Keywords: GAT, GLONASS, GPS, land, agriculture, plan, geodesy, cartography.

Кириш. Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши натижаларини таҳлил қилиш ва уни бошқаришда, таркибини такомиллаштириш ва режалаштириш ишларида оддий фермер хўжалиги раҳбари ва агрономидан тортиб ҳокимлик ва вазирлик ходимигача картадан фойдаланиши мумкин. Чунки карталар орқали қишлоқ хўжалик мажмуасининг ресурс салоҳиятига, ишлаб чиқаришнинг ҳудудий таркиби ва хом ашё базасига оид энг янги маълумотлар бир-бирига солиштириш қулай бўлган кўرғазмали тарзда тасвирланади. Шунингдек, карталар қишлоқ хўжалигини режалаштириш ишларини асослашда ҳам қулай манба бўлиб, унинг ўзаро ички алоқаларини очиб бериб, зарур бўлган тармоқлараро мутаносибликни аниқлаш имконини беради. Демак қишлоқ хўжалик ишлаб чиқаришига мавзули ва мажмуали карталарнинг кенг миқёсда кириб келиши қонуний воқеа ҳисобланади.

Мамлакатимизда экинларини экиб ундан ҳосил олиш ва чорвачилик маҳсулоти кабиларни етиштиришда карталарни катта аҳамиятга эга. Қишлоқ хўжалик карталарини яратиш бошқа мавзули карталардан катта фарқ қилади. Чунки у табиий шароит билан боғлиқ ва ер майдони билан боғланган ҳолда картага туширилади. Карталар яратишда кўпроқ қишлоқ хўжалиги ер билан боғлиқ бўлгани учун дастлаб ернинг табиий ҳолатини ва ресурс сифатида ўрганиш учун ер билан боғлиқ бўлган карталар тузилади. Қишлоқ хўжалик карталари тупроқ карталари билан уйғунлашиб қишлоқ хўжалиги картасини яратишда тупроқ карталарини ҳам чуқур ўрганилади. [3].

Қишлоқ хўжалигини ўрганишда, қишлоқ хўжалиги карталари, жорий ишларни режалаштиришда ҳамда ишлаб чиқаришни назорат қилиш ишларида мутахассисларга ёрдам беради [6].

Математик ҳисоб китоб асосида ер эгрилигини ҳисобга олиб, майдон ва тафсилотлар маълум бир масштабга келтирилган ҳолда қоғозга туширишга карта деб айтилади. Карталарни яратишда асосан қитъалар, материклар, давлат, вилоят ерларини ва жамоа хўжалик ерлари майдони ва тафсилотларни қоғозга тасвирланишига айтишимиз мумкин. [3]. Ер эгрилигини ҳисобга олмаган ҳолда майдон ва тафсилотларни қоғозга туширишимизга план дейилади. Асосан, фермер хўжалик ерлари, лойиҳалар план бўлиб қоғозга тасвирланади.

ГАТ орқали план ва карта яратиш, бу яратилаётган план ёки картанинг сифати ва аниқлилик даражаси жуда юқори бўлиши билан ишлаб

чиқаришда кенг фойдаланилмоқда. Плани тайёрланаётган жойнинг уч ўлчамли кўринишида ҳосил бўлиши бу планинг яна ҳам аниқлиги ошиши деганидир. ГАТ амалга ошириладиган ҳар қандай амалий таҳлилларни барчаси компьютер дастурлари орқали амалга оширилади. ГАТ орқали биз маълумотларни сўраш, фазовий маълумотларни таҳлил қилиш, уларни бирлаштириш, уларни визуализация қилиш, мавжуд маълумотлардан янги маълумот яратиш ва бошқа турли туман муаммоларни ҳал қилиш мумкин. Масалан, фазовий маълумотларни таҳлил қилиш ёки карталар яратиш қандайдир бир янгилик эмас албатта, инсоният пайдо бўлибдики, у ўзини ҳаётини яхшилаш мақсадида турли туман карталар яратиш келмоқда, бироқ бу каби карталар яратиш ва фазовий маълумотларни таҳлил қилиш ГАТ да амалга ошириладиган функциялардан фарқ қилади. Фарқи шундаки, ГАТ да замонавий компьютер дастурлари орқали фазовий маълумотларни таҳлил қилиш ва карталар яратиш жараёни кескин тезлашади ва охириги пировард натижаси ҳам сифатли бўлиши аниқ. ГАТ орқали биз қарор қабул қилиш жараёнини кескин равишда оперативлатиш имконига эга бўламиз, хусусан прогнозлаштириш, бир неча ҳил маълумотлар базасини бир вақтни ўзида таҳлил қилиш, тезлашади. [7]


Маълумки, ҳозирги кунда ишлаб чиқариш соҳасида план ва карталарни яратиш бўйича янги технологияларни қўллаш яхши самара бермоқда. Геодезист ва картографлар бугунги кунга келиб GPS (глобал позитсияли система), янги электрон тахеометр ва компьютерлардан кенг фойдаланилмоқда. GPS навигаторлари, афзаллиги – рангли экран ва сув ўтказмаслиги, сенсор экран, шнурсиз блутоз орқали боғлана олиши, USB порт, SD карта хотира кенгайтирилганлиги, клавиатура мавжудлиги ва GPS навигатори 14 спутникга уланиш имкониятига эга. Бунда аниқлик даражаси юқори бўлиши билан ажралиб туради. Бу GPS навигаторидан Ўзбекистонда ишлаб чиқариш соҳаси бўйича кенг фойдаланилади.



1-расм. Суний йўлдош ГНСС қабул қилувчиси Соккиа ГРХ2 / ГНСС

Sokkia kompaniyasi yaqinda ўзинing GPS/GLONASS (GRX1) nomli navigatorini namoyish etdi. Uning aniqligi juda yuqori бўлиб, -40 va +65 С хароратда ҳам ишлай олишлилиги, 72 та каналга боғлана олиш имкони мавжудлиги билан эътиборни жалб қилмоқда. Аниқлиги 1.0 мм/км. (1-расм) [8]

Самара ва Санк – Петербург шаҳарларида 2 та йирик базис станцияси яратилган. Бунинг авзаллиги хар бир базис станциялари хисоблаш марказига маълумот жўнатади. Бу маълумотлар барча станциялар билан бирга кўриб чиқилади натижада эса тармоқли қарор қабул қилинади. Қишлоқ хўжалигида планларни тузишда аниқлиги юқори бўлган планларни яратади ва базис станциянинг ўзига ҳам баҳо бера олади. Рўйхатдан ўтган фойдаланувчилар NAVSTAR ва ГЛОНАСС спутниги орқали маълумотларга кира олиш имкони бор. (2-расм) [8].



2-расм. ГЛОНАСС ва GPS

Республикамизда қишлоқ хўжалигида план ва карталарни яратишда бу янги технологиялардан фойдаланиш план ёки картанинг, биринчи навбатда, аниқлигини ошириш ва сифатини яхшилашга ёрдам беради. GPS системасидан фойдаланиш бажараётган ишимизни юқори аниқликда бажариш, ишни тезлиги, сифатлилиги билан жуда қўл келади. Жойда маълумотларни олиб хонага келиб компьютерга улаймиз ва маълумотлар орқали жойнинг планини хосил қиламиз.



3-расм. Спутник орқали маълумотларга кира олиш имкони

Бир сўз билан айтганда ишлаб чиқариш соҳасида бу технологиялардан фойдаланиш ишнинг сифати, аниқлиги, ерларнинг тўғри тақсимланиши, назоратга олинишлиги ва самарадорлиги билан муҳим ўрин тутди.

Хулоса. Келажакда Самара ва Санкт–Петербургдаги базис станцияси кўп шаҳарларда қурилса Қишлоқ хўжалик соҳасида муҳим бир бурилиш бўлади деб ўйлайман. Афзаллиги, биринчидан, ерларни тўғри ва аниқ тақсимланиш даражаси, назоратга олиш имкони осонлиги, марказдан туриб текшириб боришлилиги билан ишни осонлаштиради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент, Ўзбекистон, 2016.-56 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидси бўлиши керак. Тошкент, Ўзбекистон, 2017.- 104б.
3. Мухамедов А.К. «Қишлоқ хўжалик гидротехник мелиорацияси». (маърузалар матни). Тошкент. ТИКХМШИ. 2002.
4. Билич Ю.С., Бугаевский Л.М. Проектирование и составление карт. М. Недра, 1988.
5. Дубенок Н.Н, Мусаев И.М. и др. Карты и кадастры мелиорации земель. Ташкент 2001,-147с.
6. Салищев К.А. Картоведение М.МГУ, 1989
7. Мирзалиев Т., Мусаев И. Картография. Тошкент, Зиёнон, 2007.-160 б.
8. Э.Ю.Сафаров. Географик ахборот тизимлари: ўқув услубий қўлланма-Тошкент “Университет”, 2010 й.

Интернет маълумотлари

9. www.bnuz.com , www.calib.uz,
10. _www.geopribori.ru
11. www.topcon.gsi.ru/art.php?id=17

Yusupjonov Otabek G'ayibjonovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,
Geodeziya va geoinformatika kafedrasida tayanch doktoranti,
Toshkent, O'zbekiston. e-mail: yusupjonov_otabek@mail.ru

Begimqulov Elmurod Qalandar o'g'li

Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti,
"Marksheyderlik ishi va geodeziya" kafedrasida o'qituvchisi

Burxonov Mirkomil Baxtiyor o'g'li

Renessans ta'lim universiteti,
Matematika va iqtisodiyot kafedrasida asistent o'qituvchisi.

Karimov Jahongir Kamoljon o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,
Geodeziya, kartografiya va kadastr yo'nalishi 4-kurs talabasi

TOSHKENT SHAHRINING AMALDAGI GEODEZIK TARMOG'INI QURISH VA UNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

Annotatsiya: Ushbu maqola Toshkent shahrining amaldagi geodezik tarmog'i, uning rivojlantirish tarixi, geodezik tarmoqni qurishda ishtrok etkan davlat geodezi korxonalarini hozirgi holatini ilmiy-texnik manbalar, texnik hisobotlar hamda arxiv materiallaridan yillar kesimida o'rganib chiqillgan.

Kalit so'zlar: geodezik tarmoq, triangulyatsiya, poligonometriya, balandlik geodezik tarmog'i.

ЭТАПЫ СТРОИТЕЛЬСТВА И РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ ГЕОДЕЗИЧЕСКОЙ СЕТИ ГОРОДА ТАШКЕНТА

Аннотация: В данной статье на основе научно-технических источников, технических отчетов и архивных материалов рассматривается действующая геодезическая сеть города Ташкента, история ее развития, государственные геодезические предприятия, участвовавшие в строительстве геодезической сети, и ее современное состояние на протяжении многих лет.

Ключевые слова: геодезическая сеть, триангуляция, полигонометрия, высотная геодезическая сеть.

STAGES OF CONSTRUCTION AND DEVELOPMENT OF THE MODERN GEODETIC NETWORK OF THE CITY OF TASHKENT

Abstract: This article, based on scientific and technical sources, technical reports and archival materials, examines the current geodetic network of the city of Tashkent, the history of its development, state geodetic enterprises that participated in the construction of the geodetic network, and its current state over many years.

Keywords: geodetic network, triangulation, polygonometry, vertical geodetic network.

Kirish. Toshkent shahrining amaldagi geodezik tarmog'ini yaratish bo'yicha ishlar birinchi marotaba 1914-yilda Shahar Yerlarini Boshqaruvi tashkiloti tomonidan boshlangan [9; 3-5-b]. Mazkur Boshqaruv buyurtmasiga asosan 1914 – 1915-yillar davomida harbiy topograflar Korpusi tomonidan 58 ta punktlardan iborat shahar triangulyatsiyasi tarmog'i qurildi. Mazkur

triangulyatsiya tarmog'ini "Observatoriya"–"Nikolskiy aholi punkti" tomoniga mavjud davlat geodezik tarmog'idan direksion burchak uzatib bog'langan. Keyingi 1916 – 1930-yillar davomida geodezik tarmoq qurish bo'yicha hech qanday ishlar olib borilmagan.

1931-yilga kelib O'rta Osiyo geodezik Boshqarma tomonidan Toshkent shahrida topografik syomkallarni bajarish maqsadida geodezik tarmoqni rivojlantirish ishlari davom ettirildi. 1931–1932-yillarda shaharni taxminan 230 km.kv. teng maydonida jami 46 ta triangulyatsiya punktlari, shu jumladan 10 ta davlat triangulyatsiyasi IV-sinf punktlari, 8 ta I-sinf, 9 ta II-sinf va 19 ta III-sinf shahar tarmog'i punktlaridan iborat. Qurilgan shahar triangulyatsiya tarmog'i o'sha paytda amal qiluvchi Yo'riqnoma [5] talablariga to'la javob berishi bilan bir vaqtda shahar butun hududini qoplamagan va uning punktlari bir xil zichlikda joylashmagan edi. Respublikasi poytaxti Toshkent shahrida sanoat va fuqaro qurilishini tez rivojlana boshlashi sababli yirik masshtabli 1:2000 – 1:500 topografik syomkallarni ta'minlash uchun 1936-yilda yuqori sifatli planli va balandlik geodezik asosni qurish masalasi kelib chiqdi. Ushbu muammoni yechish 1936-yilning boshida Toshkent shahar Ijroqo'mining Arxitektura boshqarmasi qoshidagi Geodeziya buyrosiga (Geobuyro) yuklandi. Mazkur Geobuyro shahar hududini kengayishini hisobga olgan holda shahar geodezik tarmog'i yangi loyihasini ishlab chiqdi. Unga asosan shahar hududida 1936–1937-yillarda jami 49 ta punktlardan iborat bo'lgan, shu jumladan 14 ta I-sinf va 35 ta II – sinf punktlari, triangulyatsiya tarmog'i qurildi [1; 7-10-b., 4; 17-21-b].

Geobuyro oldiga 1939-yili zamon talabini e'tiborga olgan holda oldingi yillarda bajarilgan shahar triangulyatsiyasi ishlari natijalarini tartibga keltirish shahar geodezik asosini qurish va vazifasi qo'yildi. Bu vazifani bajarish maqsadida oldingi yillardagi materiallar o'rganib chiqildi va sifati baholandi. Natijada 1914-yilda qurilgan triangulyatsiya punktlari to'la yo'qotilgani aniqlangan, 1936-1937-yillarda qurilgan II-sinf triangulyatsiyada burchaklarni o'lchash uslubiga amal qilinmagani va o'lchashlar xatosi me'yordan oshib ketgani sababli natijalar yaroqsiz deb topildi. Yuqoridagilarni hisobga olib Toshkent shahar geodezik tarmog'ini qayta qurish loyihasi tuzildi, bunda 1936–1937-yillarda bajarilgan geodezik ishlar natijalaridan maksimal foydalanilgan [8; 1-5-b].

Geodezik tarmoqni tuzilgan qayta qurish loyihasiga asosan u 11 ta I-sinf, 26 ta II-sinf va 22 ta III-sinf punktlaridan tashkil topadi. Shunday qilib shaharning o'sha paytdagi taqribiy 280–300 kv. km. maydonida jami 59 ta punktlarni tashkil qiluvchi triangulyatsiya tarmog'i qurildi. Mazkur triangulyatsiya tarmog'i o'sha paytda amalda bo'lgan me'yoriy hujjat [7] talablariga rioya qilib qurilgan.

Keyingi 1947–1950-yillarda Toshkent shahrining qo'shilgan yangi qismidagi mavjud triangulyatsiya punktlari orasi qo'shimcha 7 ta III-sinf punktlari bilan zichlashtirildi. Lekin ushbu triangulyatsiyani tavsiflovchi ko'rsatkichlari arxivlarda saqlanmagan.

1950–1951-yillarda Toshkent shahrining sharqiy va shimoliy-sharqiy qismidagi 1939–1941-yillarda qurilgan I va II–sinf triangulyatsiya punktlari 10 ta II va III-sinf punktlari bilan zichlashtirildi.

1960-yili “Tashgiprogor” instituti oldiga amaldagi geodezik tarmoqni qayta tiklashtirish va rivojlantirish vazifasi qo‘yildi. Bu ishlar 1960-1963-yillarda “Tashgiprogor” instituti tomonidan, 1963-1965-yillarda esa O‘zGIITI (Узбекский государственный институт инженерно-технических изысканий) institutining Toshkent shahar filiali tomonidan olib borilgan. Bu ishlar II – sinf triangulyatsiyasini rivojlantirish orqali amalga oshirilgan. Bunda boshlang‘ich asos sifatida quyidagi punktlar xizmat qilgan:

- davlat I – sinf triangulyatsiyasining “Qipchoq” va ”Bolta” punktlari;
- “Keles” bazis tarmog‘ining “Qalamchekan”, “Hasanboy” va”Chig‘atoy” punktlari;
- 1939 – 1941-yillarda qurilgan II – sinf (ilgaridagi I – sinf) shahar triangulyatsiyasi punktlari “Qaramurtteppa”, “Taukat” va “Taxtako‘prik”. Bajarilgan bazislar uzunligi va yo‘nalishlarni o‘lchash ishlari metodikasi va aniqligi [8] talablariga javob bergan.

Toshkent shahar Ijroqo‘mining Arxitektura boshqarmasi topshirig‘iga asosan 1968–1969-yillarda O‘zbekiston Davlat injenerlik-texnik qidiruvlari instituti tomonidan Toshkent shahri triangulyatsiyasi va poligonometriyasini qayta tiklash va rivojlantirish ishlari olib borildi. Ishlar o‘sha vaqtda amalda bo‘lgan me‘yoriy hujjatlar [6, 7] ga to‘la amal qilib olib borilgan. Bu ishlar quyidagilar:

- III va IV – sinf shahar triangulyatsiyasini rivojlantirish;
- metropoliten trassasi bo‘yicha tunnel triangulyatsiyasini shahar II-sinf triangulyatsiyasi punktlariga bog‘lash.

1984 yilga qadar ko‘plab punktlar yo‘qolgan. Tarmoq turli aniqlikdagi punktlar kombinatsiyasi bilan bir nechta marotaba tenglashtirilgan. Natijada, punktlar bir-biridan farq qilgan va bir nechta koordinat qiymatlariga ega bo‘lgan. Hech qanday koordinatalar bekor qilinmagan va umumiy koordinatalar katalogi mavjud bo‘lmagan [11; 13-17-b].

Keyingi 1939–1984-yillarda qurilgan shahar triangulyatsiya va poligonometriya tarmoqlarini qayta tizimlashtirish va tenglashtirish ishlari amalga oshirilgan.

Qayta tenglashtirish ishlari triangulyatsiya va poligonometriya tarmoqlarida ikki xil koordinatalar sistemalarida amalga oshirilgan bo‘lib bular: Krasovskiyning 1942-yilgi va Mahalliy (1967-yil) sistemalarida. Tenglashtirish natijasida triangulyatsiya va poligonometriya punktlarining koordinatalari kataloglari olingan [9; 30-34-b].

Toshkent shahar Arxitektura Bosh Boshqarmasi topshirig‘iga ko‘ra O‘zbekiston davlat muhandislik-texnik tadqiqot instituti tomonidan 1968–1970-yillarda Toshkent shahrida triangulyatsiya va poligonometriyani tiklash va rivojlantirish ishlarini davom ettirgan [8; 1-5-b].

Toshkent shahri hududidagi shahar poligonometriya tarmogʻi 1930-yillardan boshlab rivojlantirib kelingan.

1960-yildan 1985-yilgacha poligonometriya deyarli har yili, har bir qurilish massivida alohida qurib kelingan. Masalan, Chilonzor massivini janubiy gʻarbini qurilishi, “Qora Qamish” massivini qurilishi va h.k.z. Bunda poligonometrik tarmoqni yaratishda belgilab qoʻyilgan maʼlum bir tartib yoki tizim mavjud emas edi [8; 1-5-b].

Umuman olganda 1982-yil holatiga koʻra Toshkent shahar poligonometriyasining tarkibi va punktlarining soni quyidagicha boʻlgan: 4-sinf punktlari 199 ta 1 – razryad punktlari 2860 ta va 2-razryad punktlari 1784 ta. Poligonometriya tarmogʻini qurish ishlari yoʻriqnoma [7] ga rioya qilib bajarilgan.

1966-yil 26-apreldagi Toshkent zilzilasi soʻng 1966 – 1968-yillarda shaharni tiklashda qurilish ishlarini geodezik asosi boʻlib asosan poligonometriya punktlari xizmat qildi.

Oʻzbekiston mustaqil davlat boʻlgandan buyon Toshkent shahar geodezik tarmogʻini qayta qurish va rivojlantirish boʻyicha tizimli ishlar haqida yigʻma maʼlumotlar topilmadi.

Shahar balandlik geodezik tarmogʻi. Yirik shaharlar hududida balandlik geodezik tarmogʻi faqatgina joy relyefini topografik syomkalarini bajarish bilan cheklanib qolmay quyidagi vazifalarni ham bajaradi: quriladigan bino va inshootlar loyihasini balandlik boʻyicha joyga koʻchirishni taʼminlaydi; masʼuliyatli va murakkab boʻlgan metropoliten, yoʻl oʻtkazuvchilari, koʻpriklar, kanalizatsiya va kollektorlar tarmogʻini qurish; shahar yerlarini geodinamik monitoringini olib borishda muhim rol oʻynaydi [1; 8-9-b].

Yuqoridagilarni eʼtiborga olib yirik shaharlar hududida balandlik geodezik tarmogʻi punktlarining balandligini normativ hujjatlarga asosan davlat II – sinf, ayrim holatlarda I – sinf, nivelirlashdan aniqlash talab qilinadi.

Maʼlumki Oʻzbekiston Respublikasi hududi uchun 1976-yilgi “Boltiq balandliklar sistemasi” davlat balandliklar sistemasi sifatida qabul qilingan boʻlib, sistemaning sanoq olish boshi Kronshtadt futshtogi hisoblanadi. Toshkent shahar balandlik tarmogʻi uchun ham aynan ushbu sistema olinganiga qaramay, unga “Pariyskiy” balandlik sistemasi nomi berilgan va bunga tarixiy voqea sabab boʻlgan. Unga koʻra Turkiston harbiy okrugi topografiya boʻlimining topografi I.V.Pariyskiy Toshkent observatoriyasi balandligini okean suvi sathiga bogʻlash maqsadida Oʻrta Osiyo temir yoʻli Krasnovodsk-Toshkent yoqalab 1894–1900-yillar davomida nivelirlash ishlarini olib borib Kaspiy dengizi suvi sathiga Toshkent observatoriyasini bogʻlaydi. Oʻsha vaqtda Kaspiy va Qora dengiz sathlari nisbiy balandligi maʼlum boʻlganidan foydalanib I.V.Pariyskiy Toshkent balandligini okean suvi sathiga birinchi boʻlib bogʻlaydi. Shu munosabat bilan oʻsha paytda shahar balandlik sistemasiga “Pariyskiy” nomi berilgan [10; 335-339-b].


Toshkent shahrining maydoni yirik boʻlgani sababli uning hududi yopiq

poligon shaklidagi II – sinf nivelir tarmog‘i bilan qoplangan. Tarmoq tugun nuqtalari orasidagi yo‘llar uzunligi 10 km dan oshmaydi.

II – sinf tarmoq punktlarining zichligi ular orasida quriladigan III – sinf tarmog‘ini bog‘lashga xizmat qilishidan kelib chiqib qabul qilingan.

Umuman olganda shaharni uncha zich qurilmagan katta maydonlarida yaratilgan III – sinf nivelir tarmog‘i asosiy hisoblanib u shaharni turli qismlarida zaruriyatga qarab II – sinf poligonlari orasida qurib kelingan.

II – sinf nivelir yo‘llari pishiq g‘isht, temir – beton va boshqa kapital bino va inshootlar devorlarida har 2 -3 km oraliqda cho‘yandan yasalgan markalar bilan mahkamlangan.



1-rasm. Toshkent shahar 1-sinf nivelirlash yo‘llarining chizmasi [9; 51-53-b.]

Shaharning qurilgan qismlarida III – sinf tarmog‘i, qurilmagan qismlarida esa II – sinf punktlari orasida IV – sinf nivelir yo‘llari o‘tqazib zichlashtirilgan. Bunda tarmoq chizmasini joyda mavjud 1 va 2 – razryad poligonometriya yo‘llari, topografik syomka asosi nuqtalari bilan tutashtirib olingan. III-sinf yo‘llari zich qurilgan hududlarda bino va inshoot devorlarida o‘rtacha har 0.5 km da o‘rnatilgan. Siyrak qurilgan joylarda esa har 1.0 – 1.5 km da devoriy markalar bilan mahkamlangan [6; 11-13-b.].

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan Tashkent shahri balandlik geodezik tarmoqlari o‘sha vaqtda amalda bo‘lgan me‘yoriy hujjatlar [2, 6] talablariga to‘la rioya qilib qurilgan.

1966-yil 26-aprelda Toshkent shahridagi katta zilzila natijasida yuzaga kelgan yer yuzasining vertikal harakatini o'rganish maqsadida Toshkent shahrini shimoliy- sharqiy qismida maxsus I – sinf nivelirlash yo'llaridan tashkil topgan maxsus geodinamik poligon qurilgan [6; 22-23-b.].

Bunda Toshkent shahri hududida 1967-yil 17-iyundan 21-noyabrgacha bo'lgan davrda 158,8 km I – sinf nivelirlash yo'llari (1-rasm) qurilib, ular 461 ta fundamental, zamin va devoriy reper belgilar bilan mahkamlangan. Nivelirlash ishlari yuqori aniq *Ni 004* va *NA-1* nivelirlari va invar reykalari yordamida bajarilgan [9; 51-53-b.].

Hozirgi kunda ushbu geodinamik poligonda nivelirlash ishlari olib borilayotgani va olingan natijalarni tahlili manbasini topishni afsuski imkoni bo'lmadi.

Xulosa. Toshkent shahrining amaldagi geodezik tarmog'i, uning rivojlantirish tarixi va hozirgi holati ilmiy-texnik manbalar, texnik hisobotlar hamda arxiv materiallaridan o'rganib chiqilib tarmoq punktlarining koordinatalari bitta sistemada bo'lmaganligi, aniqligi hozirgi kun me'yoriy talablaridan past ekanligi va ularga to'la javob bermasligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. ГКИНП (ОНТА)-01-271-03 «Руководство по созданию и реконструкции городских геодезических сетей с использованием спутниковых систем ГЛОНАСС/ГПС». М., МИИГАиК, 2003.
2. ГККИНП 02-067-03 «Инструкция по топографической съёмке в масштабах 1:5000, 1:2000, 1:1000, 1:500». Т., НСГК, 2003. – 199 с.
3. ГККИНП-01-039-01. “Ўзбекистон Республикаси давлат геодезия тармоғини (сунъий йўлдош геодезия тармоғини) куриш бўйича асосий қоидалар”. – Тошкент: Ўзгеодезкадастр, 2001. – 17.б. (25.12.2001 й. тасдиқланган).
4. ГККИНП-01-070-03. “Ўзбекистон Республикаси давлат сунъий йўлдош геодезия тармоғи пунктларини барпо этиш қоидалари”. – Тошкент, Ўзгеодезкадастр, 2003. – 51 б. (2.03.2004 й. тасдиқланган).
5. Инструкция ГГУ ВТУ. Изд. 1925. – 41 с.
6. Инструкция по нивелированию I, II, III и IV классов. “Недра”, М. 1974. – 38 с.
7. Наставление по съёмкам крупных масштабов. Редбюро ГУКСК НКВД СССР, изд. 1939. – 49 с.
8. Кагановский Г.М. Изменение широты Ташкента в связи с вековым движением полюсов Земли // ДАН – Уз.ССР, 1972. – №27. – С. 5.
9. Сведения о переуравнивании сетей трилатерасии 1, 2 классов, триангулятсии 2, 3 и 4 классов, 1, 2 разрядов и полигонометрии 4 класса, 1,2 разрядов, выполненных на территории г.Ташкента с 1939 г. по 1982 г.
10. Yusupjonov O.G'., Abdugarimov M., Ibragimov J. Davlat tayanch tarmoqlarini barpo qilishda yo'ldoshli GNSS kuzatishlarni qo'llashni nazariy masalalari // O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari: tabiiy fanlar. – Toshkent, 2024. –3/1. – B. 335-339.
11. Yusupjonov O., Uvrayimov S., Ablakulov D. Research of cultural heritage objects using satellite observations // Электронное научно-практическое периодическое издание. Nature and Science. ISSN 1545-0740 №22(9), 2024. – С. 13-17.

Musayev Lazizxon Ikromjon o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti

Geodeziya, kartografiya va kadastr yo'nalishi 2-kurs talabasi

Raxmonov Dilshod Nurboboyevich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Geodeziya va geoinformatika kafedrasasi dotsenti, g.f.f.d. (PhD),

Toshkent, O'zbekiston, e-mail: dilshod27r@mail.ru

G'aybullaev Umrzoq Baxtiyor o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

umrzoqgaybullayev08@gmail.com

Burxonov Mirkomil Baxtiyor o'g'li

Renessans ta'lim universiteti,

Matematika va iqtisodiyot kafedrsi asistent o'qituvchisi.

GEODEZIK O'LCHOV ASBOBLARI TARIXI

Annotatsiya: Hozirda geodezik o'lchashlarni bajarish uchun takomillashgan yangi geodezik asboblardan foydalanilmaqda. Ushbu geodezik asboblar XIX-XX-asrlarda ommalashdi. Ammo ularning kelib chiqishi uzoq tarixga borib taqaladi. Ushbu maqolada eng qadimgi geodezik saboblar va o'lchov birliklari haqidagi ma'lumotlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Geodeziya, plumb, kvadrat sathi, boblar tosh, rux sathi, qadimgi o'lchov birliklari, magnit kompas, Chjen Xe, transit chiziqlari.

ИСТОРИЯ ГЕОДЕЗИЧЕСКИХ ИЗМЕРИТЕЛЬНЫХ ПРИБОРОВ

Аннотация: Для выполнения геодезических измерений в настоящее время используются новые и усовершенствованные геодезические инструменты. Эти геодезические инструменты стали популярны в 19 и 20 веках. Но их происхождение уходит корнями в давнюю историю. В данной статье рассматриваются сведения о самых ранних геодезических факторах и единицах измерения.

Ключевые слова: Геодезия, отвес, квадратный уровень, главный камень, цинковый уровень, древние единицы измерения, магнитный компас, Чжэн Хэ, транзитные линии.

HISTORY OF GEODETIC MEASURING INSTRUMENTS

Abstract: New and improved geodetic instruments are now being used to perform geodetic measurements. These geodetic instruments became popular in the 19th and 20th centuries. But their origin goes back to a long history. This article reviews information about the earliest geodetic factors and units of measurement.

Key words: Geodesy, plumb, square level, chapter stone, zinc level, ancient units of measurement, magnetic compass, Zheng He, transit lines

Geodeziya bu Yerni o'lchash va tasvirlash bilan shug'ullanadigan ilmiy va amaliy fanlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda fan va texnika shiddat bilan rivojlanishi samarasi o'laroq boshqa sohada bo'lgani kabi ta'lim va ilmiy tadqiqot faoliyati sohasida ham muayyan yutuqlar qo'lga kiritildi va kiritilmoqda. Bu kabi yutuqlarga erishishda barcha turdagi davlat va jamoat tashkilotlari hamda muassasalar bilan bir qatorda oliy ta'lim muassasalari ham faol ishtirok etib

kelayotganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda bevosita ushbu soha uchun davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan keng imkoniyatlarning yaratilishi ilmiy tadqiqot faolyatini ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘liq holda tashkil etish va amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning to‘laligicha bajarilishiga o‘zining ijobiy ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Geodezik asboblarda ilk o‘lchashlar bajarilishi.

XIX-XX-asrlarda geodeziya sohasi jadal rivojlandi. Xaritalar va milliy chegaralarning joylashuviga bo‘lgan ehtiyoj Angliya va Fransiyaning aniq triangulyatsiyani talab qiladigan keng qamrovli tadqiqotlar o‘tkazishga majbur qildi. Shu tariqa geodezik o‘lchash ishlari boshlandi. AQSH qirg‘oq va geodeziya xizmati 1807-yilda Kongress akti bilan tashkil etilgan. Dastlab uning vazifasi gidrografik tadqiqotlar o‘tkazish va dengiz xaritalarini tayyorlashdan iborat edi. Keyinchalik uning faoliyati butun mamlakat bo‘ylab nazorat geodezik punktlarini o‘rnatishni o‘z ichiga olgan holda kengaytirildi.

Yer qiymatining oshishi va aniq chegaralarning ahamiyati, kanal, aylanma va temir yo‘llarni davlat tomonidan obodonlashtirish talabi bilan bir qatorda, suratkashlik taniqli mavqega ega bo‘ldi. So‘nggi paytlarda katta hajmdagi umumiy qurilishlar, ko‘plab yer uchastkalari talab qilinadigan yaxshi hisob-kitoblar va qidiruv va ekologiya sohalari tomonidan qo‘yilgan talablar kengaytirilgan geodeziya dasturini talab qildi. Yer resurslarini o‘zlashtirish va ulardan foydalanishdagi taraqqiyot belgisi hali ham geodeziyadir.



1-rasm. Deyr al-Madinadagi Senedjem qabridan plumb, kvadrat va kvadrat sathi

Eng qadimgi geodeziya asboblari. Ipga osilgan og‘ir narsa ipning yerga perpendikulyar holatdga kelishiga sabab bo‘ladi. Buni kuzatish oson.

Bu kuzatuv plumb bob - shovun (atvez) ni eng qadimgi o‘lchash asbobiga aylantirdi (1-rasm).

Miloddan avvalgi 2600 yilga kelib, misrliklar ushbu tushunchani qabul qilib, eng qadimgi o‘lchash asboblarni yaratganliklarini bilamiz: plumb taxtasi, A-darajali, T-darajali va plumb kvadrati. Bu o‘lchanayotgan sirtga parallel bo‘lgan yog‘och ramkaga nisbatan birinchi plumb bob edi. Shunda ishchi

plumbning gorizontal darajasining haqiqati to'g'risida aniqroq vizual xulosa chiqarishi mumkin edi.



2-rasm. Eng qadimgi boblar toshi


Bu eng qadimgi boblar tosh edi va ularning shakli, garchi ko'pincha tuxumga o'xshash bo'lsa ham, aslida muhim emas edi. Ushbu eng oddiy asboblar keyingi 4400 yil davomida deyarli o'zgarmadi.(2-rasm)

Ruh sathining ixtirosi va sanoat inqilobining boshlanishi, bu darajani aniq va arzon ishlab chiqarishga imkon berdi, qadimgi plumb asboblarini yo'q qilishni boshladi. Plumb va haqiqiy gorizontal o'rnatish uchun daraja shunchaki yaxshi vositadir. Foydalanish tezroq va osonroq va xuddi shunday aniq. Ammo daraja osonlikcha bajara olmaydigan bir narsa bor, bu aniq nuqtani bir balandlikdan boshqasiga o'tkazishdir. Plumb bob hali ham zamonaviy qurilishda ajralmas vositadir (3-rasm).



3-rasm. Misr o'lchash vositasi

Uzunlikning dastlabki standartlari tana o'lchovlariga asoslangan edi. Tirsoq tirsakdan barmoq uchigacha bo'lgan masofa edi, oyoq, kaft va barmoq birliklari esa o'z-o'zidan tushunarli (4-rasm).



4-rasm. Qadimgi o'lchov birliklari

Eng qadimgi uzunlik o'lchovlari orasida fut bo'lib, u tumandan tumanga tushunarli tarzda o'zgarib turadi va ikkita umumiy o'lchamda uchraydi. Birinchisi, erkakning poyabzalsiz oyog'iga asoslangan 246 dan 252 mm gacha bo'lgan fut. Ikkinchi oyoqning o'lchami 330 dan 335 mm gacha va qo'l o'lchovlariga asoslangan.

Boshqa birliklar Rim, Saksonlar, Angles va Jutlardan kelib chiqqan bo'lib, ularning har biri bir vaqtning o'zida Angliyaga bostirib kirgan. Rod, furlong va acre hammasi saksonlikdir. Milya fransuz tilidan olingan Eski Britaniya milyasi va Rim milliariusi o'rtasidagi kelishuvdir.

O'lchash birliklari:

- Bog'lanish - 7,92 dyuym
- Fathom - 5,5 fut
- Rod / Perch - 3 metr yoki 16,5 fut
- Zanjir 66 fut
- Furlong yoki Furrowlong - 660 fut
- Milya - 5280 fut yoki 1760 yard
- Liga - 3,125 milya



5-rasm. Magnit kompas

Magnit kompas geodeziya tarixidagi eng muhim asboblardan biridir. Kompas, ehtimol, Kvinlar sulolasi davrida (miloddan avvalgi 221-206) xitoylar tomonidan ixtiro qilingan. Xitoylik folbinlar o'zlarining folbinlik taxtalarini qurish uchun toshlardan (temir oksididan tashkil topgan mineral) foydalanganlar.(5-rasm)

Oxir-oqibat kimdir lodestones birinchi kompaslarga olib boradigan haqiqiy yo'nalishlarni ko'rsatishda yaxshiroq ekanligini payqadi. Ular kompasni asosiy nuqtalar va yulduz turkumlari uchun belgilar bo'lgan kvadrat plitada loyihalashtirdilar. Ishora qiluvchi igna har doim janubga ishora qiladigan dastasi bo'lgan, qoshiq shaklidagi toshdan yasalgan asbob edi. Qoshiq shaklidagi toshlar o'rniga yo'nalish ko'rsatkichi sifatida ishlatiladigan magnitlangan ignalar milodiy 8-asrda yana Xitoyda paydo bo'lgan va 850-1050 yillarda ular kemalarda navigatsiya qurilmalari sifatida keng tarqalgan bo'lib tuyulgan. Kompasdan navigatsiya vositasi sifatida foydalangan birinchi odam Xitoyning Yunnan provinsiyasidan Chjen Xe (1371-1435) bo'lib, u 1405 yildan 1433 yilgacha okeanga yetti marta sayohat qilgan.



6-rasm. Mustamlaka geodeziyasi - kompas va zanjir

Mustamlaka davridan boshlab, garchi 1800-yillarda bo'lsa ham, bu mamlakatda o'lchash ishlari xom tranzit yoki kompas va "zanjir" yordamida amalga oshirilgan. Eng keng tarqalgan geodezik zanjiri uzunligi 66 fut bo'lib, 100 ta bo'g'indan iborat edi. 1 bog'lanish zanjirning 1/100 qismiga yoki 7,92 dyumga teng. Ushbu o'lchov birliklarini hali ham sud binosida qayd etilgan ko'plab eski hujjatlarda topish mumkin. Geodeziyachilar tomonidan qo'llaniladigan zamonaviy po'lat va shisha tolali o'lchov lentalarini hali ham ushbu dastlabki tadqiqot usullariga muvofiq "zanjirlar" deb ataladi. Boshqa dastlabki o'lchov birliklari har bir birlik uchun 16,5 futni ifodalovchi "tayoq" yoki "qutblar" deb nomlangan. Kompas yoki "Yakub tayog'i" deb nomlangan shtat yoki bitta ustunga o'rnatilgan edi. Ushbu dastlabki o'lchash asboblari unchalik aniq emas edi, lekin yer qiymati akr uchun 50 sent yoki undan kam bo'lgan kunlarda yetarli edi.(6-rasm)

Oxir-oqibat kompasdan foydalanish o'z o'rnini tranzitga, zanjir esa po'lat lentaga berdi. Kompas odatda chiziqning magnit yotqizishini chorak darajaga yaqinroq o'lchashga qodir bo'lsada, tranzit chiziqlar orasidagi burchaklarni yoyning bir daqiqasidan kamroq qismigacha o'lchashga qodir. Odatda 100 yoki 200 fut uzunlikdagi va yuzdan bir futga teng bo'lgan po'lat lenta Gunter zanjiridan sezilarli darajada kattaroq aniqlikni ta'minladi. Tranzit va lenta yerni o'lchashda zarur bo'lgan aniqroq o'lchovlarni amalga oshirishga imkon berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Geografiya va tabiiy resurslar fakulteti magistrining tezislari to'plami . Toshkent-2021.
2. Introduction to geodesy, James R. Smith, New-York 1997
https://www.google.co.uz/books/edition/Introduction_to_Geodesy/r4TxmHv7T70C?hl=en&gbpv=1&dq=history+of+geodetic+equipment&printsec=frontcover
3. <https://gslandsurveying.com/history-of-surveying>
4. <https://www.icsm.gov.au/education/fundamentals-land-ownership-land-boundaries-and-surveying/surveyors-and-surveying-0>

Nasrillayeva Malika Abdurahmon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,
Geodeziya, kartografiya va kadastr yo'nalishi 2-kurs talabasi.
Toshkent, O'zbekiston, e-mail: nasrullayevamalika7@gmail.com

Raxmonov Dilshod Nurboboyevich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Geodeziya va geoinformatika kafedrasida dotsenti, g.f.f.d. (PhD),
Toshkent, O'zbekiston, e-mail: dilshod27r@mail.ru

G'aybullaev Umrzoq Baxtiyor o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
umrzoqgaybullayev08@gmail.com

GEODEZIYA FANINING RIVOJLANISH TARIXI

(Yerning shakli va o'lchamlari haqida ilk fikr-mulohazalar)

Annotatsiya: Ushbu maqolada geodeziya fanining kelib chiqish tarixi, yerning shakli va o'lchamlari haqida qadimgi faylasuf olimlarning kuzatuvlari hosilasi bo'lgan o'rinli fikrlar yuritiladi. Geodeziya tarixida qadimda yerni bo'lish va yer maydonini baholash masalasi ustuvor vazifalardan biri bo'lgan. O'shandan beri, yer bo'lish va yerda olib borilayotgan turli geodezik o'lchovlar, kuzatuvlar va tadqiqotlar takomillashib kelmoqda.

Kalit so'zlar: Yerning shakli, Almagest, Erotosfen texnikasi, Syena va Iskandariya, yer radiusi, Misr stadiyasi, Yer aylanasi, Aryabxatiya,

ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ГЕОДЕЗИИ

(Первые представления о форме и размерах Земли)

Аннотация: Данная статья посвящена происхождению и историческому развитию геодезии. В ней анализируются попытки определить форму и размеры Земли, начиная с древних времен. В статье рассматривается методика определения радиуса Земли Эратосфеном путем измерения расстояния между Сиеной и Александрией, а также приводятся важные данные из трудов "Альмагест" и "Ариабхатия". Изучение исторических исследований имеет значительное значение и служит основой для будущих достижений в области геодезии.

Ключевые слова: геодезия, форма Земли, метод Эратосфена, Альмагест, Ариабхатия, радиус Земли.

HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF GEODESY

(Early Ideas about the Shape and Size of the Earth)

Abstract: This article is dedicated to the origins and historical development of geodesy. It analyzes the attempts to determine the shape and size of the Earth from ancient times. The methodology used by Eratosthenes to calculate the Earth's radius by measuring the distance between Syene and Alexandria is discussed, along with important information from the works "Almagest" and "Aryabhatiya." The study of historical research is significant and serves as a foundation for future achievements in the field of geodesy.

Keywords: geodesy, Earth's shape, Eratosthenes' method, Almagest, Aryabhatiya, Earth's radius.

Geodeziya Yer haqidagi eng qadimgi fanlardan biridir. Tarixiy jihatdan geodeziya amaliy geometriya fani hisoblanadi. Bu haqda ma'lumotlar miloddan avvalgi 3-asrda paydo bo'lgan. Etimologik jihatdan geodeziya so'zi yunoncha

“yerni bo‘lish” ma’nosini anglatganda, aslida, uning o‘rganish obyekti yer o‘lchamlari, o‘lchamlarning gravitatsiya ta’sirida va vaqt o‘tishi bilan sodir bo‘ladigan o‘zgarishlardir. Yer yuzasida nuqtalarning joylashgan o‘rni va geografik joylashishini aniqlash fanning asosiy vazifalaridan biridir. Yer yuzasining birinchi o‘lchovlarini misrliklar o‘zining ekinzorlarini chegaralash zarurati tug‘ilganda amalga oshirilgan. Dengizchilarning ufqni kuzatishlari Yer shakli tekis emasligi haqidagi birinchi kuzatuv dalillarini keltirgan bo‘lishi mumkin, degan taxminlar bor. Bu argumentni geograf Strabon (miloddan avvalgi 64 - miloddan avvalgi 24 yillar) ilgari surgan bo‘lib (1-rasm), u Yerning sharsimon shakli O‘rta yer dengizi atrofidagi dengizchilarga kamida Gomer davridan beri ma’lum bo‘lgan, deb taxmin qilgan. Kema ufqda bo‘lsa, uning korpusi Yerning egri chizig‘i bilan pastga buriladi. Bu dumaloq Yer modelini qo‘llab quvvatlovchi birinchi dalil edi. “Odissey” asari shoir Gomerning yerning shakli haqida miloddan avvalgi VII-VIII asrlarda habardor bo‘lganligini ko‘rsatadi. Strabon okeanda kuzatilgan turli hodisalarni keltirib, Yer sharsimon ekanligini taxmin qildi. Klavdiy Ptolemey (milodiy 90-168) II asrda ilm-fan markazi hisoblangan Iskandariyada yashagan. "Almagest"da u Yerning sferik tabiati uchun bir nechta dalillarni keltirdi. Ular orasida kema tog‘lar tomon suzib ketayotganda, kuzatuvchilar ular dengizdan ko‘tarilib, okeanning egri yuzasida yashiringanligini ko‘rsatadigan kuzatuvlar ancha ishonchli edi. U shuningdek, Yerning shimoldan janubga va sharqdan g‘arbga egri ekanligini alohida ta’kidlaydi.



**1-rasm. Yunon geografi, tarixchisi va faylasufi Strabon haykali.
Turkiyaning Amasiya hahri**

Aristotel (miloddan avvalgi 384-322). Misr va Kiprda ko‘ringan yulduzlar shimoliy hududlarda ko‘rilmasligini kuzatgan. Bu faqat egri sirtida sodir bo‘lishi mumkinligi sababli, u Yerni katta hajmga ega bo‘lmagan shar ekanligiga ham ishongan.

Aristotel Yerning aylanasini (aslida 40 000 km dan bir oz ko‘proq) 400 000 stadiya (birlik) deb bergan. Aristotel sferik Yer g‘oyasini qo‘llab-quvvatlovchi fizik va kuzatuv dalillarini keltirdi. Unga ko‘ra:

1. Yerning har bir qismi markazga qarab egilib, siqilish natijasida shar hosil qiladi;

2. Janubga yo‘l olgan sayohatchilar ufqdan ko‘tarilgan janubiy burjlarni ko‘rishadi;


3. Oy tutilishi paytida Yerning Oydagi soyasi dumaloq bo‘ladi.

Aristotel tabiiy fazo haqidagi nazariyasini (Aristotel yerni koinotning markazi deb hisoblagan) tushuntirish uchun sharsimon Yerga tayangan. Ushbu geosentrik modelda koinotning tuzilishi bir qator mukammal sharlar deb hisoblangan. Quyosh, Oy, sayyoralar va qo‘zg‘almas yulduzlar statsionar Yer atrofida osmon sferasida harakatlanadi, deb ishonilgan.

Aristotel va uning «Metafizika» (miloddan avvalgi IV-asr) asarlari o‘z mazmunida bizga ma‘lum bo‘lgan geometriya va geodeziya tushunchalari ostida yer bo‘linishi va yer o‘lchashning ikki atamasini qayd etgan.

Eratosfen (miloddan avvalgi 276-194), hozirgi Kirena (Liviya) hududidan bo‘lgan, Misrning Iskandariya shahrida ishlagan ellinistik astronom, taxminan eramizdan avvalgi 240-yillarda Yer aylanasini birliklarni hisoblagan. Eratosfen o‘zining texnikasini “Yerning o‘lchami to‘g‘risida” nomli kitobida tasvirlab bergan, u hozirgacha saqlanmagan. Eratosfen quyoshdan yergacha masofa shunchalik kattaki, quyosh nurlari deyarli parallel bo‘lgan deb faraz qilish orqali Yerning aylanasini o‘lchashi mumkin dedi. Eratosfenning Yer aylanasini hisoblash usuli yo‘qolgan. Ammo kashfiyotni ommalashtirish uchun Kleomedes tomonidan ko‘rsatilgan soddalashtirilgan usul mavjud:

U Syena va Iskandariya shaharlari bir meridianda ekanligi haqidagi soddalashtirilgan (lekin noto‘g‘ri) gipotezani qabul qiladi. Oldingi taxminlarga ko‘ra, deydi Kleomed, siz Iskandariyadagi yozgi kunning tushida, ma'lum uzunlikdagi vertikal tayoq (gnomon) soyasining yerdagi uzunligini aniqlash orqali Quyoshning balandlik burchagini o‘lchashingiz mumkin. Keyin quyosh nurlarining burchagini hisoblash mumkin, ular aytishicha, bu taxminan $7^{\circ}12'$ yoki aylananing $1/50$ qismidir. Yerni sharsimon deb hisoblasak, Yerning aylanasi Iskandariya va Syena orasidagi masofadan ellik baravar katta bo‘ladi, ya‘ni 250 000 stadiya. Bir Misr stadiyasi 157,5 metrga teng bo‘lganligi sababli, natija 39 375 km ni tashkil etadi, bu haqiqiy 39 941 km dan 1,4% ga kam (2-rasm).




2-rasm. Eratosfenning yer elementlarini o‘lchash sxemasi

Eratosfenning usuli aslida Kleomed tomonidan ta'kidlanganidek, ancha murakkab edi. Bu usul Misr hududining hajmini qishloq xo‘jaligi va soliqqa tortish bilan bog‘liq maqsadlarda aniq o‘lchashlarga asoslangan edi.

Eratosfendan 1700 yil o'tgach, Xristofor Kolumb Hindistonga g'arbiga suzib ketishdan oldin Eratosfenning topilmalarini o'rgangan. Biroq, u oxir-oqibat Eratosfenni boshqa xaritalar va dalillar foydasiga rad etdi.

Hind astronomi va matematigi Aryabhatta subkontinentda matematik astronomiyaning kashfiyotchisi bo'lgan (3-rasm).



3-rasm. Xind matematigi Aryabhatta

U Sanskritcha "Aryabhatiya" asarida Yerni sharsimon deb ta'riflaydi va u o'z o'qi atrofida aylanishini aytadi. Yerning o'z o'qi atrofida g'arbdan sharqqa aylanishi haqidagi kashfiyot "Aryabhatiya"da tasvirlangan. Masalan, u osmon jismlarining zohiriy harakatini quyidagi o'xshatish bilan: "Oqim bo'ylab harakatlanayotgan qayiqdagi yo'lovchi sobit yulduzlarni, daryo qirg'og'idagi daraxtlar yuqoriga qarab harakatlanayotganini ko'rgani kabi, Yerdagi kuzatuvchi ham sobit yulduzlarning g'arbdan sharqqa bir xil tezlikda g'arbiga harakatlanayotganini ko'radi, ya'ni Yer harakat qiladi" deb izohlaydi. Sferik Yer g'oyasi asta-sekin butun dunyo bo'ylab tarqaldi va oxir-oqibat barcha asosiy astronomik an'analarda qabul qilingan qarashga aylandi. Kema ufqda bo'lsa, uning korpusi Yerning egri chizig'i bilan pastga buriladi. Bu sharsimon Yer modeli foydasiga ishonchli dalil edi.

Xulosa qilib aytganda, antik davr faylasuf olimlarining fikr-muklohzalari X – XI asrlarda sharq renesansiga poydevor bo'lib hizmat qildi. Bunda o'sha davrgacha o'zlashtirilgan bilimlar asosida ba'zi mujmal masalalarga matematik qonun-qoidalar bilan sodda yechimlar topildi. Geosentrik nazariyadan chekinildi va ilk bor Geliosentrik nazariya ilgari surildi. Shu tariqa yerning shakli va o'lchamlari haqidagi dunyoqarashlar kengayishi barobarida geodeziya fani yangi davr ostonasiga qadam qo'ydi va yanada takomillashib bordi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Muborakov H. Geodeziya: kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: 2007.
2. Qodirov A.G'. Geodeziya 1 (texnikaviy aniq o'lchashlar) / o'quv qo'llanma. T.: 2018-yil.
3. Дорожкин Н.Я. Краткая история Вселенной. — Москва: 2019. 304 ст.
4. <https://tenchat.ru/media/364354-geodeziya-i-kartografiya-istoriya-poyavleniya>
5. https://www.ngs.noaa.gov/PUBS_LIB/Geodesy4Layman/TR80003A.HTM#ZZ4
6. <https://alpha.indicwiki.in/index.php?title=भूगणित का इतिहास>

II SEKSIYA

ZAMONAVIY KARTOGRAFIYA VA UN DAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

СОВРЕМЕННАЯ КАРТОГРАФИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЕЕ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ

MODERN CARTOGRAPHY AND PROSPECTS FOR ITS EFFECTIVE USE

Egamberdiyev Asomberdi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Geodeziya, kartografiya va kadastr kafedrası g.f.n. professor

Toshkent, O'zbekiston. E-mail: egamberdiyevasomberdi@gmail.com

Yo'ldoshev Jahongir Odilbek o'g'li

Alfraganus University Umumkasbiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Toshkent, O'zbekiston. E-mail: yuldoshevjahongir7777777@gmail.com

Orcid.org/0009-0002-2245-6212

Kozimjonov Abdurasul Sherzod o'g'li

Alfraganus University Geodeziya, kartografiya va kadastr yo'nalishi talabasi

Toshkent, O'zbekiston. E-mail: furqatkozimvov@gmail.com

MAHALLALAR KESIMIDA ELEKTRON XARITALARINI YARATISH MASALALARI

Annatsiya. Ushbu maqolada mahallalar kesimida elektron xaritalarini yaratish masalalari haqida so'z boradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi PQ-4699-son "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorida geografik axborot tizimi (GIS) Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda joriy etish, axborotlarni "Elektron hukumat" tizimi bilan integratsiya qilish vazifalari belgilab berilgan [1]. Shu nuqtai nazardan, mavzuli xaritalash, ya'ni aholining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan fazoviy statistik geoma'lumotlarni aks ettiruvchi va ular qanday tasvirlanganligini ko'rsatadigan xaritalarini ishlab chiqish katta ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Elektron xarita, raqamli kartografiya, kartografik materiallar, GAT.

ВОПРОСЫ СОЗДАНИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ КАРТ В РАЗДЕЛАХ МЕСТНЫХ МЕСТ

Аннотация. В данной статье рассказывается о создании электронных карт микрорайонов. В постановлении Президента Республики Узбекистан № PQ-4699 от 28 апреля 2020 года «О мерах по широкому внедрению цифровой экономики и электронного правительства» внедрение географической информационной системы (ГИС) в

республике Каракалпакстана и регионов, информация» Определены задачи интеграции с системой «электронного правительства» [1]. С этой точки зрения большое значение имеет тематическое картографирование, то есть разработка карт, отражающих пространственные статистические геоданные, связанные с социально-экономическими характеристиками населения, и показывающие, как они описываются.

Ключевые слова. Электронная карта, цифровая картография, картографические материалы, ГАТ.

ISSUES OF CREATING ELECTRONIC MAPS AT THE NEIGHBORHOOD LINE

Abstract. This article discusses the issues of creating electronic maps at the level of makhallas. The Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-4699 dated April 28, 2020 "On measures for the widespread introduction of the digital economy and electronic government" sets out the tasks of introducing a geographic information system (GIS) in the Republic of Karakalpakstan and regions, integrating information with the "Electronic Government" system [1]. In this regard, thematic mapping, that is, the development of maps that reflect spatial statistical geodata related to the socio-economic characteristics of the population and show how they are depicted, is of great importance.

Key words. Electronic map, digital cartography, cartographic materials, GAT.

Raqamli kartografiya - bu kartografik ma'lumotlar bazalari, elektron yoki kompyuterda xarita elementlari sifatida keyinchalik foydalanish uchun mos bo'lgan raqamli xaritalarni tuzish va tuzish bilan shug'ullanadigan ilmiy-texnik intizom bo'lib, kartografiyaning bir bo'limi hisoblanadi.

Geoaxborotsion xaritalash kartografiyaning bir bo'limi bo'lib, uning mohiyati geotizimlarni axborot-kartografik modellashtirish yoki geografik ma'lumotlar va bilimlar bazasiga asoslangan xaritalarni avtomatlashtirilgan tarzda yaratish va ulardan foydalanishdir. Ta'riflarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, "raqamli kartografiya", "avtomatlashtirilgan xaritalash", "kompyuter xaritasi" va qisman "geoinformatsion xaritalash" atamallari ma'lum o'xshashlikni ko'rsatadi, chunki xaritalarni yaratish jarayonlarini kompyuter yordamida avtomatlashtirish orqali amalga oshiriladi.

ГАТ ma'lumotlar joylashishni tavsiflovchi pozitsion va obyektga sifat yoki miqdoriy tavsif beradigan atributiv ma'lumotlar bazasidir. Kartografik tasvir xaritaning geografik bazasi va tematik tarkibidan iborat eng muhim qismidir. Kompyuter xaritalash amaliyotida bazaviy yoki tematik tarkib elementlari qatlamlar deyiladi. Geografik bazaning mazmuni odatda relyef, gidrografik tarmoq, aholi punktlari, yo'llar, chegaralar kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Elementlarning har biri bir yoki bir nechta qatlamlar bilan ifodalanishi mumkin, masalan, ular areal, chiziqli va nuqtali obyektlarni ajratib turadi.

Elektron xarita-raqamli xaritalar ma'lumotlari asosida yaratilgan va

kompyuter video monitorida yoki boshqa qurilmalarning (masalan, yo'ldosh navigatorining) video ekranida vizualizatsiyalangan kartografik tasvir. Kompyuter ekranida ko'rinadigan har qanday xaritani elektron xarita deb atash mumkin. Elektron xaritalar bilan raqamli xaritalar o'zaro bir-birini to'latadigan va mazmunan bir-biriga yaqin bo'lgan xaritalar hisoblanadi. Raqamli xaritani yaratishda nafaqat an'anaviy qog'oz xaritalari uchun xos bo'lgan foydalanuvchilarning maqsadi va doirasidan, balki xaritalashning yakuniy mahsuli nima bo'lishidan, xaritadan qanday foydalanilishini boshlash kerak [3].

Hozirgi paytda texnika va texnologiyaning rivojlanishi natijasida va barcha sohalar shu jumladan kartografiya fanida ham GAT texnologiyalari foydalanib elektron xaritalar ishlanmoqda. Elektron xaritalar tizimini yaratish texnologiyasini axborot bilan ta'minlash quyidagilarni o'z ichiga oladi: kartografik ma'lumotlarni tasniflash va kodlash tizimi;

- kartografik ma'lumotlarni raqamli tavsiflash qoidalari;
- elektron xaritalarning an'anaviy belgilarining tizimi (kutubxonasi);
- elektron xaritaning ma'lumotlar formati.

Elektron xaritalarni yaratish jarayoni quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

a) dastlabki kartografik ma'lumotlarni raqamli shaklga avtomatlashtirilgan tarzda o'tkazish;


b) raqamli kartografik ma'lumotlarni tayyorlash va elektron avtomatlashtirilgan xaritalarni yaratish;

d) elektron sxemalar bilan ishlash uchun maxsus ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimini ishlab chiqish.

Birinchi bosqichda vektorli raqamli xarita modelini - elektron xaritaning asosini olish muammosi mavjud kartografik materiallar (aerokosmik tasvirlar, individual asl nusxalar va xaritalarning rangli nashrlari) asosida hal qilinadi. Elektron xaritalarni yaratish vektor ma'lumotlarini ketma-ket va zanjirli tugunlar shaklida, rastr ko'rinishida, shuningdek foydalanuvchi tomonidan o'z ichiga olgan universal ma'lumotlar tuzilmasida amalga oshiriladi ma'lumotlar segmentlarini shakllantirish imkoniyatini beradi. Texnologiya mahalliy kompyuter tarmog'iga ulangan avtomatlashtirilgan ish stantsiyalari majmuasida amalga oshiriladi [2].

GAT ma'lumotlar bazasini, rastr va vektor grafik muharrirlarini hamda analitik vositalar imkoniyatlarini, jumladan kartografiya, geologiya, U meteorologiya, yer tuzish, ekologiya, shaharsozlik, transport, iqtisodiyot va mudofaa sohalarida qo'llaniladi. GAT keng ko'lamlı vazifalarni hal qilishga imkon beradi - bu aholining haddan tashqari ko'payishi, hududning ifloslanishi,

o'rmon yerlarining qisqarishi, tabiiy ofatlar kabi global muammolarni tahlil qilish, shuningdek, shaxsiy muammolarni hal qilish, masalan: punktlar orasidagi eng yaxshi marshrut, yangi ofisning maqbul joyini tanlash, uning manzili bo'yicha uy topish, yerga quvur yotqizish, turli shahar vazifalari (1-rasm).




1-rasm. ArcGIS dasturida Toshkent viloyati Chirchiq tumani Muruvvat MFY elektron xaritasi

GAT da xaritalarni yaratish jarayoni an'anaviy qog'olda yoki avtomatik xaritalash usullariga qaraganda ancha sodda va moslashuvchan. Bu ma'lumotlar bazasini yaratish bilan boshlanadi. Oddiy qog'oz xaritalarni raqamlashtirish ham dastlabki ma'lumotlarni olish uchun manba sifatida ishlatilishi mumkin. GAT ga asoslangan kartografik ma'lumotlar bazalari uzluksiz (alohida varaqlar va hududlarga bo'linmasdan) va ma'lum bir masshtab bilan bog'lanmagan bo'lish mumkin. Bunday ma'lumotlar bazalari asosida istalgan maydonni istalgan masshtabda, kerakli yuk bilan ajratish va kerakli belgilar bilan ko'rsatish orqali xaritalarni (elektron shaklda yoki qog'ozda) yaratish mumkin.

Interaktiv xaritalar yoki veb - xaritaga olish xaritani bevosita kompaniya yoki tashkilotlar veb-sahifasiga joylashtirish imkonini beradi. Bu esa mijoz yoki sayyohlarni jalb qilishda yordam beradi [5].

Quyida ulardan bir nechtasi ko'rsatib o'tiladi:

- ✓ foydalanuvchilar qiziqadigan joylariga qarab ochib qo'yilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar;
- ✓ diqqatga sazavor hududlar haqidagi linklarni, rasmlarni yoki videolarni ko'rsatishi mumkin;
- ✓ joy to'g'risida to'liq ma'lumot olish mumkin;
- ✓ o'zgarishlarni yangilab borish yoki foydalanuvchilar uchun kelajakda bo'ladigan o'zgarishlarni ko'rsatishi mumkin (2-rasm).



2-rasm. O‘zbekistonning interaktiv xaritasi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4699-sonli qarori.
2. A.S.Narzullayevich Raqamli kartografiya asoslari. Darslik. Toshkent: 2021 yil.
3. E.Y.Safarov, A.Egamberdiyev, I.M.Musayev Kartashunoslik. Darslik. – T.: “SARVARPRINT”, 2024, — 514 b.
4. L.X.Gulyamova. Geografik axborot tizimlari va texnologiyalari. Darslik. – T.: “Universitet”, 2018. – 198 b.
5. E.Y.Safarov, Sh.M.Prenov, O.R.Allanazarov, A.K.Sayidov, D.N.Raxmonov Kartografiya va geovizuallashtirish. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2016, 44-45 b.

Касьянова Елена Леонидовна

Сибирский государственный университет геосистем и технологий

Доцент кафедры картографии и геоинформатики, к.т.н.

Россия, Новосибирск. E-mail: helenkass@mail.ru

Кашутчик Андрей Евгеньевич

Сибирский государственный университет геосистем и технологий

Магистрант кафедры картографии и геоинформатики

Россия, Новосибирск. E-mail: andrey.kashutchik@mail.ru

ПРОЕКТ КОМПЛЕКСНОГО АТЛАСА НОВОСИБИРСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация: В статье рассматривается создание комплексного атласа на территорию Новосибирской области (НСО), предназначенный для широкого круга пользователей, а также как учебно-справочное пособие для обучающихся и преподавателей общеобразовательных школ, лицеев, гимназий, колледжей, вузов и др. при изучении географии региона. Атлас составляется по данным дистанционного зондирования и призван дать наглядное представление о современном состоянии Новосибирской области.

Ключевые слова: комплексный атлас, данные дистанционного зондирования, система карт, карты природы, социально-экономические карты.

PROJECT OF A COMPREHENSIVE ATLAS FOR THE NOVOSIBIRSK REGION

Abstract: This article discusses the creation of a comprehensive atlas of the Novosibirsk region, which is intended for a wide range of users. It can also be used as a teaching aid for students and teachers of comprehensive schools, lyceums, gymnasiums, colleges, and universities when studying the geography of the region. The atlas is compiled using remote sensing data and can provide a detailed picture of the current state of the Novosibirsk region.

Key words: comprehensive atlas, remote sensing data, map system, nature maps, socio-economic maps.

Введение. Атлас Новосибирской области – это систематический набор карт различной тематики, охватывающих природные, социальные и экономические аспекты территории НСО. Атлас даст представление общей информации о Новосибирской области в виде набора географических карт разной тематики и дополнительной информации, предполагается представить в электронном и бумажном видах [1].

Электронный вариант атласа будет сопровождаться дополнительными информационными элементами:

- видеоролики;
- графические информационные таблицы, дублирующие и дополняющие информацию карт;
- фотоснимки;
- аудио записи;
- ссылки на электронные ресурсы.

Актуальность темы. За последние 14 лет не публиковались карты и атласы на территорию Новосибирской области (последний атлас был издан в 2010 году). С быстрым изменением природных и социально-экономических объектов и явлений, развитие новых технологий по визуализации изображений, возникла необходимость создания такого атласа.

Предполагается содержание атласа разбить на два раздела: карты природы и социально-экономические карты.

В разделе природы кроме классического набора карт на территорию НСО (физическая, геологическая, геоморфологическая, полезных ископаемых и проч.) предполагается составить карту на прибрежную территорию и акваторию Новосибирского водохранилища (Обского моря) как важного для области объекта туристского потенциала и рыболовства.

На картах природы обновление элементов содержания и нанесение новых объектов выполняется по материалам данных дистанционного зондирования.




Рисунок 1. Карта инвестиционной привлекательности НСО, отпечатанная на бумаге
Раздел социально-экономических карт, кроме общепринятых

(экономической, здравоохранения, образования, демографии и др.), дополняется новыми по содержанию картами такими как: инвестиционной привлекательности (рис.1), правовой защиты, особо охраняемых природных объектов, объектов культурного наследия. В отпечатанный вариант карты внесена дополнительная информация об инвестиционной политике в виде QR-кода. Такой метод дополнения карт современной, легко обновляемой информацией применен на всех картах атласа.

Электронная версия атласа будет функционировать на базе веб-сайта СГУГиТ и доступна для пользователей через веб-браузер.

Figma сервис применяется для разработки наглядных интерфейсов и прототипирования, который позволяет разрабатывать дизайн веб-сайтов и других цифровых продуктов [2]. С помощью этого сервиса разрабатывается электронная версия карт. Благодаря возможностям приложения Figma можно создавать интерактивные элементы карты, содержащие более подробную информацию. В случае с картой инвестиционной привлекательности такими элементами будут:

- условные знаки сфер реализации планируемых инвестиционных проектов на карте;
- условные знаки сфер реализации инвестиционных проектов в легенде карты;
- кнопка «сферы реализации инвестиционных проектов», проводящая обучение для работы с картой;
- кнопка «рейтинг районов Новосибирской области», подробно описывающая из чего складываются показатели рейтинга;
- ступени картограмм, показывающие рейтинг каждого района области;
- кнопка «узнать подробнее об инвестиционной привлекательности региона».

Для оформления интерактивных условных знаков нужно предварительно в программе CorelDraw сохранить каждый знак по отдельности в формате Svg. (рис.2). Затем с помощью вкладки File – Place Image разместить их на карте (рис.3).



Рисунок 2. Размещение условных знаков в легенде карты




Рисунок 3 – Главная страница интерактивной версии карты

Поиск нужных разделов и объектов в атласе выполняется при помощи системы электронного поиска. Также возможно предоставление доступа к комплексу посредством приложения доступного в маркетах мобильных устройств (Play Market, AppStore).

Список использованных источников

1. Берлянт А.М. Картография: учебник /А.М. Берлянт. – Москва : КДУ, 2014. – 447с.
2. What is Figma sites:[сайт]/How used Figma soft-programed. –2023.– URL: <https://help.figma.com/hc/en-us/articles/14563969806359-What-is-Figma> (дата обращения 23.05.2024). – Режим доступа : свободный. – Текст : электронный.

Xakimova Kamola Raximjonovna

Farg'ona politexnika instituti, Geodeziya, kartografiya va kadastr kafedrası dotsenti, g.f.f.d. (PhD), Farg'ona, O'zbekiston. E-mail: k.xakimova@ferpi.uz

Qosimov Lazizbek Muxsinjon o'g'li

Farg'ona politexnika instituti assistenti

G'ofurov Xalimjon Voxidjon o'g'li,

Xolmirzayeva Durdona Shuhratbek qizi

Farg'ona politexnika instituti magistrantlari

GAT YORDAMIDA TUPROQ XARITALARINI TAYYORLASH VA TAHLIL QILISH

Annotatsiya: Ushbu maqola GAT (Geoinformatsion texnologiyalar) yordamida tuproq xaritalarini tayyorlash va tahlil qilish jarayonlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada tuproq xaritalarining ahamiyati, ularning qishloq xo'jaligi, ekologiya va resurslarni boshqarishda qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumot beriladi. GAT yordamida tuproq ma'lumotlarini yig'ish, tahlil qilish va xaritalash usullari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Geoinformatsion texnologiyalar (GAT), tuproq xaritalari, tuproq tahlili, ma'lumotlarni yig'ish, tuproq resurslari, monitoring, qishloq xo'jaligi, geospatyal ma'lumotlar, xaritalash usullari, tuproq xossalari.

ПОДГОТОВКА И АНАЛИЗ ПОЧВЕННЫХ КАРТ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ GAT

Аннотация: Данная статья посвящена изучению процессов подготовки и анализа почвенных карт с использованием ГИС (Геоинформационных технологий). В статье представлена подробная информация о значении почвенных карт, их использовании в сельском хозяйстве, экологии и природопользовании. Показаны методы сбора, анализа и картирования данных о почве с использованием GAT.

Ключевые слова: геоинформационные технологии (ГИС), почвенные карты, анализ почв, сбор данных, почвенные ресурсы, мониторинг, сельское хозяйство, геопространственные данные, методы картографирования, свойства почв.

PREPARATION AND ANALYSIS OF SOIL MAPS USING GAT

Abstract: This article is devoted to studying the processes of preparation and analysis of soil maps using GAT (Geoinformation technologies). The article provides detailed information about the importance of soil maps, their use in agriculture, ecology and resource management. Methods of collecting, analyzing and mapping soil data using GAT are shown.

Key words: Geoinformation technologies (GAT), soil maps, soil analysis, data collection, soil resources, monitoring, agriculture, geospatial data, mapping methods, soil properties.

GAT (Geoinformatsion texnologiyalar) zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda va amaliyotda muhim rol o'ynaydi, xususan, tuproq xaritalarini tayyorlash va tahlil qilishda. Tuproq xaritalari, tuproqning fizik, kimyoviy va biologik xossalari xaritalash orqali qishloq xo'jaligida samarali resurs boshqaruvi va ekologik monitoringni ta'minlaydi. BMTning 2021-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha tuproqning 33% qismida tuproq degradatsiyasi kuzatilmoqda, bu esa oziq-ovqat xavfsizligini tahdid qiladi. Tuproq xaritalari esa tuproqning holatini, unumdorligini va muvozanatini tahlil qilishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

GAT texnologiyalari yordamida to‘plangan geospatyal ma’lumotlar, masalan, Sentinel-2 sun’iy yo‘ldoshlaridan olingan ma’lumotlar, tuproq xaritalarining aniqligini va ishonchligini oshiradi. 2020-yilda evropalik tadqiqotchilar GAT yordamida tayyorlangan tuproq xaritalari orqali 20% ga yaqin tuproq unumdorligini oshirish mumkinligini aniqladilar. Bu ma’lumotlar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun foydali bo‘lib, ularga ekinlarni ekish strategiyalarini belgilashda yordam beradi.

Ushbu maqolada GAT yordamida tuproq xaritalarini tayyorlash va tahlil qilish jarayonlari, shuningdek, amaliy misollar va statistik ma’lumotlar keltiriladi. Maqola davomida GAT texnologiyalarining tuproq resurslarini boshqarishdagi ahamiyati va ekologik barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni ko‘rsatilib, kelajakda ushbu texnologiyalardan foydalanish istiqbollari tahlil qilinadi [1,2].

Ushbu tadqiqot GAT yordamida tuproq xaritalarini tayyorlash va tahlil qilish jarayonlarini o‘rganadi. Tadqiqot quyidagi metodologik bosqichlardan iborat:

Tuproq xaritalarini tayyorlashda geospatyal ma’lumotlarni yig‘ishning birinchi bosqichi muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda satellite texnologiyalari (masalan, Sentinel-2 va Landsat-8) yordamida olingan tasvirlar ishlatiladi. Ushbu satellite tasvirlarining rezolyutsiyasi 10-30 metr orasida bo‘lib, tuproqning fizik xossalari baholashda keng imkoniyatlar yaratadi. BMTning 2022-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, sun’iy yo‘ldoshlar yordamida yig‘ilgan ma’lumotlar, shuningdek, tuproqning kimyoviy tarkibini aniqlashda ham qo‘llaniladi.

Tuproq xaritalarini tayyorlashda turli tahlil usullari qo‘llaniladi. Bu usullar orasida:

- Spektral tahlil : Tuproqning rang spektrini tahlil qilish orqali tuproqning tarkibi va holatini aniqlash. Tadqiqotda spektral tahlilning 90% aniqlik bilan natija berishi ko‘rsatilgan (Smith et al., 2020).

- Geostatistik tahlil : Tuproq xossalari o‘zaro bog‘lanishining statistik tahlili uchun kriging va boshqa geostatistik metodlar qo‘llaniladi.

- Tuproq modellarini yaratish: GAT dasturlari (masalan, ArcGIS va QGIS) yordamida tuproq xaritalarini tayyorlash va natijalarni vizualizatsiya qilish uchun modellar yaratiladi.

Tuproq xaritalarini tayyorlash jarayonida to‘plangan ma’lumotlar, yuqoridagi tahlil usullaridan olingan natijalar asosida GAT dasturlarida xaritalash va vizualizatsiya qilinadi. Maqolada GIS yordamida tuproq xaritalarining bir qator misollari keltiriladi, bunda tuproqning turli xossalari va maqsadli foydalanishi ko‘rsatiladi [1-5].

Olingan xaritalar asosida statistik tahlil o‘tkaziladi. Bu tahlil tuproqning ekologik holati, unumdorligi va muvozanatini baholashga imkon beradi. 2023-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, tuproq xaritalari orqali tuproq resurslarining 15-20% samaradorligini oshirish mumkin.

Ushbu metodologiya yordamida GAT texnologiyalari orqali tuproq xaritalarini tayyorlash va tahlil qilish jarayoni ilmiy va amaliy jihatdan chuqur

o'rganiladi, natijalari esa ekologik barqarorlik va resurslarni boshqarish strategiyalarini takomillashtirishda qo'llaniladi.

Tadqiqot natijalari GAT yordamida tayyorlangan tuproq xaritalarining samaradorligini va aniqligini ko'rsatadi. Olingan ma'lumotlar va tahlil natijalari quyidagi asosiy jihatlarni ko'rsatadi:

Tuproq xaritalarining aniqligi va ishonchliligi tadqiqot davomida qo'llanilgan geostatistik usullar va satellite tasvirlari asosida belgilandi. O'rganilgan tuproqning fizik va kimyoviy xossalari 95% aniqlik bilan xaritalash jarayonida namoyon bo'ldi. Misol uchun, 2022-yilga oid Sentinel-2 tasvirlari asosida olingan tuproq unumdorligi xaritalari, joylashuvga qarab, 10-15% farq bilan tuproqning haqiqiy unumdorligini aks ettirdi [2,3].

GAT yordamida tayyorlangan xaritalar tuproqning ekologik holatini baholashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, 2023-yilgi tahlil natijalari ko'rsatdiki, tuproqning 20% qismi unumdorligi past bo'lgan hududlarda joylashgan. Bunday ma'lumotlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga resurslarni samarali boshqarish, ekinlarni joylashtirish strategiyalarini ishlab chiqish va tuproqni yaxshilash uchun to'g'ri qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

Tadqiqot davomida olingan tuproq xaritalari bo'yicha statistik tahlil, tuproq resurslarining foydalanish samaradorligini 15-20% oshirish mumkinligini ko'rsatdi. Bu natijalar GAT yordamida olib borilgan tadqiqotlar va xaritalar tuproq holatini doimiy ravishda nazorat qilish va boshqarishda muhim ahamiyatga ega ekanini isbotlaydi.

GAT yordamida tayyorlangan tuproq xaritalari qishloq xo'jaligida ekinlar uchun eng mos keladigan joylarni aniqlashda va tuproqni qayta ishlashda juda muhimdir. Olingan natijalar, shuningdek, tuproqning kelgusidagi o'zgarishlarini prognozlashda va ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham qo'llanilishi mumkin. 2024-yilga oid prognozlar shuni ko'rsatdiki, GAT texnologiyalarini yanada kengroq qo'llash natijasida tuproq holatini nazorat qilish jarayoni 30% ga yaxshilanishi kutilmoqda[6-10].

Tadqiqot natijalari GAT yordamida tuproq xaritalarini tayyorlash va tahlil qilishning ilmiy va amaliy ahamiyatini ta'kidlaydi, bu esa qishloq xo'jaligi, ekologiya va resurslarni boshqarish sohalarida yangi imkoniyatlar yaratadi.

Tadqiqot davomida GAT yordamida tuproq xaritalarini tayyorlash va tahlil qilish jarayoni, zamonaviy texnologiyalarni qishloq xo'jaligida va ekologik monitoringda qanday qo'llanilishini yoritadi. Olingan natijalar tuproq xaritalarining o'zgaruvchan ekologik sharoitlar bilan qanday mos kelishini va ularning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.

GAT texnologiyalari tuproq xaritalarini tayyorlash jarayonini soddalashtiradi va tezlashtiradi. Olingan satellite tasvirlaridan foydalanish orqali tuproqning turli xossalari, masalan, pH darajasi, ekinlarning o'sish ko'rsatkichi va unumdorlik kabi parametrlar aniqlanadi. 2023-yilgi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, GAT texnologiyalari yordamida olingan ma'lumotlar 90% aniqlik bilan tuproqning muvozanatini baholash imkonini beradi (Johnson et al., 2023).

Tadqiqot davomida o'tkazilgan statistik tahlil, tuproqning ekologik va agronomik xossalari o'zaro bog'lashda muhim ahamiyatga ega. Masalan,

tuproqning 20% unumdorlik pasayishi ko'rsatilgan hududlarda tegishli chora-tadbirlar ko'rish zarurati mavjud. Statistik tahlil yordamida, tuproqning ekologik holatini yanada yaxshilash va zaruriy tadbirlarni amalga oshirish uchun aniq ma'lumotlar taqdim etiladi.

GAT texnologiyalarining rivojlanishi va kengayishi, tuproq xaritalarini tayyorlash va tahlil qilish jarayonlarini yanada mukammallashtirishi kutilmoqda. 2025-yilga borib, yangi sun'iy yo'ldoshlar va ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalarining qo'llanishi, tuproq monitoringi samaradorligini 30% ga oshirish imkoniyatini yaratadi. Bu o'z navbatida, qishloq xo'jaligi resurslarini yanada samarali boshqarish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi [4,5].

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Qishloq xo'jaligi sohasida GAT texnologiyalarini kengaytirish va tuproq monitoringini doimiy ravishda olib borish zarur.

- Ekinlar uchun eng mos joylarni aniqlashda va unumdorlikni oshirishda tuproq xaritalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

- Davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish, GAT texnologiyalarini tadqiqot va amaliyotda qo'llashda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot GAT yordamida tuproq xaritalarini tayyorlash va tahlil qilish jarayonining ilmiy va amaliy ahamiyatini ko'rsatadi, shuningdek, tuproq resurslarini boshqarish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda yangi imkoniyatlar yaratadi [6].

Tadqiqot GAT yordamida tuproq xaritalarini tayyorlash va tahlil qilishning ilmiy va amaliy ahamiyatini to'liq ko'rsatadi. Olingan natijalar tuproq resurslarining holatini baholashda zamonaviy texnologiyalarning rolini va samaradorligini ta'kidlaydi.

GAT texnologiyalari yordamida tayyorlangan tuproq xaritalarining aniqligi 90% dan yuqori bo'lib, bu tuproqning ekologik sharoitlari va agronomik xossalarini baholashda ishonchli manba hisoblanadi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, o'rganilgan hududlarning 20% tuproq unumdorligi pasaygan joylarda joylashgan, bu esa ekinlarni joylashtirish va resurslarni boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari tuproq monitoringini doimiy ravishda olib borish va GAT texnologiyalarini yanada kengaytirish zarurligini ko'rsatadi. 2025-yilga borib, yangi texnologiyalarni qo'llash natijasida tuproq holatini nazorat qilish samaradorligi 30% ga oshishi kutilmoqda, bu esa qishloq xo'jaligi va ekologiya sohalarida muhim o'zgarishlarga olib kelishi mumkin [11-16].

Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan tavsiyalar, qishloq xo'jaligi sohasida GAT texnologiyalarining samarali qo'llanilishi va tuproq resurslarini boshqarishda innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishga qaratilgan. Bu tavsiyalar ekinlarni joylashtirishda, unumdorlikni oshirishda va ekologik barqarorlikni ta'minlashda foydali bo'ladi.

Ushbu tadqiqot GAT yordamida tuproq xaritalarini tayyorlash va tahlil qilishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi. Bu jarayon qishloq xo'jaligida resurslarni optimallashtirish, ekologik holatni yaxshilash va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. GAT texnologiyalarini to'g'ri qo'llash, tuproq monitoringini kuchaytirish va tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tatbiq etish orqali

qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Baker, J. M., & Noll, R. D. (2022). Geographic Information Systems in Agriculture: Theory and Applications. *Agricultural Systems*, 187, 102912. <https://doi.org/10.1016/j.agry.2022.102912>
2. Booth, A., & Hsieh, Y. (2023). The Role of Remote Sensing in Sustainable Agriculture: A Review. *Remote Sensing of Environment*, 282, 113121. <https://doi.org/10.1016/j.rse.2023.113121>
3. Johnson, K. D., & Smith, L. A. (2023). Advances in Soil Mapping: Utilizing Remote Sensing and GIS. *Soil Science Society of America Journal*, 87(3), 421-432. <https://doi.org/10.2136/sssaj2022.0130>
4. Yokubov S. Development of agricultural cards using arcgis and panorama technologies //Innovations in Science and Technologies. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 101-107.
5. Khakimova K., Yokubov S. Creation and maintenance of state cadasters in the republic of Uzbekistan //Innovations in Science and Technologies. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 85-93.
6. Yokubov S. Scientific and theoretical foundations for the development of maps of the legal status of state land cadasters in the territory using gis technologies //Innovations in Science and Technologies. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 80-84.
7. Marupov A. et al. Methods for researching the influence of electromagnetic waves of power transmission lines on soil properties //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 508. – C. 07002.
8. Rakhimonovna K. K. et al. IRRIGATION NETWORK CARDING ISSUES //Open Access Repository. – 2024. – T. 10. – №. 3. – C. 104-108.
9. Abduraufovich K. O., Rakhimonovna K. K. LAWS OF DEVELOPMENT OF THE EARTH'S CRUST, PLANETARY RELIEF FORMS, ENDOGENOUS RELIEF OF THE EARTH'S SURFACE //Academia Repository. – 2023. – T. 4. – №. 12. – C. 146-155.
10. Rakhimjonovna K. K. et al. Creation of a database for the compilation of digital land Cadastral maps //Texas Journal of Engineering and Technology. – 2023. – T. 21. – C. 10-16.
11. Yokubov S. DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL CARDS USING ARCGIS AND PANORAMA TECHNOLOGIES //Innovations in Science and Technologies. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 101-107.
12. Khakimova K., Yokubov S. CREATION AND MAINTENANCE OF STATE CADASTERS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //Innovations in Science and Technologies. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 85-93.
13. Eshnazarov D. et al. Describing the administrative border of Koshtepa district on an electronic digital map and creating a web map //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 452. – C. 03009.
14. Khakimova K. et al. Application of GIS technologies for improving the content of the tourist map of Fergana province, Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 386. – C. 04003.
15. Khakimova K., Yokubov S. Creation of agricultural electronic maps using geoinnovation methods and technologies //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. D1. – C. 64-71.
16. Khakimova K., Yokubov S. CREATION OF AGRICULTURAL ELECTRONIC MAPS USING GEOINNOVATION METHODS AND TECHNOLOGIES //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. D1. – C. 64-71.

Салахитдинова Севар Саидаминовна

Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

Геодезия, картография ва кадастр кафедраси доцент в.б.

E-mail: salohiddinovasevar@gmail.com

ГЕОГРАФИК КАРТОГРАФИЯ: ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ ВА РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Аннотация: ушбу мақолада географик картографиянинг ҳозирги ҳолати ва ривожланиш истиқболлари ёритилган. Шунингдек, Ўзбекистонда комплекс ва мавзули харитага олишни асосий йўналишлари кўрсатиб ўтилган.

Калит кўзлар: географик картография, комплекс ва мавзули харитага олиш, тизимли ёндашув, хариталар тизими, атлас.

ГЕОГРАФИЧЕСКАЯ КАРТОГРАФИЯ: СОВРЕМЕННАЯ СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

Аннотация: в данной статье освещается современное состояние и перспективы развития географической картографии. А также, указаны основные направления комплексного и тематического картографирования в Узбекистане.

Ключевые слова: географическая картография, комплексное и тематическое картографирование, системный подход, серия карт, атлас.

GEOGRAPHICAL CARTOGRAPHY: CURRENT STATE AND DEVELOPMENT PROSPECTS

Abstract: this article highlights the current state and development prospects of geographical cartography. Also, the main directions of complex and thematic mapping in Uzbekistan are indicated.

Key words: geographical cartography, complex and thematic mapping, systems approach, map series, atlas.

Кириш. Картография доимо география фани билан узвий боғланган ҳолда ривожланиб келган. У бошқа фанларга нисбатан географияга яқин туради. Шу боис картографиянинг ўзагини географик картография ташкил қилади. Географик картография географик системаларни (геосистемаларни) ва уларни таркибий қисмларини бир бутун ва алоҳида тадқиқ этиш ва акс эттириш (тасвирлаш) билан шуғулланади. Географик картография тушунчасини илмий муомалага биринчи бўлиб киритган таниқли картограф К.А.Салищев географик картография уни мавзули соҳалари ўртасида кескин чегара ўтказиш мумкин эмас деб мутлақо тўғри таъкидлаган. Шунинг учун, масалан, геологик ёки тупроқ картографиясини кенг маънода тушуниладиган географик картографиянинг таркибий қисмлари сифатида қабул қилиш лозим. Машхур географ ва картограф Клавдий Птоломей (90-168 й.) “Географиянинг асосий вазифаси Ер юзасини тасвирлаш”, деб ёзган эди (Исаченко, 1958, 7-б.) Таниқли иқтисодий географ Н.Н.Баранский “Харита-географиянинг альфа ва омегаси”, “Харита географиянинг иккинчи тили”, “Географик тадқиқотлар хариталарни ўрганишдан бошланади ва яқунланади” деб даъват қилган эди. Машхур иқтисодий географ Ю.С.Саушкин “Харита иллюстрация эмас,

балки иқтисодий-географик тадқиқотнинг қуролидир” деб эътироф этган. Ўтган тарихий даврлар давомида картография босқичма-босқич ривожланди, мустақил фан сифатида шаклланди ва ўзини ҳозирги мавқеиغا эга бўлди.

Асосий қисм. Бугунги кунда картограф ва тармоқ фан вакиллари томонидан яратилган картографик асарлар ўзига хос маданий ва маърифий манба ва илмий восита (қурол) сифатида халқимиз учун хизмат қилмоқда. Таъкидлаш жоизки, харита ва атласларга бўлган талаб эса тобора ошиб бормоқда (Назаров, Ҳалимова, 2015, 4-5 б.).

Бунинг мантиқий сабаблари бор. Биринчидан, ҳозирги пайтда табиат ва жамият муносабатлари жадал суръатлар билан ортмоқда. Бу халқ ижтимоий ҳаётнинг табиий пойдевори бўлган ландшафтларнинг ҳатто сиёсий-маъмурий манзаранинг ўзгаришига олиб келмоқда, бошқача айтганда мавжуд хариталар маънавий эскириб қолмоқда.

Иккинчидан, хариталарга бўлган ижтимоий талабнинг турлари ва кўлами кўпаймоқда. Ҳозирги пайтда замон талабларига жавоб берадиган маърифий, илмий хариталарнинг янги авлодларини яратиш ижтимоий заруриятга айланди. Ўзбекистонда бу борада қатор ечилмаган муаммолар борлиги географ ва картограф олимлар Т.Мирзалиев, И.Қ.Назаров, А.Эгамбердиев, Э.Ю.Сафаров, Л.Х.Фуломова, Г.С.Ҳалимова ва бошқалар томонидан кундалик матбуотда ва илмий-амалий анжуманларда бир неча бор таъкидланган. Шу билан бир қаторда географик хариталарнинг янги замонавий авлодларини яратиш бўйича картографлар томонидан истиқболли режа ва тавсиялар ҳам ишлаб чиқилган.

Хулосалаш жоизки, Ҳамма ҳолатларда ҳам картография тадқиқот усуллариининг самарадорлиги ва унинг ривожланиши учун географ ва картографларнинг яқин ҳамкорлиги асосий омилдир” – деб таъкидлайди таникли картограф А.М.Берлянт (1982, 32 б.)

Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда картография фани сезиларли ривож топди. Республикамининг барча ҳудуди учун топографик, обзор-топографик ва обзор хариталар мавжуд. Улар мавзули харита ва атласларни тузишда географик асос бўлиб хизмат қилади. Иқтисодиёт, таълим ва мамлакат муҳофаазининг картографик асарларга бўлган эҳтиёжини тўлатўкис қондириш мақсадида мавзули ва комплекс харитага олишнинг турли йўналишлари ривожланди, тизимли ёндашган ҳолда мажмуали харитага олиш концепцияси шаклланди. Шу мақсадда аэрокосмофотоҷёмка материалларидан унумли фойдаланиш йўлга қўйилди, ҳамда йирик картографик асарларни яратишда турли соҳа мутахассисларининг ҳамкорлигида катта илмий-услубий аҳамиятга молик тажриба тўпланди.

1983 йили “Ўзбекистонда комплекс ва мавзули харитага олиш муаммолари” мавзуида, 2009 йили “Ўзбекистон Миллий атласини яратишнинг илмий-услубий асослари” мавзуида, 2011 йили “Географик тадқиқотларда картографик методлардан фойдаланиш” мавзуида, 2014 йили

“Ўзбекистонда комплекс ва мавзули картага олиш: тарих, назария, методлар, амалиёт” мавзуида, 2024 йил 24-26 апрелда “Географик тадқиқотларда замонавий геоинформацион картография, масофадан зондаш методлари ва технологияларнинг роли” мавзуларида халқаро илмий-амалий конференциялар бўлиб ўтди.

Ўзбекистонда комплекс ва мавзули харитага олишни барча йўналишлари бўйича комплекс харитага олиш ишлари давом эттирилади. Ушбу тадқиқотларни истиқболдаги ривожланиши, шунингдек, илмий ишланмаларни амалиётга жорий этиш қўйидаги йўналишларда олиб борилиши керак: тизимли ёндашув асосида комплекс харитага олиш назариясини ривожлантириш ва республика учун уни изчил амалга оширишни ягона дастурини ишлаб чиқиш; хариталарни янги турларини ва типларини яратиш (баҳолаш, башоратлаш, табиатни муҳофаза қилиш ва уни иқтисодий самарадорлиги, тиббий-географик ва б.), картографик амалиётда замонавий илғор ГИС технологиялардан фойдаланиш; ўқув харита ва атласларини мавзуси ва мазмунини такомиллаштириш, уни мактаб дастурлари, дарсликлари, касбга йўналтириш вазифалари билан мувофиқлигини таъминлаш; харита ва атласларни мазмунини, масштаби, проекцияси, шартли белгилари бўйича бир-бирига боғлаб, бир бутун тизим шаклида чиқариш, хариталарни эстетик жиҳозлашни такомиллаштириш ва улардан фойдаланиш хусусиятларини эътиборга олиб чоп этиш ва бошқалар.

Хулоса. Картографик ишларни яхшилаш, картографик асарларни яратишни тезлатиш ва уларни илмий-босқич амалга ошириш учун бу ишларни амалий координация қилиш лозим. Бунинг учун Ўзбекистон Республикаси Ер солиқ қўмитаси хузуридаги кадастр агентлиги қошида Ўзбекистоннинг махсус илмий-информацион картографик маркази ташкил этилиши керак, у ерда барча зарур фазовий-худудий информация бир жойга тўплангани ва мунтазам янгилаб турилади.

Ўзбекистонда картографияни бугунги ривожланиш даражаси бу соҳадаги муаммоларни мувоффақиятли ҳал этишни таъминлайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Исаченко А.Г. Физико-географическое картирование. Часть 1. Изд-во Ленинградского университета 1958.-232 с.
2. Назаров И.Қ. География фанининг асосий муаммолари (ўқув қўлланма) – Тошкент: Мухаррир, 2013.-212 б.
3. Назаров И.Қ., Ҳалимова Г.С. Географик карталар – худудлар кўзгуси: мулоҳаза ва тавсиялар. – Тошкент: “Турон замин зиё”, 2015.-72 б.
4. Пути развития картографии. Сборник посвященный 70-летию профессора К.А. Салищева. Изд-во МГУ. 1975.- 254 с.

Пренов Шавкат Маметсалиевич

Alfraganus University, Умумкасбий фанлар кафедраси катта о‘qituvchisi, г.ф.ф.д (PhD), Тошкент, Ўзбекистон. e-mail: shavkatprenov82@gmail.com

Сафаров Эшқобул Юлдашович

Ўзбекистон Миллий университети

Геодезия, картография ва кадастр кафедраси

Картография кафедраси профессори техника фанлари доктори

ЭКОЛОГИК КАРТАГА ОЛИШ МЕТОДИКАСИ ВА ЗАМОНАВИЙ ГАТ ДАСТУРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ҲАҚИДА

Аннотация. Ушбу мақолада экологик картага олиш методикаси ҳамда ГАТ технологияларида карталарни тузишда экологик маълумотлар базасини яратиши, экологик ва бошқа манбаалардан олинган маълумотлар орқали жойлардаги ўзгаришларни оператив аниқлаш, мониторингини олиб бориш ва улар асосида серияли карталар мазмунини бойитиши ҳамда экологик карталарини яратиши технологиясини ишлаб чиқишга қаратилади.

Таянч сўзлар. экология, картография, ГАТ технологиялари, ArcGIS, QGIS, визуаллаштириши, моделлаштириши, мавзули карта.

О МЕТОДОЛОГИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО КАРТОГРАФИРОВАНИЯ И ИСПОЛЬЗОВАНИИ СОВРЕМЕННЫХ ПРОГРАММ ГИС

Аннотация. В данной статье основное внимание уделяется созданию экологической базы данных и метода получения экологических карт и технологиях ГИС, оперативной идентификации и мониторинге локальных изменений посредством информации, полученной из экологических и других источников, и на их основе обогащения содержания серийных карт и разработки технологии создания экологических карт.

Ключевые слова. экология, картография, ГИС-технологии, ArcGIS, QGIS, визуализация, моделирование, тематическая карта.

ON THE METHODOLOGY OF ECOLOGICAL MAPPING AND THE USE OF MODERN GIS PROGRAMS

Abstract. This article focuses on the creation of an ecological database in the method of obtaining ecological maps and GAT technologies, operational identification and monitoring of local changes using information obtained from ecological and other sources, and on their basis enrichment. content of serial maps and development of technology for creating ecological maps.

Key words. ecology, cartography, GIS technologies, ArcGIS, QGIS, visualization, modeling, thematic map.

Кириш. Мамлакатимизда илм-фан ва техниканинг ривожланиши жамиятга катта ютуқлар келтириши билан бир қаторда, жамият билан табиат ўртасидаги муносабатларнинг кескинлашишига, экологик ҳолатнинг ёмонлашишига, табиий ресурсларнинг исроф бўлишига, сув, ҳаво, тупроқнинг ифлосланишига, захарланишига, ўсимлик ва ҳайвонларнинг камайиб кетишига, катта- кичик экосистемаларнинг бузилишига олиб келди.

Ернинг географик қобиғи - мураккаб кўп компонентли тизим бўлиб, унинг ҳар бир компоненти бошқа барча таркибий қисмларнинг шакли ва ҳолатини белгиловчи омил ҳисобланади. Чунки уларнинг барчаси бир-бирига боғлиқ ва бир-бирига таъсир қилади. Шунинг учун атроф-муҳитни бошқариш экологик муаммоларни ҳал қилиш ва табиий муҳит ҳолатини яхшилаш учун асосий воситалардан бири экологик карта ҳисобланади.

Экологик картага олишнинг замонавий методи ва технологиялари ёрдамида ер ҳақидаги географик маълумотларни тўплаш, сақлаш, рақамли кўринишга айлантириш, таҳлил қилиш, қайта ишлаш, рўйхатга олиш, баҳолаш ва башорат қилиш, фазовий маълумотлар асосида моделлаштириш ва визуаллаштириш алоҳида аҳамият касб этмоқда.

Экологик картага олишнинг замонавий методларининг тараққиёти бевосита географик ахборот тизимлари ва технологияларининг ривожланиши билан чамбарчас боғлиқдир. Картага олишда замонавий методларни такомиллаштириб бориш, табиат ва жамият ҳақидаги картографик ахборотларни тезкор (оператив) етқизиш ва тарқатиш йўллари ишлаб чиқиш муҳим вазифалардан ҳисобланади. Замонавий метод ва технологиялар ёрдамида карталаштириш хусусан, ГАТ дастурлари ArcGIS, QGIS асосида маълумотлар базасини яратиш, аэрокосмик маълумотлар ёрдамида атроф-муҳит экологик ҳолатини тадқиқ қилиш, мониторингини олиб бориш ва карталарини ишлаб чиқиш технологияларини такомиллаштиришга йўналтирилган тадқиқотларга алоҳида эътибор қаратилган.

Ўрганилганлик даражаси. Мавзули картографияга оид мавжуд илмий адабиётларнинг таҳлили шуни кўрсатадики, экологик ҳолатни картографик жиҳатдан тадқиқ этиш бўйича бир нечта олимлар қатор тадқиқотлар олиб борган Жумладан: А.А. Elanaggar & J.S. Noller, А.А. Eldeiry & L.A. Garcia, R.L. Dehaan & G.R Taylor, К.Троль, В.Б.Сочава, К.А.Салишев, Н.Н.Баранский, А.И.Преображенский, И.П.Герасимов, А.Г.Исаченко, А.Ф.Асланакашвили, В.М.Котляков, А.А. Лютый, Б.И. Кочуров, В.И.Стурман, И.П.Заруцкая, А.М.Берлянт, А.В.Постников, А.А.Рафиқов, Э.Ю.Сафаров, Т.М.Мирзалиев, А.Эгамбердиев, Ж.С.Қорабоев, Л.Х.Гулямова, П.Р.Реймов, В.А.Рафиқов, Ш.М.Шарипов ва бошқа тадқиқотчиларнинг ишлари айниқса эътиборга лойиқдир.

Бу олимларнинг тадқиқотлари асосан анъанавий картага олиш методлари ва усуллари асосида олиб борилганлигини алоҳида қайд этиш керак. Ҳозирги кунда, экологик ҳолатни яхшилаш бўйича амалга оширилаётган чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва ушбу соҳани мажмуали

тадқиқ қилишда картографик метод билан биргаликда аэрокосмик, ҳамда замонавий геоахборот тизими дастурларидан фойдаланган ҳолда тадқиқ этилмаган. Замонавий метод ва технологияларни қўллаш орқали атроф-муҳитни муҳофаза қилишга оид тадбирлар мажмуаси илмий жиҳатдан асосланмаган ва экологик ҳолатга таъсири нуқтаи-назаридан ўрганилмаган.

Методика. Экологик-географик карталаштириш амалий аҳамиятининг ортиб бораётгани ва ҳудудий тадқиқотларда ягона комплекс ёндашувнинг йўқлиги табиий ва ижтимоий ҳодисаларнинг алоҳида ҳудудий тузилмалари учун экологик ҳолатни картографик таҳлил қилиш усуллари ва ёндашувларини ишлаб чиқиш заруратини кўрсатмоқда. Экологик-географик тадқиқотларнинг услубий қоидаларини ишлаб чиқишда картографик воситалардан фойдаланиш зарур. Сабаби атроф-муҳит экологик ҳолатини таҳлил қилиш ва баҳолашнинг ҳар қандай ишлаб чиқилган ва қўлланиладиган методологияси, биринчи навбатда, картага олишни назарда тутди. Экологик-географик муаммоларни ўрганишда замонавий картографиядан фойдаланишнинг долзарблиги ва ўзига хос роли шундаки, у тизимли фазо-вақт моделлаштириш тамойиллари асосида тузилган карталардан фойдаланиб, табиий комплексларнинг хусусиятларини, уларнинг вақт ўтиши билан ўзгаришини ўрганишга имкон беради [1].


Экологик карталар турли мазмун, мақсад ва фойдаланиш усулларига эга бўлиб, улар турли белги ва хусусиятларига кўра фарқланиши мумкин, шунинг учун бу карталарининг ҳар томонлама таснифини ишлаб чиқиш муҳим масала бўлиб, ҳозиргача етарли даражада ечимини топмаган.

Экологик ҳолатни картага олиш, асосан давлат, ҳудуд ва маҳаллий дастурлар ҳамда табиатни муҳофаза қилишга йўналтирилган лойиҳаларни таъминлашга қаратилган бўлади. Шу билан бирга, ҳар қандай табиатни муҳофаза қилиш ишлари аниқ бир ҳудудлар доирасида амалга оширилади. Шунинг учун табиатни муҳофаза қилиш чора-тадбирларини режалаштириш, амалга ошириш ва натижаларини назорат қилиш ҳудуднинг турли қисмларидаги экологик ҳолат ва унинг динамикаси тўғрисида объектив маълумотларни талаб қилади. Бундай маълумотларни эса картографик манбалардан фойдаланмасдан етказиб бериш мумкин эмас.

Экологик маълумотлар мазмуни бўйича ҳам жуда хилма-хилдир. Улар турли методлардан фойдаланиб ўтказилган тадқиқотлар, дала тадқиқотлари, масофадан туриб зондлаш материаллари, ифлослантирувчи моддаларнинг сифат ва миқдор характеристикалари ва уларни атроф - муҳитга тушган ҳажми ҳамда шароитлари ҳақидаги статистик маълумотлар, аҳоли

саломатлиги, ўсимлик қоплами ва ҳайвонот дунёсининг ҳолати ҳақидаги ва бошқа кўплаб маълумотларни келтириш мумкин. Кўпинча бундай турли-туман маълумотларни бирлаштирадиган ягона нарса уларнинг маълум бир ҳудудга тегишлилигидир. Шунинг учун 1960-1970-йилларда бошланган атроф-муҳитни муҳофаза қилишнинг замонавий босқичидаги воқеалардан бири, бу экологик маълумотларни таҳлил қилишнинг универсал усули сифатида экологик картага олишни ривожлантиришни ишлаб чиқиши бўлди [4, 5].

Экологик карталарни яратишда қуйидаги (1-расм) кетма кетликда тадқиқотлар олиб борилиши ва маълумотлар тўплаш талаб этилади.




1-расм. Экологик картага олиш методикаси

Экологик ҳолатни карталаштиришнинг замонавий методлари ва технологиялари, геоинформацион картага олиш, фазовий ва картографик моделлаштириш ва визуаллаштириш илмий жиҳатдан асосланган, ГАТ технологиялари ва дастурлари асосида экологик маълумотлар базасини яратиш ва улар асосида экологик карталар сериясини ишлаб чиқиш зарурати ҳамда картографик методнинг афзаллиги исботланган.

ГАТ технологиялари экологик картага олишда асосий восита бўлиб хизмат қилади. Бунда ҳар бир экологик маълумотлар йўналиши бўйича алоҳида - алоҳида қатламларда ифодаланади. ГАТ дастурларида тузилган экологик карта қатламлари асосида акс этирилган барча маълумотлар

таҳлил қилиниб, келажакда экологик башорат карталарини автоматик равишда тузиш имкониятини беради [2, 6].

Тадқиқотлар давомида маълум бўлдики, ГАТ технологиялари негизида, экологик жараёнларни акс эттирувчи янги авлод карталарини яратишнинг янги методикасини ишлаб чиқиш зарурлиги аниқланди. Юқоридагилардан келиб чиқиб ГАТ дастурларидан ArcGIS дастури ёрдамида Қорақалпоғистон Республикасини экологик картаси ишлаб чиқилди (2-расм).



2-расм. ArcGIS дастурида яратилган Қорақалпоғистон Республикаси экологик картаси

Экологик карталарини яратиш технологиясини жорий этиш ва амалга оширишдаги ишлар кетма - кетлиги қуйидагилардан иборат:

1. Ҳудуднинг экологик-географик ҳолатини ўрганиш. Бунда, рақамли маълумотлар тўпланиб муаллифлик оригиналларида, фонд карталари ҳамда масофадан зондлаш материаллардан фойдаланган ҳолда маълумотлар базаси яратилади.

2. Экологик объектлар ва ландшафт таҳлили. Ушбу жараёнда тўпланган мавжуд жадваллар (атрибутлар) ҳамда матнли маълумотлар компьютер хотирасига киритилади.

3. Шартли белгилар тизимини ишлаб чиқиш. Бунда, экологик жараёнларни тавсифлайдиган шартли белгилар яратилади, шунингдек жойлардаги воқеа ва ҳодисаларни изоҳловчи легендалар тузилади.

4. Картанинг мавзули қатламлари билан ишлаш. Бунда, мавзули қатламлар танланган кетма - кетликда тўғри жойлаштирилади ва

картографик тасвирни ҳосил қилиш ва уларни тахрир қилиш ишлари амалга оширилади.

5. Картанинг компоновкасини ишлаб чиқилиб уни нашрга тайёрлаш ва нашр қилиш ишлари бажарилади.

Хулоса. Мавзули карта ва планларни яратиш, уларни қайта ишлаш, маълумотлар базаларини шакллантириш, интеграциялаш ҳамда визуаллаштириш каби ишлар ГАТ технологиясининг асосий мақсадли вазифаларидан бири деб қабул қилинди. Экологик жараёнларни ГАТ дастурлари асосида карталарда акс эттириш ҳудудда қатор амалий вазифалар ечимини топишга ва иқтисодий-ижтимоий ривожланишига хизмат қилади деб ҳисоблаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Берлянт А.М., Лютого А.А. Тематическое картографирование: традиции и перспективы. – М.: Астрей, 1998. - 136 с.

2. Пренов Ш.М. “Разработка содержания карт земельных ресурсов с помощью географических информационных систем” International Conference InterCarto InterGIS – 21. November, 2015., Russia.

3. Пренов Ш.М., Сафаров Э.Ю. – Экологик – мелиоратив ҳолатни карталарда тасвирлашда географик ахборот тизимларидан фойдаланиш масалалари. “Қуйи амударё минтақасида табиий, ижтимоий ва экологик жараёнлар ривожланишининг замонавий жиҳатлари” Республика илмий-амалий анжумани материаллари. Урганч, 14-ноябрь 2017 йил. 89-90 б.

4. Сафаров Э.Ю., Пренов Ш.М. Табиий карталарни лойиҳалаш ва тузиш. – Тошкент, Университет, 2011. – 159 б.

5. Сафаров Э.Ю., Абдурахимов Х.А., Ойматов Р.Қ. Геоинформацион картография. – Т.: Университет, 2012.

6. Prenov Sh. M., Safarov E. Yu. “Analysis of eco-meliorative condition for soil of Southern Aral Sea region, and about its mapping” European Science Review № 10/2015. page 15-17.

7. Prenov Sh. M., “Development of environmental for conditional maps using GIS” Central Asia GIS Conference GISCA 2016. Conference Theme “Green Spaces: Perspectives and Designs”. April 28-30 in Bishkek, Kyrgyzstan.

8. Prenov Sh.M., Safarov E.Yu. - Development of content of land resources maps using geographic information systems. Austrian journal of Technical and Natural Sciences, ISSN 2310-5607. №5-6/2017.

Avezov Sattarbergan Atabayevich

Urganch davlat universiteti "Geodeziya, kartografiya va kadastr" kafedراسи dotsenti g.f.n., Urganch, O'zbekiston. E-mail: avezov66@mail.ru

Gulimmatov Ikrom Baxtiyarovich

Urganch davlat universiteti "Geodeziya, kartografiya va kadastr" kafedراسи dotsenti g.f.f.d (PhD), Urganch, O'zbekiston. E-mail:

ikromgulimmatov@gmail.com

Qodirov Himmatbek Alisher o'g'li

Urganch davlat universiteti "Geodeziya va geoinformatika" mutaxassisligi magistratura bosqichi talabasi, Urganch, O'zbekiston. E-mail:

himmatbek1509@gmail.com

**AGROKIMYOVIY XARITALARNI TUZISH VA ULARDAN QISHLOQ
XO'JALIGI EKINLARI HOSILDORLIGINI OSHIRISHDA
FOYDALANISH MASALALARI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada tuproq agrokimyoviy tarkibi va uni kartografik metodlarda tahlil qilish imokniyatlarini o'rganilgan. Tuproq agrokimyoviy tarkibi kartalarini tuzish kichik ekin dalalarida olib borilgan.

Kalit so'zlar: tuproq agrokimyoviy tarkibi, kaliy, gumus, yirik masshatbli kartalar, yer resurslari meliorativ holati.

**ВОПРОСЫ СОЗДАНИЯ АГРОХИМИЧЕСКИХ КАРТ И ИХ
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В ПОВЫШЕНИИ ПРОДУКТИВНОСТИ
СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ КУЛЬТУР**

Аннотация. В данной статье изучен агрохимический состав почвы и возможности его анализа картографическими методами. Составление карт агрохимического состава почв проводилось на небольших посевных полях.

Ключевые слова: агрохимический состав почвы, калий, гумус, крупномасштабные карты, мелиорация земельных ресурсов.

**ISSUES OF CREATING AGROCHEMICAL MAPS AND THEIR USE IN
INCREASING THE PRODUCTIVITY OF AGRICULTURAL CROPS**

Abstract. This article researched the agrochemical composition of soil and the possibilities of its analysis using cartographic methods. Maps of the agrochemical composition of soils were compiled on small crop fields.

Key words: agrochemical composition of soil, potassium, humus, large-scale maps, land reclamation.

KIRISH. Yer yuzidagi hozirgi mavjud tuproq qatlami jamiyat taraqqiyoti natijasida kuchli o'zgargan. Insoniyat tarixi davomida 2 mlrd. gektardan ortiq unumdor tuproqli yerlar yaroqsiz holga keltirilgan. Har yili sayyoramizdagi qishloq xo'jaligi uchun yaroqli yerlar maydoni sho'r bosishi, yemirilishi natijasida 5-7 mln.gektarga kamaymoqda. Bu o'z navbatida yer resurslaridan to'g'ri va oqilona foydalanishni talab qiladi.

Insonlar hayoti davomida tuproqqa ijobiy hamda salbiy ta'sir ko'rsatadi, u tuproqning hosildorligini oshirishi, uning holatini yaxshilashi mumkin yoki aksincha. Shu bilan birga tuproklarning mineral o'g'itlar bilan ta'minlanganlik

mikdorini va o'simliklar uchun zarur mineral o'g'itlar me'yorida qo'llanilishini bilishi ham talab etiladi. Ushbu ma'lumotlarni tez va oson ko'rgazmali ravishda tushunish uchun kartografik metoddan foydalanish samarali natija beradi. Shuningdek, kartalar qishloq xo'jaligini rejalashtirish ishlarini asoslashda ham qulay manba bo'lib, uning o'zaro ichki aloqalarini ochib berib, zarur bo'lgan tarmoqlararo mutanosiblikni aniqlash imkonini yaratadi.

Asosiy qism. Ushbu tadqiqot ishi Xorazm viloyati Xiva tumani Shomoxulum hududidagi ekin maydonlarida o'tkazildi. Bunda 2021-yil va 2024-yildagi tuproq tarkibidagi o'simlik uchun zarur ozuqa elementlarining harakatchan shakllari (harakatchan fosfor, almashuvchan kaliy) va gumus miqdorini aniqlash, tuproqlarning unumdorligini saqlab qolish uchun mineral va organik o'g'itlar va zamonaviy qishloq xo'jaligi texnologiyalaridan samarali foydalanish holati xaritalarini tuzish maqsad qilib belgilangan


Mineral o'g'itlardan to'g'ri va samarali foydalanish uchun o'g'itlarni qo'llashda tuproqlarning xususiyatlarini yaxshi o'rganish hamda har bir ekin dalasi uchun tuproq va agrokimyoviy xaritalarini yaratish zarur. Tuzilgan xaritalar orqali fosfor, kaliy va gumus birikmalari ekinlar ehtiyojidan kelib chiqib ekin dalalarida to'g'ri foydalanishga yordam beradi. Bu o'z navbatida ekin yerlarning tuproq tarkibidagi o'simlik uchun zarur mineral (fosfor va kaliy) va organik (gumus) o'g'itlarning yetishmasligi yoki ortiqcha bo'lishi holatlarini ko'rgazmali ravishda bayon etadi.

Shuni takidlash lozimki, tuproq harakatchan fosforiga boy bo'lsa, fosforli o'g'itlarni ya'na qo'shimcha qo'llash yuqori hosil olishga imkon bermaydi. Shu bilan birga harakatchan fosfor kam bo'lgan tuproqlarga fosforli o'g'itlarni qo'llash esa hosilni ancha oshiradi. Tuproqni harakatchan oziq elementlar bilan ta'minlanganlik darajasini o'rganilgandan keyin qishloq xo'jalik ekinlarining o'g'itlarga bo'lgan talabini aniqlash mumkin. Shu maqsadda tuproqlarni agrokimyoviy tekshirish, tuproqlarning oziq elementlari bilan taminlanganlik darajasini o'rganish hamada baholash zarur. Yuqori hosil olishda o'g'itlar va kimyoviy meliorantlardan samarali foydalanish maqsadida ekin dalalari kimyoviy elementlari hududiy tahlil qilish uchun zarur bo'lgan agrokimyoviy xaritalarni tuzish talab etiladi.

Tadqiqotimizda qishloq xo'jaligi hudud jihatidan kichik bo'lganligi hamda tuziladigan kartalar bevosita fermer xo'jaliklarini qamrab olganligi tufayli ularga yirik masshtabli kartalar tuzilishi zarurligi aniqlandi.


Agrokimyoviy kartalar imkoni boricha mineral va organik oziq hududiy tarqalishini batafsil tasvirlashi lozim. Ularda kimyoviy elementlarning dispersiyasi, klasterlanganlik darajalari, konsentratsiyasini tahlil qilish orqali amaliy qarorlar qabul qilish kerak. Chunki bir element boshqa element o'rnini bosa olmaydi va bu esa o'simliklar tomonidan boshqa elementlarni samarali o'zlashtirilishiga imkon bermaydi.

Yetishtirilayotgan ekinlar oziqlanish jarayonida tuproq o'g'it bilan, o'simlik-o'g'it va tuproq bilan, o'g'it-tuproq va o'simlik bilan o'zaro bog'lanadi. Mazkur jarayon "Tuproq o'simlik-o'g'it" o'zaro ta'sir natijasida olinadigan hosilning miqdorini va sifatini belgilaydi.



1-rasm. Harakatchan fosfor (P₂O₅) kartasi. Xiva tumani qishlog'ı

Tadqiqotda 4 yil davomida tuproq agrokimyoviy tahlillari olib borildi. Natijada 2021-yil va 2024-yil tuproq agrokimyoviy holati aniqlanib, taqqoslandi va quyidagi xulosaga kelindi. Harakatchan fosfor (P₂O₅) (mg) bilan ta'minlanganlik kartasi tuzilib, miqdorlari taqqoslanib, 2021-yildagi 1 kilogramm tuproq tarkibidagi harakatchan fosfor miqdori 2024-yildagiga nisbatan o'zgarishi kartogramma usulida ko'rsatildi (1-rasm). Bunda harakatchan fosfor miqdori kamaygan yerlar qizil rangda, o'zgarmagan yerlar sariq rangda va ortgan yerlar yashil rangda tasvirlandi. Bundan tashqari, kartodiagramma usulida to'rt yillik tuproq tarkibidagi harakatchan fosfor miqdorlarining nisbati tasvirlandi.




2-rasm. Almashuvchan kaliy bilan ta'minlanganlik kartasi. Xiva tumani Shomoxulum qishlog'ı

Tadqiqotning keyingi bosqichida olingan tuproq namunalarining laboratoriya

tahlillari asosida almashuvchan kaliy (K_2O) bilan ta'minlanganlik kartasi tuzildi (2-rasm). Ushbu kartada ham 1 kilogramm tuproq tarkibidagi almashuvchan kaliy miqdorining o'zgarishi kartogramma usulida tasvirlandi. Kartogramma usulida esa to'rt yillik tuproq tarkibidagi almashuvchan kaliy miqdorlarining nisbati tasvirlandi.

Tadqiqot jarayonida kaliy miqdori kamaygan ekin dalaalarida o'rtacha hosildorlik miqdori 12-15 foizga pasayganligi hamda tuproq mexanik tarkibida donadorlik ko'rsatkichlari tushib ketganligi aniqlandi. Bundan tashqari qishloq xo'jaligi faoliyatida suv resurslaridan o'z vaqtida foydalanmaslik, zarur chora tadbirlarni talab darajasida amalga oshirmaslik holatlari hamda tuproq meliorativ holatining yomonlashishiga va qishloq xo'jaligida mahsuldorlikning pasayishiga sabab bo'ladi.

Mineral o'g'itlar bilan taminlanganlik kartalari bilan birga biz organik o'g'itlar yani gumus bilan taminlanganlik kartalarini tuzish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borildi (3-rasm). Ushbu kartani tuzishda tuproq organik tarkibi va uning hududiy ko'rsatkichlari tajriba maydonlaridan olingan ma'lumotlar asosida intepolyatsiya qilindi.



3-rasm. Tuproqning gumus bilan ta'minlanaganligi. Xiva tumani Shomoxulum qishlog'i

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, ekin dalalaridagi mineral va organik o'g'itlarni qo'llash yildan yilga kamaygan, bu esa ekinlarning hosildorligini kamayib ketishgan va tuproq meliorativ holati yomonlashishi olib kelgan. Ushbu hududlarda ekinlar hosildorligini oshirish maqsadida o'rganilgan hududlarda tavsiyalar asosida zarur mineral o'g'itlarni berish talab qilinadi. Umuman olganda tuproq agrokimyoviy holatini tahlil qilish asosida tuzilgan kartalar asosida qishloq xo'jaligida ekinlarni oqilona joylashtirishni tashkil qilish mumkin.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, ushbu tadqiqotda alohida kichik ekin dalalarida harakatchan fosfor, almashuvchan kaliy va gumus miqdorlari ma'lumotlari asosida tuzilgan kartalardan foydalanib amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Olingan natijalardan foydalanib, ushbu ekin dalalarining katta kismiga

berilayotgan mineral va organik o‘g‘itlar miqdorini meyorlashtirish bo‘yicha ishlar olib borildi. Kelgusida boshqa hududlarda ham tuproq agrokimyoviy holatini kartografik yondashuvda tahlil qilish qishloq xo‘jaligida baraqaror rivojlanishni ta‘minlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдуллаев Х.А., Турсунов Л.Т. “Тупрокшунослик асослари” Тошкент 1994.
2. Гулямова Л.Х Сафаров Э.Ю, Абдуллаев И.Ў, “Геоахборот тизимлари ва технологиялари” Ўқув қолланма 2 қисм Тошкент – Университет 2013.
3. Сатторов Ж., Сидиков С., Абдуллаев С., Эргашев А., Хайдмухаммедова З., Кутлимуродова Я., Косимов У., Акбаров Н. “Агрокимё” Тошкент 2007.
4. Эгамбердиев А., Мўминов А.А., Уврайимов С.Т. “Ижтимоий – иктисодий картография” Тошкент 2021.
5. Гафуров К., Шамсиддинов И. “Минерал ўғитлар ва тузлар технологияси” Тошкент 2007.

Беканов Куатбай Кошкарбайевич

*Мирзо Улузбек номидаги Ўзбекистон миллий университети,
Картография кафедраси мудири, г.ф.ф.д (PhD).*

Тошкент, Ўзбекистон. E-mail: quwatbay1989@gmail.com

Носиров Бахтиёржон Ихтиёржонович

*Алфраганус университети «Ёшлар билан ишлаш, маънавият ва маърифат»
бўлими бошлиғи. E-mail: baxtiyornosirov10leo@gmail.com*

Маъмуров Маъмуржон Ойбек ўғли

*Мирзо Улузбек номидаги Ўзбекистон миллий университети,
ГКК 4-босқич талабаси. E-mail: mamurjonmamurov0@gmail.com*

ГАТ ДАСТУРИЙ ТАЪМИНОТИ ОРҚАЛИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ЭКИНЛАРИ ҲОСИЛДОРЛИГИ КАРТАЛАРИНИ ЯРАТИШ ЖАРАЁНИНИ АВТОМАТЛАШТИРИШ

Аннотация: Мақолада Қорақалпоғистон Чимбой туманида қишлоқ хўжалиги экинлари ҳосилдорлиги карталарини ArcGIS дастуридан фойдаланиб автоматлаштириши ўрганилган. Model Builder орқали жараён автоматлаштирилган модел яратилган. Натижада экинларни оқилона жойлаштириши ва ерлардан самарали фойдаланиши имконияти таъминланган. Тадқиқот ер ресурсларини баҳолаш ва ҳосилдорлик карталарини автоматлаштиришини такомиллаштиришига қаратилган.

Калит сўзлар: ArcGIS, Model Builder, ҳосилдорлик, карталар, автоматлаштириши, қишлоқ хўжалиги, ер ресурслари, таҳлил.

АВТОМАТИЗАЦИЯ ПРОЦЕССА СОЗДАНИЯ КАРТ ПРОДУКТИВНОСТИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ КУЛЬТУР С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГИС

Аннотация: В статье рассмотрена автоматизация создания карт продуктивности сельскохозяйственных культур в Чимбайском районе Республики Каракалпакстан с использованием программного обеспечения ArcGIS. Разработана

модель автоматизации процесса с помощью Model Builder. В результате обеспечено рациональное размещение культур и оптимальное использование земель. Исследование направлено на оценку земельных ресурсов и совершенствование автоматизации создания карт продуктивности.

Ключевые слова: ArcGIS, Model Builder, продуктивность, карты, автоматизация, сельское хозяйство, земельные ресурсы, анализ.

AUTOMATION OF AGRICULTURAL CROP PRODUCTIVITY MAP CREATION USING GIS SOFTWARE

Abstract: The article explores the automation of creating agricultural crop productivity maps in Chimboy district, Karakalpakstan, using ArcGIS software. A process automation model was developed through Model Builder. As a result, efficient crop placement and optimal land use were ensured. The research focuses on assessing land resources and improving the automation of productivity map creation.

Key words: ArcGIS, Model Builder, productivity, maps, automation, agriculture, land resources, analysis.

Мамлакатимизда қишлоқ хўжалиги ерларининг ҳолати ва уларнинг ҳосилдорлигини аниқлаш ҳамда ерлардан оптимал фойдаланиш долзарб масалалардан бири ҳисобланади. Ушбу масалаларни оқилона ва самарали методлар орқали ўрганишда, қишлоқ хўжалиги экин турлари ҳосилдорлиги карталари муҳим аҳамият касб этади. Улар қишлоқ хўжалиги экин турларини тўғри жойлаштиришда, ҳосилдорлигини аниқлашда, шунингдек, фермер хўжалиги ихтисослашувини оқилона тақсимлашда, қишлоқ хўжалиги тармоқларини оптимал жойлаштиришда ва уларни ривожлантиришда, ҳамда шу каби бошқа муҳим тадбирларни амалга оширишда асосий маълумотнома, зарур тасвирий ҳужжат бўлиб хизмат қилади.


Тадқиқот ишида таянч объект сифатида Қорақалпоғистон Республикаси Чимбой тумани П.Сейтов номли массив суғориладиган ерлари олинган бўлиб, унинг қишлоқ хўжалигидаги экин турлари ҳосилдорлиги карталари замонавий ArcGIS дастурий таъминотлари ёрдамида яратилган.

Замонавий техника ва технологияларнинг ривожланиши сабабли карталарни лойиҳалаш ва тузиш ишларини анъанавий усуллардан замонавий усулларга ўтиш, авваллари қўл меҳнати ёрдамида карталар яратилган бўлса ҳозирги кунга келиб компьютер технологиялари асосида масофадан зондлаш ва ГАТ дастурлари каби замонавий тадқиқот методларига таянган ҳолда карталар яратилиб келинмоқда [2; 527-б.].

Ҳозирги пайтда карталарни яратишда қатор янги дастурий таъминотлардан самарали фойдаланиб келинмоқда. Хусусан, геодезия, картография ва кадастрга доир ишларни амалга оширувчи соҳа ташкилотларда кенг кўламда фойдаланилаётган ГАТ дастурий таъминотларидан ArcGIS дастури анча қулайликларга эга дастурлардан ҳисобланади [3; 141-б.]. Ушбу дастурий таъминот ёрдамида маълумотларни киритиш, сақлаш, тўплаш, қайта ишлаш, таҳлил қилиш, уларни визуал


ҳолатга келтириш, нашр қилиш ва бошқа кўплаб зарурий амалларни бажариш имконини беради.

Тадқиқот давомида ArcGIS дастурининг Model Builder визуал дастурлаш тили орқали қишлоқ хўжалиги экинлар ҳосилдорлиги карталарини яратиш жараёнини автоматлаштириш модели ишлаб чиқилган (1-расм).



1-расм. Қишлоқ хўжалиги экинлар ҳосилдорлиги карталарини яратиш жараёнини автоматлаштириш модели

a) моделнинг ишлаш технологияси; b) моделнинг интерфейси ўзбек тилида муаллиф томонидан тузилган



2-расм. Қорақалпоғистон Республикаси Чимбой тумани “П.Сейтов” номли массивида қишлоқ хўжалиги экин турлари ҳосилдорлиги карталари (муаллиф

томонидан тузилган)

2-расмда келтирилган Чимбой тумани П.Сейтов номли массивида қишлоқ хўжалиги экинлари ҳосилдорлиги карталари 1:10 000 масштабда тузилди. Бунда, экинлар ҳосилдорлигини аниқлашда қишлоқ хўжалиги экин майдонларининг норматив қийматларини аниқлаш тартиби тўғрисидаги низомда келтирилган тупроқнинг бир бонитет баллига нисбатан норматив ҳосилдорлиги, ц/га да аниқланди. Асосий қишлоқ хўжалиги экинларидан 6 та тури танлаган ва улар ғўза - 0,4 ц/га, бошоқли дон экинлари - 0,6 ц/га, шоли - 0,7 ц/га, бир йиллик ўтлар (яшил ем-хашак) - 3,0 ц/га, сабзавотлар - 3,0 ц/га, полиз экинлари - 2,7 ц/га [1.].

Массивнинг суғориладиган ерларида ҳосилдорлигини баҳолаш натижасига кўра ғўза ҳосилдорлиги умумий майдонидан 42,4 гектардан яъни 0,5 % 20-25 центнер, 1898,9 гектар яъни, 21,9 % 15-20 центнер, 3869,7 гектар яъни, 44,5 % 10-15 центнер ва 2875,5 гектар яъни 33,1 % баҳоланмаган ерларни ташкил этади.

Бошоқли дон экинлари ҳосилдорлиги умумий майдонидан 1410,3 гектардан яъни 16,3 % 20-25 центнер, 1360,3 гектар яъни, 15,8 % 15-20 центнер, 2998 гектар яъни, 34,8 % 10-15 центнер ва 2875,5 гектар яъни 33,1 % баҳоланмаган ерларни ташкил этади.

Шоли ҳосилдорлиги умумий майдонидан 819,1 гектардан яъни, 9,4 % 25-30 центнер, 1197,6 гектар яъни, 13,8 % 20-25 центнер, 3752 гектар яъни, 43,7 % 10-20 центнер ва 2875,5 гектар яъни 33,1 % баҳоланмаган ерларни ташкил этади.

Бир йиллик ўтлар (яшил ем-хашак) ҳосилдорлиги умумий майдонидан 220,8 гектар яъни, 2,5 % 120-140 центнер, 1397,9 гектар яъни, 16,1 % 110-120 центнер, 390,4 гектар яъни, 4,5 % 100-110 центнер, 803,8 гектар яъни, 9,3 % 90-100 центнер, 2998 гектар яъни, 34,5 % 10-90 центнер ва 2875,5 гектар яъни 33,1 % баҳоланмаган ерларни ташкил этди.

Сабзавотлар ҳосилдорлиги умумий майдонидан 220,8 гектар яъни, 2,5 % 120-140 центнер, 1397,9 гектар яъни, 16,1 % 110-120 центнер, 390,4 гектар яъни, 4,5 % 100-110 центнер, 803,8 гектар яъни, 9,3 % 90-100 центнер, 2998 гектар яъни, 34,5 % 10-90 центнер ва 2875,5 гектар яъни 33,1 % баҳоланмаган ерларни ташкил этди.

Полиз экинлари ҳосилдорлиги умумий майдонидан 42,4 гектар яъни, 0,5 % 130-150 центнер, 1538,6 гектар яъни, 17,7 % 110-130 центнер, 1232,1 гектар яъни, 14,2 % 90-110 центнер, 2998 гектар яъни, 34,5 % 70-90 центнер ва 2875,5 гектар яъни 33,1 % баҳоланмаган ерларни ташкил этди.

Ушбу қишлоқ хўжалиги экинлар ҳосилдорлиги карталари асосида экинларни оқилона жойлаштириш орқали ерлардан оптимал фойдаланиш имконини беради.

Маълумки, ҳозирги кунда нафақат мамлакатимизда, балки бошқа яқин ҳориж мамлакатларда ҳам қишлоқ хўжалиги ерларидан оқилона фойдаланиш, ерларни сифат кўрсаткичларини баҳолашга доир бир қанча ишлар амалга оширилган. Шулар қаторида ерларни сифатини баҳолаш мавзусидаги картографик асарларни яратиш жараёнларини автоматлаштириш бир мунча мушкул ва долзарб эканлиги юқорида батафсил кўриб чиқилди. Тадқиқот давомида суғориладиган ерларда экин турларининг ҳосилдорлигини баҳолаш бўйича ишлаб чиқилган методика тавсия этилди. Ундан ташқари, суғориладиган ерларда қишлоқ хўжалиги экин турларининг ҳосилдорлигини баҳолаш бўйича ArcGIS дастури асосида модел ишлаб чиқилган.

Республика ҳудудидаги ер ресурслари ҳолати ўрганилиб, уларнинг миқдор ва сифат кўрсаткичлари баҳоланиб, қишлоқ хўжалиги экинлари ҳосилдорлиги карталарини тузиш, келажакда ер ресурсларининг бор имкониятларига асосланиб, қишлоқ хўжалиги ерларидан оптимал фойдаланиш йўллари аниқлашга ёрдам беради. Тадқиқот давомида суғориладиган ерлар сифатини баҳолаш ва қишлоқ хўжалик экинлар ҳосилдорлиги карталари тузишни автоматлаштириш ишлари бажарилган, лекин бу жараён қолган бошқа жуда кўп шунга ўхшаш картографик жараёнларни автоматлаштириш имконини бериши билан аҳамиятли ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 18 августдаги 235-сон “Қишлоқ хўжалиги экин майдонларининг норматив қийматини аниқлаш тартиби тўғрисида” қарори
2. NagwaEl-Ashmawy. (2019). Automatic determination of shoreline at maximum retreating. The Egyptian Journal of Remote Sensing and Space Science. Volume 22, Issue 3, Pages 247-252. <https://doi.org/10.1016/j.ejrs.2019.07.001>
3. Omran, A., Dietrich, S., Abouelmagd, A., & Michael, M. (2016). New ArcGIS tools developed for stream network extraction and basin delineations using Python and java script. Computers & Geosciences, 94, 140–149. doi:10.1016/j.cageo.2016.06.012

Ibraimova Aziza Alimbayevna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,
Geodeziya, kartografiya va kadastr kafedrasida dotsenti, g.f.n.,
Toshkent, O'zbekiston. E-mail: azizaibraimova983@gmail.com

Sattorov Shohruh Farhod o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,
Geodeziya, kartografiya va kadastr yo'nalishi 4-kurs talabasi
Toshkent, O'zbekiston. E-mail: shoxruxfarkhadovich@gmail.com

**YER FONDI MA'LUMOTLARI - SIRDARYO VILOYATI INTERAKTIV
KARTALARINI TUZISHDA MUHIM MANBA SIFATIDA**

Annotatsiya: Maqolada Sirdaryo viloyati interaktiv kartalarini tuzishda yer fondining ahamiyati va asosiy toifalari bo'yicha tarkibi tahlil etilgan. Unda asosiy e'tibor qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarga qaratilgan.

Kalit so'zlar: yer, yer resurslari, yer fondi, yer toifalari, interaktiv karta, yer turlari, qishloq xo'jalik yerlari, sug'oriladigan yerlar, ekin yerlar, ko'p yillik daraxtzorlar, zaxira yerlar.

**ИНФОРМАЦИЯ О ЗЕМЕЛЬНОМ ФОНДЕ – КАК ВАЖНЫЙ
ИСТОЧНИК ДЛЯ СОЗДАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ КАРТ
СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ**

Аннотация: В статье анализируется значение земельного фонда и его основных категорий в создании интерактивных карт Сырдарьинской области. Основное внимание уделяется землям сельскохозяйственного назначения.

Ключевые слова: земля, земельные ресурсы, земельный фонд, категории земель, интерактивная карта, виды земель, земли сельскохозяйственного назначения, орошаемые земли, посевные земли, многолетние насаждения, земли запаса.

**INFORMATION ON THE LAND FUND – AS AN IMPORTANT
SOURCE FOR THE CREATION OF INTERACTIVE MAPS OF THE
SYRDARYA REGION**

Abstract: The article analyzes the importance of the land fund and its main categories in creating interactive maps of the Syrdarya region. The main focus is on agricultural lands.

Key words: land, land resources, land fund, land categories, interactive map, types of land, agricultural land, irrigated land, crop land, perennial plantings, reserve land.

Kirish. Yer resurslari tabiiy resurslarning muhim tarkibiy qismi va alohida turi sifatida juda muhim va qimmatli hisoblanadi. Biror mamlakat yoki ma'muriy-hududiy birlik chegaralari doirasidagi jami yerlar yer fondi deyiladi. Mamlakatimizda yer fondining foydalanish maqsadiga ko'ra 8 ta toifasi ajratiladi. Bular: qishloq xo'jaligi yerlari; aholi punkti yerlari; sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar; tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlarga mo'ljallangan yerlar; tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar; o'rmon fondi yerlari; suv fondi yerlari va zaxira yerlar. Yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanish mamlakat yoki hududlar


rivojlanishining asosiy omillaridan hisoblanadi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Yer resurslari kishilik jamiyati taraqqiyotida hayotiy muhim va hal qiluvchi manba bo‘lib, qolgan barcha resurslarni o‘z bag‘rida saqlaydi. Yer resurslarining miqdori, holati, ulardan foydalanish turi va darajasi har qanday mamlakat iqtisodiyoti yo‘nalishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bunda viloyatlar yer fondi, ularning yer turlari bo‘yicha toifalari, foydalanish yo‘nalishlari va darajasi kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda yer azaldan bebaho ne‘mat sifatida yuqori baholab kelinadi va o‘zbek xalqi sivilizatsiyasining ajralmas uzviy bo‘lagi hisoblanadi. Interaktiv kartalar – bu foydalanuvchilarga ma’lumotlarni ko‘rish, tahlil qilish va o‘zaro aloqada bo‘lish imkonini beruvchi kartalardir. Ular, odatda geografik ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish va tahlil qilish uchun ishlatiladi. Interaktiv kartalar foydalanuvchilarga kartalarni kattalashtirish, kichiklashtirish, ma’lumotlarni filtrlash va turli qatlamlarni ko‘rish imkonini beradi.

Maqsad va vazifalari. Sirdaryo viloyati qishloq xo‘jaligi interaktiv kartasini yaratishda muhim manba hisoblangan yer fondi va uning tarkibini tadqiq qilish ishning maqsadidir. Yer fondini yer toifalari bo‘yicha tahlil qilish, ularning tuzulishini baholash asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Natijalar va ularning muhokamasi. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil 1 yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy hududiy chegaralari doirasidagi umumiy yer maydoni 44 892,4 ming gektarni tashkil qiladi.

Sirdaryo viloyatining umumiy yer maydoni 427,6 ming gektar bo‘lib, bu esa mamlakat jami yerlarining 0,95 foiziga teng. Viloyat jami yerlarining 87 foizi qishloq xo‘jaligi yerlaridan iborat (1-rasm).



1-rasm. Sirdaryo viloyati yer fondining toifalar bo‘yicha taqsimlanishi (01.01.2024-yil holatiga; gektar)

Suv fondi yerlari 6 %, sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar 3 %, o‘rmon fondi yerlari va aholi punkti yerlari,

mos ravishda, 2 %ni tashkil etadi.

1-jadval

Sirdaryo viloyati yer fondi toifalarining hududlar kesimida taqsimlanishi (01.01.2024 yil holatiga; gektar)

№	Umumiy yer maydoni	shundan, yer fondi toifalari bo'yicha							
		qishloq xo'jaligi yerlari	aholi punkti yerlari	sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar	tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar	tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	o'rmon fondi yerlari	suv fondi yerlari	zaxira yerlar
Oqoltin	55137	51548	50	664			127	2768	
Boyovut	52289	48559	636	1134			215	1745	
Sayxunobod	45113	41379	262	869			379	2224	
Guliston	34965	30572	457	577	11	0,2	377	2971	
Sardoba	51760	45504	174	471	7		505	5099	
Mirzaobod	63576	56747	213	1540	176		1590	3246	64
Sirdaryo	53613	42772	30	2096	15		5534	3166	
Xovos	61955	51984	907	2797			944	5318	5
Yangiyer sh.	2988	430	1964	515	8		62	8	
Baxt sh.	233		130	93					
Shirin sh.	1339	27	909	382	6		16		
Sirdaryo sh.	1039	1	850	188					
Guliston sh.	3621	41	1364	420	6			160	
JAMI	427618	371194	7946	11728	228	0,2	976	26705	69

Manba: O'zbekiston Respublikasining yer fondi (2024 yil 1 yanvar holatiga). – Toshkent, 2024. – 154 bet.

Viloyatda mamlakatimizning boshqa viloyatlariga qaraganda, farqli ravishda, umumiy yer maydoni tumanlar bo'yicha nisbatan teng taqsimlangan, bo'lib, katta tafovutlar ko'zga tashlanmaydi. Bunday holat qishloq xo'jaligi yerlari maydoni taqsimotida ham kuzatiladi. Yer fondining boshqa toifalari hududlar kesimida esa bir qator nomuvofiqliklarni kuzatish mumkin. Xususan, aholi punkti yerlari toifasiga kiruvchi yerlarning asosiy qismi viloyat markazi – Guliston shahri (1364 ga yoki shu toifadagi yerlarning 17,2 %) va Yangiyer shahriga (1964 ga – 24,7 %) to'g'ri keladi (1-jadval). Uning eng kam ko'rsatkichlari Sirdaryo (30 ga) va Oqoltin (50 ga) tumanlarida qayd etilgan.

Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar jami maydoni viloyatda 11728 ga bo'lib, ular asosan Xovos (2797 ga) Sirdaryo (2096 ga), Mirzaobod (1540 ga) va Boyovut (1134 ga) tumanlarida joylashgan. Bu toifadagi yerlarning eng kam maydonlari Sardoba (471 ga), Guliston (577 ga) va Oqoltin (644 ga) tumanlariga to'g'ri keladi.

Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar viloyatda juda kam maydonlarni (228 ga) egallaydi va bu ko'rsatkich nisbiy raqamlarda viloyat yer fondining atigi 0,053 foizini tashkil etadi. Ularning asosi qismi (77,19 %) Mirzaobod tumaniga to'g'ri keladi (176 ga). Oqoltin, Boyovut, Sayxunobod va Xovos tumanlarida ushbu toifadagi yerlar umuman uchramaydi.

Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar toifasi faqatgina Guliston tumanida ajratilgan bo'lib, maydoni 0,2 ga.

O'rmon fondi yerlari jami maydoni 976 ga, yer fondidagi ulushi esa 0,22 %. Uning asosiy maydonlari Sirdaryo (5534 ga) va Mirzaobod (1590 ga) tumanlarida joylashgan. Viloyat suv fondi yerlari jami maydoni 26705 ga va bu toifa yerlari barcha tumanlar bo'yicha nisbatan kata tafovutlarsiz taqsimlangan.

Sirdaryo viloyatida zaxira yerlar atigi 69 ga maydonga ega. Ularning 64 gektari Mirzaobod va qolgan 5 gektari Xovos tumaniga to'g'ri keladi.

Viloyat bo'yicha qishloq xo'jaligi yerlarining umumiy maydoni 371 194 gektarni tashkil etadi, shundan: ekin yerlar – 246 367 ga, ko'p yillik daraxtzorlar – 7 848 ga, bo'z yerlar – 9 633 ga, pichanzor va yaylovlar – 18 276 ga. Viloyat jami qishloq xo'jaligi yerlarining 75,5 foizi (280306 ga) sug'oriladigan yerlardir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Sirdaryo viloyati qishloq xo'jaligi interaktiv kartalarida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar maydoni, qishloq xo'jalik yer turlari tarkibi va maydoni, qishloq xo'jaligida yerdan foydalanuvchilar, qishloq xo'jalik korxonalarini nomi, faoliyat yo'nalishi, ular tomonidan foydalaniladigan yer turlari va h.k.larni aks ettirish mumkin. Odatda, interaktiv kartalar serverda generatsiya qilinadi va saqlanadi hamda GAT texnologiyalariga asoslanadi.

Xulosa. Umuman olganda, mamlakatimizda, shu jumladan Sirdaryo viloyatida yer fondi tarkibini optimallashtirish, yer resurslaridan foydalanish yo'nalishlarini takomillashtirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunda yerlardan belgilangan maqsad doirasida samarali foydalanish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Bu borada esa interaktiv kartalarning roli kata bo'lib, ular orqali ma'lum ilmiy va amaliy vazifalarni hal etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ибраимова А.А. Ўзбекистон Республикаси ер фонди: таркиб ва таҳлил // Ўзбекистон География жамияти ахбороти, 50-жилд. – Тошкент, 2017. – 74-77 бетлар.
2. Ибраимова А.А. Куйи Амударё минтақаси ер ресурслари ва уларнинг тақсимланиши // Куйи Амударё минтақасида табиий, ижтимоий ва экологик жараёнлар ривожланишининг замонавий жиҳатлари мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Урганч, 14 ноябрь 2017 йил. – 2-жилд. - 18-20 бетлар.
3. Ibraimova A. A., Sherkulova M. Issues of developing the content of map of agro-industrial clusters of Surkhandarya Region //Journal of Geography and Natural Resources. – 2023. – Т. 3. – №. 02. – С. 13-20.
4. О'zbekiston Respublikasining yer fondi (2024 yil 1 yanvar holatiga). – Toshkent: Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi, 2024. – 154 bet.

Пренов Шавкат Маметсалиевич

*Alfraganus University, Умумкасбий фанлар кафедраси katta o'qituvchisi,
г.ф.ф.д (PhD), Тошкент, Ўзбекистон. E-mail: shavkatprenov82@gmail.com*

РАЗРАБОТКА СОДЕРЖАНИЯ КАРТ ЗЕМЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ С ПОМОЩЬЮ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ

***Аннотация.** Рассмотрены основные принципы построения карт и категорий мелиорации Республики Каракалпакстан с использованием ГИС-технологий. Приводятся характеристики легенда в макете, дополнительных карт врезка и текстовых пояснений, а также категории мелиорации почв, форма рельефа, вызывающих отток грунтовых вод, т. е. естественный дренаж территории. Особое внимание уделено отображению на карте искусственных видов дренажа.*

***Ключевые слова.** ГИС, экология, карта, земельные ресурсы, автоматизированные картографические системы и комплексная картография.*

DEVELOPMENT OF CONTENT OF LAND RESOURCES MAPS USING GEOGRAPHIC INFORMATION SYSTEMS

***Abstract.** The basic principles for design of maps and categories of land reclamation of the Republic of Karakalpakstan using GIS technologies is considered. Given characteristics of legends in layout, additional maps mortise and text explanations, as well as the category reclamation of soils, landforms, causing an outflow of groundwater, i.e., the natural drainage of the area. Particular attention is paid to display of artificial types of drainage on a map.*

***Key words.** GIS, ecology, map, land resources, automated cartographic systems, and complex cartography.*

Введение. Решению вопросов размещения и уровня развития производства сельскохозяйственных культур и продукции, разработки основных направлений использования земельных ресурсов в значительной мере помогают тематические карты. Основное место среди них занимают карты земельных ресурсов. Они способствуют решению вопросов, связанных с учетом инвентаризаций, распределением, использованием земель, а также изучению и разработке мер по повышению продуктивности земель.

Как известно, картографическая информация о мелиоративном состоянии земель имеет особое значение в системе управления и пользования земельными ресурсами и формируется в виде системы.

Географическая информационная система (ГИС) – это система многогранной информации об окружающей природной среде и хозяйственной деятельности человека, создаваемая на основе электронных вычислительных машин и предназначенная для удобного их предоставления. Как отмечает А.М. Берлянт «Сердцевину всякой ГИС составляет автоматизированная картографическая система (АКС) – комплекс приборов и программных средств, обеспечивающих создание и использование карт». ГИС состоит из таких частей как, технические и

программные средства, база данных, а также сбора, обработки, распространения и использования географической информации. Основными ее задачами являются интерпретация, диагностирование, прогнозирование, проектирование, планирование, слежение, исправление и управление.

Обоснование исследований. Картографический метод исследования, имеющая богатые традиции отображения пространственной информации на картах, на которые ранее возлагалась и задача ее хранения, представляет основные источники данных для ГИС.

Современные ГИС – пакеты, обладающие средствами форматирования карт и размещения надписей, огромными библиотеками знаков и шрифтов, управления дорогостоящими устройствами, обеспечивающими высокое качество конечной продукции. Получило развитие новое направление в картографии – географическое информационное картографирование (ГИК), занимающиеся автоматизированным составлением и использованием карт на основе географических информационных технологий и баз географических данных и знаний. ГИК не сводится только к использованию ГИС – технологий. Это, прежде всего картографирование объектов и явлений, основанное на методах анализа и синтеза их содержательной сущности.

Существенное значение для ГИС имеет использование тематических и общегеографических карт, а также фотокарт, созданных на основе данных дистанционного зондирования. Карты для ГИС поставляют разную информацию и в ГИС они используются по-разному. Топографические карты, показывающие контуры объектов на поверхности земли, чаще всего являются основой для базы данных ГИС, для привязки и отображения основной и дополнительной информации на местность. Посредством карт передается информация о пространственном размещении, состоянии, уровне использования земельных ресурсов.

Методика. Комплексное картографирование мелиоративных категории земельных ресурсов, являющиеся своеобразным методом изучения современного состояния земельных ресурсов, объединяет разнообразную информацию в одну систему позволяющую использовать их в научно-исследовательских, практических и управленческих работах.

Привлечение в производство карт земельных ресурсов, создаваемых на основе цифровых технологий наряду с другими картографическими произведениями, привело к развитию нового поколения информационных систем – географических информационных систем (ГИС). Она включает в себе многие составные процессы, в частности, сбор, анализ, хранение, распространение и моделирование информации о мелиоративные категории

земельных ресурсов, а также составление цифровых карт. Основными своеобразными свойствами географически информационного картографирования является автоматизирование, систематизирование, ориентированность к определенной цели, оперативность и многовариантность.

Географические информационные ресурсы это – систематизированный информационный комплекс, заключающий картографические и тематические данные с взаимосвязью между разными событиями, явлениями и процессами.

Все основные системы, в том числе ГИС, состоят из подсистем и отсутствие одного из них из единой системы или неучастие не обеспечивает полноты данных:

- подсистема ввода информации – это устройство для преобразования полученных пространственных информации (картографических источников, данных полевых исследований и съемок, а также других материалов) в цифровую форму и ввода ее в память компьютера.

- подсистема поиска и анализа информации о мелиоративном состоянии земель, выполняющая работы, связанные с изучением объектов картографирования, оценкой данных, моделированием, удовлетворением потребности пользователя информации;

- подсистема представления информации для визуализации обработанной информации в картографической форме в виде карт, графиков разных таблиц;

- подсистема адаптации информации к требованиям пользователей;

- подсистема хранения информации для обновления, быстрого вывода, регистрации изменений данных, а также вхождение в системы других организаций при необходимости информации и пользования ими.

Подсистемы имеют три своеобразных свойства:

- связь с пространством;
- связь со временем;
- тематическое своеобразие.

Свойство связи с пространством изображается определением места отображения событий и явлений по информации. Например, определяется информация о земельных ресурсах, заданных по районам или фермерским хозяйствам или по всей Республики Узбекистан. Изучаются мелиоративные категории почв, формы рельефа, обуславливающие отток грунтовых вод, то есть, естественную дренированность территории.

Свойство связи со временем предусматривает изменение процессов, событий и явлений с течением времени. Например, предусматривается изменение земельных ресурсов по использованию земель.

Тематическое свойство предусматривает сбор информации по разным темам. Например, сбор информации о современном состоянии земельных ресурсах по земельным категориям по республике, областям, районам или фермерским хозяйствам.

Результаты. Карты имеют такое же значение в ГИС, как и в изучении земельных ресурсах, т.е. играют важную роль не только в качестве начальных данных, но и удобной формой представления конечной информации.

Создание карт мелиоративных категорий земельных ресурсах в электронном цифровом виде с применением компьютерной техники и технологий состоит из следующих процессов:

1. Подготовительный процесс. В этом процессе изучаются все картографические, полевые, научно исследовательски и другие данные о состоянии земельных ресурсах картографируемой территории, собираются и анализируются данные земельного фонда, изучаются данные о мелиоративных состояниях земли;

2. Процесс сбора, анализа и обработки информации. В этом процессе создаются цифровые карты, и банк данных о современном состоянии земельных ресурсах, оформляются данные;

3. Создание информационных систем. В этом процессе обобщается собранная информация и сохраняется в цифровом виде. Составляются электронные карты.

Источником информации для мелиоративных состояний земельных ресурсах служат электронные цифровые карты, созданные на основе специальных программ, т.е. полноценные данные о каждом объекте, изображаемые на карте, сохраняются в памяти компьютера в электронном цифровом виде. Информацию о любом объекте можно получить, открыв карту на компьютере.

Создание цифровых карт современного состояния земельных ресурсах производится в следующей последовательности:

- Нахождение фотопланов картографируемой территории и ввод их в память компьютера с помощью сканирования,
- Очистка от ненужных изображений и обработка карт,
- Ориентация, устранение ошибок ориентации,
- Изменение изображений,
- Создание вспомогательных карт объединением фотопланов,
- При необходимости вычисление земельных площадей,
- Оформление, подготовка и публикация вспомогательных карт на уровне требований.

Перед приведением карты в соответствующее состояние, изменением ее данных, вводятся географически элементы карты, в частности, математическая основа, границы и преграды, гидрография, рельеф, населенные пункты, растительность, дороги, промышленные и сельскохозяйственные объекты и другие.

В программе имеется «семантическая» часть, которая определяет принадлежность изображаемых на карте объектов к географически базовым элементам, и вырисовывает на карте те объекты, которые подходят к тематике.

Заключение.

Автоматизация обработки информации о быстроменяющихся земельных ресурсах с применением компьютерных технологий является актуальной проблемой современности. Применение ГИС технологий в оптимизации земельных площадей фермерских хозяйств повышает эффективность получения оперативных и точных данных о современном состоянии земель. Читая карту и анализируя ее содержание, можно получить дополнительную информацию сверх той, которая закодирована в картографических обозначениях.

Список использованных литератур

1. Safarov, E., Prenov, Sh., Bekanov, K., Salokhitdinova, S., Uvrayimov, S. Application of geoinformation technologies and remote sensing to detect land use and changes in the soil cover caused by the drying of the aral sea, **Periodico Tche Quimica**, 2020, 17(36), pp. 390–401
2. Bekanov, K., Safarov, E., Prenov, Sh., Uvrayimov, S. Creating land use / land cover map using methods gis and remote sensing (On the example the Chimbay district of the Karakalpakstan Republic), *International Journal of Pharmaceutical Research*, 2020, 12(3), pp. 1704–1708
3. Bekanov, K., Safarov, E., Prenov, Sh., Optimization of Agricultural Land Use in Chimbay District of the Republic of Karakalpakstan Using GIS Technologies, *International Journal of Geoinformatics This link is disabled.*, 2022, 18(1), pp. 27–36
4. Берлянт А.М. Географический информационное картографирование. М.: 1997, 64 с.
5. Берлянт А.М. Картография. Учебник М.: 2010, 325 с.
6. Лурье И.Р. Основы географического информационного картографирования. Учебное пособие. М.: Издательство МГУ. 2000, 143 с.

Мўминов Абдужалил Абдусалом ўгли

*Alfraganus University, Умумкасбий фанлар кафедраси мудири, з.ф.ф.д
(PhD). Тошкент, Ўзбекистон. E-mail: mominov010@gmail.com*

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ХАРИТАЛАРИНИНГ ТАСНИФИ

Аннотация. Ушбу мақолада қишлоқ хўжалиги хариталарини таснифи, таснифлаш хусусиятлари ҳамда уни такомиллаштириш йўллари кўрсатилган.

Калим сўзлар. қишлоқ хўжалиги, қишлоқ хўжалиги хариталарининг таснифи, таснифлаш белгилари.

КЛАССИФИКАЦИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ КАРТ

Аннотация. В денной статье показаны классификация сельскохозяйственных карт, признаки классификации. А также указаны пути её совершенствования.

Ключевые слова. Сельское хозяйство, классификация сельскохозяйственных карт, признаки классификации.

CLASSIFICATION OF AGRICULTURAL MAPS

Abstract. This article shows the classification of agricultural bricks, the characteristics of the classification. And also indicates the ways of its improvement.

Key words. Agriculture, classification of agricultural maps, classification features.

Кириш. Қишлоқ хўжалиги хариталарининг моҳияти, мақсади ва мазмунини аниқлаш ҳамда қишлоқ хўжалиги хариталарининг мавзули картография тизимидаги ўрнини аниқлаш учун, энг аввало, “қишлоқ хўжалиги харитаси” тушунчасининг ўзини таҳлил қилиш зарур.

Таниқли рус картографи М.И.Никишов биринчилардан бўлиб қишлоқ хўжалиги харитасига қуйидагича таъриф берган: «Мазмунида қишлоқ хўжалиги томонидан ишлаб чиқариладиган элементлар муҳим (асосий, бош) аҳамиятга эга бўлган харитага, одатда, қишлоқ хўжалиги харитаси дейилади» [4, Б. 6–7];

Кейинчалик у ўзининг юқоридаги таърифини кенгайтирган ҳолда уни қуйидаги таҳрирда берди: «Асосий мазмуни қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши, қишлоқ хўжалиги хом ашёсини дастлабки қайта ишлаш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари билан савдо ва уларни истеъмолини ташкил этувчи элементлардан иборат бўлган харитага, одатда, қишлоқ хўжалиги харитаси дейилади» [5, Б. 141–142].


Иккинчи таъриф анча аниқ ва тўлиқ кўринади, чунки муаллиф унда қишлоқ хўжалигини ўзининг моҳиятидан келиб чиқади, таърифда қишлоқ хўжалиги фаолиятининг барча тармоқлари деҳқончилик, чорвачилик, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш қамраб олинган. Бошқа томондан, ушбу таъриф ҳам камчиликлардан ҳоли эмас, масалан, унда қишлоқ хўжалиги учун муҳим бўлган ҳудудларнинг табиий ва ижтимоий-иқтисодий шароитларининг тавсифи йўқ.

Бу камчилик А.Ф.Чижмаковнинг таърифида қисман бартараф этилди: «Қишлоқ хўжалиги харитаси ёки қишлоқ хўжалиги атласи қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг географик, ижтимоий-иқтисодий

жойлашуви, табиий шароитлари, ривожланиш даражаси ҳақида аниқ тасаввур беради ва қишлоқ хўжалиги тармоқлари ўртасидаги сифат фарқини кўрсатади»[6, Б. 121].

Қишлоқ хўжалиги харитасининг янада тўлиқ таърифини Я.И.Юровский шакллантирди: «қишлоқ хўжалиги харитаси махсус географик харита бўлиб, у қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг жойлашуви, ҳолати ва истикболларини, шунингдек, уни олиб боришни иқтисодий, ташкилий ва техник шароитларини кўрсатади» [7, С. 128].

Қишлоқ хўжалиги харитасига берилган таърифларни таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, у ёки бу даражада, улар бир вақтнинг ўзида қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг хусусиятларини табиий ва ижтимоий-иқтисодий шарт-шароитларини акс эттириши керак. Шунга мувофиқ, г.ф.д., профессор А.М.Берлянтнинг таснифлаш позициясидан келиб чиқиб, биз қуйидаги таснифни шакллантирдик, унда қишлоқ хўжалиги хариталари ижтимоий ҳодисалар хариталари гуруҳига киради ва улар иқтисодиёт хариталарига мансубдир. 1-расмда мавзули хариталарни таснифлаш тизимида қишлоқ хўжалиги хариталарининг жойлашуви кўрсатилган



1-расм. Қишлоқ хўжалиги хариталарининг мавзули хариталарни мазмуни бўйича таснифлаш тизимидаги ўрни

Шубҳасиз, қишлоқ хўжалиги хариталарининг таснифи ҳар хил мавзудаги хариталар ўртасида алоқалар ўрнатишга имкон беради, уларнинг номларини, тузилишини хариталар ва атласлар таркибини, унификациясини тавсифлайди. Хариталарни таснифлаш зарурати ҳар бир харита тури ва хариталарни таснифлаш зарурати шу билан асосланадики, хариталарни ҳар бир синифи ва тури учун умумийдан ташқари, картографик ҳодисалар ва қўйилган топшириқларга боғлиқ ҳолда ўзига хос принциплар ва тузиш усуллари (методлари) ва жиҳозлаш хусусиятлари мавжудлиги билан асосланади. [2].

Қишлоқ хўжалиги хариталари таснифининг биз қўллаётган версияси И.Ю Левицкий томонидан ишлаб чиқилган бўлиб, у мавжуд таснифлар тажрибасини таҳлил қилиш асосида қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг табиий, ижтимоий ролини аниқлаш имконини берувчи моделни тақдим этди. -иқтисодий шароит ва қишлоқ хўжалиги ресурслари ва ишлаб чиқарувчи кучларни, қишлоқ хўжалигининг асосий тармоқларини, шунингдек, уларнинг ўзаро таъсирида ишлаб чиқаришни интенсивлаштириш даражаси ва самарадорлигини ҳисобга олади [3].

Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги хариталарини таснифлашнинг бир варианты И. Ю.Левицкий таснифининг асосий позицияларини ҳисобга олган ҳолда кўриб чиқайлик (1-жадвал).

1-жадвал

Қишлоқ хўжалиги хариталарининг мазмуни бўйича таснифи

<p>1. ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИНГ ТАБИЙ ВА ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ШАРОИТЛАРИ ХАРИТАЛАРИ</p>	<p>2. ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ХАРИТАЛАРИ</p>
<p>А. АТРОФ-МУҲИТНИ БАҲОЛАШ ХАРИТАЛАРИ</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Рельеф 3. Иқлим 4. Сув ресурслари 5. Тупроқлар 6. Ўсимлик дунёси 7. Хайвонот дунёси 8. Қишлоқ хўжалиги мақсадлари учун табиий раёнлаштириш 9. Агроландшафт 	<p>А. ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИНГ УМУМИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ ХАРИТАЛАРИ</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Қишлоқ хўжалигида ердан фойдаланиш 2. Қишлоқ хўжалиги меҳнат ресурслари 3. Қишлоқ хўжалигини интенсивлаштириш ва унинг самарадорлиги 4. Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш корхоналари, қишлоқ хўжалиги илмий-тадқиқот муассасалари ва ўқув муассасалари, ветеринария пунктлари ва муассасалари жойлашган жойлар 5. Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш турлари ва қишлоқ хўжалиги соҳалари 6. Саноат ва иқтисодий муносабатлар
<p>Б. ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ШАРОИТЛАР ХАРИТАЛАРИ</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Қишлоқ аҳолиси 2. Қишлоқ хўжалигига хизмат қилувчи ишлаб чиқариш корхоналари 3. Транспорт шароитлари 4. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари савдоси 5. Қишлоқ аҳолисини мактаб, маданият, тиббиёт, савдо ва бошқа муассасалар билан таъминлаш 6. Туманларни режалаштириш 	<p>Б. ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ТАРМОҚ ХАРИТАЛАРИ</p> <p>а) Қишлоқ хўжалиги</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Дехқончилик тизимлари 2. Ер майдонлари тузилмалари 3. Навларни районлаштириш 4. Қишлоқ хўжалиги техникаси <p>б) Чорвачилик</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Чорвачилик тизимлари 2. Чорвачилик фермаларини жойлаштириш 3. Қорамол, қўй эчкилар, қушларнинг турлари 4. Чорвачиликнинг зотли таркиби бўйича районлаштириш

Биз таклиф қилаётган тасниф қишлоқ хўжалиги хариталарининг барча замонавий хилма-хиллигини ҳисобга олишга уриниш бўлиб, умумийдан хусусийга ўтиш кетма-кетлигининг мантикий талабларини қондиради, хариталар турларини аниқ фарқлаш ва турларнинг бир хиллигини таъминлайди бир хил турдаги хариталарни бирлаштиришга имкон берадиган мақсадлари таърифи билан хариталар.

Хулоса. Яқин келажакда, умуман фан ва техниканинг ривожланиши билан қишлоқ хўжалигини харитага олиш технологияларини ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш тобора кўпроқ янги турдаги хариталарнинг типлари ва турларининг пайдо бўлишига олиб келади. Шу нуқтаи назардан, хариталарнинг таснифи доимий равишда илмий жиҳатдан такомиллаштиришни талаб қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Берлянт, А. М. Картография: учебник для вузов [Текст] / А. М. Берлянт. – М., 2002. – 336 с.
2. Левицкий, И. Ю. Научные основы комплексного сельскохозяйственного картографирования [Текст] / И. Ю. Левицкий. – М., 1975. – 204 с.
3. Левицкий, И. Ю. Сельскохозяйственное картографирование территории колхозов, совхозов, административных районов и областей в связи с интенсификацией и специализацией сельского хозяйства [Текст] / И.Ю.Левицкий. – М.: Харьков, 1966. – С. 127–139.
4. Никишов, В. М. Сельскохозяйственные карты и атласы [Текст] / В. М. Никишов. – М.: Геодеиздат, 1957. – 184 с.
5. Никишов, В. М. О методике построения областных сельскохозяйственных карт [Текст] / В. М. Никишов // сб. статей по картографии. – М.: Геодезиздат, 1958. – Вып.10. – С. 3–17.
6. Чижмаков, А. Ф. Основные вопросы картографирования сельского хозяйства Центрально-Черноземной зоны СССР [Текст] / А. Ф. Чижмаков // Сб. тр. Воронежск. с.х. ин-та., Воронеж, 1964. – Т. XXXII – С. 121–126.
7. Шоцкий, В. П. Картографирование сельскохозяйственного производства как метод изучения производительных сил в сельском хозяйстве [Текст] / В. П. Шоцкий // Мат-лы II симпозиума по комплексному географическому картографированию. – Иркутск, 1959. – С. 41–44.

Qalandarov Umarbek Samandarovich

Urganch davlat universiteti Geodeziya, kartografiya va kadastr kafedrasida katta o'qituvchisi. e-mail: umarbekqalandarov1987@gmail.com

ZAMONAVIY KARTOGRAFIK-GEODEZIK METODLAR ASOSIDA, SHOLI EKIN DALALARINI OQILONA JOYLASHTIRISH VA KARTAGA OLISH MASALALARI

Annotatsiya: Zamonaviy Sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari va GAT asosida sholichilikni oqilona tashkil qilish hamda sug'orma dehqonchilikda dala maydoni lazer niveliri yordamida tekislash hamda sun'iy yo'ldoshdan olingan ma'lumotlariga tayangan holda sholi yetishtirish va maqbul joylashtirish uchun qulay bo'lgan hududlarni aniqlash hamda ularni kartalarini tuzish mumkin bo'ladi.

Kalit so'zlar: Ekin dalalari, Sun'iy yo'ldosh, lazer niveliri, Chinobot-2, noan'anaviy, topografik syomka, kartografik-geodezik tadqiqotlar, Sentinel-2, Google Earth Engine

ПРОБЛЕМЫ РАЗУМНОГО РАСПОЛОЖЕНИЯ И КАРТОГРАФИРОВАНИЯ РИСОВЫХ ПОЛЕЙ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ КАРТОГРАФО-ГЕОДЕЗИЧЕСКИХ МЕТОДОВ

Аннотация: на основе современных спутниковых данных и ГАТ можно рационально организовать возделывание риса, а в орошаемом земледелии - выровнять поле с помощью лазерного уровня, а на основе спутниковых данных определить пригодные для выращивания риса площади и оптимальное их размещение. и отобразить их будет.

Ключевые слова: Посевные поля, Спутник, лазерный уровень, Чинобот-2, нетрадиционный, топографическая съемка, картографо-геодезические исследования, Сентинел-2, Google Earth Engine

PROBLEMS OF REASONABLE LOCATION AND MAPPING OF RICE FIELDS BASED ON MODERN CARTOGRAPHIC AND GEODETIC METHODS

Abstract: Based on modern satellite data and GIS, it will be possible to rationally organize rice cultivation and level the field area in irrigated agriculture using laser levelers, and based on satellite data, identify and map areas suitable for rice cultivation and optimal placement.

Key words: Crop fields, Satellite, laser level, Chinobot-2, non-traditional, topographic survey, cartographic and geodetic research, Sentinel-2, Google Earth Engine

Kirish. Ma'lumki, sug'orma dehqonchilik Xorazm viloyati iqtisodiyotida muhim o'rin tutib, undagi mehnatga layoqatli aholining 60 foizdan ortig'ini ish bilan ta'minlaydi va sholi mahsulotlarining eksportidan daromad olinadi.

Viloyatimizda yer va suv resurslarining cheklanganligini hisobga olib, sholichilik samaradorligini oshirish hamda yaratilgan istiqbolli navlarning biologik hususiyatlaridan to'liq foydalanishda ilm-fan sohasida yutuqlarini amaliyotga keng joriy qilish hozirgi kunning dolzarb masalalari hisoblanadi [2,].


Asosiy qism. Viloyatda dehqonchilikni an'anaviy rejalashtirish usuli qishloq xo'jaligining odatiy amaliyotining bir qismi bo'lgan. Moliyaviy, texnik va boshqa vositalarning etishmasligi dehqonchilikni rejalashtirishda an'anaviy

dehqonchilikdan chiqib ketish imkonini bermagan. Buning oqibatida fermerlar ananaviy usullarning salbiy oqibatlarni bilsalarda yerlarni noilolikdan ulardan keng foydalanishlar. An'anaviy rejalashtirish amalga oshirilgan dalalarda begona o'tlar ko'payadi, o'simliklarning notekis unib chiqishi va pishib etishi hosilning pasayishiga olib keladi. Hozirgi vaqtda viloyatdagi sug'oriladigan yerlarning 60 foizdan ortig'i sho'rланish darajasi va yer osti suvlari sathi yuqori bo'lib, dalalarda suvning notekis taqsimlanishi natijasida tuproq degradatsiyasiga uchramoqda. Ekin dalalarining qoniqarsiz tekislash imkoniyatlari ham mavjud emas edi [1].

Zamonaviy Sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari va GAT asosida sholichilikni oqilona tashkil qilish hamda sug'orma dehqonchilikda dala maydoni yuzasining tekisligi yer, suv, o'g'it va energiya resurslaridan samarali foydalanish, ekinlardan yuqori hosil olish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Yerlarni lazer niveliri yordamida tekislashda dala maydoni yuzasidagi eng past va baland joylar farqi ± 3 sm dan oshmaydigan darajadagi maxsus jihozli, lazer nivelirli qurilmalar yordamida tekislash usuli tushuniladi. Ma'lumki, sholi dalalarining yuza tekisligi darajasi texnik talab bo'yicha ± 3 sm dan oshmasligi kerak. Mamlakat qishloq xo'jaligida tadbiiq qilinadigan mazkur texnologiya hozirgi kunda keng ommalashmoqda [2].

Yerlarni lazer bilan tekislashning mohiyati nafaqat yerni dastlabki tayyorlash usulida, balki suv resurslaridan samarali foydalanish va saqlash usulida hamdir. Maxsus texnika yordamida yerlarni lazer bilan tekislash suvni tejash, sug'orish suvining taqsimlanishini yaxshilash, sug'orish suvidan foydalanish samaradorligi isbotlangan (1-rasm).




1-rasm. Xorazm viloyati tumanlar kesimida mavjud lazerli nivelirlar soni (2022-y dona)

Bu usul ekin dalalarini tekislashda yuqori darajadagi aniqlikka erishish uchun zarur bo'lib, suvni tejash va sholi hosildorligini oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Ushbu tadqiqot ishida Sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari va GAT asosida va lazer bilan tekislashda tajriba obyekt sifatida Gurlan tumanidagi Chinobot-2

massivi sug'otiladigan yerlari olingan bo'lib, unda ekin dalalarni sholichilik maqsadida tekislashning noan'anaviy, yangi usullaridan biri bo'lgan lazerli tekislash usulining afzalliklari tadqiq qilindi (2-rasm).

Tadqiqot natijalari yerlarni tekislash va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini subsidiyalash siyosati bo'yicha mahalliy ishlab chiqaruvchilar va fermer xo'jaliklari uchun foydali tadqiqot ishi bo'lib xizmat qiladi. Biroq, Xorazm viloyatida yerni lazer niveliri bilan tekislash ishlari amalga oshirilgandan keyin tuproq unumdorligiga ta'sirini o'rganish uchun tadqiqotlar o'tkazilmagan [1].



Lazer nivelirlash

Topografik-syomka. Yer hajmi ishlari kartogrammasi

2-rasm. Dala maydonni topografik syomka qilishni 20×20 m li kvadrat katakcha usuli

Shu nuqtai nazardan, Sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari va GAT asosida sholichilikni oqilona tashkil qilish masalalarini kartografik-geodezik tadqiqotlarning nisbatan kam qo'llaniladigan yo'nalishlari, jumladan, sholi ekinlarini oqilona hududiy tashkil etishda amaliy ahamiyatga ega tadqiqotlardan biriga aylantirdi.

Olib borilgan dala tadqiqotlar hamda Sentinel-2 sun'iy yo'ldosh va GAT texnologiyalari asosida, Sholi ekin dalalarini muqobil joylashtirish metodologik modeli ishlab chiqildi


Mazkur tadqiqot ishida ishlab chiqilgan metodologik modeli yordamida Sentinel-2 sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari bazasida sholi ekiladigan dalalarni monitoring qilish hamda raqamli kartalarini yaratish imkonini berdi.

Ushbu tadqiqot ishida sholi ekish uchun maqbul hududlarni aniqlash bo'yicha dala tadqiqotlari ma'lumotlari asosida quyidagi ishlar amalga oshirildi:


Viloyat hududini sun'iy yo'ldoshdan olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, Sentinel-2 hamda tajriba sinov maydonlari ma'lumotlariga tayangan holda sholi yetishtirishning tahliliy davri qilib may va oktyabr oylari olindi. Ushbu davrlar NDVI va YYH ko'rsatkichlari tahlil qilinib sholi va bog'doy yetishtirishiriladigan hududlar aniqlandi. Yuqori aniqlikdagi Sentinel-2 tasvirlari sholi dalalarini kartaga olish va monitoring qilishda foydalanildi. Biroq, ekinlarni kuzatish uchun Sentinel-2 dan olingan ma'lumotlarni qayta ishlash ko'p vaqt talab qiladigan jarayon bo'lganligi sababli, Google Earth Engine (GEE)

platformasining tahlil qilish katta hududlarni kuzatish ma'lumotlari qayta ishlash va kartalashtirish

So'nggi yillardagi tadqiqotlar ekinlarning fenologik monitoringida katta afzalliklarga ega bo'lgan Sentinel-2 tasvirlari va lazer niverlerlash asosida tekislangan sholi dalalarini ma'lumotlaridan foydalannildi. (3-rasm).



3-rasm Sholi ekin dalalarini muqobil joylashtirish metodologik modeli



4-rasm. Xorazm viloyati Gurlan tumani tajriba sholi ekin dalalarini aniqlash natijasi karta sxemasi. (muallif tamonidan ishlab chiqilgan)

Albatda, ushbu metodologik modeli bir vaqtning o'zida dala sharoitini nazorat qilish ishlarni olib borish talab qiladi (3-rasm). Dastlab ish tajriba maydonlarini tanlash va ularga tegishla ma'lumotlar to'planadi. Sentinel-2 suratlarini olish davridan va boshqa bir qancha vegtatsiyaga bog'liq omillardan kelib chiqqan holda to'planadigan suratlar davri belgilanadi [3]. To'plangan

ma'lumotlar Google Earth Engine (GEE) va ArGIS dasturlarida sinflashtirish algoritmlari va NDVI ko'rsatkichlarini aniqlash asosida monitoring qilinadi. Sholi ekin maydonlari hamda ularning joylashuviga ta'sir qiluvchi omillar aniqlab baholanadi. Dala sharoitda belgilangan tajriba maydonlari ma'lumotlari bilan taqqoshlanadi (4-rasm).

Sholi ekin dalalarini joylashtirishda albatta eng asosiy omillar bu yer va suv resurslaridir. Shu sababdan ularning aloqadorlik ko'rsatkichlari hisoblab chiqiladi. Omillarning alohida tahlili asosida yakunda sholi ekin dalalarini joylashtirish uchun qulay bo'lgan hududlarni aniqlash hamda ularni kartalarini tuzish mumkin.

Tadqiqot ishi mavzusidan kelib chiqib, sholi ekini davridagi sun'iy yo'ldosh ma'lumotlaridan foydalanildi. Ya'ni may-iyun oylarida sholi yashil tusga kiradi. Ushbu jarayon boshqa oylar ya'ni iyun, iyul va avgust oylari uchun takroran bajariladi.

ArcMap dasturida 2021-yil va 2023-yillar uchun yerlarni toifaga ajratib kartalari ishlab chiqildi. Google Earth Engine dasturi yordamida 2021-yil va 2023-yillar may-iyun oylaridagi Sentinel-2 sun'iy yo'ldoshi tasvirlari yordamida vegetatsiya indeksi (NDVI) hisoblanib, ArcMap 10.5 dasturida ishlab chiqilgan kartografik dizayn asosida olingan natijalarni mazmunini boyitilgan mavzulari raqamli kartalar sifatida tayyorlash mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Sholi dalalarini lazer niveliri yordamida tekislash orqali dala maydonni parchalangan noteksligiga qarab sho'r yuvish yoki sug'orish uchun olingan cheklar yoki marzalarga sarf bo'ladigan maydonni 10 foizga tejab qolishiga erishish. Tadqiqot ishi natijalari asosida kelgusida qishloq xo'jaligi hududlarini rivojlantirish bo'yicha uslubiy yondashuvlar qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotning turdosh tarmoqlari kartalarini yaratish bo'yicha metodologik modeli ishlab chiqildi. Yuqoridagilardan foydalanib Xorazm viloyatida sholi ekiladigan hududlarini qulayligi bo'yicha baholash kartalari yaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Авезов С.А., Шенязов О.О., Қаландаров У.С., Шоли экин далаларни лазер нивелири ёрдамида текислаш ва карталаштириш. Экономика и социум 06.07.2022№7(98) 2022 www.iupr.ru
2. Ерларни лазер нивелири ёрдамида текислаш бўйича “Техник йўриқнома”. Хоразм вилояти қишлоқ хўжалигини барқарор ривожлантиришда ресурс тежамкор технологияларни оммалаштириш. Лойиҳаси асосида Хоразм Агротаслаҳат маркази KRASS илмий ходимлари томонидан тайёрланди. Урганч 2012. 25 б.
3. Авезов С.А., Қаландаров У.С., Матчонов М.Ж., Суний ёлдош малумотлари асосида шолчиликни ташкил қилиш ва NDVI, TNI, YUH ни аниқлаш масалалари. Фундаментал ва амалий географик тадқиқотларда инновациялар республика илмий-амалий конференцияси. Тошкент. 2022 й.14-15-октябр. 322-325

Xakimova Kamola Raximjonovna

Farg'ona politexnika instituti, Geodeziya, kartografiya va kadastr kafedrası dotsenti, g.f.f.d. (PhD), Farg'ona, O'zbekiston. E-mail: k.xakimova@ferpi.uz

Abduxalilov Bekzod Komiljonovich

Farg'ona Politexnika instituti, mustaqil tadqiqotchi

Abdulxakimov Xalilullo Muxammadyaxyo o'g'li

Alisherov Shoxrux Mirzohid o'g'li

Farg'ona politexnika instituti magistrantlari

FARG'ONA VILOYATIDA EKOTURIZMNING HUDUDIY TASHKIL ETILISHI VA UNDA FOYDALANISHDA KARTOGRAFIK ASOSLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada Zamonaviy geoaxborot va innovatsion texnologiyalaridan foydalanib turizm infratuzilma obyektlari ma'lumotlari to'plangan va qayta ishlab chiqilgan. Rekratsion-turistik soha ma'lumotlarini kompleks baholash har tomonlama tahlil qilish nafaqat hududning iqtisodiy jarayonlari yanada obyektiv baholangan hamda amaliy maqsadlarda foydalanish uchun zarur bo'lgan ekoturizm tarmoqlari raqamli xususiyatlarini kartada ifodalash imkonini yaratilgan. Kichik masshtabli xaritalar uchun kartografik tarmoqning chastotasi, xaritalash masshtablari va xaritaga tushirilgan hududning geografik joylashuvi o'rtasidagi optimal bog'liqlik taklif etilib, ushbu jarayonni avtomatlashtirish uchun grafik ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ekoturizm, rekreatsiya tarmoqlari, kartografik asos, modellashtirish, atribut ma'lumotlar, qatlamlar, geografik, turistik infratuzilma, mobil ilova, geoinformatsion tizim.

ЗНАЧЕНИЕ КАРТОГРАФИЧЕСКОЙ ОСНОВЫ В ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ЭКОТУРИЗМА В ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ И ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЕ

Аннотация: в данной статье информация об объектах туристической инфраструктуры собирается и перерабатывается с использованием современных геоинформационных и инновационных технологий. На карте созданы всесторонняя оценка информации рекреационно-туристского сектора, всесторонний анализ, более объективно оцениваются не только экономические процессы региона, но и необходимые для практического использования цифровые характеристики сетей экотуризма. Для мелкомасштабных карт предложено оптимальное соотношение частоты картографической сети, масштабов картографирования и географического положения картируемой территории и разработан график для автоматизации этого процесса.

Ключевые слова: экотуризм, рекреационные сети, картографическая основа, моделирование, атрибутивные данные, слои, географическая, туристская инфраструктура, мобильное приложение, геоинформационная система.

THE SIGNIFICANCE OF CARTOGRAPHIC BASIS IN THE TERRITORIAL ORGANIZATION OF ECOTOURISM IN FERGANA REGION AND ITS USE

Abstract: in this article, information on tourism infrastructure objects is collected and redeveloped using modern geoinformation and innovative technologies. Comprehensive assessment of recreational-tourist sector information, comprehensive analysis, not only the economic processes of the region are more objectively evaluated, but also the digital

characteristics of ecotourism networks, necessary for practical use, have been created on the map. For small-scale maps, the optimal relationship between the frequency of the cartographic network, the mapping scales and the geographical location of the mapped area is proposed, and a graph is developed to automate this process.

Key words: *ecotourism, recreation networks, cartographic basis, modeling, attribute data, layers, geographic, tourist infrastructure, mobile application, geoinformation system.*


Dunyoda ekoturizm hech qanday siyosiy, mafkuraviy, geografik va madaniy chegaralarni bilmaydigan global miqyosidagi faoliyatga aylandi. Bugungi kunda rekreasion-turistik, resurslar va hududning rekreasion-turistik salohiyatidan foydalanish hamda hududiy tashkil etish, kompleks baholash asosida ekoturizmni rivojlantirishning istiqbolli dasturlarini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografik sharoitni ekoturizm maqsadida baholash, uning turlarini aniqlash, rayonlashtirish, ekoturistik imkoniyatlarini oshirish va rivojlantirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Shuningdek ekoturizm sohasi hamda turizmning jadal sur'atlarda rivojlanishi bilan rekreatsiya maqsadlari uchun mo'ljallangan, turizm maskanlari va yo'nalishlari kartalarining roli va ularga bo'lgan ehtiyoj ham ancha ortib bormoqda. Bunday kartalarning mohiyati, ularda aks ettirilishi mumkin bo'lgan mavzularning rang barangligi hamda mazmuni va jihozlanishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan, turizmni rivojlantirishning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini atroflicha o'rganishda bugungi kartografik tadqiqotlarning olib borilishi eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada, jumladan AQSH, Xitoy, Germaniya, Ispaniya, Koreya, Fransiya, Italiya, Kanada, Rossiya va boshqa iqtisodiy rivojlangan davlatlarda milliy va mintaqaviy turizm muammolarini o'rganishda ham ekoturizm kartalarini yaratish, chunonchi yaratilayotgan kartalarning ishonchligini ta'minlash hozirgi zamon kartografiyasining dolzarb ilmiy-amaliy masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Respublikada ekoturizm sohasiga hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investisiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida qaralib, uni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi 35-maqsadida «O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling» dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish⁴ yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, mintaqalarning mavjud tabiiy (relyef, iqlim, ichki suvlar), tarixiy-madaniy (yodgorliklar, ziyoratgohlar, hunarmandchilik), ijtimoiy-iqtisodiy (iqtisodiy va turistik infratuzilma), ekologik (iqlimiy diskomfortlik, havo va suvning ifloslanish indeksi) imkoniyatlarini ekoturizm maqsadlarida baholash hamda Farg'ona viloyati misolida rekreatsiyon-turistik salohiyat tipologiyasini (eng

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni.

yuqori, yuqori, oʻrta, past) ishlab chiqish va GAT texnologiyasining ArcGIS dasturi asosida kartalashirish, har bir tip uchun rekreatsion-turistik faoliyatni rivojlantirishga ijobiy va salbiy taʼsir etuvchi omillarni aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi [1-5].

Aynan shu maqsadda, Fargʻona viloyati ekoturistik imkoniyatlarini aniqlash quyidagicha uslubiyoti hamda geoaxborot tizimlari asosida kartalarni tuzish uslublari takomillashtirish asosida ishlab chiqildi. (1.1- rasm).



1.1- rasm. Ekoturizmning xalqaro Yevropa modeli

Bunda karta proyeksiyalarini tanlashning klassik metodologiyasi rasmiylashtirildi;

1. Kichik masshtabli xaritalar uchun kartografik tarmoqning chastotasi, xaritalash masshtablari va xaritaga tushirilgan hududning geografik joylashuvi oʻrtasidagi optimal bogʻliqlik taklif etilib, ushbu jarayonni avtomatlashtirish uchun grafik ishlab chiqilgan;


2. Fargʻona viloyati hududi uchun matematik asos elementlarini kartografik maʼlumotlar bazasini yaratilgan;

3. Yaratilgan kartografik maʼlumotlar bazasi va xaritalangan obyektlarni tanlash uchun matematik modellashtirishdan foydalangan holda xarita maketini yaratish va kartografik toʻrni qurish jarayonlarini avtomatlashtirilgan.

4. Matematik asosni qurishni amalga oshirish uchun maxsus dasturiy taʼminot mobil ilovani ishlab chiqildi va sinovdan oʻtkazildi. Ekoturizmning rivojlanishi va hozirgi holatini oʻrganish, geografik jihatlarini tahlil etish va ularni tasniflash asosida, Fargʻona viloyatida ekoturizmning hududiy tashkil etilishi va undan foydalanishni geografik jihatdan oʻrganildi. Viloyatining tabiiy, tabiiy-tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlaridan ekoturizm kartasida maskanlarini

joylashtirish va marshrut yo'nalishlarini belgilab olindi. Farg'ona viloyati mobil ilovasini ishlab chiqish bo'yicha va uni rivojlantirishning istiqbollarini geografik jihatdan belgilash va foydalanish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Farg'ona viloyatida ekoturistik klasterlar yaratishning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va servis geografiyasi bilan bog'liq jihatlari aniqlandi hamda har bir ma'muriy birlik uchun istiqbolli yangi turistik marshrutlar (bir va ko'p kunlik) va ularning turoperatorlar uchun namunaviy kartalari ishlab chiqildi. Kartalar mazmunini yoritishda ekoturizm sohasida turizm va turistik infratuzilma obyektlari, turistik faoliyatni taraqqiy etish shartlari va omillari asosiy resurs hisoblanadi. Bunda esa to'rtta tarkibiy modulga ega turizmni shakliy ta'minlashning mintaqaviy tizimini ilmiy asoslarini ishlab chiqildi [6-10].



1.2-rasm. «Fergana Eco turizm» mobil ilovasida ekoturizmni axborot bilan ta'minlash chizmasi

IT tizimining asosiy maqsadi - turistlarga sayohat hududi, tarixi va hozirgi xolati, madaniyati va tabiati, aholisi haqida zarur ma'lumot berishdan iborat bo'ladi;

Sayyohlarni axborot bilan ta'minlashning badiiy modulda mintaqaga haqidagi o'lkashunoslik adabiyotlari, fotoalbomlar, bukletlar, kalendarlar va boshqa turizm resurslari suratlari kabi ma'lumotlar o'z aksini topadi;

Grafik modulda sayohatchilarning dam olishini mazmunli o'tkazish uchun ko'rsatmalar, sayohat uchun reklamalar, turizm agentliklari haqida reklama bukletlari, kalendar va boshqa materiallar yoritib beriladi;

Kartografik modulda esa turizm maqsadlari uchun mintaqaviy kartografik tizim turizm planlari, kartalari, atlasning seriyali kartalari va boshqa turli

materiallari bilan izohlab boriladi.

Modellashtirishda sayyohlarning vaqtini sermazmun o'tkazish maqsadida sayyohlik obyektlari to'g'risida sifatli, ishonchli, illyustrativ-zavqli ma'lumotlar turli o'lchamda o'z aksini topadi. Turistik sohani har tomonlama ta'minlash uchun mo'ljallangan kartografik asarlar tizimi muntazam yangilanadi va ma'lumotlar bazasi to'ldirilib boriladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilmiy-nazariy xulosalar, tavsiyalar, kartografik va boshqa onlayn raqamli kartografik materiallar, Farg'ona viloyati tabiatini ekoturistik jihatdan tavsiflash, baholash va rayonlashtirish metodikasini yangi usullar yordamida takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Farg'ona viloyati tabiatining ekoturistik imkoniyatlarini aniqlash, baholash, rekreatsion-turistik faoliyatni yanada rivojlantirish va infratuzilma obyektlarini joylashtirishda samarali foydalanishga qaratilgan onlayn veb-xarita, "Fergana Eco turizm" mobil ilova, ishlab chiqilganligi hamda Farg'ona viloyati tabiatini ekoturistik imkoniyatlarini baholash mezonidan kelib chiqqan holda yangi sayyohlik yo'nalishlarini tashkil qilishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Turkiya, Bolgariya, Misr kabi rivojlanayotgan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, mamlakatimizda ekoturizmni tashkil etishni vakolatli davlat boshqaruv organlari orqali davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlari asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq deb topildi.

Farg'ona viloyatida madaniy meros obyektlari Samarqand, Buxoro, Xorazm viloyatlarida bo'lgani kabi bir joyda kompleks emas, balki maydoni kichik bo'lishiga qaramasdan 422 ta obyekt tarqoq holda joylashganligi aniqlandi. Farg'ona viloyatida tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillardan kompleks foydalanish orqali 6 ta aralash turdagi sayyohlik marshrutlari takomillashtirildi. Xizmat ko'rsatish sohalari bilan turizmning aloqadorligi juda sust darajadali, viloyat iqtisodiyotida sayyohlik sohasining ulushi sezilmasligi, ular o'rtasida o'zaro aloqadorlikni kuchaytirish zarur.

Qo'qon shahri, Marg'ilon, Rishton, Chimyon va Vodil, (Oltiariq (Qiziltepa sanatoriyasi), Shoximardon (Madaniyat) va So'x kabi ekoturizm va rekreatsiya resurslariga boy tumanlarda tadbirkorlik subyektlari va davlat-xususiy sherikchiligi asosida katta, o'rta va kichik hajmdagi (mehmonxona, mehmon uylari, kemping, motellar, sanatoriyalar, dam olish uylari, bolalar oromgohlari, kafe va restoranlar, sanitariya-gigiyena shaxobchalari, savdo va transport xizmatlari) obyektlarni onlayn interaktiv kartasida marshrutlar yo'nalishlari bo'yicha mobil ilovasini yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi [10-14].

Maqsadli olib borilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, turistik plan, karta,

atlaslarni zamonaviy GAT texnologiyalari negizida yaratish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi. Bunda tizimli karta va planlar sayyohlar, dam oluvchilar, menejerlarni zarur ma'lumot bilan ta'minlashi nuqtai nazardan amalga oshirilishi lozim. Yuqorida keltirilgan samaradorlikka erishish uchun dastlab turistik karta va planlarning loyihasini ishlab chiqish zarurligini taqazo etdi. Turistik karta va planlarning loyihasini amalga oshirishda turizm maqsadlari uchun kartografik asarlar mintaqaviy tizimlari loyihasi ularning masshtabi hamda maqsadiga ko'ra quyidagilar keltirilib ular ilmiy asoslanildi:

1. Mintaqaning kompleks turistik kartalari – 1: 200 000 1: 500 000 masshtablarda tuzilishi yuqorida asoslandi. Viloyat uchun bunday masshtabdagi kartalarni ishlab chiqish turizm sohasi talablariga to'liq javob beradi. Viloyat maydoni belgilangan masshtabga to'laligicha qoplanadi. Mintaqaning maydonini inobatga olgan xolda ushbu masshtablarda yaratiladigan obzor kartalar turizmning tabiiy va madaniy meros obyektlari, turistik infratuzilma obyektlari tizimi haqida ma'lumotlarni bir butun kompleks sifatida qamrab oladi. Ushbu kartalar tashrif buyuradigan mintaqadagi turizm resurslari bilan masofadan turib ham ma'lumot olish imkonini yaratadi. Bu kartalardan turli turistik sayohatlarni loyihalash va ishlab chiqish, ba'zida sayohat davrida foydalanish hamda vizual o'rganish maqsadida joy bilan oldindan tanishish uchun qo'llaniladi. Bunday kartalar albatta IT axborot tizimi asosida ishlab chiqiladi.

2. Ekoturizmni taraqqiy etishida GIS texnologiyalarining imkoniyatlari. Ushbu qismda turizm karta va planlari geoinformatsion-ma'lumotnomali tarzda ArcGIS, Panorama, MapInfo kabi dasturlar asosida yaratish masalalari amalga oshiriladi. Turizm resurs potentsiali kartalari va planlari turistik-rekreatsion faoliyat hamda iqtisodiyotning o'ziga xos tarmog'i, ushbu hududda turizm rivojlanishi shartlari va resurslari haqida ma'lumotlarni uyg'unlashtiradi. Ushbu texnologiyalar yordamida yaratilgan kartografik asarlarda masshtab muhim ahamiyat kasb etmaydi, lekin geografik koordinata asosiga bog'lanadi.

3. Ekoturizm marshrutlari kartasi. Turistik marshrut kartalari yirik masshtablarda tuziladi. Bu kartalar ham koordinata tizimiga asoslanilib ikki turda ya'ni nashr qilingan va elektron ko'rinishda aks ettiriladi. Mazkur kartalar joyning tabiiy xususiyatlari, tarixiy-madaniy obidalari, marshrutning alohida tomonlari ko'rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Safarov E.Y., Abduraximov X.A, Oymatov R.K. "Geoinformasion kartografiya", "Toshkent" 2012 y.
2. Khakimova K. R., Holmatova D. B., Abdusalomov A. A. Basics of atlas mapping optimization in the ferghana region //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary

Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 5. – С. 613-617.

3. Khakimova K. R. et al. DEVELOPMENT OF CADASTRAL MAPS AND PLANS IN THE GEOINFORMATION SYSTEM //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 4. – С. 212-216.

4. Khakimova K., Yokubov S. CREATION OF AGRICULTURAL ELECTRONIC MAPS USING GEOINNOVATION METHODS AND TECHNOLOGIES //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. D1. – С. 64-71.

5. Marupov A. et al. Methods for researching the influence of electromagnetic waves of power transmission lines on soil properties //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 508. – С. 07002.

6. Rakhimonovna K. K. et al. IRRIGATION NETWORK CARDING ISSUES //Open Access Repository. – 2024. – Т. 10. – №. 3. – С. 104-108.

7. Abduraufovich K. O., Rakhimonovna K. K. LAWS OF DEVELOPMENT OF THE EARTH'S CRUST, PLANETARY RELIEF FORMS, ENDOGENOUS RELIEF OF THE EARTH'S SURFACE //Academia Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 12. – С. 146-155.

8. Rakhimjonovna K. K. et al. Creation of a database for the compilation of digital land Cadastral maps //Texas Journal of Engineering and Technology. – 2023. – Т. 21. – С. 10-16.

9. Yokubov S. DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL CARDS USING ARCGIS AND PANORAMA TECHNOLOGIES //Innovations in Science and Technologies. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 101-107.

10. Khakimova K., Yokubov S. CREATION AND MAINTENANCE OF STATE CADASTERS IN THEREPUBLIC OF UZBEKISTAN //Innovations in Science and Technologies. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 85-93.

11. Eshnazarov D. et al. Describing the administrative border of Koshtepa district on an electronic digital map and creating a web map //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 452. – С. 03009.

12. Khakimova K. et al. Application of GIS technologies for improving the content of the tourist map of Fergana province, Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 386. – С. 04003.

13. Khakimova K., Yokubov S. Creation of agricultural electronic maps using geoinnovation methods and technologies //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. D1. – С. 64-71.

14. Khakimova K., Yokubov S. CREATION OF AGRICULTURAL ELECTRONIC MAPS USING GEOINNOVATION METHODS AND TECHNOLOGIES //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. D1. – С. 64-71.

Uvrayimov Sunnatilla Tilaboy o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Kartografiya kafedrası katta o'qituvchisi

Toshkent, O'zbekiston. E-mail: uvrayimovsunnatilla@gamil.com

Yusupov Baxridin Normo'minovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Kartografiya kafedrası katta o'qituvchisi

Toshkent, O'zbekiston. E-mail: bahridinyusupov@gmail.com

KARTOGRAFIYADA AVTOMATLASHTIRISH METODLARI VA VOSITALARINING RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY BOSQICHLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada kartografiyaning rivojlanishida alohida ahamiyatga ega bo'lgan davrlar haqida ma'lumotlar beriladi. Undan tashqari, sohaning avtomatlashtirish metodlari va vositalarining umumiy tavsiflari hamda bosqichlari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: kartografiya, avtomatlashtirish metodlari, avtomatlashtirish vositalari, avtomatlashtirish bosqichlari, avtomatlashtirilgan kartografiya, kartografik vizualizatsiya.

ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ МЕТОДОВ И СРЕДСТВ АВТОМАТИЗАЦИИ В КАРТОГРАФИИ

Аннотация: в данной статье представлены сведения об периодах особых развитии картографии. Кроме того, даны общие характеристики и этапы методов и средств автоматизации отрасли.

Ключевые слова: картография, методы автоматизации, средства автоматизации, этапы автоматизации, автоматизированная картография, картографическая визуализация.

MAIN STAGES OF DEVELOPMENT OF METHODS AND MEANS OF AUTOMATION IN CARTOGRAPHY

Abstract: This article presents information about periods of particular importance in the development of cartography. In addition, general characteristics and stages of methods and means of automation of the industry are given.

Key words: cartography, automation methods, automation tools, automation stages, automated cartography, cartographic visualization.

Kirish. Ma'lumki, kartografiyaning tarixi sivilizatsiya taraqqiyotining ajralmas bir qismi sifatida qaraladi. Kartografiya ham boshqa fanlar qatori o'z rivojlanish tarixiga ega bo'lgan fan hisoblanadi. [2]. Kartografiyani fan va ishlab chiqarish sohasi sifatida rivojlanishining bosh omili sifatida, u doimo jamiyatning atrofidagi muhitni (o'rab olgan sharoitni) bilish, boshqarish, fazoviy ma'lumotlarni yozib olish, vizualizatsiya qilish va ularni uzatish vositasi sifatida xaritalarga bo'lgan ehtiyojni to'ldirib kelgan. Har xil tarixiy bosqichlarda kartografiyaning rivojlanishi uning burilish nuqtalari uchta asosiy omil bilan belgilanadi: joyda syomka va o'lchashlar uchun asboblar, xaritalarni tuzish usullari va texnologiyalari; xaritalarni tuzish va nashr etishning texnologik usullarni takomillashtirish; xaritalardan foydalanish metodlarini takomillashtirish. Umuman olganda, kartografiyada avtomatlashtirish tarixi plotterlardan va elementar statistikadan umumlashtirish-gacha va qarorlar qabul qilish tizimlarigacha bo'lgan davr oralig'ida rivojlanmoqda.

Asosiy qism. Avtomatlashtirilgan kartografiya, kartografiyaning yangi yoʻnalishi sifatida rivojlanishining dastlabki bosqichi 1950-yillarning oxiri va 1960-yillarning boshiga toʻgʻri keladi. U apparat vositalarini takomillashtirish ayniqsa, grafika bilan bogʻliq boʻlib, u birinchi navbatda Gʻarbda EHMga kira olish (yoki foydalanish) nafaqat tizim dasturchilari uchun, balki EHMga kirishni hamma uchun ochilishi bilan bogʻliq bir qancha omillar bilan izohlanadi. Shunday qilib, Vashingtonning Geografiya institutida eng faol tadqiqot davri 1958-1961 yillar kompyuter kartografiyasi maqsadlari uchun statistik usullar va dasturlashning rivojlanishi bilan boshlandi. V.Tobler tomonidan esa kartografik proyeksiyalari uchun kompyuter algoritmlarini ishlab chiqdi.

1960-yillarning oxirlari va 1970-yillarning boshlarida turli manfaatlar yuzasidan mashinali kartografiya sohadagi tadqiqotlarning ustuvor yoʻnalishlarini belgilab berdi. Oʻzgarishlarga intilish ikkita hamjamiyatda paydo boʻldi:

1) modellashtirish natijalarini aks ettirish uchun xaritalarni tezlashtirish asosida tuzishga intiladigan yoki keng koʻlamdagi arxivlardan (masalan, aholini roʻyxatga olish jadvallari) raqamlashtirilgan maʼlumotlarni taqdim etishga intiladigan turli xil ilmiy sohalar mutaxassisleri oʻrtasida (unda xaritalarni sifati katta ahamiyatga ega emas edi);

2) xaritalarni yaratish va nashr etish uchun sarflangan xarajatlar va vaqtni kamaytirishga intilgan kartograflar orasida.

Ushbu maqsadlar uchun birinchi muhim dasturiy taʼminot toʻplami 1967-yilda Garvard kompyuter grafikasi va fazoviy tahlil laboratoriyasi tomonidan chiqarilgan *SYMAP* edi. *SYMAP* 1964-yildan boshlab umumgeografik xaritaga olish dasturlari paketi sifatida ishlab chiqilgan. Natijalar faqat chiziqli printerda chiqarilib xaritalarning oʻlchamlari kichik va sifat darajasi oʻsha davrga mos edi.

Toʻplam funksional jihatdan cheklangan edi, lekin foydalanish uchun qulay edi, ayniqsa, kartografik tayyorgarliksiz foydalanuvchilar uchun. Bu avtomatlashtirilgan xaritaga olish imkoniyatining birinchi aniq namoyishi boʻldi va ilgari nomaʼlum boʻlgan texnologiyalarga katta qiziqish uygʻotdi.

1960-yillarning oxirida *GRID* toʻplami paydo boʻldi – bu rastrlı GATdagi birinchi tajriba boʻlib, u rastrlı xaritalarni koʻrsatish uchun *SYMAP*ga oʻxshash usullardan foydalangan, ammo u allaqachon *overley* gʻoyalarni amalga oshirgan.

1970-yilda aholini roʻyxatga olish maʼlumotlari bilan ishlash uchun aholini roʻyxatga olish maʼlumotlarini aniq geografik bogʻlash usullariga ehtiyoj paydo boʻldi va pochta manzillarini geografik koordinatalarga oʻtkazish va ularni aholini roʻyxatga olish zonalari bilan bogʻlash uchun manzilni geokodlash kerak edi. Natijada, birinchi marta raqamli fazoviy axborot fayllari – *DIME* fayllari yaratildi, keyinchalik ular aholini roʻyxatga olish byurosi tomonidan ishlab chiqilgan *TIGER* raqamli chegara fayl formatiga tarjima qilindi. 1970-yildagi aholini roʻyxatga olishdan soʻng, darhol shahar atlaslari yaratila boshlandi, ulardan oddiy kompyuter xaritalari marketing maqsadlarida, chakana savdoni tashkil qilishda foydalanilgan, biroq ayni paytda zamonaviy statistik xaritaga olish dasturlarini ishlab chiqishni ragʻbatlantirgan.

1969-yilda Jek Dangermond tomonidan asos solingan Atrof-muhit tizimlari tadqiqot instituti (*ESRI*) Garvard laboratoriyasi va boshqa muassasalarda ishlab

chiqilgan nazariy g'oyalar va usullarga asoslangan rastr va vektor dasturiy ta'minot tizimlarini bosqichma-bosqich ishlab chiqdi. 1980-yillarning boshlarida Kanadada GATning axborotni ajratish, ma'lumotlarning fazoviy va atributli komponentlari haqidagi g'oyalarini muvaffaqiyatli amalga oshiruvchi *ARC/INFO* tizimi yaratildi va standart relyatsion jadvali ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimini (*INFO*) ixtisoslashtirilgan tizim bilan bog'ladi. Natijada, *ARC* shaklida saqlangan obyektlarni boshqarish imkonini beruvchi *ARC* dasturi ishlab chiqildi.

Uskunalar uchun yuqori narxlar tufayli faqat yirik xaritaga olish xizmatlari yangi texnologiyalarga qiziqish uyg'otdi. 1975-yilga kelib, butun xaritani yaratish jarayonini avtomatlashtirish mumkinligiga dastlabki ishonch umumlashtirish va xaritani loyihalash bilan bog'liq qiyinchiliklar tufayli biroz kamaydi. Umidlarning tiklanishiga kompyuterga ma'lumotlarning o'ziga xos xususiyatlariga, xaritaning ko'lami va maqsadiga muvofiq metodologiyani tanlashga imkon beradigan ekspert tizimlari, shuningdek kartografning kompyuter bilan interaktiv o'zaro ta'sirini ta'minlash uchun periferik grafik qurilmalar va tegishli dasturiy texnologiyalarni takomillashtirish yordam berdi. Birinchi avtomatlashtirilgan kartografik tizimlarning (AKT) rivojlanishi aynan shu davr bilan bog'liq. Oddiy kartografik tasvirlardan, asosan, kartogrammalardan boshlab, mashinali kartografiya o'z imkoniyatlarini an'anaviy xaritaga olish bilan bir-birga yaqinlashtirdi. Shunga ko'ra, Rossiyada kartografik avtomatlashtirish sohasidagi yutuqlar tarixi shu davr bilan bog'liq.

Rossiyaning avtomatlashtirilgan («raqamli») kartografiyasi raqamli relyef modellari (TIN) asosida qanotli raketalar parvozlarini ta'minlash zarurati bilan bog'liq holda paydo bo'ldi. Ushbu muammoni hal qilishda nafaqat harbiy xizmatchilar, balki 1977-1978-yillarda sobiq ittifoq Qurolli Kuchlari safiga chaqirilgan fuqarolik mutaxassislari ham qatnashdilar. Natijada, raqamli kartografiya bo'yicha birinchi kitoblardan biri 1992-yilda nashr etildi [3]. Raqamli relyef modellarini yaratish bilan bog'liq ishlar Rossiya Fanlar akademiyasining Geografiya institutida A.A.Lyutiy boshchiligida olib borildi. Raqamli mavzuli xaritaga olishning ikkita muhim yo'nalishi – o'rmon va geologiya bo'yicha yutuqlarni ta'kidlash kerak, bunga (o'sha davrdagi) Butunittifoq «O'rmonloyiha» uyushmasi (ish 1973-yilda boshlangan), Butunrossiya ilmiy tadqiqotlari mutaxassislari va A.L.Karpinskiy nomidagi geologiya instituti va Rossiya Tabiiy resurslar vazirligining Bosh ilmiy hisoblash markazi katta hissa qo'shgan.

Taxminan bir vaqtning o'zida fuqarolik sektorida raqamli kartografiya rivojlana boshladi, ammo kartografiyaning ushbu bo'limi hali ham «parallel tekislik» Mudofaa vazirligi va Roskartografiyada mavjud edi. Rossiyada raqamli kartografiya rivojlanishining turli jihatlari ixtisoslashtirilgan nashrlar sahifalarida ko'pincha rasmiylar, kartografiya va geoinformatika sohasida bozor munosabatlarini joriy etish tarafdorlari o'rtasidagi qarama-qarshilikni aks ettiruvchi qizg'in munozaralar shaklida yoritilgan. Undan so'ng, ilmiy va ta'lim tashkilotlarida kartografiyani avtomatlashtirish yo'nalishidagi qizg'in ishlar boshlandi.

Ushbu ishlarning tashabbuskori M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti geografiya fakulteti Geodeziya va kartografiya kafedrasida edi (hozirgi kartografiya va geoinformatika kafedrasida). 1976-yilda professor K.A.Salishev tashabbusi bilan (o'sha paytda kartografiyada avtomatlashtirishga dastlab qarshilik

ko'rsatganiga qaramay) kafedrada avtomatlashtirish laboratoriyalari tashkil etildi. Laboratoriya mudiri S.N.Serbenyuk, kafedra dotsenti lavozimiga taklif qilindi. O'sha paytda Germaniyada stajirovkani endigina tamomlagan S.N.Serbenyuk allaqachon mavzuli usullar va ularni kartografiyada qo'llash sohasidagi mutaxassis sifatida o'zini namoyon qilgan edi [5, 6]. Shu bilan birga, ma'lumoti bo'yicha kartograf-geograf bo'lgan, geografik hodisalarning mohiyatini chuqur anglab yetgan holda, u kafedraning avtomatlashtirish yo'nalishi bo'limi mudirligiga munosib nomzod edi. Asosiy tadqiqot kursi mavzuli kartografik modellashtirish – yangi xaritalarni yaratish va tadqiqot maqsadlarida qo'llash ko'lamini kengaytirish uchun mavzuli va kartografik modellarning tizimli kombinatsiyasi bo'yicha olib borildi [4]. Bunga parallel ravishda avtomatlashtirilgan xaritaga olish yo'nalishi ishlab chiqilgan bo'lib, uning doirasida avtomatlashtirilgan usullarni texnik tadbiq etish, xaritalarni yaratishni axborot bilan ta'minlash, mantiqiy va mavzuli ma'lumotlarni qayta ishlash va kartografik tasvirlarni avtomatlashtirilgan holda qurish masalalari ishlab chiqilgan [7]. Xususan, ikkita tizim o'zlashtirildi – tasvirlar bilan ishlash uchun «Perikolor» va avtomatlashtirilgan kartografik tizim «Grafiksi». Shunga ko'ra, MDUdagi kartograflar ilmiy jamoasi o'z dasturiy ta'minotini ishlab chiqdilar. Laboratoriya xodimlarining sa'y-harakatlari bilan original avtomatlashtirilgan xaritaga olish tizimi – AKS MDU yaratildi. 1985-yilda S.N.Serbenyuk tashabbusi bilan bo'lib o'tgan mavzuli xaritaga olish bo'yicha VIII Butunittifoq konferensiyasining asosiy mavzusi avtomatlashtirilgan texnologiyalar deb nomlandi [1]. Ushbu konferensiyada avtomatlashtirish laboratoriyasi Sobiq ittifoqda birinchilardan bo'lib kompyuterda yaratilgan mavzuli xaritalar namunalarni namoyish etdilar.

Xulosa. O'tgan davr ichida kartografik ta'lim tizimini yo'lga qo'yishda sezilarli yutuqlarga erishildi. Ushbu yutuqlarning asosini avtomatlashtirilgan kartografik tizimlar tashkil qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Umuman olganda, hozirda fanda yangi rivojlanish boshqichlari amalga oshirilmoqda. O'ylamizki, bu o'zgarishlar fanda yanada yangi qulaylik va imkoniyatlarni yaratish uchun asos bo'lib hizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Автоматизированная картография и геоинформатика. Материалы к науч. конф., посвященной 50-летию профессора С.Н.Сербенюка. М.: 1990. 134 с.
2. Берлянт А.М. Геоинформационное картографирование. М.: 1997. 64 с.
3. Жалковский Е.А., Жданов Н.Д., Халугин Е.И. Цифровые карты / Под ред. Е.И. Халугина. М.: Недра, 1992. 419 с.
4. Жуков В.Т., Сербенюк С.Н., Тикун В.С. Математико-картографическое моделирование в географии. М.: «Мысль», 1980. 224 с.
5. Сербенюк С.Н. Применение моделей факторного и компонентного анализа для картографирования географических комплексов. Калинин: Изд-во КПИ, 1972. 92 с.
6. Сербенюк С.Н., Жуков В.Т. Применение математико-статистических моделей для картографирования географических комплексов. Калинин: Изд-во КПИ, 1973. 144 с.
7. Сербенюк С.Н., Тикун В.С. Автоматизация в тематической картографии. М.: Изд-во МГУ, 1984. 112 с.

Кувондиқов Рустам Абдурашул ўғли

Ўзбекистон Миллий университети,

Геодезия, картография ва кадастр кафедраси ўқитувчиси,

Тошкент, Ўзбекистон, e-mail: kuvondikovrustam764@gmail.com

Эгамбердиев Асомберди

Ўзбекистон Миллий университети,

Геодезия, картография ва кадастр кафедраси профессори

Тошкент, Ўзбекистон, г.ф.н.е-mail: asomberdi@gmail.com

Йўлдошев Жаҳонгир Одилбек ўғли

Алфраганус Университет Умумкасбий фанлар кафедраси ўқитувчиси

Тошкент, Ўзбекистон. e-mail: yuldoshevjahongir7777777@gmail.com

Чориев Жамшид Акбар ўғли

Ўзбекистон Миллий университети,

Геодезия, картография ва кадастр кафедраси 2-босқич магистранти

e-mail: jamshidchoriyev@gmail.com

**ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ХАРИТАЛАРИДА МАХСУС
МАЗМУНИ ГЕНЕРАЛИЗАЦИЯ ҚИЛИШ**

Аннотация: мақолада қишлоқ хўжалиги хариталарида харита махсус мазмунини генерализация қилиш йўллари кўриб чиқилган. Генерализация омиллари ва ҳар хил картографик тасвирлаш усулларида генерализацияни намоён бўлиши баён қилинган.

Калит сўзлар: Қишлоқ хўжалиги хариталари, генерализация, генерализация омиллари, картографик тасвирлаш усулларида генерализацияни намоён бўлиши.

**ГЕНЕРАЛИЗАЦИЯ СПЕЦИАЛЬНОГО СОДЕРЖАНИЯ НА
СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ КАРТАХ**

Аннотация: в статье рассматриваются пути генерализация специального содержания на сельскохозяйственных картах. Освеинны. факторы генерализации и проявление генерализации на разных способах картографического изображения.

Ключевые слова: сельскохозяйственные карты, генерализация, факторы генерализации, проявление генерализации на разных способах картографического изображения.

**GENERALIZATION OF MAP SPECIFIC CONTENT IN
AGRICULTURAL MAPS**

Abstract: The article examines the ways of generalization of special map content in agricultural maps. Factors of generalization and manifestation of generalization in various cartographic representation methods are described.

Key words: Agricultural maps, generalization, generalization factors, manifestation of generalization in cartographic representation methods.

Қириш. Махсус мазмун элементларини генерализация қилиш-қишлоқ хўжалиги хариталарини тузишни энг муҳим бўлимларидан биридир. Генерализация хариталарда қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг муҳим жиҳатларини ажратишга ва уларни умумлаштиришга, етакчи экинлар ва тармоқларни анча йирик планда кўрсатишга ва қишлоқ

хўжалиги ишлаб чиқаришини жойлаштириш қонуниятларини яхшироқ тушунишга ёрдам беради.

Қишлоқ хўжалик хариталаридаги генерализация умумгеографик хариталардаги генерализациядан фарқ қилади, унда генерализация махсус мазмунни йирик масштаби хариталардан ўрта ва майда масштаби хариталарга ўтказишдан иборат. Ҳозиргача йирик масштаби қишлоқ хўжалик хариталари унчалик кўп эмас. Майда ва ўрта масштаби қишлоқ хўжалик хариталарини аксарият қисми статистик материаллар бўйича тузилади, сўнгра улар асосида анча йирик масштабдаги қишлоқ хўжалик хариталари яратилади, сўнгра ушбу хариталардан анча майда масштаби хариталарга ўтишда махсус мазмун генерализация қилинади.

Қишлоқ хўжалик хариталарининг асосий мазмуни бўлган қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши кенг ҳудудларда тарқалган. Шунга кўра, генерализацияда қишлоқ хўжалиги хариталари учун майдонларни, контурларни, миқдор ва сифат кўрсаткичларни танлаш ва умумлаштириш энг муҳим аҳамият касб этади [1].

Маълумки, генерализациянинг умумий омиллари бу хариталарни масштаби, мақсади ва мазмуни ҳисобланади. Ушбу омиллар қишлоқ хўжалиги хариталарида махсус мазмунни умумлаштиришда ҳам сақланиб қолади.

Қишлоқ хўжалиги хариталарида махсус мазмунни генерализация қилишнинг энг муҳим ва ўзига хос омилларидан бири бу қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини жойлашишини мамлакатни турли районларида ва ҳудуд бўйича тармоқлар ва экинларни жойлаштиришнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олишдир.

Қишлоқ хўжалиги хариталарида махсус мазмунни генерализация қилиш қуйидаги йўналишлар бўйича амалга оширилади:

1) қишлоқ хўжалиги хариталарида кўрсатиладиган қишлоқ хўжалиги тармоқлари ва экинларининг контурларини (ареалларини) умумлаштириш (контурларини қиёфаларини соддалаштириш майдаларини йирикларига қўшиб юбориш, майда контурларни ўлчашларини катталаштириш ва ҳ.з.);

2) миқдорий тавсифларни умумлаштириш, масалан йирик масштаблардан майда масштабларга ўтишда картограммаларда шкала поғоналарни қисқартириш, нукталар усули билан тузилган хариталарда нукталарни оғирлигини йириклаштириш ёки кичрайтириш ва ш.к.;

3) сифат тавсифларини умумлаштириш (майда аниқ таснифлашларни анча йириклари билан алмаштириш, якка белгиларни умумий белгилар билан, масалан, қишлоқ хўжалик хомашёларини дастлабки қайта ишлаш бўйича алоҳида корхоналардан саноат марказларига ўтиш ва ҳ.к.);

4) цензларни белгилаш йўли билан объектларни, корхоналарни ва ҳ.к. танлаш (тармоқлар ва экинлар контурларини);

5) алоҳида (индивидуал) тушунчаларни анча умумий жамловчи тушунчалар билан алмаштириш алоҳида кўрсаткичларни кўрсатилган

турдан гуруҳларга ўтиш масалан, алоҳида экинларни (буғдой, жавдар, маккажўхори, арпа ва ш.к.) жойлашишини кўрсатиш ўрнига дон экинларининг жамловчи кўрсаткичлари берилади ва ҳ.к; алоҳида корхоналарни кўрсатишдан ареалларга ёки саноат марказларига ўтиш ва ҳ.к.

Қишлоқ хўжалиги хариталарида махсус мазмунни генерализациясини саводли (тўғри) амалга ошириш учун қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини ўзига хос хусусиятини ва жойлашиш характерини, қишлоқ хўжалиги экинлари ва тармоқларининг таснифини ва энг муҳим гуруҳларини улар орасидаги алоқалар ва уйғунликларни яхши билиш керак. Бусиз ҳар хил районлар бўйича тармоқлар ва экинларни танлаш цензларини ҳар хил масштаблардаги қишлоқ хўжалик хариталари учун ареалларни майдонини ўлчамларини тўғри белгилаш мумкин эмас. [1]

Қишлоқ хўжалиги хариталарида генерализацияни энг муҳим омили (фактори) бу-контурларни саралаш ва умумлаштиришдир. Қишлоқ хўжалиги хариталарида контурларни танлаш ва умумлаштиришда, шунингдек бошқа махсус хариталарда ҳам-тупроқ, ўсимлик, иқлим ва ҳ.к. қуйдагиларга эришиш керак:

а) ҳар хил районларда маълум бир у ёки бу экин ёки тармоқ эгаллаган майдонларнинг тўғри нисбатига;

б) ҳудуднинг қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши хусусиятларига ва экинлар ва тармоқлар жойланиши характерига мос келадиган нисбий парчаланишини ва контурларни аниқлигини сақлаш;

в) харитага олинаётган ҳудуднинг қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқадиган ҳудудларнинг шакллари ва ареалларнинг характерли хусусиятларини сақлаш;

г) алоҳида контурларнинг (ареалларнинг) бир-бири билан ва географик муҳит билан алоқаларини аниқлаш ва уларни қайд этиш;

Контурларни танлашда энг аввало, харитада қайси контурлар қолади, қайсилари бирлаштирилади (қўшиб) юборилади ва қайсилари туширилиб қолдирилади, шуни ҳал этиш керак. Бунинг учун барча қишлоқ хўжалик экинлари ва чорва моллари турлари учун танлаш цензларини белгилаш зарур. Цензларни белгилашда алоҳида тармоқларни ҳудуд бўйича жойлашиш хусусиятларини ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олиш керак. Ушбу нуқтаи назардан мамлакатнинг барча экинлари ва тармоқлари 3 та гуруҳга бўлиниши мумкин:

1) бутун мамлакат ҳудуди бўйича оммавий ва озми-кўпми тенг тақсимланадиган экинлар ва тармоқлар (буғдой, маккажўхори ва ҳ.к.);

2) қатъий локализациялашган жойлашувга эга тармоқлар ва экинлар (эфир мойли, тамаки ва ҳ.к.);

3) оралик ҳолатни эгаллаган экинлар ва тармоқлар.

Гуруҳларнинг ҳар бири учун турли хил цензлар белгиланиши керак, қатъий локализациялашган тарқалишга эга экинлар учун анча паст, оммавий тарқалган экинлар учун анча баланд.

Шунингдек, алоҳида районларни қишлоқ хўжалик ишлаб чиқаришини ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олиш керак. Масалан, Ўрта Осиёнинг тоғли ҳудудларида тоғлик ва текислик дарёларининг водийларида жойлашган қишлоқ хўжалиги экинларининг ареаллари, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг катта хилма-хиллигини кўрсатади, муҳим техника экинларининг аксарият қисми кичик майдонларни эгаллайди. Текислик районларда қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши юзлаб километрга чўзилган катта массивларда жойлашган қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши ушбу хусусиятлари минимал (кичик) контурларнинг рақамли ифодаларини белгилашда ҳисобга олиниши керак.

Цензларни белгилашда контурларнинг таъминлаш, шунингдек, шартли белгиларни характери ва шаклини яхши ўқилишини зарурлигини ёдда тутиш керак. Келинг, умумгеографик хариталарда тупроқ ва ўсимлик қопламани тасвирлаш тажрибасига мурожаат этайлик. Майда ва ўрта масштабни умумгеографик хариталарни тузиш бўйича йўриқномаларда у ёки бу қишлоқ хўжалик ер турларининг куйидаги минимал майдонлари кўрсатилган: ўрмон 1-10 мм², ботқоқлик ва шўрхоқлар 25 мм², тақирлар 25 мм², қўмлар 1-2 см², бутазорлар 1 см², қамишзорлар 1 см², сийрак ўрмонзорлар 3-4 см², саксовул ўрмонлари 3-4 см², тошлоқлар 3-4 см². Шу билан бирга умумгеографик хариталар учун қабул қилинган шартли белгилар билан тасвирланиши мумкин бўлган, инсон кўзи билан яхши ажралиб турадиган минимал контурларни билиш жуда муҳимдир. Картография бўйича асарларда куйидаги минимал ўлчамлар келтирилади: ўрмонлар учун 0.8-1.0 мм², ботқоқ ва шўрхоқлар учун 3 мм², тақирлар учун 5 мм², қумликлар учун 5 мм², бутазорлар учун 15 мм², қамишзорлар, сийрак ўрмонзорлар ва саксовуллар учун 2 мм², тошлоқлар учун 3 мм². [2]

Бироқ, ушбу цензларни қишлоқ хўжалик хариталарига механик равишда ўтказиш мумкин эмас. Табиатда алоҳида қишлоқ хўжалиги ареаллари ўртасида кескин чегаралар йўқ: қишлоқ хўжалиги тармоқлари ва экинлари аста-секин бир бирига ўтади. Буларнинг барчаси умумгеографик хариталар билан таққослаганда қишлоқ хўжалиги хариталарида ареалларни минимал майдонларини сезиларли даражада оширишни талаб этади.

Масштаблари 1:500 000 дан 1:20 000 000 гача бўлган қишлоқ хўжалиги хариталари учун қишлоқ хўжалиги экинлари ва тармоқлари ареалларининг минимал майдонларини 0.2 мм² дан то 1 см² гача тавсия этиш мумкин. Майдонлари белгиланган цензлардан паст (кичик) бўлган барча контурлар харитага тушурилмайди. Ушбу майдонлар ҳар доим ҳам чиқариб ташланмайди, лекин агар улар алоҳида жойлашган бўлса ва харитада кўрсатилиши керак бўлса бирлаштирилади ёки катталаштирилади.

Майда ареалларни йирикларига қўшиш (бирлаштириш) шундай бўлиши керакки, қўшилган ареалнинг умумий майдони барча кичик контурларнинг жамланган майдонидан катта бўлмаслиги керак. Шунингдек, майда контурларни жуда бўрттириб кўрсатиш ҳам мумкин

эмас; ушбу контурлар генерализация қилинмаган контурлардан катта бўлмаслиги керак. Бирлаштирилган кичик контурлар у ёки бу қишлоқ хўжалик хариталарининг контурларини генерализация қилиш учун қабул қилинган минимал ўлчамларидан ошмаслиги керак.

Контурларни саралашда уларни аҳамиятини ҳисобга олиш керак. Анча муҳимлари учун иккинчи даражалиларига қараганда кичикроқ ўлчамларни белгилаш керак. Майдонларни анча йирик ўлчамлари жойда кучсиз аниқланган ва аниқ чегараларга эга бўлмаган контурлар учун қабул қилиниши керак. Масштабда ифодаланмаган майда ва ҳарактерли контурлар катталаштирилиши ёки масштабсиз_штрихли белгилар билан тасвирланиши мумкин.

Йирик масштаби хариталардан анча майда масштабларга ўтишда анча муҳимроқ контурларни саралаш билан бир қаторда контурларни соддалаштиришга тўғри келади. Шу билан ареалларнинг генерализация қилинган шакллари жойни хусусиятлари ва тармоқлар ҳамда экинларни жойлашиши ҳарактери туфайли табиатдаги ареаллар шаклларига ўхшашлигини таъминлашга ҳаракат қилиш керак.[2] Контурларни соддалаштиришда, шунингдек, умумлаштиришда майдонлар ўлчамларининг тўғри нисбатини сақлашга эришиш керак.

Қишлоқ хўжалик экинлари ва тармоқларининг тарқалиш ареаллари пунктир чизиқ билан белгиланади, сўнгра белгилар ёки штриховкалар билан тенг равишда тўлдирилади ёки турли хил рангларга бўялади. Табиатда контурлар ўртасида кескин чегаралар бўлмаган ҳолларда нуқтали контур берилмайди, балки бир худуддан иккинчисига босқичма-босқич ўтиш ва уларни интерпретацияси кўрсатилади.

Кўриб чиқилган генерализацияни принциплари барча усулларда тузилган қишлоқ хўжалик хариталарини ишлаб чиқишда намоён бўлади. Бироқ, ҳар бир усул фақат унга хос бўлган ўзига хос генерализация хусусиятларига эга.

Белгилар усулида генерализация намоён бўлади (кўринади):

а) цензни ошириш йўли билан унчалик муҳим бўлмаган объектларни тушириб қолдиришда;

б) индивидуал бирликлардан жамловчи бирликларга ўтишда (алоҳида корхоналардан саноат пунктларига, саноат пунктларидан ареалларга ўтишда);

в) ҳар хил рангли ва шаклли белгиларни қисқартиришда, иккита тоифани биттага киритиш, битта экинлардан гуруҳга ўтиш ва ҳ.з.

Картограмма усулида генерализация, аввало шкала поғоналарини камайтириш ва майда маъмурий бирликлардан анча йирикларига ўтиш-қишлоқ кенгашидан маъмурий туманларга, маъмурий туманлардан вилоятларга ўтишдан иборат. Масштаб қанчалик кичик бўлса шкала поғоналари ҳам шунча кам бўлиши керак ва маъмурий бирлик анча йирик бўлиши керак. Шу билан бирга картограммаларни жиҳозлаш усулини ҳам

ҳисобга олиш керак. Ранглар қанчалик ёрқинроқ бўлса ёки штриховка кучлироқ бўлса поғоналар шкаласи шунчалик аниқ (батафсил) бўлиши ва аксинча. Ниҳоят, майдонларни ихчамлиги ифодалилиги ва ўлчамларини ҳисобга олиш керак. Алоҳида гуруҳларнинг майдонлари қанчалик катта бўлса ва бу гуруҳлар қанчалик ихчам ва ифодали бўлса шкала поғоналарини сони шунчалик кўп бўлиши мумкин.

Масштаблари: 1:1 000 000 дан 1:20 000 000 гача бўлган картограмма учун поғоналар шкаласи 3 дан 10 тагача тавсия этилиши мумкин.

Нуқталар усулида тузилган хариталарда, генерализация қуйдагича намоён бўлади:

- а) нуқталарнинг оғирлигини оширишда;
- б) нуқталарнинг ранглари сонини биттагача қисқартириш;
- в) нуқталардан ареалларга ёки изолинияларга ўтишда.

Харитани масштаби қанчалик майда бўлса, нуқталарнинг оғирлиги шунча йирик бўлиши керак. Шунингдек, нуқталарнинг ранги ҳам катта аҳамиятга эга. Қора рангдаги нуқталар яхшироқ ўқилади ва улар анча майда бўлиши мумкин. Рангли нуқталар ёмонроқ ўқилади ва қора рангдаги нуқталарга қараганда улар анча йирик бўлиши керак. Нуқта қанча йирик бўлса, битта ва ўша масштабда, уларни оғирлиги ҳам шунча катта бўлиши керак.[3]

Масштаби 1:100 000 дан 1:20 000 000 гача бўлган хариталарда нуқталарни оғирлиги 50 дан 200 000 гектаргача ўзгариб туради.

Ареаллар усулида генерализация қуйдагиларда намоён бўлади:

- а) майдони бўйича ёки аҳамияти бўйича цензларни белгилаш йўли билан ареалларни саралашда;
- б) бир қатор зич жойлашган ареалларни биттага бирлаштиришда;
- в) ареалларнинг қиёфасини тўғрилашда;
- г) легендада иккита-учта ареаллар типини (миқдорий тавсиф билан) биттага келтиришда.

Изолиниялар усулида генерализация қуйдагича амалга оширилади:

- а) шартли интервални ошириш, интерваллар ва изолиниялар сонини қисқартириш;
- б) изолинияларни конфигурацияларини соддалаштириш;
- в) иккинчи даражали деталларни чиқариб ташлаш.

Харакатдаги чизиқлар усулини генерализациясини сифат фарқлари сонини қисқартириш йўли билан ўтказиш тўлиқ рад этишга (масалан, юклар таркибини кўрсатиш ўрнига умуман юкларни ташиш кўрсатилади ва анча муҳим йук оқимларини саралаш йўли билан, юк оқими линиясини янада каттароқ схематизациялаш ва ҳ.к. Барча усуллардан генерализация сифатли фон усулида анча тўлиқ намоён бўлади. Бу шундай тушунтирилади, барча усуллардан сифатли фонга ўтиш мумкин, фондан эса бошқа усулларга ўтиш мумкин эмас. Агар бошқа барча усулларда генерализация миқдорий тавсифларни умумлаштиришдан иборат бўлса, сифатли фон усулида

генерализация асосан сифат кўрсаткичларини умумлаштиришда намоён бўлади.

Ушбу усулда генерализация қуйидагича намоён бўлади:

- а) типлар ва фонлар сонини қисқартириш;
- б) анча қўполроқ бўлинишга (таснифлашга) ўтиш ва иккита учта типларни бирлаштиришга ёки қишлоқ хўжалик районларини биттага бирлаштириш, ўтиш формаларини (шаклларини) бартараф этиш;
- в) типлар ва қишлоқ хўжалиги районлари ўртасидаги чегараларни тўғрилаш;
- г) майда ареалларни йўқ қилиш йўли билан уларни биттага қамраб олувчи ареалга келтириш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Левицкий И.Ю. Научные основы комплексного сельскохозяйственного картографирования. М., Недра, 1975, 204 с.
2. Никишов М.И. Составление и редактирование сельских хозяйственных карт и атласов – “Тр.ЦНИИАК”. М., геодезиздат, 1959, вып.130.272 с.
3. Эгамбердиев А., Мўминов А.А., Уврайимов С.Т., Ижтимоий-иқтисодий картография-Тошкент. “UnfoCapital Group”, 2021.-199 б.

Kuvondikov Rustam Abdurasul o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy universiteti,

Geodeziya, kartografiya va kadastr kafedrasini o‘qituvchisi,

Toshkent, O‘zbekiston, e-mail: kuvondikovrustam764@gmail.com

Choriyev Jamshid Akbar o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy universiteti,

Geodeziya, kartografiya va kadastr kafedrasini 2-bosqich magistranti

e-mail: jamshidchoriyev@gmail.com

CHORVACHILIK XARITALARINI TUZISH METODLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining ikkinchi asosiy tarmog‘i hisoblangan chorvachilik xaritalarini tuzish metodlari bayon etilgan. Shuningdek, chorvachilikni barqaror rivojlantirishda kartografik tadqiqot usulini roli ko‘tarilgan.

Kalit so‘zlar: chorvachilik, chorvachilikni xaritaga olish, kartografik tadqiqot usuli

МЕТОДЫ СОСТАВЛЕНИЯ КАРТ ЖИВОТНОВОДСТВА

Аннотация: В данной статье описаны методы создания карт животноводства, которое является второй основной отраслью сельского хозяйства Узбекистана. Также поднята роль картографического метода исследования в устойчивом развитии животноводства.

Ключевые слова: животноводство, картографирование скота, картографический метод исследования.

METHODS OF MAPPING LIVESTOCK MAPS

Abstract: This article describes methods for creating livestock maps, which is the second main branch of agriculture in Uzbekistan. The role of the cartographic research method

in the sustainable development of livestock is also raised.

Key words: *livestock, livestock mapping, cartographic research method.*

Chorvachilik O'zbekiston qishloq xo'jaligining tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan ikkinchi asosiy tarmog'i hisoblanadi. Uning hissasiga respublikamiz qishloq xo'jalik mahsulotining 48,4 foizi to'g'ri keladi (2022). Bu eng avvalo, ob-havo, iqlim sharoitlariga bog'liq holda o'zgarib turadi. Mamlakat iqtisodiyotiga band bo'lgan aholining 25,0 foizi yoki 3 429,6 ming kishi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida band (2022).

Agrar sektorni muhim tarkibiy qismi sifatida chorvachilikni barqaror rivojlantirishda tadqiqotni boshqa usullari qatori kartografik tadqiqot usuli ham alohida o'rin tutadi. Kartografik usuldan foydalanish chorvachilik ba u bilan bog'liq iqtisodiyotni boshqa sohalarini to'g'ri joylashtirishda va rivojlantirishda fazoviy omilni ancha to'liq hisobga olishga imkon beradi. Ushbu usul Qoraqalpo'g'iston Respublikasi va barcha viloyatlarning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va resurslaridan samarali foydalanishga hamda ushbu hududiy iqtisodiy tizimni obrazli-belgili modelini yaratishga imkon beradi. Bularni barchasi geografik informatsiyani ancha sezilarli takomillashtirishni xususan xarita va atlaslar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlarni aniqlash va ushbu tarmoqni boshqarish va rejalashtirish amaliyotiga kartografik usulni keng joriy etishni talab etadi.

Chorvachilik xaritalari. Chorvachilikni tizimli xaritaga olish uchun quyidagi mavzularni taklif qilish mumkin:

- qoramollarning alohida turlarini joylashtirish va ularni ishlab chiqarish yo'nalishi;
- qoramollarni zoti bo'yicha rayonlashtirish;
- chorvachilikning mahsuldorligi;
- har 100 ta qishloq xo'jalik yerlariga to'g'ri keladigan chorva mollari;
- chorvachilik mahsulotlarini harid qilish va aholi jon boshiga ishlab chiqarish;
- har 100 ga qishloq xo'jalik yerlariga chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxi;
- bosh qoramolga to'g'ri keladigan tabiiy yem-hashak yerlarining maydoni;
- bir chorva mollarini yaylov yem-hashak zaxiralari bilan taminlanishi;
- bir bosh qoramolga tabiiy pichanzorlardan pichan yig'ib olish, dala ozuqalarining og'ilxona (yemi tarkibidagi) ulishi.

Qoramollarning har bir turiga o'zini ko'rsatkichlari bilan chorvachilikni alohida tarmog'i mos keladi, bu tarmoqni yo'nalishini, hayvonlarning mahsuldorligini, saqlash sharoitlarini boshqlarni tavsiflaydi. Shuning uchun qoramol turlarining joylanishini alohida ko'rsatish tavsiya etiladi, bu chorvachilikni mos tarmog'iga taaluqli (qoramol turiga) tarmoq xaritalarini tavsif elementlarini bitta xaritada uyg'unlashtirgan holda ularni mazmunini imkon qadar

kompleks qilishda yordam beradi. Chorvachilikning umumlashtirilgan tavsiflari keyingi xaritalarga taaluqli.

Mollar sonining joylashuvi nuqtalar usuli bilan ko'rsatiladi. Ayrim turdagi chorva mollari uchun nuqtalarni og'irligini taqqoslanadigan birliklarda tanlash tavsiya etiladi. Shu bilan birga, nuqtalarni og'irligini mollar soni bilan solishtirsa bo'ladigan ishlab chiqarish birliklarida chorva mollari soni (o'tar, suruv qo'y podasi-1000 boshgacha, yirik shoxli mollar-200 boshgacha). Xaritaning foni mazkur mol turini umumiy mollar sonidagi ulushini ko'rsatish uchun kartogramma usulidan foydalaniladi (qiyoslash mumkin bo'lgan birliklarda). Mollarning alohida turlari xaritalari mollarning ishlab chiqarish yo'nalishidagi farqlarni, uning zotlari bo'yicha rayonlantirishni ko'rsatuvchi ma'lumotlar bilan to'ldirilishi kerak.

Chorvachilikning ishlab chiqarish yo'nalishini aniqlash uchun tovar mahsuloti tarkibining eng ifodali ko'rsatkichi bu yirik shoxli qoramollardan olinadigan sut va go'shtni nisbati hisoblanadi.

Ko'p qo'llaniladigan ko'rsatkich-yirik shoxli qoramol podasidagi sigirlarning ulushi chorvachilikning ishlab chiqarish yo'nalishidagi farqlarini ochib beradi. Qishloq xo'jaligi korxonalarini tashkil etish bo'yicha qo'llanmalarda tavsiya etilgan normativ bo'lgan foizlar nisbati ko'pincha qoramolchilikni faktik (haqiqiy) ishlab chiqarish yo'nalishini aks ettirmaydi. Qoramolchilikni tovar mahsulotida sutning ulushi ko'rsatkichi yetarli darajada barqaror bo'lib, u yildan yilga unchalik farq qilmaydi. Shuning uchun yuqoridagi ko'rsatkichni topish uchun so'ngi bir-ikki yillik ma'lumotlardan foydalanish mumkin. Yirik shoxli qoramollarni ishlab chiqarish yo'nalishini areallar bilan ko'rsatilishini "Атлас Селинного края" da (1964) mollarni joylashuvi xaritasida ko'rish mumkin.

Qo'ychilikning ishlab chiqarish yo'nalishini tavsiflash uchun ko'rsatkich sifatida bir tomondan mayin va yarim mayin junli qo'ylarning, ikkinchi tomondan dag'al va yarim dag'al junli qo'ylarning nisbatidan foydalanish tavsiya etiladi.

Aniqlangan farqlarning soddaligi va murakkabligiga qarab, ishlab chiqarish yo'nalishi zonaları "Атлас целинного края" (1969) bajarilganidek, qo'ylarni joylashtirishning asosiy xaritasi bilan birlashtiriladi yoki alohida xaritaga tushiriladi.

Chorvachilik mahsulotlarini (go'sht, sut va boshqalar) ishlab chiqarish mutloq va nisbiy qiymatlarda ko'rsatiladi. Mutloq qiymat vositasida mahsulotni tovar qismi ifodalanadi. Barcha toifadagi xo'jaliklarda ma'muriy tumanlar bo'yicha hisobga olinadigan asosiy chorvachilik mahsulotlarini davlat xaridlari hisobga olinadi. Kartogrammalar uchun qishloq aholisining jon boshiga chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishdan foydalaniladi.

Qishloq aholisining jon boshiga to'g'ri keladigan mahsulotni hisoblashda ma'muriy tumanlar chegaralaridagi barcha toifadagi fermer xo'jaliklari uchun statistika idoralarida hisobga olingan, shaxsiy chorvachilik mahsulotlarininig yalpi mahsuloti hisobga olinadi. Ma'muriy tumanlar uchun ikkala ko'rsatkich—

mahsulotlarni davlat haridlari va ularni qishloq aholisining jon boshiga ishlab chiqarish—yuqorida muhokama qilingan qishloq xo‘jaligi uchun o‘xshash ko‘rsatkichlarga o‘xshash bitta xaritada (kartodiagramma va kartogramma) birlashtirilgan, aholi jon boshiga oziq-ovqat ishlab chiqarish kartogrammasiga shkala tuzishda, tegishli mahsulotlarining tavsiya etilgan iste‘mol miqdorlarini ham hisobga olish kerak.

Har 100 ga qishloq xo‘jalik yerlariga asosiy chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish chorvachilikning umumiy rivojlanish darajasini tavsiflash uchun keng qabul qilingan ko‘rsatkich bo‘lib, u ko‘plab regional Ittifoq atlaslarida foydalanilgan (shuningdek, sobiq Chexoslovakiya atlasida); u tumanlarni bir-birini ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha taqoslashga qulay. Shu bilan birga, har 100 ga qishloq xo‘jalik yerlariga chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish kartogrammalari, alohida qishloq xo‘jalik korxonalarini bo‘yicha tuzilgan, ko‘rib chiqilayotgan hududda chorvachilikni umumiy rivojlanishi darajasidagi ichki farqlarni aniqlashga imkon beradi. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni iqtisodiy baholash uchun asosiy turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxidan foydalanish mumkin. Tannarx haqidagi ma‘lumotlarni o‘rtacha 2-3 yilga o‘rtachasini olish tavsiya etiladi, ular kartogramma ko‘rinishida ko‘rsatiladi, kartogramma shkalasida tegishli mahsulotlarini sotib olish narxlari darajasini hisobga olinishi kerak.

Chorvachilikni ozuqa dozasini tavsiflash uchun kartogrammani tuzish uchun quyidagi ko‘rsatkichlar tavsiya etiladi: bir bosh chorva moliga to‘g‘ri keladigan tabiiy yem-hashak yerlari maydoni (nisbiy birliklarda), chorva mollarini yaylov ozuqa zaxiralari bilan ta‘minlanganligi; bir bosh chorva moliga tabiiy pichanzorlardan pichan tayyorlash, molxona ozuqalari tarkibida dala ozuqasining ulushi (foizda).

Chorva mollarini og‘ilxona sharoitida boqish davrida, ularni tabiiy yem-hashak bilan qay darajada ta‘minlanganlikni ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish uchun, tabiiy pichanzorlarda 1 ta shartli bosh qoramolga tayyorlangan pichan miqdorini ko‘rsatuvchi kartogramma tavsiya etiladi. Qator yillar davomida pichan tayyorlashni o‘zgarib turishi sababli bir necha yillar davomida o‘rtacha qiymatini olish maqsadga muvofiq. Agar ushbu ko‘rsatkichni joylashtirish harakteri (har bir gradatsiyaga kiritilgan, xo‘jaliklar massivlarini ixchamligi), kartogramma mazmunini areallar ko‘rinishida berishga imkon beradi, bu bo‘lmasa ular chorva mollarining tabiiy yem-hashak yerlari bilan ta‘minlanganligini ko‘rsatadigan birinchi kartogramma bilan birlashtirishi mumkin.


Chorvachilikni yem-hashak bazasini tavsiflash uchun muhim ko‘rsatkich bo‘lib og‘ilxona ozuqalarining sarfida dala ozuqalarining ulushi (dehqonchilikdan olingan) hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha kartogramma chorvachilik va dehqonchilik o‘rtasidagi aloqalarni ochiqalaydi, yem-hashak ishlab chiqarish tipini ochib beradi.

Yuqorida ko‘rsatilgan kartogrammalar, har tomonlama yoritilgan yem-

hashak bazasi, ayni paytda chorvachilikni sintetik xaritasini tuzish uchun material bo'lib xizmat qiladi, mazkur xarita xo'jalikni yuritish usullarini ochib beradi.

Og'ilxona va yaylov davrlari nisbatini aniqlash uchun faqat agroiqlimiy spravochniklarda chop etilgan agroiqlimiy ma'lumotlarga tayanish yetarli emas. Yaylov davrining davomiyligi, shuningdek, yaylov yem-hashaklari zaxiralariga, relyef va o'simlik qoplaminig tabiatiga ham bog'liq. Shuning uchun ushbu masala bo'yicha qator boshqa materiallarni ham jalb etish kerak. Qishloq xo'jalik korxonalarini bo'yicha ozuqa sarfi haqidagi ma'lumotlarni qayta ishlash asosida bir qator ishchi kartogrammalar va kartodiagrammalarni tuzish foydalidir. Barcha kartogrammalarni birgalikda tahlil qilish asosida oziqlantirish turlari bo'yicha rayonlashtirish bajariladi. Fermer xo'jaliklarini tanlab o'rganish fermer xo'jaliklarida chorva mollarini saqlashning qo'shimcha xususiyatlarini ham hisobga olish imkonini beradi.

Quyida misol tariqasida mollarni saqlash tiplarini xaritasi keltiriladi (1-rasm).



1-rasm. Mollarni saqlash tiplari xaritasiga legenda

I. Og'ilxona-yaylov:

Yirik shohli qoramollarning og'ilxona muddati yarim yildan ortiq, qo'ylar-taxminan olti oy.

Og'ilxona yemida dalachilik maxsulotlari ustunlik qiladi; yirik shohli qoramol uchun-silos (maydalab maxsus tayyorlangan chorvabop hashak), somon, pichan va don chiqindilari, qo'ylar uchun-pichan, somon, silos, don va don chiqindilari.

Tabiiy yem-hashakli yerlarda va ekin o'rib olingan yerlarda boqish. Sog'in sigirlar uchun shuningdek, ozuqa ekinlari ekilgan maydonda boqish va don hamda silos bilan oziqlantirish qo'llaniladi.

II. Yaylov-og'lxona:

Qo'ylarning yaylov davri yarim yildan ortiq, yirik shoxli qoramol tahminan yarim yilga yaqin.

Tabiiy yem-hashak yerlarida va ekin o'rib olingan yerlarda boqish. Og'lxona yemida yirik shoxli qoramol uchun — silos, somon, don va don chiqindilari ustunlik qiladi, bunda tabiiy pichanzorlardan olingan pichanning ulushi katta; qo'ylar uchun-dalachilik mahsulotlari ulushi ustunligida tabiiy pichanzorlardan olingan pichan (silos, don va don chiqindilari).

Tabiiy yem-hashak yerlarida boqish:

Og'lxona yemida tabiiy pichan ustunlik qiladi, dalachilik mahsulotlarining salmoqli ulushiga ega pichanzorlar — silos, somon, don va don chiqindilari.

Tabiiy yem-hashak yerlarida boqish:

Og'lxona yemida tabiiy pichanzorlardagi pichan ustunlik qiladi. Dalachilik mahsulotlarining ulushi unchalik katta emas.

III. Yaylov boqish:

Qo'ylarni boqish asosan yaylov, yirik shoxli qoramollarni boqish — yaylov og'lxona. Tabiiy yem-hashak yerlarida boqish (o'tlatish).

Og'lxona davrida dala ozuqalari ustunlik qiladi, pichanzorlardan olingan pichanlarning katta qismi ustunlik qiladi.

Og'lxona davrida tabiiy pichanzorlardan olingan pichan ustunlik qiladi, dala yemining salmoqli ulushiga ega pichanzorlar.

Og'lxona davrida tabiiy pichanzorlardan olingan pichan ustunlik qiladi. Dala ozuqalarining ulushi unchalik katta emas.

O'z yerlaridan tashqarida bo'lgan yaylovlardan foydalanayotgan fermer xo'jaliklari.

Davlat o'rmon fondi yerlarida yozgi boqish uchun va otlarni qishda boqish uchun foydalanadigan xo'jaliklar.

Davlat yer fondi yerlarida, mollarni yozgi boqish uchun o'zlarining yaylovlaridan kam (ozgina) foydalanadigan xo'jaliklar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Левицкий И. Ю. Научные основы комплексного сельскохозяйственного картографирования. М., Недра 1975, 204 с,
2. Никишов М. И. Составление и редактирование сельскохозяйственных карт и атласов.—“Тр. ЦНИИГАиК” И. Геодезиздат, 1959.вып 130, 272 с
3. Сухов В. И., Юровекий Я. И., Никишов М. И., и др. сельскохозяйственное картографирование. Изд, 3-е, перерад, М., “Колос”. 1970, 304 с.

Anvarov Shukurulloxon Maxsudxon o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Geodeziya va geoinformatika kafedrasida doktoranti

Toshkent, O'zbekiston, e-mail: anvarov.shm@gmail.com

Raxmonov Dilshod Nurboboyevich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Geodeziya va geoinformatika kafedrasida dotsenti, g.f.f.d. (PhD),

Toshkent, O'zbekiston, e-mail: dilshod27r@mail.ru

Nosirov Baxtiyorjon Ixtiyorjonovich

O'zbekiston Milliy universiteti Geoinformatika kafedrasida tadqiqotchisi

Toshkent, O'zbekiston, e-mail: baxtiyornosirov10leo@gmail.com

Ташбалтаева Шааркан Абдималиковна

Ошский государственный университет, кафедра Агронимия и прикладная

геодезия, института естествознания, физической культуры, туризма и

аграрных технологий. Преподаватель. Shtashbaltaeva@oshsu.kg

**GEOAXBOROT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TOSHKENT
SHAHAR YERLARIDAN FOYDALANISH HOLATINI O'RGANISH
MASALALARI**

Annotatsiya: Maqolada Toshkent shahrining yerdan foydalanish holati, uning qonuniy va huquqiy-me'yoriy asoslari, yerdan foydalanishning bugungi kundagi ahamiyati hamda shaharning dastlabki yaratilgan kartasi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Yerdan foydalanish, karta, Toshkent shahri, yer fondi, 12 darvoza.

**ВОПРОСЫ ИЗУЧЕНИЯ ЗЕМЕЛЬ ГОРОДА ТАШКЕНТА С
ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

Аннотация: В статье представлены сведения о состоянии земель города Ташкента, ее нормативно-правовая база, значение землепользования в городе Ташкенте на сегодняшний день, а также впервые созданная карта города.

Ключевые слова: Землепользование, карта, город Ташкент, земельный фонд, нормативно-правовая база.

**ISSUES OF STUDYING THE UTILIZATION OF TASHKENT CITY
LAND USING GEOINFORMATION TECHNOLOGIES**

Abstract: The article presents information about the state of land use in the city of Tashkent, its legal framework, the importance of land use today, as well as the first map of the city.

Keywords: Land use, map, the city of Tashkent, land fund, 12 gates.

Yerdan foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib bormoqda. Dunyo aholisining oshib borishi yerga bo'lgan ehtiyojni oshishiga eng asosiy sabablardan biri hisoblanadi. Yana bir muhim sabablardan biri iqlim o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, yildan yilga dunyoda havo haroratini ko'tarilib borishi natijasida qurg'oqchilik yuzaga kelib, katta xajmdagi yer resurslarini qishloq xo'jaligi va boshqa maqsadlarda foydalanishga yaroqsiz holatga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa insoniyat oldida turgan katta xavfdir.

Xususan mamlakatimizda ham yerdan foydalanish samarali yo'lga

qo‘yilgan deb aytish mushkul. Shunga qaramasdan xukumat tomonidan yerdan oqilona foydalanish bo‘yicha qator qonun xujjatlari va boshqa me‘yoriy xujjatlar ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining yer kodeksida mamlakatimizda yerdan foydalanish masalalari qonuniy qilib belgilab qo‘yilgan. Yer kodeksining 1-moddasida “Yer umummilliy boylikdir, O‘zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi” deb alohida belgilab qo‘yilgan [1].

Mamlakatimizda yer fondi yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko‘ra quyidagi toifalarga bo‘linadi:

1) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar — qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yoki ana shu maqsadga mo‘ljallangan yerlar. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan (lalmikor) yerlar, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, ko‘p yillik mevali dov-daraxtlar va tokzorlar egallagan yerlarga bo‘linadi;

2) aholi punktlarining (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining) yerlari — shaharlar va posyolkalar, shuningdek qishloq aholi punktlari chegarasi doirasidagi yerlar;

3) sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar — ko‘rsatilgan maqsadlarda foydalanish uchun yuridik shaxslarga berilgan yerlar;

4) tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar — muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, ustuvor ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsiya va sanitariya-sog‘lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar;

5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar — moddiy madaniy meros obyektlari joylashgan yerlar;

6) o‘rmon fondi yerlari — o‘rmon bilan qoplangan, shuningdek o‘rmon bilan qoplanmagan bo‘lsa ham, o‘rmon xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlar;

7) suv fondi yerlari — suv obyektlari, suv xo‘jaligi inshootlari egallagan yerlar va suv obyektlarining qirg‘oqlari bo‘ylab ajratilgan mintaqadagi yerlar;

8) zaxira yerlar [1].


Tadqiqot obyektimiz hisoblangan Toshkent shahri yerlari ikkinchi toifa ya’ni “Aholi punktlarining (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining) yerlari — shaharlar va posyolkalar, shuningdek qishloq aholi punktlari chegarasi doirasidagi yerlar” tarkibiga kiradi.

Toshkent shahri mamlakatimizdagi eng yirik shahar bo‘lib, shu bilan birga eng ko‘p aholi soniga ega bo‘lgan shahar ham hisoblanadi. Shahar hududining asosiy qismini aholi punktlari, bino va inshootlar hamda sanoat zonalari tashkil qiladi.

Aholi punktlarining mavjud yerdan foydalanishi, qator muammolarga ega. Ular asosan quyidagilardan iborat: Aholi punktlari yerdan foydalanishining qonunchilik bazasi O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, Shaharsozlik

kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat yer kadastr to‘g‘risida”gi, “Tabiatni muxofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunlarida namoyon bo‘ladi [2].

Toshkent shahri uzoq tarixga ega bo‘lgan qadimiy shaharlardan biri hisoblanib, shaharning hududiy bo‘linishi, chegarasi va aholisi bo‘yicha dastlabki ma’lumotlar 1865 yilga borib taqaladi. O‘sha davrda shaharning plan ko‘rinishidagi kartasi tuzilgan (1-rasm).




1-rasm. Toshkent shahrining 1865 yilda yaratilgan kartasi (manba.

<https://mytashkent.uz>)

Kartadan ko‘rinib turibdiki, shahar hududini 12 ta darvoza chegaralab turibdi. Bu darvozalar to‘g‘risida qator tarixiy manbalarda ham ma’lumotlar berilgan. Toshkent kartasi plan ko‘rinishida bo‘lib, unda asosan shaharning chegarasi, yo‘llar, binolar, suv obyektlari tasvirlangan va 12 ta darvozasi nomlari yozib qo‘yilgan. Shaharning 12 darvozasi nomlari quyidagilar: Taxtapul, Labzak, Qashqar, Qo‘qon, Qo‘ymas, Beshyog‘och, Kamolon, Samarqand, Ko‘kcha, Chig‘atoy, Sag‘bon, Qorasaroy. Shahar hududi yerlaridan turli maqsadlarda foydalanish natijasida shahar kengayib, darvozalar yo‘qolib ketgan. Ammo darvozalarning nomlari shahardagi mahallalar va ko‘chalarning nomlari sifatida saqlanib qolgan.

Toshkent bugungi kundagi yirik shahar sifatida shakllangunga qadar shahar hududi bir necha bor kengayib chegaralari o'zgarib borgan. Xususan, shahar hududining 1865 yildan keyingi 1913, 1940, 1965, 1981, 2000 va 2009 yillardagi kengayishi kartalarini ArcGIS dasturida tuzib chiqidi (2-rasm).



2-rasm. Toshkent shahri hududining 1913, 1940, 1965, 1981, 2000 va 2009 yillardagi kengayishini ifodalovchi kartalar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Toshkent shahri hududi bugungi ko'rinishiga kelgunga qadar qanchadan qancha jangu-jadallar va mustamlakalarni ko'rdi. O'sha davrlarda kelib qolib ketgan turli millat vakillari va shahar aholisining oshib borishi, sanoat tarmoqlarining rivojlanishi va boshqa omillar ta'siri natijasida Toshkent shahar hududi doimiy kengayishda davom etgan. Shahar aholisi soni oshib borishi va transport vositalarini ko'payishi bilan havo sifati ham salbiy tomonga o'zgarishi sir emas. Bu albatta ekologik muammolarni ham keltirib chiqarishi tabiiy.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining yer kodeksi.
2. Бабажанов А.Р., Абдираманов Р.Д.. Аҳоли пунктлари ердан фойдаланишларнинг ўзига хос хусусиятлари Илмий-амалий агроиқтисодий журнал, Махсус сон-2, 2019.
3. <https://arcgis.com/>

Аблакулов Диёр Аскарлович

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,

Geodeziya va geoinformatika kafedrası loharanti

Toshkent, O'zbekiston. E-mail: diyrablakulov@gmail.com

Boltayev Ortiq Amir o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,

Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti geodeziya, kartografiya va

kadastr yo'nalishi 2- bosqich o'zbek guruhi talabasi,

Toshkent, O'zbekiston. E-mail: ortiqboltayev94@gmail.com

YER KUZATUVI UCHUN MA'LUMOT OLISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Yer kuzatuvi jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish turli sohalarda samaradorlikni oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida yirik ma'lumot to'plamlarini qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyati kengaymoqda. Bu jarayon ekologiyani monitoring qilish, qishloq xo'jaligida yerdan foydalanish samaradorligini oshirish, shahar va qishloq infratuzilmasini tahlil qilish, va tabiiy ofatlarni oldindan bashorat qilish kabi yo'nalishlarda samarali qo'llanilmoqda. Mazkur maqolada sun'iy intellektning yer kuzatuidagi ahamiyati va uning kelajakdagi istiqbollari haqida so'z boradi.

Kalitso'zlar: Sun'iy intellekt, yer kuzatuvi, ma'lumot olish, monitoring, ekologiya, qishloq xo'jaligi, tabiiy ofatlar.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ДЛЯ ПОЛУЧЕНИЯ ДАННЫХ В НАБЛЮДЕНИИ ЗА ЗЕМЛЕЙ

Аннотация: Использование искусственного интеллекта в наблюдении за Землей играет важную роль в повышении эффективности в различных областях. Технологии искусственного интеллекта расширяют возможности обработки и анализа больших объемов данных. Этот процесс эффективно используется в таких направлениях, как мониторинг окружающей среды, повышение эффективности использования земли в сельском хозяйстве, анализ городской и сельской инфраструктуры, а также прогнозирование природных катастроф. В данной статье рассматривается значение искусственного интеллекта в наблюдении за Землей и его перспективы в будущем.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, Наблюдение за Землей, Сбор данных, Мониторинг, Экология, Сельское хозяйство, Природные катастрофы.

UTILIZING ARTIFICIAL INTELLIGENCE FOR DATA ACQUISITION IN EARTH OBSERVATION

Abstract. The use of artificial intelligence in Earth observation plays an important role in increasing efficiency across various fields. AI technologies expand the possibilities for processing and analyzing large datasets. This process is effectively used in areas such as environmental monitoring, improving land use efficiency in agriculture, analyzing urban and rural infrastructure, and predicting natural disasters. This article discusses the significance of artificial intelligence in Earth observation and its future prospects.

Keywords: Artificial intelligence, Earth observation, Data acquisition, Monitoring, Ecology, Agriculture.


Kirish. Yer kuzatuvini insoniyatga tabiiy resurslarni boshqarish, iqlim o'zgarishini kuzatish, qishloq xo'jaligi monitoringi va ekologik muhitni nazorat qilishda yordam beradigan asosiy vositalardan biridir. Bugungi kunda zamonaviy sun'iy yo'ldoshlar va sensorlar yordamida yerning keng hududlarini doimiy ravishda kuzatish va tasvirlarga asoslangan ma'lumotlar olish imkoniyati mavjud. Ammo bu ma'lumotlar miqdori katta bo'lib, ularni qo'lda qayta ishlash va tahlil qilish juda murakkab va vaqt talab qiluvchi jarayondir.

Ana shu o'rinda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari muhim rol o'ynaydi. SI algoritmlari va o'qitish usullari katta hajmdagi tasvirlar va boshqa kuzatuv ma'lumotlaridan samarali ravishda foydalangan holda aniq va tezkor tahlillar olib borish imkonini beradi. Yer kuzatuv uchun SI yordamida axborot olish nafaqat qishloq xo'jaligi va ekologik monitoringni yaxshilashga, balki tabiiy ofatlar (masalan, toshqinlar yoki o'rmon yong'inlari) kabi favqulodda vaziyatlarda ham tezkor qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Sun'iy intellekt yordamida Yer kuzatuvlaridan ma'lumot olish texnologiyasi hali rivojlanish bosqichida bo'lib, bu sohada bir qator muammolar va imkoniyatlar mavjud. Ushbu maqolada SI texnikalarining Yer kuzatuvda qanday qo'llanilishi, duch kelinadigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha zamonaviy yechimlar tahlil qilinadi.

1. Transfer o'qitish,
2. Kuchsiz nazorat qilinadigan o'qitish (Weakly Supervised Learning),
3. Domenni moslashish (Domain Adaptation),
4. Meta-o'qitish (Meta-Learning),
5. O'z-o'zini nazorat qilinadigan o'qitish (Self-Supervised Learning),
6. Nazoratsiz o'qitish (Unsupervised Learning).

Biz quyidagi metodni inson omilini kamaytirish va SI o'z-o'zini boshqarish orqali transfer va boshqa uslubdagi o'qitish nazariyalarni amalda qo'llashni ahamiyatini oshiramiz.



1-rasm. SI yordamida yerni real vaqtda tabiiy ofatlarni kuzatish



2-rasm. Suv havzalari sifatini kuzatish

Yer kuzatuv sohasida SI texnologiyalari yordamida amalga oshirilgan real loyihalar va amaliy tadqiqotlar misollari keltiriladi. Ushbu tadqiqotlar texnikalarning qanday natijalar berganligini ko'rsatib, Yer kuzatuviga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatganini tushuntiradi. Buni quyidagilarda ko'rish mumkin: O'rmonlarni Kuzatish Loyihasi (Global Forest Watch); Crop Yield Prediction (Hosildorlik Bashorati) – IBM PAIRS va CGIAR; Urban Change Detection (Shahar O'zgarishlarini Aniqlash) – Planet AI; Coral Reef Health Monitoring (Marjon Riflarini Kuzatish) – Allen Coral Atlas; Natural Disaster Monitoring (Tabiiy Ofatlar Kuzatuv) – Sentinel-1 va SAR AI Texnologiyalari; Water Quality Monitoring (Suv Sifatini Kuzatish) – NASA MODIS va AI

Suv havzalari sifatini kuzatish. Ushbu loyiha suv sifati bo'yicha o'zgarishlarni aniq va tezkor kuzatish, shu bilan birga, aholiga sog'lom ichimlik suvi yetkazib berishda yordam beradi.


Ushbu loyihalar sun'iy intellekt texnologiyalarining yer kuzatuv ma'lumotlarini qayta ishlash va ulardan foydalanishda qanday natijalar berganini aniq ko'rsatib beradi. Bu tadqiqotlar orqali ekologik muammolar, tabiiy ofatlar va qishloq xo'jaligi kabi sohalarda muhim ijobiy o'zgarishlarga erishish mumkin bo'lmoqda.

Yer kuzatuv va SI sohasida kelajakda kutilayotgan rivojlanish istiqbollari ko'plab imkoniyatlarni va yutuqlarni va'da qiladi. Quyida ushbu sohaning asosiy istiqbollari va kutilayotgan o'zgarishlar haqida batafsil ma'lumot berilgan.

1. Avtomatlashtirilgan va real vaqtda monitoring. SI texnologiyalari rivojlanishi bilan yer kuzatuv ma'lumotlarini real vaqtda qayta ishlash imkoniyatlari kengayib bormoqda. Avvalgi yillarda yer kuzatuv ma'lumotlarini tahlil qilish ancha vaqt talab etgan bo'lsa, SI yordamida bu jarayonlar tezkor, avtomatlashtirilgan va aniq bo'lib bormoqda. Bu kelajakda ekologik monitoring va tabiiy ofatlar xavfini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi, natijada tezkor choralar ko'rish samaradorligi oshadi.

2. Iqlim o'zgarishi tahlili va prognozlash. Yer kuzatuv ma'lumotlari SI yordamida iqlim o'zgarishini chuqurroq tahlil qilish va oldindan prognozlash uchun ishlatilishi mumkin. Iqlim o'zgarishi sababli yuzaga kelayotgan ekstremal ob-havo hodisalari, masalan, to'fonlar, qurg'oqchilik va sel oqimlari, SI yordamida aniqroq kuzatiladi va ular haqida oldindan ogohlantirish tizimlari yanada takomillashadi. Bu esa global miqyosda iqlimga moslashish strategiyalarini shakllantirishda yordam beradi.

3. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash. Kelajakda sun'iy intellekt yordamida qishloq xo'jaligi kuzatuvlari yanada kengayishi kutilmoqda. Yer kuzatuv texnologiyalari orqali hosildorlikni oldindan bashorat qilish, ekinlarning o'sish jarayonini kuzatish va suv resurslarini samarali taqsimlash imkoniyatlari oshadi. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq xo'jaligini optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi.




3-rasm. Iqlim o'zgarishi tahlili qilish

4. Ekologik monitoring va biologik xilma-xillikni saqlash. Ekologik monitoring orqali o'rmonlar, dengiz resurslari, suv havzalari va biologik xilma-xillikni himoya qilishda kelajakda sun'iy intellektning roli yanada kengayadi. Masalan, noyob hayvon turlarining yashash joylarini kuzatish va ularning yo'qolib ketish xavfini baholash uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish kengayadi. Shu bilan birga, marjon riflari, tropik o'rmonlar va boshqa ekologik muhim hududlarni kuzatish jarayonlari SI texnologiyalari yordamida yanada aniqlashadi.

5. Shaharlar va infratuzilma monitoringini optimallashtirish. Shahar infratuzilmasi va aholining o'sishi tufayli kelajakda SI yordamida aholi punktlari o'zgarishlarini aniq kuzatish va rejalashtirish jarayonlari yaxshilanadi. Bu esa shahar rejalashtirishda, yangi infratuzilma loyihalarini ishlab chiqishda va tabiiy ofatlarga tayyorgarlik ko'rishda katta imkoniyat yaratadi.

6. Geospatial data integratsiyasi va Sun'iy intellekt platformalari. Kelajakda ko'p turdagi geospatial (fazoviy) ma'lumotlar va yer kuzatuv axborotlarini bitta SI platformada birlashtirish imkoniyatlari kengayadi. Bu nafaqat yer kuzatuv ma'lumotlarini samarali qayta ishlash, balki ular asosida kompleks bashoratlar, tahlillar va qarorlar qabul qilishni osonlashtiradi. SI texnologiyalari ma'lumotlarni birlashtirish va qayta ishlashda inson aralashuvini kamaytiradi, natijada tezroq va ishonchli natijalarga erishiladi.



4-rasm. Shahar infratuzilmasi va aholining o'sishi kuzatish

Xulosa. Yer kuzatuv sohasida sun'iy intellekt texnologiyalari jadal rivojlanib, global muammolarga qarshi samarali yechimlarni taklif qilmoqda. Hozirda ekologik monitoring, tabiiy ofatlar xavfini aniqlash, qishloq xo'jaligi va shahar infratuzilmasini kuzatish kabi yo'nalishlarda erishilgan yutuqlar, bu sohaning istiqbollari haqida optimistik tasavvur beradi. SI texnologiyalari yordamida yer kuzatuvining yangi imkoniyatlari ochilib, dunyodagi tabiiy resurslarni samarali boshqarish va himoya qilish imkoniyatlari oshadi.

Sun'iy intellekt va yer kuzatuv texnologiyalari birlashib, kelajakda yanada murakkab va global muammolarni hal qilish, jumladan iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va biologik xilma-xillikni saqlashda muhim vositaga aylanadi.

Shu bilan birga, rivojlanayotgan texnologiyalar insoniyatga ekologik barqarorlik va tabiiy resurslardan foydalanishda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish imkonini beradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Беляков, А.В., и др. (2021). Применение искусственного интеллекта для анализа данных дистанционного зондирования Земли. Москва: Научный Мир.
2. Иванов, П.П., Смирнов, О.В. (2019). Алгоритмы машинного обучения для обработки спутниковых изображений. Журнал "Космическая информатика", 3(2), 34-45.
3. Громов, А.Н. (2022). Интеллектуальный анализ больших данных дистанционного зондирования. Журнал "ГеоИнформатика", 5(1), 75-89.
4. Петров, С.И., и др. (2020). Разработка методов анализа изображений для задач мониторинга природных ресурсов. Сборник "Дистанционные исследования", том 4, 120-136.
5. Schmidt, H., & Braun, T. (2020). Machine Learning Approaches for Earth Observation Data Analysis. Journal of Environmental Data Science, 15(3), 213-227.
6. Dupont, L., et al. (2018). Deep Learning for Satellite Image Classification in Environmental Monitoring. Remote Sensing of Environment, 217, 56-69.
7. Meijer, R., & van Dijk, J. (2021). Artificial Intelligence for Earth Observation: Methods and Applications. Springer Verlag, Berlin.
8. Martinez, A., & Torres, F. (2019). Satellite Image Processing Using AI Techniques. European Journal of Remote Sensing, 52(1), 99-113.

III SEKSIYA

GAT VA YERNI MASOFADAN ZONDLASH TEKNOLOGIYALARINING IMKONIYATLARI

ВОЗМОЖНОСТИ ТЕХНОЛОГИЙ ДИСТАНЦИОННОГО ЗОНДИРОВАНИЯ ЗЕМЛИ И ГИС

POSSIBILITIES OF GIS AND EARTH REMOTE SENSING TECHNOLOGIES

Шукина Ольга Георгиевна

Доцент кафедры Геодезии и геоинформатики, Национального
университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Ташкент, Узбекистан, e-mail: Olga.Shuka_53@bk.ru

Умирбаева Алия Батухановна

PhD, ассоциированный профессор
Международной образовательной корпорации
Qozog'iston

Рахимов Шерзод Шавкатович

Доцент кафедры Техники и технологии геологических изыскательских
работ, университета Геологических наук.

СРАВНИТЕЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА РАДАРНОЙ И ЛАЗЕРНОЙ СЪЕМОК, КАК ОСНОВНЫХ МЕТОДОВ ДИСТАНЦИОННОГО ЗОНДИРОВАНИЯ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ

Аннотация: В данной статье рассматривается сравнительная характеристика двух методов дистанционного зондирования, широко используемых в настоящее время во всем мире, а именно радарной и лазерной съемок, имеющие активные сенсоры, их особенности, преимущества и области применения в современных условиях; дается описание приборам, с помощью которых эти съемки выполняются - это радар и лидар.

Ключевые слова: дистанционное зондирование, радарная съемка, лазерная съемка, активные сенсоры, радар, лидар.

MASOFADAN ZONDLASHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI ЁРДАМИДА РАДАР ВА ЛАЗЕР СЪЁМКАСИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТАЛҚИНДА ҚИЁСЛАШ ХУСУСИЯТЛАРИ

Annotasiya: Mazkur maqolada bugungi kunda butun dunyoda keng qo'llanilayotgan ikki masofadan zondlash usullarining, jumladan, radar va lazer syomkalarining faol sensorlarga ega bo'lgan, ularning xususiyatlari, afzalliklari va zamonaviy sharoitlarda qo'llanilishi aks ettirilgan; ushbu fotosuratlar amalga oshirilayotgan asbob-uskunalarga ta'rif berilgan.

Kalit so'zlar: Masofadan zondlash, radar syomka, lazer syomka, faol sensorlar, radar, lidar.

COMPARATIVE CHARACTERISTICS OF RADAR AND LASER SURVEYS AS THE MAIN METHODS OF REMOTE SENSING IN MODERN CONDITIONS

Abstract: This article discusses the comparative characteristics of two remote sensing methods that are currently widely used throughout the world, namely radar and laser surveys, having active sensors, their features, advantages and areas of application in modern conditions; a description is given of the devices with which these surveys are carried out - radar and lidar.

Key words: remote sensing, radar imaging, laser imaging, active sensors, radar, lidar.

Основная часть. В настоящее время, как во всем мире, так и в Узбекистане, актуальными методами дистанционного зондирования Земли являются радарная и лазерная съемки. Поэтому целью данной статьи является показать достоинства и преимущества этих двух видов съемки и выполнить их сравнительную характеристику.

Дистанционное зондирование земли (ДЗЗ) — это разновидность геопространственной технологии, которая собирает образцы испускаемого и отражаемого электромагнитного (ЭМ) излучения земных, атмосферных и водных экосистем для обнаружения и мониторинга физических характеристик местности без физического контакта[4]. Чаще всего этот метод сбора данных обычно включает авиационные и спутниковые сенсоры, которые классифицируются как пассивные или активные сенсоры. Виды дистанционного зондирования можно классифицировать по различным критериям, отражающим особенности их применения и технологий. Одним из основных способов классификации является разделение по диапазонам электромагнитного излучения, такие как видимый свет, инфракрасное и ультрафиолетовое излучение, микроволны и радиоволны. Кроме того, виды дистанционного зондирования могут быть разделены на активные и пассивные, в зависимости от того, использует ли система собственный источник излучения или регистрирует отраженное излучение [6]. На сегодняшний день в Узбекистане, да и во всем мире, радары и лидары - самые известные примеры активного метода дистанционного зондирования с использованием беспилотников.

Методы зондирования могут быть пассивные, то есть использующие естественное отраженное или вторичное тепловое излучение объектов на поверхности Земли, обусловленное солнечной активностью, и активные — использующие вынужденное излучение объектов, инициированное искусственным источником направленного действия.

Каждый активный датчик дистанционного зондирования поверхности Земли направляет сигнал и анализирует результат — интенсивность полученного сигнала. В большинстве приборов ДЗЗ используются микроволны, поскольку на них относительно не влияют

погодные условия. Технологии активного ДЗЗ бывают разные – в зависимости от того, что они передают (свет или волны) и что они измеряют (например, расстояние, высоту, атмосферные явления и т.д.). Например, сенсоры RADAR и LiDAR являются типичными активными инструментами дистанционного зондирования [2], которые измеряют временную задержку между излучением и возвращением, чтобы установить местоположение, направление и скорость объекта. Собранные данные дистанционного зондирования затем обрабатываются и анализируются с помощью оборудования для дистанционного зондирования и компьютерного программного обеспечения, которые доступны в различных приложениях, прежде всего в геоинформационных системах (ГИС).

Метамаълумот бу индентификация, ҳажм, сифат, фазовий ва вақт жиҳати, мазмуни, фазовий боғланиши (координата), акс эттирилиши, тарқатилиши ва бошқа хусусиятларга эга рақамли фазовий маълумотлар ва хизматларнинг маълумоти сифатида тушинилади^[4]. Бугунги кунда ГАТ мутахассислари тилида метамаълумотга жуда аниқ ва содда қилиб тариф берилади **“Метамаълумот бу маълумот тўғрисидаги маълумот”**.

Google пайдо бўлгандан бери интернетда маълумот қидириш ва топишда катта ютуқларга эришилди. Аммо маълум бир мавзу бўйича кўп


сонли кўриш ёки юклаб олишларни қайта ишлаш ҳали ҳам қийин бўлиши мумкин. Метамаълумотлар қидирувларни яхшилашга ёрдам беради, шу билан бирга бошқа функцияларга ҳам эга.

Умуман олганда, метамаълумотлар қуйидаги асосий саволларга жавоб бериши керак: маълумот ҚАНДАЙ олинган ва тузилган? НИМА учун маълумот тузилди? ҚАЧОН маълумот тузилди? Маълумотлар ҚАЙСИ ташкилотга тегишли? КИМ уни тўплаган ёки тузган? маълумотларга КИМ эгалик қилади? маълумотлар НИМА ҳақида? маълумотларнинг қиймати, унинг ҳақиқийлиги, ишончилиги ва аниқлиги.

Метамаълумотлар фақатгина фазовий объектларда эмас балки, ҳар қандай истеъмол учун фойдаланиладиган буюм ёки хизматларда қўлланилиши мумкин.

Мисол сифатида фотокамерадан олинган сурат файлининг метмаълумотларини қуйида кўриб чиқамиз:

Ушбу расмнинг чап томонида фотосурат, ўнг томонида эса метамаълумот кўрсатиб ўтилган^[5].

Фотосурат	Метамаълумот	
	Файл, жисмоний маълумотлар	
	Файл ҳаҷми	2.1 MB
	Файл тури	JPEG
	MIME тури	image/jpeg
	Сурат ёзи	4000
	Сурат ани	1868
	Кодлаштириш тури	Baseline DCT, Huffman coding
	Компонентга тури келадиган битлар сони	3
	Ранглар компонентлари	3
	1 ва 0 субдискретизация коэффициенти	YCbCr4:2:0 (2:2)
	EXIF маълумотлари	
	Камера модели	SM-S905E
	Жойлашуви	Сурат стреласи йўналиши бўйича 90° бурилган
	X Резолуцияси (DPI)	72
	Y Резолуцияси (DPI)	72
	X ва Y аниқлик элементлари	доими
	ISO Фирмалари	500
	ISO сони	1000
	Брайтнинг сана	17.08.2024, 19:36:40
	Диффрама	1.8
	Навош	Чанқаш мезгуд эмас
	Фокус оралиғи	8.4 mm
	Ранглар маълумотлари	sRGB
	Рақамли зум кўрсаткичлари	1
	Суратнинг тақриблимас ID-си	L40XL0000NM
Йоқламлаш схемаси	JPEG (old-style)	
JFIF		
JFIF версияси	1.01	
Колориме (инкодаштилган ва ўқимай маълумотлар)		
Диффрама	1.8	
Баландлик	1907 m Above Sea Level	
Кенглик	41 deg 8' 41.42" N	
Узунлик	70 deg 30' 11.77" E	
GPS координатлари	41 deg 8' 41.42" N, 70 deg 30' 11.77" E	
Масштабный коэффициент для 35-мм эквивалента	3.5	
Брайтнинг сана	17.08.2024, 19:36:40	
Ўқимчи мобилиети, кўриш бурчлари	76.1 deg	
Фокус оралиғи (35 мм га эквивалент)	8.4 mm (35 mm equivalent: 23.0 mm)	
Сурат ўлчамлари	4000x1868	
Мегапиксели	7.5	

1-расм. Фотокамерадан олинган сурат файлининг метамаълумотлари

Сурат файли қуйидаги метамаълумотларни ўз ичига олади: камеранинг маркази; ишлатиладиган линзалар; расм олинган вақт; фокус масофаси; GPS манзили координатлари; тасвир ўлчами; ранг профили ва бошқалар.

Юқорида кўрсатиб ўтилган маълумотлар асосида яратилган метамаълумот тасвирни қайта ишлаш пайтида фойдали бўлган тасвир ҳақида техник тушунчаларни тақдим этади. Бундан ташқари, керакли параметрларга эга бўлган расмларни осонгина қидиришга ёрдам беради.


2. Метамаълумотларни шакллантиришда Ўзбекистон томонидан қандай ишлар амалга оширилган

Ўзбекистон Республикасида 2021 йилда “Фазовий маълумотлар”

tўғрисидаги Қонун қабул қилиниши билан Фазовий маълумотлар миллий инфратузилмаси (кейинги ўринларда ФММИ)ни яратиш бўйича ҳуқуқий асос яратилди^[6]. Ҳамда, Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 26-октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Фазовий маълумотлар соҳасини тартибга солувчи айрим норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида”ги 620-сонли Қарори билан ФММИни юритиш бўйича жараёнлар тартибга солинган^[7].

Мазкур Қонун ва қонун ости ҳужжатда ФММИнинг асосий компоненти ҳисобланган “метамәълумот”ларга алоҳида урғу берилган.

Ўзбекистон Республикаси қонунчилигида **метамәълумотлар** – фазовий маълумотларнинг тўпламлари, сервислари ва бошқа хусусиятларини тавсифлаш имконини берадиган, уларни идентификация қилиш, излаш, инвентаризациялаш ва улардан фойдаланиш учун зарур бўлган маълумотлар сифатида таърифланган. Шу билан бирга, Қонуннинг 19-моддасида метамәълумотлар фазовий маълумотлар ҳамда фазовий маълумотлар сервисларининг таркиби, тузилмаси, сифати, ишончилиги, ҳудудий қамрови, вазифалари, улардан фойдаланиш, фойдаланишни чеклаш шартлари, фазовий маълумотларни ишлаб чиқарувчи, уларнинг яратилиш вақти, уларни янгилаш даврийлиги тўғрисидаги ахборотни ўз ичига олади ҳамда бошқа ахборотни ҳам ўз ичига олиши мумкинлиги кўрсатиб ўтилган.



2-расм. ФММИни юритишнинг ташкилий тузилмаси

Юқоридаги расмдан кўриниб турибдики, метамәълумотлар ФММИнинг асосий компоненти ҳисобланиб, улар одатда халқаро стандартлар асосида Ўзбекистон миллий стандарти бўйича шакллантирилади.

Метамәълумотлар Интернет жаҳон ахборот тармоғидаги ФММИ геопорталида жойлаштирилдиган XML-схемадан фойдаланиб яратилган XML форматидаги файллар кўринишида электрон шаклда яратилади.

Метамәълумотларнинг асосий функциялари қуйидагилардан иборат:

- ФММИдан жойлаштирилган фазовий маълумотлар тўпламининг мавзуси ва ҳудудий қамрови ҳақидаги ахборот асосида фазовий маълумотларни излаш;

- фазовий маълумотларнинг таркиби, аниқлиги ва бошқа сифат кўрсаткичлари ҳақидаги метамаълумотлардан фойдаланиб, уларнинг мақсади ва яроқлилигини баҳолаш;

- ФММИ таркибидаги геоахборот ресурсларнинг алоҳида кўрсатилган манзиллари бўйича фазовий маълумотлардан фойдаланишни таъминлаш;

- фазовий маълумотларга ишлов беришга бўлган талаблар ва улардан фойдаланиш шартлари тўғрисидаги ахборотлар асосида маълумотлардан фойдаланишни кўллаб-қувватлаш.

Амалдаги қонунчиликка мувофиқ, Метамаълумотлар идоравий мансублиги ва мулкчилик шаклидан қатъи назар, фазовий маълумотларни ишлаб чиқарувчилар томонидан яратилган барча базавий ва соҳага оид фазовий маълумотларга асосан республика, ҳудудлар ва маҳаллий даражада шакллантирилади.

Фазовий маълумотлар тўпламлари ва сервислари бўйича метамаълумотлар қуйидаги ахборотларни ўз ичига олади:

- фазовий маълумотларнинг тури, таркиби ва тузилмаси;
- фазовий маълумотлар яратилган ҳудуднинг жойлашган жойи;
- фазовий маълумотларнинг яратилган (янгиланган) йили;
- фазовий маълумотлар тақдим этилган координаталар тизими;
- фазовий маълумотлар сифати (давлат стандартлари, техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасидаги норматив ҳужжатлар талабларига мувофиқлиги);

- фазовий маълумотларнинг аниқлиги ва ҳаққонийлиги;
- фазовий маълумотларни сақлаш формати;
- фазовий маълумотларда тижорат, хизмат ёки қонун томонидан қўриқланадиган бошқа сирни ташкил қиладиган маълумотларнинг мавжудлиги;

- фазовий маълумотларнинг ишлаб чиқарувчиси ҳақидаги маълумотлар;

- фазовий маълумотлар сақловчиси ҳақидаги маълумотлар;
- фазовий маълумотлар тўпламлари ва сервисларининг очиклиги, уларни сотиб олиш ва ишлатиш муддатлари, нархлари ва бошқа шартлари;

- фазовий маълумотлар тўпламлари ва сервисларини яратиш, бошқариш ва тақсимлаш учун масъул ахборот ресурслари операторлари тўғрисидаги маълумотлар;

- фазовий маълумотлар тўпламлари ва сервисларидан фойдаланишни чеклаш шартлари;

- фазовий маълумотлар тўпламлари ва сервисларининг қўшимча тавсифлари (агар бўлса).

Юқорида кўрсатиб ўтилган метамаълумотларнинг ахборотлари давлат

стандартлари ҳамда фазовий маълумотлар соҳасидаги техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасидаги бошқа норматив ҳужжатларга мувофиқ яратилади ва янгилаб борилади ^[8].

Ушбу метмаълумотларни яратиш учун Кадастр агентлигида стандартлаштириш бўйича бир қатор ишлар амалга оширилган.

Жумладан, Кадастр агентлигида Техник жиҳатдан тартибга солиш агентлигининг 2022-йил 12-апрелдаги 17-сонли буйруғи билан, Фазовий маълумотлар соҳасида СТҚ 14 “**Фазовий маълумотлар**” стандартлаштириш бўйича техник қўмита тузилди. Техник қўмитага стандартлаштириш объекти қилиб 07.040 “Астрономия. География. Геодезия” стандартларнинг умумдавлат таснифлагичи (СУТ) коди бириктирилган.

Мазкур Техник қўмита томонидан шу кунга қадар, 3 та ISO ташкилотининг **ISO/TC 211-Географик маълумотлар, геоматика** Техник қўмитаси томонидан ишлаб чиқилган стандартлар Ўзбекистон Миллий стандарти сифатида қабул қилинган. Улардан бири ISO 19115 “Географик ахборот – Метамаълумотлар” (Geographic information – Metadata) стандарти (2 та нашири, 3-нашр бугунги кунда Техник қўмита томонидан қабул қилиш жараёнида) ҳисобланиб, ушбу стандарт O‘zMSt ISO 19115-1-2023 ва O‘zMSt ISO 19115-2-2023 Географик ахборот – Метамаълумотлар стандарти ҳисобланади ҳамда ушбу стандартлар Стандартлар институтининг электрон фондига жойлаштирилган.

4. *Метамаълумотларни шакллантиришда фойдаланилаётган ГАТ дастурий таъминотлар ва уларнинг афзаллик жиҳатлари;*

Бугунги кунда фазовий маълумотларнинг метмаълумотлари шакллантиришда 2 та машхур ГАТ дастурий таъминотларини кўриб чиқамиз:

1) ESRI компаниясининг ArcGIS (ArcMAP ва ArcGIS Pro) дастурий таъминоти.

ArcMAP иловаси орқали сиз кўйидаги версиялардаги метмаълумотларни яратишингиз мумкин, булар: Федерал географик маълумотлар қўмитаси (FGDC) томонидан яратилган Рақамли географик метмаълумотлар контентининг стандарти (CSDGM), ISO 19139 Географик маълумот - Метамаълумот - XML схемасини амалга ошириш, Шимолий Американинг ISO 19115: 2003 Profil - Географик маълумот – Метамаълумоти (NAP) ва Европа INSPIRE метмаълумотлар директиваси^[9].

ArcGIS Pro иловаси орқали кўйидаги ISO 19115-3 XML схемаси, ISO 19139 спецификацияси, FGDC CSDGM метмаълумотлар, INSPIRE Metadata директиваси, ҳамда шимолий Америка профили стандартлардан фойдаланиб метмаълумотларни яратиш мумкин^[10].

2) QGIS дастурий таъминоти асосан Европа давлатларига хизмат қилишини инобатга олган ҳолда метмаълумотларни асосан INSPIRE метмаълумотлар стандартига мувофиқ ишлаб чиққан. Шунингдек, QGIS

дастурий ISO 19115 va ISO 19139 стандартларни қўллаб қуватлайди. Бироқ, фақат эски версияларда ISO стандартлари орқали метамаълумотлар шаклланган бўлса, бугунги кундаги янги версияларда фақат INSPIRE метамаълумотлар стандартлари асосида метамаълумотлар яратилади^[11]. Бунинг сабаби сифатида QGIS дастурий таъминоти ҳомийлик шаклида яратилиши ҳисобига, ISO стандартларининг янгиланган ҳужжатлари асосида шакллантириш эҳтиёжи бўлмаганли сифатида қараш мумкин.

Шу билан бирга, дастур Европа давлатларида кўп оммалашганлиги INSPIRE директиваси эса Европа давлатлари учун стандарт сифатида қабул қилинганлиги билан изоҳлаш ҳам мумкин. INSPIRE директиваси асосида яратилган метамаълумотлар ўз навбатида очиқлиги, ҳамма учун фойдаланиш имконияти мавжудлиги, ягона структуралашганлиги сабабли ҳалқаро миқёсда фойдаланиш қулай ҳисобланади.

Бироқ, метамаълумотларнинг ISO ҳалқаро стандартига 2023 йил август ойида сўнги ўзгартириш киритилгани ҳисобига дастурларнинг сўнги версияларида шакллантириш мақсадга мувофиқдир.

Амалга оширилган тадқиқот муҳокамаси

Маълумки, метамаълумотлар одатда тайёр геоахборот дастурлари орқали шакллантирилади. Тадқиқот натижасини шуни кўрсатадики, тайёр дастурлардан фойдаланиш қулай бироқ, уни сотиб олиш ёки фойдаланиш бўйича ҳаражатлар кўплигини инобатга олган ҳолда, метамаълумотларни ҳалқаро стандартлар асосида яратиш бўйича ишланма ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ деб ҳисобланади.

Шунингдек, республикадаги ҳар бир яратилаётган фазовий маълумотларга Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги талабларидан келиб чиққан ҳолда, метамаълумотлар базасини шакллантириш ва фойдаланувчиларга тақдим этиб боришни йўлга қўйиш зарур.

Метамаълумотларни яратиш йўналишида илмий-тадқиқот ишларини такомиллаштириш ва бу борада доимий изланишлар олиб бориш талаб этилади.

Бугунги кунда республикамизда фазовий маълумотларнинг метамаълумотларини шакллантиришда ArcGIS va QGIS каби ГАТ дастурий таъминотларига киритилган стандартларга мувофиқ шакллантириш мумкин. Бироқ ушбу стандартларни яратишда мажбрий ва мажбурий бўлмаган маълумотларни ажратиш олиш, маълумотларни давлат тилида шакллантириш каби муаммолар мавжуд.

Хулоса

Юқорида келтирилган маълумотларга кўра Ўзбекистон ҳудудида жойлашган объектларнинг фазовий маълумотларнинг метамаълумотларини шакллантириш учун:

1. Ўзбекистон ҳудудида мавжуд объектларнинг хусусиятидан келиб чиқиб республика ҳудудига мос тушувчи фазовий маълумотлар метамаълумотини шакллантириш стандартини кенг жорий этиш.

2. Ўзбекистон худудига мос тушувчи фазовий маълумотлар метамаълумотини ишлаб чиқишда метамаълумотларни 2 тоифага синфлаш зарур:

- 1) **мажбурий** тўлдирилиши керак бўлган маълумотлар;
- 2) **қўшимча сифатида** киритиш мумкин бўлган маълумотлар.

3. Ишлаб чиқилган стандартга мувофиқ фазовий маълумотлар метамаълумотини давлат тилида шакллантиш учун ГАТ дастурий таъминотида ишловчи модул яратиш ёки алоҳида метамаълумотларни тайёрловчи дастурий таъминот ишлаб чиқиш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Gen Major va Lola Olsen: “DIF”нинг қисқача тарихи. веб манзил: <https://web.archive.org/web/20061017023417/http://gcmd.nasa.gov/User/difguide/whatisadif.html>
2. 19115-сонли метамаълумотлар бўйича стандар. веб манзил: <https://www.iso.org/obp/ui/#iso:std:iso:19115:-1:ed-1:v1:en>
3. ANZLIC метамаълумот йўриқномаси: Австралия ва Янги Зеландиядаги географик маълумотлар учун асосий метамаълумотлар элементлари, 2-версия.
4. Mers, Maykl (2009). Географик ахборот тизимларининг асослари (4-нашр). John Wiley & Sons, Inc. ISBN 978-0-470-12906-7.
5. Метамаълумот тўғрисида маълумот веб манзил: <https://atlan.com/what-is-metadata/#examples-of-metadata>
6. “Фазовий маълумотлар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 23.07.2021 йилдаги ЎРҚ-702-сон. Веб манзил: <https://lex.uz/uz/docs/5522838>
7. “Ўзбекистон Республикаси Фазовий маълумотлар соҳасини тартибга солувчи айрим норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 26.10.2022 йилдаги 620-сон. Веб манзил: <https://lex.uz/uz/docs/6253377#6253837>
8. Terry Bossomaier, Brian A. Hope. Online GIS and Spatial Metadata. Second Editon. CRC Press, New York, 2016. - P. 169-270.
9. ArcMap дастурида метамаълумот яратиш бўйича қўлланма веб манзил: <https://desktop.arcgis.com/ru/arcmap/latest/manage-data/metadata/what-is-metadata.htm>
10. ArcGIS Pro дастурида метамаълумот яратиш бўйича қўлланма веб манзил: <https://pro.arcgis.com/en/pro-app/latest/help/metadata/view-and-edit-metadata.htm>
11. QGIS дастурида метамаълумот яратиш бўйича қўлланма веб манзил: https://docs.qgis.org/3.34/ru/search.html?q=metadata&check_keywords=yes&area=default


Norboboyev Ural Omon o'g'li
Mineral resurslar instituti DM,
Kichik ilmiy xodimi.

KULDARA MAYDONINI MULTISPEKTRAL KOSMIK SURATLAR ASOSIDA GEOLOGIK XUSUSIYALARINI O'RGANISH


Annotatsiya: *Geologiyada yangi konlarni qidirish eng ustuvor vazifa xisoblanib, unga yangi qidirish metodlarini qo'llash ham iqtisodiy tomondan, ham vaqt nuqtai nazaridan muvofiq bo'ladi. Bunday metodlar orasidan biri masofadan zondlash metodidir. Bu metod muhim ahamiyat kasb etib, konlarni qidirishda birlamchi usullardan biri hisoblanadi. Ayniqsa inson etib borishi qiyin bo'lgan joylarga masofadan zondlash usulini qo'llash ko'plab imkoniyat yaratadi.*

Kalit so'zlar: *masofadan zondlash, Kirsch, Mineral compasation, PCA, Sobel, geologik tuzilish, struktura.*

Kirish. O'rganilayotgan xudud Xisor tizmasining Janubiy-g'arbiy etaklaridagi Boysuntov-Surxontov tog'larining janubiy yonbag'rida joylashgan. Ma'muriy jihatdan esa Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani xududida joylashgan. Orografik nuqtai nazardan tadqiqot xududi ikkita zonaga ajratiladi: Shimoliy zona- mutloq balandliklari 1480,1 m dan 2649,5 m gacha bo'lgan va katta nisbiy ortib borish ko'rsatkichlari 1300 m gacha bo'lgan yuqori tog'li hamda quruq soylar va tepaliklardan iborat.



1.1-rasm. Tadqiqot maydonining tavsifiy xarita



1.2-rasm. Tadqiqot maydonining geologik xaritasi

Tadqiqot maydonining o'rganilganligi: Tadqiqot rayonining dastlabki o'rganilish bosqichi uning geografiyasi va geologik tuzilishini o'rganishdan boshlangan.

Keyinchalik esa aniq va rejali ishlar olib borilgan (V. A. Vaxromeyev, O. N. Chyornix, P. V. Pankratyev, Yu. V. Mixaylova, G. S. Chikrizov, X. V. Riskina, Ye. A. Repman, Ye. M. Golovin va boshqalar).

1972-1974 yillarda GRP va 1975-1976 yillarda Qashqadaryo GRE

ekspeditsiyalari (G, M, Zaletova, V. A. Volkodav va boshqalar 1976 y) Xondiza ma'dan maydonida kolchedan-polimetall ma'danlashuv maydonlariga qidiruv ishlari olib borilgan. Kuldara uchastkasida ma'dan maydoni uchun yangi oltin-kumush mineralizatsiyasi turining mavjudligi aniqlangan. Kuldara ma'dan nishonasida tadqiqot ishlari olib borilishi zarurligi ta'kidlangan.

1978-1980 yillar mobaynida tadqiqot davrida ma'danli zonaning yuza qismi nisbatan aniq o'raganilgan, bunda bir nechta kanava va shurflar o'tilgan bo'lib, 1:5000 masshtabdagi geologik xarita tuzilgan.

Ma'danli maydonlardan birida minerallanish tavsifi jadvaliga asosan yuza bo'yicha qo'rg'oshin, rux va mis miqdori o'zgarimas ekanligi aniqlandi.


Rayonning geologik tuzilishida tokembriy, paleozoy, mezozoy va kaynozoy eralarining yotqiziqlari ishtirok etadi. Rayonning stratigrafiyasini yaratishda G.S.Chikrizov, V.A.Xoxlov, A.T.Tarassenko, V.Ye.Golovin va ayniqsa F.R.Benshlar juda katta hissa qo'shganlar. Bu ma'lumotlar xududning 1:200 000 masshtabdagi xaritasida (D.A.Rubanov) bir qator nashr etilgan manbalarda o'z aksini topgan. Keyinchalik 1:100 000 va 1:50 000 masshtabli xaritalash ishlari jarayonida (V.A.Bezuglov) hududda kembriy yotqiziqlari (Xondiza svitasi) ajratilgan.

Asosiy qism. Masofadan zondlash (Remote sensing) - bu tadqiqot obyekti haqida ma'lum bir masofadan havodan yoki koinotdan turib ma'lumotlarni olish usulidir, ya'ni qabul qilishi sezgir apparatlar yelementining, tadqiqot obyekti yuzasi bilan bevosita bog'lanishi va uning tasvirini yoki fizik parametrlari haqida ma'lumot olishdir. Masofadan zondlash usullariga barcha bevosita ma'lumot olish usullari kiradi. Ular orasida koinotdan zondlash usullari asosiy o'rinni yegallaydi. Yer yuzasini masofa bo'yicha zondlash deganda obyektlar nurlanishining energetik va qutblanish xarakterini o'lchash, har-xil diapozonda elektromagnit (EM) spektrining joylashish holatini, ko'rinishini, tarkibini va obyektning atrof muhitdagi vaqtinchalik o'zgaruvchangligini, bevosita bo'lmagan bog'lanish vositasi yordami bilan o'lchaydigan asboblardan orqali kuzatish tushuniladi.

Masofaviy usullarga asoslangan geologik strukturalarning ishonchliligi birinchi navbatda ayero va kosmik tasvirlash ishlari uchun ishlatiladigan materiallarning geomalumotbardorligi bilan belgilanadi. Keyingilari yer yuzasi to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd yetadigan va tegishli apparatlarning yer usti qabul stantsiyalariga, tashuvchilariga (kosmik yoki havo) uzatadigan tizimlarga, olingan ma'lumotlarni qayta ishlash vositalariga, tabiiy xususiyatlariga (mavsumiy, meteorologik va h.k.) qarab bir-biridan farqlanadi. Tadqiqot rayoni Yakkabog' vulqon-tektonik strukturasida joylashgan bo'lib Xisor tizmasining janubiy-g'arbiy etaklarining shimoliy g'arbiy qismida subkenglik yo'nalishida cho'zilgan keng va katta masofadagi paleovulkon botig'idan iborat. Strukturaviy planda tadqiqot maydoni al'p antiklinoriysiga mansubdir. Mazkur struktura yuqori triasdan qadimgi-to'rtlamchi yotqiziqargacha bo'lgan mezozoyning to'la kesmasidan iborat hamda mayda burmali strukturalar bilan murakkablangan.

Multispektral kosmik suratlarni birlamchi talqin qilish tadqiqot maydonini geologik chegaralarini aniqlash, strukturalarni ajratish va hamda ko'plab ma'dan va konlar bilan bog'liq bo'lgan yer yoriqlarni ajratishga imkoniyat yaratadi. Bu talqin qilish ishlari Arc GIS, ERDAS imagine, Envi kabi dasturlarda amalga oshiriladi.


Ushbu metodlar bir qancha bo‘lib yuqorida aytilgan ishlarni amalga oshirishda ma‘lum bir qismini qo‘llaymiz. Ushbu metodlarga Kirsch, Sobel, PCA, HIS, va Mineral composition.




2.1-rasm. PCA



2.2-rasm. Sobel



2.3-rasm. Kirsch



2.4-rasm. Mineral composition

Xulosa: Bu usullar yangi ma'dan maydonlarini aniqlashda va aniqlangan konlarni davomini izlashda muxim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari istiqbolli maydonlarni qidirishda aniq qidiruv yunalishini tanlab olishda ham masofadan zondlash usulining o‘rni kattadir. Shuningdek hozirgi kunda ma'danlashuv zonalarini yer yuzida belgisi bo‘lgan limonitlashgan va oksidlashgan, o‘zgarishga uchragan anomalialarni aniqlashda keng qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Geologiyada masofaviy zondlash- A.B.Goipov. A.R.Asadov- nashriyoti, 2022., 289 b.
2. https://translated.turbopages.org/proxy_u/en-ru.ru.8aa83779-67408f397b545d_dd-74722d776562/https/en.wikipedia.org/wiki/Remote_sensing.
3. Нурходжаев А.К., Тогаев И.С., Шамсиев Р.З.; Методическое руководство по составлению космогеологической карты Республики Узбекистана на основе цифровых космоснимков. 2017. ГП «ИМП» 200 bet.
4. Рундквист И.К., Тарасенкова Л.В., Данилова М.Ю. ва бошқалар. Автоматизированная обработка систем линеаментов и выявление глубинного строения сложнодислоцированных областей для целей металлогенического анализа // Аэрокосмические съемки при изучении глубинного строения регионов СССР. Л.: ВСЕГЕИ, 1990. betlar. 68-78.

Marupov Azizxon Abbasxonovich

Farg'ona politexnika instituti,

Geodeziya, kartografiya va kadastr kafedrası dotsenti,

b.f.f.d. (PhD), Farg'ona, O'zbekiston.

Mirzakarimova Gulshanoy Mirzaraxmat qizi

Farg'ona politexnika instituti,

Geodeziya, kartografiya va kadastr kafedrası assistenti,

Rasulov Asror Yo'ldoshali o'g'li

Farg'ona politexnika instituti,

Geodeziya, kartografiya va kadastr kafedrası assistenti,

Jalolova Malika

Islom Karimov nomli Toshkent Davlat texnika universiteti Qoqon filiali

Materialshunoslik va aniq fanlar" kafedrası assistenti

Nurmuhammadova Sitora Farhod qizi

Farg'ona Politexnika instituti magistrantlari

snurmuhammadova@gmail.com

SHAHAR INFRATUZILMASINING GEODEZIK VA GIS ASOSIDAGI RIVOJLANISHI

Annotatsiya: Shaharlar tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan davrda, infratuzilmani boshqarish va rivojlantirishda samaradorlik va barqarorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Geodezik va geografik axborot tizimlari (GIS) shahar infratuzilmasini rejalashtirish, qurish va boshqarishda muhim vositalar hisoblanadi. Ushbu maqola geodeziya va GIS texnologiyalarini shahar infratuzilmasining rivojlanishida qanday qo'llash mumkinligini, ularning afzalliklarini, muammolarini va kelajakda rivojlanish istiqbollari tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: Shahar infratuzilmasi, geodeziya, GIS, rivojlanish, rejalashtirish, qurish, boshqarish, 3D modellashtirish, ma'lumotlar bazasi, geospatial tahlil, samaradorlik, barqarorlik, innovasiya, texnologiyalar, monitoring, samarali boshqaruv.

РАЗВИТИЕ ГОРОДСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ НА ОСНОВЕ ГЕОДЕЗИИ И ГИС

Аннотация: В эпоху, когда города быстро развиваются, эффективность и устойчивость становятся все более важными для управления и развития инфраструктуры. Геодезические и географические информационные системы (ГИС) являются важными инструментами в планировании, строительстве и управлении городской инфраструктурой. В данной статье анализируется, как геодезические и ГИС-технологии могут быть применены в развитии городской инфраструктуры, их преимущества, проблемы и перспективы дальнейшего развития.

Ключевые слова: городская инфраструктура, геодезия, ГИС, развитие, планирование, строительство, управление, 3D-моделирование, база данных, геопространственный анализ, эффективность, устойчивость, инновации, технологии, мониторинг, эффективное управление

GEODESIC AND GIS-BASED DEVELOPMENT OF URBAN INFRASTRUCTURE

Abstract: In a time when cities are rapidly developing, efficiency and stability are important in the management and development of infrastructure. Geodesic and geographic information systems (GIS) are important tools in the planning, construction and management of urban infrastructure. This article analyzes how Geodesy and GIS technologies can be used

in the development of Urban Infrastructure, their advantages, problems and prospects for future development.

Keywords: *urban infrastructure, geodesy, GIS, development, planning, construction, management, 3D modeling, database, geospatial analysis, efficiency, sustainability, innovation, technology, monitoring, efficient management.*

Shaharlar dunyo aholisining ko‘payib borayotgan qismini o‘z ichiga olib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim markazlari bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, shaharlar o‘z infratuzilmasini samarali boshqarish va rivojlantirish bilan bog‘liq bir qator muammolarga duch keladi. Ularning ichida transport tizimlarini optimallashtirish, energiya iste‘molini kamaytirish, suv va kanalizatsiya tizimlarini yaxshilash, atrof-muhitni himoya qilish, xavfsizlikni ta‘minlash va boshqa masalalar mavjud.

Shahar infratuzilmasini rejalashtirish, qurish va boshqarishda geodezik va GIS texnologiyalari muhim rol o‘ynaydi. Geodeziya yer yuzining shakli, o‘lchamlari va gravitiyasi bilan shug‘ullanadi, bu esa infratuzilma obyektlarini aniq joylashtirish, masofa va balandlikni aniq o‘lchash, yer uchastkalarini aniqlash va xaritalash kabi vazifalarni bajarishga imkon beradi. GIS esa geografik ma‘lumotlarni to‘plash, saqlash, tahlil qilish va vizualizatsiya qilish uchun foydalaniladigan kuchli vositadir.

Shahar infratuzilmasini rejalashtirishda geodezik va GIS texnologiyalari shaharni rejalashtirish va landshaftni rejalashtirishda, transport tizimlarini rejalashtirishda shuningdek kommunal xizmatlar tarmoqlarini rejalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Geodezik ma‘lumotlar shahar rejalashtirishning dastlabki bosqichlarida yerning relyefi, tuproq tuzilishi, gidrologiya va boshqa omillarni o‘rganishda muhimdir. GIS esa shaharning geografik xususiyatlarini, aholini joylashtirish zichligini, transport tizimlarini va infratuzilma obyektlarining joylashuvini modellashtirish va tahlil qilishga imkon beradi. Transport sohasida GIS yordamida shahar yo‘llari, metro liniyalari, avtobus yo‘llari va temir yo‘llar kabi transport tizimlarining samarali tarmoqlarini rejalashtirish mumkin. Geodezik ma‘lumotlar yo‘lning egri chiziqlarini, balandliklarni va boshqa xususiyatlarini aniqlashda yordam beradi. Kommunal xizmatlarda suv ta‘minoti, kanalizatsiya, energiya tarmoqlari va telekommunikatsiya tizimlari kabi kommunal xizmatlar tarmoqlarini rejalashtirishda GIS texnologiyalari yordamida tizimlarni optimallashtirish va xarajatlarni kamaytirish mumkin.

Shahar infratuzilmasini qurishda geodezik va GIS texnologiyalari quyidagicha qo‘laniladi:

- Qurilish maydonchasi tanlash: Geodezik va GIS texnologiyalari qurilish maydonchasi tanlashda erning relyefi, tuproq tuzilishi, gidrologiya va boshqa muhim omillarni baholashga imkon beradi.
- Loyihalash va modellashtirish: Geodezik ma‘lumotlar asosida 3D modellashtirish dasturlari yordamida shahar infratuzilmasi obyektlarini qurilishdan oldin vizualizatsiya qilish va simulyatsiya qilish mumkin. Bu esa loyihani optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va xavfsizlikni oshirishga imkon beradi.
- Qurilish monitoringi: Qurilish jarayonini kuzatish va nazorat qilish uchun GPS va boshqa geodezik texnologiyalardan foydalanish mumkin. Bu esa qurilishning aniqligi va xavfsizligini ta‘minlashga yordam beradi.

Shahar infratuzilmasini boshqarishda ma'lumotlar bazasi, geospatial tahlil, monitoring va ta'mirlash yo'nalishlarida geodezik va GIS texnologiyalaridan muqobil foydalaniladi. Geodezik va GIS texnologiyalari shahar infratuzilmasi obyektlarining to'liq ma'lumotlar bazasini yaratish va boshqarishga imkon beradi. Bu ma'lumotlar bazasi quvur tizimlari, yo'llar, binolar, kommunal xizmatlar va boshqa infratuzilma elementlari to'g'risida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. GIS yordamida infratuzilma obyektlarining joylashuvini tahlil qilish, transport oqimlarini kuzatish, energiya iste'molini baholash, xavfsizlikni baholash va boshqa muhim masalalarni o'rganish mumkin. GIS texnologiyalari infratuzilma obyektlarining holatini kuzatish va ta'mirlashni rejalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa infratuzilma obyektlarining ishlash muddatini uzaytirishga va xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi.

Shuningdek shahar infratuzilmasining rivojlanishidagi muammolar va yechimlar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- Ma'lumotlarning bir-biriga mos kelmasligi: Turli manbalardan olingan ma'lumotlar bir-biriga mos kelmasligi mumkin, bu esa infratuzilma obyektlarining to'liq va aniq tasvirini yaratishga to'sqinlik qiladi.

- Ma'lumotlarning mavjud emasligi: Ba'zi hollarda, infratuzilma obyektlarining to'liq ma'lumotlari mavjud bo'lmamasligi mumkin, bu esa rejalashtirish va boshqarishni qiyinlashtiradi.

- Texnologiyalardan foydalanishda yetarlilik: Geodezik va GIS texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha mutaxassislarning yetishmasligi, texnologiyalarga sarf-xarajatlarning ko'pligi va texnologiyalarni qo'llashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar rivojlanishga to'sqinlik qilishi mumkin.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun *ma'lumotlar standartlarini ishlab chiqish* (turli tashkilotlar va idoralar o'rtasida ma'lumotlarning bir-biriga mos kelishini ta'minlash uchun standartlashtirilgan ma'lumotlar formatlari va standartlarini ishlab chiqish), *ma'lumotlar bazasini to'ldirish* (mavjud bo'lmagan ma'lumotlarni to'plash va ma'lumotlar bazasini to'ldirish uchun tizimli choralar ko'rish), *mutaxassislarni tayyorlash* (Geodeziya va GIS sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash va o'qitish uchun dasturlarni kengaytirish), *texnologiyalarni qo'llashni rag'batlantirish* (Geodezik va GIS texnologiyalaridan foydalanishni rag'batlantirish uchun moliyaviy va boshqa turdagi qo'llab-quvvatlovlarni taqdim etish) kabi choralar ko'rilishi mumkin.

Xulosa. Shahar infratuzilmasining geodezik va GIS asosidagi rivojlanishi shaharlarning samaradorligini, barqarorligini va rivojlanishini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalarni qo'llash infratuzilmani rejalashtirish, qurish va boshqarishda o'zaro bog'liqlikni yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish va xavfsizlikni oshirish imkonini beradi. Muammolarni hal qilish va rivojlanish istiqbollarini yanada kengaytirish uchun ma'lumotlar standartlarini ishlab chiqish, ma'lumotlar bazasini to'ldirish, mutaxassislarni tayyorlash va texnologiyalarni qo'llashni rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Smith, J. (2019). The Role of Geospatial Data in Urban Planning. *Journal of Urban Planning and Development*, 20(2), 23-35.

2. Jones, A. (2020). Geospatial Technologies for Sustainable City Development. In: Proceedings of the International Conference on Sustainable Urban Development (pp. 143-156). Springer.

3. Williams, B. (2021). Using UAVs for Infrastructure Monitoring and Management. Drones and Infrastructure, 3(1), 1-15.

4. Brown, K. (2018). GIS-Based Decision Support Systems for Urban Infrastructure Management. Journal of Infrastructure Management, 15(1), 72-88.=

Musayev Ilhom Maqsudovich

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti dotsenti

Abduraxmonov Sarvar Nazrullayevich

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti dotsenti

G‘aniyev Yunusali Yusufovich

Farg‘ona politexnika instituti katta o‘qituvchi

Manopov Xasan Valiyevich

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti tayanch doktoranti

**AHOLI PUNKTLARINI GEOEKOLOGIK BAHOLASH UCHUN GIS
KARTOGRAFIK MA'LUMOTLAR BAZASINI YARATISH
METODIKASINI ISHLAB CHIQUV**

Annotatsiya: Mazkur maqolada aholi punktlarini geoeologik baholash uchun GIS kartografik ma'lumotlar bazasi hamda informasion xaritalar yaratish metodikasi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Geoeologik baholash, shaharsozlik, GIS (Geografik axborot tizimlari), kartografik ma'lumotlar bazasi, fazoviy ma'lumotlar, aerokosmik tadqiqotlar, shahar ekologiyasi, GIS dasturlari.

**РАЗРАБОТКА МЕТОДИКИ СОЗДАНИЯ КАРТОГРАФИЧЕСКОЙ
БАЗЫ ДАННЫХ ГИС ГЕОЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ОЦЕНКИ
НАСЕЛЕННЫХ ПУНКТОВ**

Аннотация: В данной статье разработан метод создания картографической базы данных ГИС и информационных карт для геоэкологической оценки населенных пунктов.

Ключевые слова: геоэкологическая оценка, городское планирование, ГИС (географические информационные системы), картографическая база данных, пространственные данные, аэрокосмические исследования, городская экология, ГИС-программы.

**DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR CREATION OF A GIS
CARTOGRAPHIC DATABASE FOR GEOECOLOGICAL
ASSESSMENT OF SETTLEMENTS**

Abstract: In this article, a method of creating GIS cartographic database and information maps for geoeological assessment of settlements is developed.

Keywords: Geoecological assessment, urban planning, GIS (Geographic Information

Systems), cartographic database, spatial data, aerospace research, urban ecology, GIS programs.

Kirish. Shahar atrofidagi zamonaviy shaharsozlik faoliyati binolarning qavatlarini va binolarning zichligini oshirish yo'nalishi bo'yicha rivojlanmoqda, bu yangi hududlarda qurilishni kengaytirish va qurilish loyihalarini yetarli darajada ekologik asoslanmagan holda joylashtirish bilan tavsiflanadi. Rivojlanayotgan hududlarda insonning xo'jalik va ishlab chiqarish faoliyati obyektlari ham, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ham bo'lishi mumkin. Bunday sharoitda tabiiy komplekslarga yuqori antropogen yuk tushadi, shuning uchun kapital qurilishni shaharsozlik rejalashtirishda tabiatni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish talab etmoqda.

O'z navbatida, atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqish va rejalashtirish bo'yicha atrof-muhit va shaharsozlik bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish geoekologik vaziyat va rivojlanishning turli qismlarida uning dinamikasi to'risida obyektiv ma'lumotlarni talab qiladi, bu esa dastlabki ma'lumotlarni fazoviy-vaqtincha baholashsiz olish mumkin emasligi, balki zamonaviy vositalar va qayta ishlash usullari bilan olinishi ifodalab berilgan.

Muhandislik tadqiqotlari davomida turli manbalardan olingan ma'lumotlar – yer usti geoekologik marshrut tadqiqotlari natijalari, ortofotoplan ta'sirlarni o'lchash natijalari, statistik ma'lumotlar, kartografik materiallar, aerokosmik tadqiqotlar materiallari o'rganilayotgan hudud to'g'risida juda ko'p turli xil ma'lumotlarni ifodalaydi. Aholi punktlarini geoekologik baholashda ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish va saqlashdagi qiyinchiliklar tufayli kartografik ma'lumotlar bazalarining roli ortib bormoqda. GIS yuqori informasion xaritalar asosida yaratilgan. GIS-dan foydalanish fazoviy va atributli ma'lumotlarning yagona elektron ma'lumotlar bazasini yaratish, ma'lumotlarni tanlash, qayta ishlash va tahlil qilish samaradorligini oshirish imkonini beradi, bunda elektron shaklda ham, qog'ozda ham mazmunli kartografik hujjatlarni tezda olish imkonini beradi.

Bugungi kunda aholi punktlarini geoekologik baholash (va shuning uchun xaritalash) tabiiy-antropogen tizimlarni tadqiq qilishning mahalliy darajasiga o'tmoqda va atrof-muhit to'g'risidagi ma'lumotlarni, shu jumladan dala tadqiqotlarini olishning ishonchli va tezkor usullariga asoslangan batafsil kartografik materiallarni hamda kosmik usullar yordamida ishlab chiqishni talab etadi.

Ya'ni, turar-joylarni geoekologik baholash uchun GIS kartografik ma'lumotlar bazasini yaratish metodologiyasini ishlab chiqish tadqiqotning dolzarb mavzusi hisoblanadi.

Tadqiqotning ishining maqsadi – turar-joylarni geoekologik baholash uchun GIS kartografik ma'lumotlar bazasini yaratish metodikasini ishlab chiqish. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olingan:

- barpo etilgan hududlarni geoekologik baholash muammosi holatini tahlil qilish va tadqiqotning asosiy yo'nalishlarini aniqlash;
- geoekologik baholash uchun tegishli xaritalarning turlari va mazmunini aniqlash;
- aholi punktlarining GIS fazoviy ma'lumotlar bazasining tuzilishi va

mazmunini ishlab chiqish;

- rivojlanish hududlarini geoeologik baholash uchun GIS kartografik ma'lumotlar bazasini yaratish metodologiyasini ishlab chiqish;
- sinov maydoni misolida GIS ma'lumotlarining kartografik ma'lumotlar bazasini yaratish metodologiyasini amalga oshirish bo'yicha eksperimental tadqiqotlar o'tkazish.

Tadqiqotining obykti sifatida turar-joy maydoni, uning tabiiy va shahar muhitining tarkibiy qismlari hisoblansa. Tadqiqotining predmeti esa turar-joylarni geoeologik baholash uchun GIS kartografik ma'lumotlar bazasini yaratish metodologiyasini ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqot kartografik asarlarni yaratish tajribasi va usullari, kompyuter texnologiyalari sohasidagi yutuqlar, kosmik tasvirlarni raqamli qayta ishlash usullari, fazoviy ma'lumotlar bazalarini va GLONASS/JNNS sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimlarini ishlab chiqishga asoslangan.

Tadqiqot ishida quyidagi amaliy natijalar olib borilgan: Aholi punktlarini mahalliy geoeologik baholash xaritalarining turlari va mazmuni aniqlangan hamda asoslangan (tadqiqot masshtabi 1:10000-1:25000).

Aholi punktlarining fazoviy ma'lumotlar bazasining tuzilishi va mazmuni GLONASS/JNNS global navigatsiya joylashishni aniqlash tizimlari yordamida bog'langan bir qator asl xaritalar, aerokosmik ma'lumotlar va dala tadqiqotlari asosida tuzilgan GIS dasturlari to'plami yordamida ishlab chiqilgan. Qurilgan hududning fazoviy obyektlarining sifat va miqdoriy tavsiflari tavsiflangan.

Mahalliy aholi punktlarini geoeologik baholash uchun GIS kartografik ma'lumotlar bazasini yaratish metodologiyasi ishlab chiqilgan.

Shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati 1:10 000 - 1 masshtablarga to'g'ri keladigan detallar bilan loyihalashdan oldingi qurilish davrida qurilgan hududlarni batafsil geoeologik baholash jarayonida ishlab chiqilgan metodologiyadan foydalanishdan iborat.

Aholi punktlarini geoeologik baholash uchun GIS kartografik ma'lumotlar bazasini yaratishda ko'plab dastur turlaridan foydalaniladi. Ushbu dasturlarda o'zgarishlarni aniqlash va ularni o'zaro taqqoslash qulay bo'lganligi sababli mazkur kartografik ma'lumotlar bazasiga asosan Microsoft Access va Microsoft SQL Server dasturlaridan keng foydalanildi.

Ma'lumotlar bazasini yaratishda davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, stat.uz internet ma'lumotlarni hamda shaharsozlikni rivojlantirishni hududiy bo'limi ma'lumotlaridan keng foydalanildi. Mazkur ma'lumotlarni tizimlashda jadvallar usuliga alohida ahamiyat qaratildi. Jadvallar oldindan ishlab chiqilgan va ular bir-biri bilan bog'liq tuzilmaga xos shakllantirildi. Bu dasturlarni ishlab chiqarishda asosan Visual Basic tilidan foydalanib, Microsoft SQL ma'lumotlar bazasi yaratildi.

SQL Server aholi punktlarini geoeologik baholash uchun GIS kartografik bazasini serverli qismlari ko'zda tutilgan bo'lib, ma'lumotlarni chiqarib tashlash, cheklash, mijozlar tomonidan ma'lumotlardan foydalanish, shuningdek, xavfsizlikni ta'minlash imkonini beradi. Masalan, SQL Server so'rovlarni mijoz kompyuterlaridan oladi, ularni server kompyuterda bajaradi, keyin faqat so'ralgan ma'lumotlarni qaytaradi. Shunday qilib, 10 mingta yozuvlarni o'z ichiga oladigan

jadvallardan bitta yozuvni chiqarib tashlash uchun serverga komanda uzatiladi, serverli dasturiy ta'minot ushbu komandani bajaradi va mijozga faqat qidiriladigan yozuv qaytariladi.



1-rasm. Elektron kartalar bilan ishlash sxemasi

Yangi texnologiyalar asosida karta va ulardagi ma'lumotlardan samaraliroq foydalanib, an'anaviy qog'ozli planlar, karta va atlaslarga elektron va Veb-kartografik asarlar qo'shimcha tarzda qo'shib shaharsozlik sohalarida mavzuli kartografik mahsulotlarni kengaytirish imkonini bermoqda. Xususan: Tabiat xususiyatlarini va turar-joylarning antropogen ta'sirini aks ettiruvchi xaritalarning asl tematik mazmuni ishlab chiqishni yo'lga quyish. Obyektning fazoviy ma'lumotlari kartografik ma'lumotlar bazasining tuzish. Aholi punktlarini geoeologik baholash uchun GIS kartografik ma'lumotlar bazasini yaratish hamda shaharsozlik faoliyatini tartibga solish rejimlari va aholi punktlari uchun atrof-muhitni muhofaza qilish choralari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Marupov A. va boshqalar. Elektr uzatish liniyalarining elektromagnit to'liqlarining tuproq xususiyatlariga ta'sirini o'rganish usullari // E3S Web of Conferences. – EDP fanlari, 2024. – T. 508. – S. 07002.
2. Raximonovna K. K. va boshqalar. SUG'ORMA TARMOQI KARDIRLASH MASALALARI //Ochiq kirish ombori. – 2024. – T. 10. – №. 3. – S. 104-108.
3. Abduraufovich K. O., Raximonovna K. K. YER QURTINING RIVOJLANISH QONUNLARI, PLANETAR RELYEF SHAKLLARI, YER YUTASINI ENDOGEN RELYEF SHAKLLARI //Akademiya ombori. – 2023. – T. 4. – №. 12. – S. 146-155.
4. Rahimjonovna K. K. va boshqalar. Raqamli er kadastr xaritalarini tuzish uchun ma'lumotlar bazasini yaratish //Texas muhandislik va texnologiya jurnali. – 2023. – T. 21. – S. 10-16.
5. Yoqubov S. ARCGIS VA PANORAMA TEXNOLOGIYALARI FOYDALANGAN QISHLOQ XOJALIK KARTALARINI ISHLAB CHIQISH //Fan va texnologiyalardagi innovatsiyalar. – 2024. – T. 1. – №. 1. – S. 101-107.
6. Hakimova K., Yoqubov S. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT KADASTRLARINI TUZISH VA XIZMAT QILISH //Fan va texnologiyalardagi

innovatsiyalar. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – S. 85-93.

7.Yoqubov S. GIS TEXNOLOGIYALARI FOYDALANISHDA HUDUDDA DAVLAT LENDIKADASTRLARNING HUQUQIY FOYDAGI XARITALARINI ISHLAB CHIQISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI //Fan va texnologiyalardagi innovatsiyalar. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – S. 80-84.

Зайниддинов Фазлиддин Акромиддин ўгли

д.ф. по г.-м. наук (PhD) ГУ «ИМП» Ташкент, Узбекистан.

zayniddinofazliddin93@gmail.com

АВТОМАТИЧЕСКОЕ ВЫДЕЛЕНИЕ НАПРАВЛЕНИЙ ГЕОЛОГИЧЕСКИХ СТРУКТУР (НА ПРИМЕРЕ ВОСТОЧНОГО БУКАНТАУ)

Аннотация: В этом тезисе рассматривается использование космических снимков для автоматического дешифрирования и определения локализации и структурного состояния месторождений и рудопроявлений, расположенных в восточной части Букантау, в районе рудном узле Сарытау-Саутбай для анализа данных использовались программа ЛЕССА.

Ключевое слово: Букантау, Сарытау-Саутбай, рудный узел, космические снимки, Лесса, ВЕГА, кольцевая структура, ДЗЗ.

При прогнозе и поисках рудных структур проводится тектоническое и структурное дешифрирование космических снимков (КС), а при выделении линейных и кольцевых структур, кроме визуального дешифрирования автоматизированное дешифрирование [1].

На современном этапе научно-технического и технологического развития возможности автоматизированного дешифрирования достигли 33 высокого уровня. Проведенные учеными стран ближнего и дальнего зарубежья опытно-методические работы в этой области дали положительные результаты [6].

Для предварительного дешифрирования космических снимков высокого разрешения В.Б.Кашкин, (2001) предусматривает несколько этапов обработки материалов; подготовка и дешифрирование материалов дистанционного зондирования; геологическая интерпретация геофизических полей; комплексирование интерпретация геологических данных и материалов ДЗЗ. Космогеологические исследования осуществлены на основе, выше отмеченных этапах дешифрирования космоснимков [7].

Что у геологов Узбекистана существует большой опыт автоматизированной обработки и интерпретации цифровых материалов ДЗЗ. Одной из главных задач является определения прямых и косвенных структурно-дешифровочных признаков [5].

Автоматизированный линеаментный анализ материалов ДЗЗ – доступность качественных изображений Земли позволила широко использовать их в различных областях и автоматизировать анализ этих изображений [2]. В большинстве случаев автоматизирован поиск областей и структур непосредственно по яркости (цвету) и контрасту.

Ниже дается обзор системы автоматического дешифрирования ERDAS IMAGINE-2014, Geomatica PCI, сервисного сайт ВЕГА на основе программного пакета LESSA. При этом использованы разные космические снимки, полученные со спутников «Landsat-7,8», «Sentinel» «Aster» SRTM, охватывающие территорию Восточный Букантау.

Метод автоматизированного дешифрирования линеаментной сети на комплексе «ВЕГА» на основе программного пакета LESSA является экспресс-методом, позволяет очень быстро, выявить линеаментную сеть района, подсчитать плотность, дисперсию и коэффициент уделения линеаментов. Этот

метод позволил установить объективные закономерности в ориентации линейных элементов аэрокосмоснимков. Сопоставление результатов, полученных при визуальном и автоматизированном дешифрировании, показывает их хорошую сходимость [4].




Рис. 1. Розы диаграмм по направлению локальных линеаментов.

С помощью этого модуля возможно обнаруживать объективные закономерности в ориентации линейных элементов дистанционных данных. В первую очередь, это относится к анализу линейных изменений элементов рельефа на материалах дистанционного зондирования. Однако с гораздо большим основанием можно анализировать геоморфологические

особенности (хребтов, водоразделов, гидросети и долин) в цифровых моделях местности (ЦММ). Преимущество анализа ЦММ состоит в том, что в анализе участвуют только элементы рельефа и исключены яркостные аномалии (по электромагнитному диапазону), обусловленные другими источниками. Программа LESSA позволяет анализировать линейные изменения, полученные любым способом (рис. 1) [3].

Результаты анализа изображения, полученные в LESSA, могут использоваться для того, чтобы подтвердить, уточнить разломы на территории Восточного Букантау показать аномальные области, линии, которые могут служить подсказкой. Например, такие каналы миграции и концентрации флюидопотоков, имеют важное значение, при изучении закономерностей размещения известных месторождений углеводородов, зоны флюидоподводящих каналов, анализ структуры линеаментной зоны и рудоконтролирующего направления.

Список использованных литератур

1. Дистанционные исследования при поисках полезных ископаемых. Новосибирск: Наука, 1986. 172 с.
2. Зайниддинов Ф.А. Космоструктуры и зона минерализации Сарытауского рудного поля по данным дистанционного зондирования Земли. УзМУ хабарлари 2021.
3. Зайниддинов Ф.А. Применение методов дистанционного зондирования Земли для определения структурной зависимости полей минерализации на месторождении Турбай, Сарытау-Саутбайский рудный узел. O'zbekiston Milliy Universiteti xabarлари, 2023, [3/1] ISSN 218-74231 С.364- 368
4. Златопольский А.А. Новые возможности технологии LESSA и анализа цифровой модели рельефа. Методический аспект. (Новые технологические ресурсы LESSA и анализ цифровых карт местности. Методика), Современные проблемы дистанционного зондирования Земли из космоса 2011, Vol. 8, № 3, С. 38-46.
5. Нурходжаев А.К., Тогаев И.С., Шамсиев Р.З.; Методическое руководство по составлению космогеологической карты Республики Узбекистана на основе цифровых космоснимков. 2017. ГП «ИМР» 200 с.
6. Рундквист И.К., Тарасенкова Л.В., Данилова М.Ю. и др. Автоматизированная обработка систем линеаментов и выявление глубинного строения сложнодислоцированных областей для целей металлогенического анализа // Аэрокосмические съемки при изучении глубинного строения регионов СССР. Л.: ВСЕГЕИ, 1990. С. 68-78.
7. Рябухин А.Г., Макаров В.И., Макарова Н.В. Космические методы в М.: Изд-во МГУ, 1988. 145 с.

Abdukarimov Maxsud Miraz o'g'li

Alfraganus University NOTT,

Umumkasbiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi,

Toshkent, O'zbekiston. e-mail: makhsudabdukarimov774@gmail.com

Ibragimov Jaxongir Komiljonovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy univyersiteti,

Geodeziya va geoinformatika kafedrasini o'qituvchisi,

Toshkent, O'zbekiston. E-mail: JahongirIbragimov770@mail.ru

GIDROTEKNIK INSHOOTLAR DEFORMATSIYASINI ZAMONAVIY InSAR TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB MONITORING OLIV BORISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada Doimiy va ishonchli monitoringni talab qiluvchi muhim infratuzilma bo'lgan gidrotexnik inshootlar deformatsiyasini monitoring qilish uchun mikroto'lqinli masofadan zondlash usuli bo'lgan interferometrik sintetik diafragma radaridan (InSAR) foydalanish haqida umumiy ma'lumot berilgan. Dunyo bo'ylab deyarli barcha yirik suv ombori to'g'onlari nafaqat gidroenergetika ishlab chiqarish uchun, balki, aholi istemoli, qishloq xo'jaligi va suv resurslaridan oqilona foydalanish uchun qurilgan. InSAR yuqori fazoviy piksellar bilan o'z vaqtida hisob-kitob o'lovlarini ta'minlash orqali to'g'on xavfsizligini yaxshilashi mumkin.

Kalit so'zlar: InSAR texnologiyasi, monitoring, deformatsiya, gidrotexnik inshootlar, gidroelektrostantsiyalar.

МОНИТОРИНГ ДЕФОРМАЦИИ ГИДРОТЕХНИЧЕСКИХ СООРУЖЕНИЙ С ПРИМЕНЕНИЕМ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ InSAR

Аннотация: В этой статье представлен обзор использования интерферометрического радара с синтезированной апертурой (InSAR), метода микроволнового дистанционного зондирования, для мониторинга деформации гидротехнических сооружений, которые являются критически важными объектами инфраструктуры и требуют непрерывного и надежного мониторинга. Почти все плотины крупных водохранилищ по всему миру построены не только для выработки гидроэнергии, но и для нужд населения, сельского хозяйства и рационального использования водных ресурсов. InSAR может повысить безопасность плотин, обеспечивая своевременные измерения осадки с высоким пространственным разрешением.

Ключевые слова: технология InSAR, мониторинг, деформации, гидротехнические сооружения, гидроэлектростанции.

MONITORING THE DEFORMATION OF HYDROTECHNICAL STRUCTURES USING MODERN InSAR TECHNOLOGIES

Abstract: This paper provides an overview of the use of Interferometric Synthetic Aperture Radar (InSAR), a microwave remote sensing method, to monitor the deformation of hydraulic structures, which are critical infrastructures that require continuous and reliable monitoring. Almost all large water reservoir dams around the world are built not only for hydropower generation, but also for population needs, agriculture and rational use of water resources. InSAR can improve dam safety by providing timely settlement measurements with high spatial resolution.

Key words: *InSAR technology, monitoring, deformation, hydrotechnical structures, hydropower plants.*

Kirish. Yer tog'onlari kamxarj va dunyoda eng ko'p tarqalgan tog'on turidir. Ular barcha tog'onlarning 78% ni tashkil qiladi, yer tog'onlarini grunt (65%) va tosh (13%) tog'onlarga bo'lish mumkin [1,2]. Bu tog'on turlari nuqtai nazaridan kelib chiqib joyga va turli geologik sharoitlarga moslashuvchan bo'lib, insoniyat tarixidagi eng qadimgi tog'on turi hisoblanadi. Shunga ko'ra, dunyodagi tog'on buzilishlarining 80 foizi yer tog'onlari bilan bog'liqdir. Qachonki suv ombori tog'onining qismi yoki uning asosi buzilsa yoki siljish sodir bo'lsa, u suvni ushlab turish hususiyatini yo'qotadi. Ko'pgina hollarda, tog'on buzilishi katta hajmdagi suvning oqishiga olib keladi, bu esa aholiga yoki ularning mol-mulkiga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin [3].

Yirik tog'onlar bo'yicha xalqaro kommissiyasining (International Commission on Large Dams -ICOLD) [2] ma'lumotlariga ko'ra, yer tog'onlarining ishdan chiqishining asosiy sabablari yer tog'onlari quvurlarini berkitib qo'yishi, tog'on tanasining ichki eroziyasi va poydevorlarning siljishi yoki cho'kishi hisoblanadi. 1986 yilgacha qurilgan qirg'oq tog'onlarida o'tkazilgan yana bir tadqiqot shuni ko'rsatdiki, yer tog'onlarining buzilishining deyarli yarmi (taxminan 46%) quvur liniyasi tufayli yuzaga kelgan, korpus eroziyasi va poydevor eroziyasi mos ravishda 30,5% va 14,8% ni tashkil qiladi. Bundan tashqari, nosozliklarning 36 foizi haddan tashqari suvni saqlash uchun tog'on quvurlarini berkitib qo'yishi, 12 foizi klapanlarning ishdan chiqishi va 6 foizi ko'chki tufayli sodir bo'lgan [3].

Global tendentsiyalar butun dunyo bo'ylab suv tizimlarining ehtiyojlari va talablarini tez o'zgartirmoqda, ayniqsa so'nggi o'n yilliklarda qurg'oqchilik tez-tez uchrab turadigan hududlarda [4,5]. Tog'onlarni sodir bo'layotgan o'zgarishlarga moslashtirish juda muhim, chunki ular suv va energiya bilan ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tog'onlarni qurish va boshqarish iqlim o'zgarishiga javoban qo'llaniladigan asosiy moslashish strategiyalaridan biridir. Ularning muhim infratuzilma obyektlari sifatida ahamiyatini hisobga olgan holda, tog'onning yorilishi oqibatlari iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlar nuqtai nazaridan muhim bo'lishi mumkin. Ushbu infratuzilmalar bilan bog'liq xavflar mavjud bo'lib, ularni doimiy va yangilanadigan jarayon orqali tog'ri boshqarish kerak [6]. Tog'on xavfini belgilovchi omillarning tez o'zgarishi an'anaviy nazorat dasturlarini tog'on xavfsizligini uzoq muddatli boshqarish uchun yetarli emas [7].

Asosiy qism. Interferometrik sintetik diafragma radari (InSAR) ma'lumotlaridan tog'ri foydalangan holda yer harakatini kartalashtirish uchun kuchli vosita hisoblanadi. Graham, L.C. 1974 yilda topografik kartalashtirish uchun birinchi InSAR tajribasini o'tkazdi, Zebker H.A. va Goldstein R.M. 1986 yilda esa yon tomondan ko'rish radaridan (SLAR) foydalangan holda birinchi amaliy natijalar haqida xabar berishgan. Butunjahon tog'onlar komissiyasi (WCD, 2000) ma'lumotlariga ko'ra, gidroenergetika umumiy elektr ta'minotining

19 foizini tashkil qiladi. U 150 dan ortiq mamlakatlarda qo'llaniladi, chunki u eng keng tarqalgan qayta tiklanadigan energiya manbai hisoblanadi. To'g'onlar sug'orish, toshqinlarni nazorat qilish va gidroenergetikaga yordam beradigan muhim infratuzilmadir. To'g'onlar ko'pincha tepalikli yerlarda joylashgan bo'lib, u yerda tuproq harakatlari tabiiy geodinamika yoki tuproq kuchlanishining o'zgarishi natijasida yuzaga keladi. Vaqtlar o'tishi mobaynida o'z vaqtida olib borilmagan monitoringlar sababali bir qancha to'g'onlar deformatsiyaga uchrab buzilishgacha olib kelgan. Bu esa insonlarning qurbon bo'lishiga va atrof-muhitga jiddiy ta'sir ko'rsatishiga olib keldi. Masalan, 2018 yil 23 iyulda Laos janubidagi Attapeu provinsiyasida qurilayotgan Xe Pian-Xe Namnoy gidroelektr stantsiyasining egar shaklidagi to'g'oni qulab tushdi va quyi oqimdagi qishloqlarga jiddiy zarar yetkazdi, kamida 48 kishi halok bo'ldi, yana 23 kishi bedarak yo'qoldi va 7000 dan ortiq kishi o'z uylarini tark etishga majbur bo'ldi. To'g'onning yana bir katta qulashi 1928 yil 12 martda sodir bo'lgan, Los-Anjelesdagi Sent-Frensis to'g'oni, San-Fransisko va Santa-Klara daryolari vodiylarida 450 kishini halok bo'lgan. Bu Kaliforniya tarixidagi eng katta texnogen falokat sifatida tan olingan. Binobarin, to'g'onlar va ularning atrofini aniq va muntazam ravishda kuzatib borish infratuzilmaga halokatli zarar yetkazilishining oldini olish va quyi oqimdagi aholi punktlarning xavfsizligini ta'minlash uchun juda muhimdir. To'g'onlar va ularning atrofini mintaqaviy miqyosda kuzatishning iqtisodiy jihatdan samarali usuli mahalliy lashtirilgan monitoring vazifalarini yanada samarali rejalashtirishga imkon beradi. An'anaviy kuzatish usullari bilan taqqoslaganda, InSARning afzalligi katta maydonlarda, shu jumladan xavfli yoki borib bo'lmas qiyin bo'lgan hududlarda yuqori zichlikdagi o'lchash nuqtalarini ta'minlashdir. InSAR vaqt seriyasi usullari vaqt o'tishi bilan mintaqaviy miqyosda yer yuzasidagi mm darajadagi siljishlarni, shuningdek mavsumiy ko'tarilish/tushish davrlarini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan yuqori aniqlikdagi harakat vaqtini ta'minlaydi. Ushbu usul to'g'onlarning deformatsiyasini kuzatishning iqtisodiy jihatdan samarali usuli bo'lib, inshootlar va ularning atroflari xavfsizligi to'g'risida erta ogohlantirish tizimi sifatida ishlatilishi mumkin [8].


Suv ombori to'g'onlari va ularning atrofidagi deformatsiyalarning aniq monitoringi olib borish, konstruktsiyaning beqarorligini aniqlash va halokatli holatlarda infratuzilma va insonlar hayotini yo'qotishlarini oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Baholash potentsial beqaror obyektlarni erta aniqlash imkonini beradi, xavfsizlik haqida ogohlantirish tizimi vazifasini bajaradi hamda aniqroq va maqsadli monitoringni talab qiladigan hududlarni aniqlaydi. Agar konstruktsiyaga og'irlik me'yoridan ortiq bo'lsa, ichki eroziyadan va haddan tashqari deformatsiya holatlari oshib ketsa, suv ombori to'g'onlari buzilishi mumkin.

Bugungi kunga kelib ko'pgina davlatlar suv ombori to'g'onlarini monitoringini olib borishda zamonaviy Sun'iy yo'ldosh radar interferometriyasi (Satellite radar interferometry) InSAR texnologiyalarini qo'llab olib

bormoqdalar. Albatta bu texnologiyalar ma'lum sun'iy yo'ldoshlarga o'rnatilgan bo'ladi.

Mikroto'liqlik sensorlar joylashgan sun'iy yo'ldoshlar (amaldagi, kelajakdagi loyihalar va ishlaymaydigan) 1-rasmda berilgan.

DInSAR yer deformatsiyasini kuzatish uchun ishlatiladigan birinchi radar interferometriya usuli edi. *DInSAR*-bu ma'lum orbital xususiyatlarga ega bo'lgan bir yoki bir nechta juft sun'iy yo'ldosh tasvirlarini birlashtirishga asoslangan radar tasvirini qayta ishlash usuli. *INTERFEROGRAMMA* bir xil orbitadan olingan ikkita SAR tasvirini birlashtirish orqali hosil bo'ladi, lekin orbitaning asosiy chizig'idagi farq bilan. *DInSAR* kosmik tizimining dastlabki qo'llanilish sohalari katta maydonlarda cho'kishni baholash va zilzilalar natijasida yuzaga keladigan deformatsiyalarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Honda K. va boshqalar (2012) *DInSAR* yordamida Yaponiyaning Okinava prefekturasidagi Taiho hududida tuproq to'g'onining barqarorligini kuzatdilar. Ular 2006 yil 6 dekabrda 2010 yil 17 dekabrgacha Alos PALSAR yordamida tuproq to'g'onlarining tashqi deformatsiyasini o'lchashdi. *DInSAR* o'lchov natijalari GPS o'lchovlari bilan taqqoslandi va 80% aniqlikni ko'rsatdi. *DInSAR* ma'lumotlari va yer usti ma'lumotlari o'rtasidagi yana bir qiyosiy tadqiqot Di Martire D. va boshqalar tomonidan (2015) Envisat-ASAR (2002 yil 29 noyabr - 2010 yil 30 iyul) tomonidan olingan 51 ta surat yordamida amalga oshirildi. Janubiy Apennin (Italiya) da joylashgan Konza to'g'oni, kuchli zilzila epitsentriga juda yaqin ($M_v 1/6, 9$), 1980 yil 23 noyabrda sodir bo'lgan.



1-rasm. Mikroto'liqlik sensorlar joylashgan sun'iy yo'ldoshlar

Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, bu usul fuqarolik obyektlarini, ayniqsa katta ta'sir qiluvchi omil va ular bilan bog'liq xavfga ega bo'lgan to'g'onlarni aniq kuzatish uchun ishonchli. *DInSAR* jarayoni katta suv omborlarining deformatsiyasini kuzatishda juda samarali, masalan, Italiyadagi ikkita yirik suv omborlari: Kampolattaro va Kampotosto Sentinel-1a tasvirlari bilan o'rganilgan va bu suv omborlari Yevropadagi eng yirik suv omborlari tizimlaridan biriga birlashtirilgan, uchta to'g'on tomonidan qo'llab-quvvatlangan: Poggio Cancelli, Sella Pedicate, va Rio Fucino. Olingan differentsial interferogrammlar va ushbu to'g'onlar uchun nisbiy siljishlardan kelib chiqadiki, eng ko'p zarar ko'rganlar zil

zila zonasiga eng yaqin bo'lgan Podjo Kanchelli tuproq to'g'oni bo'lib, vertikal tezligi yiliga -13 dan -18 sm gacha, undan keyin Rio Fuchino to'g'oni (-15 sm) va Sella Pedicate uchun nisbatan kichik to'g'on (taxminan -8 sm). SAR va yuqori aniqlikdagi nivelirlash natijalari siljishning o'sish tendentsiyasini ko'rsatadi[8].

D. Tarchi va bir qator olimlar 1999 yili inshootlarni kuzatish uchun yer usti interferometriya tamoyillarini taklif qilishdi. GBInSAR (Ground-based InSAR) - bu ilg'or, yuqori aniqlikdagi, arzon narxlardagi va uzluksiz monitoring tizimi hisoblanadi. Ushbu usul namuna olish chastotasini mustaqil ravishda o'rnatishga imkon beradi. Uzoq vaqt davomida suv sathi va harorat o'zgarishi natijasida sodir bo'lgan suv ombori to'g'onining siljishi D.Tarchi va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Olingan natijalar konstruktsiyaga o'rnatilgan an'anaviy datchik sensorlar tarmog'i tomonidan to'plangan ma'lumotlar bilan taqqoslandi[8].

Xulosa. Hidrotexnik inshootlarni boshqarish, foydalanish va ularni monitoring qilish uchun zamonaviy InSAR texnologiyalaridan foydalanish qurilish muhandisligi sohasida muhim qadamdir. Ushbu texnologiya muhandislarga muhim infratuzilma obyektlarining holati va xavfsizligini samarali baholash imkonini beruvchi aniq, shubhali bo'lmagan natijalar va doimiy monitoring imkoniyatlarini taqdim etadi. Texnologiya rivojlanib borar ekan, uni standart nazorat usullariga integratsiya qilish gidrotexnik inshootlarning barqarorligini oshirishga va'da beradi, bu esa aholi va atrof-muhit uchun xavfsizlikni ta'minlaydi. Ushbu zamonaviy yondashuvlar hayotiy infratuzilmamizni boshqarishda innovatsion yechimlarni joriy etish muhimligini ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. ICOLD. World Register of Dams. General Synthesis. 2020. Available online: <https://www.icold-cigb.org/> (accessed on 30 April 2020).
2. ICOLD. Dam Failures-Statistical Analysis (Bulletin 99); Document protected by Copy Right; ICOLD: Paris, France, 1995.];
3. Foster, M.; Fell, R.; Spannagle, M. The statistics of embankment dam failures and accidents. *Can. Geotech. J.* 2000, 37, 1000–1024;
4. Estrela, T.; Pérez-Martin, M.A.; Vargas, E. Impacts of climate change on water resources in Spain. *Hydrol. Sci. J.* 2012, 57, 1154–1167;
5. Forero-Ortiz, E.; Martínez-Gomariz, E.; Monjo, R. Climate Change Implications for Water Availability: A Case Study of Barcelona City. *Sustainability* 2020, 12, 1779;
6. Fluixá-Sanmartín, J.; Altarejos-García, L.; Morales-Torres, A.; Escuder-Bueno, I. Climate change impacts on dam safety. *Nat. Hazards Earth Syst. Sci.* 2018, 18, 2471–2488;
7. Bowles, D.; Brown, A.; Hughes, A.; Morris, M.; Sayers, P.; Topple, A.; Wallis, M.; Gardiner, K. Guide to Risk Assessment for Reservoir Safety Management, Volume 1: Guide; Environment Agency: Bristol, UK, 2013;
8. J. Aswathi a, R.B. Binoj Kumar a, T. Oommen b, E.H. Bouali c, K.S. Sajinkumar., InSAR as a tool for monitoring hydropower projects: A review. <https://doi.org/10.1016/j.engeos.2021.12.007> //2666-7592/©2022 Sinopec Petroleum Exploration and Production Research Institute. Publishing services by Elsevier B.V. on behalf of KeAi Communications Co. Ltd. This is an open access article under the CC BY-NC-ND license (<http://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/>).

Allanazarov Olim Raxmonovich

*Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti,
Marksheyderlik ishi va geodeziya kafedrasida dotsenti, PhD,
Toshkent, O'zbekiston, e-mail: olimallanazarov@gmail.com*

To'xtayeva Maxfuza Muminovna

*Geologiya fanlari universiteti,
Geologiya qidiruv ishlari texnikasi va texnologiyasi kafedrasida o'qituvchisi,
Toshkent, O'zbekiston, e-mail: maxfuzatuxtayevaO@gmail.com*

**MASOFADAN ZONDLASH MATERIALLARINI TIZIMLI TAHLIL
QILISH YO'LLARI**

Annotatsiya: Jizzax viloyati Forish tumani ma'lum massivlarining 2022-2023 yil may va iyun oylarida olingan masofadan zondlash materiallari tajriba sifatida olindi va NDVI tadqiqot ma'lumotlari aks ettirildi. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo'llash orqali olingan masofadan zondlash materiallari ikki yillik may va iyun oylaridagi o'simlik dunyosining holatini sun'iy yo'ldosh sensori yordamida kosmik suratlari olindi, o'simliklarini me'yorlashtirilgan farq indeksi bilan o'zaro bog'liqligi o'rganildi.

Kalit so'zlar: obyektlar ontrapogenmi, geotasvir, Mashina va vizual, antropogen ta'sirlar, vegetatsiya indeksi, degradatsiya jarayonlari, ma'lumotlarni integratsiyalash.

**МЕТОДЫ СИСТЕМАТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА МАТЕРИАЛОВ
ДИСТАНЦИОННОГО ЗОНДИРОВАНИЯ**

Аннотация: В качестве эксперимента были взяты материалы дистанционного зондирования отдельных массивов Форшского района Джизакской области, полученные в мае и июне 2022-2023 годов, и отражены данные исследования NDVI. Изучены материалы дистанционного зондирования Земли, полученные с использованием современных методов и технологий. С помощью спутниковых датчиков были сделаны космические фотографии состояния растительности в мае и июне.

Ключевые слова: геоизображения, машинно-визуальные, антропогенное воздействие, растительный индекс, процессы деградации, интеграция данных.

**METHODS OF SYSTEMATIC ANALYSIS OF REMOTE SENSING
MATERIALS**

Abstract: As an experiment, remote sensing materials of individual arrays of the Forish district of the Jizzakh region, obtained in May and June 2022-2023, were taken and the NDVI study data were reflected. The Earth remote sensing materials obtained using modern methods and technologies were studied. Using satellite sensors, space photographs of the state of vegetation in May and June were taken. In quality of the experiment, remote sensing materials wer.

Keywords: anthropogenic objects, geospatial imagery, machine and visual, anthropogenic impacts, vegetation index, degradation processes, data integration

Yer yuzasini va uning qismlarini bir butun qilib tahlil qilishda masofadan zondlash materiallaridan foydalaniladi. Masofadan olingan tasvirlarni tahlil qilish bir so'z bilan aytganda suratlarni deshifrovka qilish deb yuritiladi. Ushbu masofadan olingan tasvirlarni tahlil qilishda umumiylikdan xususiylikka qadar bo'lgan ma'lumotlar olinadi. Misol uchun tasvirlarni tahlil qilish metodlari haqida ilmiy asoslangan xususiyatlarni aniqlash va ulardan asosiy ma'lumotlar manbalari sifatida foydalanishni yo'llarini qidirish, kartalarni yaratishda ulardan

foydalanishni takomillashtirish kabi vazifalarni hal qilishga zamin yaratadi.

Tasvirlarni tizimli tahlil qilishning nazariy jihatlariga bir qancha misollarni keltirish mumkin. Foydalanuvchi uchun zarur bo‘lgan obyektning tasvirda ko‘rinishi va topishi, obyektning o‘rganish va u haqda ma’lum ilmiy xulosaga kelishi, obyektning qonun qoidalar negizida izohlashi va hakoza.

Masofadan olingan tasvirlarni tahlil qilishda natijalar rasmiy va vizual talqin qilinadi. Bunda foydalanuvchi tasvirni chuqur o‘rganib obyekt holatini baholaydi. Bunda tahlil davomida suratdagi ranglar katta o‘rinni egallaydi, chunki olingan tasvirning hosil bo‘lishi albatta obyektning yorug‘lik koeffitsientiga bilvosita bog‘liq bo‘ladi. Bunda tasvir oq qora rangda bo‘lsa suratdagi obyektlar rangi och yoki to‘qqligiga ahamiyat qaratiladi. Bundan keyin obyektlar ontrapogenmi yoki tabiiyligi ham tahlil davomida kuzatiladi va baholanadi.

Hozirgi paytga kelib masofadan zondlash materiallari asosan rangli aks ettirilmog‘da. Rangli tasvirlarni tahlil qilishda turli spektr kanallarida olingan tasvirlar amaliyotda keng qo‘llanilmog‘da. Rangli tasvirlarni tahlil qilishda asosiy etibor spektral kanalga qaratiladi. Ushbu rangli suratlarda obyektning ya’ni o‘simlik dunyosi misolida keltiradigan bo‘lsak, avvalo, o‘simlikning holati o‘rganiladi. Bunday tahlilni olib borishda NDVI ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi.

Tasvirlarni tahlil qilish mutaxassisning bilim va ko‘nikmasi hamda tajribasiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Agar mutaxassis yuqori tajribaga ega bo‘lsa olingan tahlil natijalari ham sifatli bo‘ladi. Tasvirlarni tahlil qilish sifatining yuqoriligi oldindan tuzilgan dastur, tartib qoida va maqsadga ko‘ra olib borishga bog‘liq.

Tasvirlarni tahlil qilish topografik, mavzuli hamda maxsus turlarga ajaratiladi. Yuqorida sanab o‘tilgan maqsadlarga ko‘ra tasvirlarni tahlil qilish vizual usulida inson tasvirini o‘qiydi va kerakli ma’lumotlarni vizual tahlil qiladi hamda zarur bo‘lganda modellashtiradi.


Mashina va vizual - bu usulda maxsus texnikalardan foydalanib inson omili kamaytiriladi. Bir qancha ishlar kompyuterda amalga oshiriladi. Bunda tasvirlar tiniqlashtiriladi keraksiz obyektlar ikkinchi fonga o‘tkaziladi hamda ma’lumotlar filtrlanadi.

Suratlarni tahlil qilishning avtomatlashtirilgan usulida mutaxassis barcha amalga oshiriladigan ishlarni kompyuterga yuklaydi va tasvirlar maxsus dasturlar yordamida avtomatik tahlil qilinadi.

Suratlarni tahlil qilishni quyidagi texnologik sxema asosida izohlash maqsadga muvofiq (1-rasm).

Respublikamizda keyingi yillarda o‘simliklar soni kamayishi kuzatilmog‘da, bunga asosiy sabab yerlarning turli darajada degradatsiyaga uchrash oqibatida sodir bo‘lmog‘da. Respublikamizda geobotanik holatni aniqlash degradatsiya jarayonlarini oldini olish, mahsuldorligini oshirish va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilib, muayyan natijalarga erishilmog‘da. Davlat kadastrini yurituvchi organlari tomonidan o‘simlik dunyosidan foydalanuvchilar yurtimizning butun hududida O‘zbekiston

Respublikasi Fanlar akademiyasi o‘simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastrini sub’ektlari hisoblanadilar.



1-rasm. Suratlarni tahlil qilish texnologik sxemasi

Keyingi yillarda o‘simlik dunyosi obyektlarini masofadan zondlash materiallari asosida tadqiq etish bo‘yicha qator ilmiy va amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda davlatimizda besh ming gektarga yaqin yaylov yerlari hamda ularning geobatanik holati masofadan zondlash materiallari asosida tadqiq etilib, ijobiy xulosalar olinmoqda. Ushbu tadqiqotda Jizzax viloyati Forish tumani ma‘lum hududlarining 2022-2023 yil may va iyun oylarida olingan masofadan zondlash materiallari tajriba sifatida olindi va NDVI tadqiqot ma‘lumotlari aks ettirildi.

Zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo‘llash orqali olingan masofadan zondlash materiallari ikki yillik may va iyun oylaridagi o‘simlik dunyosining holatini sun‘iy yo‘ldosh sensori yordamidagi kosmik suratlari olindi va maqsadli tadqiq etildi. Jizzax viloyati Forish tumani o‘simliklarini me‘yorlashtirilgan farq indeksi bilan o‘zaro bog‘liqligi o‘rganildi.

O‘simliklarni NDVI tahlil qilishda guruhlashtirilgan indeks farqi elektromagnit spektrining yaqin infraqizil va ko‘rinadigan qizil spektrlarida olingan suratlardan foydalanildi. Ushbu Jizzax viloyati Forish tumani hududining tadqiqot uchun zarur bo‘lgan geotasvirlari www.usgs.uz saytida e‘lon qilingan suratlarni yuklab olinib, ular asosida tahliliy ishlar olib borildi. NDVI tahlilni amalga oshirish uchun 2022-2023 yil may/iyun oylaridagi kosmik sur’atlar olindi.


Buning uchun ArcMapni ochib ► Catalog ► Add Data ga o‘tib ochmoqchi bo‘lgan va mos keladigan tasvirlarni TIFF formatida ochib olamiz. Tasvirning ustiga sichqoncha bilan ikki marotaba bosish bilan uni ArcMapda ochib olamiz. Ushbu tadqiqotda suratlarni 4 va 5- band tasvirlari aks ettirish formulalari keltirilgan (2-rasm).

	$NDVI = \frac{(NIR - RED)}{(NIR + RED)}$
Landsat 8	$NDVI = \frac{(Band5 - Band4)}{(Band5 + Band4)}$
Landsat 4-7	$NDVI = \frac{(Band4 - Band3)}{(Band4 + Band3)}$

2-rasm. Landsat 8 va Landsat 4-7 kosmik kemalardan olingan materiallarning hisoblanishi

NDVI tahlil odatda -1 dan 1 gacha bo'lgan diapazonda amalga oshiriladi. Agar ushbu qiymatlar -1 dan 0 gacha bo'lgan salbiy bo'ladi va unda tanlangan obyekt suv havzasiga to'g'ri keladi. Aksincha, NDVI qiymatlari ijobiy 1 ga yaqin bo'lsa, zich o'simliklar paydo bo'lishi ehtimoli yuqori. Agar qiymat 0 ga yaqin bo'lsa, bu yashil barglar o'simliklar yo'qligini anglatadi va bunda cho'l yoki shahar hududi ekanligini bildiradi.

Forish tumani hududlarida o'rtacha tuproq qatlami haroratining va iqlimning o'zgarishi o'simlik qoplamiga salbiy ta'sir ko'rsatishi tizimli o'rganishlar natijasida aniqlandi. Tadqiqot davomida o'rtacha NDVI qiymati Landsat 8 ma'lumotlariga ko'ra **0,63** ekanligi aniqlandi. Maqsadli izlanishlar hamda butun davr mobaynida kuchli, salbiy NDVI korrelyatsiyasi kuzatildi. Korrelyatsiya koeffitsienti o'rtacha (LST - Land surface temperature) tuproq qoplami temperaturasidan yuqori bo'lgan hududda yuqoriroq va o'rtacha (LST) dan past bo'lgan qismda pastroq. Korrelyatsiya koeffitsientining qiymati vaqt o'tishi bilan kamayadi. O'rganilayotgan hududning (LST) – NDVI munosabatlari o'simlik dunyosiga antropogen ta'sirlar ham asosiy omil bo'lmoqda. Quyida tadqiqot olib borilgan obyektдан olingan masofadan zondlash ma'lumotlari keltirigan (3 va 4-rasmlar).



3-rasm. Landsat 8 kosmik kemasidan 2022 yil may-iyun oylari uchun olingan tasvir



4-rasm. Landsat 8 kosmik kemasidan 2023yil may-iyun oylari uchun olingan tasvir


Olingan natijalar bo'yicha 0 dan 0,15 gacha bo'lgan qiymatlar haydalma bo'sh yerga mos keladi. 0,15 dan 0,3 gacha bo'lgan qiymatlar butalarga, 0,3 dan 1 gacha bo'lgan qiymatlar sog'lom o'simliklarga mos keladi (1-jadval).

1-jadval

NDVI qatlam xususiyatlari

No	Qiymat diapazonlari	Sinflar
1	-1 – 0	Suv
2	0 - 0.15	Haydalma bo'sh yer
3	0.15 - 0.3	Buta
4	0.3 – 1	Sog'lom o'simliklar


NDVI ni hisoblash uchun Arc Map dasturining o'ng oynasidagi ► Arc Toolbox ► Spatial Analysis Tools ► Map Algebra ► Rast Calculator ochiladi. Rast Calculator bu raastri ishlov berishning keng doiradagi vazifalarini bajarishga imkon beradi. U bizga Landsat tasvirlarini NDVI vegetatsiya indeksini yaratishga yordam beradi. Rast Calculatorga formulani kiritamiz va hosil bo'lgan rast faylimizni saqlab olamiz. ArcMapping chap oynasida yangi hisoblangan tasvirimiz ko'rinadi (5-rasm).




5-rasm. Qatlamlar qiymatini aniqlash (2022 yil)

Chap oynadagi ► Rast Calculator (hisoblangan tasvir) ► Properties ►

Classification ► Break Values ko'rsatkichlarini to'g'irlab olamiz. ► Symbol dagi katakchalarni sinflarga mos keladigan rang bilan bo'yaymiz. ► Label ga o'tib sinflarning nomlarini yozib chiqamiz (6-rasm).




6-rasm. Qatlamlar qiymatini aniqlash (2023 yil)




7-rasm. Qatlamlarning nomlari va ko'rsatkichlarini aniqlash

Chap oynadagi ► Rast Calculator formula yordamida hisoblagan NDVI tasvirini xususiyatlarini to'g'irlab chiqamiz. Buning uchun biz rast ning ustiga sichqoncha bilan bosib ► Properties ► Color ramp ga o'tib NDVI tasviriga mos keladigan ranglarni tanlab olamiz. So'ngra ► Properties ► Classes ga o'tib 4 ni belgilaymiz. Chunki, bizning misolimizda 4 sinfga ajratilgan (suv, haydalma bo'sh yer, butalar, sog'lom o'simliklar) NDVI tasvirlarini tahlil qilindi. NDVI uni turli sohalarida qimmatli vositaga aylantiradigan bir qator afzalliklarga egadir. NDVI qiymat va ko'p vaqt talab qiladigan dala tadqiqotlarisiz katta maydonlardagi o'simliklar holatini baholash imkonini beradi. Ushbu bajarilgan ishning asosiy maqsadi davomiy ketma-ketlik tahlili orqali vaqt o'tishi bilan


o'simliklardagi o'zgarishlarni monitoring qilishdir. Olingan natijalardan ma'lum bo'ldiki, 2022 yilgi ma'lumotlarda yaxshi rivojlangan o'simliklar maydoni 2023 yilga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi (8-12 rasmlar).




8-rasm. Qatlamlarga mos rang tanlash




9-rasm. NDVI yordamida 2022 yil uchun olingan ma'lumotlar(may-iyun)



10-rasm. 2022 yil uchun normallashtirilgan o'simlik indeksining ko'rsatkichlari (may-iyun)



11-rasm. NDVI yordamida 2023 yil uchun olingan ma'lumotlar (may-iyun)



12-rasm. 2023 yil uchun normallashtirilgan o'simlik indeksining ko'rsatkichlari (may-iyun)

Yuqorida ko'rsatilgan ikki davrdagi tasvirlarda ham may oyida

o'simliklarning rivojlanishi iyun oyiga nisbatan ijobiy ekanligi ma'lum bo'ldi. Bunga sabab biz o'rganayotgan hududning geografik joylashuvi va iqlimning ta'siri ekanligi aniqlandi.

O'simlik dunyosi kadastr obyektlari ko'rsatkichlarini modullashtirish va ma'lumotlarni integrasiyalash orqali ma'lumotlar tahlil qilindi. Bugungi kunda avval ishlab chiqilgan dasturlarning texnik formulalari takomillashtirilib borilmoqda va dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatorida bizning mamlakatimizda ham zamonaviy dasturlar asosida ishlashga bosqichma – bosqich o'tib borilmoqda. Masofadan zondlash ma'lumotlari asosida ishlangan o'simlik dunyosi kadastr kartalari ArcGIS dasturiy ta'minotida qayta hisoblangan kosmik suratlar dunyo standartlarga muvofiq, bu esa ulardan ko'pgina amaliy sohalarda va qishloq xo'jaligi sohasidagi monitoring ishlarini tashkil etishda foydalanish imkoniyatini beradi.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, o'rganilayotgan hududda o'simlik olamining sezilarli darajada pasayishi ekotizimga zarar yetkazishi mumkin. Ushbu natija uning muvozanatini saqlashga va har xil tabiiy havflarni oldini olishga yordam beradi. NDVI o'simliklar sifatini baholash uchun samarali va ko'p qirrali vosita bo'lib, turli sohalarda qaror qabul qilish uchun qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Allanazarov O.R., Xikmatullayev S.I. Davlat kadastrlarini shakllantirish tartibi. «Hududlarning barqaror rivojlanishini geoaxborot jihatdan ta'minlash» respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari T - 2022 yil 26 oktabr 20-28-b.

2. Allanazarov O.R., Xikmatullayev S.I. Respublikamizdagi mavjud davlat kadastrlarini yuritilish tartibi va tarkibi xaqida tushuncha. «Hududlarning barqaror rivojlanishini geoaxborot jihatdan ta'minlash» respublika ilmiyamaliy konferensiya materiallari T – 2022 yil 26 oktabr 28-34-b.

3. Abdullaev Z., Kendjaeva D., Xikmatullaev S. Innovative approach of distance learning in the form of online courses // International Conference on Information Science and Communications Technologies: Applications, Trends and Opportunities, ICISCT 2019, 9011821.

4. Allanazarov O.R., Xikmatullaev S.I., Muslimbekov B.M. Hududlarning davlat kadastrini yuritishda masofadan zondlash materiallaridan foydalanish. O'zbekiston zamini. №4/2022 – 104-107-b.

5. Allanazarov O.R., Xikmatullaev S.I. Maintaining the State Cadaster of the Territories on the Base of Remote Sensing Materials. ISSN(online): 2643-9875 2892-2897-b.

6. Allanazarov O.R., Xikmatullaev S.I. Maintaining the state cadaster of the territories on the base of remote sensing materials. Special issue.2022 Journal of “Sustainable Agriculture” 15-18-r.

7. Allanazarov, O., Khikmatullaev, S., Islomov, U. Maintaining the state cadaster of the territories on the base of remote sensing materials // E3S Web of Conferences, 2023, 371, 01014.

Шукуруллаева Арофатхон Жахонгир кизи

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
магистрант 1 курса специальности «Геодезия и геоинформатика»,
Ташкент, Узбекистан. Электронная почта: arofatxon16@gmail.com

Арабов Обиджон Зарип угли

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
Старший преподаватель кафедры геодезии и геоинформатики, PhD,
Ташкент, Узбекистан. Электронная почта: obidjonarabov@gmail.com

ГЕОИНФОРМАЦИОННЫЕ СИСТЕМЫ, ИХ КОМПОНЕНТЫ И ВОЗМОЖНОСТИ

Аннотация: В статье рассматриваются современные геоинформационные системы (ГИС), их ключевые компоненты и широкий спектр возможностей, применяемых в различных отраслях. Описаны основные элементы ГИС, включая программное обеспечение, аппаратные средства, данные и методы их обработки, а также человеческий ресурс. Особое внимание уделено функциональным возможностям ГИС, таким как управление пространственными данными, анализ геопространственной информации, визуализация и моделирование. Подчеркивается значение интеграции ГИС в управлении территориях, инфраструктурном планировании, мониторинге природных ресурсов и экологическом контроле.

Ключевые слова: геоинформационная система, ГИС, географическая информация, генерализация, абстракция, компонент, пространственные данные.

GEOAXBOROT TIZIMLARI, ULARNING KOMPONENTLARI VA IMKONIYATLARI

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy geoaxborot tizimlari (GAT), ularning turli sohalarda qo'llaniladigan keng imkoniyatlari va asosiy komponentlari haqida so'z boradi. GATning asosiy elementlari, jumladan, dasturiy ta'minot, apparat vositalari, ishlov berish usullari va ma'lumotlari, shuningdek, inson omili tavsiflab o'tildi. Fazoviy ma'lumotlarni boshqarish, geofazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish, vizualizatsiya va modellashtirish kabi GAT funksional imkoniyatlariga alohida e'tibor berildi. GATning hududlarni boshqarish, infratuzilmani rejalashtirish, tabiiy resurslar monitoringi va atrof-muhit nazorati bilan birlashtirish muhimligi ta'kidlab o'tildi.

Kalit so'zlar: geoaxborot tizimi, GAT, geografik ma'lumot, generalizatsiya, abstraktsiya, komponent, fazoviy ma'lumotlar.

GEOINFORMATION SYSTEMS, COMPONENTS AND FACILITIES

Abstract: The article discusses modern geographic information systems (GIS), their key components and a wide range of capabilities used in various industries. The basic elements of a GIS are described, including software, hardware, data and processing methods, and human resources. Particular attention is paid to GIS functionality, such as spatial data management, geospatial information analysis, visualization and modeling. The importance of integrating GIS into territory management, infrastructure planning, natural resource monitoring and environmental control is emphasized.

Keywords: geographic information system, GIS, geographic information, generalization, abstraction, component, spatial data.

Введение. Геоинформационные системы имеют ряд своих особенностей. С помощью геоинформационных систем можно осуществлять анализ данных с использованием цифровых карт. Геоинформационная система позволяет, упростить работу различных сфер и устранить их аномалии, принимая необходимые меры. Современные геоинформационные данные также дают возможность визуализировать математически-моделированные данные. Обмен между моделями и геоинформационными системами реализует визуализацию данных.

Геоинформационная система (ГИС) – это аппаратно-программный человеко-машинный комплекс, обеспечивающий сбор, обработку, отображение и распространение пространственно-координатных данных, интеграцию информации и знаний о территории для их эффективного использования при решении научных и прикладных задач, связанных с инвентаризацией, анализом, моделированием, прогнозированием, управлением окружающей средой и территориальной организацией общества [2].

Актуальность темы исследования. Подобно тому, как любая система имеет свою историю развития и период своего становления, так и геоинформационные системы имеют свою историю. Геоинформационная система появилась давно, но начала развиваться в 1960-х годах XX века. В то время компьютерные технологии только начали появляться, а все информации обрабатывали люди. Картографические основы были нарисованы рукой. Люди с помощью прозрачной бумаги – кальки, накладывая слои друг на друга создавали картографическую основу. Эта работа требовала немало времени у людей. С появлением компьютерных технологий время для разработки информации значительно уменьшилось, и это повлияло на развитие геоинформационных систем. Сегодня основные задачи выполняют компьютерные технологии, а людям достаточно присвоить им необходимые команды.

В соответствии с определением, принятым Национальным научным фондом, который был создан Национальным центром географической информации и анализа США (NCGIA) в 1988 году, географическая информационная система (ГИС) – это компьютеризованная база данных систем управления, предназначенная для поиска, хранения, анализа и отображения пространственных (локально определенных) данных [1].

Геоинформационные системы основаны на данных. Данные содержат в себе информацию о пространственных объектах, результатах их исследований и измерений. Данные также можно называть геоинформациями, так как они содержат информацию об объектах, существующих на земной поверхности.

Геоинформационные данные, обычно являясь картографической основой, отображаются на карте. Вся информация в геоинформационной системе сохраняется в виде слоев. Каждый слой объединяет в себе объекты, имеющие общие признаки и сведения. Например, полигоны, линейные объекты, точечные объекты всегда по признаку отображения на карте отличаются. Кроме того, они тоже подразделяются по общим сведениям.

Исходя из этого, на карте может содержаться информация о разных объектах. Геоинформационные системы для этого требуют генерализацию и абстракцию.

Генерализация представляет собой набор процедур классификации и обобщения, предназначенный для отбора и отображения картографических объектов, соответственно масштабу, содержанию и тематической направленности создаваемой цифровой карты, т.е. процедуры, позволяющие сохранить информативность при уменьшении объема данных [3].

Абстракция – процедура типизации данных. При этой процедуре данные преобразуются таким образом, чтобы из большого количества данных получить новые более емкие по значению данные. Чаще всего первым этапом является классификация данных с последующей заменой элементов группы элементом-представителем [3].

Таким образом, на основе генерализации и абстракции, геоинформационная система имеет четыре основные подсистемы (рисунок 1).



Рис.1. Подсистемы ГИС

Результаты и обсуждение. В современном мире, глобальные и частные задачи решаются с помощью геоинформационных систем. Геоинформационные системы дают следующие возможности:

- изучить объекты на заданной территории;
- изучить местоположение объекта;
- анализ распределения явления по территории;
- изучить изменения на определенной территории;
- смоделировать расположение объектов.

Геоинформационные системы включают в себя пять основных компонентов (рисунок 2).

Аппаратные средства – это устройства, на котором будет запущена геоинформационная система. На сегодняшний день геоинформационные системы работают на различных аппаратных средствах. Они используются для

того, чтобы получить информационные данные. Ввод полученных данных тоже осуществляется с помощью их. Аппаратные средства также дают возможность предоставить готовые ГИС результаты пользователю. Эти факты показывают, что геоинформационные системы без аппаратных средств не могут работать полноценно. Аппаратные средства сильно облегчают работу, связанные с данными.




Рис. 2. Состав геоинформационных систем

Рассмотрим каждый компонент по отдельности.

Программное обеспечение формирует инструментарий для работы с геоинформацией (геоданными) - хранение, анализ и визуализацию существующих данных. Программное обеспечение – это средство работы с геоинформационными данными, инструменты поддержки и также пользовательский интерфейс, имеющий доступ к необходимым функциям и инструментам для удобной и быстрой работы.

Данные тоже являются важным компонентом в работе с геоинформационными системами. Данные содержат в себе информацию о пространственном положении объектов, а также табличную и атрибутивную информацию. Данные может получить каждый пользователь самостоятельно или приобрести у организации. Полученные пространственные данные интегрируют с другими типами данных, а также можно их упорядочивать.

Исполнители играли важнейшую роль до и после развития геоинформационных систем. Ранее, работу с аппаратными средствами выполняли люди. Сейчас исполнители, разрабатывая нужные планы работают с программными обеспечениями, при этом решая задачи реальных ежедневных проблем.

Методы в свою очередь обеспечивают эффективность и успешность работ геоинформационных систем. Выбор правильного и нужного метода обычно зависит от вида задач и сферы применения.

Рассмотрев все эти пять компонентов, можно сказать, что они тесно связаны друг с другом. Подобрать все компоненты правильно, пользователь обеспечивает индивидуальность выполняемых работ.

Заклучение. Правильное применение геоинформационных систем — это ключ качественной и оперативной работы. Использование геоинформационных систем в отличие от традиционного подхода требует меньше времени. Во время работы с геоинформационными системами основную задачу выполняют технологии, а людям остается только разработать планы выполнения работ.

Список использованных источников

1. Гришко, А.К. Геоинформационные системы управления многоуровневыми пространственно распределенными объектами / А.К. Гришко, С.А.Бростилов [и др.] // Труды Международного симпозиума «Надежность и качество». – 2018. – Т. 2, №1. – С.312-315.
2. Кащенко Н. А. Геоинформационные системы: Учебное пособие для вузов / Н.А.Кащенко, Е.В. Попов, А.В. Чечин. – Н.Новгород: ННГАСУ, 2012. – 130 с.
3. Ципилева Т.А. Геоинформационные системы: Учебное пособие / Т.А.Ципилева. – Томск: Томский межвузовский центр дистанционного образования, 2004. – 162 с.

Sultamuratova Zaure Axmet qizi

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti,
Geodeziya, kartografiya va tabiiy resurslar kafedrasida stajyor o'qituvchisi,
Nukus, O'zbekiston. E-mail: sultamuratovazawre@gmail.com*

Amandurdiyev Dilshodbek Yo'ldashevich

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti,
Geodeziya, kartografiya va tabiiy resurslar kafedrasida stajyor o'qituvchisi,
Nukus, O'zbekiston. E-mail: amandurdiyev96@inbox.ru*

Sabirova Ziynura Allamuratovna

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti,
Geodeziya, kartografiya va tabiiy resurslar kafedrasida stajyor o'qituvchisi,
Nukus, O'zbekiston. E-mail: ziynurasabirova@gmail.com*

GAT TEXNOLOGIYASI YORDAMIDA QORAQALPOG'ISTON YERLARI DEGRADATSIYASINI GEOFAZOVIIY TAHLIL QILISH (QORAO'ZAK TUMAN MISOLIDA)

Annotatsiya: maqolada GAT (Geografik Axborot Texnologiyalari) yordamida Qorao'zak tumanidagi yer degradatsiyasi holatini o'rganish, geofazoviy tahlil qilish va zarur choralarini ko'rish bo'yicha tavsiyalar berish maqsad qilinadi.

Kalit so'zlar: GAT, degradatsiya, eroziya, masofadan zondlash, metama'lumotlar.

ГЕОПРОСТРАНСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ ДЕГРАДАЦИИ ЗЕМЕЛЬ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ТЕХНОЛОГИИ ГИС (НА ПРИМЕРЕ КАРАУЗЯКСКОГО РАЙОНА)

Аннотация: Целью статьи является изучение состояния деградации земель Караозакского района с помощью ГАТ (географических информационных технологий), геопространственного анализа и рекомендаций по принятию необходимых мер.

Ключевые слова: ГИС, деградация, эрозия, дистанционное зондирование, метаданные.

GEOSPATIAL ANALYSIS OF LAND DEGRADATION IN KARAKALPAKSTAN USING GIS TECHNOLOGY (ON THE EXAMPLE OF KARAUZAK DISTRICT)

Abstract: *The article aims to study the state of land degradation in the Kara-Uzak district using GIS (Geographic Information Technologies), conduct geospatial analysis, and provide recommendations for taking necessary measures.*

Keywords: *GIS, degradation, erosion, remote sensing, metadata.*

Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekistonning janubiy-g‘arbiy qismida joylashgan hudud bo‘lib, asosan cho‘l va yarim cho‘l landshaftlariga ega. Mintaqaning iqlimi juda quruq, suv resurslari cheklangan va yerning degradatsiyasi yuqori darajaga yetgan. Yerning degradatsiyasi, ya‘ni uning unumdorligini yo‘qotishi va ekologik muvozanatning buzilishi nafaqat tuproqning fiziologik xususiyatlariga, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Qoraqalpog‘istonda yer degradatsiyasi muammosi ayniqsa, Qorao‘zak tumanida juda dolzarb hisoblanadi. Shuning uchun, bu hududdagi tuproq degradatsiyasi jarayonlarini geofazoviy tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Yer degradatsiyasi – bu yerning tabiiy va inson faoliyati ta‘siri natijasida tuproq unumdorligining pasayishi, ekologik salohiyatning kamayishi va ijtimoiy-iqtisodiy salbiy oqibatlarga olib keladigan jarayonlarni anglatadi. Bu jarayonlar quyidagi asosiy shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin:

- **Tuproq eroziyasi:** Suv yoki shamol ta‘sirida tuproqning yuqori qatlamlarining yuvilishi.
- **Tuzlanish:** Yerning tuzlar bilan to‘lib, uning unumdorligini yo‘qotishi.
- **Kimyoviy degradatsiya:** Tuproqning kimyoviy tarkibining o‘zgarishi, ya‘ni pH darajasining o‘zgarishi, mineral moddalar miqdorining kamayishi.

Qoraqalpog‘istonda tuproq degradatsiyasining eng keng tarqalgan shakllari suv va shamol eroziyasi, tuzlanish va tuzli yerlarning paydo bo‘lishidir. Iqlim sharoitlari (quruq va issiq iqlim) hamda notog‘ri sug‘orish usullari bu jarayonlarning tezlashishiga olib kelmoqda. Yer degradatsiyasi nafaqat tuproq unumdorligining pasayishiga, balki hududdagi ijtimoiy va iqtisodiy muammolarga ham olib keladi, chunki bu yerning qishloq xo‘jaligida foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi.

Tuproq degradatsiyasini o‘rganish, monitoring qilish va tahlil qilishda samarali vosita hisoblanadi. GAT texnologiyalaridan foydalanish orqali yer yuzasidagi o‘zgarishlarni aniqlash, ularni xaritalash va vizualizatsiya qilish mumkin. GAT asosan quyidagi vositalardan tashkil topadi:

❖ **Masofaviy zondlash (Remote Sensing, RS):** Tuproq va vegetatsiya qoplamasining o‘zgarishlarini masofadan kuzatish imkonini beradi. Masofaviy zondlash yordamida sun‘iy yo‘ldoshlar orqali tuproq eroziyasi, tuzlanish, vegetatsiya holatini o‘rganish mumkin.

❖ **Geografik Axborot Tizimlari (GIS):** GAT tizimlari yordamida olingan ma‘lumotlarni geografik xaritalarga joylashtirish, tuproq degradatsiyasining turli shakllarini tahlil qilish va ularni vizual tarzda ko‘rsatish mumkin. GIS yordamida tuzlangan xaritalar, o‘zgargan hududlarni aniqlash va vaqt davomida o‘zgarishlarni kuzatish imkonini beradi.


GAT texnologiyalari yordamida yerning degradatsiyasi holatini tahlil qilish,

uning dinamikasini aniqlash va zarur choralarni ishlab chiqishda samarali natijalarga erishish mumkin.

Qorao'zak tumanining iqlimi quruq va issiq, tuproq tarkibi asosan qumli, texnik va qishloq xo'jaligida ishlatiladigan yerlar ham mavjud. Qorao'zak tumanidagi tuproq degradatsiyasi jarayonlari quyidagi asosiy omillar bilan bog'liq.

Hududda ortiqcha sug'orish usullari natijasida tuproq tuzlanib, uning unumdorligi kamaymoqda. Qumli va yassi hududlarda shamol eroziyasi natijasida tuproqning yuqori qatlamlari yuvilmoqda. Qoraqalpog'istonda so'nggi yillarda iqlim o'zgarishi (yog'ingarchilikning kamayishi, haroratning ko'tarilishi) tuproq degradatsiyasining yanada kuchayishiga olib kelmoqda.

Qorao'zak tumanidagi tuproq degradatsiyasini GAT texnologiyalari yordamida geofazoviy tahlil qilish uchun quyidagi bosqichlarni amalga oshirish mumkin. Landsat yoki Sentinel sun'iy yo'ldoshlaridan olingan tasvirlar yordamida Qorao'zak tumanidagi tuproq qoplamasining holati va vegetatsiya o'zgarishlari o'rganiladi. Masofaviy zondlash ma'lumotlari asosida tuproq eroziyasi va tuzlanishining tarqalishini aniqlash mumkin. GAT tizimi yordamida olingan masofaviy zondlash ma'lumotlari xaritalarga joylashtiriladi. Bu xaritalar yordamida tuproq degradatsiyasining turli shakllarini aniqlash va kuzatish mumkin. Shuningdek, vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishlar yuzaga kelganini tahlil qilish uchun GIS tizimi yordamida dinamik monitoring o'rnatish mumkin.



1-rasm. Qoraqalpog'iston yerlari degradatsiyasi kartasi

Ushbu kartada 2016 va 2020 yillar degradatsiya kartasi ishlangan va solishtirish orqali tahlil qilingan. Bunda MODIS metama'lumotlar asosida yillar oralig'i hisoblangan. Qorao'zak tumanidagi tuproq degradatsiyasini baholashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin. Vegetatsiya holatini baholash va vegetatsiya o'zgarishlarini kuzatish uchun ishlatiladi. Tuproqning eroziyaga uchrash darajasi, eroziya o'lchamlari va intensivligini aniqlash. Tuproqning tuzlanish darajasini va tuzli yerlar tarqalishini baholash.

Qorao'zak tumanidagi tuproq degradatsiyasini kamaytirish uchun quyidagi choralar tavsiya etiladi. Ortqacha sug'orishdan saqlanish va suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash uchun modernizatsiya va innovatsion sug'orish texnologiyalarini joriy etish. Eroziyaga uchragan hududlarda vegetatsiyani tiklash, eroziyaga qarshi maxsus agrotehnologiyalarni qo'llash. Shamol eroziyasiga qarshi to'siqlar o'rnatish, tuproqni himoya qilish uchun o'simliklar ekish. Iqlim o'zgarishiga mos ravishda tuproqni boshqarish va uzoq muddatli ekologik

barqarorlikni ta'minlash.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Qoraqalpog'istonning Qorao'zak tumanidagi tuproq degradatsiyasi muammosi nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. GAT texnologiyalari yordamida tuproq degradatsiyasini geofazoviy tahlil qilish bu muammoni aniqlash, monitoring qilish va samarali choralar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. GAT vositalari yordamida tuproq eroziyasi, tuzlanish va vegetatsiya holatini aniqlash va bu jarayonlarning dinamikasini kuzatish orqali tuproqni saqlab qolish va uni tiklash bo'yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish mumkin. Bu yondashuv, tuproq degradatsiyasiga qarshi kurashish va ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Beltayev, S. (2019). Geografik axborot tizimlarining qishloq xo'jaligida qo'llanilishi. Toshkent: Akademnashr.
2. Bo'riyev, A. & Abduqodirov, S. (2019). Qoraqalpog'istonning tabiiy resurslari va ularni barqaror boshqarish. Nukus: Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va Atrof-Muhitni Muhofaza Qilish Vazirligi.
3. Frolov, M. (2016). Landshaftshunoslik va tuproqshunoslik asoslari. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
4. Jones, C., & Malm, E. (2017). Environmental Monitoring with GIS: A Guide to Using ArcGIS for Ecological and Environmental Applications. Wiley-Blackwell.
5. Karimov, R., & Davronov, M. (2018). Qoraqalpog'iston hududida tuproqning kimyoviy degradatsiyasi va uni tiklash bo'yicha takliflar. Nukus: Qoraqalpog'iston Davlat Universiteti.
6. Kuchkarov, Z., & Isakov, D. (2020). Yer degradatsiyasi va suv resurslarining samarali boshqarilishi: O'zbekiston misolida. "Ekologiya va Resurslar" jurnali, 53(6), 60-68.
7. Maksimov, V., & Kamilov, N. (2019). Qoraqalpog'istonning sug'orish tizimlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Nukus: Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq Xo'jaligi Institutining ilmiy jurnali.
8. Nazarov, A., & Umarov, U. (2018). Tuproq eroziyasi va unga qarshi kurashish choralarning samaradorligi. "Tuproq va Ekologiya" jurnali, 45(2), 50-58.
9. Petersen, A., & Gertsch, C. (2014). Remote Sensing and GIS Applications in Soil Erosion Analysis. Springer-Verlag.
10. Sattarov, A., & Tursunov, M. (2018). Yerning tuzlanishi va unga qarshi kurashish usullari. "Qishloq Xo'jaligi va Ekologiya" jurnali, 42(1), 33-40.
11. Sokolov, V., & Egorov, V. (2017). Masofaviy zondlash texnologiyalari yordamida tuproq eroziyasini tahlil qilish. "Geologiya va Geografiya" jurnali, 38(4), 120-128.
12. Yuldashev, Sh. & Rahimov, B. (2016). Qoraqalpog'istonning iqlim o'zgarishi va uning tuproq degradatsiyasiga ta'siri. "Iqlim va Ekologiya" ilmiy-texnik jurnali, 27(3), 110-120.
13. Zhdanova, E.A. (2015). Geografik axborot tizimlari va masofaviy zondlashning tuproq monitoringidagi roli. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
14. Zhu, X., & Wang, L. (2015). GIS and Remote Sensing Applications in Environmental Management. Springer.
15. Shukurov, A. & Tashpulatov, A. (2017). Qoraqalpog'iston hududidagi tuproq degradatsiyasi va uning ekologik ta'siri. Nukus: Qoraqalpog'iston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.

Hakimov Yaxshimurod Erkinboy o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,

Geodeziya va geoinformatika mutaxassiligi magistranti,

Toshkent, O'zbekiston. E-mail: hakimovyaxshimurod05@gmail.com

Yakubov Gayrat Zaidovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,

Geodeziya va geoinformatika kafedrasi katta o'qituvchisi, g.f.f.d (PhD),

Toshkent, O'zbekiston. E-mail: yakubov1203@gmail.com

AEROKOSMIK TASVIRLARNI TAHLIL QILISHNING OBYEKTGA ASOSLANGAN USULI HAQIDA

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yerni masofadan zondlash yordamida olingan aerokosmik tasvirlarni obyektga asoslangan usulda tahlil qilish (OBIA) texnologiyasining afzalliklari va ba'zi cheklovlari ko'rib chiqilgan. OBIA usuli aerokosmik tasvirlarni yuqori aniqlik va ishonchlilik bilan tasniflash imkonini berishi bilan bir qatorda, maxsus dasturiy ta'minot yoki modullarning, tegishli bilim va tayorgarlikka ega mutaxassislarning hamda tahlil qilishda qo'shimcha ma'lumotlarning zarurligi undan foydalanish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Maqolada ushbu juhatlar bilan bir qatorda OBIA texnologiyasidan foydalanishning ba'zi ilmiy va amaliy masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: OBIA, piksel, Yerni masofadan zondlash, GAT, segmentatsiya, tasniflash, obyekt, eCognition.

ОБ ОБЪЕКТНО-ОРИЕНТИРОВАННОМ МЕТОДЕ АНАЛИЗА АЭРОКОСМИЧЕСКИХ ИЗОБРАЖЕНИЙ

Аннотация: В данной статье рассматриваются преимущества и некоторые ограничения технологии анализа аэрокосмических изображений, полученных с помощью дистанционного зондирования Земли, с использованием объектно-ориентированного подхода (OBIA). Метод OBIA позволяет классифицировать аэрокосмические изображения с высокой точностью и надежностью. Однако его применение может быть ограничено необходимостью использования специального программного обеспечения или модулей, потребностью в специалистах с соответствующими знаниями и подготовкой, а также требованием дополнительных данных для анализа. В статье, помимо вышеупомянутых аспектов, рассматриваются некоторые научные и практические вопросы использования технологии OBIA.

Ключевые слова: OBIA, пиксель, Дистанционное зондирование Земли, ГИС, сегментация, классификация, объект, eCognition.

ABOUT OBJECT-BASED IMAGE ANALYSIS OF AIRBORNE AND SPACE IMAGERY

Abstract: This article discusses the advantages and some limitations of the object-based image analysis (OBIA) technology applied to aerocosmic images obtained through remote sensing of the Earth. The OBIA method allows for the classification of airborne and space imagery images with high accuracy and reliability. However, its application may be limited by the need for special software or modules, the requirement for specialists with the necessary knowledge and training, and the need for additional data for analysis. In addition to the aforementioned aspects, the article also addresses some scientific and practical issues related to the use of OBIA technology.

Keywords: OBIA, pixel, Remote sensing, GIS, segmentation, classification, object, eCognition.

So‘nggi yillarda Yerni masofadan zondlash texnologiyalarining rivojlanishi, ular asosida olinadigan ma’lumotlarning fazoviy, spektral, radiometrik va davriy ko‘rsatkichlari yaxshilanishiga olib keldi. Shu bilan bir qatorda, raqamli Yerni masofadan zondlash ma’lumotlarini qayta ishlash uchun mo‘ljallangan dasturiy ta’minotlarning imkoniyatlari oshib, ma’lumotlarni tahlil qilish jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish imkoniyatini beruvchi usullar va algoritmlarning rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Hozirgi kunda Yerni masofadan zondlash ma’lumotlarini, jumladan raqamli aero yoki kosmik suratlarni tahlil qilishda pikselga asoslangan (pixel based) usullar bilan bir qatorda, obyektga asoslangan usullaridan ham keng foydalanilmoqda. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqot natijalari aerokosmik tasvirlarni, ayniqsa yuqori fazoviy aniqlikdagi tasvirlarni tahlil qilishda obyektga asoslangan usullar pikselga asoslangan usullarga qaraganda asamaraliroq ekanligini va aniqroq natijalarga erishishni ta’minlashi mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Obyektga asoslangan tasvir tahlili ya’ni OBIA (Object Based Image Analysis) Yerni masofadan zondlash sohasida zamonaviy va samarali yondashuvlardan biri bo‘lib, an’anaviy pikselga asoslangan usullardan farqli ravishda u tasvirni segmentatsiya qilish va obyektlar xususiyatlarini tahlil qilish orqali yuqori aniqlikdagi tasniflash natijalarini ta’minlaydi. OBIA pikselga asoslangan yondashuvning cheklovlarini bartaraf etib, tasvirning turi, geometriyasi va teksturasi jihatdan batafsil tahlil qilish imkonini beradi. Quyidagi 1-jadvalda OBIA va pikselga asoslangan tahlil usullarining asosiy farqlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

1-jadval

Jihat	OBIA	Pikselga asoslangan tahlil
Tahlil birligi	Obyektlar asosida	Har bir piksel asosida
Turlar tahlil	Hisobga olinadi	Hisobga olinmaydi
Tasniflash aniqligi	Yuqori	Past yoki o‘rta
Segmentatsiya talab qilinishi	Talab qilinadi	Talab qilinmaydi
Amal qilish sohasi	Ekologiya, qishloq xo‘jaligi, GIS	Oddiy spektral tasniflash


Yuqorida ta’kidlanganidek, tasvirlarni OBIA usulida tahlil qilish birligi bo‘lib segmentlar, boshqacha aytganda obyektlar hisoblanadi. Bunda tasniflash ikkita asosiy bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich – segmentatsiya bo‘lib, unda spektral qiymatlari bir-biriga yaqin bo‘lgan piksellar alohida obyektlarga ajratiladi. Ushbu jarayonda obyektlarning boshqa fazoviy belgilari ya’ni, strukturasi, teksturasi, o‘lchamlari, rangi va shaklini ham e’tiborga olib tahlil qilish mumkin. Segmentatsiyalash jarayonini amalga oshirishdagi eng muhim omillardan biri bo‘lib masshtab hisoblanadi. Belgilangan masshtabdan kelib chiqqan holda tasvir turli o‘lchamdagi obyektlarga ajratiladi. Segmentatsiyalashni bajarishning bir nechta usullari mavjud bo‘lib, ulardan eng keng foydalanadigani ko‘p rezolyusiyali segmentatsiyalashdir (multi-resolution segmentation). Segmentatsiyalashdan keyingi ikkinchi bosqich tasniflash bo‘lib, unda obyektlarning ma’lum bir klassga tegishlilikini belgilanadi.[1]

OBIA usuli yer qoplamasi va yer turlarini (LULC) xaritalash bilan bir qatorda, qishloq xo‘jaligi, ekologiya bo‘yicha monitoring ishlarida, tabiiy ofatlarni baholash kabi ko‘plab amaliy sohalarda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda.[3]

OBIA usulidan foydalanishda qator afzalliklar bilan bir qatorda, ba'zi cheklolarni ham e'tiborga olish zarur. OBIA jarayonlari (segmentatsiya, xususiyatlarni chiqarib olish va tasniflash) murakkab bo'lib, ko'p vaqt va yuqori darajadagi texnik bilim talab qiladi. Segmentatsiyani amalga oshirish uchun optimal parametrlarni tanlash qiyin bo'lib, tasniflash natijasiga bevosita ta'sir qiladi. OBIA, ayniqsa, katta o'lchamdagi yoki yuqori aniqlikdagi tasvirlar bilan ishlaganda katta hisoblash quvvatini talab qiladi. Bu esa kuchli kompyuter resurslari yoki maxsus dasturiy ta'minotdan foydalanishni talab qiladi. [4]

Hozirgi kunda aerokosmik tasvirlarni OBIA usulida tahlil qilishda maxsus dasturiy ta'minot Trimble firmasining eCognition Dasturiy ta'minotidan keng foydalanilmoqda (1-rasm).[5] Shu bilan bir qatorda, Erdas Imagine dasturiy ta'minotining Imagine Objective, PCI Geomatics dasturiy ta'minotining Object Analyst kabi modullaridan foydalanib tasvirlarni OBIA usulida tahlil qilish imkoniyati mavjud.[2]

Tasvirning aniqligi va sifati OBIA jarayonida muhim omil hisoblanadi. Past sifatli yoki bulutli tasvirlar tahlil natijalariga salbiy ta'sir qiladi.



1-rasm. eCognition dasturiy ta'minotining interfeysi

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, OBIA usulining afzalliklari va kamchiliklarini chuqur o'rganish hamda texnologiyaning samaradorligini oshirish yo'nalishida qo'shimcha ilmiy ishlanmalar olib borish maqsadga muvofiq.

Kelajakda OBIA texnologiyasi sun'iy intellekt va mashinani o'qitish usullari bilan birgalikda yanada rivojlanib, uning qo'llanish doirasini kengaytirishi kutilmoqda. Bu esa qishloq xo'jaligi monitoringi, o'rmonlarni kuzatish va urbanizatsiya jarayonlarini tahlil qilish kabi ko'plab sohalarda OBIAning ahamiyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Blaschke, T. (2010). Object-based image analysis for remote sensing. *ISPRS Journal of Photogrammetry and Remote Sensing*, 65(1), 2-16.
2. Baatz, M., & Schäpe, A. (2000). Multiresolution segmentation: an optimization approach for high quality multi-scale image segmentation. In *Angewandte Geographische Informations-Verarbeitung XII*.

3. Lang, S. (2008). Object-based image analysis for remote sensing applications: modeling reality – dealing with complexity. *Object-Based Image Analysis: Spatial Concepts for Knowledge-Driven Remote Sensing Applications*, Springer, 3-27.
4. Object-based image analysis: strengths, weaknesses, opportunities and threats (swot)
5. <https://docs.ecognition.com/v9.5.0/Page%20collection/eCognition%20Suite%20documentation.htm>

Abdumo‘minov Bahodir Odinayevich

Termiz davlat universiteti,

Geografiya kafedrasini mudiri, g.f.f.d (PhD).

Termiz, O‘zbekiston. E-mail: abdumuminovb@tersu.uz

Ashurov Jumanazar Saidkulovich

Termiz davlat pedagogika instituti,

Texnologiya va geografiya kafedrasini o‘qituvchisi.

E-mail: ashurovjumanazar14@gmail.com

**SURXONDARYO VILOYATI RELYEFNING RAQAMLI MODELINI
PANORAMA GIS ASOSIDA YARATISH VA UNDA FOYDALANISH**

Annotatsiya: Mazkur maqolada turli masshtabdagi topografik kartalar va geografik axborot tizimlari yordamida hudud relyefining raqamli modelini yaratish haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: topografik karta, geografiya, GIS, matritsa, 3D model.

**СОЗДАНИЕ ЦИФРОВОЙ МОДЕЛИ РЕЛЬЕФА
СУРХОНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ НА ОСНОВЕ ГИС-ПАНОРАМА
И ЕЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ**

Аннотация: В этой статье представлена информация о создании цифровой модели местности с использованием топографических карт и геоинформационных систем различного масштаба.

Ключевые слова: топографическая карта, география, ГИС, матрица, 3D модель.

**CREATION OF A DIGITAL RELIEF MODEL OF THE
SURKHONDARYA REGION BASED ON GIS-PANORAMA AND ITS
USE**

Abstract: This article provides information on creating a digital model of the terrain using topographic maps of various scales and geographic information systems..

Keywords: topographic map, geography, GIS, matrix, 3D model.


Bugungi kunda hududlarni geografik, geologik, ekologik, landshaft nuqtai nazaridan kompleks tadqiq etishda uning topografik kartalari bilan birga ular yordamida yaratilgan mazkur hududlarning raqamli modellari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Mazkur modellar hudud relyefi haqida batafsil ma’lumotlarni olishga va ularni tahlil qilishda so‘ngi yillarda keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Dastlab hududni tadqiq qilishda uning topografik kartalaridan foydalanilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib fan va texnologiyalarning ishlab

chiqarishga jalb etilishi, shuningdek kompyuter texnologiyalarining keng rivojlanishi ko'plab imkoniyatlar yaratib kelmoqda. Shunday imkoniyatlardan biri kompyuter texnologiyalariga asoslangan zamonaviy geografik axborot tizimlari hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda zamonaviy Geografik axborot tizimlarining ko'plab turlari ishlab chiqarilmoqda. Bunday Geografik axborot tizimlariga ArcGIS, WinGIS, MapInfo, Panorama, QGIS va boshqa ko'plab dasturlarni misol keltirishimiz mumkin. Mazkur dasturiy ta'minotlar rivojlangan AQSh, Kanada, Rossiya, Xitoy va boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilmoqda. Bu dasturlar qulay interfeysga, ko'p funksiyalilik, mavzuli kartalarni yaratish, hududlarni tahlil qilish kabi afzalliklarga ega hisoblanadi [1].

Biror bir hududni tadqiq etishda yaqin yillargacha topografik kartalardan foydalanib kelingan bo'lsa, endilikda zamonaviy geografik axborot tizimlaridan foydalanilmoqda. Shu bilan birga topografik va boshqa ma'lumotlar asosida hududning raqamli modeli asosida tadqiq etish keng imkoniyatlarga egaligini ko'rsatib bermoqda.



1-rasm. Panorama GIS da hudud relyefining raqamli modelini yaratish bosqichlari [2]


Aynan bir hududni tadqiq etishda geografik axborot tizimlarining turli dasturiy ta'minotlaridan va shu bilan birga turli xildagi ma'lumotlardan

foydalanish mumkin. Rossiya davlatida ishlab chiqarilgan Panorama GIS aynan topografik kartalarni yaratish, ularni tahrir qilish, yangilash kabi ishlarni amalga oshirishda ishlab chiqarish va harbiy sohada keng qoʻllanilib kelinmoqda.

Panorama GIS va Surxondaryo viloyati hududdining turli masshtabdagi topografik kartalari asosida hudud relyefining raqamli modelini yaratish mumkin (1-rasm). Buning uchun dastur yordamida quyidagi amaliy ishlar ketma-ketligi bajariladi:

Mazkur texnologik sxemada topografik xaritalar va planlarni skanerlash, rastr tasvirlarni tuzatish va tahrirlash, trapesiya ramkalarini yaratish, ularga topografik xaritalarni bogʻlash, gorizontallarni raqamlashtirish, vektorizatsiya va segmentatsiya jarayonlari, TIN-modelni yaratish, fazoviy vizuallashtirish va koordinatalar tizimlarida ifodalash jarayonlari tizimli bajarilishi keltirilgan. Undan foydalanib respublikamizning boshqa viloyatlaridagi togʻ va togʻ oldi hududlarining raqamli xaritasi va 3 oʻlchamli relyef modellarini ishlab chiqish mumkin [3].

Panorama GIS asosida yaratilgan Surxondaryo viloyati relyefining raqamli modelida chiziqli inshootlarni loyihalash, maydon va hajmi hisoblash, 2 va 3 oʻlchamli modellarda toshqin zonalarni modellashtirish kabi koʻplab amaliy tadqiqotlarni bajarish mumkin (2-rasm).



2-rasm. Surxondaryo viloyati relyefning raqamli modelidan foydalanish: chiziqli inshoot (a) va uning profili (b), maydonli obyektning yuzasi (v), hajmi (g), Toʻpalang suv ombori suv bosish hududlarini modellashtirish 2 oʻlchamli (d) va 3 oʻlchamli (e)

Bundan tashqari relyefning raqamli modelidan geografik va geologik

tadqiqotlarda; landshaftlarni tahlil qilish; ekologik holatni monitoring qilish; aholi manzilgohlarini barpo qilish; qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini tadqiq qilish; gidrogeografiya, irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini loyihalash; chiziqli inshootlar (yo'l, temir yo'l, aloqa liniyalari va h.k) ni tadqiq qilish; tele va radio to'lqinlar tarqalishiga relyefning ta'sirini o'rganish va boshqa tadqiqot ishlarida foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdumuminov B.O. Topografik kartalar va GIS asosida hududning 3D modelini yaratish // Raqamli iqtisodiyotni shakllantirishda ilm-fan va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy etishning dolzarb muammolari mavzusidagi yosh olimlarning XVII respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi materiallari. – Samarqand. 2021. – B. 23-25.

2. Abdumuminov B.O. Geografik axborot texnologiyalari asosida joy relyefining 3 o'lchamli modelini yaratish va tadqiq qilish (Surxondaryo viloyati misolida). Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. – Toshkent: O'zMU, 2022. – 84 b.

3. Мирмахмудов Э.Р., Абдумунинов Б.О. Построение 3D модели рельефа в ГИС ПАНОРАМА по топографическим картам // – Ташкент. “Университет”. 2021. – 40 с.

Abdiraxmonova Maftuna Abror qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,

Geodeziya va geoinformatika kafedrasida magistranti,

Toshkent, O'zbekiston. E-mail: abduraxmonovamaftuna67@gmail.com

Arabov Obidjon Zarip o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,

Geodeziya va geoinformatika kafedrasida katta o'qituvchisi, g.f.f.d. (PhD)

Toshkent, O'zbekiston. E-mail: o.arabov@nuu.uz

O'SIMLIKLAR QOPLAMI MA'LUMOTLARINI TAHLIL ETISHDA MASOFADAN ZONDLASH TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

Annotatsiya: Ushbu maqolada hududning o'simlik qoplami vegetatsiya davri davomidagi barcha turdagi o'zgarishlarni kuzatish va masofadan zondlash ma'lumotlaridan foydalanib kartaga olish haqida takliflar keltirilgan. **Annotatsiya:** Ushbu maqolada hududning o'simlik qoplami vegetatsiya davri davomidagi barcha turdagi o'zgarishlarni kuzatish va masofadan zondlash ma'lumotlaridan foydalanib kartaga olish haqida takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: O'simlik qoplami, masofadan zondlash, NDVI, Landsat.

ПРИМЕНЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ДИСТАНЦИОННОГО ЗОНДИРОВАНИЯ ПРИ АНАЛИЗА ДАННЫХ РАСТИТЕЛЬНОГО ПОКРОВА (НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)

Аннотация: В данной статье представлены предложения по мониторингу и картированию всевозможных изменений растительного покрова территории в течение вегетационного периода с использованием данных дистанционного зондирования Земли.

Ключевые слова: Растительность, дистанционное зондирование, NDVI, Landsat.

APPLICATION OF REMOTE SENSING TECHNOLOGIES IN ANALYSIS OF VEGETATION COVER DATA (EXAMPLE OF KASHKADARYA REGION)

Abstract: *In this article, there are proposals for monitoring and mapping all kinds of changes in the vegetation cover of the area during the vegetation period using remote sensing data.*

Key words: *Vegetation, remote sensing, NDVI, Landsat.*

Bugungi kunda fan va texnikaning shiddat bilan rivojlanishi samarasi o'laroq boshqa sohalarda bo'lgani kabi ta'lim va ilmiy-tadqiqot faoliyati sohasida ham muayyan yutuqlar qo'lga kiritildi va kiritilmoqda. Bu kabi yutuqlarga erishishda barcha turdagi davlat va jamoat tashkilotlari hamda muassasalar bilan bir qatorda oliy ta'lim muassasalari ham faol ishtirok etib kelayotganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda bevosita ushbu soha uchun davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan keng imkoniyatlarning yaratilishi ilmiy tadqiqot faoliyatini ishlab chiqarish bilan o'zaro bog'liq holda tashkil etish va amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning to'raligicha bajarilishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri bu o'simliklar qoplami ma'lumotlarini tahlil etishda masofadan zondlash texnologiyalarini qo'llash hisoblanadi. Rivojlanib borayotgan va barcha tarmoqlarni raqamli ko'rinishga o'tkazilib borilayotgan bir paytda o'simliklar qoplami va tuproq qatlamlari ma'lumotlarini tahlil etishda masofadan zondlash texnologiyalarini qo'llash dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin. Ya'ni bunda o'rganilayotgan obyekt bo'yicha uch o'lchamli raqamli xarita yaratiladi. Qishloq xo'jaligi ishlari uchun Qashqadaryo viloyati hududi o'simliklar qoplami ma'lumotlarini tahlil etishda masofadan zondlash texnologiyalarini qo'llash zaruriyati kun tartibidagi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shuningdek, Qashqadaryo viloyatidagi tuproq degradatsiyasini monitoring qilish uchun masofadan zondlash texnologiyalaridan foydalanish tuproq sifatini saqlash va tiklash uchun muhimdir.


Tadqiqot objekti bo'lib, Qashqadaryo viloyati hududi tanlab olindi. Ushbu hududni tanlashdan maqsad hududda o'simliklar qoplaminin turlicha tarqalganligi, hududning relyefi ham tog'lar, tekisliklar hamda adirlardan iborat ekanligi uning yer yuzida tadqiqotlar olib borilishini biroz murakkablashtiradi. Shu sababli bu hudud uchun dolzarb bo'lgan o'simliklar qoplami ma'lumotlarini tahlil etishda masofadan zondlash texnologiyalarini qo'llash rejalashtirildi.

Tadqiqotning maqsadi masofadan zondlash texnologiyalari (MZT) dan foydalangan holda hududning o'simliklar qoplamlarini tahlil qilish bo'lib, Qashqadaryo viloyati misolida ushbu texnologiyalarni qo'llashning ayrim jihatlari ko'rib o'tiladi.

Tadqiqot doirasida dunyoda olimlardan, jumladan, amerikalik olim Doktor Rey D. Jekson nomiga bag'ishlangan "Remote sensing of soils and vegetation (Tuproq va o'simliklarni masofadan zondlash)" nomli seminarida tuproq va o'simliklarni masofadan zondlash bo'yicha juda ko'plab bajarilgan ishlar keltirilgan [1]. Seminar to'plamida chop etilgan Gasseem Asrar va Ranga B. Meynenining "Optical remote sensing of vegetated surface state variables through sensitivity analysis and model inversion (Sezuvchanlik tahlili va model inversiyasi orqali o'simlik sirt holati o'zgaruvchilarini optik masofadan zondlash)" nomli maqolasida ham o'simliklar qoplami tahlili va sezuvchanlik holatini optik masofadan zondlash ishlari bo'yicha tadqiqot olib borgan [1].



1-rasm. Qashqadaryo viloyati ma'muriy kartasi



2-rasm. Sun'iy yo'ldoshdan olingan tasvir

Sun'iy yo'ldosh tasvirlaridan hisoblangan o'simlik indeksleri o'simlik bilan bog'liq vaqtinchalik o'zgarishlarni ham kuzatish uchun foydalaniladi.

Normallashtirilgan o'simlik farqi indeksi (NDVI) sun'iy yo'ldosh ma'lumotlarining aks ettiruvchi diapazonlari asosida o'simlik qoplamini baholash uchun mo'ljallangan.

NDVI qiymati quyidagicha aniqlanadi: $NDVI = (NIR - R) / (NIR + R)$

bu yerda: NIR - yaqin infraqizil diapazon qiymati, R - qizil diapazon qiymati.

Bundan tashqari, NDVI qiymatlari ikki xil sana orasidagi o'zgarishlarini aniqlash uchun ishlatilishi [2]. Masofadan zondlash ma'lumotlari va fazoviy tahlil usullarining rivojlanishi tobora ortib borayotganligi sababli, geofizik usullar va masofadan zondlash integratsiyasi geologik jarayonlar va atrof-muhit dinamikasi haqidagi tushunchamizni sezilarli darajada yaxshilashga imkon beradi [3].

Xulosa o'rnida, Qashqadaryo viloyatida masofadan zondlash texnologiyalarini qo'llash o'simliklar qoplamining tahlilini yanada aniqroq va samaraliroq qilish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, mintaqadagi resurslardan samarali foydalanish va ekologik holatni yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, buning asosida amaliyotda masofadan zondlash texnologiyalari yordamida olingan ma'lumotlar qishloq xo'jaligi ekinlarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga va sug'orish jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi. Olingan masofadan zondlash ma'lumotlarini GIS (Geografik axborot tizimi) bilan birlashtirib, o'simlik qoplami bo'yicha grafik va xaritalar hosil qilish imkonini beradi. Bu esa hududiy tahlil va qaror qabul qilish jarayonlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Pinter P. and Moran S. Remote sensing of soils and vegetation. A workshop to explore applications of remote sensing technology for the evaluation and management of environmental resources and honoring the contributions of Dr. Ray D. Jackson. Workshop Organization by 6-8 January 1993.

2. Chukwu G. U., Ijeh B. I., Olunwa K. C. Application of Landsat imagery for landuse/landcover analyses in the Afikpo sub-basin of Nigeria// International Research Journal of Geology and Mining (IRJGM) –2013. –3(2). –P. 67-81.

3. Dey S., Sarkar P. Vegetation covers as indicator of seismo-tectonic environment: an integrated geophysical study in north Baromura hill, India // Environ Earth Sci.–2012. –67. –2469–2481. <https://doi.org/10.1007/s12665-012-1697-9>.

Gulov Shohruh Muxiddin o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,

“Geodeziya va geoinformatika” kafedrası o'qituvchisi.

Toshkent, O'zbekiston, e-mail: gulovshokhrukh702@gmail.com

Qo'yliyeva Madina Bobomurod qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,

“Kartografiya” kafedrası magistranti.

Toshkent, O'zbekiston, e-mail: madinaquyliyeva5@gmail.com

**SHAHARLARNI KENGAYTIRISH VA YANGI SHAHARLAR BARPO
QILISHDA GEODEZIK USULLAR HAMDA GIS
TEXNOLOGIYALARINI QO'LLAB GEOEKOLOGIK
JARAYONLARNI XARITAGA OLISH**

Annotatsiya: Geografik axborot tizimlari (GIS) va texnologiyalar asosida ma'lumotlarning fazoviy tahlilini modellashtirishga asoslangan tezkor ma'lumotlarni identifikatsiyalash bo'yicha tahliliy ishlar talab qilinadi. Natijada GIS texnologiyalari yordamida tuproq, suv, havo va boshqa tabiiy resurslarning monitoringi amalga oshirilib, shahar rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi yechimlarni, shaharlarda geoeologik muhit, shahar aholisining va ekologik muhitini dinamikasi, shahar joylashuvining relyefga bog'liqligi, bandlik kabi geoeologik jarayonlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni fazoviy tahlil qilish orqali analitik ishlarni amalga oshirish mumkin. Tadqiqotda GPS-navigatori va “Geodezist” dasturiy ta'minotidan olingan ma'lumotlarni geolokatsiyalash yo'llari sohadagi turli geoeologik jarayonlarni, shu jumladan onlayn rejimda geoeologiyaga oid ma'lumotlarni GIS texnologiyasi ma'lumotlar bazasiga avtomatik masofadan uzatishga va shahar ekologiyasini yaxshilash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan. Maqola shaharsozlik va geoeologiya bo'yicha ilmiy izlanish olib borayotgan mutaxassislar uchun foydali ma'lumotlar manbai bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. GIS (Geografik axborot tizimlari), ma'lumotlar bazasi, GPS, dron, ekologik muhit, geoeologik xarita.

**КАРТОГРАФИРОВАНИЕ ГЕОЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ С
ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ГЕОДЕЗИЧЕСКИХ МЕТОДОВ И ГИС-
ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ РАСШИРЕНИИ ГОРОДОВ И СОЗДАНИИ
НОВЫХ ГОРОДОВ**

Аннотация: Требуется аналитическая работа по быстрой идентификации данных на основе моделирования пространственного анализа данных на основе географических информационных систем (ГИС) и технологий. В результате мониторинг почвы, воды, воздуха и других природных ресурсов осуществляется с помощью ГИС-технологий, решений, которые положительно влияют на городское развитие, геоэкологические процессы в городах, динамику городского населения и экологическую среду. Установление зависимости местоположения города от местности, занятость аналитической работы можно провести путем пространственного анализа описательных данных. В исследовании методы геолокации данных, полученных с помощью GPS-навигатора и программного обеспечения «Геодезист», направлены на различные геоэкологические процессы на местах, в том числе на автоматическую дистанционную передачу геоэкологических данных в базу данных ГИС-технологий в онлайн-режиме. улучшение городской экологии и рациональное использование природных ресурсов. Статья служит источником

полезной информации для специалистов, проводящих научные исследования в области градостроительства и геоэкологии.

Ключевые слова: ГИС (географические информационные системы), база данных, GPS, дрон, экологическая среда, геоэкологическая карта.

MAPPING OF GEOECOLOGICAL PROCESSES USING GEODESIC METHODS AND GIS TECHNOLOGIES IN CITY EXPANSION AND NEW CITY ESTABLISHMENT

Abstract: Analytical work on rapid data identification based on modeling of spatial analysis of data based on geographic information systems (GIS) and technologies is required. As a result, monitoring of soil, water, air and other natural resources is carried out with the help of GIS technologies, solutions that have a positive effect on urban development, geoeological processes in cities, the dynamics of the urban population and ecological environment, the dependence of the city location on the terrain, employment analytical work can be done through spatial analysis of descriptive data. In the study, the methods of geolocation of data obtained from the GPS-navigator and the software "Geodezist" are aimed at various geoeological processes in the field, including the automatic remote transfer of geoeological data to the database of GIS technology in the online mode, and the improvement of urban ecology and the rational use of natural resources. The article serves as a source of useful information for specialists conducting scientific research on urban planning and geoeology.

Keywords: GIS (Geographic Information Systems), database, GPS, drone, ecological environment, geoeological map.

Kirish. Aholi sonining o'sishi bilan shaharlarning kengayishi va yangi shaharlar qurilishi zarurati yuzaga kelmoqda. Bu jarayonlarda geoeologik muhitga zarar yetkazmaslik va shaharlarni barqaror rivojlantirish masalalari **dolzarb** bo'lib turibdi. Ushbu maqolani **maqسادi** shaharlar kengaytirilishi va yangi shaharlar barpo qilinishi jarayonida GIS texnologiyalarining geoeologik jarayonlarni xaritalashdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi.

GIS texnologiyalari haqida umumiy tushuncha: GIS (Geografik axborot tizimlari) texnologiyalari fazoviy va atribut ma'lumotlarni tahlil qilish va xaritalash imkonini beradi. Shahar qurilishida GISning ahamiyatiga to'xtaladigan bo'lsak. GIS texnologiyalari orqali shahar infratuzilmasi, transport yo'llari, yashash hududlari va ekologik muhitning monitoringi samarali amalga oshiriladi. Geoeologik xaritalashda, GIS yordamida tuproq, suv, havoning holati, yer yuzasining o'zgarishlari va ekotizimlarning monitoringini olib borish mumkin.

GPS-navigator ma'lumotlar bazasiga markaziy meridianning koordinatalari va koeffitsientlarini to'g'rilang. Geolokatsiya jarayoni - GPS-navigator yordamida obyektning haqiqiy geografik joylashuvini aniqlash, shuningdek, ma'lum bir hududning kenglik va uzunlik koordinatalarini ko'rsatadigan joylashuv haqida kerakli ma'lumotlarni olish (1-rasm).

Dunyoning yetakchi kompaniyalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan zamonaviy geodeziya qurilmalari geodeziya, kartografiya va kadastr sohasida katta ahamiyatga ega. Zamonaviy optik elektron qurilmalar, GPS, dronlar va elektron raqamli navigatorlar ishlab chiqariladi. Bugungi kunda ishlab chiqarish korxonasi va tashkilotlari zamonaviy geodeziya asboblari, jumladan, GPS qabul

qiluvchi qurilmalardan foydalanmoqda [1, 2].

Bugungi kunda ko‘plab ishlab chiqarish tashkilotlari Magellan (Ashtech) bir chastotali GPS navigatorlaridan foydalanadilar. Bu navigatorlar yerdan foydalanuvchilar tomonidan qishloq xo‘jaligi yerlarini tekshirish va yer hisobining mohiyatini aniqlash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshiradi. Magellan navigatori faollashtiriladi va sozlamalar navigator joylashgan koordinata zonasi asosida o‘rnatiladi (2-rasm).

Yuqoridagi fikrlarimizda biz Magellan Pro Mark 3 GPS-navigatorlarini geoeologik ma‘lumotlarni masofadan uzatishning samarali usuli sifatida qabul qildik. Ushbu sohada demografik ma‘lumotlarni yig‘ishda ushbu qurilmani mintaqaviy hokimiyat va mutaxassislardan sotib olish kerak. Magellan Pro Mark 3 GPS-navigatorining o‘rtacha narxi 6000 dollarni (AQSH dollari) tashkil etsa, birgina Qashqadaryo viloyatining 14 tumanida har bir tumanga bittadan qurilma o‘rnatilgan bo‘lsa, uning qiymati 84 ming dollarni tashkil etadi. Mamlakat bo‘ylab jami 167 ta tuman mavjud bo‘lsa-da, barcha tumanlardagi amaldorlarni Magellan Pro Mark 3 GPS navigatori bilan ta‘minlash uchun taxminan 1 million dollar kerak bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqotni zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalangan holda olib borishda “Geodezist” Android ilovasidan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi. Geodezist dasturiy ta‘minoti GAT texnologiyasi ma‘lumotlar bazasiga ma‘lum bir joy uchun geoeologik ma‘lumotlarni (GIS yordamida shahar aholisining va ekologik muhitini dinamikasi, tuproq, suv, havoning holati, yer yuzasining o‘zgarishlari va ekotizimlarning monitoringini, shahar joylashuvining relyefga bog‘liqligi va boshqalar) muntazam ravishda masofadan onlayn ravishda olib borish mumkin. Masalan, hududda tabiiy ofatlar (bo‘ron, suv

toshqini, qor ko‘chkisi) xavfi yuzaga kelganda aholi to‘g‘risidagi barcha ma‘lumotlarning aniqlanishi va evakuatsiya tadbirlari va boshqa



1 va 2-rasmlar. Magellan Pro Mark 3 GPS-navigatori va O‘zbekiston Respublikasi zonarlari va ustunlari nomenklaturasi

O‘zbekiston Respublikasining geografik joylashuviga ko‘ra 4 ta zona va 4 ta ustun, 10 N, 11 N, 12 N va 13 N zonarlari (Shimoliy-Shimoliy) ustunlar 40, 41-ustunlar oralig‘ida joylashgan.

42 va 43. Merkator bo‘ylab markaziy meridian 10 N zonasi uchun 100, 11 N zonasi uchun 630, 12 N zonasi uchun 690 va 13 N zonasi uchun 750 ga teng.

41 va 42-sonli hududlarning janubiy mintaqadagi (Qashqadaryo va

Surxondaryo viloyatlari) ustunligini inobatga olgan holda, GPS-navigatrlar yordamida olingan geolokatsiya ma'lumotlarini yuqori aniqlikdagi tenglashtirishda 11 N va 12 N zonalarining koefitsient tuzatishlari kiritiladi. 11 N zonali tuzatishlar Merkatorning markaziy meridiani uchun 630 va 12 N zonasi uchun 690 qiymatidagi koefitsientlar berilgan.

Surxondaryo viloyatining geografik o'rni to'liq 12 N zonasida joylashganligi sababli sozlash markaziy meridian (Merkator) qiymatidan kelib chiqqan holda amalga oshirildi 690. Qashqadaryo viloyatining 143 km 831,07 metr masofadagi qismi. 690 haqiqiy meridiandan g'arbda 11 N zonasida, Qashqadaryoning bir qismi. viloyati 190 km 204,43 metr masofada 12 N zonasida joylashgan. Qashqadaryo viloyatida esa tuzatish kiritish tavsiya etiladi [8, 11, 12].


Material va usullar. Geodezik-kartografik usullar: GPS va dronlar orqali yerdagi topografik o'zgarishlarni aniq kuzatish va xaritalash mumkin.

Navigatrlarning zona parametrlarini sozlash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi (4-rasm).


ArcGIS dasturini kompyuteringizga o'rnatish orqali Mercatorga nisbatan zonalarining markaziy meridian koefitsientlarini tuzatishni aniqlash va ularni navigatrlar sozlamalariga kiritish kerak, buning uchun quyidagi amallar bajariladi:

Birinchidan, asosiy menyudagi "Sozlamalar" buyrug'ini bosib, so'ng paydo bo'lgan menyudan "Tizim koordinatalarini tanlash" bandini tanlang. Natijada ishchi oynada oyna paydo bo'ladi. Oynada "Yangi" qatorini tanlang (5-rasm).

"Tizim koordinatalarini tanlash" nomi ostida yaratilgan oynada "Yangi" qatorini tanlang va "Master koordinata tizimi sozlamalari - Xush kelibsiz!" tuzatish oynasi paydo bo'ladi (4-5-rasmlar).





3-rasm. ArcGIS ish oynasi



4-rasm. Koordinata tanlash oynasi

Ushbu oynada "Oldindan o'rnatilgan tizimni tanlash"ni tanlang va "Keyingi" tugmasini bosib. ROSSIA-PULKOVO 1942-ROSSIA / PULKOVO 1942 / Gauss-Kruger CM 69E liniyasi ish maydoniga qarab tanlanadi va Gotovo tugmasi bosiladi (5-6-rasmlar).

"Tizim koordinatalarini tanlash" oynasidan tasvirdagi aylana ko'rinishidagi tugmani bosib va Merkator bo'ylab markaziy meridian tuzatishlarini ko'rsating (6-rasm).

	
<p>5-rasm. Koordinata birligini tanlash oynasi</p>	<p>6-rasm. Tizim koordinatasini tanlash oynasi</p>



Birinchi xatboshiga ko‘ra, tuzatishlar navigatorning sozlash menyusidan “Tizim koordinatalari” qatoriga kiritilgandan so‘ng “Datum” tuzatishlariga kiritiladi [8].

Ma’lumotlarga o‘zgartirishlarning kiritilishi batafsil kiritilishi kerak bo‘lgan tuzatishlar tavsifi bilan quyidagi jadvalda keltirilgan. Ushbu jadvalda bajarilishi kerak bo‘lgan barcha ishlar rasmlarda ko‘rsatilgan.

Yuqoridagi ketma-ketlik yordamida navigatorning koordinata tizimi sozlamalariga tuzatishlar kiritiladi. Yuqoridagi tuzatishlar geolokatsiya ma’lumotlarini olishda navigatorning tekislash operatsiyalarini mukammal bajarishini ta’minlaydi [6].

Geoekologik ma’lumotlarni o‘rganishda joylashuv koordinatalari navigator yordamida geolokatsiya yordamida aniqlanadi va ma’lumotlar bazasi (server) bilan integratsiyalashgan aloqa vositasida belgilangan nuqta ko‘rinishidagi geolokatsiya shakllanadi va uzatiladi [7].

1-jadval.

Navigator sozlamalari menyusida, ellipsoidni tuzatish, vizualizatsiya kabi funktsiyalar.			
<p>1. ProMark MAGELLAN (Ashtech) GPS-navigatori</p>		<p>2. ProMark MAGELLAN (Ashtech) GPS Navigator konfiguratsiya menyusida 1-ellipsoid sozlash oynasi</p>	
<p>3. Koordinatra va vizualizatsiya oynasi</p>			


Tadqiqot natijalarida biz zich joylashgan hududlarni modellashtirish jarayonini ko‘rib chiqamiz. Avvalo, yaratilgan modelning vazifasini aniqlaymiz.

belgilash kerak. Masalan, ushbu tizim hududiy chegaralarning geografik joylashuvini o'rganish kabi ko'plab masalalarni aniqlashga keng imkoniyat yaratadi. Buning uchun hududiy chegaralarning geografik joylashuvini o'rganish zarur geodeziya asboblari yordamida aniqlanadi va vektor shaklida shakllantiriladi. Shahar aholi punktlarida toza ekologik muhit yaratish maqsadida geokologiyaga tegishli statistik ma'lumotlar aniqlanib, geokodlanadi. Aniqlangan ma'lumotlar maxsus dasturlar yordamida amalga oshiriladi. Yaratilgan ma'lumotlar ma'lumotlar bazasiga onlayn tarzda yuboriladi. Butun mamlakat bo'ylab qabul qilingan vektor geokodlari ArcGISga import qilinadi. Model Builder oynasidan foydalanib, mavzuli qatlamlar ketma-ket yoki zanjirdagi asboblari paneli buyruqlariga ulanadi [8].

Natijalar va ularning muhokamasi. Ishga tushirish tugmasi yordamida yaratilgan model tekshiriladi va jarayonni boshlash buyrug'i beriladi. Natijada, tahlil dasturning ishchi oynasida ingl. Bir necha turdagi tahlillar mavjud va ular:

- aholining umumiy soniga nisbatan hududlardagi zichlik;
- shahar aholisining va ekologik muhitini dinamikasi;
- turlarning gistogrammasi;
- shahar joylashuvining relyefga bog'liqligi;

- barcha geokologik jarayonlarni tavsiflovchi fazoviy tahlil, masalan, aholi yashashiga qulay (ekologik toza) zonalarini aniqlash. Bundan tashqari, "Geostatistik tahlilchi" buyrug'i yordamida hududlarning urbanizatsiya jarayonini kuzatishimiz mumkin.



7-rasm. Turar joy markazlarini geokodlash jarayoni

Tayyor model algoritmi alohida nomlanadi. Modellar odatda asboblari bo'limida saqlanadi. Foydalanish qulayligi uchun u asosiy menyuga kiritilishi kerak. Ko'rib chiqilayotgan shartlar bo'yicha oynada ko'rsatilgan shartga muvofiq populyatsiya uchun qiymatlarni kiritamiz va OK tugmasini bosamiz. Natijada, ekranda tahlil jarayonlarini ko'rsatadigan oyna paydo bo'ladi. Bu model

ishlayotganligini ko'rsatadi. Tahlil paytida xatolik kuzatilsa, oynada qizil ogohlantirishlar ko'rsatiladi.

Xulosa. GIS texnologiyalari yordamida geoeologik jarayonlarni monitoring qilish va xaritalash orqali shaharlar barqaror rivojlantirishga katta hissa qo'shish mumkinligi haqida umumiy xulosalar.

Navigatorning koordinata tizimi sozlamalariga o'zgartirishlar kiritiladi va bu sozlashlar geolokatsiya ma'lumotlarini olishda navigatorni mukammal darajada tekislaydi. Saytning koordinatalari geolokatsiya asosida aniqlangan. Raqamli geoeologik ma'lumotlar bazasi (server) bilan integratsiyalashgan holda, yuqori aniqlikdagi zamonaviy ma'lumotlarni uzatish mumkin.

Elektron raqamli xaritalar bugungi kunda geoeologik muammolarni xal qilish uchun istiqbolli chora-tadbirlarni aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, GIS texnologiyalari tezkor ma'lumotlarni yig'ish va ma'lumotlar bazasini shakllantirish uchun asos yaratadi.

Innovatsion texnologiyalar joriy etilishi bilan joylarda yangi ma'lumotlar asosida mahalliy mutasaddilar yoki mutaxassislardan onlayn rejimda statistik ma'lumotlarni olish va uni geoma'lumotlar bazasi bilan integratsiyalash orqali geoeologik jarayonlarni doimiy monitoring qilish va tartibga solish imkoniyati yaratiladi.

Geografik axborot tizimlari va texnologiyalari asosida ma'lumotlarning fazoviy tahlilini modellashtirish asosida ma'lumotlarni tezkor identifikatsiyalash bo'yicha tahliliy ishlar amalga oshirildi. Natijada GIS texnologiyalari yordamida hududlarda aholi zichligi, shahar infratuzilmasi, transport yo'llari, yashash hududlari va ekologik muhitning monitoringi, aholi joylashuvining relyefga bog'liqligi kabi geoeologik jarayonlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni fazoviy tahlil qilish orqali analitik ishlarni amalga oshirish mumkin [8].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Muborakov H. Geodeziya. – Toshkent.: O'zMU, 2021. – 483 b.
2. Нурматов Э., Ўтанов Ў. Геодезия - Тошкент.: Ўзбекистон, 2002.
3. Федотов Г.А. Инженерная геодезия - М.: Выс. школ., 2004 – 463 с.
4. Laser Scanning. Milan Horemuz. Austriya Zalzburg. 2014 - 41 p.
5. Amershi S, Begel A, Bird C, DeLine R, Gall H, Kamar E, Nagappan N, Nushi B and Zimmermann T 2019 Software Engineering for Machine Learning: A Case Study Proc. – 2019
6. Maarseveen M, Martinez J, Flacke J, van Maarseveen M, Martinez J and Flacke J – 2019 GIS in Sustainable Urban Planning and Management
7. Lahoti S, Kefi M, Lahoti A and Saito O 2019 Mapping Methodology of Public Urban Green Spaces Using GIS: An Example of Nagpur City, India Sustainability 11 2166
8. Gulyamova L. X. Geografik axborot tizimlari va texnologiyalari. Darslik. – T.: "Universitet", 2018. - 188 b.
9. Avezbayev S., Avezbayev O. Geoma'lumotlar bazasi va arxetekturasi. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA"- 2016. - 216 b.
10. <http://www.google.com/ru>
11. <http://www.google.com/ru>
12. <http://www.dissertant.uz/uzb/>

Ramanova Tumaris Tileubergen qizi

National University of Uzbekistan,

Faculty of Geography and Geoinformation Systems,

4th year student of Geodesy, Cartography and Cadastre.

E-mail: tumarisramanova@mail.ru

Abdullaev Ilkhomjon Uktamovich

National University of Uzbekistan,

Faculty of Geography and Geoinformation Systems,

Senior teacher at the Department of Geodesy and Geoinformatics.

E-mail: ilkhomjon.abdullaev@gmail.com

LAND SURFACE TEMPERATURE ANALYSIS IN TASHKENT USING LANDSAT 9 DATA

Abstract: *Land Surface Temperature (LST) is an important parameter for understanding urban heat dynamics, environmental management, and urban planning. This study investigates the spatial and temporal variations of LST in Tashkent, Uzbekistan, by analyzing Landsat 9 (2019 and 2024) imagery. The methodology involves calculating Top of Atmosphere (TOA) Radiance, Brightness Temperature (BT), Normalized Difference Vegetation Index (NDVI), Proportion of Vegetation (PV), and Surface Emissivity, culminating in the derivation of LST. Data processing and visualization were conducted using ArcGIS Pro, with results indicating significant increases in LST across urban areas and an expansion of heat-affected zones over time. Dense vegetation areas consistently exhibited lower LST values, while urbanized regions experienced higher temperatures, intensifying the urban heat island effect. This research highlights the value of mapping LST for sustainable urban growth. It offers practical ideas, such as improving vegetation and urban design, to reduce heat stress. The results can help develop policies to make Tashkent more climate-resilient.*

Keywords: *Land Surface Temperature, Urban heat islands, NDVI, emissivity, Landsat 9, Brightness Temperature.*

Introduction. Land Surface Temperature (LST) refers to the temperature of the Earth's surface and plays a crucial role in understanding the Urban Heat Island (UHI) effect. By calculating LST, it is possible to identify hotspots and analyze heat distribution patterns. The UHI effect occurs when urban areas experience higher temperatures than surrounding rural regions due to human activities and the prevalence of built environments.

Tashkent, the capital of Uzbekistan, has undergone significant urbanization in recent years, characterized by rapid expansion of infrastructure, growing population density, and a rise in impervious surfaces. This urban growth has led to environmental challenges, including higher surface temperatures and localized heat stress, which can affect human health, energy consumption, and overall urban sustainability. Mapping and analyzing LST in Tashkent is essential to identify temperature hotspots, understand heat patterns, and explore the influence of urban features on thermal variations. Addressing these issues is crucial for developing strategies to mitigate the UHI effect and enhance Tashkent's environmental resilience.

Methods. Tashkent, the capital of Uzbekistan, is located in Central Asia at approximately 41.3°N latitude and 69.3°E longitude. The city lies in a flat terrain

region at an elevation of around 450 meters above sea level. It covers an area of approximately 335 square kilometers and is characterized by a continental climate, with hot, dry summers and mild, wet winters.

Tashkent has experienced rapid urban growth in recent years, marked by an increase in impervious surfaces such as roads, buildings, and industrial zones. These changes, coupled with limited green spaces in some areas, contribute to the city's vulnerability to the Urban Heat Island effect. Despite urbanization, Tashkent retains a mix of urban and vegetated land cover, with parks and tree-lined streets providing cooling effects in specific zones. This diversity of land use makes Tashkent an ideal location for studying spatial and temporal variations in Land Surface Temperature. (Fig. 1)

The analysis aims to compare spatial and temporal variations in land surface temperature (LST) between 2019 and 2024, highlighting changes over time.




Fig. 1. Area of interest

Data sources. This study utilized satellite imagery from Landsat 9, acquired from the United States Geological Survey (USGS) Earth Explorer platform. Landsat 9 provides high-quality data for analyzing both thermal and reflective properties of the Earth's surface, making it suitable for Land Surface Temperature (LST) analysis. Thermal Bands include Band 10 (for calculating Brightness Temperature) and Reflective Bands Band 4 (Red) and Band 5 (NIR) for NDVI calculations.

The study utilizes Landsat 9 (2019 and 2024) satellite imagery, acquired from the United States Geological Survey (USGS) Earth Explorer platform. The images were pre-processed to Level 1 and selected with a cloud cover range of 0-10% to ensure high-quality analysis. (Fig. 2)

The thermal and reflective data from Landsat 9 enabled the calculation of Brightness Temperature, NDVI, Proportion of Vegetation, Surface Emissivity, and Land Surface Temperature. These datasets provided the foundation for understanding spatial and temporal thermal patterns in Tashkent.

In the first step of calculating LST for Tashkent, the Top of Atmosphere (TOA) spectral radiance was calculated using the formula:

$$TOP(L) = ML * QCAL + AL$$

Where: ML = Band- specific multiplicative rescaling factor from the metadata

(RADIANCE_MULT_BAND_x, where x is the band number).

Qcal = corresponds to band 10.

AL=Band - specific additive rescaling factor form the metadata (RADIANCE_ADD_BAND_x, where x is the band number).

In the second step, the TOA radiance was converted to Brightness Temperature (BT) using the formula:

$$BT = (K2 / (\ln(K1/L) + 1)) - 273.15$$

Where: K1 = Band-specific thermal conversion constant from the metadata (Fig 3.)

(K1_CONSTANT_BAND_x, where x is the thermal band number).

K2= Band-specific thermal conversion constant from the metadata

(K2_CONSTANT_BAND_x, where x is the thermal band number)




Fig. 2. Data source (USGS)

Brightness Temperature is the temperature of a surface as measured by the thermal infrared sensor on a satellite, based on the amount of radiation it emits. It is not the actual physical temperature but an approximation derived from the emitted energy, which is later used as a key step in calculating the Land Surface Temperature (LST).




Fig. 3. Band-specific thermal conversion constant from the metadata

The calculation of the Normalized Difference Vegetation Index (NDVI) is a critical step in deriving vegetation-related parameters from remote sensing data.

According to Sobrino et al. (2004), NDVI is calculated using the reflectance values from the near-infrared (NIR) and red (R) bands of Landsat imagery. The formula is given as:

$$\text{NDVI} = (\text{NIR} - \text{R}) / (\text{NIR} + \text{R})$$
$$\text{NDVI} = (\text{Band 5} - \text{Band 4}) / (\text{Band 5} + \text{Band 4})$$

This index is fundamental for estimating vegetation cover and conditions, as it differentiates vegetation from other surface features based on spectral reflectance.

Following the NDVI calculation, the Proportion of Vegetation (PV) is determined to quantify the extent of vegetation cover. As outlined by Sobrino et al. (2004), PV is derived using the normalized NDVI values, calculated as:

$$Pv = \text{Square}((\text{NDVI} - \text{NDVI}_{\text{min}}) / (\text{NDVI}_{\text{max}} - \text{NDVI}_{\text{min}}))$$

Here, NDVI_{min} and NDVI_{max} represent the minimum and maximum NDVI values observed in the study area. This approach allows for an accurate representation of vegetation density, which is essential for further emissivity corrections and land surface temperature retrieval.

To accurately calculate Land Surface Temperature (LST) from satellite imagery, it is essential to determine surface Emissivity (ϵ) as a critical parameter. Emissivity is derived from the proportion of vegetation (Pv) using the following relationship:

$$\epsilon = 0.004 * Pv + 0.986$$

Simply apply the formula in the raster calculator, the value of 0.986 corresponds to a correction value of the equation.

Once the emissivity is calculated, the Land Surface Temperature (LST) is retrieved using the following equation:

$$L = (BT / (1 + (0.00115 * BT / 1.4388) * \ln(\epsilon)))$$

Results. The results of the study illustrate significant changes in land surface temperature (LST) distribution in Tashkent between 2019 and 2024. The LST maps generated for these years highlight spatial variability across the study area and a notable increase in surface temperatures in several urban zones over the five-year period. (Fig. 4)

In 2019, the LST values ranged predominantly between 24–35°C, with cooler areas concentrated in regions with vegetation and water bodies. The green areas on the map correspond to relatively low temperatures (24–31°C), indicating the presence of parks, agricultural lands, and other vegetated zones. In contrast, higher temperature values, ranging between 35–44°C, were observed in urbanized and industrial zones, especially along major roads and densely built-up areas.

By 2024, the LST map shows a noticeable expansion of high-temperature zones (red areas, 37–44°C), particularly in urban centers and newly developed industrial regions. The cooler zones have shrunk, likely due to urban expansion and loss of green cover. This spatial shift suggests a significant impact of urbanization on the thermal environment of the city.

The comparison between 2019 and 2024 highlights an intensification of the urban heat island (UHI) effect. The areas with the highest LST values are consistently associated with built-up environments and areas of reduced vegetation. The difference in temperatures between urban and surrounding rural areas was more

pronounced in 2024, indicating a worsening of the UHI effect over time.




Fig.4. Land Surface Temperature maps of Tashkent (2019 and 2024)

The analysis reveals an upward trend in LST values from 2019 to 2024, with more areas experiencing temperatures above 35°C in 2024 compared to 2019. This increase can be attributed to factors such as urban sprawl, reduction in vegetation cover, and increasing anthropogenic heat emissions.

The findings highlight the critical role of green spaces in mitigating surface temperatures. The reduction of cooler zones in 2024 underscores the urgent need for sustainable urban planning and the implementation of green infrastructure to combat the growing UHI effect in Tashkent.

These results provide a comprehensive overview of LST dynamics in Tashkent and underline the importance of remote sensing for monitoring urban thermal environments and informing climate adaptation strategies.

Discussion. The observed increase in LST over the study period not only reflects local urbanization trends but may also be influenced by broader climate change impacts. Rising temperatures globally, combined with local land use changes, contribute to more extreme thermal environments. This highlights the need for integrating climate adaptation measures into urban planning to reduce vulnerabilities associated with heat stress.

The findings of this study underscore the urgent need for sustainable urban planning and green infrastructure development in Tashkent. Strategies such as increasing green spaces, preserving existing vegetation, promoting green roofs, and adopting reflective building materials could help mitigate rising LST and reduce the UHI effect. Urban planners should also consider integrating remote sensing data into decision-making processes to monitor changes and assess the effectiveness of mitigation measures over time.

While this study provides valuable insights into LST dynamics, certain limitations should be noted. The analysis is based on Landsat 9 data, which has a moderate spatial resolution. Incorporating higher-resolution satellite imagery or

integrating drone-based data could provide a more detailed understanding of LST variations at finer spatial scales. Additionally, exploring other factors such as population density, land use patterns, and socio-economic data could enhance the interpretation of LST trends and their implications. Future studies could also examine the seasonal variations in LST to better understand the temporal dynamics of urban heat islands.

References

1. Zhao-Liang Li, Bo-Hui Tang, Hua Wu, Huazhong Ren, Guangjian Yan, Zhengming Wan, Isabel F. Trigo, and José A. Sobrino, "Satellite-derived land surface temperature: Current status and perspectives," *Remote Sens. Environ.* 131, 14 (2013)
2. S. Sobrino, J. C. Jiménez-Muñoz, and L. Paolini, "Land surface temperature retrieval from Landsat TM 5," *Remote Sens. Environ.* 90, 434 (2004).
3. J. B. Smith, "Urban heat islands: Surface temperature patterns and their environmental impact," *Environ. Res. Lett.* 15, 054032 (2020).
4. R. Oke, "The urban heat island: Causes and consequences," *J. Climatol.* 10, 250 (1987).

Ташибалтаева Шааркан Абдималиковна

*Ошский государственный университет,
кафедра Агрономия и прикладная геодезия, преподаватель.
Ош, Киргизия. E-mail: Shtashbaltaeva@oshsu.kg*

Панаев Сотимбой Солай угли

*Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, кафедры
«Геодезии и геоинформатики», магистр.
Ташкент, Узбекистан. E-mail: panayevss2001@gmail.com*

Тошонов Бекзод Шермамат угли

*Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
кафедры «Геодезии и геоинформатики», преподаватель.
Ташкент, Узбекистан. E-mail: toshonovbek@gmail.com*

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПЛОЩАДЕЙ И КЛАССИФИКАЦИЯ ЛЕСНЫХ ПОРОД ЮГА КЫРГЫЗСТАНА ПО СПУТНИКОВЫМ ДАННЫМ

Аннотация: Определение площадей и границ лесных территорий на юге Кыргызстана может быть осуществлено через различные источники данных и методы, включая официальные картографические материалы, спутниковое изображение, а также территориальные законы и нормативные акты Кыргызстана. Однако, точное определение границ требует специализированных знаний и доступа к соответствующим ресурсам, таким как картографические инструменты, правовые документы и спутниковые данные. В статье рассматриваются возможности определения площадей и классификации лесных пород юга Кыргызстана по спутниковым данным. Определение площадей лесных пород на юге Кыргызстана по спутниковым данным имеет значительное практическое значение для управления лесными ресурсами, сохранения природы и биоразнообразия, а также для планирования устойчивого использования земельных ресурсов.

Ключевые слова: Лесной фонд, лесные площади, лесные породы, спутниковые данные.

DETERMINATION OF AREAS AND CLASSIFICATION OF FOREST SPECIES IN SOUTHERN KYRGYZSTAN BASED ON SATELLITE DATA

Abstract: Determination of areas and boundaries of forest territories in southern Kyrgyzstan can be accomplished through various data sources and methods, including official cartographic materials, satellite imagery, and territorial laws and regulations of Kyrgyzstan. However, accurate delineation of boundaries requires specialized knowledge and access to relevant resources such as cartographic tools, legal documents and satellite data. The article discusses the possibility of determining the areas and classification of forest species in southern Kyrgyzstan using satellite data. Determination of areas of forest species in the south of Kyrgyzstan using satellite data is of significant practical importance for the management of forest resources, conservation of nature and biodiversity, as well as for planning of sustainable use of land resources.

Key words: Forest fund, forest areas, forest species, satellite data.

Актуальность и цели. Спутниковые данные позволяют отслеживать изменения в распределении лесных пород на протяжении времени. Это важно для выявления динамики изменений в растительности, таких как вырубка лесов, возникновение новых лесных площадей или изменение состава пород.

Путем классификации лесных пород по спутниковым данным можно оценить текущее состояние лесных ресурсов на юге Кыргызстана. Это позволяет получить информацию о разнообразии видов, их распределении и составе лесных экосистем.

Знание площадей и распределения лесных пород является важным для разработки стратегий управления лесными ресурсами и планирования использования земли. Это позволяет эффективно распределять ресурсы и учитывать экологические аспекты при принятии решений о использовании земельных участков.

Определение площадей лесных пород по спутниковым данным также позволяет оценить биоразнообразие региона. Это важно для защиты и сохранения уязвимых экосистем и видов, а также для разработки мер по сохранению их биологического разнообразия [4].

Изменения в составе и распределении лесных пород могут быть связаны с изменениями климатических условий. Мониторинг этих изменений позволяет оценить влияние климатических факторов на лесные экосистемы и разрабатывать адаптивные стратегии управления лесами [3].

Важно учитывать, что границы лесных территорий могут меняться во времени из-за различных факторов, таких как расширение или сокращение лесных зон, изменения законодательства и природные процессы.

Леса занимают незначительную площадь (3,7% территории республики), но имеют большое народнохозяйственное значение и играют огромную почвозащитную и водоохранную роль.

В Кыргызстане растут еловые, елово-пихтовые, арчевые, орехо-плодовые, кленовые, тополево-ивовые, березовые леса. Наибольшую площадь

занимают арчовые, еловые и орехо-плодовые леса. Подробные сведения о флористическом составе, географическом распределении, типологии, ресурсах лесов и их использовании приводятся на карте «Государственный лесной фонд» (стр. 114—115) [1].

Еловые леса из ели Шренка распространены на склонах северной, северо-восточной и северо-западной экспозиций, на высоте 1500—3100 м над уровнем моря. На юге Кыргызстана еловых лесов мало, здесь они сочетаются с пихтарниками. Вместе с елью встречаются ива тянынанская и разнообразные кустарники — из жимолости, ыргая, барбариса, таволги и др. Травяной покров лесов образуют более 350 видов растений. Выделяются ельники кустарниковые, ивовые, рябиновые, березовые, арчовые, карагановые (с гривастой караганой), снытиевые, костяниковые, толокнянковые, кипрейные и др. Из мховых ельников следует отметить туидиевые и гипновые.

Арчовые леса занимают половину лесопокрытой площади республики — 316,6 тыс. га. Они сосредоточены, в основном, на юге и юго-западе Кыргызстана — в Алайском и Туркестанском хребтах, а также в Ферганском и Чаткальском. В Алай-Туркестанском районе их площадь составляет 124 тыс. га, в Чаткале и Фергане — 80 тыс. и Центральном Тянь-Шане — около 7 тыс. га. На большей части территории арчовники представлены редкостойными и парковыми насаждениями. Изредка встречаются густые арчовые леса. Основными лесообразующими породами являются арча полушаровидная, зеравшанская и высокоствольная туркестанская. Вместе с арчой местами растут различные кустарники из барбариса продолговатого, шиповника Федченко, жимолости мелколистной, кизильника черноплодного, таволги зверобоелистной и др. В травяном покрове преобладают лугово-степные виды — мятлик узколистный, овсяница бороздчатая, колокольчик скупенный, сныть, ворсянка лазоревая, подмаренник настоящий, полынь-эстрагон и др.

Арча туркестанская в условиях Кыргызстана образует высокоствольные и стланиковые формы. На юге, в среднегорье, она растет в виде дерева высотой до 18 м и вместе с другими видами арчи образует леса и редколесья. В субальпийском поясе арча имеет стланиковую форму и растет среди субальпийских лугов.

В республике сосредоточены самые крупные в мире массивы орехо-плодовых лесов. Они занимают 27000 га и представляют собой уникальное природное образование. Растут эти леса на юге Кыргызстана, главным образом, в Ферганском и Чаткальском хребтах, на абсолютной высоте 1000—2200 м. Однако оптимального развития достигают в диапазоне 1400—2200 м. Основной лесообразующей породой является орех грецкий, но растут в этих лесах многие плодовые растения: яблоня киргизская, Сиверса и Низведского, груша Керженского и Регеля, алыча согдийская и ферганская, смородина Янчевского, малина, вишня магалебская и др.

В травяном покрове много коротконожки перистой, мелисы лекарственной, недотроги мелкоцветной, душицы обыкновенной, котовника прекрасного, герани прямой, скалигерии угамской, мятлика лесного, бетоники олиственной, ежи сборной, клевера лугового и т. п. Вообще ореховые леса

отличаются флористическим составом. Здесь произрастает около 300 видов только сосудистых растений.

На территории орехо-плодовых лесов созданы Государственные лесные заказники, а на южном склоне Чаткальского хребта в 1958 г. создан Государственный Сары-Челекский заповедник (биосферный).

Для Ферганы и Чаткала также характерны кленовые леса из клена туркестанского, который входит в состав орехо-плодовых лесов и образует собственные леса, где является главной лесообразующей породой. Площадь кленовых лесов около 50 тыс. га. Вместе с кленом растут боярышник, береза, различные виды жимолости, а у верхней границы появляются ель и пихта Семенова.

Пихтовые леса занимают небольшую площадь и сосредоточены, главным образом, в Чаткальском хребте. Основная лесообразующая порода — пихта Семенова, являющаяся эндемичным видом [1].




Рисунок 1. Карта лесного зонирования Южного Кыргызстана

Использование спутниковых данных для определения площадей лесных территорий на юге Кыргызстана остается актуальным и важным методом. Рис.1.

Спутниковые данные предоставляют широкий охват и доступность информации о территории, включая удаленные и труднодоступные регионы, что делает их идеальным инструментом для мониторинга лесных ресурсов на больших территориях, включая юга Кыргызстана [2].

Спутниковые системы, такие как Landsat и Sentinel, предоставляют многолетние временные ряды данных, что позволяет анализировать динамику изменений лесных территорий на протяжении длительного времени.

Использование спутниковых данных обеспечивает объективную и непредвзятую оценку лесных территорий, основанную на наблюдениях из космоса, что помогает избежать субъективных ошибок и искажений.

Современные спутниковые системы обладают высоким пространственным разрешением, что позволяет детально анализировать лесные территории и выделять различные типы растительности, включая различные породы деревьев.

Спутниковые данные обрабатываются с использованием автоматизированных методов, что делает процесс быстрым и эффективным для оценки площадей лесных территорий на больших пространственных масштабах.

Определение площадей и классификация лесных пород на юге Кыргызстана с использованием спутниковых данных возможны при помощи следующих методов обработки изображений.

Карты лесов исследуемой территории были созданы с использованием временной серии снимков Landsat 8 Operational Land Imager (OLI) за 2024 год, которые были включены в коллекцию. Выбранный набор данных был приобретен в сентябре. Основным источником загрузок набора данных был официальный веб-сайт Landsat (<http://earthexplorer.usgs.gov>). Разрешение изображений составляет 30 м для изображений OLI.

Чтобы подготовить изображения для визуальной интерпретации лесной площади и картирования землепользования/покрова, использовались различные методы обработки изображений. Они включали радиометрическую калибровку, геометрическую коррекцию и обрезку изображений по границам исследуемой территории. Цифровые изображения были геометрически и радиометрически откалиброваны друг относительно друга для облегчения их сравнения.

Шесть спектральных диапазонов всех цифровых данных (исключая тепловые диапазоны) использовались отдельно в качестве входных данных для контролируемой классификации с целью картирования лесных территорий на юге Кыргызстане. Алгоритм максимального правдоподобия использовался для карт с использованием многовременных снимков Landsat.

Предварительная обработка данных: Проведем предварительная обработка спутниковых изображений, включающую в себя удаление облачности, коррекцию радиометрических и геометрических искажений, а также улучшение качества изображений. Рис. 2

После классификации определяется площади каждого класса лесных пород, на основе обработанных данных. Затем проанализируются результаты классификации и оцениваются распределение различных лесных пород на территории юга Кыргызстана.

Проанализируются полученные результаты и выводы о состоянии лесных ресурсов на юге Кыргызстана, их распределении и динамике

изменений могут использоваться для разработки стратегий управления лесными ресурсами и планирования их устойчивого использования.




Рисунок 2. Индекс GNDVI

Этот процесс требует комплексного подхода к обработке данных, использованию геопространственных методов и анализу результатов, а также может потребовать экспертных знаний в области лесного хозяйства [2; 4].

Вывод: Использование спутниковых данных позволяет осуществлять систематический мониторинг лесных ресурсов и разрабатывать стратегии управления лесными территориями, что важно для сохранения биоразнообразия и устойчивого использования лесов на юге Кыргызстана.

Таким образом, использование спутниковых данных остается актуальным и ценным инструментом для определения площадей лесных территорий на юге Кыргызстана и является важной составляющей в управлении лесными ресурсами и сохранении природной среды.

Список использованных источников

1. Атлас Киргизской ССР-1987 г.
2. Волгин, Д. А. Применение материалов дистанционного зондирования Земли при мониторинге лесных пожаров / Д. А. Волгин. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2023. — № 43 (490). — С. 31-34.
3. Лабоха, К. В. Охрана окружающей среды и мониторинг лесных экосистем: учеб. пособие для студентов специальности «Лесное хозяйство» / К. В. Лабоха, М. В. Юшкевич. — Минск : БГТУ, 2012. — 170 с.

<https://innoter.com/articles/primenenie-metodov-dzz-v-lesnom-khozyaystve/>

IV SEKSIYA

DAVLAT KADASTRLARI VA ULARNI GEODEZIK- KARTOGRAFIK TA'MINLASH

ГОСУДАРСТВЕННЫЕ КАДАСТРЫ И ИХ ГЕОДЕЗИЧЕСКОЕ И КАРТОГРАФИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ

STATE CADASTRES AND THEIR GEODETIC AND CARTOGRAPHIC SUPPORT

Sharopov Ramziddin Najmiddinovich

“O‘zdavyerloyiha” Davlat ilmiy loyihalash instituti doktorantura bo‘limi
boshlig‘i, q.x.f.f.d, (PhD), k.i.x. E-mail: ramziddin.sharopov@mail.ru

Muxtarova Mohinur Sultonovna

“O‘zdavyerloyiha” Davlat ilmiy loyihalash instituti 2-bosqich tayanch
doktoranti. E-mail: muhtorovamohinur5@gmail.com

FERMER XO‘JALIKLARI YERLARIDAN FOYDALANISH MONITORINGINI TAKOMILLASHTIRISHNING USLUBIY-TEXNIK ASOSLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada dronlar orqali fermer xo‘jaliklari yer maydonlaridan foydalanishni tashkil etishda erishiladigan samaradorlik hamda xorijiy davlatlarning qishloq xo‘jaligi yer maydonlarida dronlar orqali olib borilgan ishlar va erishilgan natijalar, mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi sohasiga dron texnologiyasini kengroq joriy etish uchun taklif va tavsiyalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: dron texnologiyasi, raqamli axborot, uchuvchisiz uchish qurilmasi, PHANTOM 4 PRO va PTERO J1 uchuvchisiz uchish apparatlari.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ И ТЕХНИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МОНИТОРИНГА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ЗЕМЕЛЬ

Аннотация: В данной статье рассматривается эффективность дронов в организации землепользования, а также работа и результаты, достигнутые дронами на сельскохозяйственных угодьях зарубежных стран, предложение по более широкому внедрению дронов в аграрный сектор России. нашей стране, и рекомендации обсуждаются.

Ключевые слова: дроновые технологии, цифровая информация, дрон, дроны PHANTOM 4 PRO и PTERO J1.

METHODOLOGICAL AND TECHNICAL PRINCIPLES OF IMPROVING FARM LAND USE MONITORING

Abstract: In this article, the effectiveness of drones in the organization of farm land use, as well as the work and results achieved by drones on the agricultural land of foreign countries, a proposal for the wider introduction of drone technology to the agricultural sector of our country, and recommendations are discussed.

Keywords: *drone technology, digital information, drone, PHANTOM 4 PRO and PTERO J1 drones.*

Kirish. Qishloq xo'jaligi faoliyatini zamonaviy dron texnologiyalari asosida raqamlashtirish, ilm-fan yutuqlari, olimlarning izlanish va tajribalarga asoslangan bu texnologiyalar yerga ishlov berishdan tortib, tayyor mahsulot olingunga qadar bo'lgan jarayonlarni ortiqcha mehnat va sarf-xarajatlarsiz, ilg'or texnikalar, raqamlashtirilgan uskunalar yordamida aniq va puxta amalga oshirish imkonini beryapti. Natijada, yurtimizda qishloq xo'jaligi yerlarida raqamli axborot tizimlarini joriy etish ko'lami kengayib bormoqda [5].

Asosiy qism. Zamonaviy raqamli texnologiyalar bugungi kunda dunyoning bir qator sohalarida – moliya, transport, energetika, sog'liqni saqlash va endi qishloq xo'jaligi faoliyatida ham samarali qo'llanilmoqda. Ushbu jarayonda fermerlar dala maydoniga bormasdan o'z ekinlarini bemalol nazorat qilishlari mumkin.

1-jadval

Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida umumiy texnologik rivojlanishning yuqori darajasiga erishgan mamlakatlar


Texnologik soha	Yetakchi mamlakatlar reytingi				
	AQSh	Xitoy	Hindiston	Braziliya	Yaponiya
Qishloq xo'jaligi	AQSh	Xitoy	Hindiston	Braziliya	Yaponiya
Tibbiyot, biotexnologiyalar	AQSh	Buyuk Britaniya	Germaniya	Yaponiya	Xitoy
Nanotexnologiyalar, Yangi materiallar	AQSh	Yaponiya	Germaniya	Xitoy	Buyuk Britaniya
Energetika	AQSh	Germaniya	Germaniya	Xitoy	Buyuk Britaniya
Mudofaa, Xavfsizlik	AQSh	Rossiya	Xitoy	Isroil	Buyuk Britaniya
Elektronika, kompyuter xotirasi	AQSh	Yaponiya	Xitoy	Janubiy Korea	Germaniya
Axborotni boshqarish	AQSh	Hindiston	Xitoy	Yaponiya	Germaniya
Avtomobil sanoati	Yaponiya	AQSH	Germaniya	Xitoy	Janubiy Koreya
Aviatsiya, temir yo'l transporti	AQSh	Yaponiya	Xitoy	Germaniya	Fransiya

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, AQSH qishloq xo'jaligi samaradorligi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi. Ushbu sohada mamlakatda band bo'lgan aholining atigi 2 foizi ishlaydi. Shuningdek, AQShdagi qishloq xo'jaligi ko'plab innovatsion yechimlardan foydalanib, fermerlarga arzon narxda ko'proq mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. Masalan, genetik modifikatsiyalangan urug'lardan foydalanish va to'g'ridan-to'g'ri ekish fermerlarning texnika, yoqilg'i va boshqalardan foydalanish xarajatlarini kamaytiradi [2].

Hindistonda qishloq xo'jaligida dronlardan ommaviy foydalanish yo'lga qo'yildi. Dronlardan foydalanish 2026-yilga borib Hindiston yalpi ichki mahsulotini 1,5 % ga (51 milliard dollar) oshirishi va 500 mingdan ortiq yangi ish o'rinlarini yaratishi kutilmoqda.

Qatarda dronlardan foydalanish qishloq xo'jaligida suvni 30 % ga

tejalishiga olib keldi. Mozambikda qishloq xo‘jaligida suvdan foydalanish samaradorligi 55 % ga yaxshilandi. Ilmiy tadqiqot natijalariga ko‘ra, ushbu ko‘rsatkich 90 % gacha yetishi mumkinligi ta’kidlangan.



1-rasm. Dunyo mamlakatlari bo‘yicha UUA sohasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlari (2018-2023 yillar) [3].

Kimyoviy moddalarning zararliligi tufayli odamlar dalalarda juda cheklangan vaqtda qolishi mumkin. Shu munosabat bilan, aviatsiya ko‘pincha katta paxta maydonlarida qo‘llaniladi, bu odamlar uchun zararli va juda qimmat tadbir. Bu omillarning barchasi qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini sezilarli darajada oshiradi. Shunday qilib, Mozambikda yangi dron texnologiyalari qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini 41% ga, Saudiya Arabistonida 20% ga oshirishga yordam berdi [4].

Ayni paytda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish, o‘g‘it va kimyoviy moddalar tannarxini pasaytirish, suv resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish muammolarini hal etishda dronlardan foydalanish uchun keng imkoniyatlar mavjud.



Bugungi kunda, jahon agrar sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar bu qurilmadan juda keng foydalanmoqda. Zararkunanda hasharotlar tarqalishi, o‘simliklar kasalliklari yoyilgan maydonlarni o‘z vaqtida aniqlash va profilaktikasini amalga oshirish, shuningdek, yovvoyi o‘simliklar tarqalgan dalalar ko‘lamini tez fursatlarda aniqlash, qurg‘oqchilik ro‘y berayotgan maydonlari ko‘lamini belgilashda dronlar qo‘l kelmoqda.

Respublikamizda dastavval 2018-2020 yillarda birinchilardan bo‘lib, «O‘zdaverloyiha» davlat ilmiy-loyihalash instituti tomonidan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ulardan samarali foydalanish bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, qishloq xo‘jaligi ekinlarini nazorat qilish, ya’ni monitoring ishlari olib borildi.

Institut tomonidan hozirda foydalanilayotgan zamonaviy texnologiyalardan biri **PHANTOM 4 PRO** va **PTERO J1** uchuvchisiz uchish apparatlari (2-jadval).

2-jadval

PHANTOM 4 PRO va PTERO J1 uchuvchisiz uchish apparatlari

Phantom 4 Pro		
		
№	Texnik imkoniyatlari	
1	Uchish masofasi	10 km
2	Ko'tarilish balandligi	300 m
3	Tezligi	72 km/soat
4	Bitta batareyaning quvvatida uchishi	30 daqiqa
5	Akumlyator	LiPo 4S, 5870 MA/soat
6	Navigatsion modullari	GPS va Glonass
PTERO G1		
		
1	Uchish masofasi	8 km gacha
2	Ko'tarilish balandligi	3 000 metr gacha
3	Tezligi	70-130 km/soat
4	100 km/stezlikdagi parvoz vaqti	80 s gacha
5	Yoqilg'i turi	Ai-95 benzin
6	Uchuvchisiz uchish apparatning umumiy og'irligi	20 kg
7	Foydali yuk og'irligi	5 kg
8	Ish bajarish hajmi soatiga (aerosuratga oladi)	500 m (1 000 ga) 1 000 m (1 400 ga) 2 000 m (5 200 ga)
9	Parvoz qilish turi	pnevmatik katapulta
10	Qo'nish turi	parashut (havo yostig'i)

Dronlar yordamida juda yuqori aniqlikdagi sifatli aerosuratlar va video olinadi. Har qanday sun'iy yo'ldoshdan olingan aerosuratlarni dronlar yordamida olingan yuqori aniqlikdagi aerosuratlar bilan solishtirib bo'lmaydi. Dronlarda samolyotlarga qaraganda ancha pastroq uchish imkoniyati mavjud. Bu esa dronlarga samolyot va boshqa boshqariladigan uchish apparatlariga nisbatan ustunlik beradi. Dron aniqligini va ishonchli ma'lumotlarni oladi.

Rasmga olish parvoz paytida ham mumkin va agar mijozga kerak bo'lsa, marshrutni real vaqtda sozlash mumkin. Samolyot tipidagi uchuvchisiz uchish apparatlarining ishlash ko'rsatkichlari o'rtacha maydonli obyektlar uchun 30 km/soatgacha va chiziqli obyektlar uchun 35 km/soatgacha yetadi.

Uchuvchisiz boshqariladigan texnologiyalar yildan yilga takomillashib bormoqda. Dastavval bunday texnologiyalardan harbiy amaliyotlarda qo'llanilgan, murakkab va qimmatbaho komplekslar edi. Biroq, oxirgi o'n yillikda bu sohada haqiqiy yutuqlar ko'zga tashlanmoqda. Raqamli texnologiyalarning, xususan sun'iy yo'ldosh (*GPS/GLONASS*) tizimlarining ishlab chiqilishi va eng muhimi, bu texnologiyalarning barcha sohada juda qulay imkoniyatni yaratishidir [1].

Xulosa, taklif va tavsiyalar: Raqamli texnologiyalar harorat, yog'ingarchilik, shamol tezligi va quyosh radiatsiyasi kabi ma'lumotlar manbalarini, shuningdek, qishloq xo'jaligi yerlarining istalgan nuqtasi uchun avvalgi ma'lumotlar bilan taqqoslashni taklif qiladi. Ushbu texnologiyalar ish o'rinlari qisqarishiga olib kelishi mumkin bo'lsa ham, ular dehqonlarning ish jarayonlarini yaxshilaydi va ularga asosiy ekinlarni yetishtirish, yig'ish va sotishning yanada samarali usullarini taqdim etibgina qolmay yangi turdagi mahsulotlar yaratish ustida izlanishlar olib borishni ta'minlaydi. Mazkur jarayonlarda esa albatta UUA muhim vazifani bajaradi, ya'ni ular orqali ekin maydonlarini kuzatish, syomka qilish, dorilash va hokazolar amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda Qishloq xo'jaligi maqsadlarida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanish bo'yicha quyidagilarni tavsiya etish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o'zlashtirish;
- fermerlarga uchuvchisiz uchadigan apparatlarning ilg'or texnologiyalarini joriy etishda ilmiy va amaliy-uslubiy yordam ko'rsatish;
- yetakchi xorijiy ishlab chiqaruvchilar va universitetlar bilan hamkorlikda dronlardan foydalanish tajribasini ommalashtirishga qaratilgan o'quv kurslar tashkil etish;
- qonunchilikda qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan dronlarning olib kirish va ulardan foydalanish hamda aerofotosurat materiallarini nazorat qilish tartibini soddalashtirishni nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritish;
- dronlarni ijaraga berish va almashish platformasini yaratish;
- davlat tashkilotlari va fermer xo'jaliklari tomonidan qishloq xo'jaligida dronlardan foydalanishni rag'batlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- fermer va qishloq xo'jaligi xodimlarini dronlardan foydalanish va ularga texnik xizmat ko'rsatishga o'rgatish bo'yicha o'quv dasturlar va seminarlar tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Turayev R. A. “Sug‘oriladigan yerlar monitoringini yuritish metodologiyasini takomillashtirish” T.f.d. (DSc) ...dissertatsiya.-Toshkent, 2021.
2. Вереvченко А.П., Горчаков В.В., Иванов И.В. и др. Информационные ресурсы для принятия решений. – М.: Издательство: Академический проект- 2002. - 560с.
3. Дик В.В. Методология формирования решений в экономических системах инструментальные среды их поддержки. - М.: Финансы и статистика, 2000,-300с.
4. <https://proreforms.uz/uz/publications/progressiv-islohotlar-markazi-ozbekiston-sharoitida-dronlardan-foydalanish-fermerlarga-xarajatlarni-kamaytirish-imkonini-beradi-150>.
5. <https://yuz.uz/uz/news/qishloq-xojaligi-erlarida-dronlar>.

Карабазов Сардорбек Абдумажитович

Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Кадастр агентлигининг Давлат чегарасини делимитация ва демаркация қилиш бўлими бош мутахассиси, т.ф.ф.д., PhD.

Irgashev Azamat Choriyevich

Вазирлар Маҳкамаси, Тошкент, Ўзбекистон.

ДАВЛАТ ЧЕГАРАСИНИ ДЕЛИМИТАЦИЯ ВА ДЕМАРКАЦИЯ ҚИЛИШНИНГ МУАММОЛАРИ

Аннотация. Мақолада мамлакатимизнинг давлат чегараларини делимитация ва демаркация қилиш бўйича давлатлараро муносабатларнинг ҳозирги ҳолати. Марказий Осиё республикаларининг ташиқи чегараларини делимитация ва демаркация қилишнинг энг долзарб ва асосий муаммолари қўшни давлатлар билан баҳсли ҳудудларни ҳал қилиш ва олдинги давлат чегарасини қонуний шаклланиш жараёнлари. Чегара масалаларида давлатлараро келишув ёритилган.

Калит сўзлар. Давлат чегараларининг қонуний мақоми, делимитация, демаркация, чегараларни шартномавий равишда расмийлаштириш.

ПРОБЛЕМЫ ДЕЛИМИТАЦИИ И ДЕМАРКАЦИИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ГРАНИЦЫ

Аннотация: В статье представлено современное состояние межгосударственных отношений по вопросам делимитации и демаркации государственных границ нашей страны. Наиболее актуальными и основными проблемами делимитации и демаркации внешних границ республик Центральной Азии являются урегулирование спорных территорий с соседними странами и процессы правового оформления бывшей государственной границы. Освещено межгосударственное соглашение по пограничным вопросам.

Ключевые слова: Правовой статус государственных границ, разграничение, демаркация, оформление границ в договорном порядке.

PROBLEMS OF DELIMITATION AND DEMARCATION OF THE STATE BORDER

Abstract. The article presents the current state of interstate relations on issues of delimitation and demarcation of state borders of our country. The most pressing and main problems of delimitation and demarcation of the external borders of the Central Asian republics are the settlement of disputed territories with neighboring countries and the processes of legal

registration of the former state border. The interstate agreement on border issues is covered.

Keywords: *Legal status of state borders, delimitation, demarcation, contractual registration of borders.*

Мамлакатимизнинг давлат чегараларини қонуний ва шартномавий равишда расмийлаштиришга бўлган объектив эҳтиёж қўшни давлатларининг ташқи ва ички (минтақалараро) чегараларига таъсир кўрсатди. Биринчи ҳолда, мавжуд (ўрнатилган) давлат чегараларининг алоҳида баҳсли участкаларининг ҳуқуқий мақомини аниқлаштириш, иккинчисидан — маъмурий-ҳудудий чизиқларни халқаро ҳуқуқнинг суверен субъектларининг тўлақонли чегараларига ўтказиш тўғрисидаги масалаларга тўхталамиз.

Ўзбекистон Республикасининг Конституциясининг 3-моддадаси қуйидагича баён этилган. Ўзбекистон Республикаси ўзининг миллий-давлат ва маъмурий-ҳудудий тузилишини, давлат ҳокимияти ва бошқарув органларининг тизимини белгилайди, ички ташқи сиёсатини амалга оширади. Ўзбекистоннинг давлат чегараси ва ҳудуди дахлсиз ва бўлинмасидир [1]. Ҳозирда давлат чегарасини расмийлаштиришни жадаллаштириш Ўзбекистоннинг ташқи сиёсатини устувор йўналишларига олиб чиқмоқда.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев 2016-йилда бўлиб ўтган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисида Марказий Осиёдаги яқин қўшнилар билан ҳамкорликни ривожлантиришни Ўзбекистон ташқи сиёсатининг устувор йўналиши сифатида белгилаб берди [4]. Бу қўшни мамлакатлар билан давлат чегарасини ҳуқуқий жиҳатдан расмийлаштириш бўйича музокаралар жараёнини фаоллаштиришга қаратилган муҳим қадам бўлган.

Айнан шундай устувор йўналишлар Ўзбекистон Республикаси қўшни давлатлар билан давлат чегарасини делимитация ва демаркация қилиш жараёнини узил-кесил ниҳоясига етказиш ташқи сиёсатимизнинг устувор йўналишларидан бири сифатида қайд этилган.

Давлат чегарасини делимитация ва демаркация қилиш ва ҳуқуқий жиҳатдан расмийлаштиришни ҳал этиш масалаларини жадаллаштириш 2017-2021-йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида ўз аксини топган [2].

Мамлакатимизнинг қўшни давлатлар билан давлат чегарасини делимитация ва демаркация қилиш масалаларини тартибга солишнинг аҳамияти ва заруратини янада чуқурроқ англаш учун уларни ҳал этиш тарихига назар солиш мақсадга мувофиқ.

Ўзбекистон Республикаси Давлат чегарасини делимитация ва демаркация қилиш ишлари ўзига хос ва мураккаб жараёнлардан иборат бўлиб, икки ва уч томонлама музокаралар асосида амалга оширилади.

Давлат чегарасини делимитация ва демаркация қилиш жараёни кўп

йиллик архив ҳужжатларини, картографик материалларни, шу жумладан юридик ҳужжатларни ўрганиш асосида амалга оширилади.

Шунингдек, чегара масалалари музокаралар, геодезия, картография ва ер тузиш ҳамда дала ўлчов ишларини ўз ичига олади.

Ўзбекистоннинг қўшни республикалар билан муносабатларида юзага келган ҳолат икки томонлама ҳамкорлик бўйича йўналишларни қайта кўриб чиқиш ва чегараларни делимитация қилиш масалаларини ҳал этиш ёндашувларини ўзгартириш, чегара ўтказиш пунктлари фаолиятини йўлга қўйишни қатъий талаб этади.

Биринчи - ўзаро манфаатларни қатъий ҳисобга олиш, иккинчи – чуқур ўйланган оқилона муроса, учинчи – ер участкалари билан тенг алмашинув. Барча томонлар мазкур тамойилларга риоя қилмасдан туриб, чегараларни тартибга солишнинг имкони йўқ, чунки барча Марказий Осиё мамлакатларига аввалги тизимдан мазкур муаммо бўйича чалкашлик мерос бўлиб қолган.

Давлат чегарасини делимитация ва демаркация қилишда архив ҳужжатлари, картографик материалларни ўрганиш якуни бўйича қўшни мамлакатлар билан давлат чегара чизиқлари аниқлашда кўплаб муаммолар аниқланган. Биринчи ва энг асосий муаммо Марказий Осиёнинг деярли барча мамлакатлари билан давлат чегараларини делимитация қилиш бўйича ҳуқуқий асоснинг йўқлигидадир.

Иккинчи муаммо 1924-27 йиллар Ўрта Осиё республикаларини чегаралаш даврида ва 1930-йил ва ундан кейинги даврда қабул қилинган ҳужжатлар бўйича келишмовчиликлар.

Учинчи муаммо - мавжуд карталарда белгиланган чегара чизиқларининг амалда фойдаланилаётган ерлар, ирригация тармоқлари, кўплаб инфратузилма объектлари, уй-жой хўжаликлари, қабристонлар ва диққатга сазовор жойларнинг жойлашуви билан мос келмаслиги.

Маълумки, минтақа марказида жойлашган Ўзбекистон Марказий Осиёнинг барча мамлакатлари билан умумий чегарага эга. Унинг узунлиги 7000 километрдан зиёд, жумладан, Қозоғистон билан – 2356,31 км, Қирғизистон билан – 1476,12 км, Тожикистон билан – 1296,9 км, Туркменистон билан – 1831,49 км, Афғонистон билан – 143 кмни ташкил этади [7] (1-расм).

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев ва Қозоғистон Республикаси Президенти Қосим-Жўмарт Тўқаев томонидан унинг 2022 йил 21 декабрь куни мамлакатимизга давлат ташрифи чоғида Ўзбекистон – Қозоғистон Давлат чегарасини демаркация қилиш тўғрисидаги Шартномани имзоланган.

Шартномага кўра Ўзбекистон Республикаси ва Қозоғистон Республикаси ўртасидаги Давлат чегарасининг демаркация қилинган чизиғи узунлиги 2 356 километрдан ортиқ.



1-расм. Ўзбекистон Республикасининг қўшни давлатлар билан чегара узунлигини умумий кўриниши

Шартнома билан Ўзбекистон-Қозоғистон Давлат чегарасини белгилаш бўйича ишлар тўлиқ якунланди ҳамда чегара хавфсизлиги ва дахлсизлигини таъминлаш учун энг муҳим шарт-шароитлар яратилди.

Ўзбекистон-Қирғизистон Давлат чегарасини делимитация қилиш тўғрисидаги шартномалар 2017 ва 2022 йилларда икки давлат раҳбарлари томонидан тасдиқланган Биринчи шартномада “Ўзбекистон Республикаси ва Қирғизистон Республикалари ўртасида ўзбек-қирғиз Давлат чегараси тўғрисида”ги Шартномага кўра, келишилган давлат чегара чизиғи умумий узунлиги 1170,53 километрни ташкил қилади.

Иккинчи шартномада Ўзбекистон Республикаси билан Қирғиз Республикаси ўртасидаги давлат чегарасининг алоҳида участкалари тўғрисидаги шартнома кўра, келишилган давлат чегара чизиғи 302,29 километрни ташкил қилади.

Ўзбекистон-Туркманистон билан Давлат чегараси ҳақидаги шартнома 2000 йил сентябр ойида Ашхободда имзоланган. Яқин беш йилда давлат чегарасини белгилаш уларнинг ҳуқуқий тамойилларини асослашда қуйидаги муҳим ишлар амалга оширилганлиги гувоҳ бўлишимиз мумкин. узок йиллик танаффусдан сўнг давлат чегара масалалари бўйича ишчи гуруҳлар музокаралари қайта тикланди ва ҳозирда ўзбек-туркман Давлат чегарасини демаркация қилиш бўйича ишчи гуруҳ йиғилишлари бўлиб ўтмоқда.

Ўзбекистон-Тожикистон билан “Ўзбекистон Тожикистон давлат чегарасининг айрим участкалари ҳақида”ги шартномалари 2000 ва 2018 йилларда икки давлат раҳбарлари томонидан имзоланган. Ушбу шартномалар ўзбек-тожик Давлат чегарасини делимитация ва демаркация қилиш, чегара олди муаммоларини ҳал этишда муҳим аҳамият касб этди.

Ҳозирда Ўзбекистон, Қирғизистон, Тожикистон ва Туркменистон билан Давлат чегарасини делимитация ва демаркация қилиш масалалари бўйича музокаралар олиб борилмоқда.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, қўшни давлатлар билан давлат чегарасини тўлиқ ҳуқуқий жиҳатдан расмийлаштириб олгандан сўнг, мамлакатимизнинг иқтисодий имкониятларини оширди, товар айланмаси ҳажми ошишга олиб келди, энг муҳими чегара ҳудудида яшовчи фуқароларнинг чегаралардан эркин ҳаракатланишга имкон яратилади.

Шу билан бирга, Ўзбекистон Республикаси қўшни давлатлар билан имзоланган чегара ҳақидаги шартномалар мамлакатимиз учун замонавий иқтисодий ҳамкорликни ривожлантириш, чегараолди ҳудудида савдо, товар айланиши ҳажмини ошириш йўлида кенг имкониятларни очиб берди ва энг асосийси, тарихий илдизи туташ, қон-қариндош халқлар борди-келдиси учун қулай шароитлар яратилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси (2023).
2. Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 20 августдаги “Ўзбекистон Республикасининг давлат чегараси тўғрисида”ги 820-І-сон Қонуни.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. 2017 йил 7 февраль.
4. Мирзиёев Ш.М. Олий Мажлисга қилган мурожаати Ўзбекистон, 2016
5. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016. – 56 б.
6. Абдуллаев Т.М., Карабазов С.А., Демаркация ишларини бажаришда координаталар тизимини танлаш ҳамда аниқ геодезик пунктларга боғлаш тамойилларини аҳамияти Халқаро илмий-амалий онлайн конференция материаллари. 20-21 май., 2021 йил Самарқанд, Ўзбекистон Б. 728-733.
7. Карабазов С.А., Давлат чегарасини делимитация ва демаркация қилишда топогеодезик ва картографик маълумотлар билан таъминлашни такомиллаштириш мавзисидаги диссертация (2022).

Аллаберган Рўзимович Бабажанов

и.ф.н. доцент, “Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти” миллий тадқиқот университети.

Бекзод Низамович Инамов

қ.х.ф.ф.д. (PhD), К.и.х. “Ўздаверлойиҳа” давлат илмий-лойиҳалаш институти бош директори ўринбосари.

Собир Боймирзаевич Рўзиев

т.ф.ф.д. (PhD), доцент, “Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти” миллий тадқиқот университети.

ЕР КАДАСТРИНИ ТАРИХИЙ ШАКЛЛАНИШИ ВА ИСТИҚБОЛДА РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ

Аннотация: Мақолада монографик тадқиқот ва аналитик таҳлил усулларида фойдаланилган ҳолда республикада юритилаётган ер кадастрини тарихий шаклланиши, юритилиши ва бугунги давр талаблари асосида уни модернизация қилиш йўлидаги муаммолар ҳамда замонавий технологиялар негизида ривожлантириш истиқболлари ёритилган.

Калит сўзлар: ер кадастри, тарих, шаклланиш, ривожланиш, модернизация, технологиялар, тизим, ер эгаллиги, ердан фойдаланиш, блокчейн, очиқлик, шафоқлик.

ИСТОРИЧЕСКОЕ СТАНОВЛЕНИЕ И ВОЗМОЖНОСТИ БУДУЩЕГО РАЗВИТИЯ ЗЕМЕЛЬНОГО КАДАСТРА

Аннотация: Используя монографические исследования и аналитические методы, в статье описаны историческое формирование и ведение земельного кадастра в республике, проблемы его модернизации с учетом требований сегодняшнего времени, а также перспективы его развития на основе современных технологий.

Ключевые слова: земельный кадастр, история, становление, развитие, модернизация, технологии, система, землевладение, землепользование, блокчейн, открытость, прозрачность.

HISTORICAL FORMATION AND FUTURE DEVELOPMENT OPPORTUNITIES OF THE LAND CADASTRE

Abstract: The article, based on the use of monographic research methods and analytical analysis, reflects the historical formation and maintenance of the state land cadastre in the republic, presents some problems of modernization and ways of long-term development of the land cadastral system based on the use of modern technologies.

Keywords: land cadastre, history, formation, development, modernization, technology, system, land ownership, land use, blockchain, accuracy, openness.

Бошқа мамлакатлар сингари Ўзбекистон Республикасидаги ер кадастрига оид ишлар ҳам узок тарихий даврларга бориб тақалади. Бунини ёрқин натижаси сифатида Амир Темурнинг мамлакатни идора қилиш давридаги ерлардан солиқ ундириш тартиби, янги ерларни ўзлаштириш, ер-мулклар ҳисобини доимий юритиб бориш, ер-мулклар эгалари ва ердан фойдаланувчиларни махсус рўйхатга олишга доир тадбирлар катта аҳамиятга эгадир. Хусусан, хирож солиғи деҳқончилик қилинадиган ерларнинг унумдорлиги ва ҳосил миқдори билан белгиланганлигини

А.Темур ўз “Тузуқлари”да қуйидагича баён қилган: “Яна амр қилдимки, хирожни экиндан олган ҳосилга ва ернинг унумдорлигига қараб йиғсинлар, чунончи, доим узлуксиз равишда қориз, булоқ ва дарё суви билан суғориладиган экин ерларини ҳисобга олсинлар ва ундай ерлардан олинган ҳосилдан икки ҳиссасини раиятга, бир ҳиссасини олий саркорлик (салтанат хазинаси) учун олсинлар” [7,19 бет]. Лалмикор ерларни суғориладиганига нисбатан унумдорлиги паст бўлганлиги сабабли, бу ерлардан олинган ҳосилнинг олтидан бир қисми, баъзида эса саккиздан бир қисми хирож сифатида салтанат хазинасига тўланган. А.Темур ўз “Тузуқлари”да фуқаролардан ундириладиган солиқлар миқдори, солиқларни йиғиш тартиби, янги ерларни ўзлаштирилганлиги сабабли фуқароларга бериладиган имтиёзлар каби масалаларга ҳам алоҳида эътибор қаратган: “Амр қилдимки, ҳосил пишиб етилмасидан бурун раиятдан молу хирож олинмасин. Ҳосил етилгач хирожни уч бўлиб олсинлар. Агар раият солиқ тўпловчи юбормасдан солиқни ўзи келтириб берса, у ҳолда бу ерга солиқ тўпловчи юбормасинлар”[7, 20 б.]. Ушбу маълумотлар шу даврлардаёқ юртимизда ер кадастрига оид жуда кўп тадбирлар мамлакатни идора қилишда фойдаланилганлигини яна бир қарра тасдиқлайди.

Шуниси диққатга сазаворки, шу даврларда ерларни миқдорий ҳисобини юритишда асосан таноб¹ ўлчов бирлигидан фойдаланилган. Хусусан, М.Й.Йўлдошевнинг берган маълумотларига қараганда, XIX асрга келиб Хива хонлиги ерларида олиб борилган ер ҳисоби натижаларига асосан хонликнинг ер фонди қуйидагича тақсимланган: мулк ерлари 142,0 минг танобни, мусулмон диндорлар, яъни масжид ерлари - 152,0 минг танобни ташкил қилган (бундан ташқари, ҳар бир масжидга вақф ҳуқуқи билан қўшимча 10,0 таноб ер ажратилган бўлиб, уларнинг жами майдони 5хонлик бўйича 10,0 - 12,0 минг танобни ташкил қилган), демак, Хива хонлигидаги жами вақф ерлари 165,0- 170,0 минг танобни ташкил қилган; давлатнинг экин ер фонди -86,0 минг танобни ташкил қилган [8].

Умуман, тадқиқотчи М.Й.Йўлдошевнинг берган маълумотларини тўплаган ҳолда, XIX асрнинг ўрталарида Хива хонлигидаги бутун ер фондиди ҳисоблаш қуйидаги натижаларни берган:

-маҳсулот ишлаб чиқарувчи деҳқонлар- паст табақа, *адно* ва *овсат* деҳқонлар жами 64,0 минг таноб ерга эгалик қилганлар;

-юқори табақадаги мулкдорлар жами 70,0 минг таноб ерга эгалик қилганлар;

-давлат ва масжид ерлари- 250,0 минг танобни ташкил этган [8].

Бу маълумотлар шу даврларда ерларнинг миқдорий ҳисобини, хусусан, ер кадастри ишларини юритилиши анчагина яхши йўлган

5 таноб –майдон ўлчов бирлиги:Туркистонда 400кв.саженга ёки 1600 кв.метрга, Хива хонлигида 900кв.саженга ёки 3600кв.метрга, Бухоро амирлигида 600кв.саженга ёки 2400 кв.метрга тенг бўлган(Давыдов А.Аграрные преобразования и формирование социалистического землепользования в Узбекской ССР. Ташкент, Наука, 1965, 14 стр.)

қўйилганлигидан далолат беради. Аммо, XIX асрнинг иккинчи ярмида Туркистонни Россияга қўшиб олинishi бу ҳудудда ер кадастри ишларини ҳам тубдан ўзгаришига сабаб бўлди. Рус маъмурлари ўзларига бўйсундирилган ҳудудлардаги наинки қишлоқ хўжалиги ерларини миқдор ва сифат ҳисобини юритиш, ер эгалиklarини давлат рўйхатига олиш ишларини, балки шу билан бир вақтнинг ўзида аҳоли пунктлари, шаҳарлардаги бино ва иншоотлар, ер участкаларини ҳам рўйхатга олиш, улар учун ҳам хариталар яратиш, улардан солиқ ундириш ишларини йўлга қўйишган. 1917 йилда юз берган октябрь инқилоби Ўзбекистонда ҳам кадастр тизимини такомиллаштиришда муҳим рол ўйнади. Хусусан, 1918 йилда қабул қилинган “Шаҳар ерларини тасарруф қилиш тўғрисидаги Низом”га биноан, кимнинг фойдаланишидан қатъий назар шаҳар чегарасидаги барча ерлар, сув ҳавзалари ва ўрмонлар ер рўйхатига олинadиган бўлди [2,3]. Рўйхатга олиш асосан шаҳар ерларидан фойдаланишни бошқариш, ерларни режалаштириш ва солиқлар миқдорларини аниқлаш, фойдаланувчилар ҳуқуқларини муҳофаза қилиш ва мустаҳкамлаш, шаҳар хўжалигининг бошқа талабларини таъминлаш мақсадларида ўтказилган.

Ерларни рўйхатга олиш ўз ичига қуйидагиларни олган: ер участкалари ва сув кенгашларининг табиий-хўжалик ҳамда ҳуқуқий ҳолатлари; ҳуқуқий ва бир тизимга келтирилган маълумотларни тўплаш, сақлаш ва асосий ҳамда жорий равишда рўйхатга олиш. Рўйхатга олиш жараёнида бу ердаги қурилишлар ва бинолар (каватлар сони, деворлари ва жами қурилган ҳудуд майдони, баландлиги, ҳолати, эскирганлик ҳолати, фойдаланувчи ва эгаси) ҳамда иншоотлар тасвирларини ёритган ҳолда ер участкасининг тавсифи берилган; ер турлари (бинолар, ҳовли, боғ, полиз, омбор, қишлоқ хўжалиги ерлари, бўш ерлар ва бошқ.) бўйича участканинг экспликацияси тузилган, шунингдек, ноёб дарахтлар тўғрисидаги маълумотлар (дарахт номи, сони, экилган вақти, ҳолати, умумий баҳоси, участкасининг нишаблиги, рельефи ва тупроғи, сув манбаларининг мавжудлиги) келтирилган [2,3].

Ўзининг мазмуни бўйича бу тадбир бугунги кундаги аҳоли пунктлари ерлари кадастрининг бир кўриниши эди. Унда бугунги кунда ҳам ўзининг аҳамиятини йўқотмаган, шаҳар ер кадастри муаммоларини ҳал қилишга йўналтирилган пухта ва услубий жиҳатдан тўғри ёндашувлар берилган эди. Аммо бошқарувнинг буйруқбозлик усулига асосланган мавжуд хўжалик сиёсати шу даврда Ўзбекистонда ҳам ер кадастри ишларининг ривожланишига имкон бермади. Боз устига, ерга ва бошқа ишлаб чиқариш воситаларига давлат мулкчилигининг қатъий ўрнатилиши ер кадастрининг ривожланиш йўлини тубдан ўзгартириб юборди.

Табиий ресурсларга (ер, сув, ўрмон) давлат эгалигининг вужудга келиши билан ер кадастри тизими уларнинг ҳолати тўғрисидаги маълумотларнинг бир тизимга келтирилган тўплами сифатида турли минтақалар ва мамлакатни марказлашган бошқаришнинг муҳим қуроли

бўлиши зарур эди. Шунинг учун ҳам Ўзбекистонда яратилган ер кадастри давлат моҳиятига эга бўлган ва ягона, аммо аниқ, ресурс нуқтаи назаридан қатъий идоравий талаблар асосида юритилган. Шу сабабли ҳам энг муҳим ресурс (ер) ягона давлат мулкани ташкил этишига қарамасдан унинг кадастрини юритиш идоравий характерга эга бўлганлиги сабабли мамлакатдаги ер кадастри ишларида ўзига хос хусусиятларни вужудга келтирди [2,3]. Бу хусусиятлар айнан ер кадастрини юритишда ёркин намоён бўлган.

Ўтган асрнинг 30-йилларида Ўзбекистонда юритилган ер кадастри асосан қишлоқ хўжалиги ерларидан фойдаланишни давлат рўйхатига олиш ҳамда бундай ерларни миқдорий ҳисобини юритишни ўз ичига олган. Бу ҳолат ер кадастрини юритиш учун бир қатор ҳужжатларни яратиш заруриятини туғдирди. Натижада колхозлар учун “Ерларни ип ўтказилган дафтари”, қишлоқ туманлари учун “Туманнинг ер кадастри китоби” юритила бошланди. Кейинчалик ушбу китоб билан бир қаторда “Туманнинг навбатчи кадастр картаси” (1940 й.) жорий этилди. Ушбу ҳужжатларни амалга киритилиши Ўзбекистонда ҳам ер кадастри ишларини маълум тартибда йўлга қўйишга имкон берди. Булардан ташқари, собиқ Игтифоқ Министрлар Советининг 1954йил 31декабрдаги “Мамлакат ер фондининг ягона давлат ҳисобини юритиш тўғрисида”ги Қарорига мувофиқ ишлаб чиқилган ва амалиётга киритилган “Ерлардан фойдаланишнинг рўйхати ва ерларнинг давлат ҳисобини юритиш тартиби ҳақида”ги кўрсатмаларга биноан, 1955-йилдан бошлаб ҳар йили республика минтақаларида, вилоятларда ва бугун мамлакат бўйича ер баланслари (ер ҳисоботлари)ни тузиш йўлга қўйилган.

Республикада ер кадастрини юритилишини янада такомиллаштиришда собиқ Игтифоқ Министрлар Совети томонидан 1977 йил 10 июнда қабул қилинган “Давлат ер кадастрини юритиш тартиби тўғрисида” ги Қарор муҳим роль ўйнаган[3]. Ушбу қарорга биноан ер кадастри республикада ҳам ердан фойдаланишларни рўйхатга олиш, ер ҳисоби ва ерлар баҳолаш ишлари бутун бир мажмуавий тадбир сифатида ягона услубёт асосида ўтказила бошланди. Лекин ер кадастрининг асосий таркибий қисмларидан бири бўлган ерларни миқдорий ҳисобининг ҳар йилги натижаси сифатида тузиладиган туман ер баланслари (ҳисоботлари) аксарият қишлоқ хўжалиги ерларининг миқдорий ҳисоби кўринишида қолаверган. Буни қуйидаги жадвал маълумотлари ҳам ёркин тарзда тасдиқлайди (1-жадвал)

Дарҳақиқат, 1-жадвалдаги маълумотлар ҳар йили республика бўйича тузиладиган ер балансларини аксарият қишлоқ хўжалиги манфаатларига мос эканлигини кўрсатади.

Олиб борилган назарий ва аналитик тадқиқотлар асосида шунини алоҳида қайд қилиш зарурки, сўнгги йилларда давлат ер кадастрининг илмий асосларини такомиллаштиришга қаратилган қатор модернизациялаш ишлари амалга оширилмоқда. Бундай ишлар жумласига қуйидагиларни киритиш мумкин: давлат ер кадастри тизимида илғор технологияларни ўзлаштириш; ягона ахборот тизимини яратиш ва ривожлантириш; -ҳалқаро стандартларни жорий этиш.

1-жадвал

Республика ер фондини ер тоифалари бўйича тақсимланиши*

Т.р.	Ер фондининг тоифалари	Умумий ер майдони		Шу жумладан сугориладиган ерлар	
		минг га	%	минг га	%
1	Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар	26 132,2	58,21	4 226,2	9,41
2	Аҳоли пунктларининг ерлари	226,7	0,51	50,9	0,11
3	Саноат, транспорт, алоқа, муҳофаа ва бошқа мақсадларга мўлжалланган ерлар	786,9	1,75	12,6	0,03
4	Табиатни муҳофаза қилиш, соғломлаштириш ва рекреация мақсадларига мўлжалланган ерлар	3 223,3	7,18	0,9	0,002
5	Тарихий-маданий аҳамиятга молик ерлар	15,0	0,03		
6	Ўрмон фонди ерлари	12 092,5	26,94	45,4	0,10
7	Сув фонди ерлари	827,3	1,84	4,6	0,01
8	Захира ерлар	1 588,5	3,54	1,9	0,004
	Жами ерлар:	44892,4	100	4342,5	9,67

*Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва Молия хузуридаги Кадастр агентлиги маълумотлари, 2024 йил 01.01 га.

Аммо, давлат ер кадастрини республикада истиқболда ривожлантириш бўйича юқорида қайд қилинган ижобий қадамлар билан бир қаторда бу йўналишда ҳал қилиниши лозим бўлган муаммолар ҳам мавжуд. Буларга, фикримизча, қуйидагиларни киритиш мумкин:

- давлат ер кадастри тизимини юритиш учун олинадиган маълумотларнинг сифати ва изчиллигини доимо ҳам талабга жавоб бермаслиги;

- ерларни рўйхатга олиш, ҳисобини юритиш ва солиққа тортиш каби тизимлар ўртасида узлуксиз ахборотлар алмашинувини янада такомиллаштиришни зарурлиги;

- давлат ер кадастри ахборотларига жамоатчиликни тўғридан-тўғри кириши ва фуқаролар фаоллигини ошириш имкониятларини яратиш учун уларга қулай бўлган интерфейслар шаффофлигини таъминлаш зарурлиги.

Тўғри, юқоридаги муаммолар Ўзбекистонда юритилаётган давлат ер кадастри тизимини жаҳон андозаларига мос равишда ривожлантиришга имкон бермайди. Шундай бўлишига қарамасдан, олиб борилган таҳлилий тадқиқотлар юқоридаги муаммоларни қисман бўлсада ҳал қилишга йўналтирилган янги имкониятларни ҳам пайдо бўлаётганлигини кўрсатди. Булардан қуйидаги иккитасини алоҳида эътироф этиш зарур [4,5,6]: сунъий интеллект ва машинани ўрганиш; блокчейн технологияси.

Бунда, агарда биринчи технология катта ҳажмлардаги ахборотларни таҳлил қилиш, муайян жараёнларни автоматлаштириш орқали самарадорликни ва аниқликни оширса, иккинчи технология ахборотлар ҳавфсизлигини, шаффофлигини ва кузатилишини кучайтириш орқали ташқаридан маълумотлар базасини бузиб кириш хавфини камайтиради [4,5].

Блокчейн технологияси асосан давлат ер кадастри базасидаги мавжуд ёзувларни бошқаришининг хавфсиз, шаффоф ва самарали усулини бизга тақдим этиш орқали ер кадастрини сезиларли даражада яхшилаш имкониятини яратади. Бу йўналишда олиб борилган тадқиқотлар ушбу технологияни

кўйидаги имкониятларини алоҳида-алоҳида ажратиш имконини берди:

1. Ҳавфсиз ва бузғунчиликдан ҳимояланган ёзувларни ягона давлат ер кадастри базасида сақлаш.
2. Ошкоралик ва фойдаланиш имкониятларини ошириш.
3. Осонлаштирилган ахборот базасини яратиш жараёнларини мавжудлиги ва шу сабабли харажатларни камайтириш имкониятлари.
4. Маълумотларнинг аниқлиги ва яхлитлигини яхшиланиши.
5. Кенгайтирилган хавфсизлик ва махфийлик [4].

Махсус илмий адабиётларни ўрганиш шундан дарак бермоқдаки, давлат ер кадастри тизимида блокчейн технологияларидан фойдаланиш Швеция, Грузия, Бирлашган Араб Амирликларида маълум даражада йўлга қўйилган ва ижобий натижалар олинган [5]. Шулардан эътиборга олиб республикамизда ҳам давлат ер кадастри тизимини юритишда яқин келажакда ушбу технологиядан фойдаланиш, сўзсиз, қатта ижобий самара беради.

Хулоса. Юқорида келтирилган назарий тадқиқотлар, аналитик таҳлиллар асосида берилган тавсияларга суяниб қисқача хулоса қилиш мумкинки, давлат ер кадастрини Ўзбекистонда шаклланиши ва ривожланиши қатта тарихий йўлни босиб ўтган, уни замон талабларига мос такомиллаштириш йўлидаги баъзи муаммоларга қарамасдан қатта иқтисодий салоҳиятга эга мамлакатлардаги каби замонавий технологиялардан кенг фойдаланиш уни истиқболга юқори даражада ривожлантириш имкониятларини вужудга келтиради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни “Давлат ер кадастри тўғрисида”. Тошкент, 1998. Lex.uz
2. Бабажанов А.Р., Рўзибоев С.Б. Аҳоли яшаш жойлари кадастри. Тошкент, Тафаккур, 2011
2. Ma'lumotlarni boshqarish tizimlarini yaxshilash: Topogeodezik ma'lumotlarni samarali boshqarish tizimlari, ma'lumotlarni saqlash, tahlil qilish va tarqatishni tashkil qilish uchun zarur. Markazlashtirilgan Ma'lumotlar Bazasi: Turli manbalardan olingan ma'lumotlarni saqlash uchun markazlashtirilgan ma'lumotlar bazasini yaratish, ma'lumotlarning bir-biriga mos kelishini va turli idoralar o'rtasida ma'lumotlarni almashishni ta'minlaydi[4]. Standartlashtirilgan Ma'lumotlar Formatlari: Ma'lumotlarni saqlash va almashish uchun standartlashtirilgan formatlarni joriy qilish, turli tizimlar o'rtasidagi moslikni va ma'lumotlarni almashishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar Sifatini Nazorat Qilish: Kuchli ma'lumotlar sifati nazorati jarayonlarini qo'llash, topogeodezik ma'lumotlarning aniqligi va ishonchligini ta'minlaydi, xatolarni minimallashtiradi va noaniqliklarni bartaraf qiladi.

3. Xalqaro Hamkorlikni Kuchaytirish: Chegara bo'ylab joylashgan davlatlar o'rtasida ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va almashishda hamkorlikni kuchaytirish, ma'lumotlarning aniqligi va to'liqligi uchun juda muhimdir.

4. Mutaxassislarni Tayyorlash: Topogeodezik ma'lumotlarni samarali to'plash, tahlil qilish va ulardan foydalanish uchun malakali mutaxassislar zarur. Ixtisoslashtirilgan o'quv dasturlari: Geodeziya, topografiya va geospatial texnologiyalar bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash uchun ixtisoslashtirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish, ularni aniq chegaralarni boshqarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan jihozlaydi. Bilimni o'tkazish: Seminarlar, konfyerensiyalar va qo'shma ilmiy tadqiqotlar orqali bilim almashuvini osonlashtirish, sohadagi eng yaxshi amaliyotlarni qabul qilish va innovatsiyalarni rag'batlantirishga imkon beradi. Xalqaro Hamkorlik: Boshqa davlatlarning nufuzli muassasalar va mutaxassislari bilan xalqaro hamkorlikni amalga oshirish, bilim almashishni rag'batlantiradi va chegaralarni boshqarish bo'yicha eng yaxshi amaliyotlarni targ'ib qiladi[7].

Topogeodezik ma'lumotlar bilan ta'minlashni takomillashtirish davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonining aniqligi, ishonchligini va samaradorligini oshirish uchun muhimdir. Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, ma'lumotlarni boshqarish tizimlarini yaxshilash, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va mutaxassislarni tayyorlash bu jarayonga ijobiy ta'sir

ko'rsatib, chegaralarni aniqlash va belgilashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni bartaraf etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Brown, K. (2018). Geospatial Data Management for Effective Border Administration. Journal of Border Security, 15(1), 72-88.
2. Marupov A. et al. Methods for researching the influence of electromagnetic waves of power transmission lines on soil properties //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 508. – C. 07002.
3. Yokubov S. Development of agricultural cards using Arcgis and Panorama technologies //Innovations in Science and Technologies. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 101-107.
4. Khakimova K., Yokubov S. Creation and maintenance of state cadasters in therepublic of Uzbekistan //Innovations in Science and Technologies. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 85-93.
5. Yokubov S. Scientific and theoretical foundations for thedevelopment of maps of the legal status of state landcadasters in the territory using gis technologies //Innovations in Science and Technologies. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 80-84.
6. Eshnazarov D. et al. Describing the administrative border of Koshtepa district on an electronic digital map and creating a web map //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 452. – C. 03009.
7. Khakimova K. et al. Application of GIS technologies for improving the content of the tourist map of Fergana province, Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 386. – C. 04003.

Yuldosheva Yulduz Shuxrat qizi

Qarshi Irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Yer kadastr va yer tuzish yo'nalishi talabasi

DAVLAT YER KADASTRINI YURITISHDA GEODEZIK VA KARTOGRAFIK ISHLAR

Annotasiya: Davlat yer kadastr O'zbekistonda eng rivojlangan kadastr turi hisoblanadi. Davlat yer kadastr geodeziya va kartografiya bilan uzviy bog'liq. Bunda Davlat yer kadastriga oid qonunlar, yuritish tartibi, geodeziya va kartografiyani tutgan o'rni va ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Davlat yer kadastr, geodezik-kartografik ta'minlash, ekologik strategiya, infratuzilma loyihalari, boshqaruv qarorlari, global navigatsiya, geodezik koordinatalar tizimlari.

ГЕОДЕЗИЧЕСКИЕ И КАРТОГРАФИЧЕСКИЕ РАБОТЫ В ВЕДЕНИИ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЗЕМЕЛЬНОГО КАДАСТРА

Аннотация: Государственный земельный кадастр является наиболее необходимым видом кадастра в Узбекистане. Государственный земельный кадастр неразрывно связан с геодезией и картографией. При этом дается информация о роли и значении законов о государственном земельном кадастре, порядке управления, геодезии и картографии.

Ключевые слова: государственный земельный кадастр, геодезическо-картографическое обеспечение, экологическая стратегия, инфраструктурные управленческие решения, глобальная навигация, геодезические системы координат.

GEODETIC AND CARTOGRAPHIC WORKS IN THE MANAGEMENT OF THE STATE LAND CADASTRE

Abstract: *State land cadastre is the most necessary type of cadastre in Uzbekistan. State land cadastre is inextricably linked with geodesy and cartography. In this, information is given about the role and importance of state land cadastre laws, management procedure, geodesy and cartography.*

Key words: *State land cadastre, Geodetic-cartographic provision, environmental strategy, infrastructure-based management decisions, global navigation, geodetic coordinate systems.*

Davlat yer kadastrini - mamlakat hududining aniq va mukammal xaritalarini yaratish, ularni boshqarish, monitoring qilish va yangilashni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Geodezik-kartografik ta'minlash, o'z navbatida, davlatning hududiy nazorati, iqtisodiy rivojlanish, tabiiy resurslarni boshqarish va xalqaro chegaralarni belgilashda zarur vosita bo'lib xizmat qiladi. Yer kadastrning to'g'ri tashkil etilishi va geodezik tizimlarning aniq ishlashi davlat siyosati, qonunlari, iqtisodiy rejalari va ekologik strategiyalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, geodeziya va kartografiya fanlarining rivojlanishi davlatning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Davlat kadastrlari – bu davlatning yer resurslari, ularning holati va foydalanish tartibini nazorat qilish uchun amalga oshiriladigan hujjatli va xaritalash ishlari tizimi. Ular yer resurslarining to'liq va aniq hisobini yuritish, ularni taqsimlash, foydalanish va ularga oid huquqiy munosabatlarni tartibga solish maqsadida yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat kadastrlari to'g'risida" gi qonun 2000-yil 15-dekabrda qabul qilingan.

Davlat yer kadastrini yerlarni tabiiy xo'jalik va huquqiy maqomi, toifalari, sifat xususiyatlari va qiymati, yer uchastkalarining o'ri va o'lchamlari va ularni yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlar o'rtasidagi taqsimoti to'g'risidagi ma'lumotlar va hujjatlar tizimidan iborat.

Davlat yer kadastrini davlat kadastrlari yagona tizimini boshqa kadastr tizimlari va monitoringlarini yaratish va yuritish uchun fasoviy-huquqiy asosi hisoblanadi. Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritish uchun yer kadastr axborotining tarkibi va taqdim etish tartibi O'zbekiston Respublikasi yer resurslari geodeziya, kartografiya va davlat kadastrini davlat qo'mitasi tomonidan belgilanadi. Davlat Kadastrini yuritish ishlari davlat budjetidan va boshqa manbalar hisobidan mablag' bilan ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat yer kadastrini to'g'risida" gi qonuni 1998-yil 28-avgust kuni qabul qilingan.

Davlat yer kadastrini va ularni geodezik-kartografik ta'minlash mamlakat hududining aniq va mukammal xaritalarini yaratish, ularni boshqarish, monitoring qilish va yangilashni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Geodezik-kartografik ta'minlash, o'z navbatida, davlatning hududiy nazorati, iqtisodiy rivojlanish, tabiiy resurslarni boshqarish va xalqaro chegaralarni belgilashda zarur vosita bo'lib xizmat qiladi. Yer kadastrning to'g'ri tashkil etilishi va geodezik tizimlarning aniq ishlashi davlat siyosati, qonunlari, iqtisodiy rejalari va ekologik strategiyalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, geodeziya va kartografiya fanlarining rivojlanishi davlatning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasining tumanlar yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastr davlat korxonalari:

Mulkdorlardan, yer egalaridan, yerdan foydalanuvchilardan va ijarachilardan huquqiy holatda yer uchastkalarining tarkibida va yer uchastkalaridan foydalanishda yuz bergan o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘playdilar va natariusda tekshirilgandan keyin joriy o‘zgarishlarni uch kun mobaynida yer kadastr axborotiga kiritadilar;

Yer-kadastr daftarini va navbatchi yer kadastr xaritasini tashkil qiladilar va yuritadilar tuman yer resurslarining mavjudligi va sifat bo‘yicha holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bazasini doimiy ravishda yangilab boradilar;

Har yili 15-yanvargacha Qoraqalpog‘iston Respublikasi viloyatlar va Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastr boshqarmalariga yerlarning miqdori va ulardan foydalanish to‘g‘risida hisobot taqdim etadilar.

Yer kadastrini yuritishda geodezik ishlar muhim rol o‘ynaydi, chunki ular yerning aniq joylashuvini va o‘lchovlarini belgilashga yordam beradi. Geodezik ishlar quyidagi asosiy faoliyatlarni o‘z ichiga oladi:

- Yer uchastkalarining chegaralarini aniqlash: Kadastr uchun yer uchastkalarining aniq o‘lchovlarini olish, chegara nuqtalarini belgilash va bu nuqtalarni xaritalarga joylashtirish.

- Topografik xaritalar va reyslarni tayyorlash: Hududning geodezik va topografik xaritalarini tuzish, bu esa yer uchastkalarining o‘lchovlarini va mavjud infratuzilmasini aniqlashda yordam beradi.

- Koordinatalar tizimiga asoslangan ishlov berish: Yer uchastkasining aniqligini ta‘minlash uchun global navigatsiya va geodezik koordinatalar tizimlaridan foydalanish (masalan, GPS tizimlari).

- Yer o‘lchovlarini tekshirish va tasdiqlash: Kadastr ishlarini to‘g‘ri va ishonchli amalga oshirish uchun yer o‘lchovlarini doimiy ravishda tekshirish va tasdiqlash.

- Kadastr rejalarini tuzish: Geodezik ishlar asosida yerning kadastr rejalarini ishlab chiqish, bu yerning huquqiy holatini, o‘lchamlarini va boshqa parametrlarini belgilaydi.

- Yerlarni tekshirish va qiymatini baholash: Geodezik o‘lchovlar orqali yerning qiymatini aniqlash va yer uchastkalarining potentsial foydalanish imkoniyatlarini baholash.

Umuman olganda, geodezik ishlar yer kadastrining asosiy elementlaridan biri bo‘lib, ularning aniq bajarilishi yer resurslarini samarali boshqarish va mulk huquqlarini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Davlat yer kadastrini yuritishda kartografik ishlar muhim o‘rin tutadi, chunki ular yer resurslarini to‘g‘ri va samarali boshqarish, yerlarni hisobga olish, rejalashtirish va monitoring qilishda yordam beradi. Kartografik ishlar orqali yerning geografik joylashuvi, hududiy chegaralari, foydalanuvchi maqsadlari va boshqa ko‘plab parametrlari aniqlanadi. Bular quyidagilarga taalluqlidir:

1. Yerning joylashuvini aniqlash: Yerning aniq koordinatalarini va chegaralarini belgilash, shu bilan birga yer o‘lchovlarini va tahlillarini o‘tkazish.

2. Kartalar yaratish: Turli miqyosdagi kartalar (masalan, topografik, tematik, rejalashtirish kartalari) yaratish va yangilash. Bu kartalar yerlar bo'yicha aniqlik kiritadi va rasmiy hujjatlar uchun asos bo'ladi.

3. Yer tahlili va tasnifi: Kartografik materiallar orqali yerlarning turli kategoriyalarini tasniflash (qishloq xo'jaligi, sanoat, yashash joylari va boshqalar). Bu yerlarning samarali foydalanish va qayta taqsimlashga yordam beradi.

4. Geoinformatsion tizimlar (GAT): Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, masalan, GPS va GIS tizimlaridan foydalanib, yerlarning aniq joylashuvi va holatini tahlil qilish. Bu tizimlar kartografik ishlarga aniqlik kiritadi.

5. Yerlarni monitoring qilish: Yerlarning holatini kuzatish, ularni o'zgarishlarini qayd etish va tahlil qilish kartografik yordamida amalga oshiriladi.

6. Dasturiy ta'minot va ma'lumotlar bazalari: Yer kadastr bo'yicha ma'lumotlar bazalari va kartografik dasturlar yordamida yerlar haqidagi barcha kerakli ma'lumotlarni saqlash va yangilash.

Kartografik ishlar davlat yer kadastrining samarali yuritilishiga, yer resurslaridan oqilona foydalanishga va yer bilan bog'liq huquqiy muammolarni hal qilishga katta hissa qo'shadi.

Xulosa: Davlat yer kadastrini yuritishda geodezik va kartografik ishlar juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlar yer resurslarini samarali boshqarish, mulk huquqlarini himoya qilish, shuningdek, iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Geodezik ishlar yerning to'g'ri o'lchovlari va hududlarning aniq xaritalarini yaratish uchun zarur bo'lib, bu esa yer kadastrini yangilash va izchil yuritishga imkon beradi.

Kartografik ishlar esa, olingan geodezik ma'lumotlar asosida turli maqsadlar uchun kerakli xaritalarni yaratish jarayonini o'z ichiga oladi. Ushbu xaritalar nafaqat yer resurslarini boshqarishda, balki tabiiy ofatlar, infratuzilma loyihalari va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ham muhim vosita hisoblanadi.

Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar, masalan, GPS tizimlari, total stansiyalar va GIS (Geografik axborot tizimlari), geodezik va kartografik ishlarni ancha soddalashtiradi va yanada aniqroq natijalar olish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, davlat yer kadastrini yuritishda geodezik va kartografik ishlar o'rtasidagi uyg'unlik va to'liq integratsiya, resurslarni boshqarish va yerga bo'lgan huquqlarni ta'minlashda muvaffaqiyatli va samarali tizimni yaratishga xizmat qiladi. Bu jarayonlar o'zaro bog'liq bo'lib, har biri o'zining mustaqil va bir-birini to'ldiruvchi ahamiyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat kadastrlari to'g'risida" gi qonun.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat yer kadastr to'g'risida" gi qonun.

3. A. R. Bobojonov, Q. R. Raxmonov, A. J. G'ofirov "Yer Kadastr" Toshkent-2014.

4. I. Ixlosov, D. Rizayeva " Davlat Kadastr Asoslari" Toshkent-2020.

Nuretdinova Mashhuraxon Ilhamjanovna
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Geodeziya va geoinformatika kafedrasi o'qituvchisi
Toshkent, O'zbekiston E-mail: m.nuriddinova1987@gmail.com
Xolmurodov Muhammadbobur Maxmudjon o'g'li
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Geodeziya, kartografiya va kadastr yo'nalishi talabasi

SUG'ORILADIGAN YERLARNING MELIORATIV HOLATI

Annotasiya. Ushbu maqolada bugungi kunda chet mamlakatlarda umumiy sug'oriladigan ekin yer maydonlari hamda aholi sonining Jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yer maydoni aniqlash yoritilgan. Sho'rlangan yerlar xaritasi ko'rsarib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Chet davlatlari nomi, sug'oriladigan yer maydoni, aholi soni, gektar, sho'rlangan yerlar

МЕЛИОРАТИВНОЕ СОСТОЯНИЕ ОРОШАЕМЫХ ЗЕМЕЛЬ

Аннотация. В этой статье рассказывается об общей площади орошаемых земель за рубежом и площади орошаемых земель на душу населения. На карте видны засоленные земли.

Ключевые слова. Наименование иностранных государств, площадь орошаемых земель, численность населения, гектар, засоленных земель

RECLAMATION STATE OF IRRIGATED LANDS

Abstract. This article describes the total area of irrigated land abroad and the area of irrigated land per capita. Saline land is visible on the map.

Keywords. Name of foreign states, area of irrigated land, population, hectare, saline land

Kirish. Hozirgi vaqtda jahon iqtisodiyotida tezkorlik bilan global rivojlanish kuzatilayotgan sharoitda yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, agrar ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish zarurdir. Rivojlangan chet el mamlakatlaridan, qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchi fermerlarimizning ishchi kuchini yengillashtirish maqsadida davlatimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanishi zaruriy ehtiyoj talab etadi. Yuqori natijalarga erishishda esa, ishlab chiqarishi texnika va texnologiyalarini qayta jihozlash zamon talablariga moslashtirish maqsadga muvofiq tadbir xisoblanadi. Uchuvchisiz uchish havo apparatlari yordamida qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini suratga olish doimiy monitoring olib borish imkoniyatini beradi va hosilning sifatini nazorat qilish va ekin ekish va talon-taroj qilish holatlarini aniqlashda qulayliklar yaratib beradi.

Mavzuning dolzarbligi. Yuqoridagilarning barchasi tadqiqotlar dolzarbligi va milliy iqtisodiy ahamiyatini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Insoniyatning dehqonchilik tarixida taxminan 2 milliard gektar unumdor yerlar sug'orilishi, sho'rlanishi, cho'lga aylanishi, qurilish ishlari olib borilishi tufayli yo'qotilgan. Hozir dunyo bo'yicha har yili 6-7 million gektar unumdor yerlar qishloq xo'jaligi tasarrufidan chiqib ketmoqda. Bu borada qishloq xo'jaligi sug'oriladigan yerlarni joriy yer xisobini o'tkazish, yerlarning hozirgi holati, unumdorligini saqlash, oshirish va unda kechadigan salbiy jarayonlarning oldini

olish orqali samarali foydalanish va muhofazalash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda qishloq xo'jaligi sug'oriladigan yerlarini joriy yer xisobidan o'tkazishning yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, qishloq xo'jaligi sug'oriladigan yerlarini joriy yer xisobidan o'tkazish uchun turlicha yondashuvlar va mexanizmlarni ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, sug'oriladigan yer maydonlarini joriy yer xisobidan o'tkazishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullarini takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Maqsad va vazifalari. Bugungi kunda dunyoda umumiy sug'oriladigan yekin yer maydonlar 480 mln.gektar bo'lib, doimiy yekin bilan band bo'lgan, yil davomida foydalaniladigan sug'oriladigan yekin yer maydonlari 41 mln. gektarni tashkil yetadi. Bu sug'orish orqali obod bo'lgan yerlar, ya'ni ularda sug'orish yordamida qishloq xo'jaligi faoliyati olib boriladigan maydonlardir. Sug'oriladigan yerlar jahon bo'ylab qishloq xo'jaligining eng muhim bo'g'ini hisoblanadi, chunki ular oziq-ovqat ishlab chiqarishning ko'p qismini ta'minlaydi. Bu yerlar asosan quyidagi mintaqalarda joylashgan.

Xitoy – sug'oriladigan yer maydoni jahon bo'yicha eng katta bo'lgan mamlakat. Xitoyda 65 million gektardan ortiq sug'oriladigan yer mavjud. Xindiston – sug'oriladigan yer maydonining umumiy miqdori 90 million gektardan ortiq. Amerika Qo'shma Shtatlari – 20 million gektardan ortiq sug'oriladigan yer maydoniga ega. Rossiya – sug'oriladigan yer maydoni taxminan 5 million gektar atrofida. Yevropa ittifoqi – mamlakatlarida sug'oriladigan yer maydoni 22-25 million gektar chamasi. Misr - sug'oriladigan yer maydoni 3 million gektardan ortiq. Bu ko'rsatkichlar davlatlar va mintaqalarning aholisi, yer foydalanish siyosati, iqlim sharoiti va iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab farq qiladi. Sug'oriladigan yer maydoni ko'p bo'lgan mamlakatlar, odatda, qishloq xo'jaligi uchun katta ahamiyatga ega va texnologiyalar jihatidan rivojlangan. Bu ma'lumotlar har xil resurslar, iqlim shartlari, va qishloq xo'jaligining rivojlanish darajasiga bog'liq bo'lib, har bir mamlakatning iqtisodiy va ekologiyalik xulosalarini ham hisobga oladi. Sug'oriladigan yekin yer maydonlari qishloq xo'jaligi tizimlarining asosi bo'lib, global oziq-ovqat ishlab chiqarish uchun xizmat qiladi. Dunyo aholisi (7,5 mlrd.)ning ko'payishi va qishloq xo'jaligi resurslariga talab kuchayib borayotgan bir sharoitda, hozirgi va kelajak talablariga javob beradigan sug'oriladigan yekin yer maydonlari (480 mln. ga)ning samaradorligini optimallashtirish hamda degradatsiya jarayonlarining oldini olish uchun sug'oriladigan yekin yer maydonlarini saqlash, tiklash va ko'paytirish hal qiluvchi ahamiyatga yega. Sug'oriladigan yer maydonining jon boshiga keladigan miqdori mamlakatning aholisi va yer maydonining umumiy miqdoriga bog'liq bo'lib, bu ko'rsatkich har xil davlatlarda farq qiladi. Har bir davlatda sug'oriladigan yer maydonining aholisiga nisbatan miqdori quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

Sug'oriladigan yer maydoni ko'p bo'lgan mamlakatlar, odatda, qishloq xo'jaligi uchun katta ahamiyatga ega va texnologiyalar jihatidan rivojlangan. Bu ma'lumotlar har xil resurslar, iqlim shartlari, va qishloq xo'jaligining rivojlanish

darajasiga bog‘liq bo‘lib, har bir mamlakatning iqtisodiy va ekologiyalik xulosalarini ham hisobga oladi. Sug‘oriladigan yekin yer maydonlari qishloq xo‘jaligi tizimlarining asosi bo‘lib, global oziq- ovqat ishlab chiqarish uchun xizmat qiladi. Dunyo aholisi (7,5 mlrd.)ning ko‘payishi va qishloq xo‘jaligi resurslariga talab kuchayib borayotgan bir sharoitda, hozirgi va kelajak talablariga javob beradigan sug‘oriladigan yekin yer maydonlari (480 mln. ga)ning samaradorligini optimallashtirish hamda degradatsiya jarayonlarining oldini olish uchun sug‘oriladigan yekin yer maydonlarini saqlash, tiklash va ko‘paytirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Sug‘oriladigan yer maydonining jon boshiga keladigan miqdori mamlakatning aholisi va yer maydonining umumiy miqdoriga bog‘liq bo‘lib, bu ko‘rsatkich har xil davlatlarda farq qiladi. Har bir davlatda sug‘oriladigan yer maydonining aholisiga nisbatan miqdori quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan. Kirish. Bugungi kunda dunyoda umumiy sug‘oriladigan yekin yer maydonlar 480 mln.gektar bo‘lib, doimiy yekin bilan band bo‘lgan, yil davomida foydalaniladigan sug‘oriladigan yekin yer maydonlari 41 mln. gektarni tashkil yetadi. Bu sug‘orish orqali obod bo‘lgan yerlar, ya’ni ularda sug‘orish yordamida qishloq xo‘jaligi faoliyati olib boriladigan maydonlardir. Rossiya – sug‘oriladigan yer maydoni taxminan 5 million gektar atrofida. Yevropa ittifoqi – mamlakatlarida sug‘oriladigan yer maydoni 22-25 million gektar chamasi. Misr - sug‘oriladigan yer maydoni 3 million gektardan ortiq. Bu ko‘rsatkichlar davlatlar va mintaqalarning aholisi, yer foydalanish siyosati, iqlim sharoiti va iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab farq qiladi. Sug‘oriladigan yer maydoni ko‘p bo‘lgan mamlakatlar, odatda, qishloq xo‘jaligi uchun katta ahamiyatga ega va texnologiyalar jihatidan rivojlangan.


Bu ma’lumotlar har xil resurslar, iqlim shartlari, va qishloq xo‘jaligining rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘lib, har bir mamlakatning iqtisodiy va ekologiyalik xulosalarini ham hisobga oladi. Sug‘oriladigan yekin yer maydonlari qishloq xo‘jaligi tizimlarining asosi bo‘lib, global oziq- ovqat ishlab chiqarish uchun xizmat qiladi. Dunyo aholisi (7,5 mlrd.)ning ko‘payishi va qishloq xo‘jaligi resurslariga talab kuchayib borayotgan bir sharoitda, hozirgi va kelajak talablariga javob beradigan sug‘oriladigan yekin yer maydonlari (480 mln. ga)ning samaradorligini optimallashtirish hamda degradatsiya jarayonlarining oldini olish uchun sug‘oriladigan yekin yer maydonlarini saqlash, tiklash va ko‘paytirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Sug‘oriladigan yer maydonining jon boshiga keladigan miqdori mamlakatning aholisi va yer maydonining umumiy miqdoriga bog‘liq bo‘lib, bu ko‘rsatkich har xil davlatlarda farq qiladi.

1-jadval

T/p	Chet davlatlari nomi	Sug‘oriladigan yer maydoni	Aholi soni	Jon boshiga to‘g‘ri keladigan sug‘oriladigan yer maydoni
1	Xitoy	65 mln.ga	1,4mlrd	0,046 ga
2	Xindiston	90 mln.ga	1,4 mlrd	0,064 ga
3	AQSh	20 mln.ga	330 mln	0,061 ga
4	Rossiya	5 mln.ga	140 mln	0,036 ga
5	Yevropa ittifoqi	22-25 mln.ga	450 mln	0,056 ga
6	Misr	3 mln.ga	100 mln	0,03 ga
7	O‘zbekiston	4,3 mln.ga	37 mln	0,116 ga

Natijalar va ularning muhokamasi. Chet el mamlakatlarida sug'oriladigan yer maydoni jon boshiga to'g'ri kelishi har xillikni tashkil etadi. Misol uchun, Xindiston, Xitoy va AQShda sug'oriladigan yer maydoni har bir kishi uchun 0.04 gektardan 0.06 gektar atrofida bo'lishi mumkin. Ammo kichik davlatlar, masalan, Misr va Rossiyada bu miqdor pastroq bo'lishi mumkin. Sug'oriladigan yer maydonining jon boshiga keladigan miqdori yerdan foydalanish tizimlari va aholi o'rtasidagi undan foydalanishdagi o'zaro munosabatlarga bog'liqdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu maqolada sug'oriladigan ekin yer maydonlaridan oqilona va samarali foydalanish tizimini takomillashtirish hamda degradatsiya jarayonlarining oldini olish uchun ekin maydonlarini saqlash, tiklash va ko'paytirish mumkin bo'lgan nazariy va uslubiy tamoyillar o'rganiladi.



1-rasm. Tashkent viloyati tuproq sho'rlanishi xaritasi ko'rsatilgan

Tadqiqot ob'ekti sifatida Tashkent viloyati xududigi sug'oriladigan yerlarning joriy yer xisobi tanlab olingan. Tadqiqotlar uslubi asosini amaliyotda umum qabul qilingan uslublar tashkil etadi. Ushbu vazifalarni tahliliy va kompleks amalga oshirishda zamonaviy GAT texnologiyalarining o'rni beqiyosdir. Yerdan foydalanishni tahlil qilish va yer maydonlarining o'zgarishini aniqlashda geografik axborot tizimlari (GAT) dasturiy ta'minotlari oilasiga mansub ArcGIS dasturidan keng foydalaniladi. Bugungi kunda mamlakatimizda, jumladan Tashkent viloyatida global iqlim o'zgarishi sug'oriladigan ekin yer

maydonlarning meliorativ hamda agroekologik holatiga keskin ta'sirini ko'rsatmoqda.

Sug'oriladigan ekin yer maydonlarning eroziyaga uchrashi; yerlarning sho'rlanishi, Tuproqlarning mexanik tarkibi o'zgarishlari yaqqol misol bo'la oladi. Toshkent viloyatidagi jami sho'rlangan yer maydonini aniqlash uchun har bir tuman va hududning sho'rlanish darajasini hisobga olib o'rganilganda, Toshkent viloyatida sho'rlangan yer maydoni taxminan 25-30 ming gektar atrofni tashkil etadi. Bu yerlar asosan suv bilan ortiqcha ta'minlangan yoki yozning issiq kunlarida suv tanqisligi yoki yangiliklar natijasida sho'rlanishi mumkin. Sho'rlangan yerlarning tarkibi va joylashuvi, xususan, yerlarning sug'orish tizimi, suv ta'minoti va iqlimga bog'liq bo'ladi. Sho'rlanish, yerlarning faol qishloq xo'jaligi faoliyati uchun foydalanilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, shuning uchun ularni tiklash va qayta tiklash uchun alohida choralar ko'rish talab etiladi. Bu kabi salbiy o'zgarishlar o'z navbatida hududlarda yer turlarining o'zgarishiga olib kelib, yer hisobini doimiy yuritishni talab etadi.

Sho'rlangan yerlar, asosan suv bilan ortiqcha ta'minlanish yoki suvning yomon drenaji natijasida yoki ozik moddalarning, shu jumladan, natriy yoki boshqa minerallarning ortiqcha jamlanishi sababli sho'rlanib ketgan yerlardir. Ushbu yerlardan samarali foydalanish qiyinlashadi, chunki ularning yuzaki qismida solarning ta'siriga o'xshash suvlarga xos bo'lgan qo'shimcha sho'rlar mavjud bo'ladi, bu esa o'simliklarning o'sishiga va qishloq xo'jaligida ulardan foydalanishga salbiy ta'sir etadi. Sho'rlangan yerlar bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun drenaj tizimlarini mustahkamlash, minerallarni yo'qotish uchun maxsus xo'jaliklar bilan foydalanish, kimyoviy moddalar (masalan, gips)dan foydalanish va sug'orish uslublarini yaxshilashga intilish talab etiladi.

Yerlarning meliorativ holatini doimiy tahlil qilish va uni hisobini yuritishda hududlar kesimida geoma'lumotlar bazasini yaratish talab etiladi. Hozirgi vaqtda ArcGIS dasturi yordamida sug'oriladigan ekin yer maydonlarning barcha ma'lumotlarini to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish, vizuallashtirish va kerakli qarorlarni qabul qilishda ma'lumotlar bazasi ko'rinishidagi ma'lum tizimlashtirilgan manba yaratish talab etilib, bu tizim asosida Toshkent viloyati tuproq sho'rlanishi xaritasi yaratildi 1-rasm.

Xulosa. Sug'orish eroziyasi bo'z tuproqlarda har yili har bir gektar sug'oriladigan ekin yer maydonida 100-150 tonna miqdorda tuproqning yuvilishiga olib keladi. Hosildorlik eroziya kam bo'lgan sug'oriladigan ekin yer maydonlarda 15-20% ga kamayish holatlari aniqlangan

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.Shokirov, I.M Musayev Masofadan zondlash.-Toshkent:2015-37b
2. I.M Musayev, E.Yu.Safarov Geoaxborot tizim va texnologiyalar. Toshkent: 2012-160 b
3. wikipedia.org/wiki/

V SEKSIYA

ZAMONAVIY GEOGRAFIYA VA GEOEKOLOGIYANING NAZARIY-AMALIY JIHLTLARI

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОВРЕМЕННОЙ ГЕОГРАФИИ И ГЕОЭКОЛОГИИ

THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF MODERN GEOGRAPHY AND GEOECOLOGY

Avezov Muxriddin Maqsud o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Tabiiy geografiya kafedrasida dotsenti v.b., g.f.f.d. (PhD)

Toshkent, O'zbekiston. E-mail: m.avezov@nuu.uz,

Ismatullayev Komil Mamasharif o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,

Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti

Tabiiy geografiya kafedrasida magistranti

Toshkent, O'zbekiston. E-mail: ismatullayevkomil2201@gmail.com

SARIOSIYO TUMANINING GEOLOGIK-TEKTONIK VA OROGRAFIK TUZILISHIGA UMUMIY TAVSIF

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sariosiyo tumanining geologik-tektonik va orografik tuzilishi tahlil qilindi. Mazkur ishni olib borish davomida mavzuga oid adabiyotlar va ensiklopediya ma'lumotlari tahlil qilindi, geografik qiyoslash va modellashtirish kabi bir necha metodlardan foydalanildi. Shunindek, maqolada tuman hududining orografik sxemasi hamda meridian bo'ylab tuzilgan geologik-tektonik profili tavsiflandi.

Kalit so'zlar: geologik tuzilish, orografiya, tog' jinsi, tog'lar, yer yoriqlari, geologik davrlar, relyef.

ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ГЕОЛОГО-ТЕКТОНИЧЕСКОГО И ОРОГРАФИЧЕСКОГО СТРОЕНИЯ САРЫАСИЙСКОГО РАЙОНА

Аннотация. В данной статье проанализировано геолого-тектоническое и орографическое строение Сарыасийского района. В ходе проведения данной работы были проанализированы литературные и энциклопедические данные по теме, использованы несколько методов, таких как географическое сравнение и моделирование. Также в статье представлена орографическая схема территории района и геолого-тектонический профиль, составленный вдоль меридиана.

Ключевые слова: геологическое строение, орография, горные породы, горы, разломы, геологические периоды, рельеф.

GENERAL CHARACTERISTICS OF THE GEOLOGICAL- TECTONIC AND OROGRAPHIC STRUCTURE OF THE SARIASIA DISTRICT

Abstract. This article analyzes the geological-tectonic and orographic structure of the

Sariasi district. In the course of this work, literary and encyclopedic data on the topic were analyzed, several methods were used, such as geographical comparison and modeling. The article also presents the orographic scheme of the territory of the district and the geological-tectonic profile compiled along the meridian.


Keywords: geological structure, orography, rocks, mountains, faults, geological epochs, relief.

Kirish. Hududning tabiiy sharoitini tavsiflashda, uning geologik, geomorfologik va orografik tuzilishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u mazkur hududda tarqalgan tuproq qoplami, o‘simlik hamda hayvonot dunyosining, bu orqali esa butun tabiiy sharoitning shakllanishida muhim omillardan hisoblanadi. Iqtisodiy jihatdan esa, joyning geologik va orografik tuzilishi mazkur hududning qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvini, tabiiy sharoit bilan bog‘liq sanoat tarmoqlarining shakllanish istiqbollari belgilab beradi. Jumladan, mamlakatimizning paleozoy, mezozoy erasi tog‘ jinslari tarqalgan hududlarida rudali foydali qazilmalar ko‘p uchraydi va bunga bog‘liq ravishda tog‘-kon sanoati, qora va rangli metallurgiya kabi sanoat tarmoqlari shakllanadi. Aksincha, yurtimizning nisbatan yoshroq geologik-orografik tuzilishga ega bo‘lgan, paleogen, neogen va to‘rtlamchi davrlarida shakllangan tekisliklari esa rudamas foydali qazilmalar va yoqilg‘i resurslariga boy sanaladi. Shu jihatlarni hisobga olsak, hududlarning geologik, geomorfologik va orografik tuzilishini o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Ma‘lumki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda hududlarning geologik-geomorfologik tuzilishini chuqur o‘rganish, yangi foydali qazilma konlarini izlab topish hamda hududlarni barqaror rivojlantirishda ular tabiiy sharoitining potensial imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Buni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi “Geologiya sohasiga investitsiyalarni faol jalb etish, tarmoq korxonalarini transformatsiya qilish va respublika mineral-xom ashyo bazasini kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5083-son qarori misolida ham ko‘rishimiz mumkin [5].


Maqsad va vazifalari. Ushbu ishning **maqsadi** etib Sariosiy tumanining orografik, geomorfologik va geologik tuzilishini tahlil qilish belgilandi. Tumanning geologik-geomorfologik hamda orografik tuzilishini geologik svitalar va komplekslar tarqalishiga bog‘liq holda o‘rganish va natijalarni xulosalash tadqiqot ishining **vazifasi** etib belgilandi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Sariosiy tumani siyosiy-ma‘muriy jihatdan Surxondaryo viloyatining shimoliy qismini o‘z ichiga oladi. Tabiiy geografik jihatdan esa tumanga Surxondaryo tabiiy geografik okrugining shimoliy qismi, ya‘ni Hisor tizmasining eng baland qismiga tutash janubiy etaklari kiradi. Tuman hududini janubi-sharqda Bobotog‘, janubi-g‘arbda Boysuntog‘, Surxontog‘, Chaqchar tizmalari (1-rasm) o‘rab turadi [2].



1-rasm. Sarisioy tumaniga va unga tutash hududlarning orografik sxemasi

Ma'lumki, Hisor tog'i Pomir-Oloy tog' tizimining janubi-g'arbiy etaklarida joylashganligi bilan ajralib turadi. Demak, mazkur tog'lar Pomir-Oloy tizmalari bilan bir xil shakllanish va rivojlanish bosqichlariga egadir. Bu esa Hisor tizmasi ham xuddi Pomir-Oloy tizmalari singari turli yoshdagi svitalar hamda murakkab intruziv jinslardan tashkil topishiga sabab bo'lgan (2-rasm). Buning natijasida hududda turli geologik tuzilmalar, cho'kindi va metamorfik tog' jinslari shakllangan.



2-rasm. Janubiy Tyanshan tarkibiga kiruvchi tizmalarning 68°30' sharqiy uzoqlik bo'ylab profili. 1) Quyi va o'rta paleozoy (aniqlanmagan); 2) ordovik va quyi silur; 3) devon – quyi toshko'mir (karbonat va karbonat toshli tog' jinslari); 4) quyi va o'rta toshko'mir (vulkanik tog' jinslari); 5) yuqori paleozoy (flish va molassa); 6) mezozoy – kaynozoy (terrigen-karbonat platforma tog' jinslari); 7) granit; 8) perm (nordon vulqon jinslari); 9) yer yoriqlari; 10) litotektonik zonalar; 11) mezozoygacha shakllangan tekislangan yuzalar; 12) profil yo'nalishi.

Hududning geologik shakllanish jarayonida ko‘plab davr yotqiziqalarini ko‘rishimiz mumkin. Tuman hududida proterozoy yotqiziqalaridan to to‘rtlamchi davr yotqiziqalarigacha bo‘lgan barcha geologik hosilalarni uchratishimiz mumkin. Sariosiyo tumani hududi parallel yo‘nalishi bo‘yicha turli tektonik shakllanish xususiyatlari mavjud bo‘lgan divergent strukturada joylashgan. Hisor tizmasida ikkita strukturaviy sath ajralib turadi: pastki qismi Rifey tog‘ burmalanishida hosil bo‘lgan tog‘ jinslarining yosh diapazonidan permgacha (bukilgan metamorfik asos) va yuqori qismi quyi yuradan neogen-to‘rtlamchi davrgacha (platformaning orogen qoplamasi)dir [3].

Shuni ta’kidlash kerakki, tuman hududidagi eng qadimiy yotqiziqalar proterozoy eonining *Xondiza*, *Molo‘ngur*, *Mostavat*, *Maland* svitalari jinslari hisoblanadi. Ular tuman To‘palang suv omborining g‘arbiy qismida tarqalgan va qalinligi 2000 m dan ortiq bo‘lgan gneys, amfibolit, marmar va karbonatli jinslardir.

Sariosiyo tumani hududida paleozoy erasi jinslari katta maydonni egallaydi. Xususan, bunda Xovat va Kishtut daryolarining yuqori oqimi, To‘palang suv omborining sharqiy qismlarida yer yuzasiga chiqib qolgan kembriy-ordovik sistemasida hosil bo‘lgan *obizarang* svitasi, silur-devon sistemasida hosil bo‘lgan *janubiy ballantov* svitasi, toshko‘mir sistemasida hosil bo‘lgan *vaxshivor svitalari* yotqiziqalaridan iborat ***Iloq kompleksi*** mavjud. Ushbu svitalar Hisor tizmasi bo‘ylab, ya’ni tumanning shimoliy qismida parallel, Boysuntog‘ga tutash qismlarida esa meridional yo‘nalishda joylashgan. Ularda uchraydigan tog‘ jinslari, asosan, slanes, gneys, marmar, riolit, riyotsid, konglomerat va fillit kabi metamorfik jinslar, shuningdek, ohaktosh va qumtoshlardir. Bu jinslar qadimgi dengiz muhitini ifodalaydi va tog‘ tizmalari poydevorining bir qismini tashkil etadi.

Tuman hududida mezozoy jinslari ko‘p uchramaydi. Faqatgina yura va bo‘r davri qumtoshlari, ohaktoshlari, gillari keng tarqalgan. Ushbu davrlar tog‘ jinslari tarkibida ko‘pincha dengiz organizmlarining qoldiqlari mavjud bo‘lib, bu xususiyat hududning katta qismi uzoq vaqt davomida sayoz dengizlar ostida bo‘lganligini dalillaydi.

Kaynozoy erasi yotqiziqalari tuman hududining janubiy qismlarida, shuningdek, daryo vodiylari va nisbatan past tog‘ yonbag‘irlarida uchraydi. Neogen davrida alp burmalanishining sodir bo‘lishi O‘rta Osiyo o‘lkasi janubi-sharqiy qismlarining baland tog‘lar bilan o‘ralishi va tog‘li hududlarda muzliklarning to‘planishi, yog‘inlarning yog‘ishi natijasida yirik daryolarning shakllanishiga zamin yaratdi. Ular asta-sekinlik bilan tog‘lardan tekisliklar tomon oqa boshladi. Bu jarayonda, tabiiyki, daryolar o‘zining eroziya, transportirovka va akkumulyatsiya ishini bajardi. Shu tufayli, tog‘larda daryolar tor vodiylar hosil qildi, botiq yerlarni o‘z tarkibidagi loyqalar bilan to‘ldirdi, ya’ni mazkur tog‘lar oralig‘idagi botiqlar va tekisliklar eroziya bazisiga aylandi. Shuning uchun ham

O'rta Osiyo relyefi va geologik tuzilishining shakllanishida to'rtlamchi davrda mavjud bo'lgan daryolarining ahamiyati beqiyos hisoblanadi [1]. Ushbu holat tuman hududi uchun ham xos xususiyatdir. Chunki Sariosiyo hududida ham paleozoy erasida shakllangan jinslar hozirgi soy va daryolar ishi natijasida kuchli parchalanib ketgan. Bunday svitalar sirasiga, Hissor tizmasining tog' oldi hududlarida, neogen sistemasida shakllangan *munchoq* svitasi kiradi. Bu svita, asosan, qo'ng'ir gillar, alevrolitar, qumtoşlar, gravelitlar, konglomeratlardan iborat.

Bizga ma'lumki, Chirchiq-Ohangaron vodiysining geologik-tektonik xususiyatlarini o'rgangan Y.A.Skvorsov va V.N.Vasilkovskiylar o'zlarining "Erozion-akkumulyativ sikllar" (1940) nazariyasini yaratadilar. Bunga ko'ra, Chirchiq-Ohangaron daryo vodiysini neopleystotsen va golotsen davrida hosil bo'lgan jinslarning stratigrafik bo'linishiga qarab 4 majmuaga ajratish mumkin bo'ladi [4; 17-b.]. Shu o'rinda, Surxondaryo vodiysidagi jinslarning ham stratigrafik bo'linishi 4 ta majmuadan iborat. Bular Ko'lob, Iloq, Dushanbe va Surxondaryo majmualari hisoblanadi. Bu majmualar ko'plab jinslardan tarkib topgan, ular tarkibida shag'alli-qumli yotqiziqlar hamda lyossimon jinslar mavjud bo'lib, qalinligi 500-600 m gacha yetadi.

Xulosa. Sariosiyo tumani geologik-tektonik va geomorfologik tuzilishida dengiz cho'kindilarining murakkab tarixi, tog' hosil bo'lish jarayonlari va davom etayotgan tektonik faollik o'z aksini topgan. Hududdagi boy mineral resurslari, murakkab relyefi va xilma-xil geologik xususiyatlari uni ilmiy o'rganish va resurslardan foydalanish yo'llarini izlash uchun qiziqarli tadqiqot obyektiga aylantiradi. Kichik hududlarda olib boriladigan tabiiy geografik tadqiqotlar esa hududlarning geologik-geomorfologik tuzilishini batafsil o'rganish, uning asnosida hududlarni kompleks baholash va iqtisodiy rivojlantirishga turtki bo'ladigan ilmiy xulosalarni olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Avezov M.M., Elmurotova A.M. Kattaqo'rg'on tumanining geologik va orografik tuzilishiga umumiy tabiiy geografik tavsif // "FarDU Ilmiy xabarlar" ilmiy jurnali. –Farg'ona, 2024. 135-139-betlar.
2. Xasanov I.A, Gulyamov P., Sharipov Sh.M., Avezov M.M., R.Ibragimova. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: "Ma'rifat", 2024. – 308 b.
3. Leonov M.G., Rybin A.K., Batalev V.Yu., Matyukov V.E., Shchelochkov G.G. Tectonic structure and evolution of the Hissar–Alay Mountain Domain and the Pamirs // Geotektonika, 2017, No. 6, pp. 37–57.
4. O'zbekiston milliy atlas. I jild. –T.: "Kartografiya" ICHDK, 2020.
5. <https://lex.uz/uz/docs/-5383715>

Abdullayev Suyun Ismatovich

Qarshi davlat universiteti, Geografiya kafedrasida dotsenti, g.f.n. dots.

Qarshi, O'zbekiston.

EKOLOGIK GEOGRAFIYA-GEOEKOLOGIYANING TARKIBIY QISMI

Annotatsiya: maqolada fanlararo integrativ geoekologiyaning tarkib topishi, uning geografiyadagi tarkibiy qismi bo'lgan ekologik geografyaning predmeti va vazifalari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: landshaft ekologiyasi, landshaftshunoslik, geografiya ekologiya, ekologik geologiya, integrativ geoekologiya, Yer ekologiyasi, ekologik geografiya.

ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ГЕОГРАФИЯ-СОСТАВНАЯ ЧАСТЬ ГЕОЭКОЛОГИИ

Аннотация: в статье изложены содержание междисциплинарной интегративной геоэкологии, предметы и задачи экологической географии, являющейся ее составной частью в географии.

Ключевые слова: ландшафтовая экология, ландшафтоведение, географическая экология, экологическая геология, интегративная геоэкология, экология Земли, экологическая география.

ECOLOGICAL GEOGRAPHY IS A COMPONENT OF GEOECOLOGY

Abstract: The article describes the structure of interdisciplinary integrative geoecology, the subject and tasks of ecological geography, which is an integral part of geography.

Keywords: landscape ecology, landscape science, geographic ecology, ecological geology, integrative geoecology, Earth ecology, ecological geography.

Hozirgi geoekologiya nemis geografi K.Troll (1939) asos solgan landshaft ekologiyasining tadrijiy rivojlanishi asosida tarkib topdi va rivojlandi. Uning fikricha, landshaft ekologiyasi “landshaftning muayyan qismidagi tirik turkumlar va ularning muhiti orasidagi o'zaro munosabatlarga bog'liq bo'lgan asosiy komplekslarni organish bilan shug'ullanishi lozim” [6]. Landshaft ekologiyasining obyektini Yer yuzasidagi tabaqalashuvni ifodalaydigan tabiiy – hududiy komplekslar (landshaftlar) hamda muayyan tabiiy – hududiy kompleksni band etgan senozlar va ekotoplar tashkil etadi, asosiy vazifasi esa hudud bo'yicha ekologik o'zgarishlarni funksional tahlil qilishdan iborat. K.Trollning ta'biricha (1939), landshaft ekologiyasi “Yer yuzasining makondagi (hududiy) ekologiyasidir” [7].

1966-yilda Mexiko shahrida bo'lib o'tgan Tropik Amerikaning tog' hududlariga bag'ishlangan simpoziumda qilgan ma'ruzasida K.Troll “landshaft ekologiyasi” terminining sinonimi sifatida ingliz tilida “geoekologiya (Geoecology)” terminini qo'llaydi. K.Troll bu terminlarni geografiya va biologiya o'zaro tutashgan tabiatshunoslik sohasini belgilash uchun qo'llagan edi [8].

Hozirgi paytda ham Yevropaning bir qator mamlakatlari va AQSH geograf

olimlari (Bauer, Vaynichke, 1971; Drdosh, 1973; Neef, 1974; Barsh, Rixter, 1976; Vink, 1983; Risser, 1987; Boer, 1988; Noymeyster, 1988; va b.) tomonidan “geoekologiya” va “landshaft ekologiyasi” adekvat tushunchalar sifatida qo'llaniladi [3].

Sobiq Ittifoqda asosiy e'tibor landshaftlarning resurslariga qaratilganligi sababli “geoekologiya” termini o'tgan asrning 70-yillarida zamonasining atoqli geograflardan biri bo'lgan B.V.Sochavaning unga (1970) bergan ta'rifidan so'ng keng foydalana boshlandi. V.B. Sochavaning fikricha, landschaft ekologiyasining muhim vazifalaridan biri landschaft byujetini va geosistemalarning ekologik mavjudligining tamoyillarini aniqlashdan iborat. Masalani kengroq qo'yganda, tuzilmasida biotik komponent va uni nazorat qiladigan ekologik – geografik aloqalar muhim ahamiyatga ega bo'lgan geosistemaning barcha mexanizmini o'rganish zarur [2].

Shunday qilib, landschaft ekologiyasi materiya uyushuvining tabiiy qonuniyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan bo'lsada, inson faoliyatining taqozasi bo'lgan va ma'lum darajada tabiiy aylanma harakatlarga daxldor bo'lgan barcha hodisalarni ham qamrab olmogi lozim.

V.B. Sochava geoekologiyani geografik muhit va barcha uning komponentlarining holati to'g'risida, unda kechadigan jarayonlar to'g'risida Yerning boshqa geosferalarining holatida ham namoyon bo'ladigan (shu jumladan salbiy) jarayonlar to'g'risidagi fan deb ta'riflaydi [5]. Geoekologiyaning mazmuni bunday tushunilganda K.Troll tomonidan kiritilgan tushunchadan tubdan farq qiladi. Geoekologiyani qisqa qilib geografiya fanining tabiiy (geografik) muhitni ekologik nuqtai nazardan va insoniyatning ekologik muammolarini yechish maqsadlarida o'rganadigan fan sifatida ta'riflash mumkin. Geoekologiya geografiyaning ichki (tabiiy geografiya va sotsial-iqtisodiy geografiya) hamda tashqi (ekologiya, falsafa, iqtisodiyot va texnikaviy fanlar) integratsiyasining mahsulidir. Shu nuqtai nazardan geoekologiya geografik, biologik (ekologik) va sotsial - ishlab chiqarish sistemalarining o'zaro ta'sirini o'rganadigan integrativ ilmiy yo'nalish sifatida talqin qilinishi lozim. Bu holda geoekologiya tabiatdan foydalanishning ekologik jihatlarini, jamiyat (inson) va tabiat o'zaro munosabatlari masalalarini o'rganadi.

XX asrning 90-yillaridan boshlab geograflar bilan bir qatorda “geoekologiya” terminiga ekologik-geologik mazmun bergan holda geologlar ham davogarlik qilishdi (Osipov, 1993; Tpofov va Zilin, 1998; Sudo, 1999; Smirnov, 2006 va b.) geologik yondashuv geologiyadagi mustaqil fanlararo bo'limga – litosferaning atmosferaning yer yuzasi qatlami, yuza suvlari, tuproq qoplamidan tashqari boshqa ekologik funksiyalarini o'rganadigan ekologik geologiyaga rasmiylashdi. Geologlar geologik ekologiya bilimlarning jonli organizmlar, shu jumladan inson, texnogen inshootlar va geologik muhit orasidagi qonuniy aloqalarni o'rganadigan sohasi sifatida talqin qilishni taklif etishdi [3,4].

Geologlar geograflarga nisbatan ancha ilgarilab ketishga ham ulgurдилar. Rossiyalik geologlarning sa'y-harakatlari natijasida 1996-yilda geologik-ekologik tadqiqotlarni markazlashtirish maqsadida Sankt-Peterburg shahrida Rossiya Fanlar akademiyasining Y.M.Sergeyev nomidagi geoekologiya instituti (Sergeev Institute of Environmental Geoscience RAS (IEG RAS) tashkil topdi. Tarkibida 10 ga yaqin laboratoriya bo'lgan bu institutning ilmiy faoliyatining 8 ta asosiy yo'nalishda tadqiqot olib borilmoqda. "Geoekologiya" nomi bilan akademik jurnal chop etilmoqda.

Ayni bir paytda «Geoekologiya» terminiga Yer to'g'risidagi barcha fanlar davogarlik qilish huquqiga ega. Shu sababli endilikda geoekologiya ekologiyaning qonunlari Yer to'g'risidagi barcha fanlarning – geografiya (ekologik geografiya, ekologik landshaftshunoslik, ekologik meteorologiya, ekologik ilimshunoslik, ekologik paleogeografiya va b.), geologiya (ekologik geologiya, ekologik geodinamika, ekologik geokimyo, ekologik geofizika, ekologik mineralogiya va b.), tuproqshunoslikning (ekologik tuproqshunoslik, agroekologiya, ekologik dehqonchilik va b.) yutuqlari bilan sintezlovchi integral ilmiy yo'nalish sifatida qaralishi lozim.

Geoekologiya ko'p jihatdan Yer to'g'risidagi tabiiy fanlarga va, shuningdek, sotsial-iqtisodiy fanlarga asoslangan. Tub mazmuniga ko'ra geoekologiya – eng maqbul termin va uning so'zma-so'z tarjimasi uni Yer ekologiyasi to'g'risidagi, Yerning geografik qobig'ini tashkil etuvchi geosferalarning o'zaro munosabati va o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi fanni ifoda etadi; Yerdagi butun jonli (shu jumladan insonni) sistemani hayot mavjud bo'lgan abiotik muhit bilan birgalikda o'rganadigan fan - "global ekologiya" sifatida belgilanish. mumkin. bunday holda asosiy e'tibor dastavval sayyoramizga, so'ngra insonga qaratiladi. Bunday geosentrik qarash biosentrik qarashdan farq qilgan holda umumiy ekologiyaning boshqa barcha yo'nalishlarida ustunlik qiladi. Shu sababli geoekologiyaning asosiy vazifasi turli geosferalarning o'zaro va biosfera bilan o'zaro ta'siri muammolari, modda va energiya katta geologik aylanma harakatining kichik biologik aylanma harakat bilan nisbatlarining xususiyatlarini aniqlash, yangi "geologik kuch" - insoniyatning bu jarayonlarga ta'sirini belgilash hamda barcha joyda tarqalgan va geobiosferaviy funksiyalarga ta'sir etadigan fizikaviy va kimyoviy sajiyadagi jarayonlar va hodisalarni tadqiq qilishdan iborat. Geoekologiya yangi, integrativ fanlar guruhiga mansub bo'lib, bir paytning o'zida ilmiy bilishning bir necha jabhasiga - tabiiy, ijtimoiy va texnikaviy fanlarga mabsub.

Geoekologiya to'g'risida geografik fanmi yoki geologik fanmi deya qilinayotgan sxolastik (behuda, quruq) munozara (tortishuv) muammoni sira oydinlashtirmaydi. Mohiyatiga ko'ra, geografiya va geologiya Yer to'g'risidagi fanlarning yagona majmuiasidir va ular pirovardida qarashlarning (fikr-mulohazalarning) - Yer nazariyasining yagona tizimini yaratishga olib kelishi

lozim. Tub mazmuniga ko'ra, geoekologiya – eng maqbul termin va uning so'zma-so'z tarjimasini uni Yer ekologiyasi to'g'risidagi, Yerning geosferalari va biosferaning o'zaro munosabati va o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi fanni ifoda etadi, tushuncha mazmuniga ko'ra global ekologiyaga yaqin va global ekologiya sifatida namoyon bo'ladi.

Geografiya fanidagi bu yo'nalishni belgilash uchun A.G.Isachenko *ekologik geografiya* termini taklif etildi. A.G.Isachenko (1994) ekologik geografiyani (qisqartmada – ekogeografiya) mohiyati va tadqiqot predmetiga ko'ra geografik bo'lgan fanlararo yo'nalish sifatida qaraydi. Uning fikricha ekologik geografiyani geografiya fanining predmeti bo'gan geografik muhitni gumanitar-ekologik nuqtai nazardan va uni asrash hamda yaxshilash maqsadlarida o'rganish bo'lgan bo'limi yoki alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida belgilaydi. Garchi bu yo'nalish geografiyava va ekologiya tutashuvida vujudga kelgan bo'lsada, uning geografiya doirasida shakllanganligini qayd etmoq lozim.

Hozirgi kunda fan va amaliyotning fanlararo yo'nalishi bo'lgan ekologik geografiya o'zining mohiyati va predmetiga ko'ra geografik, pirovard maqsadlariga ko'ra ekologik fandır. U geografiyaning konseptual asosiga va metodik apparatiga tayanadi. Ekologik geografiya uning talqiniga geografik yondashuv asosida rioya qilinadigan bo'lsa, u organizmlarni o'zini o'rganishga emas, balki ularning muhit sharoitlarining o'zgarishiga reaksiyasini va kishilik jamiyati va biosfera faoliyatining yashash muhitig aks ta'sirini kuzatib borishga zaruriyati tufayli vujudga keldi [2].

Ekologik geografiyaning asosiy maqsadi tabiatning jamiyat tomonidan turli maqsadlarda foydalanishning salbiy oqibatlarini mumkin darajada kam bo'lishiga keltirishdan iborat bo'lib, uning asosiy vazifalarini turli iyerarxik darajadagi tabiiy va tabiiy-texnogen geosistemalarni ularni mavjudligi, dinamikasi va tadrijiy rivojlanishini optimallashtirish maqsadida o'rganish, tabiiy muhitga antropogen ta'sir manbalarini, ularning intensivligi va makon-zamonda taqsimlanishini tadqiq qilish, atrof muhit monitoringini uyushtirish va o'tkazish muammolarini o'rganish, global, regional va lokal darajalardagi antropogen ta'sirlarning oqibatlarini baholash, modellashtirish va bashorat qilish, antropogen ta'sir ostidagi tabiiy muhit barqarorligini geoekologik tadqiq qilish, jamiyat xo'jalik faoliyatini optimallashtirish va resurslarning iste'mol qilinishini reglamentlash va boshqa yo'llar bilan atrof muhit bir butunligini asrash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat [2].

Ekologik geografiya tabiatdan oqilona foydalanishning nazariy va metodologik asosi, u atrof muhitni juda kam o'zgartirgan holda jamiyatning hayotiy faoliyatining optimal muhitini yaratish va asrash bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etishga da'vat qilingan.

Ekologik-geografik tadqiqotlar masofaviy zondlash materiallarini, geografik axborot tizimlarini va boshqa zamonaviy texnika vositalarini keng

qo‘llagan holda jonli va jonsiz tabiatni, kishilarning faoliyatini, inson va tabiat manfaatlarini birgalikda jalb qiladi.

Ekologik geografiya boshqa geografik fanlar, ayniqsa landshaftshunoslik bilan bilan chambarchas bog‘langan. Ekologik geografiyaning atrof tabiiy antropogen ta‘sirilar, landshaftning bu ta‘sirilarga barqarorligi kabi ko‘pgina fundamental masalalarini ishlab chiqish landshaftshunoslik doirasida boshlangan.

Landshaft ekologiyasi, geografik ekologiya va ekologik geografiyani aniq ifodalashdagi turlicha variantlarni tahlil qilish asosida ularni sinonimlar deb hisoblash mumkin va bu tushunchani geografiya fanining global, regional va lokal miqyoslardagi ekologik muammolarni yechish maqsadida har qanday hududning ekologik vaziyatini o‘rganadigan bo‘limini bildirish uchun foydalanish mumkin.

Ekologik geografya jamiyat va tabiat o‘zaro ta‘siri natijasida vujudga keladigan hududiy va sistemali uyushgan jarayonlar va hodisalarni turli kattalikdagi geosistemalar doirasida o‘rganish tashkil etadi. Geoekologiya insonning tabiiy atrofni buzilmagan (o‘zgarimgan) holatda emas, balki hozirgi paytdagi holatda, ya‘ni inson faoliyatining geografik qobiqqa ta‘sirini hisobga olgan holda tadqiq qiladi.

Ekologik geografiyaning mazmunini shartli ravishda barcha geografik fanlardagi kabi umumiy yoki nazariy (landshaftning ekologik salohiyati va uning antropogen o‘zgarishlari bilan bog‘liq asosiy ekologik-geografik qonuniyatlar), regional (aniq hududlar geosistemalarining hozirgi ekologik holatining regional ekologik-geografik tahlili) va tatbiqiy yoki konstruktiv (tabiiy muhitni ekologik optimallashtirishning geografik asoslarini ishlab chiqish) qismlardan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдуллаев С.И., Назаров М.Г. Геоэкология вужудга келишининг манбалари ва ривожланиши. География ва ландшафт экологияси. Илмий мақолалар тўплами. Самарқанд - 2012.
2. Исаченко А. Г. Введение в экологическую географию. Учебное пособие. Издательство С.-Петербургского университета. 2003
3. Осипов В.И. Геоэкология - междисциплинарная наука об экологических проблемах геосфер. Геоэкология, 1993, Ч. 1, с. 4-18.
4. Смирнов Н.П. Геоэкология. Учебное пособие -Спб: изд. РГГМУ, 2006 - 307 с.
5. Sochava V.B. Введение в учение о геосистемах.- Новосибирск, 1978.
6. Тролл К. Ландшафтная экология (геоэкология) и биогеоценология. Терминологическое исследование. Изв.АН СССР.Сер. геогор. 1972, № 3.
7. Troll C. Landschaftsökologie. In.: Pflanzensoziologie und Landschaftsökologie. – Symposium Stolzenau. The Hage, 1968.
8. Troll C. (ed.) Geocology of Mountainous Regions of the Tropical Americas (Proceed of the UNESCO Mexico Symposium, 1966) // Coll. geogr., 9, 1968. .Электронные ресурсы.

Nazarov maqsud Geldiyarovich

Qarshi davlat universiteti, Geografiya kafedrası, dotsent g.f.f.d (PhD)

Abdullayev Suyun Ismatovich

Qarshi davlat universiteti, Geografiya kafedrası dotsenti, g.f.n.

Qarshi, O'zbekiston.

AGROLANDSHAFTLARDAN FOYDALANISHNI OPTIMALLASHTIRISHNING GEOEKOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: maqolada agrolandshaftlarning xususiyatlari va shakllanishi, ularning o'zgarishi va ulardan foydalanishni optimallashtirishning geoeologik asoslari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jalik landshafti, agrolandshaft, geosistema, geoeologik yondashish, tabiatdan foydalanish, optimallashtirish, agrolandshaftning barqarorligi, atrof muhit muhofazasi

ГЕОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОПТИМИЗАЦИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ АГРОЛАНДШАФТОВ

Аннотация: в статье изложены особенности и формирование агроландшафта, геоэкологические основы преобразования и оптимизации использования.

Ключевые слова: сельскохозяйственный ландшафт, агроландшафт, геосистема, геоэкологический подход, природопользование, оптимизация, устойчивость агроландшафта, охрана окружающей среды.

GEOEKOLOGICAL FOUNDATIONS FOR OPTIMIZING THE UZE OF AGRICULTURAL LANDSCAPES

Abstract: the article presents the features and formation of agricultural landscapes, the geoeological foundations of their transformation and optimization of use.

Keywords: agricultural landscape, agrolandshaft, geosystem, geoeological approach, nature management, optimizing agricultural landscape, sustainability, environmental protection.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish maqsadlarida foydalaniladigan, uning ta'sirida shakllanadigan va mavjud bo'ladigan landshaft *qishloq xo'jalik landshafti* deyiladi. Qishloq xo'jalik landshaftlari – bu qishloq xo'jalik dalalari (sug'oriladigan va sug'orilmaydigan) dalalr, polizlar, bog'lar va hayvonlar uchun turli yaylovlar. Qishloq xo'jalik landshaftlari dalalar, pichanzorlar, o'tloqlar, qishloq aholi manzilgohlari, qishloq xo'jalik ishlab chiqarish obyektlari (turli fermalar, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha zavod va sexlar)ning mavjudligi bilan ifodalanadi. Hozirgi geografik adabiyotlarda, qishloq xo'jaligiga, Yer qurilishiga, tabiat muhofazasiga doir ishlarda qishloq xo'jalik landshaftlari agrolandshaftlar deb nom olgan [2,3].

Agrolandshaft deb qishloq xo'jalik faoliyati maqsadlari uchun va ta'siri ostida shakllanadigan va faoliytda bo'ladigan, aniqrog'i muayyan bir qishloq xo'jaligi mahsuloti olish uchun foydalaniladigan, mos landshaft differensiyasining hududiy uyushuviga ega bo'lgan tabiiy-xo'jalik landshaft tushuniladi.

Agrolandshaftlar odatda boshqa ishlab chiqarish landshaftlariga nisbatan

oddiyroq infratuzilmaga, axborot va transport aloqasiga, kommunal xo‘jaligiga ega. Shu sababli bu landshaftlar ishlab chiqarish landshaftlariga ko‘ra kamroq buzilgan relyefga ega. Agrolandschaftlar yirik yashil dalalardan iborat bo‘ladi. Yonbag‘irlarda tuproqlarni yuvilishdan asraydigan g‘ovlar (valiki) bilan o‘raglan, va mevali ekinlar yetishtiriladigan pog‘onasimon maydonchalarni sun‘iy yaratish tog‘ qishloq xo‘jalik landshaftlari uchun xos.

Agrolandschaftlar Yer yuzasida deyarli barcha geografik zonalarda tabiiy landshaftni o‘zgartirish yo‘li bilan yaratiladi. Agrolandschaftlar uchun butun tabiiy geosistemaning qayta shakllantirilishi, komponentlarning kuchli darajada o‘zgartirilganligi va bu landshaftlarning tub tabiiy landshaftlardan bir qator xususiyatlari bilan farq qilishi xosdir. Landshaftlardagi tabiiy muvozanat va mutanosiblikning buzilishi ularning o‘rnida boshqariladigan antropogen landshaftlari shakllanishiga olib keladi. Bu tipdagi landshaftni yaratishda ko‘pgina hollarda relyefni tekislash – mayda notekisliklarni bartaraf qilish natijasida amalga oshiriladi. Inson tabiiy landshaftlar o‘rnida qishloq xo‘jalik ishlarini olib boradi va buning natijasida boy tabiiy biosistemalar kambag‘al agrosistemalar yaratiladi [1]. Geosistema sifatida qaraladigan agrolandschaftlarni o‘rganishda ularning geoeologik konsepsiyasi turadi. Geoeologik yondashuvda agrolandschaftlarni o‘rganishga tabiiy omillar - sharoit, muhit agrolandschaftlarning vujudga kelishi uchun imkoniyat e‘tiborda bo‘lsa, turlari, ichki tuzilmasi va ularning uyushuvining sajiyasi madaniy landshaft doirasidagi sotsial-iqtisodiy omillar bilan belgilanadi. Agrolandschaftning asosiy xususiyatlari geoeologik jihatdan quyidagilarda ifodalanadi: tabiiy, sotsial va ishlab chiqarish kichik sistemalarining uyg‘unlashuvi; optimal va barqaror mavjud bo‘lishi (ishlab turishi, faoliytda bo‘lishi); nomaqbul jarayonlarning juda kam bo‘lishi; agrobiosenoz yashashi sog‘lom muhiti; doimiy monitoringning mavjudligi; antropogen tartibga solish, muhofaza va parvarishlash [5].

Hozirgi paytda dehqonchilikka geoeologik yondshuvni tadbiiq etish agrolandschaft hududini to‘g‘ri tashkil etish asosida asosan tuproqlarni eroziyadan, sho‘rlanishdan va ifloslanishdan asrash muammolari bilan bog‘liq. Barqaror o‘simlik turkumlarini ekologik jihatdan shikastlanuvchan agrosenozlar bilan almastirilishi, ularda begona yovvoyi o‘simliklar va qishloq xo‘jalik zararkunandalari uchun kira olish mumkin bo‘lgan bo‘sh ekologik o‘rinlarning (nisha) hosil bo‘lishi, tuproq qoplaminig eroziya va sho‘rlanish jarayonlarini tezlashuviga olib keladigan mexanik buzilishi, yerlar mahsuldorligining yomonlashuvi, tub landshaftni hududiy tashkil etishning soddalashuvi agrolandschaft ekologik zaifligining asosiy sabablaridir.

Tuproqqa agrotexnik ishlov berish, unga mineral va organik o‘g‘itlarni, meliorantlarni va pestisidlarni berish, almashlab ekish, suv melioratsiyasi (sug‘orish va quritish) landshaftga agrotexnogen ta‘sirning eng an‘anaviy turlaridir. Tabiiy o‘simlik qoplami deyarli batamom yo‘qotiladi, tuproqlar o‘zgaradi va turli darajada madaniylashgan o‘ziga xos haydaladigan tuproqlar yaratiladi. Chunonchi, haydashda tuproqlar yumshaydi, ularning suv rejimi

yaxshilanadi va pirovardida biologik faollik kuchayadi – organizmlarning soni ko'payadi, organik moddalarning minerallasuv jarayonlari kuchayadi. Ammo ayni paytda og'ir texnikadan foydalanish tuproqlarning zichlashuviga sabab bo'ladi, ularning suv o'tkazuvchanligi pasayadi va tuproq eroziyasi va qayta sho'rlanishi kuchayadi.

Agrolandshaftlar tabiatdan, xususan yerdan oqilona foydalanish va muhofaza qilish faoliyatining muhim obyektlaridir. Yerdan qishloq xo'jaligida foydalanishni landshaft asosida tashkil etish tabiiy resurslarni imkon qadar ko'proq hisobga olish va ularni asrashni hamda atrof muhit holatiga nomaqbul antropogen ta'sirni cheklashni nazarda tutadi. Shu sababli agrolandshaftlardan foydalanishni optimallashtirish, ularning mahsuldorligini oshirish, nomaqbul jarayonlarni oldini olish va bartaraf qilishga doir landshaft-ekologik tadqiqotlarni amalga oshirish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Agrolandshaftlar uchun butun tabiiy geosistemaning qayta shakllantirilishi, komponentlarning kuchli darajada o'zgartirilganligi va bu landshaftlarning tub tabiiy landshaftlardan bir qator xususiyatlari bilan farq qilishi xosdir. Landshaftlardagi tabiiy muvozanat va mutanosiblikning buzilishi ularning o'rnida boshqariladigan antropogen landshaftlari shakllanishiga olib keladi. Bu tipdagi landshaftni yaratishda ko'pgina hollarda relyefni tekislash – mayda notekisliklarni bartaraf qilish natijasida amalga oshiriladi. Inson tabiiy landshaftlar o'rnida qishloq xo'jalik ishlarini olib boradi va buning natijasida boy tabiiy biosistemalar kambag'al agrosistemalar yaratiladi.

Antropogen landshaftlarning boshqa turlari kabi agrolandshaft tabiiy, ishlab chiqarish va sotsial kichik sistemalarni o'z ichiga oladi. Agrolandshaftni tashkil etuvchi qismlari bir-biri bilan to'g'ri va teskari aloqalar vositasi bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi. Shu sababli kichik sistemalar o'zaro va butunlay optimal o'zaro bog'lanishda bo'lganda va bu o'zaro aloqa to'liq uyg'unlikka erishilganda (yetganda) agrolandshaftning vujudga kelishi imkoniyati bo'ladi.

Agrolandshaf qishloq xo'jalik ekinlari, ularni yetishtirish, hayvonlar va odam ehtiyojlarining ekologik talablari nuqtai nazaridan geosistema sifatida qaraladigan kategoriya. Bundan tashqari, agrolandshaft yetakchi agroekologik omillarning majmuasiga ko'ra ajratiladigan, faoliyati modda va energiya harakari yagona zanjiri doirasida kechadigan dehqonchilikning muayyan tizimini qo'llashni belgilaydigan geosistemadir.

Agrolandshaftlarni optimallashtirishning ilmiy asoslangan konsepsiyasi eng avvalo tabiatdan foydalanishning ekologiyalashtirishning global g'oyasiga asoslanmog'i lozim. Agrolandshaftlar quyidagi talablarga javob berishi lozim: uzoq muddatli bo'lishi, mavjud muvozanatdagi ekosistemalarni buzmasligi va ularning barqarorligiga imkon berishi, hududning umumiy ekologik balansini ta'minlashi va xo'jalik faoliyati jarayonida tiklanishi va katta xarajatlarni talab qilmasligi lozim.

Agrolandshaftdan samarali foydalanishning mohiyati ekologik muvozanatga va barqarorlikka ega bo'lgan landshaftlarni yarata oladigan Tabiat

tomonidan to'plangan tajribadan foydalanib, agrosistemalarning funksiyalarini tabiiy ekosistemalar funksiyalariga yaqinlashtirishdan iborat. Boshqacharoq qilib aytganda, inson o'z faoliyatida tabiiy jarayonlarga o'xshashi, ya'ni Tabiatga taqlid qilmog'i lozim.

Atrof muhitda ekologik vaziyatning yomonlashuvi, mineral tiklanmaydigan resurslar zahiralarning cheklanganligi, o'g'it, pestisid va o'simliklarni himoya qilish vositalarini ishlab chiqarish narxining oshib borayotganligi yer va mineral resurslardan oqilona va tejamkorona foydalanish bo'yicha tadbirlar qabul qilish zaruriyatini taqozo etadi.

Hozirgi paytda agrolandshaftlarga antropogen ta'sirlarning kuchayishiga bog'liq holda ularning strukturasini va mavjudligini yaxshilash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shu asosda qishloq xo'jalik ekinlaridan barqaror yuqori hosil va yuqori sifatli sof ekologik mahsulot olishni ta'minlash mumkin.. Bu nuqtai nazardan qaralganda tuproqlarni mahalliy sharoitlarda yoki ifloslangan havo massalaridan yogilar tushishi natijasida vujudga keladigan eroziya va ifloslanishdan himoya qilish ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Agrolandshaftlar faoliyatini optimallashtirishga intilish dehqonchilikning adaptiv - landshaft tizimlari konsepsiyasini shakllanishiga olib keldi. Dehqonchilikning adaptiv - landshaft tizimlarini amaliyotga tatbiq etish agrolandshaftlarni barqarorlashtirish va qayta tiklash imkoniyatlarini oshiradi [4].

Hozirgi bosqichda qishloq xo'jalik sohasida yerdan foydalanishni optimallashtirish va tabiiy komplekslarning ekologik karkasini asrash muammosi muhim ahamiyatga ega. Bu muammoni dehqonchilikning hozirgi avlod tizimining asosi bo'lganbo'lgan adaptive- landshaft yer qurilishi yechishi lozim. U, bir tomondan, tabiiy resurslarni, boshqa tomondan, atrof muhit holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan antropogen ta'sirni cheklashni nazarda tutadi. imkoni boricha hisobga olish va asrashni nazarda tutadi [5].

O'tgan asr tuproqqa antropogen ta'sirning kuchayishini ifodalaydi. Shu sababli tuproq qoplaminin degradasiya jarayonlari intensivlashdi. Ihotazorlar, tizimli qo'llaniladigan eroziyaga qarshi hidrotexnik inshootlar, yo'llardehqonchilik tizimining elementlari (hududni eroziyaga qarshi uyushtirish, almashlab ekishlar, tuproqqa ishlov berish, texnologiyalar) barqarorlikni ta'minlaydi.

Har bir elementi o'ziga mos yuklamaga ega bo'lgan dehqonchilik tizimi agrolandshaftlarni shakllantirishning bosh vositasidir. Barcha tadbirlar ishlab chiqarishni ekologiyalashtirish nuqtai nazaridan baholanishi lozim. Ulardan agrolandshaftni barqarorligiga ko'ra tabiiy landshaftga yaqinlashtiradigan va mahsuldorlikni oshiradigan tadbirlar ayniqsa e'tiborga molik.

Qishloq xo'jalik faoliyati jarayonida insonning tabiiy muhitga ta'siri ayniqsa uzoq intensiv dehqonchilik regionlarida juda kuchli bo'lib, u sanoat ta'siri bilan barobar, ba'zi joylarda esa undan ham kuchliroq bo'ladi. Bu xildagi ta'sir o'zining ijobiy ekologik tomonlariga (o'simliklarning mineral ochiqishga qarshi turaolishi, landshaftlarda suv rejimining yaxshilanishi) ham ega. Landshaftlarning katta qismi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi tomonidan o'zlashtirilgan.

Geoekologik sharoitlarning xususiyatlarini e'tiborga olmaslik natijasida katta maydonlarni o'zlashtirilishi, sug'oriladigan yerlar maydonining kengaytirilishi agrolandshaftlar tuzilmasining soddalashuviga, bir xilligiga olib keladi. Buning

natijasida ancha katta maydonlarda tuproq hosildorligining pasayishi, eroziya jarayonlarining kuchayishi, qayta sho'rlanish va zax bosishi, yer usti va yer osti suvlari sifatini yomonlashuvi, yerlarning ifloslanishi kabi salbiy jarayonlarning kuchayishi sodir bo'la boshladi.

Nomaqbul jarayonlarni kuchsizlantirish, tuproqlarning hosildorligini hamda qishloq xo'jalik ekinzorlarining unumdorligini oshirish va atrof muhitni yaxshilash agrolandshaftlarning ekologik jihatdan barqaror tuzilmasini yaratishning asosiy yo'nalishlaridir. Atrof muhitda ekologik vaziyatning yomonlashuvi, tiklanmaydigan mineral resurslar zahiralarning cheklanganligi, o'g'it, pestisid va boshqa o'simliklarni himoya qilish vositalarini ishlab chiqarish narxining doimo o'sib borishi yer va mineral resurslardan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish bo'yicha tadbirlar qabul qilish zaruriyatini taqoza etadi.

Agrolandshaftlar geoeologik jihatdan uzoq muddat faoliyat ko'rsatmog'i, mavjud muvozzahatli ekologik tizimlarni buzilmasligi va ularning barqarorligiga imkon berishi, hududning umumiy ekologik balansini hamda yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlashi, xo'jalik faoliyati jarayonida tiklanishi va ayni paytda katta eksplutatsiya xarajatlarini talab qilmasligi va boshqa talablarga javob berishi kerak.

Agrolandshaft barqaror faoliyatining asosy sharti uni inson tomonidan muttasil parvarish qilinishi va boshqarilishidir. Boshqarishning usullaridan biri mahsuldor agrolandshaftning albatta bo'lishi lozim bo'lgan ekologik sinchini yaratishdan iborat.

Landshaft - ekologik sharoitlarning xususiyatlarini e'tiborga olmaslik natijasida katta maydonlarni o'zlashtirilishi, sug'oriladigan yerlar maydonining kengaytirilishi agrolandshaftlar tuzilmasining soddalashuvi, bir xilligi yuzaga keladi. Agrolandshaftlar tuzilmasining soddalashtirilishi natijasida esa, tuproq hosildorligining pasayishi, eroziya jarayonlarining kuchayishi, qayta cho'rlanish va botqoqlashuv (zax bosishi), yer usti va yer osti suvlari sifatini yomonlashuvi, yerlarning ifloslanishi kabi salbiy jarayonlarni kuchayishi ancha katta maydonlarda sodir bo'la boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Куракова Л.И. Антропогенные ландшафты. Особенности и закономерности формирования // Актуальные проблемы изменения природной среды за рубежом. М., Изд-во Московского ун-та, 1976. Гл. V. С.92-112.
2. Лопырев, М.И. Основы агrolandshaftного земледелия. - Воронеж: изд-во Воронежского ун-та, 1995. - 339 с. (Fundamentals of agrolandscape farming).
3. Николаев В.А. Концепция агrolandshaftа // Вестник МГУ. Сер. 5. География. 1987. №2. С.22-27.
4. Николаев В.А. ред. Агrolandshaftные исследования. Методология, методика, региональные проблемы. 1992. 120 с. (Agrolandscape studies. Methodology, method, regional problems).
5. Николаев В.А., Копыл И.В., Сысуев В.В. Природно-антропогенные ландшафты. (сельскохозяйственные и лесохозяйственные). Учебное пособие. М.: Географический факультет МГУ, 2009, 160 с.

Halimova Gulshan Subhonovna

BuxDU, Ekologiya va geografiya kafedrası dotsenti, g.f.f.d. (PhD), Buxoro,
O‘zbekiston. g.halimova83@mail.ru

Qalandarova Dilobar Davronovna

BuxDU, Ekologiya va geografiya kafedrası doktoranti, Buxoro, O‘zbekiston.
dilobar.qalandarova@gmail.com

Nuriddinov Rajabmirzo Maxsud o‘g‘li

BuxDU, Geografiya ta‘lim yo‘nalishi 1-bosqich magistranti, Buxoro,
O‘zbekiston. rajabmirzon19@gmail.com

BUXORO VILOYATI YO‘LBO‘YI LANDSHAFTLARINI TADQIQ QILISHDA GATDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada har qanday geografik tadqiqotlarda GAT texnologiyalarining ahamiyati, hududlarni tadqiq qilishda GAT texnologiyalari asosida yaratilgan kartalarning muhimligi to‘g‘risida so‘z boradi. Bundan tashqari mazkur maqola orqali Buxoro viloyati yo‘lbo‘yi landshaftlari tadqiqotchilar tomonidan GAT texnologiyasi yordamida rekreatsiya nuqtai nazardan tadqiq qilish ishlari boshlangani e‘lon qilingan.

Kalit so‘zlar: GAT texnologiyasi, landshaft-tipologik xarita, cho‘l-yaylov landshaftlari, yo‘l va yo‘lbo‘yi landshaftlari, elektron xaritalar, Buxoro viloyati rekreatsion imkoniyatlari.

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГИС ПРИ ИССЛЕДОВАНИИ ПРИДороЖНЫХ ЛАНДШАФТОВ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация: в данной статье говорится о важности ГИС-технологий в любых географических исследованиях, о значении карт, созданных на основе ГИС-технологий, в региональных исследованиях. Кроме того, в этой статье было объявлено, что исследователи придорожных ландшафтов Бухарской области приступили к исследованиям с точки зрения рекреации с помощью ГИС-технологий.

Ключевые слова: ГИС-технологии, ландшафтно-типологическая карта, пустынно-пастбищные ландшафты, дорожные и придорожные ландшафты, электронные карты, рекреационные возможности Бухарской области.

POSSIBILITIES OF USING GIS IN THE STUDY OF ROADSIDE LANDSCAPE IN BUKHARA REGION

Abstract: this article talks about the importance of GIS technologies in any geographical research, the importance of maps created on the basis of GIS technologies in regional studies. In addition, this article announced that researchers of roadside landscapes in the Bukhara region have begun research from a recreational point of view using GIS technologies.

Keywords: GIS technologies, landscape-typological map, desert-pasture landscapes, road and roadside landscapes, electronic maps, recreational opportunities of the Bukhara region.

Xarita – geografiyaning ikkinchi tili bo‘lsa,
GAT – xaritani idrok etishdir.

Har kuni hech bo‘lmaganda bir marta ob-havo sharoitini bilish yoki marshrutni aniqlashtirish uchun o‘zimiz bilmagan holda geoaxborotlardan foydalanamiz. Bu esa, kundan-kunga hayotimizning bir qismiga aylanib

bormoqda. Shunday ekan, geoaxborot va uning tizimlari haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz zamon bilan hamnafas yashashlikni ta'minlaydi. Xo'sh, geografik axborot tizimlari o'zi nima?

GAT – bu tabiat va jamiyat to'g'risidagi topogeodezik, Yer resurslari va boshqa sohalardagi kartografik ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, saqlash, yangilash, tahlil qilish va tasvirlashni ta'minlaydigan apparat-dasturli avtomatlashgan kompleksdir [1]. Sodda qilib aytganda GAT sayyoramizdagi obyektlarning nimaligi va qayerda joylashganligi haqidagi ma'lumotlar bilan ishlashga yordam beruvchi vositadir. Bugungi kunda GATning 20 dan ortiq ta'rifi mavjud bo'lsada [1, 243-b.], barachasining zamirida ma'lumotlarni qayta ishlash va tasvirlash yotadi.


Geografik axborot tizimlari 1960-yillarda, olimlar geografik xarita va ma'lumotlarni qayta ishlash uchun kompyuterlardan foydalanishni boshlaganlarida vujudga kelgan. XX asr oxiriga qadar “MapInfo”, “OCAD”, “GRASS GIS”, “ArcGIS” kabi GAT dasturlari yaratilgan. XXI asrda ishga tushirilgan nisbatan zamonaviy dasturlar qatoriga “OrbitGIS”(2001), “PostGIS”(2001), “QGIS” (2002)ni kiritish mumkin. Axborot kommunikatsiyalar davrida yuqorida nomlari qayd etilgan bu dasturlarning veb versiyalari ham yaratilgan bo'lib, ular yordamida tadqiqotni amalga oshirish va natijalarni tasvirlash vaqtini tejashga va ish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda [3].

GAT landshaftlarni tadqiq qilishda juda foydali vosita bo'lib, u landshaftni tahlil qilish, o'zgarishini kuzatish va kelajakdagi holatini bashorat qilish kabi qator imkoniyatlarni beradi. GAT orqali tabiat komponentlari, antropogen landshaftlar uyg'unlashtirilib o'rganilayotgan obyektning bir qancha qirralari ochib beriladi.

Biz amalga oshirayotgan tadqiqot ishida GATning o'rni alohidadir. Buxoro viloyati yo'lbo'yi landshaftlarini tadqiq qilishda geoaxborot tizimlari tadqiqotimizni ancha osonlashtiradi. Bunda yo'lbo'yi landshaftlarida mavjud o'simlik va hayvonot dunyosi vakillari, tuproq qoplami tahlil qilinib, bioxilma-xillikning hududiy taqsimoti, ekoresurslar xaritalashtiriladi.

Buxoro viloyati landshaft tiplari cho'lshunos olimlar I.Q. Nazarov va X.R. Toshovlar tomonidan tasniflangan va xaritalashtirilgan (2008). Ammo, mazkur tasnif xaritasi qo'l mehnati asosida bajarilgan (1-rasm) [4].


So'nggi o'n yillikda GAT texnologiyalari imkoniyatlari ortib borib, hududlarni xaritalashtirishda, ayniqsa landshaftlarni tasniflashda qo'l kelmoqda.



**1-rasm. Buxoro viloyati landshaft tiplari xaritasi
 (I.Q. Nazarov, X.R. Toshovlar bo‘yicha).**

Fan-texnika asrida zamonaviy elektron xaritalarning yaratilishi tadqiqot ishining sifati va ilmiyligini oshirmoqda. Jumladan, viloyatimiz yo‘lbo‘yi landshaft xaritasini tuzish hanuzgacha alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan va dolzarbligicha qolmoqda. Buxoro viloyati yo‘lbo‘yi landshaftlarini tadqiq qilish hamda GAT texnologiyalari asosida xaritasini yaratishdan asosiy maqsad viloyatning rekreatsiya imkoniyatlarini kengaytirishda yo‘llar va yo‘lbo‘yi landshaftlarining ham ahamiyatini oshirishdir.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun GAT dasturlaridan foydalanib, dastavval, o‘rganilayotgan joyning Digital Elevation Model (DEM) balandlik tasvirini <https://earthexplorer.usgs.gov/> sayti orqali yuklab olindi [2]. Quyidagi ketma-ketlikda ish jarayoni tashkil qilinmoqda (2-rasm).



2 - rasm. Buxoro viloyati yo'lbo'yi landshaftlari modelini yaratish metodologiyasi

Mazkur tadqiqot obyektining elektron kartasini yaratish va undan foydalanib Buxoro viloyati yo'lbo'yi landshaftlarini baholash borasida izlanishlar davom etmoqda. Kelajakda Buxoro viloyati yo'lbo'yi landshaftlarini rekreatsion nuqtayi nazardan baholash borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar O'zbekistonning boshqa hududlari uchun ham qo'llanilishi mumkin. Mazkur metodni qo'llash orqali nafaqat Buxoro viloyatida, balki respublika miqyosida yo'lbo' landshaftlaridan rekreatsiya maqsadlarida samarali foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Safarov E., Prenov Sh., Mo'minov A.. Topografiya va kartografiya, GAT texnologiyalari. O'quv qo'llanma: –T.: “Sano-standart” 2018-yil.- 344 bet.
2. Halimova G., Hikmatov F., Zaitov Sh., Ne'matov A. Assesment of local water resource in Kuljuktov mountain system // TEST Engineering & Management. Article Info Volume 83. ISSN: 0193-4120 Page No. 8665-8668. Publication Issue: March - April 2020 (Scopus).
3. Коновалова Т.И., Бессолицына Е.П., Владимиров И.Н., Истомина Е.А. и др. Ландшафтно-интерпретационное картографирование. Новосибирск.: Наука, 2005. 424 с.
4. Тошев Х.Р. Чўл ландшафтлари ва уларнинг агроимкониятларидан фойдаланиш (Бухоро вилояти мисолида). География фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент. 2008. - 26 б.

Oxunjonova Dildora Komiljon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Tabiiy geografiya kafedrasida tayanch doktoranti

Toshkent, O'zbekiston. E-mail: dildora.okhunjonova97@mail.ru

TOG'-KON SANOATINING ATROF MUHITGA TA'SIRI BO'YICHA XORIJDA VA RESPUBLIKADA AMALGA OSHIRILGAN TADQIQOTLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada tog'-kon sanoatining atrof-muhitga ta'siri bo'yicha xorijda va respublikamizda amalga oshirilgan tadqiqotlardan ayrimlari keltirilgan. Tog'-kon sanoati har bir mamlakat iqtisodiyotining muhim bo'g'ini bo'lishi bilan birga atrof-muhit holatini o'zgarishiga ham katta ta'sir ko'rsatuvchi tarmoq bo'lgani sabab tabiiy geografik jihatdan o'rganish, ta'sir darajasini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va uni qo'llash zarur hisoblanadi.

Kalit so'zlar: atrof-muhit, yashil iqtisodiyot, komponent, kon, og'ir metall, tuproq, geoekologik muammo, atmosfera.

ИССЛЕДОВАНИЯ ВЛИЯНИЯ ГОРНОДОБЫВАЮЩЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ, ПРОВОДИМЫЕ ЗА РУБЕЖОМ И В СТРАНЕ

Аннотация: в данной статье представлены некоторые исследования, проведенные за рубежом и в нашей стране, посвященные влиянию горнодобывающей промышленности на окружающую среду. Горнодобывающая промышленность является важной частью экономики каждой страны, и это отрасль, оказывающая большое влияние на изменение окружающей среды, поэтому необходимо разрабатывать и применять меры, направленные на снижение ее уровня.

Ключевые слова: окружающая среда, зеленая экономика, компонент, шахта, тяжелый металл, почва, геоэкологическая проблема, атмосфера.

RESEARCHES CARRIED OUT ABROAD AND IN THE COUNTRY ON THE IMPACT OF MINING INDUSTRY ON THE ENVIRONMENT

Abstract: this article presents some of the studies carried out abroad and in our country on the impact of the mining industry on the environment. The mining industry is an important part of the economy of every country, and it is a branch that has a great influence on the change of the environment. it is necessary to develop and apply measures aimed at reducing the level.

Key words: environment, green economy, component, mine, heavy metal, soil, geoeological problem, atmosphere.

Kirish. Mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tarmog'i bo'lgan tog'-kon sanoati atrof muhit tabiiy holatining o'zgarishiga sabab bo'luvchi manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur salbiy ta'sirlarni oldini olish, ta'sir darajasini kamaytirish hamda atrof muhit holatini yaxshilash yuzasidan mamlakatimizda bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmonida atrof-muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni

yaxshilash, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish haqida vazifalar belgilangan (*79-80-maqсадlar*) [1]. Bundan tashqari mamlakatimiz rahbari tomonidan 2025-yilni "Atrof muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb nomlanishi ham mazkur muammolarning o'rganilishi dolzarbligini bildiradi.

Asosiy qism. Tog'-kon sanoatining atrof-muhitga ta'sirini o'rganish bo'yicha xorijda va respublikada bir qancha ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu tarmoqning atrof-muhitga ta'sirini o'rganishda geografiya, ekologiya, geoekologiya, geokimyoy, landshaftshunoslik, tuproqshunoslik kabi fanlarning nazariyalaridan va yutuqlaridan foydalaniladi. Quyida mazkur yo'nalish bo'yicha izlanish olib borgan tadqiqotchilarning ishlari haqida ma'lumot beriladi.

I.A.Perelman 1979-yilda kimyoviy elementlar migratsiyasining turli jarayonlarga bog'liq holda to'rtta ko'rinishini ajratgan. Bular: 1) *mexanik*; 2) *fizik-kimyoviy*; 3) *biogen*; 4) *texnogen*. Elementlar migratsiyasini o'rganish jarayonida qaysi sabablarga ko'ra migratsiya ro'y berganini aniqlash talab etiladi. Chunki elementlarning tarqalish sabablarini bilmay turib ularning tog' jinslari, tuproq, suv, o'simlik tarkibidagi yuqori miqdorlarining kelib chiqish sabablarini izohlab bo'lmaydi.

A.E.Fersman o'z asarlarida cho'l, qutb rayonlarining geokimyoviy tavsifi, landshaftlar geokimyosiga izoh berib o'tilgan. Bundan tashqari u elementlar migratsiyasi sabablarini ikki: 1) *ichki*; 2) *tashqi omillarga* ajratgan [6].

XXI asrning I choragida Rossiyada tog'-kon sanoatining atrof muhitga ta'sirini o'rganish bo'yicha turli masshtabli ishlar bajarildi. Jumladan, *S.A.Ilchenkova* (Sankt-Peterburg, 2005), *N.A.Gasparyan* (Sankt-Peterburg, 2008), *S.V.Kovshov* (Sankt-Peterburg, 2010), *A.V.Strijenoye* (Sankt-Peterburg, 2015), *A.V.Ivanov* (Sankt-Peterburg, 2015), *Y.A.Krasavtseva* (Moskva, 2022), *A.V.Lusis* (Moskva, 2024) va boshqalarning tadqiqotlarini aytish mumkin.

Mamlakatimizda ham bu borada bir qator izlanishlar olib borilgan. *N.E.Shukurov* "Texnogen tarqalish areallari ekologik geokimyosi (Olmaliq kon-metallurgiya kombinati misolida)" mavzusida izlanish olib borgan. Uning ilmiy ishida Olmaliq sanoat zonasi tuproqlari, o'simliklari va tabiiy suvlarida ruda hosil qiluvchi elementlarning tarqalishining texnogen oreollari kon-metallurgiya ishlab chiqarish korxonasi qayta ishlangan rudalari tarkibini aks ettirishi, ifloslanish manbalari yaqinidagi tuproqlarda og'ir metallarning maksimal miqdori asosan ularning sulfidlar, karbonatlar, oksidlar, silikatlar va boshqalar bo'laklari ko'rinishidagi kam eriydigan mineral shakllari, shuningdek, sharlar ko'rinishidagi texnogen yangi hosilalar bilan bog'liqligini o'rgangan. Unga ko'ra anomaliyalarning intensivligi ifloslanish obyektlaridan 1-2 km masofada keskin

kamayadi. Texnogen elementlarning maksimal miqdori faqat tuproqning sirt qatlamida kuzatiladi. U skrinish qobiliyatiga ega va aeratsiya zonasining chuqurroq gorizontlarini va yer osti suvlarini ifloslanishdan himoya qiladi. Bundan tashqari o‘simliklarning ifloslanishi tuproqning ifloslanishi bilan bog‘liq bo‘lib, asosan texnogen elementlarning biomassaga ildiz tizimi orqali kirib borishi va kamroq darajada atmosferadan o‘simlik yuzasiga ifloslantiruvchi moddalar tushishi bilan bog‘liq. Suvning ruda hosil qiluvchi elementlar bilan ifloslanishi OKMK ning qattiq va suyuq chiqindilaridan kelib chiqadi. U 5-10 PDK darajasidagi og‘ir zaharli metallarning yuqori miqdori faqat infiltratsiya joylariga yaqin joyda kuzatiladi va ulardan uzoqlashganda keskin kamayib borishini nazariy va amaliy jihatdan asoslab bergan [5].

Z.A.Amanbayeva (2004) “Ohangaron daryosi o‘rta qismi havzasining geoeologik vaziyati va uni optimallashtirish yo‘llari” nomli nomzodlik ishida Ohangaron daryosi o‘rta qismi havzasining geoeologik holatini aks ettiruvchi yangi tipdagi kartalar tuzgan. Tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning uzviy bog‘langanligi va ularning miqdoriy ko‘rsatkichlarini aniqlagan. Ekologik vaziyatlarni landshaftlar bo‘yicha baholash mezonlari va ularni optimallashtirish yo‘llarini ishlab chiqqan [2].

A.S.Fozilov (2023) “Ohangaron havzasi yer osti suv resurslariga Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining ta‘sirini baholash” mavzusi bo‘yicha tadqiqot olib borgan. U o‘z ilmiy ishida ilk bor GIS texnologiyalari asosida Ohangaron havzasi yer yuzasi (landshaftlari) ning 2012–2022-yillarda sodir bo‘lgan o‘zgarishlarini ko‘rsatuvchi 1:600 000 masshtabdagi kartasi yaratgan. Ohangaron havzasining yer osti suv resurslari sathi va kimyoviy tarkibi tahliliga tayanib, 12 ta quduq guruhlari bo‘yicha 1:600 000 masshtabdagi kartalar yaratgan. Iqlim o‘zgarishi sharoitida Olmaliq KMK hududidagi yer osti suvlarining gidrokimyoviy rejimi o‘rganilgan va 12 ta quduq guruhlari (jami 46 ta quduq) bo‘yicha 2012-yildan 2022-yilgacha bo‘lgan o‘zgarishlari aniqlagan. Olmaliq KMK tasarrufidagi suv olish inshootlari yer osti suvlari sathining atmosfera yog‘inlari va bug‘lanish natijasida yillik tebranishlari amplitudasi aniqlangan. Ohangaron havzasi yer osti suv resurslarining texnogen omillar ta‘sirida ifloslanish darajasi aniqlagan va ulardan foydalanish sifat jihatidan baholagan [4].

M.X.Bekmuxamedova (2023) “Ohangaron vodiysi o‘rta qismida kimyoviy elementlarning tarqalishi va ularning aholi salomatligiga ta‘siri” nomli ilmiy ishida Ohangaron vodiysining o‘rta qismida joylashgan sanoat korxonalarining atrof-muhitga ta‘sirini o‘rgangan. GAT texnologiyalari asosida Ohangaron vodiysi o‘rta qismida xavfli kimyoviy elementlar tarqalishi va to‘planishining o‘rta (1:200000) va yirik (1:50000) masshtabli kartalarini (24 ta) yaratgan. Ohangaron vodiysi o‘rta qismida xavfli kimyoviy elementlarning ta‘siri natijasida

vujudga keladigan kasalliklarning turlari va ularning tarqalish arealini aniqlagan hamda o'рта masshtabli kartalarini (8 ta) yaratgan, xavfli kimyoviy elementlarning tarqalishini va aholi salomatligiga salbiy ta'sirini kamaytirish hamda ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan [3].

Xulosa. Tog'-kon sanoatining atrof muhitga ta'sirini o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Shu boisdan mazkur tarmoqni o'rganishda xorijlik va mahalliy tadqiqotchilar tajribasidan foydalanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.

2. Amanbayeva Z.A. Ohangaron daryosi o'рта qismi havzasining geoekologik vaziyati va uni optimallashtirish yo'llari. G.f.n. ilm.dar. olish uchun taq.et.diss. T.:2004.

3. Bekmuxamedova M.X. Ohangaron vodiysi o'рта qismida kimyoviy elementlarning tarqalishi va ularning aholi salomatligiga ta'siri. G.f.f.d (PhD) ilm.dar. olish uchun taq.et.diss. T.:2023.-120 b.

4. Fozilov A.S. Ohangaron havzasi yer osti suv resurslariga Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining ta'sirini baholash. G.f.f.d (PhD) ilm.dar. olish uchun taq.et.diss. T.:2023.

5. Шукуров Н.Е. Техноген тарқалиш ареаллари экологик геохимёси (Олмалик кон-металлургия комбинати мисолида). Г.-м.ф.н. илм.дар. олиш учун тақ.эт.дисс. – Т.:1999.

6. Okhunjonova D.K. Impact of mining on the environment // «XI Международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы математики и естественных наук», посвященной 100-летию со дня рождения к.п.н., доцента В.Л. Рабиновича» сборник материалов международной научно-практической конференции им, Petropavlovsk-Baku-Surgut, 23.05.2023.

7. Oxunjonova D.K. Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinatining atrof muhitga ta'siri: tadqiqotlar va natijalar // «Zamonaviy geografik tadqiqotlarda integratsiya: muammolar va yechimlar» xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Toshkent: 2024.

Avezov Muxriddin Maqsud o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Tabiiy geografiya kafedrasida dotsenti v.b., g.f.f.d. (PhD),

Toshkent, O'zbekiston, e-mail: muxriddin_avezov@mail.ru

Sobitov A'zamjon Abror o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU Geografiya va geoaxborot

tizimlar fakulteti geografiya yo'nalishi talabasi,

Toshkent, O'zbekiston, e-mail: azamsobitov8@gmail.com

TABIIY GEOGRAFIYA DARSLARIDA “GEOGRAFIK QOBIQNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI” MAVZUSINI O'QITISHDA O'QUV TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida «Geografik qobiqning rivojlanish bosqichlari» mavzularida o'quvchilarni kompetentlikka yo'naltiruvchi topshiriqlar ishlab chiqish va ulardan foydalanish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: geoxronologik jadval, arxei, kembriy, era, davr, kub, puzzle.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ТЕМЫ “ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ГЕОГРАФИЧЕСКОЙ ОБОЛОЧКИ” НА УРОКАХ ФИЗИЧЕСКОЙ ГЕОГРАФИИ

Аннотация. В данной статье рассмотрены вопросы разработки и использования заданий, ориентирующих учащихся на компетентность по темам «Этапы развития географической оболочки» в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: геохронологическая таблица, архей, кембрий, эра, период, куб, пазл.

THE METHODOLOGY OF USING EDUCATIONAL TASKS IN TEACHING THE TOPIC “STAGES OF DEVELOPMENT OF THE GEORAPHIC CRUS” IN PHYSICAL GEOGRAPHY LESSONS

Abstract. This article describes the issues of developing and using tasks that guide students to competence on the topics of «Stages of development of the geographical crust» in secondary schools.

Key words: geochronological table, crchean, cambrian, era, epoch, cube, puzzle.

Kirish. Butunjahon ta'lim tizimi amaliyotida pedagogik jarayonlarni modernizatsiya qilish, ta'lim tizimiga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim samaradorligini oshirishga e'tibor kuchaymoqda. Bu borada o'quvchilarning ilmiy xabardorlik va amaliy kompetentligini rivojlantirish, ta'lim mazmuniga qo'yilayotgan talablarni xalqaro baholash tadqiqotlari talablari asosida takomillashtirishga e'tibor ortmoqda.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. So'nggi yillarda yurtimizda olib borilayotgan islohotlar ta'lim-tarbiya tizimini ham chetlab o'tmadi. Bunga misol tariqasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrida qabul qilingan “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6108-son farmonini

keltirish mumkin. Kimyo fanini o'rganish uchun kimyoviy elementlar davriy jadvali qanchalik muhim bo'lsa, geografiyada geoxronologik jadval ham shunchalik muhim sanaladi. Geoxronologik jadval o'rta maktab darsliklarida alohida mavzular sifatida o'qitiladi. Shu boisdan bu mavzularni iloji boricha o'quvchiga tushunarliroq va qiziqarliroq tarzda yetkazib berish lozim. Shu sababdan mazkur mavzularni o'qitishda zamonaviy metodlar va o'quv topshiriqlarini qo'llash samarali bo'ladi degan fikrdamiz.

Ishning maqsadi va vazifalari. Tadqiqot ishining **maqsadi** geografiya darslarida o'quvchilarning "Geografik qobiqning rivojlanish bosqichlari" mavzusini o'zlashtirishlarini noan'anaviy o'quv topshiriqlari orqali yaxshilash hamda uni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Yuqoridagi maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilab olindi:

- 1) o'quvchilarda Yer va geografik qobiq doimiy o'zgarib turishi haqida tushunchalarni hosil qilish;
- 2) Yerning tabiati doim o'zgarib turishini va hozirgi holati ham o'zgarishga uchrashini tushuntirish va h.k;
- 3) o'qituvchi va o'quvchilar uchun yangi o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish.

1-jadval

Geoxronologik jadval


Eralar (belgisi va davom etishi)	Davrlar (belgisi)	Tog' burmalanishlari	Asosiy o'zgarishlar
Arxeoy (Ar) 1 mlrd yil	Davrlarga bo'linmaydi	—	Oddiy bakteriyalar, suvo'tlar paydo bo'lgan.
Proterozoy (Pr) 2 mlrd yil	Quyi O'rta Yuqori'	Bir nechta burmalanishlar bo'lgan	Yashil suvo'tlar, bakteriyalar rivojlangan.
Paleozoy (Pz) 330 mln yil	Kembriy (Cm) Ordovik (O) Silur (S) Devon (D) Toshko'mir (C) Perm (P)	Baykal Kaledon Gersin	Quruqlikda tirik organizmlar, ayniqsa, o'simliklar rivojlangan. Toshko'mir hosil bo'lgan. Hozirgi keksa tog'lar paydo bo'lgan.
Mezozoy (Mz) 173 mln yil	Trias (T) Yura (I) Bo'r (Cr)	Mezozoy	Bahaybat dinosavrlar paydo bo'lgan.
Kaynozoy (Kz) 67 mln yil	Paleogen (Pg) Neogen (N) Antropogen (Q)	Alp	Yosh tog'lar, iqlim mintaqalari, tabiat zonalari shakllangan, odam paydo bo'lgan.

Manba: Mirakmalov M.T., Sharipov Sh.M., Avezov M.M., Hojiyeva M.T. Geografiya (Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi). –T.: "Respublika ta'lim markazi", 2022. –160 b.

Natijalar va ularning muhokamasi. Geoxronologik jadvalda sayyoramiz tabiatida hozirgi davrgacha yuz bergan o'zgarishlar aks ettirilgan. Yerning yoshi era, davr kabilarga bo'lingan (1-jadval). Era va davrlar sayyorada yuz bergan yirik o'zgarishlardan kelib chiqib bo'linadi. Masalan, mezozoy erasi dinosavrlar ozuqa zanjirida yetakchilik qilgan era bo'lsa, kaynozoyda esa sutemizuvchilar dominant (hukmron) turga aylanishgan. Geoxronologik jadvalning asoschisi ingliz olimi

Uilyam Smit hisoblanadi. U birinchi bo‘lib cho‘kindi tog‘ jinslari qatlamlaridan organizm qoldiqlarining kolleksiyasini to‘plab, har bir qatlamdagi organizmlar shu qatlamning nisbiy yoshini bildirishini ilmiy isbotlagan.

Geoxronologik jadvaldagi era va davrlar, ularda yuz bergan o‘zgarishlarni eslab qolish uchun shu jadvalni “puzzle” boshqotirmasi kabi kesib olib, o‘quvchilar jamoasiga vazifa qilib berilsa bo‘ladi (1-rasm).



1-rasm. “Puzzle” boshqotirmasini ishlash jarayoni

Bundan tashqari era va davrlarning belgilari (bo‘r davri – *Cr*, Perm – *P*, Kembriy – *Cm* va hokazo) “o‘yin toshi” kabi kubning tomonlariga yozilsa va o‘quvchilar o‘zlariga tushgan davr yoki era haqida ma‘lumot yig‘ishsa shu davr haqida tasavvurga ega bo‘lishadi (2-rasm).




2-rasm. “Kub” boshqotirmasini ishlash jarayoni

“Puzzle” usulida iloji boricha o‘quvchilarning jamoa bilan ishlashini ta‘minlash kerak. Bunda o‘quvchilar uch yoki to‘rt guruhga ajratiladi va har bir guruhga alohida puzzle-jadvallar tarqatiladi. Sinfdagi o‘quvchilar bilimi va salohiyatidan kelib chiqib boshqotirmani yeg‘ish uchun ularga besh yoki uch daqiqa vaqt beriladi. O‘yin toshi usulida esa karton yoki maxsus qog‘ozlardan yasalgan kubning tomonlariga era va davrlarning belgilari yoziladi, o‘quvchi maxsus kubni tashlaydi va o‘ziga tushgan davr qaysi ekanligini topib unga doir ma‘lumot aytadi (1-jadvalga qarang).

Agar topa olmasa sinfdagi o‘quvchilar yordam beradi. Odatiy o‘quv topshiriqlaridan foydalanib o‘tilgan dars mashg‘ulotida sinfdagi 28 nafar o‘quvchidan 7 nafari mavzuni puxta o‘zlashtirgan bo‘lsa, “puzzle” va “kub”

o'quv topshiriqlarida mos ravishda 12 va 14 nafar o'quvchilar mavzuni a'lo bahoga o'zlashtirdi. Ushbu tajriba poytaxtdagi 270-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida amalga oshirildi. Ma'lum bir davrda yuz bergan o'zgarishlarga doir rasmi topshiriqlar ham o'quvchida davr haqida umumiy tasavvur uyg'otdi.

Masalan, Yer rivojlanish bosqichlarida yashagan tirik organizmlarning rasmlari ko'rsatiladi, o'quvchi rasmda ko'rsatilgan organizm qaysi davrda yashagani ayni damda mavjud yoki mavjud emasligini aytadi (3-rasm). Bu bilan o'quvchida Yer va geografik qobiqning bosqichma-bosqich, tadrijiy rivojlanishi haqida tasavvur paydo bo'ladi. Shu bilan birgalikda jadvalda rasmi ko'rsatilgan organizmlar haqida ham ma'lumotga ega bo'ladi.



3-rasm. O'quv topshirig'i namunasi

Xulosa. Amalga oshirilgan ishlarning natijasidan kelib chiqib shuni ayta olamizki, ushbu metodlar o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshiradi va ularda Yer rivojlanish bosqichlari haqida umumiy tasavvurni mustahkamlaydi. Ushbu mavzuga doir o'quv topshiriqlari yetishmovchiligi bois tabiiy geografiya darsliklaridagi ushbu mavzuni o'qigan o'quvchilarda, Geografik qobiq rivojlanish bosqichlariga oid ma'lumotlarni tushunish biroz qiyinchilik tug'dirar edi. Yuqorida taklif etilgan o'quv topshiriqlari orqali ushbu bo'shliqni to'ldirish mumkin degan fikrdamiz. Geografik qobiq rivojlanish bosqichlarini o'qitish, o'quvchi talabalarda tabiiy geografiyani o'qish davomida hosil bo'lgan bo'shliqlarni to'ldiradi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirakmalov M.T., Sharipov Sh.M., Avezov M.M., Hojiyeva M.T. Geografiya. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinflari uchun darslik. –T.: «Reliable Print», 2022.
2. Avezov M.M. va boshqalar. Geografiya 7. O'qituvchilar uchun qo'llanma. –T.: «Reliable Print», 2022.
3. G'ulomov P., Abdullayev R., Qurbonniyozov R. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi. O'qituvchilar uchun. –T.: «Tafakkur», 2014.
4. <http://geografiya.uz/>
5. www.Wikipedia.com
6. <http://lex.uz/docs/-5085887>

Aminov Bekhzod Bahram Ugli
National University of Uzbekistan
PhD student of the Department of Geoinformatics
Tashkent, Uzbekistan. E-mail: aminovbexzod@gmail.com

IMPACT OF CLIMATE CHANGE ON THE ECOLOGICAL SITUATION OF KHORAZM REGION

Abstract: The impact of climate change on the ecological situation in Khorezm region is becoming more and more important. Khorezm region is located in the north-west of Uzbekistan where is famous for its unique ecosystem and rich biodiversity. In recent years, the region has been experiencing significant changes in climate, which is having a profound effect on its environment. This article examines the impact of climate change on its geoecological situation in Khorezm region.

Keywords: climate change, geological condition, ecosystem, regional location.

XORAZM VILOYATINING IQLIM O'ZGARISHINI EKOLOGIK HOLATIGA TA'SIRI

Annotatsiya: Xorazm viloyatida iqlim o'zgarishining ekologik vaziyatga ta'siri tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xorazm viloyati O'zbekistonning shimoliy-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, u o'zining noyob ekotizimi va boy bioxilma-xilligi bilan mashhur. So'nggi yillarda mintaqada iqlimning sezilarli o'zgarishlari kuzatilmoqda, bu esa uning atrof-muhitiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada iqlim o'zgarishining Xorazm viloyatidagi geoeologik holatiga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: iqlim o'zgarishi, geologik holat, ekotizim, mintaqaviy joylashuv.

ВЛИЯНИЕ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА НА ЭКОЛОГИЧЕСКУЮ СИТУАЦИЮ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация: Влияние изменения климата на экологическую ситуацию в Хорезмской области становится все более и более важным. Хорезмская область расположена на северо-западе Узбекистана, где славится своей уникальной экосистемой и богатым биоразнообразием. В последние годы в регионе наблюдаются значительные изменения климата, что оказывает глубокое влияние на его окружающую среду. В данной статье рассматривается влияние изменения климата на геоэкологическую ситуацию в Хорезмской области.

Ключевые слова: изменение климата, геологическое состояние, экосистема, региональное расположение.

Introduction: The objectives consisted of several work packages (WPPs), each of which was designed to achieve a specific goal, but all were coherently linked and used to understand the overall research objectives. The first WP institute aims to understand the nature and direction of changes in regional climate in terms of various biophysical parameters. It provides insight into how climate data can be reduced and used by the region, so it must be understood in terms of biophysical and social environments. This will be an iterative process combined with modeling work and impactful fieldwork. WHO is an integrated qualitative and quantitative modeling exercise to identify household survival strategies and family vulnerability. It identifies the different strategies available to families and why, vulnerabilities to different shocks/stressors, and how these may change in

socio-ecological systems in the future. This provides useful information in identifying key issues and hotspots and comparing them with future model results. The Third World Institute focuses on modeling changes in climate, socio-ecological systems and assessing various vulnerabilities through different scenarios. This will identify potential hotspots and be useful in identifying key issues and hotspots and comparing them with VP 2 results to understand changes and vulnerabilities in these systems. The final part focuses on understanding the policy networks of global institutions at the national and international levels and identifying possible ways to translate our research into useful results in regional settings, possibly identifying areas where further research is needed.

Khorezm region is located in the lower reaches of the Amudarya river, in the Republic of Uzbekistan. It covers 6.3 million hectares consisting of deserts, floodplains and lowlands. The main economic activity is agriculture, characterized by the growth of cotton and rice. Khorezm has undergone significant environmental changes since the 1960s due to the lowering of the Aral Sea and human attempts to shape the environment. Environmental changes in Khorezm are greatly influenced by socio-economic and political factors; the dissolution of the soviet union led to significant changes in land ownership with various positive and negative effects on the environment. The origin of this fragility and dynamic changes prompted us to think about how projected future climate change might affect family life and the environment in Khorezm. This was to explore the changing socio-ecological systems and potential vulnerabilities in the region. It aims to understand macro-level global changes in climate and how they may affect the local level. By understanding the nature of climate change and the potential impacts on local environments, we can better understand, monitor and prepare for future challenges.

The introduction lays the foundation for the study. The relevant areas covered in this section are mainly studies related to climate change and geocological situation in Khorezm region. In addition, the parts of the research are the objectives of the research carried out by the methodology.

The Khorezm region has a long history of mankind and has seen many changes in its natural environment and the people who lived there. The Amudarya River has always been a dominant feature of the landscape and has been the basis for irrigated agriculture in the region. During the Persian Empire, the region was known as one of the most important agricultural regions in Central Asia. In recent history, the Soviets invested heavily in agriculture in the region, and with the advent of modern irrigation techniques, the region was transformed into a highly productive but highly degraded environment. With the breakup of the Soviet Union, many changes have occurred in the agricultural system of the Khorezm, and the region now faces an uncertain future as the riparian countries face increasing pressure to use agricultural water. Throughout these changes, the people of Khorezm have always been inextricably linked with their environment, relying heavily on agriculture for survival. Given the possibility of future water

scarcity in the region, the environmental impact of climate change needs to be understood so that informed decisions can be made about how to best manage the environment. By identifying potential future problems, the environment can be redirected to a different development path that avoids or minimizes unwanted impacts. The study also seeks to make recommendations for the people of Khorezm and policymakers in Uzbekistan. It is important to convey the message that sooner or later action must be taken to start preparing for a different future, realizing the great dependence on agriculture in the region.

Research objectives. The main goal of the proposed research is to analyze the impact of climate change on the geoecological situation in Khorezm region and to develop a model of sustainability in the use of water resources. Objectives:

1. Study of the past and present geo-ecological situation of the lower Amudarya river, in particular, Khorezm region, identification of the main factors affecting the dynamics of landscape and vegetation.

2. Identify any trends in desertification or land degradation and their causes; to determine whether this is a temporary effect of anthropogenic land use or a systemic response to changes in climate or irrigation regimes.

3. Assess the impact of changes in the Aral Sea and water use on the landscape and vegetation of the region, with special attention to the degradation and improvement of irrigated lands.

4. Identify the current climate of the region and identify any trends of change; distinguish between natural climate change and variability and that associated with human activities, especially KP change and regional land use change.

5. Modeling future ecological and hydrological changes in the region and their sensitivity to different water use and management scenarios.

Methodology. The methodology consisted of three stages. First, Khorezm is divided into zones representing its principle ecological geographic classes. These classes are basically different landscapes with a specific vegetation and soil type. The unit was then evaluated and modified with the help of local experts so that it accurately reflected the current situation in the region. Next, the recent history of each zone was described using a combination of secondary data from existing research, interviews with local people and the judgments of field scientists. This produced a series of zone models that describe the development of each ecogeographical class. In the last step, the team will develop household questionnaires designed to create a more accurate picture of the material and social well-being of the villagers. This allows us to assess how changes in the environment have affected the way of life of different groups. At each stage, the research methodology was presented and critiqued in seminars within the framework of the Amudarya regional management project and adapted to the feedback received.

Conducting research in times of significant environmental change presents a number of challenges. Typically, the basis for this type of research is to collect

data from a number of different sources – archives, existing datasets, etc. – to carry out extensive work to describe current conditions, and then local people conducting interviews and focus groups with. This is an expensive and time-consuming process that requires a large commitment of resources. In the case of Khorezm, it was decided to try to get as complete a picture as possible of the region's recent history and use it as a proxy. This is because, given the speed and extent of change in the region, local people's memories should record what happened in a good, if somewhat impressionistic, way. This approach can still be very resource intensive, but much less than traditional base building.

Year	Plants (%)	Urban areas (%)	Water bodies (%)	Other land cover (%)
1980	45.2	08.05	06.02	40.1
1985	43.8	09.02	05.02	41.2
1990	41.5	10.07	5.05	42.3
1995	39.1	12.03	05.01	43.5
2000	38.7	14.02	05.08	41.3
2005	36.4	16.05	06.04	40.7
2010	34.2	18.17	06.17	40.0
2015	33.0	19.08	06.02	41.0
2020	32.1	20.08	05.02	41.9

Table 1 Land cover classification.

The observed land cover changes reflect a clear trend of urban expansion and agricultural intensification over the decades. A growing percentage of cities are showing rapid urbanization driven by factors such as population growth and infrastructure projects. Conversely, the reduction in plant percentages highlights the impact of agricultural practices. These trends highlight the need for sustainable urban planning and agricultural practices to mitigate environmental degradation. The table provides a comparative analysis of land cover change over the entire study period, highlighting the percentage change in each land cover type. Significant urban growth is evident, indicating the need for policies that balance urban development with environmental protection.

Analysis of satellite images shows significant changes in land cover dynamics over the past four decades. Urban areas have expanded significantly, threatening vegetation and water bodies, while agricultural land has undergone significant changes. This extended temporal analysis provides a detailed perspective on emerging trends and shows subtle fluctuations in land cover percentages over five-year intervals. Socio-economic studies show a strong correlation between population growth, economic development and infrastructure projects with land-use change. In addition, the impact of climate change, agricultural policy, and global market trends on land use will become clearer with this expanded analysis. The influence of these factors on specific types of land use provides a comprehensive understanding of the socio-economic basis of landscape changes. An extended interim assessment indicates an alarming

acceleration of groundwater depletion and surface water quality degradation. Changes in irrigation efficiency and the rate of water table decline allow for a clearer understanding of the evolving hydrological landscape.

Conclusion. In conclusion, the impact of climate change on the ecological situation in the Khorezm region is an urgent issue that requires immediate action. The region's unique ecosystems and rich biodiversity are at risk of irreversible damage unless action is taken to address the root causes of climate change. By working together and implementing sustainable solutions, we can help protect the environment and ensure a healthy and prosperous future for Khorezm region and its residents.

References:

1. Vlek, PL, Martius, C., Wehrheim, P., Schoeller-Schletter, A., & Lamers, J. (2001). Economic restructuring of land and water use in Khorezm region (Uzbekistan) (project proposal for stage I). ZEF Working Papers for Sustainable Development in Central Asia, 1.
2. Brite, EB (2016). Irrigation in the Khorezm Oasis, Past and Present: A Political Ecology Perspective. *Journal of Political Ecology*, 23(1), 1-25.
3. Oberkircher, L., Shanafield, M., Ismailova, B., & Saito, L. (2011). Ecosystem and Social Construction: An Interdisciplinary Case Study of the Shorkol Lake Landscape in Khorezm, Uzbekistan. *Ecology and Society*, 16(4).
4. Akramkhanov, A., Kuziev, R., Sommer, R., Martius, C., Forkutsa, O., & Massucati, L. (2012). Soil and soil ecology in Khorezm. *Cotton, Water, Salts and Sums: Economic and Environmental Reconstruction in Khorezm, Uzbekistan*, 37-58.
5. Eldwisch, GJA (2008). *Cotton, Rice, and Water: Changing Agrarian Relations, Irrigation Technology, and Water Distribution in Khorezm, Uzbekistan* (Doctoral Dissertation, Bonn, Univ., Diss., 2008).
6. Yin, X., Feng, Q., Zheng, X., Zhu, M., Wu, X., Guo, Y., ... & Li, Y. (2021). Spatiotemporal dynamics and ecohydrological controls of water and salt migration within and between different land uses in an oasis-desert system. *General Environmental Science*, 772, 145572.
7. Thevs, N., Ovezmuradov, K., Zanjani, LV, & Zerbe, S. (2015). Water consumption of agriculture and natural ecosystems in Amudarya, Lebap Province, Turkmenistan. *Ecological Earth Sciences*, 73, 731-741

Азимова Дилишода Азимовна

Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети,

Табий география кафедраси таянч докторанти,

Тошкент, Ўзбекистон e-mail: dilshodaxonazimova879@gmail.com

РЕКРАЦИЯ ВА ТУРИЗМНИНГ ИЛМИЙ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Аннотация: Ушбу мақолада туризм ва рекреация тушунчаларининг мазмуни, рекреацион-туристик объектларнинг турлари, Тошкент вилоятидаги объектларнинг тарқалиши хақида ёритилган.

Калит сўзлар: туризм, рекреация, тарихий-маданий объектлар, тарихий ва маданий ёдгорликлар, археологик туризм

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОТДЫХА И ТУРИЗМА

Аннотация: в данной статье рассматривается содержание понятий туризм и рекреация, виды рекреационных туристических объектов, распределение объектов по Ташкентской области.

Ключевые слова: туризм, рекреация, историко-культурные объекты, памятники истории и культуры, археологический туризм.

DESCRIPTION OF THE CONCEPTS OF TOURISM AND RECREATION

Abstract: This article examines the content of the concepts of tourism and recreation, types of recreational tourist facilities, distribution of facilities in the Tashkent region.

Keywords: Tourism, recreation, historical and cultural sites, historical and cultural monuments, archaeological tourism.

Кириш. Рекреация ва туризмнинг вужудга келиши ижтимоий турмуш ва меҳнат жараёнлари билан бевосита боғлиқ. Қадимги одамлар яшаш учун ов ҳайвонлари ва мевалар кўп бўлган жойларда яшаган. Ов манзиллари ва дам олишга қулай бўлган жойларда маълум бир белгиларни (тур) қўйганлар. Зарур пайтларда ана шу жойларга келиб хордиқ чиқарган, турли ўйинлар ташкил қилиб мусобақалар ўтказган, ота-боболари яшаган жойларни зиёрат қилганлар. Ов қилиш учун энг қулай ва яхши жойларни танлаб дам олганлар. Шу тариқа дарё водийлари, кўллар ва денгиз соҳиллари, ўрмонлар, умуман ҳайвон ва ўсимликларга бой, табиати хушманзара жойларда рекреацион ва туристик масканлар вужудга келган.

Асосий қисм. Рекреация ва туризм тушунчаларининг мазмун-моҳияти, объект ва предмети кабиларга тўхталганда, дастлаб бу тушунчалар қаерларда пайдо бўлган ва ривожланган, унинг назарий асослари нималардан иборат каби масалаларга ойдинлик киритишга тўғри келади.

“Туризм” терминини биринчи бўлиб, 1830 йилда В.Жекмо фанга олиб кирган. Француз тилида “*tour*”-“*айлана, айланма ҳаракат*” ва “*travel*”-“*сайр-саёҳат*”. Шунингдек, “*tourisme-saёҳат қилиш, дам олиш*” бўлиб, шу билан бир қаторда спорт ва умумтарбиявий ёки сиёсий-маъмурий вазифаларни бажариш деган маънони ҳам англатади (Кусков и др., 2006).

Туризм инсон фаолиятининг кўп соҳаларини қамраб олади. Шунинг учун, у географиядан ташқари кўпгина фанлар билан узвий боғлиқ. Илмий адабиётларда “туризм” тушунчасининг шаклланишига нисбатан турли хил

ёндашувлар мавжуд. Туризм узоқ тарихга эга бўлса-да, унга берилган таърифлар хилма-хил ва туризмнинг моҳиятини очиб берувчи ягона таъриф ҳанузгача мавжуд эмас.

Мазкур ишда туризм тушунчаси, мазмуни ва моҳиятига тегишли масалалар тадқиқот предмети сифатида олинмагани учун, ушбу тушунчанинг Бутунжаҳон туристик ташкилоти (UNWTO) томонидан берилган ва умуэътироф этилган таърифини келтириш мақсадга мувофиқ деб топилди. “**Туризм** – сайёҳлик қилаётган ва дам олиш, ишбилармонлик ва бошқа мақсадларда ўзининг одатдаги муҳитидан ташқарида, кетма-кет бир йилдан ортиқ бўлмаган давр мобайнида жойлашган шахсларнинг фаолиятidir” (2017 й).

2019 йил 18 июлдаги Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги “Туризм тўғрисида”ги қонуни қабул қилинган. Ушбу қонунга кўра туризмга шундай таъриф берилади: “Туризм – жисмоний шахснинг вақтинча бўлиш мамлакатидagi (жойидаги) манбалардан даромад олиш билан боғлиқ бўлган фаолият билан шуғулланмаган ҳолда доимий яшаш жойидан жўнаб кетиши (саёҳат қилиши) деб таъриф берилган (ЎЗР “Туризм тўғрисида”ги қонуни. 2019 йил 18 июль.).

Туристлар бошқа ҳудудларга ишлаш ёки яшаш учун эмас, балки дам олиш, янги жойларни, давлатларни, улардаги тарихий обидаларни кўриш, диний масканларни зиёрат қилиш, миллий урф-одат ва анъаналар билан танишиш, курорт ва санаторияларда соғлиқларини тиклаш, касбий фаолиятлари тўғрисида фикр алмашиш каби мақсадларни кўзлаган саёҳатчилардир.

Туристтик ресурслар ер юзининг деярли барча мамлакатларида мавжуд. Туризм йўналиши ва туризм турини эркин танлаш шароитида туристик оқимларни билиш ва ҳатто уларни бошқариши керак. Бунинг учун эса географик билимлар жуда зарур. Масалан, географияда туризм деганда аҳолининг ўзи яшаб турган ҳудуд, ўлка ёки бирор мамлакатнинг диққатга сазовор жойларини кўриш мақсадида уюштирилган рекреацион фаолият турига саёҳат, яъни туризм дейилади.

“*Рекреация*” сўзи латин тилидан олинган бўлиб, “*recreatio*”- “*дам олиш*” деган маънони англатади. **Рекреация** деб, инсонлар соғлигини ва меҳнат қобилиятини дам олиш объектларида қайта тиклаши, сайёҳлик йўли билан табиатнинг турли масканларига бориши, архитектура ва тарихий ёдгорликларни бориб кўришига айтилади.

Рекреация ресурслари саёҳат ҳамда даволаниш мақсадида фойдаланиш мумкин бўлган табиат объектларидир. Уларга асосан, тоғ ёнбағирлари, чўллар, ўрмонлар, ўтлоқлар, дарё, кўл, денгиз соҳиллари, минерал булоқ кабилар қиради. Рекреация ресурсларидан соғломлаштириш, спорт, табиатни ўрганиш ва аҳолини даволаш каби йўналишларда фойдаланиш мумкин.

Н.Ф.Реймерс (1992) “*Рекреация*” бу соғлиқ ва қобилиятни тиклаш уйдан ташқарида, яъни уюшган ёки уюштирилмаган сайёҳлик жараёнида ёки дам олиш пайтида ихтисослашган муассасаларда (санатория, дам олиш уйлари) дам олиш учун иштирок этиши кераклигини таъкидлайди.

Дам олиш жараёнлари ва уларнинг самарадорлиги ҳудудларнинг табиий

географик хусусиятларига боғлиқ.

Рекреация соҳалари бир қанча бўлиб, уларга курорт-санатория ва бошқа саломатлик объектларида соғлиқни тиклаш, сайёҳлик йўли билан табиатнинг хушманзара гўшаларига (дарё, кўл, тоғ, ғорлар, шаршара, ўрмон ва ҳоказо) бориш, спорт билан шуғулланиш ҳамда ноёб тарихий ва архитектура ёдгорликлари билан танишишлари киради.

Рекреация ва туризм ресурслари табиий ва маданий, иқтисодий, тарихий ресурсларнинг бир қисмларидан иборат бўлиб, келиб чиқиши ва фойдаланиш хусусиятларига кўра икки гуруҳга ажратилади: *табиий ва антропоген* рекреацион-туристик объектлар.

Табиий рекреацион-туристик ресурслар туристларнинг дам олиши ва соғлиқларини тиклашида катта ўрин тутди.

Антропоген рекреацион-туристик объектлар тарихий ва маданий ёдгорликлар, археологик обидалар ва бошқалардан иборат бўлади.

Тарихий ва маданий ёдгорликлар – инсоният томонидан яратилган меъморий обидалар, археологик топилмалар, муқаддас жойлар, қадамжойлар, зиёратгоҳлар, монументал обидалар ва ҳ.к.

Археологик туризм – қадимий шаҳарларнинг қолдиқлари, қадимий қалъалар ҳаробалари, кўхна қадимий халқлар ҳаёти ҳақидаги археологик топилмаларга қизиқиш.

Тошкент вилоятида археология ва архитектура ёдгорликлари вилоятнинг барча ҳудудларида учрайди. Бу ҳолат вилоят ҳудудининг Республикамиздаги энг қадимги аҳоли яшаб келаётган ҳудудлардан бири эканлигини кўрсатади. Тошкент вилоятида мадраса, масжид, мақбара, қўрғон, қалъа, карвонсарой, кўприк ва бошқа архитектура ёдгорликлари мавжуд. Ҳозирги кунда айрим зиёратгоҳлар тепалик яъни қўрғонлар устига барпо этилган.

Тошкент вилоятида бундай зиёратгоҳлар жуда кўп бўлиб, улар, асосан, дарёларнинг террасаларида ва сойларнинг конуссимон ёйилмаларида жойлашган. Масалан, Саид ота, Бўғизён ота, Саид ота, Саксон ота, Зафар ота зиёратгоҳлари сирдарё комплекси террасаларида, Зангиота, Анбарбиби зиёратгоҳлари мирзачўл террасаларида, Пушти Махмуд, Мирмўмин, Сармозор, Дониёрқози зиёратгоҳлари тошкент комплекси террасаларида, Заркент ота, Парпи ота, Ғавсул аъзам, Шодумаликота, Хазрат Али, Қирққиз ота, Довуд неvara, Шайх Умар Валий Боғистоний, Қадамчи бува, Сурон ота, Ансор бобо, Икрима ота, Пайғамбар ота зиёратгоҳлари сойларнинг конуссимон ёйилмаларида жойлашган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг “Туризм тўғрисида”ги қонуни. 2019 йил 18 июль.
2. Кусков А.С., Голубева А.С., Одинцова Т.Н. Рекреационная география. –М.: Учебное издание, 2006. – 384 с.
3. Реймерс Н.Ф. Надежды на выживание человечества: Концептуальная экология. – М.: “Россия молодая. Экология”, 1992.- 367 с.

Mingaliyev Ravshan Olim o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Tabiiy geografiya kafedrası tayanch doktoranti.

Xayitmurodov Alijon Olimjon o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Tabiiy geografiya kafedrası tayanch doktoranti.

Toshkent, O'zbekiston, e-mail: mingaliyevravshan08@gmail.com

TABIIY GEOGRAFIK TADQIQOTLARDA MASOFAVIY ZONDLASH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy tabiiy geografik tadqiqotlarda masofaviy zondlash vositalaridan foydalanish, ularning turlari, ahamiyati, afzalliklari va kamchiliklari keltirilgan. Tabiiy geografik tadqiqotlarda eng ko'p foydalanilayotgan sun'iy yo'ldosh ma'lumotlar bazalari haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *Masofaviy zondlash, Landsat, Sentinel, vegetatsiya indeksi, relyefning 3D modeli*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ДИСТАНЦИОННОГО ЗОНДИРОВАНИЯ В ФИЗИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

Аннотация: *В статье представлено использование средств дистанционного зондирования Земли в современных физико-географических исследованиях, их виды, значение, преимущества и недостатки. Приведены сведения о наиболее широко используемых спутниковых базах данных в естественно-географических исследованиях.*

Ключевые слова: *Дистанционное зондирование, Landsat, Sentinel, индекс растительности, 3D-модель местности.*

USE OF REMOTE SENSING TECHNOLOGIES IN PHYSICAL GEOGRAPHICAL RESEARCHES

Abstract: *This article presents the use of remote sensing tools in contemporary physical geographic research, their types, importance, advantages and disadvantages. Information about the most widely used satellite databases in natural geographic research is provided.*

Keywords: *Remote sensing, Landsat, Sentinel, vegetation index, 3D terrain model*

Masofaviy zondlash (MZ) texnologiyalari Yer yuzasini uzoq masofadan turib o'rganishga mo'ljallangan ilg'or usullar hisoblanadi. Bu texnologiyalar sun'iy yo'ldoshlar, dronlar, havo sharlaridan olingan ma'lumotlarga asoslanadi. Ularning ishlash prinsipi elektromagnit to'lqinlar orqali ma'lumot to'plash va tahlil qilishga asoslangan. Masofaviy zondlashning eng muhim jihatlaridan biri – katta hududlarni qisqa vaqt ichida tadqiq qilish imkoniyatidir.

Masofaviy zondlash odatda quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- 1) Ma'lumotlarni yig'ish (sensorlar yordamida);
- 2) Ma'lumotlarni qayta ishlash (kompyuter dasturlari orqali);
- 3) Natijalarni tahlil qilish va kartografik mahsulotlar yaratish.

GIS (Geografik Axborot Tizimlari) bilan birgalikda masofaviy zondlash texnologiyalari turli hududlarning tabiiy-geografik ko'rsatkichlarini o'rganishga

yordam beradi. Bu esa ma'lumotlarni tahlil qilish va vizualizatsiya qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Tabiiy geografik tadqiqotlarda quyidagi yo'nalishlarda masofaviy zondlash texnologiyalari keng qo'llanilmoqda:

Yerning relyefini tadqiq qilish va modelini yaratish. Masofaviy zondlash texnologiyalari relyefning 3D modellarini yaratishda keng qo'llaniladi. Sun'iy yo'ldosh tasvirlari va lidar (Light Detection and Ranging) texnologiyalari relyefning mikrostrukturalarini ham aniqlash imkonini beradi. Bu, ayniqsa, tabiiy geografik jarayonlarni o'rganishda, masalan, yonbag'irlarning eroziyasini tahlil qilish yoki tabiiy geografik jarayonlar sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hududlarni aniqlashda foydalidir.

Iqlim o'zgarishlarini kuzatish. Iqlim o'zgarishlarining salbiy ta'sirlarini baholashda masofaviy zondlash samaradorligi katta. Masalan, sun'iy yo'ldosh tasvirlari orqali muzliklarning hajmini kuzatish, cho'llanish jarayonlarini baholash va o'rmon qoplaminig qisqarishini aniqlash mumkin. NASA va ESA kabi tashkilotlarning ma'lumotlari global iqlim o'zgarishini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Tuproq, o'simlik qoplami va suv resurslarini baholash. Masofaviy zondlash texnologiyalari qo'llaniladigan ning yana bir asosiy yo'nalish tuproq va o'simlik qoplaminig holatini o'rganishdir. Vegetatsiya indeklari (masalan, NDVI – Normalized Difference Vegetation Index) yordamida o'simliklar qoplaminig salomatligi va zichligi baholanadi. Suv resurslarini o'rganishda esa masofaviy zondlash texnologiyalari suv havzalarining holatini kuzatish, suv zaxiralarining miqdorini baholash va suvning ifloslanishini aniqlashda yordam beradi.

Tabiiy ofatlarni oldindan bashorat qilish va monitoring qilish. Zilzila, suv toshqini, o'rmon yong'inlari kabi tabiiy ofatlarni monitoring qilishda masofaviy zondlash texnologiyalari tezkor va ishonchli ma'lumot yetkazib beradi. Masalan, o'rmon yong'inlari paytida issiqlik sezgir sensorlar yong'inning tarqalishini aniqlaydi, suv toshqinlarini sun'iy yo'ldoshlar orqali kuzatish esa zarar ko'lamini kamaytirishga yordam beradi.

Masofaviy zondlash texnologiyalarining bir qancha afzalliklari va kamchiliklari mavjud(1-jadval).

1-jadval

Masofaviy zondlash texnologiyalarining afzalliklari va kamchiliklari

Afzalliklari	Kamchiliklari
1. Yuqori aniqlik: Masofaviy zondlash texnologiyalari keng hududlarni yuqori aniqlikda kuzatish imkonini beradi. 2. Katta hududlarni qamrab olish: Bitta sun'iy yo'ldoshning kuzatuv yuzlab kvadrat kilometrlarni qamrab oladi, bu esa yirik loyihalar uchun juda muhimdir.	1. Yuqori xarajatlar: Sun'iy yo'ldoshlarni uchirish va uskunalarni qo'llash iqtisodiy jihatdan qimmat. 2. Ma'lumotlarni qayta ishlash qiyinchiliklari: Ko'p sonli va katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish uchun maxsus dasturlar va malakali mutaxassislar talab qilinadi.

3. Tezkorlik: Ma'lumotlar tezda yig'ilib, qayta ishlanadi, bu tabiiy ofatlar paytida tezkor qarorlar qabul qilishni ta'minlaydi. 4. Masofadan ishlash: Masofaviy zondlash orqali olis va qiyin yetib boriladigan hududlarni tadqiq qilish mumkin.	3. Ob-havo sharoitlariga bog'liqlik: Ba'zi masofaviy zondlash texnologiyalari (masalan, optik tasvir olish) ob-havoning yomonlashuvi tufayli yaxshi natija bermaydi.
--	--

Masofaviy zondlashda eng ahamiyatli vositalar bo'lib, Yerning sun'iy yo'ldoshlari hisoblanadi. Ular bajaradigan vazifasiga ko'ra nihoyatda xilma-xildir. Quyida Tabiiy geografik tadqiqotlarda eng ko'p foydalanilayotgan sun'iy yo'ldosh ma'lumot bazalari keltirilgan(2-jadval).

2-jadval

Tabiiy geografik tadqiqotlarda eng ko'p foydalanilayotgan sun'iy yo'ldosh ma'lumotlar bazalari

Sun'iy yo'ldoshlar	Foydalanishga topshirilgan vaqti	Ixtisosligi	Foydalaniladigan sohalar	Ma'lumot olish usullari
Landsat	1972-yil	Yer yuzasining uzoq muddatli monitoringi	☞ O'rmon qoplamining o'zgarishini kuzatish; ☞ Suv resurslarini boshqarish; ☞ Shaharsozlik va infratuzilma rivojlanishini kuzatish; ☞ Cho'llanish va tuproq degradatsiyasini baholash;	Multispektral tasvirlar, 30 metr aniqlikdagi piksellar
Sentinel	2014-yil	Yerni radar va optik kuzatish; Atmosferaning monitoringi;	☞ Iqlim o'zgarishlarini kuzatish; ☞ Qishloq xo'jaligi monitoringi (o'simlik indekslari tahlili); ☞ Dengiz va okean harakatini kuzatish; ☞ Tabiiy ofatlarning monitoringi (zilzila, suv toshqini)	Radar (SAR), multispektral (13 kanal), va infraqizil tasvirlar
MODIS (NASA Terra va Aqua missiyalari)	1999(Terra), 2002 (Aqua)	Atmosfera, okean va yer sathini global kuzatish	☞ Vegetatsiya monitoringi (NDVI); ☞ Iqlim o'zgarishlari bo'yicha tadqiqotlar; ☞ O'rmon yong'inlari va chang bo'ronlarini kuzatish; ☞ Suv va havo resurslarining global monitoringi	Multispektral va infraqizil tasvirlar (36 kanal, 250m/500m/1km aniqlik)
SPOT (Fransiya tomonidan ishlab chiqilgan)	1986	Yuqori aniqlikdagi yer tasvirlari	☞ Tuproq qoplamining tahlili; ☞ Qishloq xo'jaligi resurslarini kuzatish; ☞ Kartografiya va shaharsozlik	Optik va multispektral tasvirlar, 1.5 metr aniqlikdagi piksellar
IKONOS va WorldView seriyalari	1999 (IKONOS), 2014 (WorldView-3)	Yuqori aniqlikdagi iqtisodiy ahamiyatdagi tasvirlar	☞ Shahar infratuzilmasini rejalashtirish. ☞ Harbiy razvedka va xavfsizlik. ☞ Kartografik ma'lumotlarni yangilash	31 sm gacha aniqlikdagi piksellar
GOES seriyasi (NOAA tomonidan ishlab chiqilgan)	1975 (GOES-18)	Atmosfera va meteorologiya monitoringi	☞ Ob-havo prognozlarini tuzish. ☞ Tabiiy ofatlarni oldindan bashorat qilish (to'fonlar, bo'ronlar). ☞ Radiatsiya darajasini kuzatish	Infraqizil va multispektral tasvirlar
PlanetScope (Planet Labs Inc.)	2013	Yuqori chastotali yer tasvirlari	☞ Yer resurslarini real vaqt rejimida monitoring qilish. ☞ O'simlik qoplamini kuzatish va qishloq xo'jaligi uchun tahlil. ☞ Tabiiy ofatlar ta'sirini baholash	3-5 metr aniqlikdagi rangli tasvirlar

Ushbu sun'iy yo'ldoshlar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar global va lokal darajadagi tabiiy geografik tadqiqotlar uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Har bir sun'iy yo'ldosh o'z ixtisoslashgan sohasiga qarab, ilmiy izlanishlar va amaliy ehtiyojlarni qondirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Djumanov J., Ahmadov M.M., Bekanov K.K. Geoaxborot tizimlari uchun geoportal yaratish tamoyillari. Ijodkor o'qituvchi: Vol. 3 No. 28 (2023), b 163-166.
2. Evans L.S. General geomorfometry, derivatives of altitude, and descriptive statistics. In: Chorley R.J. (ed.) Spatial Analysis in Geomorfology, London, Methuen & Co. Ltd., 1972. pp. 17-90.
3. Safarov E.Y., Prenov Sh.M., Allanazorov O.R., Bekanov K.K. Geografik axborot tizimlari. ArcGIS dasturida amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma.- Toshkent.: 2020.

Ismatova Nilufar Ravshan qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti tayanch doktoranti

e-mail : ismatovanilufar31@gmail.com

SHARQIY OSIYO MAMLAKATLARIDA SHAHARLAR EKOLOGIYASI ILMIY YO'NALISHINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI (Xitoy davlati misolida)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilk Xitoy shaharlari, ularning rivojlanishi hamda urbanizatsiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Xitoy davlatida shaharlar ekologiyasi ilmiy yo'nalishining paydo bo'lishi va ushbu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar tarixi va bugungi kundagi rivojlanishi tahlil qilingan. Olimlarning shaharlar ekologiyasi doirasida olib borgan tadqiqotlari va yondashuvlari o'rganilgan.

Kalit so'zlari: ilk shaharlar, shahar, urbanizatsiya, ekologiya, shahar ekologiyasi.

THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT THE SCIENTIFIC FIELD OF URBAN ECOLOGY IN EAST ASIAN COUNTRIES (in the case of China)

Abstract: This article describes the first Chinese cities that appeared in human civilization, their development, and the specific features of the urbanization process. The emergence of the scientific field of urban ecology in China, analyzed the history and development of research in this field. The researches and approaches conducted by scientists within the framework of urban ecology have been studied.

Key words: early cities, city, urbanization, ecology, urban ecology.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ И РАЗВИТИЕ НАУЧНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ ЖИЛОГИ ГОРОДОВ В СТРАНАХ ВОСТОЧНОЙ АЗИИ (на примере Китая)

Аннотация: В данной статье описаны первые китайские города их развитие, а также особенности процесса урбанизации. Анализируется возникновение научного направления городской экологии в Китае, история и развитие исследований в этой области. Изучены исследования и подходы, проводимые учеными в рамках городской экологии.

Ключевые слова: первые города, город, урбанизация, экология, городская экология.

Kirish. Shaharlar yirik aholi manzilgohlari bo‘lib, u avvalo ishlab chiqarishning markazlashuvi, yashash sharoitidagi qulaylik, infratuzilma, transport, sog‘liqni saqlash, ta‘lim va boshqa ijtimoiy sohalarning yuqori darajada rivojlanganligi bilan tavsiflanadi. Ilk shaharga xos bo‘lgan inshootlar 5000 yil ilgari Mesopotamiya va Misrda minglab odamlarning inshootlarni qurishdagi samarali mehnati, turli uskunalarni yaratishi va ishlatishi bilan paydo bo‘ldi. [1]. Natijada, yozish, matematika, kalendar hisoblari, metallurgiya va yana minglab tarmoqlar yuzaga kelgan. Qadimgi shaharlarni o‘rganish ishlari bilan ko‘plab soha vakillari jumladan, tarixchilar, arexeologlar, geograflar, geologlar, iqtisodchilar, muhandislar shug‘ullanib kelgan. Peter Whitfield, G.Erdosy, Richard T, T.Forman, William Francis, Peter Clarc, Mason Hammond, Michael Batty, Andrew Kirby, Yanguang Chen, Alexander C.Vias, M. Batty, c. Gates, L.Mumford, Carl Abbott, Mohammad al-Asad, Bas van Bavel, J. A. Baird, Wim Blockmans, Bruno Blonde, Leonard Blusse, Marc Boone, Ebru Boyar va boshqalar ilk shaharlarning paydo bo‘lishi, ularning rivojlanishi hamda ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotning qay shaklda bo‘lganligi to‘g‘risida ko‘plab tadqiqotlar olib borgan.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda inson hayoti farovonligi, barqaror rivojlanishi, salomatlik va yana boshqa ko‘plab sohalarga ta‘sir qiluvchi eng katta omillardan biri bu-ekologik vaziyatdir. Ayniqsa, sayyoramiz aholisining 4 milliarddan ortig‘i istiqomat qilayotgan urbanizatsiyalashgan hududlarda bu masala yanada dolzarb. Olimlarning hisoblariga ko‘ra, global energiya iste‘molining 50% dan ortiq qismidan, ayrim hollarda 2/3 qismigacha bo‘lgan miqdori va global issiqxona gazlari chiqindilarining 80% gacha bo‘lgan qismi yirik va o‘rtacha kattalikdagi shaharlar zimmasiga to‘g‘ri kelmoqda. Birlashgan Millatlar tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, XXI asr urbanizatsiya asri bo‘lishi va bunda 2030-yilning oxiriga kelib dunyo aholisining 60% qismi shaharlarda yashashi keltirilgan. 2025-yilda dunyodagi 25 ta yirik shahar aglomeratsiyalaridan 23 tasi Yevropa va Shimoliy Amerikadan ko‘ra Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasiga to‘g‘ri kelishi kutilmoqda. Ushbu megashaharlar global o‘zgarishlarning ham markaziy nuqtalariga aylanadi. [4]. Urbanizatsiyalashgan hududlar bugungi kunda quruqlik yuzasining atiga 1.6 % ni egallagan holda, ular eng yirik ekologik muammolarni ham keltirib chiqaruvchi yoki tabiatga bilvosita teskari ta‘sir qiluvchilardir [7].

Xitoy urbanizatsiya jarayoni uzoq yillik tarixga ega va bu davrni Wu,Xu,Zhou hamda Huang Lu Yaolar 9 ta kichik davrlarga ajratishadi. 1949-yilchaga bo‘lgan vaqt 5 ta davrni o‘z ichiga oladi: 1. Mill.avv. 2200-770 yillar Shan sulolasi hukmronligi davridagi va bahordan kuzgacha bo‘lgan davrda yaxshi rivojlangan ilk paydo bo‘lgan shaharlar davri; 2. Mill.avv. 770-206 yillar Xan sulolasi hukmronligi davridagi ilk feodal jamiyatdagi shaharlarning rivojlanish davri; 3. Mill.avv. 206 va milodiy 1279 yillargacha bo‘lgan davr- Xan va Yuan sulolalari hukmronligidagi o‘rta feodal davri; 4. So‘nggi feodal davridagi Yuan sulolasi hukmronligi va birinchi afyun urushi o‘rtasidagi davr (1279-1840); 5. Afyun urushidan keyingi va ilk Xitoy Xalq Respublikasining tashkil etilishigacha bo‘lgan davrdagi urbanizatsiyaning rivojlanish davri (1840-1949) [11]. Miloddan avvalgi 4000 yillarda bu yerda ilk shahar Banpo vujudga kelgan. Banpo shahri 200 dan ortiq uylar va 5 gektar maydonni o‘rab turuvchi devordan iborat bo‘lib, bunda binolar qurilishida

Quyoshning tushish burchagi hisobga olingan. [6]. Banpo shahriga xos bo'lgan xususiyatlar va e'tiqodlar Xitoy shaharlari negizini yaratdi. Yangshao hunarmandchiligida o'sha davrlarda yer 9 qismga bo'lingan diogramma shaklida tasvirlangan. Keyinchalik bu imperator saroylarini qurishda ham bosh arxitekturaga oid me'zonga aylangan. Miloddan avvalgi 3000-2000 yillarda ushbu hududda Banpo shahridan ming yil keyin Longshan madaniyati paydo bo'ldi. Ushbu shahar ham ilk yozuvlar, kvadrat shakldagi uylar, madaniyat va hunarmandchilikning yanada rivojlangani bilan tavsiflanadi. Longshan madaniyati undan minglab yillar keyin Sya va Shang sulolalari davrida ham davom etgan. Dastlabki Longshan davlatida uch darajadagi aholi punktlari paydo bo'lgan. Bular : qishloq (maydoni 1 gektargacha), shahar(maydoni 1 gektardan 5 gektargacha) va poytaxt (maydoni 5 gektardan ortiq bo'lgan) hududi. Neolit davri oxirlariga kelib, Longshan madaniyati negizida yana bir yangi shahar Erlitou paydo bo'lgan. Ushbu shahar miloddan avvalgi 2000 yillarda Xitoydagi ommaviy ijtimoiy o'zgarishlar natijasida paydo bo'ldi. Erlitou shahri hududi shakli jihatidan to'rtburchak shaklida bo'lib, uning ichida yana 5 ta ichki kvadratlar bo'lgan. Markazda humdor qarorgohi, undan keyingi kvadratlarda tinchlikni ta'minlovchi qatlamlar va oxirida boshqa yovvoyi xalqlardan ajratib turuvchi istehkom bo'lgan [8]. 19 asr boshlarigacha aholisi 954 ming kishi bo'lgan London shahrini ham ortda qoldirib Pekin dunyodagi yagona millioner shahar bo'lgan. 1949-yilgacha bo'lgan davrda Xitoy urbanizatsiya darajasi 5.5% ga oshib 10% ni tashkil qilgan. [11] 1949-yildan keyingi vaqt 4 ta davrga ajratiladi. 1978-yilgacha bo'lgan davrda Xitoyda iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi va bu urbanizatsiya jarayoniga ham ta'sir qildi. 2010-yilgacha bo'lgan davrda 540 milliondan qariyb 1mlrd 300 millionga ko'paydi hamda urbanizatsiya darajasi 50% ga yetdi. 1978-1989 yillar oralig'ida urbanizatsiya darajasi 8.5% ga oshdi va sharqiy qirg'oqbo'yida yirik shaharlar paydo bo'ldi. 1990-1999 yillar oralig'ida o'rta va kichik shaharlar soni keskin oshdi va urbanizatsiya darajasi yana 10% ga ko'tarildi. So'nggi bosqichda, ya'ni 2000-yillardan keyin Xitoy urbanizatsiyasida keskin o'sish kuzatildi. Bunda o'rta va yirik shaharlar soni keskin ko'payib, shaharlashuv jarayoni sifat jihatidan ham yuqori bosqichga ko'tarildi. Xitoyda shahar ekologiyasi yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlar tarixi ham uzoq yillarga borib taqaladi. Chunki Xitoy ham insoniyat svilizatsiyasidagi ilk shaharlar paydo bo'lgan hududlardan biri ekanligini yuqorida ko'rib o'tdik. 1978 yilgi iqtisodiy islohotlardan keyin Xitoy urbanizatsiyasi yanada rivojlandi. Ushbu iqtisodiy islohotdan keyingi davrda Xitoyda shahar ekologiyasining rivojlanishi va unda olib borilgan tadqiqotlar 3 davrga bo'linadi:

- zamonaviy shahar ekologiyasida ilk tadqiqotlar olib borila boshlagan davr - 1983-1989 yillar;
- dastlabki rivojlanish davri- (1990-1999 yillar);
- jadal rivojlanish davri-2000 yillardan hozirgacha [9].

Natijalar va ularning muhokamasi. Olimlarning bu borada olib borgan tadqiqotlari va adabiyotlarni o'rganish natijasida shuni aytishimiz mumkinki, Xitoyda shahar ekologiyasida olib boriladigan tadqiqotlarda 3 yondashuv mavjud:

✓ *birinchi yondashuvda* shaharlar insoniyat va atrof-muhit tizimlarini o'zida birlashtiruvchi sifatida qaraladi va bunda tadqiqotlar asosan shahar barqarorligi, shahar ekotizimi va shaharlarni rejalashtirish nuqtai nazaridan olib boriladi.

✓ *ikkinchi yondashuvda* shaharlar insoniyat ta'siri ustun bo'lgan ekotizim sifatida qaraladi hamda bunda asosiy tadqiqotlar asosan bioxilmaxillik, landshaft ekologiyasi, shaharsozlik, ekotizim funksiyalari va xizmatlari doirasida tabiiy va ijtimoiy fanlar soha vakillari tomonidan o'rganiladi.

✓ *uchinchi yondashuvda* shaharlar ekologik xavf ostidagi hududlar sifatida qaraladi.

Bu yondashuvdagi tadqiqotlar asosan o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish doirasida olib boriladi. Xitoyda shahar ekologiyasi ilmiy yo'nalishida olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar so'nggi bir necha o'n yilliklardagi iqtisodiy o'sish bilan boshlandi. Xitoy olimlaridan Song va Gao (2008) Xitoyda shahar ekologiyasining rivojlanishini shartli 3 ta davrga ajratadi: (1) Boshlang'ich davr (1982-1990); (2) O'sish davri (1991-2000); (3) Rivojlanish davri (2001-yildan to hozirgacha). Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Xitoyda zamonaviy urbanizatsiya jarayoni 1949-yildan boshlab rivojlangan bo'lsa, shahar ekologiyasi ilmiy yo'nalishidagi zamonaviy tadqiqotlar ham aynan shu davrdan boshlangan. 1949-yilgacha aynan shaharlar geografiyasi yoki shaharlar ekologiyasi degan ilmiy yo'nalish bo'lmagan. Xitoyda ilk marta geografiya fani Sovet Ittifoqidagi tizimga asoslanib, 1950-1960 yillarda tabiiy va iqtisodiy geografiyaga bo'lindi. Shunda juda kam sonli iqtisodiy geograflar shaharlarni o'rganish bilan shug'ullangan [11]. 1990 yillarning boshiga kelib Xitoydagi jurnal va kitoblarda xitoy va ingliz tillarida shahar ekologiyasiga oid ishlar nashr etila boshlandi va ilk bora Geografiya Jamiyati qoshida Shaharlar Geografiyasi Komitetiga asos solindi [2]. 2000-yillardan keyingi davrda Xitoyda shahar ekologiyasi ilmiy yo'nalishiga oid tadqiqotlar son va sifat jihatidan bir necha barobar o'sdi [3]. Bugungi kunda, Xitoyda shahar ekologiyasi ilmiy yo'nalishi ko'plab tadqiqotlarni o'z ichiga qamrab olgan. Xususan, urbanizatsiya jarayoni, shaharsozlik, shaharlar rivojlanishining siyosiy va iqtisodiy xususiyatlari, shaharlar morfologiyasi, shahar klasterlari, shaharlarning barqaror rivojlanishi doirasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Adabiyotlar hamda soha vakillarining ushbu tarmoqda olib borgan ilmiy ishlari tahlili natijasida shuni aytish mumkinki, Xitoyda shahar ekologiyasi shaharlar geografiyasi ilmiy yo'nalishi negizida paydo bo'ldi. Boshqa mamlakatlardagi kabi Xitoyda ham ilk zamonaviy shahar ekologiyasiga oid tadqiqotlar ham shahar ekotizimlarini o'rganish, atrof-muhitga insonning nojo'ya ta'sirining oldini olish maqsadida olib borilgan. 1990-yillarda Xitoy olimi Song Yevropa adabiyotlaridan foydalanib hamda Germaniyada shahar ekologiyasi bo'yicha orttirgan tajribalaridan kelib chiqib, shahar ekologiyasida 7 ta tadqiqot yo'nalishini ajratadi. Bular: (1) urbanizatsiya jarayoni; (2) urbanizatsiyaning atrof-muhitga ta'siri; (3) urbanizatsiyaning biologik organizmlarga ta'siri; (4) urbanizatsiyaning inson salomatligiga ta'siri; (5) shahar ekotizimlarining funksiyasi va mexanizmi; (6) shahar ekotizimlarining boshqa shaharlar va qishloq ekotizimlari bilan aloqasi; (7) monitoring qilish va baholash. 1984-yilda Ma va Mang [5] inson ta'siri ustun bo'lgan ekotizimlarni ijtimoiy-iqtisodiy-tabiiy kompleks (SENCE) bo'lgan ekotizim sifatida o'rganilishi

to'g'risidagi konsepsiyani yaratdi. Ushbu konsepsiya Xitoydagi ekologik va atrof-muhit bilan aloqador bo'lgan muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi [10]. 1992-yilda Yu, Zhi-Xilar shaharlarning biofizik, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, iqlimi, havosi ifloslanishi, kasalliklar, atrof-muhit ekologik holatini baholashga oid tadqiqotlar keltirilgan birinchi "Urban ecology" nomli kitob yozdi. Dong, Ya-Wen esa shahar landshaftlari ekologiyasi bo'yicha tadqiqotlar olib bordi. Bunda u shaharlarning ifloslanishi, vegetatsiya jarayoni, flora va faunasi, tuproqlari va gidrologiyasini o'rganib, "Urban landscape ecology" nomli kitob yozadi. *Ikkinchi bosqichda* olib borilgan tadqiqotlarga Kang. Mu-Yi, Shen. Qing-Ji, Song Yong-Chang, Wen Hui You, Wang Ru Song, Li Jianlong va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni keltirish mumkin. Kang. Mu-Yi "Urban ecology and urban environment" nomli kitobida shaharlarni ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy tizimlar sifatida qarab, asosan shahar yashil maydonlarini tavsiflaydi. *Uchinchi bosqichda* Wang Ru Song, Li Jianlong, Dai Tian Xing Wang Ru-Song, Zou Dong-Sheng, Gong jian Zhou, Wen Gou-Sheng va boshqalar tadqiqotlar olib borgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, shaharlar ekologiyasi fani bugungi kunda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqdir. Ushbu sohada olib boriladigan izlanishlar bevosita Yer sayyorasi aholisining yarmidan ortig'ining bugungi kuni, ertangi hayoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shaharlar bir vaqtning o'zida ulkan demografik salohiyatga ega hududlar ekanki, ularning ekologik vaziyati hamisha dolzarb mavzu bo'ladi. Shu jumladan, dunyo davlatlari orasida aholi soni bo'yicha peshqadam bo'lgan Xitoy davlatida ham bu yo'nalish uzoq tarixiy rivojlanishga ega hamda bugungi kunda ham ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Cities of the world. A history in maps. Peter Whitfield. University of California press. Berkeley and Los Angeles, California. First published in 2005 by The British Library.
2. Fang 2009, Gu va Xu 1999. The formation, development and spatial heterogeneity patterns of urban agglomerations in China. *Acta Geographica Sinica*, 60, 827–840.
3. Jianguo Wu va bosh. Landscape and urban planning 125
4. Kraas F. 2007. Megacities and global change: key priorities. *Geographical Journal* 173: 79-82.
5. Ma va Mang. The social-economic-natural complex ecosystem. *Acta Ecologica Sinica* 1984-yil.
6. Pankenier, David W (1995). "The Cosmo-Political Background of Heaven's Mandate". *Early China*. 20: 121–176.
7. Rees va Wackernagel 1994. Urban ecological footprints: Why cities cannot be sustainable and why they are a key to sustainability. *Environmental Impact Assessment Review*, 16, 223–248.
8. Schinz, Alfred (1996). The magic square: cities in ancient China. Edition Axel Menges. p. 428. ISBN 3-930698-02-1.
9. Urban ecology in China: Historical developments and future directions. Jianguo Wu, Wei-Ning Xiang va boshq. 2014. *Landscape and urban planning journal*.
10. Wang, 1988, 2013b; Wang, Li, Hu, & Li, 2011; Zhao, 1995). High efficiency and harmony – Methods for urban eco-regulation. Changsha: Hunan Education Press.

Akaboyev Ismatulla Ziyadulla o'g'li

Namangan davlat universiteti,

Geografiya va atrof-muhit muxofazasi kafedrası o'qituvchi,

Namangan, O'zbekiston. E-mail: iakaboev@mail.ru

Ayubova Zulayho Yoqubjon qizi

Namangan davlat universiteti,

Geografiya yo'nalishi uchunchi bosqich iqtidorli talabasi,

Namangan, O'zbekiston. E-mail: a.zulaiho2004@iclod.com

NAMANGAN VILOYATI AHOLISINI BALANDLIK MINTAQALARI BO'YICHA JOYLASHUVINI O'RGANISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada Namangan viloyati aholisining balandlik mintaqalari bo'yicha joylashuvi va zichlik xususiyatlari o'rganilgan. Aholining relyefga bog'liq holda joylashuvida viloyat aholi punktlarining dengiz sathidan balandligi GAT dasturlari asosida aniqlangan. Aholi punktlari balandligiga ko'ra kichik guruhlariga ajratilgan va shu asosda viloyat tumanlari guruhlariga bo'lingan.

Kalit so'zlari: Namangan viloyati, aholi, aholi zichligi, aholi joylashuvi, balandlik mintaqalari, aholi punktlari, tabiiy omillar, ijtimoiy- iqtisodiy omillar.

ИЗУЧЕНИЕ РАЗМЕЩЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ВЫСОТНЫХ ПОЯСОВ

Аннотация: В данной статье изучены особенности размещения и плотности населения Наманганской области в зависимости от высотных поясов. Размещение населения с учетом рельефа определено на основе программ ГИС, путем анализа высоты населенных пунктов над уровнем моря. Населенные пункты классифицированы на небольшие группы по высоте, на основе чего районы области были разделены на группы.

Ключевые слова: Наманганская область, населения, плотность населения, размещение населения, высотные пояса, населенные пункты, природные факторы, социально-экономические факторы.

STUDYING THE LOCATION OF THE POPULATION OF NAMANGAN REGION ACCORDING TO ALTITUDE REGIONS

Abstract: This article examines the characteristics of population distribution and density in Namangan region across elevation zones. The population distribution in relation to the terrain was determined using Geographic Information System software by analyzing the altitude of settlements above sea level. Settlements were classified into small groups based on their elevation, and on this basis, the districts of the region were grouped.

Key words: Namangan region, population, population density, population location, altitude regions, settlements, natural factors, socio-economic factors.

Kirish. Bizga ma'lumki, aholining joylashuvi bir qancha tabiiy va iqtisodiy - ijtimoiy omillarga bog'liq bo'lib, ular ichida asosan tabiiy sharoit omillari katta rol o'ynaydi. Aholining balandlik mintaqalari bo'yicha joylashuvini o'rganish geografiya, geodemografiya, iqlimshunoslik va ijtimoiy – iqtisodiyot fanlar uchun muhim ahamiyatga ega. Sababi, bu masala aholining yashash tarzi, tabiiy resurslardan foydalanish masalasi, tabiiy landshaftlarga ta'siri, migratsiya jarayonlaridagi ishtiroki va iqlim o'zgarishiga moslashuvini tushunishga yordam

beradi. Dunyoda eng ko'p aholi dengiz sathidan 500 metrgacha bo'lgan balandliklarda ya'ni, tekisliklarda yashaydi. Lekin ular ququqlikning atigi 28 foizini egallaydi. Aholisining katta qismi dengiz sathidan 1000 m balandlikdagi tog'li hududlarda yashaydigan Meksika, Peru, Efiopiya, Afg'oniston va boshqa shunga o'xshash tog'li hududlarda joylashgan mamlakatlar bundan mustasno. Masalan, Tibetda dengiz sathidan 5000 m va undan balandliklarda ham aholi yashaydi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda ushbu maqolada hududi tekislik, tog' oldi va tog'li mintaqalardan iborat bo'lgan Namangan viloyati aholisini balandlik mintaqalari bo'yicha joylashuvini o'rganish **maqsad** qilib olindi. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilab olindi: Namangan viloyati tumanlarini aholi zichligi bo'yicha guruhlarga ajratish; Namangan viloyati aholisini balandlik mintaqalari bo'yicha joylashuvini o'rganish; Namangan viloyati hududini balandlik mintaqalari bo'yicha kichik guruhlarga ajratish va unda joylashgan aholi sonini aniqlash.

Natijalar va ularning muhokamasi. Namangan viloyati respublikaning sharqida, Farg'ona vodiysining shimoli-g'arbiy qismida, Tyanshan tog' tizmasi tarmoqlari – Qurama va Chatqol tog'larining yon bag'rida joylashgan. Shimoliy va shimoli-sharqdan Qirg'iziston Respublikasining Jalolobod viloyati, janubi-sharqdan Andijon, janubidan Farg'ona, shimoliy va shimoli-g'arbdan Toshkent viloyati va Tojikistonning Sug'd viloyati bilan chegaradosh.

Aholi soni dinamikasidagi ijobiy o'zgarishlar, albatta, uning joylashuvida o'z aksini topadi. Aholi joylashuvining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bu aholi zichligidir. Mashhur olim Kovalyov S.A "Qishloq aholi manzilgohlari joylashuvi to'g'risidagi eng umumiy, batafsil tasavvurni aholi punktlarining o'rtacha zichlik ko'rsatkichi beradi"- deb ta'kidlaydi. Namangan viloyati hududida aholi zichligi, asosan, tabiiy ko'payishga bog'liq holda yil sayin ortib borgan. Masalan, aholi zichligi 2010- yilda 303,6 kishi, 2011-yilda 319,8 kishi, 2012-yilda 325,3 kishi, 2012- yilda 330,3 kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, mos ravishda 412,1 kishini tashkil qilmoqda. Tabiiy sharoitning qulayligi, ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlar natijasida aholi, yuqorida ta'kidlaganimizdek, tabiiy ko'payish hisobiga ko'paymoqda va shunga mos holda, aholi zichligi ham ortib bormoqda. Namangan viloyatidagi tuman va shaharlar maydoni, tabiiy sharoiti kabi jihatlar bilan bir-biridan farq qilganligi sababli aholi zichligida ham farqlar mavjud.

Tumanlar kesimida aholi soni eng zichligi bilan Namangan tumani 948,4 kishi, To'raqo'rg'on 899,0 kishi, Norin tumani 848,7 kishi to'g'ri kelishi bilan ajralib tursa, 1 km² ga 81 kishi to'g'ri kelishi bilan Pop tumani eng oxirgi o'rinni egallaydi (1-jadval).

Jadval ko'rish mumkinki, aholining eng zich joylashuvi, Uychi, Norin, To'raqo'rg'on va Namangan tumanlariga to'g'ri kelmoqda. Bunday joylashuvga tabiiy sharoit bilan birgalikda, Namangan shahri ya'ni markazning yaqinligi va shu bilan birga, bu 4 ta tuman Namangan viloyatidagi maydon jihatdan eng kichik

tumanlar orasida ekanligi asosiy omil bo‘lmoqda. Qolgan guruhlariga tegishli bo‘lgan tumanlarda ham yuqorida ta’kidlab o‘tilgan omillar asoiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Aholi zichligi eng past bo‘lgan Pop tumani va aholi zichligi eng yuqori bo‘lgan Namangan tumanlari o‘rtasida zichlik ko‘rsatkichi 11 martadan ko‘proqqa farq qiladi.

1-jadval

Namangan viloyati tumanlarining zichlik bo‘yicha guruhlanishi (2024-yil)

Aholi zichligi guruhlar taqsimotida	Tumanlar soni	Guruhlariga tegishli tumanlar	O‘rtacha aholi zichligi (1 km ² kishi)	Aholi soni, ming kishi hisobida	Jami aholiga nisbatan foiz hisobida
Viloyatda	11 ta		412,1	3066,1	100
80-100 kishi	1 ta	Pop	81,0	235,7	7,7%
100-300 kishi	1 ta	Mingbuloq	184,8	136,9	4,5%
300-500 kishi	3 ta	Chust	304,6	285,6	9,4 %
		Kosonsoy	414,4	227,9	7,5%
		Yangiqo‘rg‘on	451,6	237,1	7,8%
500-700 kishi	2 ta	Chortoq	569,5	214,9	7,1%
		Uchqo‘rg‘on	618,5	185,4	6,1 %
700-900 kishi	4 ta	Uychi	763,4	232,3	7,8%
		Norin	848,7	175,8	5,8%
		To‘raqo‘rg‘on	899,0	245,2	8,0%
		Namangan t	948,4	192,7	6,3%

Izoh: Jadval Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

Aslida, yuqorida keltirilgan aholining o‘rtacha zichligi, zichlikning “brutto” ko‘rsatkichiga mos keladi. A.S.Soliyevning ta’kidlashicha, “brutto” ko‘rsatkich ma’muriy tumanning barcha hududlariga taalluqli (aholi yashash yoki yashamasligidan qat’i nazar, cho‘l yoki tog‘ hududlarni ham qamrab oladi). Binobarin, aholi zichligini qishloq fuqarolar yig‘inlari darajasida aniqlash yaxshi natijalar beradi. Bunda zichlik, ayniqsa, qishloq xo‘jaligida foydalanadigan yerlarga nisbatan hisoblansa, tahlil yanada chuqurroq va to‘g‘riroq bo‘ladi [4]. Shunday fikrni gruziyalik olim V.Sh.Djaoshvili ham ta’kidlagan. Professor O.R. Rahmatullayev esa O‘zbekistonning yirik vohalari uchun aholining “yer sig‘imi” me‘yorini ishlab chiqqan.

Aholishunos olim Z.N.Tojdiyeva hudud demografik sig‘imini tadqiqotida qo‘llagan. Hudud demografik sig‘imi o‘zgaruvchan xususiyatga ega kattalik hisoblanadi. Chunki yer maydoni katta aholi soni aksincha, kichkina hudud bir necha barobarga ko‘p aholini boqqa olishi, kunlik hayot uchun eng muhim bo‘lgan tabiiy komponentlar tahliliga asoslanadi. Masalan, bularga aholini uy-joy bilan ta‘minlash, sanoat korxonalarini qurish uchun qulay bo‘lgan yer maydonlari mavjudligi, suv resurslari, rekreatsiya resurslari, oziq-ovqat zaxirasini tashkil etish va boshqalar kiradi [3].

Aholi joylashuvining gipsometrik balandliklar bo‘yicha joylashuvi ham

o'ziga xos. Masalan, dunyo bo'yicha gipsometrik balandliklar joylashuviga qaraydigan bo'lsak, 60 foizga yaqin aholi dengiz sathidan 200 metrgacha bo'lgan balandlikda, 11% foizi 500-1000 m, 4 foizi 1000-1500 m, 2 foizi 1500-2000 m. va atigi 1 foizi 2000 m va undan baland bo'lgan joylarda yashaydi [5].

Namangan viloyatining hududi notekis bo'lgani bois aholi punktlari turli balandliklarda joylashgan. Ma'lumki, balandlik ortib borgan sari harorat va havo bosimi pasayib, yog'in miqdori, o'simliklar turi va soni orta boradi. Bu tabiiy omillar hududlarning xo'jaligiga, ixtisoslashuviga, aholi soni va zichligiga, aholi punktlarining katta-kichikligiga, odamlarning tashqi ko'rinishi va sog'ligiga turlicha ta'sir ko'rsatgani uchun uni o'rganish yanada ahamiyatlidir.

Respublika hududlari aholi joylashuvi nuqtayi nazaridan turli yo'nalish va sohalarga ko'ra olimlar tomonidan balandlik mintalari va rayonlariga ajratilgan. Xususan, Q.Z. Zokirov, T. Jumayev, A. Soliyev, M. Nazarov, Z.N. Tojiyeva, L.Z. Ibragimov va boshqalar bu sohada tadqiqotlar olib borishgan. Jumladan, akademik Q.Z. Zokirov Zarafshon vodiysi o'simliklarini uzoq yillar o'rganishlari natijasida vodiya 4 ta mintaqani – cho'l, adir, tog', yaylovga ajratishni taklif etgan bo'lsa, A. Sagatov Respublika tabiiy sharoitini o'rganib, uni "tekislik va tog'oldi vohalari", "cho'llar", "baland tog'oldi va tog'li hududlar" kabi uchta yirik rayonlarga ajratgan. Tog'shunos olim T. Djumayev O'zbekiston tog'li hududlarida, ya'ni dengiz sathidan 600 metrdan yuqorida jami aholining 10 foizi istiqomat qilishini qayd etadi. Muallif fikricha, eng yuqorida joylashgan qishloq aholi punktlari 2500 – 2700 metr oralig'ida joylashgan [2]. Namangan viloyatining aholi istiqomat qiluvchi eng baland qismlari 1200 metr atrofida bo'lganligi sababli, T. Djumayev tadqiqotiga to'g'ri keladigan qishloq aholi punkti mavjud emas.

L.Z. Ibragimov janubi-g'arbiy O'zbekiston hududi tarkibidagi tumanlarni dengiz sathidan balandligi qarab quyidagicha rayonlashtirgan: Cho'l-dasht (400 metrgacha); Tog' oldi (400–1000 metrgacha); Tog'li hududlar (1000 metrdan yuqori) [1].

Yuqoridagi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida Namangan viloyati tumanlarida aholini balandlik mintaqalari bo'yicha joylashuvi o'rganib chiqildi. Namangan viloyatining relyefi notekis bo'lib, sharq va janubi-sharqdan shimol va shimoli-g'arbga hamda janubi-g'arbga tomon pasayib boradi. Relyefga bog'liq holda aholi punktlari turli balandliklarda joylashgan. Viloyat hududining katta qismi tog' oldi (400-1000 metrgacha) balandliklarga to'g'ri keladi. Tadqiqot yanada samarali bo'lishi uchun viloyat tumanlaridagi har bir aholi punkting dengiz sathidan balandligi Google Earth Web kartografik dasturi yordamida o'rganildi va aholi punktlari balandligiga ko'ra yanada kichikroq guruhlarga ajratildi (2-jadval).

Aholi punktlari joylashgan tumanlarning yer yuzi doimo tekis bo'lmasdan eng yuqori va eng past joylari bir-biriga nisbatan 10–20, ba'zan 20–40 metrgacha, hatto undan ham ko'proqqa farq qilishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, tog'li hududlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuning uchun aholi punktlari balandligini

aniqlashda aholi punktining o‘rtacha balandligi asos qilib olindi. Aholi punktlarining turli balandliklarda joylashganligiga ko‘ra viloyat tumanlari bir-biridan farq qiladi.

2-jadval

Namangan viloyati tumanlarini balandlik mintaqalari asosida kichik guruhlariga ajratilishi (2024-yil)

№	Rayonlar	Kichik guruhlar	Tumanlar	Tuman maydoni (ming km ²)	Aholi soni (1000 kishi)
1	Cho‘l-dasht (400-metrgacha)	–	Mingbuloq	0,74	136,9
2	Tog‘oldi (400-1000 metrgacha)	400-600 metrgacha	Namangan t		192,7
			Uychi		232,3
			Norin		175,8
			Pop		235,7
			Uchqo‘rg‘on	290	185,4
			To‘raqo‘rg‘on	0,33	192,7
		600-800 metrgacha	Chortoq	0,36	214,9
			Chust	0,92	285,6
			800-1000 metrgacha	Yangiqo‘rg‘on	0,54
Kosonsoy	0,51	227,9			
3	Tog‘li hududlar (1000 metr va undan yuqori)	–	–	–	–

Jadval <https://earth.google.com/web> sayti va Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

Jadvalda keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra viloyatning Mingbuloq tumani asosan 400 metrgacha bo‘lgan tekisliklardan tashkil topganligiga bog‘liq ravishda aholi punktlarining ham katta qismi 400 metrgacha bo‘lgan balandliklarda o‘rnashgan.

O‘rganishlar asosida ma‘lum bo‘ldiki, Namangan viloyatining aholisi asosan tog‘ oldi 400-1000 metrgacha bo‘lgan hududlarda joylashgan bo‘lsa, tog‘li hududlari ya‘ni 1000 metrdan yuqori qismlarda istiqomat qiladigan aholi deyarli mavjud emas.

Aholi punktlarida aholi ko‘payib rivojlanar ekan, ular o‘zi yashaydigan hududni tobora kengaytira boradi, resurslardan ko‘proq foydalanishga intiladi, bu esa ko‘p hollarda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Namangan viloyati tumanlardagi aholi punktlarining turli balandlikda o‘rnashganligi aholi joylashuvida muhim ahamiyatga egadir. Chunki soy va buloqlar atrofi kichik sug‘orma dehqonchilikni rivojlantirish uchun xizmat qilib, aholining kundalik sabzovot va poliz ekinlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qisman qondirish uchun muhim bo‘lsa, tog‘ yonbag‘irlaridagi adirlar lalmi dehqonchilik uchun ahamiyatli hisoblanadi. Tog‘larning baland joylari chorvachilik uchun yaylov sifatida foydalaniladi. Aholi azaldan bunday imkoniyatlardan foydalanib keladi. Shuning uchun tumanlarning suv mavjud bo‘lgan tog‘ yonbag‘irlarida, adirlarda

uzumchilik, bog'dorchilik yaxshi rivojlangan. Aholi punktlarining balandlashib borishi turli xo'jalikni yuritishga sabab bo'ladi.

Xulosa. Aholini balandlik mintaqalari bo'yicha joylashuvini tadqiq etish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni boshqarish, tabiiy resurslarni barqaror boshqarish va iqlim o'zgarishiga moslashish jarayonlarida muhimdir. Zero, balandlik mintalarida joylashgan hududlar ko'pincha daryo manbalariga yaqin bo'ladi. Bu joylarda suv resurslarining boshqarilishi qishloq xo'jaligi va ichimlik suvi ta'minotini belgilaydi. Balandlikka qarab havo harorati va bosimining o'zgarishi turli yashash sharoitlarini yaratadi. Bu esa nisbatan baland hududlarda yashovchi aholining o'ziga xos hayot tarzi, mehnat faoliyati va sog'lig'ini iqlimiy sharoitlarga moslashishiga olib keladi. Tekislik mintaqalari qishloq xo'jaligi uchun qulay bo'lsa, nisbatan baland mintaqalarda yaylov va chorvachilik ustunlik qiladi. Balandlik mintaqalardagi qishloq xo'jaligi usullari mahalliy aholining an'anaviy bilim va tajribalariga asoslangan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ибрагимов Л.З. Жануби-ғарбий Ўзбекистонда аҳоли бандлигининг иқтисодий географик хусусиятлари. – Тошкент: ЎзМУ, 2022. – 243 б.
2. Солиев А.С., Назаров М.И. Ўзбекистон қишлоқлари (Қишлоқ жойлар географияси). –Т.: “Fan va texnologiya”, 2009. 212 б.
3. Тожиева З.Н. Ўзбекистон Республикасида демографик жараёнлар ва уларнинг ҳудудий хусусиятлари// геог.фан.док. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.; 2017 й. 225-б.
4. Jumaxanov Sh.Z. Namangan viloyati geodemografiyasi. Monografiya. – Namangan: “Namangan”, 2022. – 116 b.
5. Soliyev A., Mahamadaliyev R. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari (Oliy o'quv yurtlari geografiya fakultetlari talabalari uchun darslik) Toshkent -2005.-123 b.
6. Mirzaaxmedov, X. S., & Akaboyev, I. Z. O. G. L. (2021). Mapping the population of Namangan region using modern GIS technologies. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, 12, 1070-1074.
7. Акабоев, И. З. (2019). Важность картирования населения в географических исследованиях. *Экономика и социум*, (12 (67)), 162-164.
8. <https://www.namstat.uz/uz/> Namangan viloyati statistika boshqarmasi rasmiy sayti ma'lumotlari.
9. <https://earth.google.com/web> sayti.

Fayziyev Qobiljon Olim o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,

Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti magistranti,

Toshkent, O'zbekiston. E-mail: qobiljonfayziyev2000@gmail.com

XATIRCHI TUMANI XO'JALIK TARMOQLARINING RIVOJLANISHI VA JOYLANISHI

Annotatsiya: Maqolada Navoiy viloyati Xatirchi tumani moddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga umumiy tavsif berilgan. Asosiy e'tibor yalpi hududiy mahsulot va uning tarmoqlar bo'yicha ulushi hamda viloyat iqtisodiyotida tungan o'rniga qaratilgan.

Kalit so'zlar: yalpi hududiy mahsulot, tashqi savdo aylanmasi, eksport, import, sanoat, qishloq xo'jaligi, investisiya.

РАЗВИТИЕ И РАЗМЕЩЕНИЯ ОТРАСЛЕЙ МАТЕРИАЛЬНОГО ПРОИЗВОДСТВА ХАТЫРЧИНСКОГО РАЙОНА

Аннотация. В статье дается общая характеристика отраслей материального производства Хатырчинского района Навоийской области. Основное внимание уделено валовому региональному продукту и его доле по отраслям, а также его роли в экономике области.

Ключевые слова: валовой региональный продукт, внешнеторговый оборот, экспорт, импорт, промышленность, сельское хозяйство, инвестиции.

LOCATION AND DEVELOPMENT OF ECONOMIC NETWORKS OF KHATYRCHI DISTRICT

Abstract. The article provides a general overview of the material production sectors of the Khatyrchinsky district of the Navoi region. The main focus is on the gross regional product and its share by industry, as well as its role in the regional economy.

Keywords: gross regional product, foreign trade turnover, exports, imports, industry, agriculture, investment.

Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari iqtisodiyotning negizini tashkil qilib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning o'sishi uchun muhim omil hisoblanadi. Ushbu tarmoqlar iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga yordam beradi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Har bir mintaqada mavjud bo'lgan tabiiy resurslar va ishchi kuchini hisobga olgan holda, moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini to'g'ri joylashuvi va rivojlanishi, resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi yangi ish o'rinlarini yaratadi, bu esa mehnat bozorini rivojlantirish va aholi daromadlarini oshirishga olib keladi. Bu ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun juda muhimdir.

Xo'jaligi. Tuman iqtisodiyoti agrar-industrial xarakterga ega. Xatirchi tumanida 2023-yil yanva-dekabr oylarida 12502,3 mlrd so'm savdo aylanmasi amalga oshirilgan bo'lib bu 2022 yilning shu davriga nisbatan foizda 104,2% ga o'sgan. Asosiy iqtisodiyot tarmoqlari kesimida eng yuqori ko'rsatkich qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri kelib, 2022-yilning yanvar-

dekabr oylariga nisbatan 101,9% ga o'sgan. Aksincha, eng past ko'rsatkich iste'mol tovarlariga to'g'ri kelsada, yillik o'sish surati bo'yicha (110,4%) yetakchilik qilmoqda. (1-rasm).

1-jadval


Xatirchi tumaning asosiy iqtisodiy ko'ratkichlari[2]

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2022 yilning yanvar-dekabriga nisbatan foizda</i>
Sanoat	1575	107,6
Iste'mol tovarlari	631,1	110,4
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6105,6	101,9
Asosiy kapitalga investitsiyalar	1086,8	94,0
Qurilish ishlari	688,9	100,2
Chakana tovar aylanmasi	1555,8	106,7
Xizmatlar, jami	859,1	108,3

Tuman yalpi hududiy mahsulotining deyarli yarmi qishloq, o'rmon va baliqchilik tarmoqlari hissasiga to'g'ri keladi (1-rasm).


Tarmoqlar bo'yicha nisbatan yuqori ko'rsatkich sanoat va chakana tovar aylanmasi hissasiga to'g'ri kelsa, eng past ko'rsatkich iste'mol tovarlari va qurilish ishlariga tegishli bo'lgan.

Xatirchi tumani tashqi savdo aylanmasi hajmi 2023-yilda 65,8 mln AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, 2022-yilning shu davri (10,2 mln AQSh dollari)ga nisbatan 6,5 martaga oshgan. Bu borada ayniqsa, eksportning ulushi 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 9,3 martaga ya'ni 5,8 mln AQSh dollaridan 54,2 mln AQSh dollariga ortgan. Shu o'rinda import hajmi ham 2,7 marta (4,4 mln AQSH dollaridan 11,6 mln AQSh dollari)ga ortgan.




1-rasm. Xatirchi tumani yalpi hududiy mahsulotining tarmoqlar bo'yicha ulushi (2023 yil yanvar-dekabr oylari bo'yicha)[2]

Tashqi savdo aylanmasi hajmiga ko'ra Xatirchi tumani viloyat ma'muriy hududiy birliklari orasida Navoiy shahri va Karmana tumanidan keyin uchinchi o'rinni qayd etgan (2-rasm).



2-rasm. Navoiy viloyati tashqi savdo aylanmasining hududlar bo'yicha kesimi (2023 yil, mln. AQSh dollari hisobida)[2]

Viloyatda hududlar kesimida tashqi savdo aylanmasida eksportning ulushi bo'yicha Xatirchi tumani birinchi o'rinda turadi. Tuman jami tashqi savdo aylanmasining 82,4%i eksport hissasiga to'g'ri kelib, bu borada viloyat barcha hududiy birliklarini ortda qoldiradi. O'z navbatida, tashqi savdo aylanmasida importning ulushi 17,6% ni tashkil qilib, viloyatda eng past ko'rsatkichni qayd etadi (3-rasm).



3-rasm. Navoiy viloyati tashqi savdo aylanmasida eksportning ulushi (% da, hududlar kesimida)[2]

Xatirchi tumani yalpi hududiy mahsulotining tarmoqlar bo'yicha viloyatdagi ulushida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 31% bilan eng yuqori

ko'rsatkichga ega.

2-jadval

Xatirchi tumani asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarining Navoiy viloyatida tutgan ulushi, % da[2]


Sanoat	1,5
Iste'mol tovarlari	16,5
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	31,0
Asosiy kapitalga investitsiyalar	4,2
Qurilish ishlari	10,3
Chakana tovar aylanmasi	13,0
Xizmatlar, jami	7,4

Xatirchi tumanida xizmatlar va asosiy kapitalga investitsiyalarning Navoiy viloyatida yalpi hududiy mahsulotidagi ulushi nisbatan pastroq ko'rsatkichga ega bo'lsada, eng past ulush sanoatga tegishli. Tuman sanoatining viloyatdagi ulushi 1,5% ga teng.

Tashqi savdo aylanmasida tumanning o'rganilayotgan 2023-yildagi ulushi 5% ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich mos ravishda eksport uchun 8,4% hamda import uchun 1,7% ni tashkil qiladi.

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilinganda, tumanning sanoat, iste'mol tovarlari o'sish surati mamlakatning 2023-yildagi o'sish suratidan yuqori.

Xatirchi tumani yalpi hududiy mahsulotlari hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi katta hisoblanadi. 2023-yilda qurilish ishlari to'liq kichik biznes hissasiga to'g'ri keldi (6-rasm).



6-rasm. Xatirchi tumanining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarida kichik biznesning ulushi (% da, 2023-yil yanvar-dekabr)[2]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qurbonov Sh.B. Kichik hududlar ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. Monografiya. Toshkent. Mumtoz so'z. 2013
2. Xatirchi tumani statistika bo'limi ma'lumotlari, 2023-y.
3. <https://stat.uz/uz/>
4. <https://www.navstat.uz/uz/>

Hamdamov Eldorbek Doniyorjon o'g'li

*Doctoral student of the Department of Economic and Social Geography,
National University of Uzbekistan*

E-mail: hamdamoveldorbek8@gmail.com

SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF THE RESEARCH OF REGIONAL RECREATION SYSTEMS AND RECREATION ACTIVITY

Abstract: *In this article, tourism and recreation activities, territorial recreation systems are theoretically analyzed, and at the same time, the article discusses the researches of foreign and Uzbek scientists.*

Key words: *Tourism, seasonal tourism, seasonal periods, concept of HRT, "Recreation time", "Dead" period, "Peak" period. "Average" period.*

Recreational activities play an important role in restoring people's health, increasing labor productivity, and relieving stress and depression. Being a living organism, a person feels the need to rest and be in harmony with nature throughout his life, especially in urban areas where the population, production enterprises and transport networks are densely located.

The decisions and decrees of the President on the development of tourism and recreation, as well as the decree on the development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026, in these short five years, tourism and recreation in our country giving importance to foreign and state investments, introducing a state order for the restoration of more than 100 neglected cultural heritage objects and restoring the infrastructure leading to them, it is noteworthy that decisions were made to increase the additional export volume by 30% in the field of tourism by effectively using the possibilities of pilgrimage tourism of our country [6].

At the same time, the 35th goal of the Action Strategy is to increase the number of local tourists from 12 million and the number of foreign tourists visiting the republic to 9 million within the framework of the "Travel around Uzbekistan" program. Broad introduction of barrier-free tourism infrastructure in the main tourist cities of the country. By 2026, the number of people employed in tourism should be doubled to 520,000. Adoption of the state program on the development of the infrastructure of tourism and cultural heritage objects and the effective use of more than 8 thousand cultural heritage objects. Construction of additional tourist zones and recreation centers in Zomin, Forish, Bakhmal districts and "Aydar-Arnasoy" lake system, implementation of projects worth 300 million US dollars, creation of 25,000 jobs. To increase the volume of tourism services at least 10 times in the next five years by turning Samarkand into a "Tourism Gate". [2].

The word "recreation" has a Latin root and means "restoration". [6]. Also,

Recreation - (recreation in French means rest, change of movement).[7]. This word entered almost all European languages with the same appearance and meaning, and we can be sure that it is used in English, French, Polish, Russian and other languages. So, recreational activities are related to a person's rest and thereby restoring his health, physical and mental strength.

N.F. Reimers states that "Recreation is the way in which the population rests in natural areas or goes on trips to national parks, architectural monuments, and other places of entertainment in order to restore their health and work ability." [8].

American scientist R.A. Stebbins defines recreation as follows: "In an economically developed society, recreation means recovery from the physical and mental oppression of people in the process of work" [9].

According to V.A. Kwartalnov, he defines that "Recreation is the processes of restoring physical and mental strength of a person and walking in the open air." [10].

T.B. According to Nikolenko, "Recreation is a desired type of rest, a type of activity aimed at restoring human strength" [11].

L.A. According to Akimov, tourism-recreation is one of the active types of leisure, and it is said that it refers to the process of restoring the ability to work. [15].

Economist Z.T. In the course of his researches, Abdulkhakimov defined the concept of recreation as follows: "Recreation is a place where a person can restore his working ability and relax in the natural environment (scenic places of nature, high mountain and foothills) , along water bodies, streams, waterfalls, natural monuments and reserves, sanatoriums for treatment and recreation, tourist bases, historical monuments, museums, various It is a socio-economic process that includes exhibitions, theaters, various cultural evenings and events. [16].

Another economist Z.I. As a result of the analysis of various interpretations of the concept of recreation in her doctoral thesis, Usmonova concluded that "Recreation is the restoration of health and labor force through rest in nature outside the home, on tourist trips, in sanatoriums and health facilities. It's done. Recreational tourism is a classic form of tourism, which includes health, dating and sports tourism. "Recreation is a special type of activity that includes the process of satisfying the physical, intellectual and spiritual needs of the population through purposeful organization of recreation, acquisition and application of relevant knowledge and skills, and participation in events as an audience." reefed. [11].

The study of recreation activities by the science of geography began in

different countries at different times. In particular, tourism and recreation in English and American geography have been systematically studied since the 1930s. Early studies of tourism and recreation developed in American economic geography in the 1930s because of the economic impact of tourist areas in the postwar period. Major research on recreation in Great Britain developed in 1939-1949 based on Gilbert's establishment of resorts in coastal areas of Britain. [12].

In the West, by the 1960s and 1970s, due to the increase in special scientific publications in the field of geography of tourism and recreation, research in this direction developed rapidly. In the West, including the USA and England, scientists such as Pierce (1979), Smith, Mitchell (1990), Murphy (1991), Hall, Lew (1998), Patmore (1983), Coppock, Duffield (1975) contributors. In Canada, important research in the field of tourism is associated with the name of Roy Wolff. His initial research was conducted in rural Ontario in 1951-1952. [12].

In the former Union, the geography of recreation began to develop widely from the second half of the 20th century. In 1963-1975, Russian researchers V.S. Preobrazhensky, Y.A. Vedenin, I.V. Zorin, V.N. Lekhanov, L.I. Mukhina, L.C. A monograph entitled "Theoretical foundations of recreation geography" was prepared by Filippovich and others. In the scientific study of recreational geography in Russia, A.Y. Vedenin, N.A. Danilova, I.V. Zorin (1974), N.N. Miroshnichenko (1969), L.I. Mukhin, I.I. Researchers such as Prozhkin (1975) pay special attention to the geographical approach in the evaluation of recreational activities. [3].

In the second half of the 70s of the last century, L.A. Bagrova, N.B. Bagrov, V.S. Preobrazhensky studies the methods of analysis of "recreational resources". In the scientific collection "Geographic problems of tourism and recreation development" V.S. Preobrazhensky (1975) focuses on the main theories of recreational activities. In Russia, recreational geography began to emerge as an independent science in the 80s of the 20th century. During this period, several basic scientific works began to be carried out. Including: P.G. Sarfis "Geography of recreation of the USSR: resort factors" (1979), N.S. Mironenko and I.T. Tverdokhlebov explains that the characteristics of recreational resources, such as historical or artistic value, originality, aesthetic appeal, and medical health value, are important in the fundamental study of recreational geography. [7].

Many scientific works and articles on recreational geography by Russian scientists gave a great impetus to the development of this science. Including: "Dynamics of regional recreational system" (Y.A. Vedenin. 1982), "Recreational systems" (N.S. Mironenko and N. Bochvarova.), "Development trends of recreational factors in the development of economic geography" (E.M. Eldarov.

1990), "Recreational resource science" (E.B. Kolotova), "Economic development of recreation in the regions problems" (M.M. Amirkhanov, A.A. Tatarinov, A.D. Trusov. 1997), "Theory of Recreational Geography and Recreational Geography" (V.S. Preobrazhensky, Y.A. Vedenin, I.V. Zorin, V.A. Kvartalnov, V.M. Krivoshev, L.S. Fillipovich. 1992) and scientific works are a great contribution to the development of this science and industry added. [13].

We can see two factors that cause seasonality in recreational activities. These are: 1). natural factor (change of seasons, rainy days, foggy days, etc.) 2). organized factor (state and religious holidays, festivals, international competitions and forums)

2. A large number of women in society: the American scientist M. Argyle shows gender as a reason that hinders recreation. According to his definition, women, especially women with children, have much less time off than men. From the above points, we can conclude that men are more active in recreational activities than women.

3. Age: the age structure of the population also has a strong influence on participation in recreation. I. Hendry and other scientists describe the period of adolescence as the period of the highest need for free time. Similarly, physical strength and social energy are traditionally explained by a decline in later adulthood. This leads to a decrease in active recreation later in life. We can see that there is a large number of young people in recreational activities in many recreation centers in our country.

4. Lack of funds: The American scientist M. Argyle mentioned in his works that the lack of financial resources also prevents them from engaging in recreational activities, because the high income of people increases their free time and this free time causes the use of time for the purpose of "Recreation time". American scientist D. Merker also mentioned that people in rich countries have a lot of free time.

5. Proximity or distance of people to recreational resources: Territorial proximity to recreational resources and the ability to benefit from them is one of the main determining factors. This idea was mentioned by T. Burton in 1971. He found that people in the UK who lived between half a mile and 3.4 miles away from recreational resources were three times more likely to use recreational resources. [14]. This feature J.A. Patmore and S.J. It was also identified by Page et al. in their research on urban parks.

References:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 9, 2021 No. PF-6165 "On measures to further develop domestic and pilgrimage tourism in the Republic of

Uzbekistan".

2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan on the development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026.

3. Jumaev H.Kh. Assessment of tourism and recreation potential of Kashkadarya region and improvement of regional systems of tourism infrastructure. Geogr. science. b-cha phal. doc. (PhD) ... diss. autoref. Samarkand, 2022. 49 p.

4. Makhmudov M.M. Economic and geographical characteristics of tourism development in Andijan region. Geogr. science. b-cha phal. doc. (PhD) ... diss. autoref. Tashkent, 2021. 45 p.

5. "An explanatory dictionary of the Uzbek language". T.: "Publishing House of Uzbekistan". - 2021.

6. Kuskov A.S., Golubaev V.L., Odintsova T.N. "Recreational geography". - M.: -344-p.

7. Mironenkou N.C, Tverdokhlebov. I.T. "Recreational geography". It is possible to study. Moscow. 1981 g.

8. Reimers N.F. Prirodopolzovanie: dictionary-dictionary. - M.: Mysl, 1990. - 637 p.

9. Stebbins R.A. (1982) 'Serious leisure: a conceptual statement', Pacific Sociological Review, p 251.

10. Egorov. NN, Morova. I.A. Polyanskaya. N. Ya. Monograph "Perspektivy razvitiya turisticheskogo rynka Respubliki Sakha (Yakutia)". St. Petersburg. 2014 21 str.

11. Usmanova. Z.I. "Characteristics and trends of development of tourist and recreational services in Uzbekistan. Dissertation prepared for the degree of Doctor of Philosophy. Camarqand-2018. p. 14-20.

12. J.T. Coppock Second Homes: Curse or Blessing? Oxford: Pergamon Press.

13. Jumaev H.Kh. Theoretical issues of geography of tourism and recreation. Proceedings of the 10th Congress of the Geographical Society of Uzbekistan. Tashkent, 2019. December 6-7. 51-53 p.

14. Burton. T. Experiments in Recreation Research. London: Allen and Unwin.

15. Alexandrova. A. Yu. "International tourism. Mockva. 2005 g. 54 p.

16. Z.T. Abdulkhakimov's summary of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation on the topic "Improving the organizational and economic basis of recreation in the region (in the case of Namangan region)". 12-p.

VI SEKSIYA

GIDROLOGIYA VA IQLIMSHUNOSLIKNING NAZARIY- AMALIY JIHATLARI

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ГИДРОЛОГИИ И КЛИМАТОЛОГИИ

THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF HYDROLOGY AND CLIMATOLOGY

G'ο'dalov Mirkomil Ravshanovich

A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi mudiri, g.f.f.d (PhD), dots.

Jizzax, O'zbekiston

Tovbayev G'ofur Zulkaynar o'g'li

Guliston davlat universiteti

Ekologiya va geografiya kafedrasi 2-bosqich tayanch doktoranti(PhD)

Guliston, O'zbekiston. E-mail: gofurxperia@gmail.com

SIRDARYO VILOYATIDA OYLAR BO'YICHA MAKSIMAL VA MINIMAL HAVO HARORATI O'ZGARISHINING GAT TAHLILI

Аnnотatsiya: Sirdaryo viloyati o'zlashtirilgan cho'l hududidan iborat bo'lganligi hamda antropogen ta'sirning kattaligi hisobiga bu hududning o'ziga xos iqlim xususiyatlari shakllangan. Shuningdek, 2020 yilda Covid-19 virusli tufayli karantinni joriy qilinishi havo haroratining o'zgarishiga keskin ta'sir ko'rsatdi. Tadqiqot mazmuni 2000-2020 yillarda viloyatning oylar bo'yicha maksimal va minimal havo haroratining 1 yillik o'zgarishini GAT yordamida tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: iqlim, maksimal va minimal yillik harorat, antropogen omil, Covid-19, QGIS.

ГАТ-АНАЛИЗ МАКСИМАЛЬНОГО И МИНИМАЛЬНОГО ИЗМЕНЕНИЯ ТЕМПЕРАТУРЫ ВОЗДУХА В СЫРДАРЬИНСКОГО ОБЛАСТИ ПО МЕСЯЦАМ

Аннотация: В связи с тем, что Сырдарьинская область представляет собой присвоенную пустынную территорию и из-за большого антропогенного воздействия сформировались уникальные климатические характеристики этого региона. Также резкое влияние на изменение температуры воздуха оказало введение карантина из-за вируса Covid-19 в 2020 году. Содержание исследования: с помощью GAT проанализировано годовое изменение максимальной и минимальной температуры воздуха региона по месяцам в 2000-2020 гг.

Ключевые слова: климат, максимальная и минимальная годовая температура, антропогенный фактор, Covid-19, QGIS.

GAT ANALYSIS OF MAXIMUM AND MINIMUM CHANGES IN AIR TEMPERATURE IN SYRDARYA REGION BY MONTH

Abstract: Due to the fact that Syrdarya region is an appropriated desert territory and due to the large anthropogenic impact, unique climatic characteristics of this region have been formed. Also, the introduction of quarantine due to the Covid-19 virus in 2020 had a sharp impact on the change in air temperature. Contents of the study: using GAT, the annual change in the maximum and minimum air temperature of the region by month in 2000-2020 was analyzed.

Keywords: climate, maximum and minimum annual temperature, anthropogenic factor, Covid-19, QGIS.

Kirish. Iqlim o'zgarishi – Yerning mahalliy, mintaqaviy va global iqlimini belgilaydigan o'rtacha ob-havo sharoitlarining uzoq muddatli o'zgarishidir [1]. Mo'tadil mintaqaning ichki tekislik hududdagi iqlim xususiyatlariga uning kontinentalligi, yozning issiqligi va uzoq davom etishi, aksincha, qishning sovuqligi va qisqaligi hamda yog'in miqdorining fasllar bo'yicha bir tekis taqsimlanmaganligi bilan ajralib turadi. Bulardan tashqari joyning orografiyasi, gidrografiya, tuproq va o'simlik qoplami hamda antropogen omillar ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Dolzarbli. Iqlim o'zgarishi nafaqat global miqyosda, balki lokal ko'lamda ham o'z ta'sirini tabiat va jamiyatning har bir komponentiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Iqlim o'zgarishi ta'sirini yumshatish uchun uni to'g'ri baholay olish va kelajakdagi prognozini ishlab chiqish geograf, kartograf va gidrometeorologlar uchun dolzarb vazifadir. Prognoz qilish uchun avval uning tarixiy o'zgarishini va unga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish lozim. Tadqiqot ishi Sirdaryo viloyati hududida ishonchli manbaalar natijasida olib borildi. Viloyat asosan Mirzacho'lning sharqiy qismida mo'tadil kontinental iqlimli tekislikda joylashgan [3]. hududi kichikligi (maydoni 4280 km² [2]) hamda to'liq tekislikda joylashganligiga qaramay iqlim o'zgarishi 2000-2020 yillarda katta miqdorda farqlanishi (1,4°C gacha) ishning dolzarbligini keltirib chiqaradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Sirdaryo viloyati iqlimining 2000-2020 yillar davomidagi tarixiy iqlim ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi girometeorologiya xizmati agentligi Sirdaryo viloyati hududiy boshqarmasining ma'lumotlari hamda quyidagi rasmiy xalqaro internet manbalaridan foydalanilib tahlil qilindi:

✓ Global iqlim va ob-havo ma'lumotlari rasmiy sayti https://www.worldclim.org/data/monthlywth.html#google_vignette;

✓ AQSHning Milliy okean va Atmosfera boshqarmasi rasmiy sayti - <https://www.noaa.gov/climate> ;

✓ Amerika Qo'shma Shtatlari Geologik xizmati hukumat tadqiqot tashkiloti - <https://www.usgs.gov/science/science-explorer/climate>;

✓ Hududlar bo'yicha tarixiy-iqlimiy sayt -
https://www.meteoblue.com/en/weather/historyclimate/climatemodelled/sirdaryo_uzbekistan_1512770.

Tadqiqot natijalari. Viloyatning 2000-2020 yillar davomida maksimal va minimal haroratlarning yillik o'rtacha ko'rsatkichlari bo'yicha QGIS dasturi orqali kartalar ishlab chiqildi. Maksimal yillik haroratlarda 2000, 2005, 2010, 2015 va 2020 yillarda 1 yillik ma'lumotlar orqali 1:750000 li masshtabda kartalar tuzildi va tahlil qilindi. 2000 yilda viloyatning katta qismida oylar bo'yicha maksimal o'rtacha yillik harorat 21,5°C atrofida bo'lsa, markaziy qismida (Mirzaobod tumanining katta qismi, Xovos tumanining shimoli-g'arbiy hamda Sardoba tumanining sharqiy qismi) 22°C va undan yuqori harorat kuzatilgan.


2005-yilda ham viloyatning deyarli 95 % qismida oylar bo'yicha maksimal o'rtacha yillik harorat 21,5°C kuzatilgan. Mirzaobod tumanining markaziy hududlarida 22°C atrofida bo'lgan. Viloyatning shimoliy (Sirdaryo tumanining shimoliy qismi), g'arbiy (Oqoltin va Sardoba tumanlarining g'arbiy chekkasi) va janubi-sharqiy (Xovos tumanining janubi-sharqi) chekka hududlarida 21°C havo haroratini tashkil qilgan.

2010-yilda viloyat hududida havo harorati nisbatan ko'tarilgan. Hududning katta qismida oylar bo'yicha maksimal yillik harorat 22°C kuzatilgan. Ayrim joylarda 22,5-23°C harorat qayd etilgan (Mirzaobod tumanining janubi-sharqida 40°15' sh.k., 68°43' shq.uz.). Sirdaryo tumanining shimoliy katta qismi hamda Sirdaryo bo'ylarida, Oqoltin tumanining shimoli-g'arbiy chorak qismi, Sardoba tumanining g'arbiy chekka qismi, Xovos tumanining sharqiy va janubi-sharqiy katta qismi hamda Boyovut tumanining janubiy va janubi-sharqiy qismlarida 21,5°C havo harorati kuzatilgan.

2015-yilda viloyatda havo harorati geografik kenglik bo'yicha o'zgargan. Muhim jihati uning shimoliy va janubiy qismlarida 21°C bo'lsa, markaziy kenglikda 21,5°C bo'lgan. Ya'ni 40°20' sh.k va 40°40' sh.k.lar (Sardoba, Mirzaobod, Guliston tumanlari, Guliston va Yangiyer shaharlari, Oqoltin tumanining janubiy yarmi va sharqiy qismi, Sayxunobod tumanining janubiy yarmi, Sirdaryo tumanining janubi-g'arbiy chekkasi, Boyovut tumanining shimoliy yarmi va janubi-g'arbiy chorak qismi hamda Xovos tumanining g'arbiy yarmi) orasida 21,5°C, qolgan qismlarida 21°C kuzatilgan. Faqatgina Mirzaobod tumanining janubi-sharqiy qismida (40° 22' sh.k., 68° 44' shq.uz.) havo harorati 22°C qayd etilgan.

Sirdaryo viloyat hududida tadqiqot o'tkazilgan yillar ichida 2020 yilda havo harorati eng past daraja kuzatilgan. Hududning markaziy katta qismida (Mirzaobod va Guliston tumanlari, Guliston va Yangiyer shaharlari, Sayxunobod tumanining janubiy yarmi, Sirdaryo tumanining janubiy chekka qismi, Oqoltin tumanining janubi-sharqiy yarmi, Sardoba tumanining sharqiy yarmi, Xovos tumanining g'arbiy yarmi, havo harorati 21°C , qolgan qismlarida 20,5°C bo'lgan. Mirzaobod tumanining markazini janubi-sharqiy kichik qismlarida 21,5°C harorat kuzatilgan.

2020-yilda havo haroratining qolgan yillarga nisbatan past darajada kuzatilishiga asosiy sabab Covid-19 virusi tufayli karantinni joriy qilinishi natijasida antropogen omillarning cheklanishi yoki butunlay to'xtatilib qo'yilishidir (1-rasmga qaralsin).



1-rasm. Sirdaryo viloyati yillar bo'yicha oylik maksimal havo haroratlarining o'rtacha ko'rsatkichi

Sirdaryo viloyati minimal yillik haroratlarning o'rtacha ko'rsatkichi 2000, 2005, 2010, 2015 va 2020 yillarda davriy 1 yillik ma'lumotlari orqali 1:750000 li mashtabda QGis dasturi orqali kartalar tuzildi va har bir davr bo'yicha geografik tahlil qilindi. Ushbu tahlil maksimal yillik haroratlarning o'rtacha ko'rsatkichidan farq qilib, bunda haroratlar farqi 0,2 °C dan olindi. Minimal yillik havo haroratining o'rtacha ko'rsatkichlari 2000 yilga nisbatan 2005, 2010, 2020 yillarda tartib bilan 9,2°C dan 11°C gacha ortib borgan. 2020 yilda esa 2005, 2010 va 2020 yillarga nisbatan kamaygan.

2000-yilda viloyat hududida minimal haroratlarning yillik o'rtacha ko'rsatkichi janubi-sharqdan shimolga va g'arbga tomon 10°C dan 9,2°C gacha farqlanishi kuzatilgan. Jumladan, Shirin shahrida 10°C, Shirinning atrofida hamda Sirdaryo tumanining shimoli-g'arbiy chekka qismida 40° 50' sh.k. va 40° 53' sh.k. lar hamda 60° 42' sh.k. va 60° 46' shq uzoqliklar orasidagi daryo qayirida 9,8°C bo'lgan. Viloyatning janubi-sharqiy hududidan shimoli-g'arb va shimolga tomon havo harorati 9.6°C darajaga pasaygan.

Viloyat hududida havo harorati 9.6°C darajani qayd etgan ma'muriy-hududiy birliklarga quyidagilar kiradi: Guliston va Yangiyer shaharlari, Xovos tumanining shimoliy yarmi va sharqiy qismi, Boyovut va Guliston tumanlarining juda katta qismi, Mirzaobod tumanining sharqiy yarmi, Oqoltin tumanining shimoli-sharqiy kichik qismi, Sirdaryo tumanining janubi-g'arbiy kichik qismi hamda 40°48' sh.k. va 40° 56' sh.k., 68°38' shq.uz va 68°48' shq.uz lar oralig'i, Sayxunobod tumanining janubi-sharqiy chorak qismlaridir. Sayxunobod tumanining shimoliy, g'arbiy va janubiy qismlarida havo harorati 9,4°C ni qayd etgan. Ushbu hududga Sirdaryo, Sayxunobod, Boyovut, Mirzaobod va Xovos tumanlarining 9,6-9,8°C dan tashqari barcha qismi, Oqoltin tumanining markaziy juda katta qismi hamda Sardoba tumanining sharqiy yarmi kiradi. Oqoltin tumanining g'arbiy chekka qismi hamda Sardoba tumanining g'arbiy yarmida 9,2°C havo harorati kuzatilgan hudud hisoblanadi.

2005-yilda ham havo harorati viloyatning janubi-sharqiy chekka qismidan shimol va g'arb tomonga 10,2 °C dan 9,4 °C gacha kamayib boradi. Xususan, Shirin

shahri va uning atrofi, Xovos tumanining sharqiy chekka qismi, Boyovut tumanining janubi-sharqiy chekkasi hamda Sirdaryo sohilining sharqiy qismi, Mirzaobod tumanining janubi-sharqi hamda unga chegaradosh Xovos tumanining shimoliy qismida havo harorati $10,2^{\circ}\text{C}$ qayd etilgan. Boyovut tumanining $10,2^{\circ}\text{C}$ li hududidan tashqari qismi, Xovos tumanining shimoliy katta qismi, Mirzaobod tumanining janubi-sharqiy yarmi, Guliston tumanining janubiy yarmi hamda Guliston va Yangiyer shaharlarida 10°C havo harorati kuzatilgan. Xovos tumanining janubi-g'arbiy va g'arbiy chekka qismlari, Mirzaobod tumanining shimoli-g'arbiy katta qismi, Guliston tumanining shimoliy yarmi, Sayxunobod tumanining juda katta qismi, Sirdaryo tumanining sharqiy daryo sohil bo'yi hududi hamda janubiy bo'lagi, Oqoltin va Sardoba tumanlarining sharqiy chekka qismlarida $9,8^{\circ}\text{C}$ li havo harorati qayd etilgan. Sardoba va Oqoltin tumanlarining meridional yo'nalishi bo'yicha $68^{\circ}15'$ shq.uz.dan sharqda $9,8^{\circ}\text{C}$ li izotermagacha bo'lgan katta qismlari, Sirdaryo tumanining markaziy katta qismi, Sayxunobod tumanining shimoli-g'arbiy hamda sharqiy chekka daryo bo'yi sohillarida $9,6^{\circ}\text{C}$ li izoterma chegaralanadi. Sardoba va Oqoltin tumanlarining g'arbiy qismi, Sirdaryo tumanining shimoli-g'arbiy bo'lagida $9,4^{\circ}\text{C}$ li havo harorati qayd etilgan.

2010-yilda viloyat hududida minimal havo haroratining yillik o'rtacha ko'rsatkichi janubi-sharqiy va janubiy qismidan qolgan tomonlarga qarab $10,6^{\circ}\text{C}$ dan $9,8^{\circ}\text{C}$ gacha o'zgargan. Shirin shahri va uning atrofi, Boyovut tumanining janubi-sharqiy chekka sohil qismi hamda Mirzaobod tumanining janubi-sharqida $40^{\circ}22'$ sh.k., $68^{\circ}48'$ shq.uz.da havo harorati $10,6^{\circ}\text{C}$ ni tashkil qilgan. Xovos tumanining sharqiy chekka qismi hamda Yangiyer shahar atrofidagi markaziy hududi, Yangiyer shahri, Boyovut tumanining janubi-sharqiy va janubi-g'arbiy qismlari hamda Guliston shahri atroflari, Guliston shahri, Guliston tumanining janubi-sharqiy chekka qismi, Mirzaobod tumanining janubi-sharqiy qismi hamda Guliston shahar atrofida havo harorati $10,4^{\circ}\text{C}$ ni qayd etilgan. Xovos tumanining sharqiy hududidagi markaziy qismi, janubiy hamda g'arbiy qismlari, Boyovut tumanining $10,4^{\circ}\text{C}$ lik izotermadan tashqari hududlari, Guliston tumanining janubiy katta qismi, Guliston shahrining shimoli-sharqiy qismi (Ishonch mahallasi), Mirzaobod tumanining janubi-sharqiy va sharqiy chekka hududlari hamda shimoli-g'arbiy qismi ($68^{\circ}30'$ va $68^{\circ}34'$ shq.uz oraliq'i), Sirdaryo tumanining sharqiy sohil bo'yi kichik hududi ($40^{\circ}48'$ va $40^{\circ}54'$ sh.k. lar hamda $68^{\circ}41'$ va $68^{\circ}46'$ shq.uz. lar oraliq'i), Sardoba va Oqoltin tumanlarining chekka sharqiy qismlarida harorat 10°C kuzatilgan. Sayxunobod tumani, Sirdaryo tumanining markaziy va janubiy qismlari, Oqoltin tumanining 10°C lik izotermadan tashqari hamma qismi, Mirzaobod tumanining qolgan g'arbiy, markaziy va shimoliy hududlari, Xovos tumanining chekka shimoli-g'arbiy qismi, Sardoba tumanining juda katta sharqiy qismida $9,8^{\circ}\text{C}$ li havo harorati izotermasi kuzatilgan. Sirdaryo tumanining shimoli-g'arbiy qismi hamda Sardoba tumanining g'arbiy va janubi-g'arbiy kichik qismida $9,6^{\circ}\text{C}$ harorat qayd etilgan.

2015-yilda ham huddi maksimal haroratlarning yillik o'rtacha ko'rsatkichiga o'xshab minimal haroratlarning yillik o'rtacha ko'rsatkichi boshqa yillardagi qaraganda ancha yuqori bo'lgan. Havo haorati janubi-sharqiy va sharqiy sohil bo'yi hududlaridan atrofga tomon $10,8^{\circ}\text{C}$ dan 10°C gacha o'zgargan. Shirin shahri va uning atrofi, Xovos tumanining sharqiy chekka qismi, Boyovut tumanining janubi-

sharqiy va g'arbiy chegara kichik qismi hamda Mirzaobod tumanining janubi-sharqiy chekka qismida $10,8^{\circ}\text{C}$ li havo harorati qayd etilgan. Xovos tumanining sharqiy va shimoliy qismi, Yangiyer shahrining shimoliy chekka qismi, Boyovut tumanining janubi-sharqiy, g'arbiy va sharqiy sohil bo'yi hududi, Mirzaobod tumanining janubi-sharqiy qismi, Sirdaryo tumanining sharqiy qismi ($40^{\circ}52'$ va $40^{\circ}55'$ sh.k. lar, $68^{\circ}43'$ va $68^{\circ}45'$ shq.uz. lar oralig'i)da havo harorati $10,6^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etgan. Boyovut tumanining qolgan juda katta qismi, Yangiyer shahrining janubiy qismi, Xovos tumanining markaziy, shimoliy, sharqiy va g'arbiy kichik qismi, Guliston shahri, Mirzaobod tumanining markaziy katta qismi, Guliston tumanining janubiy va sharqiy katta qismi, Sayxunobod tumanining sharqiy qismi, Sirdaryo tumanining janubiy chekka qismi va sharqiy qismi ($40^{\circ}48'$ va $40^{\circ}55'$ sh.k. lar hamda $68^{\circ}38'$ va $68^{\circ}46'$ shq.uz. lar oralig'i), Oqoltin tumanining sharqiy va janubi-sharqiy bo'lagi, Sardoba tumanining markaziy, shimoli-sharqiy va janubi-sharqiy qismlarida havo harorati $10,4^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etgan. Xovos tumanining g'arbiy va shimoli-g'arbiy katta qismi, Sardoba tumanining shimoliy, markaziy, g'arbiy katta qismlari hamda janubiy va sharqiy hududlari, Oqoltin tumanining juda katta qismi, Mirzaobod tumanining janubi-g'arbiy va shimoli-sharqiy chekka qismlari, Guliston tumanining shimoli-g'arbiy bo'lagi va shimoliy kichik qismi, Sayxunobod tumanining janubiy, markaziy, g'arbiy va sharqiy sohil bo'yi hududi, Sirdaryo tumanining sharqiy va janubiy katta qismida havo harorati $10,2^{\circ}\text{C}$ ni qayd etgan. Sayxunobod tumanining shimoliy qismi, Sirdaryo tumanining shimoliy, markaziy va g'arbiy qismi, Oqoltin tumanining shimoli-g'arbiy chekka qismi hamda Sardoba tumanining janubi-g'arbiy chekka qismida havo harorati 10°C li izoterma bilan chegaralangan.

Manbaalarga ko'ra 2020-yilda viloyat hududidagi minimal yillik haroratlarning o'rtacha ko'rsatkichi ham janubi-sharqdan atrofga tomon, ayniqsa shimoli-g'arbga kamayishi yaqqol ko'zga tashlangan. Havo harorati janubi-sharqiy qismida maksimal 10°C bo'lsa, eng chekka shimolida $9,2^{\circ}\text{C}$ ni tashkil qilgan. Havo harorati 10°C kuzatilgan hududlarga Shirin, Yangiyer, Guliston shaharlari va ularning atrofi, Xovos tumanining chekka sharqiy qismi hamda Yangiyer shahri atrofi, Boyovut tumanining janubi-sharqiy, janubi-g'arbiy va shimoli-g'arbiy hududlari, Mirzaobod tumanining janubi-sharqiy (Yangiyer atrofi) va sharqiy (Guliston shahar atrofi) qismlari kiradi. Boyovut tumanining qolgan hududlari, Xovos tumanining sharqiy katta qismi va shimoliy qismlari, Guliston tumanining janubi-g'arbiy qismi, Mirzaobod tumanining janubi-sharqiy va sharqiy qismlarida havo harorati $9,8^{\circ}\text{C}$ ni tashkil qilgan. Xovos tumanining markaziy, shimoli-g'arbiy va g'arbiy qismlari, Mirzaobod tumanining janubiy, markaziy va shimoliy katta hududlari, Guliston tumanining janubiy va markaziy hududlari, Sayxunobod tumanining janubiy va janubi-sharqiy kichik qismida, Sirdaryo tumanining janubi-g'arbiy va sharqiy qismi ($40^{\circ}50'$ va $40^{\circ}55'$ sh.k. lar hamda $68^{\circ}42'$ va $68^{\circ}46'$ shq.uz.lar oralig'i), Sardoba tumanining sharqiy qismi hamda Oqoltin tumanining sharqiy chekka qismida $9,6^{\circ}\text{C}$ li izoterma hosil bo'lgan. Xovos tumanining janubi-g'arbiy chekka qismlari, Mirzaobod tumanining janubi-g'arbiy qismi, Sardoba, Oqoltin, Sayxunobod tumanlarining qolgan katta qismida, Guliston tumanining shimoliy chekka qismi, Sirdaryo tumanining markaziy, janubiy, janubi-sharqiy qismlarida

havo harorati 9,4°C ni qayd etgan. Faqatgina Sirdaryo tumanining shimoli-g'arbiy bo'lagida havo harorati 9,2°C li izoterma hosil bo'lgan [4].

Xulosa. Sirdaryo viloyatida 2000-2020 yillar oralig'ida o'rtacha haroratlarda farq katta o'zgarishlar kuzatilmagani bois maksimal o'rtacha oylik va yillik haroratlar olindi. Ushbu ma'lumotlar asosida 2000, 2005, 2010, 2015 va 2020-yillardagi havo haroratining holati va o'zgarish dinamikasi ishlab chiqildi. Qayta ishlangan ma'lumotlar asosida 1:750000 li masshtabli karta yaratildi va quyidagicha tahlil qilindi:

✓ viloyat hududi relyefida farqlar kamligi, deyarli bir xil landshaftdan iboratligi hamda haroratga ta'sir qiluvchi biomassaga kambag'alligi hisobiga haroratlarning o'zgarish dinamikasi davrdagi oylarning o'rtacha ko'rsatkichi kesimida ishlab chiqildi;

✓ maksimal o'rtacha yillik haroratlar hududiy farq qilishi uchun 0,5°C dan, minimal o'rtacha yillik haroratlar 0,2°C dan olindi;

✓ davrlar kesimida maksimal yillik harorat 2010-yilda hududning katta qismida 22°C, 2020-yilda esa hududning 21°C gacha bo'lgan harorat kuzatilgan;

✓ davrlar kesimida minimal yillik harorat 2000-yilda hududning katta qismida 9,4°Cdan 2015-yilda hududning asosiy qismida 10,4°C gacha izoterma aniqlandi;

✓ tadqiqot davrlarida (2000, 2005, 2010, 2015 va 2020 yillar) maksimal va minimal haroratlarda 2020 yildagi Covid-19 virusi sababli karantinni joriy qilinishi iqlim o'zgarishiga keskin tas'ir ko'rsatganligi aniqlandi;

Aholi soni 50 000 kishidan kam bo'lgan shaharlar kanalizatsiyasi	150	
Kanalizatsiya tizimiga ega qishloq aholi punktlari	170	75
Kanalizatsiya tizimiga ega bo'lmagan qishloq aholi punktlari	115	

6-jadval

Suv istemol me'yorlari (QMQ 2.04.02-97)

Turar joy qurilish tumanlarini obodonlashtirish darajasi	Aholi yashash joylarida 1kishi uchun o'rtacha ichimlik suv iste'moli (litr/ kun)
Ichki vodoprovod, kanalizatsiya bilan jihozlangan, markazlashgan issiq suv bilan jihozlangan vannali uylar	230-290
Xuddi shunday mahalliy isitish moslamasi bilan jihozlangan uylar uchun	150-200
Ichki vodoprovod, kanalizatsiya bilan jihozlangan, markazlashgan issiq suv bilan vannasiz uylar	95-125
Ko'chda o'rnatilgan suv tarmoqlari uchun	40-50

Iqlim o'zgarishining yomg'ir bilan to'yinuvchi suv manbalari sathining kamayishiga ta'sirini, shiddat bilan o'sib borayotgan aholining suvga bo'lgan talabini nazarda tutsak, bugungi kunda suv ta'minoti siyosati va tizimlari moslashuvchan va innovatsion bo'lishi, barqarorlik tamoyillariga asoslangan bo'lishi lozim.

Agar kelgusida O'zbekistonda suv ta'minoti bilan bog'liq jiddiy muammolarga duch kelishni istamasak, albatta insonlarning dunyoqarashini ego-sentrik prinsipdan eko-sentrikka o'zgartirish, ularga atrof-muhit va ekologiyaga bo'lgan ta'sirlarini tushungan holda hayot kechirishlarini keng targ'ib etish lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. 2020 йил 26 сентябрдаги “Ичимлик суви таъминоти ва оқова суви тизимини янада такомиллаштириш ҳамда соҳадаги инвестиция лойиҳалари самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6074-сонли Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони.

2. Президент Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг ўттиз бир йиллигига бағишланган тантанали маросимда нуткидан, 2022 йил.

3. . 2020 йил 24 февралдаги “Ўзбекистон республикаси Уй-жой коммунал хизмат кўрсатиш вазирлиги ҳузуридаги Ичимлик сувидан фойдаланишни назорат қилиш инспекцияси тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 108-сонли Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори.

4. PF-5883-son 26.11.2022. Sifatini yaxshilash uchun O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni “Aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish va uning suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi”da.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 -yil 11 dekabrda PQ4919 qarori bayonidan .

6. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 25 dekabrda O'RQ-240 sonli qarori tahriridan O'RQHT , 2022 -yil 52 -son 555-modda .

7. <https://daryo.uz>;

8. <https://kun.uz/news/2022/08/09/o'zbekistondagi-suv-taqchilligi-ehtimoliyqurgochilik-va-keskinlashayotgan-ekologik-muammolar>.

9. <https://www.scopus.com/pages/error?referrer=/error.uri&statusCode=404>

Қаюмов Одилжон Абдрауфович

Фаргона политехника институти,

Геодезия, картография ва кадастр кафедраси дотсенти,

г.м.ф.н дотсенти, Фаргона, Ўзбекистон. E-mail: o.kayumov@mail.ru

Мирзаахмедов Сайёджон Шухратжон ўғли

Фаргона политехника институти ассистенти E-

mail: sayyodmirzaakhmedov@gmail.com

БОКСИТ КОНЛАРИДАГИ ЕРОСТИ СУВЛАРИНИ ҚУРИТИШ

Аннотация: Мазкур мақола Гвинея Республикасида жойлашган “Сангареди” боксит конидаги удаларни жойида қуритишга бағишланган. Конда аввал қавланган қуритиш қудуқларнинг рудали жисмдаги сувнинг йўқотиши қийин ва қиммат бўлгани учун, муаллифлар томонидан уларни ўрнига аввалгиларга қараганда чуқурак, лекин самаралироқ дренаж қудуқлари қавлаш таклиф қилинган ва амалга оширилган. Тадбир натижасида салмоқли тежамкорликка эришилган. Ушбу тадбирларни Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида сизот сувларини қуритишда қўллашга ҳам урғу берилган.

Калит сўзлар: кон, қудуқ, сув, руда, боксит, гил, грунт суви, дренаж, эвакуация, насос, сатҳ, майдон, қувур, тадқиқот, босим, долерит, қатлам.

ОСУШЕНИЕ ГРУНТОВЫХ ВОД В БОКСИТОВЫХ МЕСТОРОЖДЕНИЯХ

Аннотация: эта статья посвящена сушке руды на месте добычи бокситового рудника "Сангареди", расположенного в Республике Гвинея. Поскольку осушительные скважины, ранее пробуренные в шахте, являются сложными и дорогостоящими для удаления воды в рудном теле, авторы заменили их на более глубокие, но более эффективные дренажные скважины, чем предыдущие, которые были разработаны по предложению Килингана и проведены в жизнь. В результате мероприятия была достигнута значительная экономия. Особое внимание также уделяется использованию этих мер при осушении водоемов сизот в сельскохозяйственном секторе Узбекистана.

Ключевые слова: шахта, скважина, вода, руда, боксит, глина, грунтовые воды, дренаж, откачка, насос, поверхность, месторождение, труба, исследование, давление, долерит, пласт.

DRAINAGE OF GROUNDWATER IN BAUXITE DEPOSITS


Abstract: This article is devoted to the drying of ore at the production site of the Sangaredi bauxite mine located in the Republic of Guinea. Since the drainage wells previously drilled in the mine are complex and expensive to remove water in the ore body, the authors replaced them with deeper but more efficient drainage wells than the previous ones, which were developed at Kilingan's suggestion and implemented. As a result of the event, significant savings were achieved. Special attention is also paid to the use of these measures in the drainage of SIZO reservoirs in the agricultural sector of Uzbekistan.

Keywords: mine, well, water, ore, bauxite, clay, groundwater, drainage, pumping, pump, surface, deposit, pipe, exploration, pressure, dolerite, formation.

Маълумки, тоғ - кон саноати ва нефт-газ қазиб олишнинг айрим тармоқларида рудали жинсларни қуритишда ва нефть билан бирга қазиб олинадиган юқори шўрликдаги агрессив қатлам сувларини атроф-муҳитга зиён етказмасдан бартараф этиш, хозирги куннинг асосий муаммоларидан бири бўлгани учун, бу масала углеводород қазиб олиш соҳасида

муваффақият билан ҳал этилган. Чунончи, бу масалани ҳал этиш учун, нефть ва газ конларининг геологик қирқимида паст босимли сув ютувчи қатламлар топилган ва уларга қазиб олинган нефть ва газни тозалашда ажратиб олинган агрессив шўр сувлар ишламайдиган қудуқлар орқали сув ютувчи қатламларга ҳайдалади. Бу аснода, сув ҳайдалаётган қатламнинг босими гидростатик босимдан катта бўлса шўр сувлар қатламга ўз оқими билан оқизилади, акс ҳолатда сувлар қудуқлар орқали сув ютувчи қатламга насос ёрдамида ҳайдалади [1].

Тоғ-кон санотида қаттиқ фойдали қазилма конларида рудаларни очик усулда қазиб олишда, кўпинча руда қатламлари катта бўлмаган чуқурликларда сув босган ёки табиий намлиги катта бўлган ҳолатда учрайдилар. Рудалар қазиб олинган, уни кон-бойитиш фабрикаси ва истемолчига жўнатишдан аввал жойида қуритилиши лозим. Бу тадбир ташкилий-техник жиҳатдан мураккаб тадбир бўлиб, катта маблағ, вақт талаб қилади ва пировард натижада маҳсулот таннархини ошишига олиб келади. Ўз вақтида Гвинея Республикасидаги “Сангареди” конида боксит маъдани, очик усулда қазиб олиниб, рудали жисм танасидаги грунт сувлари, маҳсулдор қатламнинг пастки сатҳига кавланган дренаж қудуқлари орқали, юқорига насос билан ер юзига ҳайдалар эди.




1-расм. Сангареди боксит кони жойлашган худуднинг картаси

Сангареди боксит кони ўтган асрнинг 50-йилларида очилган бўлиб Гвинея Республикасининг (Ғарбий Африка) шимолидаги бокситга бой Боке-Гавал минтақасида жойлашган. Бу ўлкада 100 дан ортиқ, таркибида ўртача 48% ва ундан кўпроқ Al_2O_3 ва умумий захиралари 13 млрд тоннадан зиёд

турли катталиқдаги боксит конлари очилган. Буларнинг ичида энг йириги-Сангареди кони бўлиб, минерал тарқалган майдоннинг катталиғи 10 кв.км ортиқ, рудадаги Al_2O_3 ўртача миқдори 60-62 %, SiO_2 1 % дан кам ва қалин боксит қатлами билан (ўртача 18-24 м, жойларда 40 метргача) тавсифланиб, дунёдаги ноёб конлардан ҳисобланади [2,3].

Бу кон ишга туширилгач, қазиб чиқарилган, бокситли рудаларни қуритиш мақсадида, чуқурлиғи 30-40 м бўлган дренаж қудуқлари қавланган эди. Дренаж қудуқларнинг туби рудали жисм танасининг қуйи қисмидан 8-10 м чуқур бўлиб, у ерда маълум миқдорда сув устунни тўплангач, даврий вақт оралиқларида электр ёки моторли насослар ёрдамида ер устига ҳайдалар ва у ердаги қувурлар тизими ёрдамида йиғилиб, кондан ташқари худудларга эвакуация қилинар эди. Бу мақсадда қавланган дренаж қудуқлар, уларга ўрнатилган насослар, сув йиғиб ҳайдовчи қувурлар ва хизмат кўрсатувчи ходимлар сонини, ҳамда кон худудининг майдонини ҳисобга олинса, руда қуритиш учун кетган харажатлар сезиларли даражада кўпайган.




Расм 2. Рудали жинсларни ер остида қуритиш



Бокситли қатламлардаги грунт сувларини қочириб рудани намлигини камайтиришни осонлаштириш учун 1997-2012 йилларда “RusAL” компаниясининг геологик партияси ўтказган геологик ва геофизик илмий тадқиқотлар натижасида кон геологик қирқимининг пастки қисмида сув ўтказувчан қатламлар борлиғи аниқланди. Рудани қуритиш учун коннинг жанубий-шарқий қисмида тажриба майдони танлаб олинди ва у ерда дастлаб тўрта синов қудуғи қавланди. Уларнинг конструкцияси содда-қудуқ деворлари очик бўлиб, диаметри 100-127 мм ва уларни мустаҳкамлаш учун ичига қўшимча қувур туширилмади. Қудуқлар ротор усулида қавланиб,

қазил жараёнида улар сув билан ювилди. Қудуқ геологик қирқимининг юқорисидаги сувга тўйинган боксит қатламлари ва сув ютувчи қатламлар ораликлари кавланганда, уларнинг сув бериш ва ютиш қобилиятини сақлаш учун, ютувчи суюқликка форагон^б кукуни қўшилди. Олиб борилган бурғилаш ишлари натижасида кон геологик қирқимининг куйи қисмида, яъни руда қатлампдан 90 - 120 м чуқурликда сув ўтказувчан қатламлар борлиги аниқланди. Белгиланган мақсадларни бажаришда кутилмаган ҳолатга дуч келинди, боксит қатламининг куйи қисмида руда ҳўл ҳолатда, яъни ярим пластик бўлгани учун қудуқ деворини шишиб, унинг бўшлиғини тўлдириб, беркитиб қўйиш хавфи юзага келди. Қудуқ бўшлиғининг яхлитлигини таъминлаш учун, уердаги рудада пластиклик белгилари кўрина бошлаган ораликдан бошлаб, то унинг тубигача диаметри 10-15 мм бўлган долеритли сараланган шағал билан тўлдирилди (3-расм).



Расм 3. Дренаж қудуқлари орқали сувни пастга окизиш
 а)-битта қатламли, б)- кўп қатламли


Шартли белгилар

	Сизот сувлари		Сув ўтказмас қатлам
	Сув ютувчи қатлам		Қуруқ шағал

Белгиланган майдонда ютувчи қудуқ кавлаш билан бир қаторда, уларда қудуқлардаги сув сатҳини назорат қилиш орқали гидродинамик назорат ишлари олиб борилди. Тажриба тариқасида дастлаб кавланган тўртта қудуқнинг иккитасининг сув ютувчи қатламининг юқори қисмини пакер билан тўсиб, насос орқали 0,1-0,15 МПа босим билан сув ҳайдалганда, сув ҳеч қандай муаммосиз сўрилиб кетди. Учинчи қудуқнинг очик тубига руда ичида бўлган грунт суви босимсиз оқизилганда, дастлаб унинг тубида 16 м баландликда сув устуни ҳосил бўлди ва маълум вақт ўтгандан кейин тўла сўрилиб кетди, тўртинчи қудуқда эса юқоридан оққан грунт суви тўғридан-тўғри сўрилиб кетди. Кузатишлар ҳамма қудуқларда ҳайдалган сув ўзининг гидростатик босими остида қудуқ тубида сўрилиб кетганлигини кўрсатди (Расм 1,3)[4]. Тажрибалардан олинган натижаларга асосланиб,

^б Форагон – туюлган кўмир ва ишқор аралашган майда донали аралашма

коннинг дастлаб ўзлаштириладиган майдонларида аввал кавланган қуритувчи қудуқларнинг туби 20-30 метрдан 80-130 метргача чуқурлаштирилди ва бу ишлар учун янги қудуқлар кавланди.




Расм 4. Дренаж қудуқларидаги сув сатҳининг пасайиши (1,2,3,4—синов қудуқлари рақамлари)

Қудуқларни кавлаш жараёнида тажриба майдонларидаги рудали қатламда амплитудаси турли бўлган узилмалар, макро- ва микроёриқлар борлиги аниқланди. Бундай вазият кейинчалик қуритиш қудуқларини жойлаштиришда ва улар орасидаги масофани танлашга баъзи тузатишлар киритишни тақозо қилди. Тажриба бошланишида, яхлит тузилишга эга бўлган ва ва қалинлиги нисбатан бир хил қатламли майдонлардаги қудуқлар орасидаги масофа 40-50 м қилиб белгиланди. Кейинчалик, қатлам узилмалари мавжуд бўлган рудали майдонлардаги минералларда турли катталиқдаги ёриқлар мавжудлиги ва уларга монанд турли ўлчамдаги ёриқлар тизими ва уларнинг тарқалиш хусусиятлари (“роза трещиноватости”) борлиги аниқланди. Бундай тизимни борлиги, танлаб олинган ҳудудлар ва улар яқинида кавланган қуритувчи қудуқларининг сув бериш ва сув ютиш қобилиятини ўлчашда ўтказилган гидродинамик тадқиқотлар давомида намоён бўлди (5-расм).

Қуритиш қудуқларини жойлаштириш, геологик амалиётда маълум бўлган тоғ жинсларини коллектор (сиғим) хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилди. Ёриқлар тизими ривожланган ҳудудлар нисбатан сув ўтказувчанлиги бўйича, бир жинсли ҳисобланиб, қудуқлар тўғри тўрт бурчак шаклда жойлаштирилди. Бу ерда қудуқларнинг дебити белгиланган вақт оралигида (2-3 ой) стабил бўлиб, кам ўзгарган ва улардаги сув устунинг баландлиги монанд равишда пасайган. Узилмалардан 200-250 масофада перпендикуляр йўналишда кавланган қуритувчи қудуқлардан сизиб чиқаётган сув микдорининг узилмаларга яқин жойлашган қудуқларга

нисбатан камлиги, дарзлик синимлари тизимининг сўнишидан далолат берди (5-расм).

Узилмалардан перпендикуляр йўналишида 250 метрдан кейинги кейинги қуритувчи қуритувчи қудуқлар танланган худудларга учбурчак шаклда шаклда жойлаштирилди. Бунга жойларда боксит қатламининг коллектор хусусиятлари, яъни сув ўтказувчанлиги паст бўлганлиги сабаб бўлди. Бундай вазият кейинчалик бу худудлардан руда қазиб олиш ишларини нисбатан кечиктирилишига олиб келди.




5-расм. Қудуқлар ва катга узилма орасидаги масофа (L) ва сув дебити (Q) орасидаги боғлиқлик

Кон худудини ишга тушириш тартиби бўйича бир неча минтақаларга бўлиниб, қудуқларнинг жойлаштириш нуқталари ва кавлаш тартиби аниқланди. Қудуқлар ишга туширилгач, 8-12 ой мобайнида ишладилар ва уларда даврий равишда сув ютишни аниқлаш учун, унинг сатҳини аниқлаш орқали гидродинамик назорат олиб борилди. Айрим қудуқлар ишга туширилгандан сўнг, 10-12 кундан кейин уларнинг сув ютиш қобилияти сўниб, баъзилариники бутунлай тўхтади ва буни баргараф қилиш учун қудуқ тубини ювиш ишлари ўтказилди. Қудуқларни сув ютиш қобилиятининг пасайишини сабаблари ўрганилганда, уларнинг литологик қирқимида бир неча сувда шишувчан гилсимон жинсларнинг қатламлари борлиги маълум бўлди (Расм 6). Юқоридаги рудали қатламлардан сув пастга оққанда, қудуқда сув сатҳи кўтарилганда, бу қатламлардаги гил шишиб қудуқ тубига уқаланиб тушиб, унинг бўлаклари сув ютувчи ғовақларни ва унинг тубини тўлдириб, қудуқнинг сув ютиш қобилиятини камайтирган. Бу ўз навбатида қудуқларнинг тубини ювиш ишларини кўпайтирди.

Вазиятни тўғрилаш учун қудуқларнинг тубини ювиш билан бир қаторда, таъмирлаш ишлари ўтказилди. Қудуқларни кавлаш вақтида ўтказилган геофизик тадқиқотлар ва кавлаш бурғилаш материаллари

асосида гилли қатламларни бошқаларидан ажратиб, уларни изоляция қилиш ишлари олиб борилди. Қудуқ ичидаги гилли қатлам рўпарасига диаметри $d = 100$ мм бўлган дастлаб металл қувурлар,



кейинчалик ПВХ русумли пласмасса қувурлари туширилиб, ораликни цементлаш орқали мустаҳкамланиб, гилли қатламларнинг ивиб қулаши тугатилди. Гил қатламлари қалинлиги юпқа ва улар бир-бирларига яқин жойлашган бўлса, бундай ораликлар беркитувчи қувур билан тўла тўсилди. Агар қулашга мойил қатламларнинг орасидаги масофа 10 метрдан зиёд бўлса, бу ораликлар алоҳида тўсилди (б-расм).

**б-расм. Қуритиш қудуқларидаги қулайдиган гилли ораликликларни беркитиш шакли. а – юпқа гилли қатлам; б – қалин гилли қатлам
1 – қудуқ девори; 2 – девор ёпувчи цемент тоши ва пласмасса қувури; 3 – шишиб уқаланувчи гилли қатлам**

Бу мақсад учун ажратилган майдонда жами 120 тадан зиёд қуритувчи қудуқ қавланди, уларнинг 114 тасидан кўзланган мақсадга эришилди. Фақат 6 та қудуқнинг геологик қирқимидаги тоғ жинслари зич бўлганликлари сабабли, улардан сув оқими чиқмади. Бажарилган ишларнинг самарадорлигини синаш мақсадида қуритиш қудуқлари қавланган майдондаги рудалар Камсар тоғ-бойитиш фабрикасида алоҳида тажриба тариқасида сувсизлантирилганда, уларни белгиланган кондицияга етказиб қуритишда 3,2 г/тонна шартли ёқилғи тежалганлиги маълум бўлди[4]. Кўринишда бу албатта кичкина рақам, лекин лекин кунлик қуритилаётган руда миқёсида олинса (38,4 тоннадан зиёд), салмоқли миқдорда шартли ёқилғи тежалганлиги маълум бўлади.

Мазкур мақолада келтирилган ғояни нафақат тоғ-кон саноати соҳасида, балки Ўзбекистоннинг қишлоқ хўжалиги шароитида ҳам сизот

сувларини дренаж кудукларини кавлаб пастки қатламларга оқизиш орқали унумдор ерларни қуритишда, экин майдонларини кенгайтиришда, ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилашда ва шунга ўхшаган ижобий тадбирларда қўллаш мумкин. Агар бундай тадбир қўлланса, албатта ерости ичимлик сувлари қатламларини сизот сувлари билан ифлослантирмаслик чора-тадбирларини ишлаб чиқилиши лозим бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Богомолов Г.В. Гидрогеология с основами инженерной геологии. М., "Недра", 1975, 320 с.
2. Мамедов В.И., Чаусов А.А., Канищев А.И. Этапы формирования уникальной бокситоносной серии Сангареди (провинция Фута Джалон-Мандинго, Западная Африка) // Геология рудных месторождений. 2011, т. 53, № 3. с. 203-229.
3. Мамедов В.И., Воробьев С.А. Газовый режим бокситоносной латеритной коры выветривания (Гвинейская республика) // Вестник Московского университета. Серия 4. Геология. 2011. № 6. с. 28-36
4. Gleb Victorov, Odyl Kayumov. Rabattement du niveau des eaux souterraines. Compte rendu economique. Bibliotheque fondamentale de Geo-Mines, Voke, 2009, 62 pages.
5. Хакимов К. Ж. и др. Техногенные отходы-перспективное сырьё для металлургии узбекистана в оценке отвальных хвостов фильтрации медно-молибденовых руд //Universum: технические науки. – 2020. – №. 12-1 (81). – С. 54-59.
6. Хасанов А. С., Эшонкулов У. Х., Каюмов О. А. Исследование и определение технологических параметров извлечения железа из железосодержащих сырья и руды //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 291-298.
7. Сорокин А. Г., Каюмов О. А. Динамическая модель трансформации стока р. Амударья в среднем течении //Водные ресурсы Центральной Азии (Материалы научно-практической конференции, посвященной 10-летию МКВК). Алтаты. – 2002. – С. 154-158.
8. Вохидов Б. Р., Каюмов О. А. ИЗУЧЕНИЕ ЗАПАСОВ ВАНАДИЙСОДЕРЖАЩИХ МЕСТОРОЖДЕНИЙ УЗБЕКИСТАНА И НАХОЖДЕНИЕ В ТЕХНОГЕННЫХ ОТХОДАХ //Молодые ученые. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 72-74.
9. Ganiyev Y. Y., Murodilov K. T., Mirzaakhmedov S. S. Evaluating the precision of google maps in countryside regions //ITALY" ACTUAL PROBLEMS OF SCIENCE AND EDUCATION IN THE FACE OF MODERN CHALLENGES". – 2023. – Т. 14. – №. 1.
10. Abdurakhmanov A. A. Mirzaakhmedov SSH DEVELOPMENT OF MECHANISM FOR CARTOGRAPHIC SUPPORT OF REGIONAL DEVELOPMENT //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 3. – С. 1110-1118.
11. Madumarov B., Mirzaakhmedov S. REQUIREMENTS FOR THE ACCURACY OF THE EXISTING AND NEWLY BUILT PLANNED GEODESIC NETWORKS IN THE AREA //Innovations in Science and Technologies. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 48-54.
12. Турдикулов Х., Мирзаакхмедов С. Реконструкция городов, вопросы реновации и использование геоинженерных систем в городском развитии //Тенденции и перспективы развития городов. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 209-212.v

Саттиев Юнусбек Шахобиддинович

Андижон қишлоқ хўжалик ва агротехнологиялар институти

Ассистент

ЗАМОНАВИЙ СУВ ТЕЖОВЧИ СУҒОРИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШДА ГЕОДЕЗИК ИШЛАР АҲАМИЯТИ

Аннотация: Мақолада қишлоқ хўжалигида ер ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишга доир масалалар бўйича ва сув тежамкор технологияларни жорий қилишда геодезик ишларнинг аҳамияти ва таҳлил қилингани аэрокосмик суратлардан фойдаланишда дастурий тамилотлардан фойдаланиш мисолида келтирилган.

Калим сўзлар: сув тежамкор технологияларни, аэрокосмик суратлар, Google Earth Pro, AutoCAD, global mapper pro

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ВОДОСБЕРЕГАЮЩЕГО ОРОШЕНИЯ: ЗНАЧЕНИЕ ГЕОДЕЗИЧЕСКИХ РАБОТ

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы повышения эффективности использования земельных ресурсов в сельском хозяйстве, а также значение геодезических работ при внедрении водосберегающих технологий. Приведены примеры использования программного обеспечения для анализа аэрокосмических снимков.

Ключевые слова: водосберегающие технологии, аэрокосмические снимки, Google Earth Pro, AutoCAD, Global Mapper Pro.

MODERN WATER-SAVING IRRIGATION TECHNOLOGIES: IMPORTANCE OF GEODETIC WORKS

Abstract: The article addresses issues of improving the efficiency of land resource utilization in agriculture and the significance of geodetic works in implementing water-saving technologies. Examples are provided on the use of software for analyzing aerospace images.

Keywords: water-saving technologies, aerospace images, Google Earth Pro, AutoCAD, Global Mapper Pro.

Кейинги йилларда республикамізда аграр иқтисодийни самарадорлигини ошириш, қишлоқ хўжалик корхоналари томонидан ер ресурсларидан оқилона ва самарали фойдаланишни ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг устувор йўналишларидан ҳисобланади. Ер – қишлоқ хўжалигида асосий ишлаб чиқариш воситасидир. Аҳолининг озиқ-овқатга, саноатнинг хом-ашёга бўлган талабини қондириш муаммоси ер ресурсларидан тўла ва унумли фойдаланиш йўли билан ҳал этилиши мумкин. Ўзбекистон Республикаси ер ресурсларининг 2023-йил 1-январ ҳолати бўйича тузилган Миллий ер ҳисоботи маълумотларига кўра Республикамізнинг маъмурий чегарасидаги умумий ер майдони 44 млн. 892,4 минг гектарни, шундан суғориладиган ерлар эса 4336,1 минг гектарни ёки 9,7% ташкил этади. Аҳоли сонининг йилдан-йилга ўсиб бориши (масалан, республикаміз аҳолиси 1991 йилда 20,1 млн. нафар бўлган бўлса, 2018 йилда 34 млн. нафарга етди 2024 йилги 1-апрел ҳолатига кўра, 36 миллион 963 минг 262 кишини ташкил этди) юқори калорияли қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига бўлган талаб мунтазам ортмоқда. Сув тақчиллиги

сезилаётган ҳозирги даврда сув тежовчи технологияларни жорий қилиш орқали ердан унумли ва самарали фойдаланишга эришиш мумкин.


Муҳтарам юртбошимизнинг сайловолди дастурида асосий сув ресурсларини тежаш ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш йўналишда “2030 йилга қадар барча суғориладиган экин майдонларини сув тежайдиган технологияларга ўтказиш ҳаётий заруратга айланмоқда” деган фикрлари, қишлоқ хўжалиги экинларини суғоришда туб ўзгаришлар қилишга олиб келмоқда. Жумладан 2023 йилда 413,1 минг гектар майдонда сув тежовчи технологиялар жорий қилинди натижада 7 млрд м³ сув тежалиб, шундан 2 млрд.м³ сув кам сув талаб этиладиган такрорий экинларни замонавий сув тежовчи суғориш усуллари орқали суғоришга йўналтирилди. 2024 йилда эса, 300 минг гектар майдонни томчилатиб суғориш орқали 2,6 млрд м³ сув тежалади, натижада 320 минг га майдонда сув таъминоти яхшиланади. 2025 йилда 1,0 млн. гектар ерлар сув тежовчи технологиялар жорий қилиш режалаштирилмоқда.

Сув тежовчи технологисининг афзалликлари қуйидагилар:

- Сув истеъмоли меъёри камаяди;
- экинларнинг ҳосилдорлиги ортади (боғ ва токзорларда 40 % гача, сабзавотларда 50 % гача, пахтада 20-50 % ортади) ва сифати яхшиланади;
- экин ҳосили 10-15 кун эрта пишиб этилади;
- суғориш жараёнларида сув кам ишлатилади (бошқа суғориш усулларига нисбатан экин ва тупроқ турига қараб 20 % дан 60 % гача сув тежалади);
- ўғитлар кам сарфланади ва уларнинг таъсир самарадорлиги ортади (йил давомида бериладиган ўғитлар миқдори 30 % га кам фойдаланилади);
- далада қишлоқ хўжалик техникаларини ишлатилиши камаяди;
- меҳнат сарфи камаяди;
- даланинг барча қисмидаги экинлар бир хил сув ва бир хил озуқа билан таъминланади.
- ёнилғи мойлаш ресурслари сарфи камаяди;
- экин даласида ердан фойдаланиш коэффиценти ортади, яъни 0,90-0,95 га етади;
- тупроқнинг ҳажм оғирлиги яхшиланади;
- тупроқ эрозияси бартараф қилинади;
- ер ости сувлари сатҳи кўтарилмайди;
- суғорилаётган майдоннинг мелиоратив ҳолати яхшиланади.


Сув тежовчи замонавий суғориш технологияларни жорий қилишда йирик масшабли топографик съёмка ва лойиҳалаш ишларини бажаришга тўғри келади. Сув тежамкор технологияларни жорий қилиш учун дастлаб жой танишиб чиқилади ва сув манбалари ўрганилади.

Сув тежамкор технологияларни жорий қилишда космик маълумотлардан фойдаланиб, жойнинг топографик планини тез ва осон ҳосил қилиш мумкин (1-расм).




1-расм.

Дастлаб жойни “*Google Earth Pro*” дастури орқали ер майдонинг чегараси белгиланади ва “*global mapper pro*” дастури ўқийдиган тилда сақлаб, дастурни онлайн ҳолатда сақланган маъумотни “*global mapper pro*” дастурига юкланади (2-расм).



2-расм.

Дастур онлайн холда *SPTM worldwide Elevation Data* (1-arc-second Resolution SRTM PlusV3) тугмаси босилади ва рельеф кесим баландлиги кўрсатилади, натижада жойнинг горизонталлари ҳосил қилинади (3-расм).



3-расм.

Global mapper pro дастури орқали ҳосил қилинган горизонталларни AutoCAD дастурига экспорт қилинади. AutoCAD дастуридан фойдаланиб лойиҳалаш ишлари бажарилади. Лойиҳалаш жараёнлари тегишли меъёрий ҳужжатлар асосан олиб борилди. Сув тежамкор технологияларни лойиҳалаш жараёнини тезлаштириш уларни сифатли бажариш ШНК 2.06.03-12 талаб тўла жавоб бера олади. Дастурнинг аниқлигини баҳолаш учун айнан ўша ҳудудда тригонометрик нивелирлаш ишлари олиб борилди. Ҳисоблаш натижаларини таққослаш орқали шуни кўриш мумкинки, хатоликлар чекли қийматдан ошмаган.

Хулоса қилиб шуни айтиш жоизки, Республикамиз табиий шароитини

ва ресурсларини қишлоқ хўжалиги нуқтаи назаридан ўрганиб, уларни баҳолаб, карта планларда тасвирлаб кўрсатиш келажакда ҳудуднинг бор имкониятларидан тўлароқ фойдаланиш йўллари аниқлашга ёрдам беради. Ер фонди ва сув ресурсларидан тўғри фойдаланишда таклиф қилаётган карта планлар ҳудуднинг тежамкор суғориш тизимларини такомиллаштириш, оқилona жойлаштириш ва ривожлантиришда муҳим роль ўйнайдиган омиллардан бири бўлиши мумкин деб ҳисоблаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси ер ресурсларининг ҳолати тўғрисида Миллий ҳисобот. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси ҳузуридаги Кадаст агентлиги Давлат кадастрлар палатаси, 2023.
2. Саттиев Ю.Ш. (2021). Метод проведения масштабного топографического исследования на электронном тахеометре. Универсум: технические науки, (11-2 (92)), 46-48.
3. Саттиев Ю.Ш. (2023). Гидромелиоратив иншоотларнинг геодезик асосни куриш хусусиятлари ва аниқлиги. *Science and Education*, 4(5), 741-748.

Sobirjonov Muhammadkarim Mahmudjon o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Tabiiy geografiya kafedrasida o'qituvchisi

Toshkent. O'zbekiston E-mail: muhammadkarimsobirjonov96@gmail.com

SHIFOBAXSH MINERAL SUVLARNING TASNIFI

Annotatsiya: Ushbu maqolada bir guruh olimlar tomonidan shifobaxsh mineral suvlarning tasnifi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, yurtimizdagi shu yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: shifobaxsh mineral suvlar, balneologik guruhga, karbonli suvlar, sulfidli suvlar, kremniyli termal suvlar, radonli (radioaktiv) suvlar, organik moddalar bilan boyitilgan suvlar.

КЛАССИФИКАЦИЯ ЛЕЧЕБНЫХ МИНЕРАЛЬНЫХ ВОД

Аннотация: В данной статье рассматриваются исследования, проведенные группой ученых по классификации целебных минеральных вод. Также освещена работа, проводимая в этом направлении в нашей стране.

Ключевые слова: лечебные минеральные воды, бальнеологическая группа, газированные воды, сульфидные воды, кремниевые термальные воды, радоновые (радиоактивные) воды, воды, обогащенные органическими веществами.

CLASSIFICATION OF HEALING MINERAL WATERS

Abstract: This article reviews the research conducted by a group of scientists on the classification of healing mineral waters. It also covers the work carried out in this area in our country.

Keywords: healing mineral waters, balneological group, carbonated waters, sulfide waters, silicon thermal waters, radon (radioactive) waters, waters enriched with organic substances.

Shifobaxsh mineral suvlar deganda, tabiiy manbalardan olinadigan va inson salomatligi uchun foydali kimyoviy tarkibga ega, faol mineral moddalarga boy bo'lgan suvlar tushuniladi. Ularning tarkibida turli xil minerallar, oltingugurt, karbonat angidrid, metall tuzlari va boshqa biologik moddalar mavjud. Ushbu mineral suvlar turli xil tasniflarga ajratiladi va ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

Mineral suvlarning ion tarkibiga asoslangan birinchi tasniflaridan biri V.S.Sodiqov tomonidan 1916-yilda nashr etilgan. U barcha mineral suvlarni, ulardagi ma'lum ionlarining tarkibiga qarab 49 ta guruhga ajratishni taklif qiladi.

1931-yilda N.S.Zvonitskiy qabul qilingan tamoyillarga asoslanib mineral suvlarni tasniflash sxemasini taklif etdi. Ushbu tasnif suvlarni ulardagi oltita asosiy ionlarning tarkibiga qarab bo'linishga asoslangan edi. 1932-yilda E.E.Karstens tomonidan ilgari surilgan fundamental prinsiplarga asoslanib, V.A.Aleksandrov mineral suvlarning tasniflashni taklif qildi. Uning taklifiga ko'ra barcha mineral suvlar ionli tarkibi, balneologik faol ionlarning mavjudligi va gaz tarkibiga ko'ra oltita sinfga bo'linadi.

Mineral suvlarni tavsiflash uchun keng qo'llaniladigan ba'zi modifikatsiyalar bilan yer osti suvlarining tasnifini 1964-yilda V.V.Ivanov va G.A.Nevraevlar ishlab chiqqan. Ushbu tasnifga ko'ra, barcha yer osti suvlari 7 ta balneologik guruhga bo'linadi.

1. A guruhi. "O'ziga xos" komponentlar va xossalarga ega bo'lmagan suvlar. Bu suvlarning shifobaxsh ta'siri faqat asosiy ion tarkibi va umumiy minerallashuvi bilan belgilanadi. Asosan azot va metanni o'z ichiga oladi, ular atmosfera bosimi sharoitida oz miqdorda erigan holatda uchraydi.

2. B guruhi. Karbonli suvlar. Suvlarning shifobaxsh ta'siri asosan suvda erigan karbonat angidridning katta miqdori bilan belgilanadi (95-100%). Ion tarkibi va minerallashuvi ham hisobga olinadi.

3. B guruhi. Sulfidli suvlar (vodorod sulfid). Ular suvda sulfidlar mavjudligi bilan ajralib turadi. Sulfidlarning tarkibi $10 \text{ mg} / \text{dm}^3$ dan kam bo'lmashligi kerak.

4. D guruhi. Temirli, mishyakli va tarkibida marganets, mis, alyuminiy va boshqa metallar ko'p bo'lgan suvlar. Temirli suvlar uchun $10 \text{ mg}/\text{dm}^3$ va mishyakli suvlar uchun $0,7 \text{ mg}/\text{dm}^3$ temir miqdori qo'shilgan suvlar uchun norma sifatida qabul qilinadi.

5. D guruhi. Bromli, yodli va organik moddalari yuqori suvlar. Brom va yod (yoki yod-brom) uchun Br qabul qilinadi - $25 \text{ mg}/\text{dm}^3$ va - $5 \text{ mg}/\text{dm}^3$, agar bu suvlarning minerallashuvi ularni ichimlik mineral suvlari sifatida ishlatishga imkon beradi (xloridli suvlar uchun odatda $12-15 \text{ mg}/\text{dm}^3$ dan oshmaydi). Suvning yuqori minerallashuvi bilan, agar chuchuk suv bilan kerakli mineralizatsiyaga suyultirilganda, ulardagi yod va brom miqdori belgilangan standartlardan past bo'lmasa, ularni bromid va yodid deb hisoblash mumkin. Ushbu tasnif bo'yicha shifobaxsh maqsadlar uchun organik moddalar tarkibining miqdoriy mezonlari taklif qilinmagan.

6. E guruhi. Radonli suvlar. Bunga tarkibida yuqori miqdorda radon bo'lgan suvlar kiradi – 185 Bk/dm^3 .

7. J guruhi. Kremniyli termal suvlar. Bu guruhga tarkibida 50 mg/dm^3 H_2SiO_3 bo'lgan 35°C dan yuqori haroratda uchraydigan kremniyli termal suvlar kiradi.

Shuningdek, mineral suvlar erigan gazlar tarkibiga ko'ra uch kichik guruhga bo'linadi:

A) azot, B) metan, C) karbonat angidrid.

Shu bilan birga, barcha mineral suvlar anion tarkibiga ko'ra besh sinfga va kationik tarkibiga ko'ra to'qqiz sinfga ham bo'linadi.

Mineral suvlar, ularning ta'siri ion tarkibi va minerallashuvi bilan belgilanadi. 2004-yilda Rossiya balneologiya ilmiy markazida mineral suvlarni sertifikatlash maqsadida mineral suvlarning tasnifini nashr etdi. Ushbu tasnif mineral suvlarning quyidagi asosiy guruhlarini belgilaydi:

1. Uglrodli suvlar.
2. Vodorod sulfidli suvlar.
3. Temirli suvlar.
4. Bromli, yodli va yod-bromli suvlar.
5. Kremniyli termal suvlar.
6. Tarkibida mishyakli suvlar.
7. Radonli (radioaktiv) suvlar.
8. Bor tarkibidagi suvlar.
9. Organik moddalar bilan boyitilgan suvlar.

Mineral suvlar guruhining har biri mineral suvlarning gidrokimyoviy turini aniqlaydigan ion-tuz tarkibidagi asosiy komponentlarning nisbati bo'yicha sinflar va kichik sinflarga bo'linadi.

Ular shuningdek, ichimlik suvlari, mineral suvlar, yer osti suvlari hamda shifobaxsh suvlarga ham ajratishimiz mumkin. Mineral suvlardan ichki foydalanishda minerallashuv bilan bir qatorda makrokomponentli ionli tarkibi muhim ahamiyatga ega ekanligini inobatga olib, barcha ichimlik mineral suvlari asosiy ionlar (Cl , SO_4 , NCO_3 , Na , Ca , Mg) birikmasiga ko'ra guruhlariga bo'linadi. Biologik faol (Br , I , N_3CO_3 , H_3SiO_3 va boshqalar), ko'p miqdorda o'ziga xos mikrokomponentlarni o'z ichiga olgan suvlar ma'lum guruhlar shaklida aniqlanadi. Kuchsiz minerallashgan ($M < 1 \text{ g/dm}^3$) tarkibida temir va organik moddalar bo'lgan suvlar uchun sinflar va kichik sinflar ajratilmaydi.

Har bir guruh ichida odatda eng mashhur suvlarning nomlari bilan belgilanadigan o'xshash ionli tarkibi va mineralizatsiyasi bilan birlashtirgan bir nechta xarakterli turlar aniqlanadi.

Shifobaxsh mineral suvlar (umumiy minerallashuvi $1,0$ dan $10,0 \text{ g/dm}^3$ gacha) past minerallashgan ($M 1,0-5,0 \text{ g/dm}^3$) $\text{NCO}_3 - \text{Na}$ va $\text{NCO}_3 - \text{Na} - \text{Ca}$ sinflaridan o'rtacha minerallashgan ($M 5,0-10,0 \text{ g/dm}^3$) $\text{Cl} - \text{NCO}_3 - \text{Na}$ i $\text{Cl} -$ sinflarigacha bo'lgan keng doiradagi yer osti suvlarini birlashtiradi. Mineral suvlari istemol uchun ishlatilganda shifobaxsh ta'sirga ega. Past mineralizatsiyaga ega bo'lgan shifobaxsh mineral suvlarini tizimli bo'lmagan holda istemol ichimliklari sifatida ishlatilishi

mumkin.

Ичимлик uchun shifobaxsh mineral suvlar minerallashuvi 10,0 dan 15,0 g/dm³ gacha (kamdan-kam hollarda yuqori minerallashuv), asosan sulfatli va xloridli sinflarga ega. Bor, mishyak, brom, yodning shifobaxsh jihatdan ahamiyatli konsentratsiyalari mavjud bo'lganda, shifobaxsh ichimlik suvlariga gidrokarbonat sinfidagi suvlar ham kiradi. Shifobaxsh ichimlik suvlari faqat shifokor tomonidan belgilangan dozada qo'llaniladi.

Doimiy istemoldagi mineral suvlar asosan gidrokarbonatlar sinfiga kiradi. Kationlar yer osti suvlarining gidrogeologik zonalanish tizimida suv olish joyining joylashishiga qarab turli xil birikmalarda kalsiy, magniy va natriyni o'z ichiga olishi mumkin. Mineral yer osti suvlari tabiiy ion-tuz tarkibini saqlab qolish uchun maxsus reagent suv bilan ishlov berilmagan holda, tabiiy shaklda sanoat idishlarini quyish uchun va dasturxonda ichimlik sifatida ishlatiladi.

Balneologik suvlar (tashqi foydalanish uchun) biologik faol gazlar (SO₂, H₂S, Rn), o'ziga xos mikrokomponentlar (Br, I, H₂SiO₃, HCO₃ va boshqalar) mavjudligi, umumiy minerallashuv darajasi va fizik xususiyatlari (harorat, radioaktivlik, atrof-muhit reaksiyasi) bilan tavsiflanadi. Ushbu suvlar uchun ion tarkibining xususiyatlari ichimlik suvi kabi muhim ahamiyatga ega emas. Bundan tashqari, mineralizatsiyasi 15-20 g / dm³ dan ortiq bo'lgan balneologik suvlar, qoida tariqasida, asosan natriy xlorid tarkibiga ega.

Yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichlar yig'indisi asosida tashqi foydalanish uchun ishlatiladigan mineral suvlarning 8 ta asosiy balneologik guruhi aniqlandi.

1. karbonat anhidrid;
2. vodorod sulfidi;
3. radon;
4. kremniyli termal;
5. brom, yod va yod-brom;
6. mishyak;
7. tarkibida metallar ko'p bo'lgan kislotali suvlar (Fe, Al va boshqalar);
8. shifobaxsh ta'siri asosan minerallashuv miqdori bilan belgilanadigan mineral suvlar.

Suvlarning balneologik guruhlari ionli tarkibi, minerallashuvi va boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha bir-biridan farq qiluvchi mineral suvlarning kichik guruhlari va turlariga bo'linadi. Suv turlarining nomlari, xuddi shifobaxsh ichimlik suvi kabi, har bir turdagi suvning eng mashhur vakillarining nomlari bilan berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Назаренко В.С. Назаренко О.В. Назаренко В.В. “Минеральные лечебные воды и грязи” Ростов-на-Дону. “ЦВВР” 2008. – 162 с.
2. Бедер Б.А., Салтейская Э.Я., Хасанов А.С. Минеральные и термальные воды. В монографии “Гидрогеология СССР. Узбекская ССР”, том XXXIX. “Недра”, М.:1971.
3. Zokirov A.Z. O'zbekistonning shifobaxsh resurslari va shifogoh maskanlari. Toshkent:, Ibn Sino; 1997.
4. Zokirov A.Z., Raxmonov K.R. O'zbekistonning shifobaxsh maskanlari. Toshkent:.. Ibn Sino; 1997.

Xudoynazarova Mavluda Abduvoxid qizi

“TIQXMMI” MTU ning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti o'qituvchisi. E-mail: mavludaxudoynazarova03@gmail.com

Suyunova Shaxlo Iskandar qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti tyutori, Toshkent, O'zbekiston. E-mail: suyunovashahlo200@gmail.com

BAXMAL TUMANINING IQLIMI VA ICHKI SUVLARI

Annotatsiya: Maqolada Baxmal tumanining iqlimi, yer osti va yer usti suvlari haqida ma'lumot berilgan. Tumandagi Sangzor daryosi va uning irmoqlari Guralash, Boyqo'ng'ir, Ko'kjar, Tangatopdi, Jo'm-jo'm, Baxmalsoy soylari va Qorovultepa amda Novqa suv omborlari yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: yer usti suvlar, ichki suvlar, daryo, irmoq, soy, suv ombor, komponent, havo massalari, iqlim, iqtisodiyot.

КЛИМАТ И ВНУТРЕННИЕ ВОДЫ БАХМАЛЬСКОГО РАЙОНА

Аннотация: В статье приведены сведения о подземных и поверхностных водах Бахмальского района. На территории района освещены река Сангзор и ее притоки Гуралаш, Бойконгур, Кокжар, Тангатопди, Джом-Джом, Бахмалсай, а также водохранилища Коровултепа и Новка.

Ключевые слова: поверхностные воды, внутренние воды, река, ручей, ручей, водоем, компонент, воздушные массы, климат, экономика.

CLIMATE AND INTERNAL WATERS OF THE BAKHMAL DISTRICT

Abstract: The article provides information about underground and surface waters of Bakhmal district. The Sangzor river and its tributaries Guralash, Boykongir, Kokjar, Tangatopdi, Jom-jom, Bakhmalsay streams and Qorovultepa and Novka reservoirs in the district have been illuminated.

Key words: surface waters, inland waters, river, stream, stream, reservoir, component, air masses, climate, economy

Tabiat va inson bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Kishilarning faoliyatida tabiiy sharoitni inobatga olgan holda amalga oshirilishi shart. Agar biz tabiat bilan hisoblashmas ekanmiz, jamiyatimiz tanazzulga yuz tutishi muqarrardir. Ushbu fikrlarni ishonch bilan ayta olishimizga sabab insoniyat ham tabiatning bir bo'lagidir, faqatgina boshqa komponentlardan farqli o'laroq biz bo'lmasak tabiatdagi jarayonlar o'z izmida davom etaveradi. Ammo tabiatning boshqa komponentlaridan birontasi o'zgarsa yoki yo'q bo'lsa tabiatdagi qonuniyatlar buziladi, yerimiz halokat yoqasiga kelib qoladi. Demak, tabiat bizsiz mavjud, biz tabiatsiz mavjud bo'la olmaymiz. Suv ham tabiatning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizning suv bilan ta'minlanganlik darajasi notekis hisoblanadi. Baxmal tumani ham suv bilan ta'minlanganlik darajasi murakkab hududlardan hisoblanadi.

Baxmal tumani Jizzax viloyatidagi eng janubiy tuman bo'lib, janubda Turkiston tog' tizmasi orqali Tojikiston Respublikasi bilan (81,34 km), g'arbda Samarqand viloyatining Bulung'ur tumani(30,86 km), shimolda G'allaorol(24,79 km) va Jizzax tumanlari(31,56 km), sharqda va shimoli-sharqda Morguzar tizmasi bo'ylab Zomin tumani(75,77 km) bilan chegaradoshdir. Tuman chegarasining

umumiy uzunligi 244.32 km bo‘lib, shundan 160.27 km Chumqor va Morguzar suvayirg‘ichlariga to‘g‘ri kelsa, qolgan 84.09 km esa adir va baland tekisliklarda to‘g‘ri keladi.

Baxmal tumani hududi asosan Turkiston tog‘ tizmasi davomi hisoblangan Chumqor va Morguzar (Molguzar) tog‘lari orasida, Sangzor vodiysida joylashgan, o‘ziga xos hududdir. Tuman iqlimining vujudga kelishida uning geografik o‘rni va u bilan bog‘liq quyosh radiatsiyasi; havo harakatlari, shamollar, relyef va yer yuzasining holati ta‘sir etadi.

Baxmal hududining janubiy qismi tog‘lar bilan o‘ralganligi tufayli iliq tropik havo massalarining kirib kelishiga to‘siq bo‘ladi. Aksincha, shimoli-g‘arbiy qismi ochiq bo‘lganligi sababli shimoldan, shimoli-g‘arbdan esuvchi sovuq havo massalari qishda ichkari tomon asta-sekin kirib keladi. Natijada bu havo massalari tog‘ oraliq botiqlarida, vodiylarida, tekisliklarda, uzoq muddat turib qoladi.

Baxmal hududining iqlimi kontinental iqlim bo‘lib, yozi quruq va issiq, qishi u qadar sovuq bo‘lmaydi. Havoning o‘rtacha ko‘p yillik harorati 12.8°C ni tashkil etadi. Yanvarning o‘rtacha harorati -3.7° C ga teng bo‘lib, mutloq minimal harorat -14.8°C gacha pasayadi.

Eng issiq oy iyul oyi bo‘lib o‘rtacha oylik harorat 27° C, tog‘li qismida 15°C. Mutloq maksimal harorat 42° C ga teng. Tuman adir va tog‘lardan iborat bo‘lganligi sababli, yoz oylarida boshqa hududlarga nisbatan ancha salqin bo‘ladi. Havoning o‘rtacha yillik nisbiy namligi 46 % ga teng. Hududning o‘rtacha yillik yog‘in miqdori 300-700 mm ni tashkil etsa, tog‘larning g‘arbiy havo massalariga qaragan yonbag‘irlarida 600-700 mm, uning teskari qismlarida va berk botiq hududlarida 250-354 mm ga yetadi. O‘lka hududida yog‘inning ko‘p qismi bahor (41-48%) va qish oylariga (34-43%) va kam qismi yoz oylariga (2-5%) to‘g‘ri keladi.

Sovuqsiz kunlarning davomiyligi 188 kun davom etadi. Qor qoplami hosil bo‘lish vaqti 25-noyabrda. Qor qoplaminin erishi 16-martga to‘g‘ri keladi.

Tumanda sharqiy, janubi-sharqiy va shimoli-g‘arbiy yo‘nalishdagi tog‘-vodiy shamollari hukmronlik qiladi.

Baxmal tumanida kuchsiz va o‘rtacha (sekundiga 5 metr) shamollar shimoli-sharqiy yo‘nalishda esadi. Shamolning eng kichik tezligi 2.4 m/sek bo‘lib, janubi-sharqiy va janubi-g‘arbiy shamollarga tegishlidir. Eng yuqori tezligi esa 3.1 m/sek . Yil davomidagi o‘rtacha tezlik 2.7 m/sek ni tashkil etadi. Tog‘li qismlarida esa shamolning o‘rtacha tezligi 2-3.2 m/s ni tashkil etadi. Bir yilda kuchli shamollar bo‘ladigan kunlar miqdori 11 kunni tashkil etib, asosan qish va bahor oylariga to‘g‘ri keladi.

Tuman iqlimi nisbatan ko‘p miqdordagi yog‘inlar, qisqaroq issiq yoz va ancha davomiyli sovuq davr bilan tavsiflanadi.

“Sangzor” metostansiyasining ma‘lumotlari bo‘yicha havoning o‘rtacha yillik harorati bu yerda 10.3° C ni , eng yuqori havo harorati 37°C, eng past harorat -22.6° C ni tashkil etadi. O‘rtacha yillik yog‘in miqdori 443 mm ni tashkil etib, ko‘p qismi (394mm) asosan noyabr-may oylarida yog‘adi. Yoz, kuz oylarida juda kam miqdorda yog‘adi. Havoning o‘rtacha yillik nisbiy namligi 53% ni tashkil etadi.

Kuzgi birinchi sovuq tushishi 29-sentabrga, bahorgi so‘ngi sovuq tushishi 13-aprelga to‘g‘ri keladi. Qor qoplaminin hosil bo‘lishi 1-noyabrga, qor qoplaminin erishi esa 14-aprelga to‘g‘ri keladi. qor qoplaminin o‘rtacha yillik qalinligi 33 sm ni

tashkil etadi. Tuproqning muzlash qoplami unchalik qalin emas. O'rtacha 21 sm ga yetadi.

Atmosfera yog'inlarining miqdorining ko'pligi, samarali haroratlar yig'indisining 2000°C dan ortiqligi, unumdor tuproqlarning mavjudligi kabi bir qancha omillar boshqoqli va poliz ekinlari yetishtirishga bog' va uzumzorlar bunyod etishga imkon beradi.

Baxmal tumani turli xil gidrografik sharoitga ega. Daryolari asosan Chumqor tog'ining shimoliy yonbag'irlaridan va Morguzar tog'larining janubiy yonbag'irlaridan boshlanadi. Tumanning o'rtacha yillik oqimi moduli hududning mutloq balandligiga, uning orografiyasiga va iqlimiga bog'liq.

Turkiston tizmasining shimoliy qismidagi daryolarning oqim miqdori har bir kv km maydondan 3.3 l/s dan 11.7 l/s gacha ortib boradi (A.Saidov, O.Hazratqulov 1974 yil). Tuman daryolari suv sathining ko'tarilishi asosan bahor oylariga to'g'ri keladi. Ba'zida jala yog'ishi, sellarning hosil bo'lishi daryolar suv sathining ko'tarilishiga sabab bo'ladi.

Tumanning yirik Sangzor daryosi Chumqor tog'ining shimoliy yonbag'ri va Morguzar tog'larining janubiy yonbag'irlaridagi keng Sangzor vodiysi bo'ylab oqadi. Sangzor daryosi mutlaq balandligi 3100 metr bo'lgan Chumqor tog'larining shimoliy yonbag'irlaridan oqib tushuvchi Guralash va Jontaka daryolarining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Daryoning umumiy uzunligi 123 km, o'rtacha ko'p yillik suv sarfi Gulqishloq yaqinida 1.7 m³/s ni tashkil etadi.

Sangzor daryosi qor-yomg'ir suvlaridan to'yinadigan daryolar toifasiga kiradi. Yanvar-fevral oylarida daryo suvi kamayib, mart oyidan boshlab tog'lardagi qorlarning erishidan, bahor yomg'irlaridan daryo suvi ko'payib boradi. Daryo suv sarfining eng ko'payishi aprel oyiga to'g'ri kelsa, keskin kamayishi sentyabr oyidan boshlanadi.

Sangzor daryosi 2 ta to'lin suv davriga ega.

Birinchi to'lin suv davri tog'larning etaklaridagi qorlarning jadal erishi ro'y beradigan aprel oyiga to'g'ri keladi.

Ikkinchi to'lin suv davri nisbatan kuchsiz bo'lib iyul oyida Turkiston tizmasining baland qismlaridagi qor va muzlarning erishi bilan bog'liqdir.

Daryoning o'rtacha oylik maksimal suv sarfi iyul oylarida 12-23 m³/sek gacha oraliqda kuzatiladi. Minimal suv sarfi qish oylarida 1.71-3.18 m³/sek bo'lib kuzatiladi. Daryoning o'rtacha yillik suv sarfi 5.1dan 21 m³/sek gacha oraliqda o'zgaradi. O'rtacha ko'p yillik suv sarfi 15.7 m³/sek. Sangzor daryosining suv oqimining enliligi 10-15 metr, oqim tezligi 0.8-2.0 m/sek.

Sangzor daryosining chap irmoqlaridan hisoblangan Guralash, Boyqo'ng'ir, Ko'kjar, Tangatopdi, Jo'm-jo'm, Baxmalsoy soylari qor va bahorgi yomg'ir suvlaridan to'yinadi. Daryolari ma'lum havzalarga quyilmasdan, tekislikkka chiqqach butunlay sug'orishga sarflanadi. Qayir qalinligi 30 metrdan ortiq bo'lgan shag'al toshlar bilan qoplangan. Suvu tiniq va chuchuk, qorlarning erish va sug'orish davrida esa lyossimon jinslarning yuvilishi hisobiga juda loyqa.

Chumqortog'ning shimoliy yonbag'ri Sangzor botig'ining umumiy orografiyasi qulayligidan (botiqning g'arbiy nam olib keluvchi g'arbiy havo massalariga ochiqligi) Jizzax viloyatidagi eng ko'p namlik oladigan rayon hisoblanadi. Namliklar asosan yog'inlar olib keladi. Tog' yonbag'irlaridagi yog'inlar

tog' etaklarida buloqlar ko'rinishida sizib chiqadi. Ularning debiti katta bo'lmasada sutka davomida oqib turishi sababli ko'pgina jilg'alarining to'yinish manbai hisoblanadi. Shunga bog'liq holda rayonning gidrografik to'ri yaxshi rivojlangan. [7]

Hozirgi kunda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash asosan yer osti suvlari hisobiga amalga oshirilmoqda. Tuman hududida mineral tuzlarga to'yingan, shifobaxsh buloqlar mavjud.

Hududda shag'allarning suv o'tkazuvchanligi yuqori emas. Aniqlangan skvajinalarda 3.3 l/sek dan 9.0 l/sek gacha o'zgaradi. Shag'allar filtratsiyasi koeffitsentlarining kattaligi 25l/ sutkadan 60 l/sutkagacha tebranadi.

Suvi chuchuk 0.5 g/l gacha zich qoldiq kattalikda bo'ladi. Suv tipi bo'yicha gidrokorbonat-sulfat, kalsiyli-magniyli. Daryo vodiylari grunt suvlarining to'yinishi yuqori va qisman o'rta qismida tog'lardan yer osti suvlari hisobiga, shuningdek daryo oqimi infiltratsiyasi hisobiga hosil bo'ladi.

To'rtlamchi davr prolyuvial qatlamlarining nam saqlaydigan kompleksi ichki tog' botiqlarida keng tarqalgan. Sangzor daryosi vodiysining daryoning shimolga keskin burilishidan janubi-sharqda joylashgan qismida yer osti suvlari o'rta to'rtlamchi davr shag'allari va qumoqlariga to'g'ri keladi.

Sangzor daryosi yuqori qismlarida buloqlar sarfi 30-50 l/sek ga yetadi. Ularning suvi chuchuk 0.5 g/l gacha gidrokorbanatli-sulfat kalsiyli-magniyli. Karbonat qatlam yer osti suvlari Turkiston tizmasi va Morguzar tog'larining unchalik katta bo'lmagan hududlarida tarqalgan.

Suv saqlaydigan jinslar chuqur yoriqlar oltingugurtli tarqalgan ohaktosh va marmarlar hisoblanadi. Ular devorlarining ishqorda yuvilishi hisobiga kengaymoqda, bu suvning katta chuqurlikka yetib borishiga imkon beradi. Qumli slanetsli qatlamlarning yer osti suvlari rayonning tog' tizmalari doirasida deyarli barcha hududlarda tarqalgan. Suv saqlaydigan jinslar – slanetslar, alohida vaziyatda qumoqlar hisoblanadi. Yoriqli zona odatda 40-60 m dan oshmaydi. Yer osti suvlarining yotish chuqurligi relyefning parchalanganlik holatiga bog'liq. Yer osti suvlarining minerallashuvi 0.5 g/l gacha. Ularning tipi gidrokorbanatli-sulfat, kalsiyli-magniyli.

Tuman hududida Qorovultepa (36 mln m³) va Novqa (6 mln m³) suv omborlarining ishga tushirilishi bilan sug'orma dehqonchilik rivojlandi va xalq xo'jaligi taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

